

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: ILG'OR TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

2023 yil 11-noyabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**SIRDARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: ILG‘OR
TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**



2023 yil 11-noyabr

Ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: ilg'or tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.—Guliston, Sirdaryo viloyat PYMO‘MM.

Ushbu konferensiya to‘plamida Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi tomonidan tashkil etilgan — *“Ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: ilg'or tajribalar va rivojlanish istiqbollari”* mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan. Mazkur respublika ilmiy-amaliy anjumanda ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari asosida ilg'or tajribalarining ilmiy nazariy asoslari, ta'lim tizimini rivojlantirishdagi metodik ta'minot va uning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llari, ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari asosida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan holatlar va vaziyatlar tahlili, ta'lim tizimini rivojlantirishda STEAM texnologiyasining o‘rni, ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish usullariga oid tajribalar bo‘yicha to‘plangan materiallar joy olgan. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, umumta'lim maktab o‘qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Mas‘ul muharrir: markaz direktori v.v.b pedagogika fanlari bo‘yicha PhD, dotsent **G.Berdaliyeva**

Tahrir hay‘ati: **B.A.Atayeva**— SVPYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası mudiri v.v.b
Sh.S.Boychayeva—SVPYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası katta o‘qituvchisi
M.P. Kulaxmetova—SVPYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası katta o‘qituvchisi
A. Uralov – SVPYMO‘MM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha PhD
G.P.Isayeva Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
O.Shirinov— SVPYMO‘MM Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri
A.Nizamov — SVPYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası mudiri

Taqrizchilar: **A. Uralov** – SVPYMO‘MM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha PhD
G.P. Isayeva— Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil ____o‘tkazilgan onli yig‘ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘uldir.

© SVPYMO‘MM, 2023

SO'Z BOSHI

“Bizning maqsadimiz–O‘zbekistonni jadal islohotlar, ilm-fan, ta’lim va innovatsiyalar orqali erishish mumkin bo‘lgan rivojlangan davlatga aylantirish!”

Shavkat Mirziyoyev

Barchamizga ma'lumki, “2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” PF – 134-sonli Prezident farmoni e'lon qilindi. Bu farmonga ko'ra yangi dasturlar ishlab chiqish, ta'lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollarini belgilab olish masalalari yetakchi vazifa qilib belgilangan. XXI asr fen-texnika, axborotlashtirish asri bo'lishligi bilan bugungi jadallashib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo'yilgan rejalarning natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 25-yanvar kuni “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–4963-sonli qarorni imzolandi.

Qarorga ko'ra, xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birgalikda, an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etiladi. Uzluksiz ta'limni modernizatsiyalash orqali o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan Farmon va qarorlar ana shu dolzarb masalalarga jiddiy yondashishga ko'mak beradi.

Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta'lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta'lim bizning nafaqat bilim va ko'nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Bugungi kundagi ta'lim faqatgina kurs va leksiyalar to'plamidangina iborat emas. Endilikda u mustaqil ta'lim, elektron texnologiyalar va dars o'tishning

ilg'or metodikalari konsepsiyasini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda o'quvchilar axborot olish va uni samarali o'zlashtirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganib olishdi.

Zamonaviy ta'lim dunyodagi tinimsiz o'zgarishlarga ko'nikkan, turli muammo va to'siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta'lim o'quvchilarni nafaqat amaliy ko'nikmalar bilan, balki o'quvchilarga bugungi kunda zarur bo'lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv texnikalari bilan ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv-tarbiya jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ya'ni ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning an'anaviy metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta'lim boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu nafaqat boshqaruv muammolari, balki ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirish asosida, eng avvalo, ta'lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlarini aniqlash, zamonaviy yondashuvlar asosida muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Markaz direktori G.A.Berdaliyeva

1-SHO'BA. TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI ASOSIDA ILG'OR TAJRIBALARINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ

Гаффаров Азизбек Муҳаммадсаидович,

А.Авлоний номидаги илмий тадқиқот институтининг Худудлар билан
ишлаш бўлими бошлиғи

АННОТАЦИЯ.

Мақолада педагогларнинг малакасини оширишда мустақил таълимни ташкил этиш шакллари, педагогларнинг ўқитиш фаолиятини амалга ошириши учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни, касбий компетенцияларни ривожлантириш тўғрисида маълумотлар келтирилган.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о формах организации самостоятельного обучения в процессе повышения квалификации педагогов, профессиональной компетентности знаниях и навыках, необходимых для осуществления педагогической деятельности

ANNOTATION

The article provides information on the forms of organization of independent learning in the process of professional development of teachers, professional competence, knowledge and skills necessary for the implementation of pedagogical activities

Маълумки, ҳар бир мамлакатнинг юксалиши, ривожланиши ёки аксинча, инқирозга юз тутиши ўша мамлакатдаги таълим тизимининг қай даражада ривожланганлигига боғлиқдир. Ҳозирда янгиланаётган жамият учун ҳамда эркинлашаётган иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий муносабатлар учун, аввало, шу сифатларга мос тарзда фаолият кўрсатишга қодир таълим тизими зарур. Шунинг учун ҳам таълим тизимига Ўзбекистон Республикаси ижтимоий тараққиёти соҳасида устувор йуналиш деб ёндашилади.

Мустақил таълим шахснинг қобилиятлари ва ўзига хосликларини ривожлантиришга йўналтирилган, инсоннинг ўз ихтиёри билан амалга ошириладиган, ўзи томонидан бошқариладиган ва касбий фазилатларни такомиллаштириш учун зарур бўлган фаолиятларини бирлаштиради. Мустақил таълим, аввало, ихтиёрийлиги ва изчиллиги билан тавсифланади ҳамда узлуксиз педагогик таълим ғоясини амалга оширишнинг энг муҳим шартларидан ҳисобланади.

Мустақил таълимнинг зарурияти, бир томондан, ўқитувчи фаолиятининг хусусиятлари, унинг ижтимоий моҳияти, иккинчи томондан, педагог меҳнатининг доимий ўзгаришдаги шароитлари, жамият эҳтиёжлари, фан ва амалиётнинг ривожини, инсон шахсига, унинг ижтимоий жараёнлар ва вазиятларнинг алмашинувига нисбатан тез ва мутаносиб жавоб бера олиш қобилияти, ўз фаолиятини қайта қуришга, янги ва мураккаброқ муаммоларни моҳирлик билан ҳал қила олишга тайёрлигига нисбатан ортиб бораётган талаблар билан боғлиқ узлуксиз таълимнинг мавжуд ҳолати ва анъаналари билан изоҳланади.

Мустақил таълимнинг мазмуни педагогнинг билим олишга интилиши, узлуксиз таълим воситасида ўзини-ўзи англашига ортиб бораётган эҳтиёжини қаноатлантиришида ифодаланади.

Мустақил таълим деганда ақлий меҳнат техникаси ва маданиятини эгаллаш, муаммоларни бартараф қилиш, ўз-ўзини такомиллаштириш, шу жумладан, касбий ривожлантира олиш кўникмалари тушунилади.

Мустақил таълимнинг асосий тамойиллари: узлуксизлик, мақсадга йўналганлик, умумий ва касбий маданиятнинг уйғунлиги, ўзаро боғлиқлик ва бардавонлик, илгарилаб бориш тавсифдалиги, паст даражадан олий даражага ўсишга интилиш, турфа хиллик ва бошқалардан иборат.

Мустақил таълимнинг функциялари:

фэктенсив –янги билимларни тўплаш, эгаллаш.

Аниқловчи – ўзини таълим маконида ва жамиятдаги ўрнини аниқлаш.

Тўлдирувчи – билимдаги камчиликларни бартараф этиш, умумий маданиятдаги «оқ доғлар»ни йўқотиш.

Ўз-ўзини ривожлантириш – ўз-ўзини англаш, хотира, фикрлаш, нутқ, рефлексив қобилиятларни ривожлантириш ва бошқалар.

Методологик – дунёнинг тимсолини шакллантириш, ўзининг дунёдаги ўрни, касбий мавжудлик йўлини белгилаш.

Коммуникатив – фанлараро, мутахассисликлар ва ёшлараро алоқаларни ўрнатиш.

Ижодкорлик – фаолиятни кўшимча аниқлаш, ижодкорлик даражасигача юксалтириш.

Ёшартириш – ўзининг одатий фикрлашини ўзгартириш, касбий ўсишдаги турғунликнинг олдини олиш.

Психотерапевтик – ҳаётининг энергияни, шахсий қудратни, ҳаётнинг тўлақонли хис этишни сақлаб қолиш.

Геронтологик – атрофдаги олам билан алоқаларни сақлаб қолиш, организмнинг яшашга чидамлилигини мустаҳкамлаш.

Мустақил таълим фаолиятини ташкил қилиш технологиялари:

Педагогларнинг мустақил таълимни ташкил этиш технологияси куйидаги босқичлардан иборат тарзда ифодаланиши мумкин:

1 босқич – йўналтириш (созлаш).

Бу мустақил иш учун муайян муносабатни яратишни назарда тутати; мактабнинг илмий ва услубий мавзусига (муаммосига) мос келадиган иш мақсадларини танлаш; шахсий мавзунини шакллантириш, ўз ҳаракатлари кетма-кетлигини тушуниш.

2 босқич – ўқиш.

Ушбу босқичда педагог танланган таълим муаммоси бўйича психологик, педагогик ва методик адабиётлар билан танишади.

3 босқич – амалий.

Ушбу босқичда педагогик фактлар тўпланади, уларни сараланади ва таҳлил қилинади, янги иш услубларини синалади ва тажрибалар ўтказилади. Амалий ишлар адабиётларни ўрганиш билан биргаликда олиб борилади.

4 босқич – назарий.

Ушбу босқичда тўпланган педагогик фактлар мушоҳада ва таҳлил қилинади, умумлаштирилади. Ушбу босқичда ўқилган педагогик адабиётларни жамоавий муҳокама қилиш; методбирлашма ёки кафедранинг йиғилишларида мустақил таълимнинг бориши бўйича ижодий ҳисоботларни тинглаш; очиқ дарслар муҳокамаси ва бошқа жамоавий иш шакллари тавсия этилади.

5 босқич – якуний синов.

Ушбу босқичда педагог ўз мустақил ишининг натижаларини аниқлаши, кузатишларни умумлаштириши, натижаларни расмийлаштириши лозим. Бунда, энг асосийси, амалга оширилган ишларни, аниқланган фактлар ва уларнинг таҳлилини ёзиш, натижаларни назарий асослаш, умумий хулосаларни тузиш ва ишнинг истиқболини белгилашдир.

Педагогнинг мустақил таълим фаолияти тизими қуйидагиларни назарда тутати: жорий ва узоқ муддатли режалаштириш; ахборотни ўзлаштириш ва сақлашнинг оқилона шакллари ҳамда воситаларини танлаш; ўзининг ва жамоанинг педагогик тажрибасини таҳлил қилиш усулларини ва умумлаштириш йўллари эгаллаш; тадқиқот ва амалиёт фаолияти усулларини босқичма-босқич ўзлаштириш.

Ўқитувчининг ўзини ўзи бошқариш режасида қуйидагилар бўлиши шарт:

- ўрганилиши режалаштирилган адабиётлар рўйхати;
- мустақил таълим шакллари;
- ишни якунлаш муддати;
- кутилаётган натижалар (маъруза тайёрлаш ва методбирлашма йиғилишида тақдим қилиш; ҳар бир дарсни режалаштириш; иш тажрибасини ёзиш, натижаларни ҳисобот тарзида шакллантириш ва ҳ.к.).

Мустақил таълимнинг турли хил шакллари мавжуд бўлиб, бунда асосий эътибор тингловчининг берилган мавзулар (топшириқлар)ни

мустақил равишда бажариши, ўқиб ўрганиши, шу йўналиш бўйича билимларини чуқурлаштириб, амалий кўникмаларини мустаҳкамлашга қаратилади. Замонавий, компетентли ўқитувчининг маҳорати тингловчига фақат дарсликда мавжуд билимни бериш билан эмас балки, уларни мустақил, онгли равишда ўз устида ишлашга, эркин ва мантиқан фикрлашга, қарашларини гуруҳ жамоаси олдида ҳимоя қилишга ўргатиши билан баҳоланади. Чунки глобллашув жараёнида ахборотлар оқимининг тез суръатлар билан кенгайиб бораётганлиги, фан ва техника тараққиётида бўлаётган ўзгаришлар, янгиликлар, тингловчиларнинг ахборот коммуникация технологияларидан саводхонлик даражасининг ошиб бориши барча маълумотларни фақат дарс жараёнида улар онгига сингдириш имкониятини бермайди. Ушбу масалани оптимал ҳал этишнинг асосий шакли мустақил таълим ҳисобланади.

Мустақил таълим жараёнида тўпланган материалларни алоҳида мавзуларга ажратиш ва уларни алоҳида карталар, маҳсус дафтарлар, ноутбуклар, мавзули папкалар ва шахсий педагогик кундаликлар шаклида сақлаш тавсия этилади. Адабий манбалар билан ишлаш кўникмалари мустақил таълим жараёнида муҳим аҳамият касб этади: кўчирмалар қилиш, ўқилганларни конспект қилиш, қисқача баён қилиш, батафсил режа ёки аннотация тузиш.

Педагогик фаолиятни таҳлил қилиш ва ўзини ўзи баҳолаш жараёнида, шунингдек, шахсий ривожланиш дастурини ишлаб чиқиш, уни амалга ошириш ва натижаларни мониторинг қилишда маъмуриятнинг иштироки муҳим аҳамиятга эга. Мутахассисларни ўқитувчи, синф раҳбари билан ҳамкорлик қилиш, мураббийлик, маслаҳат бериш, шахсий ишни оқилона ташкил қилишга жалб қилиш, педагогнинг олган билимларини жорий этиш, тажриба ва тадқиқот ишлари учун шароитларни яратиш, инновацион ўзгаришларни амалга оширишга жалб қилиш – раҳбарнинг педагогга нисбатан амалга оширадиган ташкилий-педагогик тадбирларининг тўлиқ бўлмаган рўйхатини ташкил қилади.

Барча вазифаларни бажариш учун раҳбарнинг ўзи ҳам мунтазам равишда мустақил таълим билан шуғулланиши керак. Муҳими, фақатгина вужудга келадиган ва қизиқтираётган муаммолар доирасини тўғри белгилаш ва саралаш, ўқиш учун адабиётни танлаш эмас, балки, олинган билимларни амалиётда қўллаш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Мактаб директори ва ўринбосарлари мустақил таълимнинг натижалари педагогик жамоа аъзоларига маълум қилиниши, бошқарувни такомиллаштириш ва умуман мактабнинг ҳаётий фаолиятига самарали таъсир кўрсатиши керак. Маъмуриятнинг вазифаси – педагогни бутун ҳаёти давомида ўқитиш эмас, балки мустақил таълимни қандай амалга оширишга ўргатишдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003.
2. Гаргай В.Б. Повышение квалификации учителей в США и Великобритании: интерактивная модель. //Педагогика. - №8. - 2004 - С.
3. Ильина Н.Ф. Раскрытие инновационного потенциала педагога в ходе непрерывного образования. //Инновации в образовании. - № 9 - 2010.
4. Калинникова Н.Г. Непрерывное педагогическое образование как парадигма /Высшее образование и мировая культура— №3 2005

UZLUKSIZLIK – TA'LIMNI TADQIQ QILISHNING METODOLOGIK TAMOIILI SIFATIDA

*Бердалиева Гуласал Абдуқундузовна,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,
УзПФИТИ мустақил изланувчиси*

Ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги босқичида муҳим глобал муаммо сифатида таълимнинг узлуксизлигини кўрсатиш мумкин.

Унинг қайси соҳаси, инсонни ўқитиш, тарбиялаш, ривожлантиришнинг қайси томонлари кўриб чиқилмасин, барчага ва ҳамма вақт таълим олиш зарурми ва бу кимга керак, жамиятга ёки шахсга? деган саволга жавоб бериш зарурати туғилади. Яна ҳам аниқроғи, “бутун умрга таълим” ёки “бутун умр давомида таълим” концепциясининг қайси бирига амал қилиш керак? Бу саволларга жавоб бермасдан туриб, таълим олдида турган: янги ижтимоий-иқтисодий шароитларда нима учун, нимага ва қандай ўқитиш керак? каби муаммоларни ҳам ҳал қилиб бўлмайди.

Ф.И.Перегудовнинг “Аниқки, динамик дунёни қотиб қолган таълим тизими орқали мос равишда акс эттириш мумкин эмас – таълим оддий қайта ишлаш тизими бўлиши мумкин эмас, у ривожланадиган ва узлуксиз бўлиши лозим” деган фикрини қабул қиламиз. [1].

Таълимнинг узлуксизлиги ғояси XX асрнинг иккинчи ярмидан таълим ислохотларининг асосий ғояларидан бири бўлиб қолган, у инсон тафаккурининг унинг шахсий потенциалини, касбий имкониятларини маданиятлилик, ахлоқлилик, профессионализм, ўз-ўзини ҳаётда тўлиқ амалга ошириш идеаллари билан мос равишда доимий бойитишга бўлган интилишини тасдиқлайдиган янги парадигмаси бўлиб майдонга чиққан.

П.Г.Щедровицкий кўрсатиб ўтадики, таълимнинг узлуксизлиги ғояси ўтган асрнинг 60-йилларнинг охири – 70-йилларнинг бошига келиб жаҳоннинг кўпчилик давлатларида асосий ғоявий ва ташкилий-амалий кўрсатма бўлиб қолган. Бунда узлуксиз таълим ғоясининг пайдо бўлиши ва ривожланишининг ўзи мавжуд таълим дастурларига муҳолиф бўлиб

қолган, чунончи, а) “таълимни автономлаштириш” (таълимни фақат “автоном” таълим муассасаларига кўчириш) ва б) таълимни “махсус” тайёргарлик амалга ошириладиган ишлаб чиқариш масалаларига бўйсундириш [2].

Таълимнинг узлуксизлиги муаммосини ҳал қилишнинг объектив зарурати нимадан келиб чиқди? Бу саволга жавобни бир қатор бошланғич ҳолатларни аниқлашдан бошлаш лозим.

Мадомики, олдимизда узлуксиз педагогик таълимнинг концептуал қоидаларини шакллантириш вазифаси турган экан, таълим узлуксизлигининг феномен сифатидаги мавжуд тушунчасини кўриб чиқишдан бошлаш мантиқан тўғридир. Авваламбор, билишнинг объекти ва предметини ва уларнинг тавсифларини бўлақларга бўлиб чиқиш лозим. Объект деб биз “узлуксиз таълимни”, предмет деб эса “таълимнинг узлуксизлиги” тушунчасини аниқлашга бўлган мавжуд қарашлар ва ёндашувларни ҳисоблаймиз.

Таълимнинг узлуксизлиги феноменига эътибор қаратган илк олимлардан бири Г.П.Зинченко таъкидлаганки, яқин ўтмишгача, узлуксиз таълим муаммоси тушунча шаклида эмас, балки ғоя шаклида тушунилган. Муаллиф узлуксиз таълим феноменининг тушунчадан концепцияга ва концепциядан тушунчага ривожланиш диалектикасини кўриб чиқар экан, унинг шаклланишида тўрт босқич ажралиб чиқишини белгилаб ўтган. Биринчиси – таъкидловчи, бунда узлуксиз таълим катталар таълимининг мустақил таълим ва бошқа шаклларида фарқли бўлган қандайдир бошқа нарсалигини тушуниш юз беради. Феноменологик босқичда узлуксиз таълим феноменини таърифлашга, уни реалистик баҳолашга, асосий қоидаларини тартибга солишга ҳаракат қилинади. Методологик босқичда узлуксиз таълим концепциясининг ядроси ишлаб чиқилади. “Назарий экламписия ва аниқлаштириш босқичида концепцияни ишлаб чиқиш шаклланаётган узлуксиз таълим тизимининг барча асосий бўғинларига қўлланган ҳолда амалга оширилади”. [59].

Узлуксиз таълимнинг муҳим хусусиятларига диққатни қаратган ҳолда П.Г.Щедровицкий шундай ёзади: “Узлуксиз таълим билан бўлган ҳолатда биз таълим ва таълим олганлик соҳасидан бутунлай бошқа қоидалар амалда бўлган бошқа соҳага чиққандаймиз”. [201].

М.И.Арнаутов ва Н.К.Сергеевлар таъкидлаганларидек, ҳақиқатдан ҳам узлуксиз таълимнинг субъекти таълим тизими эмас, шахсдир. Шахснинг ўзи эса, узлуксиз ижтимоий-маданий ва субъектли-шахсли жараён сифатида тушуниладиган узлуксиз таълимнинг шарофати билан тўлақонли бўлиб шаклланади. [21]. Бу субъектли-шахсли жараёни А.М.Новиков учта субъектга нисбатан очиқ беради.

1. *Шахсга*. Бу ҳолда узлуксиз таълим инсон доимий ўқишини билдиради. Бунда одам ёки таълим муассасасида ўқийди ёки мустақил таълим билан шуғулланади. Инсоннинг таълим маконидаги ҳаракатининг

учта вектори бўлиши мумкин. Биринчидан, инсон бир формал таълим даражасида қолган ҳолда ўзининг касбий малакасини такомиллаштириши мумкин (“олдинга ҳаракат” вектори). Иккинчидан, кетма-кет касбий поғоналар ва босқичлар бўйича кўтарилиши ёки қайсидир поғоналар ва босқичларни ўтказиб юбориши мумкин (“Юқорига ҳаракат вектори”). Учинчидан, таълимнинг узлуксизлиги, таълим йўналишини нафақат давом эттиришни, балки уни ўзгартиришнинг имкониятини ҳам кўзда тутати (“горизонтал, ён томонга ҳаракат вектори”).

2. *Таълим жараёнига* (таълим дастурига). Таълим жараёнида узлуксизлик – шахснинг ўзи ривожланишининг барча босқичларида бу жараёнга қўшилганлигининг тавсифи сифатида намоён бўлади. У таълим жараёни мазмунининг узвийлигини ўзининг бир турдан иккинчисига, бир ҳаётий босқичдан бошқасига ўтишида ҳам тавсифлайди.

3. *Таълим муассасасига*. Бу ҳолда узлуксизлик таълим муассасалари тармоғи, таълим дастурлари ва уларнинг ўзаро алоқаларининг шундай номенклатурасини тавсифлайдики, у заруриятлилик ва етарлилик билан, таълим дастурларининг ўзаро алоқалари ва узвийлигини таъминлайдиган, умуман жамиятда ҳам, алоҳида ҳудудда ҳам ва ҳар бир инсонда ҳам пайдо бўладиган таълим эҳтиёжларини қондириш имкониятига эга бўлган таълим хизматлари маконини яратади [122].

Чунончи, А.М.Новиковнинг фикрича, узлуксиз касбий таълимнинг тизим ташкил қилувчи мезони сифатида бир бутунлик, яъни элементларнинг механик бирлашуви эмас, балки барча тизимни ташкил қилувчилар ва таълим жараёнларининг чуқур интеграцияси юзага чиқади.

М.В.Кларин ҳам узлуксиз таълимда шахсга йўналганликка урғу беради: “Узлуксиз таълимни кенг тарқалган шаклда тушунишда, ушбу тизим бўғинларининг узвийлиги олдинги режага чиқарилади. Шахсга марказлаштирилганлик ҳолатида, унинг шахс дунёсидаги узлуксизлигига – таълим воситалари орқали шахснинг ўз интилишларини амалга ошириш, ўз-ўзини малака оширишини амалга ошириш имконини берадиган нарсага урғу берилади. Айни вақтда у инновацион ижтимоий-маданий лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш воситаси бўлиб ҳам чиқади...” [74].

Баъзи тадқиқотчилар бундан бошқачароқ нуқтаи назарни илгари сурадилар. Улар, касбий фаолиятга тайёргарликнинг ҳар бир даражасида таълимнинг тугалланганлиги узлуксиз таълим тизимининг тамойилларидан бири деб ҳисоблайдилар. Тугалланганлик, бир томондан меҳнат фаолиятига жадал киришиш учун зарур бўлган касбий компетентлик даражасини, иккинчи томондан кейинги касбий такомиллашувга бўлган барқарор эҳтиёжни таъминлайди. [3].

Фикримизча, ҳар бир босқич ёки поғонада “таълимнинг нисбатан тугалланганлиги” тушунчаси ўта муҳимдир. Ҳақиқатан ҳам, ҳар қандай узлуксизлик дискретлик орқали кечади – бу фалсафий ҳақиқатдир. Лекин узлуксиз таълимда дискретликни айнан фалсафий тушуниш – бу нисбий

тугалланганликнинг ўзидир. Бу лаҳзани ушлаб олиш ва формаллаштириш анча мураккаб бўлиб, бу борада доимий мунозаралар олиб борилади.

Ҳозирги кунда педагогик таълим тизимида узлуксизлик тамойилининг қанчалик тўлиқ амалга ошираётганлигини тушуниш учун узлуксиз таълимнинг ўзи нима деган саволнинг моҳиятига мурожаат қилиш лозим. Бу саволга жавоб бера туриб, авваламбор, бу соҳадаги ишларнинг жуда кўплигига қарамай, ҳозирги кунда узлуксиз таълимнинг ягона назариясининг ҳанузгача йўқлигини таъкидлашга тўғри келади.

В.В.Арнаутов ва Н.К.Сергеевларнинг назариянинг ўрнида ҳозирчалик биз “бир томондан, хорижий гуманистик психология ва педагогиканинг концепциялари ва тажрибаси таъсири остида шаклланган ғоялар, ёндашувлар мажмуасига, ва иккинчи томондан, ишлаб чиқаришнинг ривожланиши ҳамда унда иштирок этувчиларнинг ўқимишлилигининг ошиши ўртасидаги алоқани кўрсатувчи технократик, прагматик ёндашув”га эгамиз, деб таъкидлашларига рози бўлмасликнинг иложи йўқ.

Бошқача қилиб айтганда, узлуксиз таълим назарияси бир томондан, шахсга йўналтирилган педагогик тамойилларнинг методологик синтези, иккинчи томондан, “инсон капитали” ва “билимлар иқтисодиёти” тамойиллари сифатида шаклланади.

Замонавий фикрлар таҳлили натижасида педагогик таълимда узлуксизлик тамойилини талқин қилишга бўлган бир қанча нисбатан мустақил бўлган ёндашувларни ажратиб олиш мумкин. Биринчи ёндашув, фикримизча, педагогик таълимда узлуксизлик тамойилининг ички моҳиятини тўлиқ ва аниқ акс эттиради ва у узлуксиз педагогик таълимни формал (институционал) таълим ва ноформал (мустақил) таълимнинг бирлиги сифатида, педагогни, унинг шахсини ва касбий моҳирлигини мустақил узлуксиз ривожлантириши учун кенг шароитлар яратиш сифатида талқин қилади.

“Педагогик таълимнинг мақсади янги типдаги педагогнинг узлуксиз умумий ва касбий ривожланиши сифатида талқин қилинади” деган қоидадан келиб чиқилса, бу ҳолда бу мақсадни амалга ошириш авваламбор, “педагогга узлуксиз педагогик таълим ва мустақил таълим ҳолатида бўлиш имконини берадиган шароитлар тизimini яратишни” кўзда тутати.

Иккинчи ёндашув узлуксиз педагогик таълим моҳиятини янада чуқурроқ ва бутунроқ тушунтиришга даъво қилади. Бу нуқтаи назардан таълимнинг узлуксизлиги умумий кўринишда таълим тизими элементларининг бир бутун, ривожланаётган шахсга йўналганлигидан иборатлигини кўрсатади. [4].

“Бир бутун шахс - узлуксиз таълим” мантиқий боғланмаси анчагина мантиқийга ўхшайди, лекин бизнинг фикримизча, ушбу ёндашув доираларида таълимнинг узлуксизлиги тамойили шахсга йўналганлик тамойили билан аралашиб кетади. Қачонки гап “ҳар бир кишига унинг

индивидуаллигини ҳисобга олган ҳолда таълим йўналишини таъминлаб бериш” ҳақида бораётган бўлса, узлуксиз таълимнинг мақсади анчагина мавҳум бўлиб кўринади ва уни конструктив планда ёйиш имконини бермайди.

Шунинг учун, шахсга йўналтирилган таълим тамойилининг тарафдорлари, педагогик таълимнинг узлуксизлиги тушунчасига бўлган иккинчи ёндашувни торроқ деб ҳисоблайдилар ва “таълим жараёни бутунлиги, унинг барча босқичларининг, поғоналарининг интеграллашганлиги, уларнинг таълимнинг бош устуворлиги – шахсга йўналтирилганлиги маъносида узлуксизликни бошқача талқин қилиш зарур” деб ҳисоблайдилар.

Бизнинг тадқиқотимиз доирасида педагогик таълим узлуксизлигининг Г.А.Алферова томонидан қилинган талқини қизиқарлидир. У узлуксиз таълим тамойилини “педагог шахсининг касбий фаолиятида ўзини ўзи малакасини ошириши мақсадида ўзини ўзгартиришга йўналтирилган фаолиятини ўзи ташкил қилиши зарурлигининг ички ишончи” сифатида тушуниш лозим деб таъкидлайди. [5].

Шундай қилиб, “шахсга йўналтирилган таълим” ва “тушунчалар нисбати” тўғрисидаги масала уларни ўхшатиш фойдасига эмас, балки иккинчисининг биринчисига бўйсунуши фойдасига ҳал бўлади. Бошқача қилиб айтганда, “шахсга йўналтирилган таълим” тушунчаси таълим мақсадини аниқлайди, “узлуксиз таълим” эса бу мақсадга қайси восита билан эришишни кўрсатади.

Узлуксиз педагогик таълимни шахсга йўналтирилган таълимга ўхшатиш эса узлуксизлик тамойилини жуда мавҳум ва таълим амалиёти учун қўлланилишини қийин қилиб қўяди.

Учинчи ёндашув – педагогик таълимнинг узлуксизлигини унинг узвийлиги билан, унинг алоҳида босқичларида узилишларнинг бўлмаслиги билан тенглаштиради. Бу ёндашув доирасида умумий ўрта таълим ва олий таълим муассасасидаги педагогик таълимнинг “узвийлиги ва узлуксизлиги” тўғрисидаги масала қўйилади.

Бунда турли вариантлар таклиф этилади: “узлуксиз педагогик таълим муаммосининг “умумий ўрта таълим — олий таълим муассасаси” тизимида ечилиши”; ёки “узлуксиз таълим мажмуаларининг... марказида олий таълим муассасалари бўлган турли хилдаги ҳудудий таълим тизимларининг” яратилиши. Бу ҳолда узлуксизлик тамойилининг моҳияти амалиётда унинг мумкин бўлган шакллари билан бирининг пайдо бўлишига бориб тақалади.

Тўртинчи ёндашув педагогик таълимнинг узлуксизлигини унинг мослашувчанлигига ўхшатади. Бу ерда “доимий ўзгарадиган ижтимоий-иқтисодий муҳитда ўқитувчилик фаолиятига узлуксиз тайёрлаш” масаласи “таълим жараёни субъектларининг шахсий ва индивидуал-ижодий салоҳиятини ривожлантиришга бўлган узлуксиз ўзгарадиган талабларга

тезкор жавоб бериш зарурати” [6] билан боғлиқ диққат марказида туради. Фикримизча, мослашувчанлик, узлуксиз таълимнинг мақсади сифатида диққатга сазовордир, лекин амалда бундай ёндашув ўзининг бир томонлилиги ва ҳатто маълум даражада соддалашганлигини кўрсатади.

Бешинчи ёндашув педагогни тайёрлашда узлуксиз педагогик таълимни умумий ва касбий компонентларнинг бирлигига тенглаштиради, у эса ижтимоийлаштириш ва касбийлаштириш мақсадларининг бирлигини, шахсий ва касбий сифатларнинг, педагогнинг асосий, негизли ва функционал компетентлигининг ривожланишини таъминлашга қаратилгандир.

Узлуксиз таълимга катталарнинг касбий таълимини умумий таълим билан биргаликда қўшилган тизим сифатида қарашнинг пайдо бўлиши, педагогик таълимни кўпбосқичли тизимга ўтиши муаммосини ишлаб чиқишнинг муҳимлигига эътиборни қаратди. Бу ёндашув олий ва ўрта махсус педагогик таълим шароитларида ўзининг келажак ривожига эга. Педагог кадрлар узлуксиз касбий ривожланиш тизимига келсак, бу ёндашувдан фойдаланиш чеклангандир.

Хулоса қилиб, педагогик таълимда узлуксизлик тамойилининг моҳиятини қуйидагича талқин қилишни таклиф этамиз.

Узлуксиз педагогик таълим – ўзида педагогнинг касбий-шахсий ривожланишининг узлуксизлигини таъминлаш учун шароитлар тизимини акс эттирган, педагогик таълимнинг шахсга йўналтирилган парадигмасини амалга оширишнинг етакчи воситаларидан бири. У касбий-педагогик тайёргарлик ва малака оширишнинг барча босқичларининг узвийлиги; формал ва ноформал касбий-педагогик мустақил таълимнинг бирлиги; умумий (умуммаданий, умумривожлантирувчи) ва касбий-педагогик таълимнинг бирлиги; ўзгарувчан ҳаёт шароитларига мос равишда педагогик таълим тизимининг барча элементларини узлуксиз янгилашни ўз ичига олади.

Шундай қилиб, узлуксиз таълимнинг концептуал тамойиллари мақсадлар, таълим мазмуни, ташкилий тузилмалар ва педагогик технологияларнинг узвийлигини аниқлайди. Бошқача қилиб айтганда, узлуксиз таълим назарияси замонавий таълим методологияси сифатида шаклланади.

Адабиётлар:

5. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации национальной программы по подготовке кадров). Дисс. ...докт. пед. наук. -Ташкент, 2005. 311 с.

6. De Souza C.S., Preece J. (2004). A framework for analyzing and understanding online communities. *Interacting with Computers, The Interdisciplinary Journal of Human-Computer Interaction*, 16 (3), 579-610.

7. Змеев С.И. Андрагогика: основы теории, истории и технологии обучения взрослых. – М.: ПЕР СЭ, 2007. – 272 с.

8. Арнаутов В. В., Сергеев Н. К. История и современное состояние непрерывного педагогического образования// Преподаватель. 2001. №2. С. 4-

9. Микула О.И. Информационно-технологическое обеспечение учебного процесса в высшей школе //Межвузовский сборник научно-практических трудов. Выпуск 2. Научное издание. - Ставрополь: ЗАО «Пресса», 2004. -160 с.

10. Махмудов А. Х., Анарбаева Ф. У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – С. 476.

ANALITIK SHAKLLARDA NOMUTANOSIBLIK

Uralov Azamat Begnarovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Morfem birliklarning murakkab shakllar doirasidagi nomutanosibliklari haligacha fanda to'liq isbotini topgan emas. Ijtimoiy ong hamda tafakkurda olamning lisoniy manzarasi tobora kengayib borishi bilan til tarixining har bir sinxron bosqichida mazmunning ifoda imkoniyatlari ham davrga mos tarzda mukammallashib boradi. Turkiy tillar va o'zbek tili tarixida ayrim sintetik shakllar o'rniga analitik shakllar, ayniqsa, ko'makchi fe'llarning faollashganligi qo'shma affikslarga o'xshash, biroq mustaqil til birligi – analitik shakllarni yuzaga keltirgan.

Tildagi bunday o'zgarishlar ma'lum ma'noda fanga kiritilishi, shuningdek, ularning o'rne va mavqeyini belgilash lozim. Analitik shakllar tashqi tomondan maylga, ravishdoshga, sifatdoshga o'xshash shakllar bilan mustaqil so'zga o'xshash birliklar (ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'llar) birikividan tashkil topgan murakkab shakllardir. Chunki analitik shakl tarkibida ravishdosh va sifatdosh o'z vazifasini bajarmaydi va shaklni asosga bog'lash, tutashtirish rolini o'taydi. Analitik shaklning ikkinchi qismi bo'lib keladigan mustaqil so'zga o'xshash birliklar (ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'llar)ni fe'llik, umuman, so'z vazifasi yo'qolgan bo'ladi. Agar (o'qib chiqmoqda *-chiqning*) *chiq* fe'lini mustaqil so'z deb olsak, mustaqil so'zning uchta talabini bajarishi lozim. Ko'makchi fe'llar esa, mustaqil ma'no anglatmaydi, so'roqqa javob bo'lmaydi, gapda mustaqil vazifa bajarmaydi. Shu sababli bunday birliklarni vazifadosh ko'makchi deb nomlash to'g'ri bo'ladi. Masalaning ikkinchi tomoni analitik shakllar yaxlit bir ko'rinishda asosga qo'shilib kelishini inobatga olib, morfologik shakllar deb yuritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki analitik shakllar tarkibidagi ko'makchi fe'llar endi affiksoidlarga o'xshab, affiksga tortilgan birliklardir.

Umuman olganda, tadqiqot doirasida bizga analitik shakllarning nomlanishi, ifodalanishi, til tizimidagi ayni damdagi o'rnini aniqlash emas, balki morfologik shakl sifatida nomutanosiblikni yuzaga keltiradimi, yo'qmi masalasiga javob topishdan iborat.

-gi kel shakli. Bizga ma'lum bo'lgan til kishilik jamiyati taraqqiyoti ehtiyojlariga moslashib, boyib boradigan hozirjavob tizim bo'lganligidan uning sinxron tizimida avvalgi davr birliklari ham turli vazifalarda yashashda davom etadi. Diaxron jihatdan qadimgi turkiy til va eski o'zbek tilida juda faol qo'llangan *-gi*, *-gu* (hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi) qo'shimchasi keyingi davrlarda faolligini yo'qotib, ba'zi shakllar tarkibiga singib ketgan. Ana shunday shakllardan biri *borgim keldi*, *o'qigim keladi*, *aytgim keladi* ko'rinishlaridagi *-gi kel-* analitik shaklidir. *Borgim*, *o'qigim*, *aytgim* kabi so'z shakllarida murakkablashgan *-gim* (*-gum*) affiksi – yaxlit birlik hosil qilgan. Analitik shakllarning birinchi – kuchsiz qismi murakkab shakllardan ham paydo bo'lishi mumkin. Bunda kelasi zamon sifatdoshining shaxs-son bilan soddalashuvi yuz beradi va yaxlitlashib murakkab shaklni paydo qiladi. Natijada ikki shaklning soddalashuvi bir shaklga o'tadi mazmun esa ikkitaligicha saqlanib qolib, nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. *Ayt+gu+m keldi* – *ayt+gim keldi*, *ayt+gu+si keldi* – *ayt+gisi keldi* misollaridagi analitik shakllarning orasida boshqa shakllarning o'rinlashuvi oldin murakkablashuv, keyin soddalashuvni yuzaga chiqaradi.

A.Yuldashevning ko'rsatishicha, *-gi kel-* shakli *achchig'i kel*(moq) ko'rinishidagi ot yasalmalarga sezuv-tuyg'u fe'llari yasashdagi o'xshashligi asosida yuzaga keladi¹. Ixtiyorsiz istak bildiruvchi fe'l shakllarini hosil qiluvchi (uyqusi kelmoq, aytgisi kelmoq) *-gi kel-* analitik shakl qolipi muntazam qolipga aylanadi. Aslida, *-gi kel-* shakli ham yuqorida qayd etilgan *mening borgim keladi* ko'rinishidagi qurilmalarning keyingi qisqarishidan paydo bo'ladi: qaratqich kelishigidagi so'z bosh kelishik shakliga ko'chadi, ega esa keyingi fe'l so'z bilan kesimga aylanadi. Shunisi ham muhimki, – *borgim keladi*, *borging keladi*, *borgisi keladi*, *borgimiz keladi*, *borgingiz keladi*, *borgilari keladi* qurilmalaridagi egalik qo'shimchalari analitik shaklning (*-gi kel-*) o'rtasiga qo'shib qoladi, bu qo'shimchalar otga xoslik belgilarini yo'qotib, fe'l shakllari – tuslovchi maqomini oladi. Shu o'rinda analitik shaklning ikkinchi qismidagi *-adi* shakli mavqeyiga ham oydinlik kiritish zarur. Deyarli barcha grammatika va ilmiy ishlarda *-adi* shakli fe'lining III shaxs birligi shakli deb ko'rsatiladi (oldingi bo'limda ochiqlangan). Shu qurilmada egalik qo'shimchalari tuslovchilar vazifasini bajarib, tegishli shaxs-son ma'nosini ham vujudga keltiradi. Bu o'rinda *-adi* shaklida *-a* hozirgi-kelasi zamon ma'nosini bildiradi, *-di* esa aslida *turur* fe'lining qoldiq shakli bo'lib, shaxs-son kategoriyasiga biror darajada aloqador emasdek. Qiyoslang: *borgisi kela turur* > *borgisi keladur* > *borgisi keladi*. Demak, III shaxsda shaxs-son nol morfema orqali ifodalanadi.

¹ Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. – М.: Наука, 1965. – С. 103.

Boshqa turkiy tillarda esa *turur* shaklining qisqarishi yanada chuqurlashgan: qirg'iz tilida *bargisi kelet*. Tatar tilida esa tamomila tushib qoladi: *barg'isi kela*. Shuni aytish kerakki, *kela turur, kelet, kela* shakllarining hammasi (*keladi* shakli ham, aslida, III shaxsni ifodalaydi, bu *-di* (tururning qisqargan shakli): *bor, kel* – sen (II shaxs); *bordi, keldi* – u (III shaxs) kabi. *-di* affiksining xabar maylini ifodalashi, uchinchi shaxsini bildirib kelishi kabi xususiyatlari alohida tadqiqotni talab qiladi.

-(i)b o't-. *Aytib o'tdi, ko'rib o'tdi, gapirib o'tdi* singari sintagmalarga faol ishtirok etadigan *-(i)b o't-* analitik shakli ikki qismdan: *-(i)b* va *o'tmoq* qismlaridan tashkil topgan. Shakllanish nuqtayi nazardan *-(i)b* ravishdoshi va *o'tmoq* fe'lidan hosil bo'lgan. Analitik shakl tarkibida ravishdosh o'z ma'no va vazifasini batamom yo'qotgan bo'lib, ikkinchi qismni asosga biriktirish uchun o'rinlashgan. Shaklning ikkinchi qismi hisoblangan *o'tmoq* fe'li ham harkatlanish, yurish (bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga qarab yo'nalish) mazmunini batamom yo'qotgan, natijada mavjud bo'lgan bir shakl mazmunsiz qiymat ifodalash holatiga tushgan. Bu esa *o'tmoq* fe'lga nisbatan 1:0 ko'rinishdagi nomutanosiblikni yuzaga keltirgan. Ikki shaklning analitik yaxlitlashuvi sintagmada bir mazmun ifodalash bosqichiga tushgan (bu esa 2:1 nisbatda nomutanosiblik sodir bo'ldi degani) va so'z (asos)ga ta'kid mazmuni beruvchi, sintagmaning davomini asosga bog'lovchi birlikka aylangan. Natijada ikki shakl murakkablashib (soddalashuv yo'li bilan), bitta murakkab shakl – analitik shakl hosil bo'lgan. Bunday shakllarning hosil bo'lishi bugun paydo bo'lgan emas, taraqqiyot tilda ham o'z ifodasini topgani kabi morfem birliklar ham o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. (Avvalgi bo'limda morfemalar taraqqiyoti haqida to'xtalganmiz.)

Turkiy tillarda, shuningdek, o'zbek tilida analitik shakllar qadimdan keng tarqalgan hodisa bo'lgan. B.A.Serebrennikov, I.Z.Gadjiyevaning qayd etishicha, tarz, tus nomi bilan ham yuritiluvchi ko'makchi fe'llarning hosil bo'lishi turkiy bobo tilning alohida tillarga bo'linishi (farqlanishi) davriga to'g'ri keladi². Bu holat esa ayni shakllarning turkiy bobo til davridayoq mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi. Demak, analitik shakllar tarixan mavjud bo'lib, bugungi kun nuqtayi nazardan ham amalda qo'llanmoqda.

Fe'l analitik shakllari turkiy tillarda qadimdan keng tarqalganligini hisobga olib, O.Byotlingkdan boshlab bu xil shakllarga fe'lning perifrastik shakllari termini qo'llangan bo'lsa, 1965-yili A.A.Yuldashevning “Аналитические формы глагола” nomli kitobi nashr etilgach, ikkinchi termin (analitik shakl) ham keng qo'llana boshlandi. Analitik shakl hosil qiluvchi fe'llar turkiy tillarda miqdor jihatidan turlicha. D.M.Nasilov maxsus tadqiqotlar tahlili, lug'at va grammatikalar asosida qadimgi turkiy til yodgorliklarida yigirmata, o'zbek va qoraqalpoq tillarida yigirma yettita, tatar tilida yigirma to'qqizta, tuva va yoqut

² Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. – М.;1988. – С. 444.

tillarida yigirmaga yaqin, turk tilida o'n beshtacha ko'makchi fe'llarni qayd etgan³.

1963-yili Sankt-Peterburg (Leningrad) shahrida ikki yirik konferensiya o'tkazildi. Bu konferensiya so'z va uning tuzilishi, so'zning grammatik shakllari va ularning o'zaro nisbatiga bag'ishlangan edi. Birinchi yig'in "Turli tipdagi tillarda analitik konstruksiyalar", ikkinchisi esa "Turli tipdagi tillarda so'zning morfologik strukturasi" deb nomlangan⁴. Ana shu konferensiyalardan so'ng umumiy tilshunoslik yo'nalishida analiz, analitizm, sintez va sintetizm, analitik va sintetik shakl terminlari va tushunchalari turli tillarning materiallariga tatbiq etildi. Jumladan, o'zbek tilida ham bu borada anchagina ishlar qilindi.

O'zbek tilshunosligida fundamental tadqiqot sifatida A. Hojiyevning "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar" (1966), "O'zbek tilida to'liqsiz fe'l" (1970), "Fe'l" (1973) kitoblarining nashr etilishi muhim hodisa bo'ldi. Bu asarlarda fe'l so'z turkumi doirasidagi ko'makchi fe'llar va edi to'liqsiz fe'lining ma'nolari, vazifalari sinxron jihatdan atroflicha yoritildi. Olim o'zbek tilida o'ttizdan ortiq ko'makchi fe'llar borligini qayd etdi va ularni ma'no farqlarini ko'rsatib berdi.

-y ket- shakli. O'zbek tili morfologik shakllar tizimida murakkab shakllarning analitik shakllar turi ancha keng tarqalgan. Ular orasida *o'ylay ketdi*, *o'qiy ketdi*, *so'zlay ketdi* sintagmalaridagi *-y ket-* analitik shakli ham mavjud. Harakatning davomiyligini, to'xtamay bajarilayotganligini ifodalashga xizmat qiladigan bu analitik shakl tarkibi ikki qismdan iborat (har qanday analitik shakl tarkibi doimo ikki qismdan iborat bo'ladi). Birinchi qism *-y ravishdosh* shakli, istak mayli shakli, ikkinchi qismi *ketmoq* fe'lining mazmunini beruvchi shakl. Birinchi qismda ravishdoshlik vazifasini yo'qotgan *-y* shaklida istak mayli o'z mavqeyini saqlab qolgan. Ko'p vazifalilikdan bir ma'nolilikka o'tgan. Natijada shaklning mazmun anglatish jihati susayib, ma'noga nisbatan nomutanosiblik yuzaga kelgan: 1:2 ko'rinishidan 1:1 ko'rinishiga kelgan. Ilgari ikkita mazmunga xizmat qilayotgan bir shakl endilikda bir mazmun ifodalaydigan bo'lib qolgan. Ikkinchi qismi *ketmoq* fe'li bilan ifodalangan. Analitik shakl tarkibida *ketmoq* fe'lining mazmuni batamom yo'qolib, mazmun anglatmaydigan qismga aylanib, analitik shaklning asosiy vazifasini bajaruvchi birlikka aylangan. Natijada ma'no anglatish vazifasidan mahrum bo'lgan shakl 1:0 qiymatda ma'nosiz qismga aylangan. Demak, *ketmoq* fe'li shakl jihatdan bor bo'lib, mazmun jihatdan qiymatga ega bo'lmay qolishi shakl va mazmun nomutanosibligini ko'rsatadi. Natijada ikki birlik (*-y ravishdoshi* va *ketmoq fe'li*) yaxlitlanib analitik shaklni hosil qilgan: *-y ket-* – talabalar testlarni ishlay *ketdi*, ustoz ma'ruzani o'qiy *ketdi* kabi. Endi hosil bo'lgan analitik shakl ilgari ifodalagan mazmunlariga nisbatan nomutanosib bo'lib qoldi. Shuningdek, ikki

³ Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Глагол). – Л., 1981. – С.135. Yana qarang: Насилов Д.М. Формы выражения способов глагольного действия в алтайских языках. В кн.: «Очерки сравнительной морфологии алтайских языков». – Л., 1978. – С. 88 – 177.

⁴ Аналитические конструкции в языках различных типов. – Л., 1963; Морфологическая структура слова в языках различных типов. – М. – Л., 1963.

shakl bir mazmunga xizmat qilish holati bilan 2:1 ko'rinishida yangi nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

N.A.Baskakov analitik va sintetik grammatik shakllarni so'zning morfologik taraqqiyotidagi bosqichlar sifatida tavsif etdi: "Turkiy tillarda so'zning morfologik taraqqiyoti jarayonlari erkin so'z birikmalarining uzluksiz grammatikalizatsiyasi bilan bog'liq tendensiyani aks ettiradi: mustaqil so'zlar birikuvidagi ikkinchi (postpozitsion) qism ma'nosi mavhumlashadi; so'ng mustaqil so'zning boshqa o'rinda mustaqil ma'nosini saqlovchi yordamchi so'z bilan birikuvini yuzaga keladi; navbatdagi bosqichda ikkinchi qism mustaqil ma'nosini yo'qotib, analitik grammatik shaklga, va nihoyat, postpozitsion komponent morfemaga – muayyan grammatik ma'no ifodalovchi affiksga aylanadi"⁵. Murakkab shakllarning vujudga kelishi morfologik taraqqiyot jarayoni bilan bog'liq. Birinchi qism ma'nosining sustlashuvi natijasida ikkinchi qismga ehtiyoj ortadi. Keyinchalik har ikki qism bir ma'noni ifodalash uchun murakkablashadi hamda shaklga nisbatan ma'no nomutanosibligiga uchraydi.

-a ol- shakli. Analitik shakllarning oziga xos jihati asosga to'g'ridan to'g'ri qo'shila olishida. Shuningdek, asosdan anglashilgan mazmunni boyitadi. *Gapira olmoq, ayta olmoq, tushuntira olmoq* kabi sintagmalarda *-a ol-* analitik shakli ishlatilgan bo'lib, *gapirmoq* fe'liga to'g'ridan to'g'ri birikib ketmoqda. *-a ol-* analitik shakli ham ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, birinchi qismida *-a ravishdoshi* o'z vazifasini yo'qotgan va u endi analitik shakllarning birinchi qismi bo'lib kela oladi: *-a ol-, -a ber-, -a boshla-, -a kel-, -a ket-, -a ko'r-, -a qol-, -a tur-, -a chiq-, -a bil-, -a yoz-, -a sol-* kabi. Ikkinchi qismi *olmoq* fe'li bilan ifodalangan, natijada fe'lining o'z mazmunini yo'qotishi evaziga shakl tarkibiga birikkan. Endilikda *olmoq* fe'lining mazmunini beruvchi shakl ko'makchilik vazifasini bajarishga to'g'ri keladi. Analitik shaklning har ikki qismi ham o'z mazmunini yo'qotib, 1:1 nisbatdan 1:0 nisbatda nomutanosib ko'rinishdagi ma'nosiz shakllarga aylangan. *Olmoq* fe'lining mazmun yo'qotishi ya'ni ko'makchi fe'l maqomini olishi boshqa analitik shakllarda ham qo'llanish imkonini beradi: *ko'rib olmoq, ayta olmoq* singari. *-a ol-* analitik shakli ikki qismdan tashkil topib, bir mazmunga xizmat qilishi nomutanosiblikning 2:1 nisbatdagi ko'rinishini ifodalaydi.

Analitik shakllarning tilda o'z mavqeyi va o'rni bor. So'z tarkibida ma'lim tartiblar asosida shakllangan analitik shakllar ma'lum bir qolip asosida yuzaga keladi. Turkiy tillar, o'zbek tilida morfemalarning o'rinlashish tartibi ham o'ziga xos bo'lib, ular muayyan tur morfositagmalar hosil qiladi. Ularning birikuvini sintagmatik birliklar – so'z birikmasi va gap tuzilishiga o'xshash bo'lib, izomorfizm xususiyatiga ega: aniq ma'no ifodalovchi birliklar prepozitsiyada joylashsa, nisbatan mavhum ma'no ifodalovchi birliklar postpozitsiyada joylashadi: bu qonuniyatga binoan o'zak morfema so'z yasovchi morfemalardan

⁵ Баскаков Н.А. Аналитические и синтетические грамматические формы-степени морфологического развития слова (на материале тюркских языков) /Аналитические конструкции в языках различных типов. –Л.,1963. – С. 18 – 19.

oldin, o'z navbatida, so'z yasovchi morfemalar funksional so'z yasovchilardan, funksional so'z yasovchilar esa so'z o'zgartiruvchi affikslardan oldin joylashadi⁶. Demak, bu o'rinlashishda aniq ma'no ifodalovchi morfemalar so'z boshidan oxiriga qarab o'zaro nisbatda "aniqlik-mavhumlik" oppozitsiyasi asosida joylasha boradi. Shu jihatdan o'rinlashgan morfemalarning eng so'nggisi nisbatan kuchliroq va muhimroqdir. Analitik shakllarning so'zshakl so'ngida emas, asosdan keyingi birinchi shakl bo'lib qo'shilishi ularning sintagma tarkibida "jiddiy" o'rinlashishiga asos bo'ladi.

Nomutanosiblik asosida morfemikada hosil bo'lgan qo'shma affikslar, kengaygan shakllar, analitik va sintetik formantlarda tarixan "ikkilik" – binarlik zidligi turlicha ko'rinish olgan. Qo'shma affikslar ikki va undan ortiq tashkil etuvchining funksional-semantik yaxlitlashishidan paydo bo'lgan (*o'qi+yapman*, *ayt+ingiz*); kengaygan shakllar esa qo'shma affiks qismlarining yangi birliklarga aylanish jarayonini o'tkazgan (*boribon* – *bor+ibon* – *borib+on*: *-on* morfemasi go'yo morfologik qayta bo'lingan); analitik shakllarda ikki birlikning ikkinchisi mustaqil holatda qo'llanmaydi, ammo mustaqil ko'rinishdagi shakl bilan ifodalanadi: *yiqila yozdi* birikmasidagi *-a yoz-* formanti ham mustaqil sintagmatik qo'llanish qobiliyatiga ega emas. Agarda ikkinchi qism mustaqil holatda qo'llansa, analitik shakl tarkibidagi mavqeyi bilan emas, asl mazmun mavqeyi bilan ishlatiladi.

Analitik shakllar ma'lum bir model asosida yaratiladi: ravishdosh+ko'makchi fe'l, sifatdosh+ko'makchi fe'l kabi. Analitik shakllarda tashkil etuvchi qismlardan ikkinchi qism ma'nosi dolzarb (aktual) bo'lib, birinchi qism o'z ma'no qiymatini yo'qotgan bo'lsa-da, asos va ko'makchi morfemani biriktirish, tutashtirishdek funksional qiymatini saqlab qolgan: *-a qol-*: kela qol; *-a tur-*: ko'ra tur; *-(i)b chiq-*: o'qib chiq qo'shilmalarida ravishdoshning *-a*, *-(i)b* affikslari analitik shaklda asosiy semantik qiymatini yo'qotish darajasiga yetgan. Buni yuqoridagi va quyidagi misollarda ham kuzatishimiz mumkin. Ushbu tip shakllarni modellashtirish, birinchi navbatda, ular tarkibidagi tashkil etuvchi qismlarni vazifa-ma'no qiymati, so'ng esa ularning tashqi tomoni – fonetik-fonologik, morfonologik belgilarini umumlashtirish, invariant birliklarni aniqlash asosida amalga oshiriladi. Shu sababdan, model tushunchasini til strukturasi nazariyasi, tor ma'noda til amal qilishining mexanizmi yoki tuzilma (struktura)ning semiotik o'xshashi (analogi) kabi tavsiflash mumkin⁷.

Deskriptiv tilshunoslikda binarlik prinsipi asosida so'z va morfemalarning alohidalik (diskretlik) xususiyati belgilandi. Struktur tilshunoslik asoschilaridan biri L. Blumfeldning qayd etishicha, murakkab morfologik qurilishga ega bo'lgan tillarda konstruksiyalar ierarxiyasini kuzatish mumkin: kompleks tuzilgan – ko'p morfemali so'zda uning tarkibiy qismlari, affikslar, modifikatorlar muayyan tartibda qo'shiladi, ko'p qavatli qurilmalarning

⁶ Баскаков Н.А. Историко-типологическая морфология тюркских языков. – М.; 1979. – С. 71.

⁷ Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. – М.; 1974. – С. 257.

qismlarga bo'linishi oddiy, binar tamoyil asosida borishi kerak. Bu binarlik ma'lum til va modellar doirasida aniq bir model ko'rinishini aks ettirishi zarur⁸. Shu jihatdan morfologik shakllar orasida analitik shakllar modeli ancha faol va bu mavjud model asosida ish ko'radi.

Struktur tilshunoslikning boshqa bir yirik vakili Y. Naydaning yozishicha, bevosita tashkil etuvchi qismlarning qatlamlanishi tartibini belgilashda til tizimidagi asosiy modellarni doimo e'tiborda tutish lozim⁹. Binar tuzilmalar paradigmatic qatorlar – invariant birliklarni aniqlab bersa, bu tuzilmalar tarkibidagi elementlarning nutqiy voqelanish – sintagmatik joylashuvi asosiy qism va yo'ldosh qism, markaziy va marginal pozitsiyalarning zidligi (Y.Kurilovich), doimiy qism hamda o'zgaruvchi qism kabi belgilanishi mumkin¹⁰.

Til tizimining turli sathlarida doimiy tarzda yuz beruvchi funksional-semantik siljishlar, fonomorfologik o'zgarishlar morfemalararo chegaraning o'zgarishi, qayta belgilanishiga olib keladi. Natijada nomutanosiblik yangi morfemalar, yangi til birliklarining hosil bo'lishiga imkon yaratadi. Bu o'rinda morfemalar tizimida amal qiluvchi funksional-semantik chegaralarni to'g'ri belgilash katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Fe'llardagi analitik shakllar ana shunday chegaraga ega bo'lib, ayrim birliklarni shakllanishi ancha qadimiyroqdir: *-gudek qil-* analitik shakli.

***-gudek qil-* shakli.** O'lgudek qildi, qaytgudek qildi, tayyorlagudek qildi sintagmalarida ishtirok etayotgan bu analitik shaklning birinchi qismi nisbatan arxaikdir. Tilning mazmun sathida yuz berayotgan o'zgarishlar morfemalararo chegaralarning ham qayta belgilanishiga olib keladi. Eng muhim xususiyatlardan biri shundaki, ularning ma'no-vazifasini, qaysi kategoriyaga taalluqli ekanligini aniqlashda, haqiqatan ham qiyinchilik tug'iladi. Chunki hozirgi o'zbek tilidagi *-guday*, *-gudek* (arziguday bahona, maqtaguday ko'rk, o'lguday qo'pol, yeb qo'ygudek tikilmok, borguday bo'lmoq) qo'shimchasi sifat, ravish, ravishdoshga xos belgilarga ega bo'lib, tadqiqotchilar uni ravish yasovchi (A.M.Borovkov, Z.M.Ma'rufov) deb baholaydilar. A.Hojiyevning ko'rsatishicha, *-gudek* shaklida ravishdoshlarga xos belgi kuchliroq bo'lsa ham, uni "umuman belgi bildirishga xoslangan" shakl deyish mumkin¹¹. Bizningcha, *-gudek* shaklini ravish yasovchi affiks deb qarash o'rinli bo'ladi.

-gudek/-guday shakllari kelasi-zamon sifatdosh shakli *-gu* hamda o'xshatish-qiyoslash ma'nosini bildiruvchi *-tek//dek*, *-day* shakllarining yaxlitlanishidan hosil bo'lgan;¹² *-gu* shakli faol qo'llangan davrda bu shakllarning birikuvi nisbatan erkin bo'lib, *-dek*, *-day* qo'shimchalari predikativ mavqeda kelasi zamon sifatdoshi ma'nosidagi taxmin-o'xshatish, chamalash-

⁸ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. – М.; 1973. – С. 200.

⁹ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М.; 1973. –С. 200.

¹⁰ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М.; 1973. – С. 207.

¹¹ O'zbek tili grammatikasi. I jild. – Toshkent, 1975. – B. 524.

¹² Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания. – М.; 1976. – № 4. – С. 13 – 14.

qiyoslash jilolarini kuchaytiruvchi fakultativ birlik vazifasini bajargan; *-gu* qo'shimchasi ma'no-vazifasidagi cheklanganlik XV asrdayoq sezilarli tus oladi¹³. Shuning uchun ham *-gudek* birikmasi yaxlit bir butunlikka aylanib, eski o'zbek tilining muntazam shakllari qatoridan o'rin oladi. Bu shaklning xususiyatlariga Alisher Navoiy ham maxsus e'tibor berib, shunday yozadi: "Yana bir nav' iborat va adolari borkim, birovdin bir ishni gumon eltmak bila ul ishni ul kishiga nisbatguna berurlar, yo'qqi tahqiq yuzidin, balki mazanna va gumon haysiyatidin, ammo munda diqqat ko'pdur. Andoqki, *borgudek* va *yorg'udek* va *kelgudek* va *bilgudek* va *aytkudek* va *qaytgudek* va *urgudek* va bu forsiyda bo'lmas"¹⁴.

Mirza Mehdixon *-gudek* shaklli yasalmalar *salurdek*, *qo'zg'alurdek* kabi qurilmalarga ma'nodosh ekanligini qayd etadi¹⁵. Lekin *-ur* qo'shimchasining keyingi davrlarda ham faol qo'llanilganligi *-ur+dek* birikmasining yaxlit qo'shimchaga aylanishiga imkon bermagan bo'lishi mumkin. Bizningcha, *-gudek/-guday* shakllari ko'p ma'noli affiks hisoblanib, *-gu* shakli *-dek/-day* sifat yasovchi shakl bilan birikib ketgan. Bugungi kunda *-gudek/-guday* affiksi ko'proq hollarda sifatdosh bo'lib keladi va shu bilan bir qatorda ko'p ma'noliligini ham saqlab qolgan. Demak, *-gudek* shakli kelib chiqishiga ko'ra ikki qismdan iborat bo'lib, nomutanosiblikni yuzaga keltirgan (2:1 nisbatda).

Ikkinchi qismi *qilmoq* fe'lidan hosil bo'lgan bo'lib o'z ma'nosini yo'qotish evaziga ko'makchi fe'l maqomini olgan. *Qilmoq* fe'li ham 1:0 qiymatdagi nomutanosiblikni yuzaga chiqarib, kengaygan shaklning bir qismi sifatida o'rinlashadi. Natijada *-gudek qil-* analitik shakli 3 ta morfemaning birikuvidan hosil bo'lgan shakl sifatida 3:1 qiymatdagi nomutanosiblikni hosil qiladi.

Umuman olganda, turkiy tillarda grammatik ma'nolar uch asosiy usul bilan ifodalanadi: a) mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlar bilan birikivi orqali; b) analitik shakllar bilan; v) sintetik shakllar orqali. Har uchala usul aniq mezonlar vositasida aniqlanadi va o'zaro qat'iy farqli belgilarga ega¹⁶. O'zbek tilida birinchi usul juda keng tarqalgan, ikkinchi usul esa yetmishga yaqin, uchinchi usul ikki yuzga yaqin.

-gan emish shakli. Ushbu analitik shakl *-gan* sifatdoshi va *emish* (tarixan ermish) to'liqsiz fe'lidan hosil bo'lgan bo'lib, *aytgan emish*, *qilgan emish*, *bo'lgan emish* singari sintagmalar tarkibini shakllantirishda faol ishtirok etadi. To'liqsiz fe'lning *emish* shakli *ermoq* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *er* asosiga *-mish* sifatdosh shaklini qo'shilishidan tarkib topgan. Natijada 2:1 nisbatdagi nomutanosiblik bilan bir mazmun ifodalashga kelib qolgan. *Boraymish*, *boranimish* so'zshakllarida *-mish*, *-imish* ko'rinishlarda (variantlarida) ham qo'llaniladi. Bunday variantlar o'g'zaki nutqda juda faol hisoblanadi. *Emish* to'liqsiz fe'lining boshqa to'liqsiz fe'llarga qaraganda qo'llanishi ancha

¹³ Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 1973. – B.120.

¹⁴ Navoiy A. Asarlar. Muhokamatul-lug'atayn. 14-jild. – Toshkent, 1967. – B.117.

¹⁵ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. –Л., 1963. – С. 112.

¹⁶ Baskakov N.A. Ko'rsatilgan asar. – B. 19.

chegaralangan bo'lib, nisbatan kam ishlatiladi. Demak, *-gan emish* analitik shaklining ikkinchi qismi *er + mish* birikuvidan hosil bo'lgan bo'lib shakllanish nuqtayi nazardan 2:1 nisbatdagi nomutanosiblik orqali bir mazmun ifodalashga kelib qolgan. Tarkibdagi yaxlit *-gan emish* analitik shakli esa shakl jihatidan 3:1 nisbatdagi nomutanosiblikni yuzaga keltirsa, mazmun jihatdan 2:1 ko'rinishdagi nomutanosiblikni shakllantirmoqda. Bu esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, analitik shakllar nechta morfemadan tashkil topishidan qat'iy nazar ikki qismdan iborat bo'lishini isbotlaydi.

Shunisi ma'lumki, "yasama (ikkilamchi) shakllar, ikki affiksning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'lgan tarkibli yoki analitik shakllar bo'lishidan qat'iy nazar, ular, odatda, sifat jihatidan yangi birlik sanaladi. Shu bilan birga, ular o'z paydo bo'lishining avvalgi davrida tashkil etuvchi qismlarining dastlabki ma'nolari bilan ma'lum darajada aloqasini saqlab turadi. Aytish joizki, ular yasama (ikkilamchi) shakllar bo'lishiga qaramasdan, tilda tamomila yangi birliklardir. Bu yasama shakllar boshqa shakllar bilan teng huquqli bo'lib, grammatik tizimda tarkibidagi qismlardan farqli holda, yangi bir o'rin egallaydi"¹⁷. Bu fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, analitik shakllar tildagi ma'lum bir qonuniyat tufayli yuzaga kelmagan. Ular garchi alohida yasalmagan bo'lsa-da, tilda mavjud bo'lgan birliklar sifatida tan olinishi lozim va ular yasalish bilan teng huquqlidir. Analitik shakllarning yuzaga kelishi tarixiy taraqqiyot natijasida ro'y beradi. Ayni damda esa ular so'zlar tarkibiga qo'shib, o'sha so'zga bog'liq holda o'rganilmoqda.

A.A.Yuldashev analitik shakllarga bag'ishlangan maxsus ishida turkiy tillarning fe'l tizimida o'ttiz, ayrim tillarda qirq va hatto, ellikka yaqin fe'l shakllari o'z mustaqil ma'nosidan uzoqlashib asosiy fe'l bilan birikuvda muntazam modellar hosil qilib, grammatik birlikka aylanishini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, grammatik shakllarning tiklanishi va taraqqiyoti, umuman olganda, alohida so'z taraqqiyoti bilan o'xshash: grammatik shakllar ham til tizimida qat'iylashgan va muntazamlikka ega bo'lgan vositalar orqali paydo bo'ladi. Shakllar tizimida qo'shma-ikkilamchi shakllar (masalan, maqsad ma'nosini ifodalovchi *-maga < -ma+ga*, *-yirga < yir+ga*) hamda o'z asosiy ma'nosidan uzoqlashgan yordamchi so'z-analitik shakllar, shuningdek, avvalgi shaklning yangi ma'no kasb etishidan yuzaga kelgan ko'rsatkichlar farqlanadi¹⁸. Analitik shakllar mazmun jihatidan ko'plab so'zlar tarkibida uchrasa-da ularning miqdor jihatidan unchalik ko'p emasligi ma'lum bo'ladi.

¹⁷ Yuldashev A.A. Ko'rsatilgan asar. – B. 35– 36.

¹⁸ Yuldashev A.A. Ko'rsatilgan asar. – B. 26 – 35.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ КАСБЛАРГА ЎРГАНИШИНИНГ ДОЛЗАРБ ВАЗИФАЛАРИ

Еркин Муродов

Мактаб ва мактабгача таълим вазирлиги бошқарма бошлиғи

Бугунги жуда тез янгиланаётган технологиялар даври таълим тизимида ўзгаришларни, янгича ёндашувларни вужудга келтирмоқда, умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини мустақил ҳаётда касб-хунарга ўрганиши орқали рақобатбардош кадр бўлиб тайёрланишида, янги технологик ўзгаришларга мослашишида, улар учун муҳим бўлган ҳаётини кўникмаларни ўзлаштириш механизмларини такомиллаштириш ва ривожлантириш тизимини яратиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шу билан бирга тез суратларда ўзгариб бораётган даврда инновацион технологиялар, инсоният ҳаётида трансформация жараёнларнинг тезлашуви, меҳнат бозорига бўлган талабларнинг ортиши, янги касбларга эҳтиёжни юзага келтирмоқда. Бу эса, умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларини касбга тайёрлаш тизимининг бошқарув механизмларини такомиллаштиришни тақозо этмоқда.

БМТ Бош Ассамблеясининг 70 йиллик юбилей сессиясида қабул қилинган “Барқарор ривожланиш мақсадлари (SDGs)”, БМТнинг “Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича махсус ташкилоти (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization)”, “Европа олий таълим макони (EHEA)”, “Касбий таълимни ривожлантириш бўйича Европа маркази (CEDEFOP)”, EQAVET, “Ҳаёт давомида таълим олиш Маркази (DIE)” ҳамда “Халқ университетлари немис ассоциацияси халқаро ҳамкорлик институти (DVV International)” концепцияларида касбга йўналтирилган таълим моделини амалиётга татбиқ этиш орқали таълимни янгилаш, ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш бўйича йирик амалий лойҳаларни татбиқ этиш бўйича тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистонда ҳам узок муддатга мўлжалланган стратегик тараққиёт дастурларида энг устувор йўналишлардан бири ҳам ўқувчи-ёшларни касб-хунарга йўналтириш орқали ҳаётда муносиб ўрин топиш ва фаровон ҳаётга эришишдан иборат. Шу боис, таълим ташкилотларида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш механизмини такомиллаштириш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан биридир. “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширилаётган туб ислохотларда умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг замонавий билимларни кенгайтириш, уларни мустақил ҳаётга тайёрлашда касбий билимларини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш энг устувор вазифалардан бири сифатида белгиланган. Ўзбекистон Республикаси Президент Ш.Мирзиёев 2022 йил 20

декабрда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига мурожаатномасида таълим соҳасидаги навбатдаги муҳим йўналиш, бу – ёшларнинг замонавий касб-хунар эгаллаши учун барча зарур шарт-шароитларни яратишдан иборат эканлигига эътибор қаратиб, мактаб битирувчиларининг 50 фоизи меҳнат бозорига ҳеч қандай касбга эга бўлмасдан кириб келаётгани ҳаммани ўйлантириши кераклиги, шу боис, мактаб битирувчилари камида 2 та хорижий тил ва касб-хунарга эга бўлиши зарурлигини таъкидлаган¹⁹.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида” Қонуни, Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”, 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”, 2022 йил 11 майдаги ПФ-134-сон “2022 — 2026 йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича Миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”, 2023 йил 28 февраль ПФ-27-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “2022- 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”, 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сон “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” Фармонлари ва 2020 йил 6 ноябрдаги ПҚ-4884-сон “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда муҳим аҳамият касб этади .

Ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш жараёнида илмий нуқтаи назаридан ўрганишнинг муҳим вазифалари сифатида қуйидагилар белгиланган:

Ўқувчиларни касб-хунарга ўргатиш жараёнида б ир қатор амалий ишлар бошлаб юборилди.

2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастурига умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларини камида битта касб ўргатиш жараёнини киритиш бўйича таклифлар берилган. *(Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги ПФ-27-сон Фармони билан тасдиқланган)*

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا Мурожаатномаси (29.12.2020) // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

2023 йил 1 сентябрдан бошлаб ҳар бир туман (шаҳар)нинг биттадан умумий ўрта таълим муассасасида ўқувчиларни иккита хорижий тил ва битта касб-ҳунарга ўргатиш амалиёти босқичма-босқич йўлга қўйилди;

Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари учун мустақил ҳаётга тайёрлаш, уларнинг келгуси карьерасини белгилаш ҳамда касбий лаёқатини аниқлаш, касбларнинг иқтисодий самарасини ўз ичига олган Касбга йўналтириш бўйича мактаб ўқувчилари учун қўлланма (“Касблар каталоги”) тайёрланди;

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги тизимида ўқувчиларни келажак касбларини танлашда, карьераларини белгилашда ва бизнес лойиҳаларини амалга оширишда кўмаклашувчи <http://kasb.maktab.uz> электрон плафтформаси яратилди.

Электрон платформада мактаб ўқувчилари учун касбий лаёқатини аниқлашга қаратилган онлайн тестлар, замонавий касбларни ўргатувчи университетлар ҳамда бугунги кунда муваффақиятга эришаётган соҳаларнинг аҳамияти ва иқтисодий самарадорлиги юзасидан тавсиялар ўрин олган.

Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириш ва психологик-педагогик республика ташхис марказининг электрон платформаси орқали (<http://profnavigator.uz>) ўқувчиларни касбий лаёқатини аниқлашга, диагностикадан ўтказиш ва уларни таҳлил қилиш тизими йўлга қўйилди;

Бундан ташқари, умумий ўрта таълим мактабларида 10-11-синф ўқувчиларини қизиқиши ва касбий лаёқатига кўра касбга йўналтириш жараёнларини бошқаришни ташкил этиш бўйича 3 та йўналишдаги механизм яратилган:

1-йўналиш: профессионал таълим муассасалари билан ҳамкорликда ўқувчиларни ишчи касбларга ўргатиш;

2-йўналиш: “Ёшлар келажакимиз” жамғармаси орқали ўқувчиларни тадбиркорликка ўргатиш;

3-йўналиш: “Рақамли авлод” лойиҳаси доирасида ахборот технологиялари ва “креатив индустрия” йўналишида ўқувчиларни замонавий касбларга (фрилансер, дастурчи, дизайнер, логистика хизмати) ўргатиш;

Бизнинг тахилимизча, умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини замонавий касбларга ўргатишда бугунги кунда қуйидаги муҳим вазифаларни амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга:

. Умумий ўрта таълим битирувчилари эгаллаши лозим бўлган компетенция ва касбий кўникмаларни шакллантириш тизимни тубдан ўзгартириш лозим, яъни, ўқувчиларнинг лаёқати ва меҳнат бозори талабларидан келиб чиқиб, ўқувчиларга касбий кўникмаларни шакллантириш зарур.

2. Умумий ўрта таълим битирувчилари эгаллаши лозим бўлган компетенцияларни ҳаётда қўллашда таълим жараёнлари самарасини

ўлчаш лозим. Бунда таълим сифатига таъсир қилувчи омилларни, моддий-техникавий ва педагогик салоҳиятни таҳлил қилиш орқали мавжуд муаммоларни ҳал қилиш чораларини кўриш лозим.

3. Бошқарув идоралари томонидан миллий ва халқаро тажрибаларни инобатга олган ҳолда ҳар бир фанда ўқувчиларни касбий кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган тизим жорий этишни тақозо этади. Бу ҳам ўқитувчилар, ҳам ўқувчилар учун самарали бўлиши керак.

4. Меҳнат бозоридаги ўзгаришлар ва тенденцияларни кузатиш, таҳлил қилиш орқали таълим бериш ва компетентлик талабларини баҳолашни такомиллаштириб бориш ва бу орқали ўқувчиларни ўзгарувчан ҳаётга тайёрлаш лозим.

5. Саноат 4.0 даврини назарда тутган ҳолда умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларни ҳаётга тайёрлаш учун фан ва касбий билимларини амалиётдан келиб чиқиб ўрганилишига қаратиш, бошқача қилиб айтганда, ўқувчилар ўрганганларини ҳаётда қўллаш имкониятига эга бўлиши, мавзуларни ёдлаш ўрнига татбиқ қилишга ўтиши, муаммоларни ҳал қилиш устида ишлай олиши, танқидий ва ижодий фикрлашни ўрганиши, ҳамкорликда ишлашга интилиши, маълумотлардан фойдаланиш, таҳлил қилиш ва вақтни назорат қилиш ҳамда ўзаро ҳурмат ва ҳамкорликни шакллантириш каби бир қанча кўникмаларни ўзлаштириши лозим.

6. Таълим жараёнларини ҳаётий зарурият ва меҳнат бозори талаблари асосида билан узвийликда ташкил этилиши ва ўзаро боғлиқликни яратилиши унинг сифати ва самарасини оширади. Бу ўқувчиларни шиддат билан ўзгараётган меҳнат бозори талабларига мослашиши ҳамда дунёда рақобатбордош кадр бўлишини таъминлайди. Бундан келиб чиқиб таълим моделини шакллантириш ва такомиллаштиришга доим эҳтиёж бордир.

7. Ўқувчилар хорижий тил, математика, ахборот технологиялари, она тили ва адабиёт фанини кўпроқ ўрганишни, коммуникатив муносабатлар, техника ва технологияни билишни, муаммоларни ҳал қилиш, жавобгарликни ҳис қилиш, касб ҳунар эгаси бўлиш каби компетенцияларни ўзлаштиришни биринчи даражали, деб билмоқда. Шунингдек, ўрганишларда ўқувчиларда танқидий ва ижодий фикрлаш кўникмалари ва бундан келиб чиқадиган физика, биология ва кимё фанларига бўлган қизиқишнинг пастлигини кўрсатмоқда. Шу боис, ўқувчиларда танқидий ва ижодий фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришда физика, кимё-биология фанларини ўқитиш методикаси ва дарс мазмунини такомиллаштириш тавсия қилинади.

8. Таълим беришда ўқувчиларни асосан мавзуларни ёдлаб олиш ва тестларга тайёргарлик кўришга ҳаракат қилиши, олган билимларини ҳаётда қўллай олиш кўникмалари паст даражада қолаётганлиги аниқланганидан келиб чиқиб, ўқитиш методи ва методикасини танқидий кўриб чиқиш ва билимларни ҳаётий воқеаларга боғлиқ ҳолда вазиятлар ва

амалиётлар билан бирга шакллантиришга алоҳида аҳамият қаратиш кераклиги тақлиф қилинади.

9. Умумий ўрта муассасалари ўқувчиларининг эгаллаган касбий кўникмаларини мустақил ҳаётда қўллаш механизмларини ривожлантириш учун турли таълим методларини ишлаб чиқиш, бунда фан ва предметларнинг касбга йўналтириш билан узвий боғлиқлигини эътиборга олиш керак. Масалан, тил билан коммуникация ўртасидаги ўзаро боғлиқлик, математика орқали фикрлаш ва таҳлил қилиш қобилиятни орттириш, физика орқали танқидий ва ижодий фикрлаш, психология орқали оилавий ҳаётга тайёрлаш кўникмаларини шаклланиши орасидаги боғлиқлик даражаларини диққатга олиш катта аҳамият касб этмоқда. Касбга қизиқтириш таянч фанлар ва кўникмалар билан ўзаро боғлиқликда амалга оширилиши битирувчиларни тез ва мукамал кўринишда касбларни ўзлаштиришга ижобий таъсир қилади.

10. Умумий ўрта таълим муассасалари битирувчиларини мустақил ҳаётга тайёрлаш учун масъул бўлган энг қуйи бўғиндан марказгача идораларнинг вертикал ва горизонтал тизимда самарали фаолиятини таъминлаш зарур, яъни, мактаб, ҳудудий бошқармалар, маҳаллий ҳокимликлар, бандлик ва меҳнат бозори талабларини ўрганувчи ташкилотлар келгуси 10 йилликдаги истиқболларни инобатга олган ҳолда битирувчиларни ҳаётга тайёрлаши зарур.

МИКРООБУЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ: ПОЧЕМУ ЭТО ПОПУЛЯРНО И ЭФФЕКТИВНО?

Иванова Мария Львовна, магистр,

специалист по учебно-методической работе в РГПУ им. А. И. Герцена, Санкт -Петербург

Микрообучение как современный образовательный метод в обучении, с недавних времён приобрёл популярность в социальных сетях и на образовательных платформах. В этой статье будет дано краткое введение в концепции кратковременной и долговременной памяти и объяснено, как микрообучение может быть использовано для повышения запоминаемости у учащихся. Формат короткого занятия помогает поддерживать запоминания и путём повторения выводить память на значительно высокий уровень. Такой процесс также ускоряет процесс обучения в целом, поскольку учащиеся избегают явления умственной усталости. Используя мобильные устройства, обучаемые могут с лёгкостью приостанавливать, продолжать и пересматривать свои микроуроки, а мобильное приложение даёт им возможность находиться в процессе обучения в любое время в любом месте. В статье рассматривается

лингвистический потенциал использования коротких видео для повышения уровня владения иностранным языком.

Микрообучение — это подход, при котором ученик получает новую информацию мелкими порциями, а затем по желанию регулярно повторяет её. Если просто разбить большой учебный материал на мелкие блоки (например, нарезать длинную лекцию на эпизоды по десять минут), это ещё не будет микрообучением. Надо сделать так, чтобы у каждого фрагмента была одна чёткая идея. Необходимо сосредоточиться на результате, которого учащиеся должны достичь при изучении конкретного микроблока информации. Микрообучение не подходит для глубокого погружения в тему. Неоптимально для объяснения сложных концепций. Микроуроки отлично подходят для сообщения простой информации, но не всегда помогают передать сложные концепции [7].

Хотя микрообучение стало популярным в последние годы, в действительности эта идея не нова. Эффективность разделения больших объёмов информации на маленькие блоки осознали по крайней мере 65 лет назад. Джордж Миллер, один из создателей когнитивной психологии, в научной работе 1956 года «Магическое число семь плюс-минус два» описал обнаруженную им закономерность, согласно которой человек одновременно удерживает в памяти в среднем семь блоков (плюс-минус два) элементов информации [5]. Получается, человек может запомнить и повторить не более 9 элементов, а часто и не более 5 .

Развитию микрообучения предшествовала теория о кривой забывания Эббингауза. Немецкий учёный Герман Эббингауз в течение многих лет проводил эксперименты над собственной памятью — например, заучивал бессмысленные наборы звуков. А в 1880-х годах он в результате исследований пришёл к выводу, что больше 50% новой информации ученики забывают спустя 20 минут после окончания урока. Через девять часов в памяти остаётся не больше 40% выученного, а через месяц этот показатель сокращается до 24%, если ученик не повторяет информацию. Результаты своих наблюдений Эббингауз зафиксировал на графике, который и получил название «кривая забывания» [3].

Справиться с забыванием помогает повторение информации через определённые промежутки времени. Такие интервальные повторения как раз и лежат в основе микрообучения.

Облегчают возвращение к ранее изученному материалу мобильные приложения и онлайн-курсы, в которых применяется этот подход. Кроме того, они позволяют учащемуся двигаться в собственном темпе и пересматривать уже изученные материалы. В результате повторений в мозге ученика укрепляются нейронные связи, в которых сохранилась новая информация, и со временем эти знания переходят из кратковременной памяти в долговременную [1].

Польза обучения в микрорежиме подкреплена некоторыми современными исследованиями. Например, учёные из Дрезденского технического университета выяснили: испытуемые, которым задавали по одному вопросу после прочтения каждой главы текста, отвечали на 28% быстрее, чем те, кому задавали восемь вопросов после прочтения восьми глав [8].

Каким бывает и может быть микрообучение?

Микрообучения должны представлять собой краткие фрагменты обучения.

Микрообучением не может называться 20-минутный видеоролик с объяснением продукта. Максимальная продолжительность для микроурока составляет не более 3- 5 минут, а иногда и ещё меньше.

Решения для микрообучения были разработаны с основной целью обеспечения возможности обучения в любое время и в любом месте, к которому учащиеся могли бы легко получить доступ. Поэтому микрообучение должно поддерживаться мобильным приложением [2].

В последние годы всё большую популярность в мире набирают короткие видео для повышения уровня владения иностранными языками, которые публикуются в социальных сетях Instagram (Reels); YouTube (Shorts); TikTok. Такие микроуроки могут быть представлены в виде образовательных видеороликов, игр, квестов и викторин. Автор сам задаёт параметры, грамматику, лексику, уровень владения языком.

Одним из востребованных на данный момент являются Reels, это короткие видео в Instagram, которые длиной от 15 до 60 секунд. Это аналог TikTok, где пользователи могут записывать короткие видео и публиковать их в своих профилях. YouTube Shorts — новый формат короткого видеоконтента на платформе YouTube. Он позволяет создавать видео длительностью не более 60 секунд, которые могут быть доступны для просмотра в разделе Shorts. YouTube Shorts позволяет любому пользователю YouTube создавать короткометражные видео с помощью мобильного устройства. Формат адаптирован для любительской съёмки, повседневных событий и персональных рассказов. Можно добавлять музыку из библиотеки YouTube или загружать свои собственные звуковые дорожки. YouTube Shorts в настоящее время является популярным форматом видео контента и его работа измеряется уже в миллиардах просмотров [6].

Лингвистический потенциал коротких видео заключается в способствовании навыкам аудирования. Видео демонстрируют ситуацию в целостности, обучающиеся не только слышат диалог (монолог) но и видят участников общения и визуально жесты, мимика и предметы, всё это заметно облегчает восприятие звучащей речи и помогает догадаться о значении многих новых слов. И считается, что регулярный просмотр таких видео снимает психологический барьер и страх перед говорением.

Происходит формирование языковой компетенции: слухопроизносительные, лексические и грамматические навыки. Практика показывает, что даже пассивный просмотр иноязычного контента позволяет совершенствовать речевую деятельность и бессознательно генерировать правильные языковые конструкции. Учащиеся смотрят интересный ролик и понимают о чём там говорится и это придаёт им веру в свои силы. Просматривая видео, происходит погружение в культуру носителей изучаемого языка, знакомство с особенностью поведения и этикетом и воссоздаётся языковая среда, живая речь с её различными отклонениями от нормы.

Изучив положительное влияние формата коротких уроков на обучение мы пришли к такому выводу: непродолжительные обучающие видео могут способствовать повышению уровня владения иностранным языком, снятию языкового барьера и усваиванию новых лексических значений, погружают в языковую среду изучаемого языка и носят развлекательный характер, который влияет на мотивацию продолжать смотреть такие видео.

Микрообучающие ролики не стоит рассматривать для подачи глубоких сложных дисциплин, короткие видео нельзя назвать универсальным приёмом, который подойдёт для любых образовательных целей, но оно может сыграть важную роль в мотивации и вовлечении обучающихся, повысить процент запоминаемой информации. Просмотр коротких видео отлично вписывается в изучение иностранных языков и незаменимо в условиях, когда у целевой аудитории отсутствует языковая среда и дефицит свободного времени. Поэтому микроформаты разумно использовать в целях повторения.

Список литературы:

1. A social metric approach to e-learning evaluation in education. Caione A, Guido AL, Paiano R, Pandurino A, Pisanisi S. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-319-49625-2_1 eLEOT. 2016;180:3–11. [Google Scholar];
2. LR. *Neurobiol Learn Mem.* 2004;82:171–177. [PubMed] [Google Scholar];
3. Memory systems of the brain: a brief history and current perspective. Squire
4. Replication and analysis of Ebbinghaus' forgetting curve. Murre JM, Dros J. *PLoS One.* 2015;10:0. [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar];
5. <https://4brain.ru/blog/семь-плюс-минус-два/>;
6. <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.2190/ec.51.4.b>;
7. <http://shortsy.ru/chem-otlichaetsya-reels-ot-shorts>
8. <https://skillbox.ru/media/education/mikroobuchenie-plyusy-i-minusy/>

**MORFOLOGIK SHAKLLARNING TARAQQIYOTIDA
NOMUTANOSIBLIKNING YUZAGA CHIQISH MASALASI***Uralov Azamat Begnarovich*

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Jahon tilshunosligida yoqut tilining birinchi tadqiqotchilaridan bo'lgan nemis olimi O.N.Byotling(k) qo'shimchalarning kelib chiqishini barcha o'rinlarda mustaqil so'zlar bilan bog'lash dalillar tabiatiga mos kelmasligini turkiy tillar va fin tiliga xos kelishik shakllari misolida ko'rsatib, asoslab bergan edi. Boshqa bir tilshunos V.V.Radlov so'z tarkibida morfemalarning yondoshligi, qator kelishi qonuniyati bir qancha fonetik hodisalar bilan zich bog'langanligini qayd etadi va bu hodisalarni umumlashtirib giperagglyutinatsiya deb nomlaydi.²⁰ Morfologik shakllarning birikishi fonetik hodisalar bilan uyg'unlashadi. Taraqqiyot natijasida morfemalararo tutashtiruvchi unlining paydo bo'lishi ikki o'zaro duch kelgan unlining diftong yoki cho'ziq unliga aylanib ketishi yoki bir unlining tushib qolishi, talaffuz noqulayligini yo'qotish maqsadida bir undoshning orttirilishi, o'zak yoki qo'shimcha tarkibidagi jarangsiz undoshning jarangliga aylanishi, so'z asosi oxiridagi tovushning affiks tarkibidagi tovushga moslashishi kabi hodisalar sodir bo'ladi. Eng muhimi, asos va qo'shimcha vaqt o'tishi bilan shunday birikib ketadiki, natijada ma'nosi kuchsizlangan morfema o'ziga ma'no-vazifa jihatidan o'xshash boshqa qo'shimcha bilan mustahkamlanadi: qo'zi+cha+q+cha, toy+cha+q+cha. Natijada taraqqiyotning boshqa qonuniyati – affiksial pleonazm vujudga keladi.

Dastlab, asosning shakllanishi bilan bog'liq taraqqiyot haqiga fikr bildirsak. O'zbek tilida bu holatning juda murakkab va turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, bunday birliklar jiddiy etimologik tahlil natijasidagina tarkibiy qismlarga ajratilishi mumkin. O'zbek tilidagi *ko'z-ko'r*, *ko'ch-cho'k*, *qis-siq*, *art-arch*, *yoy-yoz*, *yoq-yon*, *bos-bot-bol*, *kez-kes-kech*, *sez-ses* (seskan) kabi juda ko'p birliklar tarkibini belgilash borasida A.G'ulomov "O'zbek tilida so'z ichki o'zgarishi asosida so'z yasalishi" (1947) maqolasida, A.Mamatov o'zining "Etimologik kuzatishlar" (2010) risolasida, Y.Tojiyev o'zining "O'zbek tilidagi tub so'zlar tadqiqiga doir" (2010) maqolasida bir qancha fikrlarni aytishgan. Bu so'zlar tarkibidagi tovush o'zgarishlari (o'rin almashish ham) va so'z ma'nolaridagi o'zgarishlar bu so'zlarning morfem tarkibini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Ya'ni *ko'z va ko'r* so'zlari tarkibidagi *z* va *r* tovushlarining qanday element ekanligini belgilash hamda tarixiy-etimologik jihatdan aniqlash zarur (Jumladan, *ko'z*, *tiz*, *egiz* so'zlaridagi *z* qadimgi juftlik-ikkilik qo'shimchasidir; *-r* esa tarixan fe'l yasovchi qo'shimcha deb ham qaraladi).

A. G'ulomovning fikricha, flektiv tillarning suffikslari qanday hosil

²⁰ Кононов А. О фузии в тюркских языках // Структура и история тюркских языков. – М.: Наука, 1971. – С. 109.

bo'lgan bo'lsa, agglyutinativ tillarning qo'shimchalari ham shunday yo'l orqali yuzaga kelgan.

Rus tilshunosi A.N.Kononov hind-yevropa, fin-ugor, oltoy (turkiy, tungus, manchjur, mo'g'ul) tillari oilasiga mansub ko'plab dalillarni tarixiy-etimologik jihatdan chog'ishtirish natijasida o'zining xulosalarini quyidagicha bayon etadi:

1) tilshunoslik, ayniqsa, umumiy tilshunoslikdagi agglyutinativ tillarning barcha qo'shimchalari qachonlardir mustaqil so'zlardan kelib chiqqan, degan qarash biryoqlama bo'lib, u turkiyshunos olimlarni chalg'itib, tadqiqotchilarni noto'g'ri yo'lga burib yuborgan;

2) turkiy tillarga xos so'z va shakl yasovchi qo'shimchalarning salmoqli qismi fuziya usulida, ya'ni ikki yoki undan ortiq bir fonemali qo'shimchalarning yangi butunlik tarkibiga zich birikishidan hosil bo'lgan;

3) qadimgi davrlarga mansub bir fonemali birliklar hind-yevropa tillarining leksik shakllaridan hech ham farq qilmaydi²¹.

Shunday ekan, asos va qo'shimchalar borasidagi taraqqiyotni faqatgina asos yoki qo'shimcha bilan emas, balki boshqa tillarga aloqasi nuqtayi nazardan ham solishtirib ko'rish lozim. (Tadqiqotda boshqa tillar bilan solishtirish maqsad qilinmagan).

O'zbek tilida morfologik shakllarning taraqqiyoti va rivojlanishi haqidagi qarashlar A.G'ulomov, S.Usmonov, O.Usmonov, U.Tursunov, A.Hojiyev, A.Berdialiyev, Y.Tojiyev, Sh.Rahmatullayev, T.Mirzaqulov, B.Mengliyev, B.Bahriddinova kabi olimlarning bu masalaga bag'ishlangan tadqiqotlarida keng bayon qilingan hamda o'z fikr-mulohazalarini asoslab berishgan.

Garchi morfemikaga doir ko'pgina ishlarda qo'shma affikslar haqida to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da, biz ularni morfologik shakllarning taraqqiyotidagi nomutanosibliklar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqamiz. Professor Y.Tojiyevning fikricha, morfemalarning miqdori o'zgarish, qisqarish, urchish evaziga ham ko'payadi. Bizningcha, morfologik shakllarning bu usul bilan ham morfemikani boyitishiga shubha yo'q. Affikslarning yaxlitlanish hodisasi esa tabiiy jarayon bo'lib, tilda morfologik shakllarning nomutanosibliklarini yuzaga chiqaradi.

Morfemalarning taraqqiyotida miqdorning ko'payishi, ya'ni morfemalarning ortib borishi turli usullarda sodir bo'ladi. O'zbek tili morfemikasidagi so'z yasovchilari chet yoki qardosh tillardagi bir morfemaning o'zgarishsiz kirib kelishi hisobiga ham boyigan. Bunday morfemalar odatda o'zga til leksemalari bilan birga o'zlashib, keyinchalik ajralib chiqadi. Tilshunoslar fikriga tayangan holda aytish mumkinki, morfemalarning o'zlashishi ham til tizimida shakllar miqdorining oshishiga olib keladi. Bu jarayonlar asosan so'z yasalishi sathida ko'p kizatiladi.

Hozirgi o'zbek tilidagi morfologik shakllar so'z yoki affiks tarkibidagi fonetik o'zgarishlar tufayli ham nomutanosiblikka uchraydi. Bizga ma'lumki, morfologik shakllardagi fonetik o'zgarishlarni morfonologiya bo'limi tekshiradi.

²¹ Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания. – М.; 1976. – № 4. – С. 7.

Uning obyekti bo'lgan bunday o'zgarishlar so'zlardagi morfemalar miqdorining tarixiy jihatdan ko'rinishlari boshqacha bo'lishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'zgarishlar taraqqiyot tufayli sodir bo'lib, asoslar qo'shimchalar bilan moslashadi. Moslashish jarayonida ayrim morfemalar shaklan o'zgaradi (harf ortadi, almashadi, tushadi) va bu o'zgarishlar turli nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi: *-ga* shakli, bu shakl so'zning qanday undosh bilan tugashiga qarab *-ka*, *-qa* (kirill grafikasida *-fa*) ko'rinishida o'zgarsa, badiiy uslubning she'riyat talabi bilan *-a* (ko'nglim ko'nglinga tushdi) shaklida ham qo'llanadi. Morfologik shakllar orasida ayrim nisbat shakllari ham shu holatda o'zgarib, taraqqiyot bilan bog'liq holda nomutanosiblikka uchraydi: *-dir* (*-tir*) – yozdir (o'qittir); *-kaz* (*-qaz*) – yetkaz (o'tqaz) singari. Buni sifatdoshning *-gan*, *-kan*, *-qan*; ravishdoshning *-gach*, *-kach*, *-qach*; *-gusi*, *-qusi*; *-guncha*, *-kuncha*, *-quncha*; *-gani*, *-kani*, *-qani* shakllarida ham kuzatish mumkin. Morfologik shakllar taraqqiyotida bunday shakllarning variantlari – allomorflari asos tarkibidagi so'nggi undoshga bog'liq bo'lib, shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Turkiy va o'zbek tilshunosligiga oid ilmiy tadqiqotlarga tayanib, o'zbek tilida morfemalarning yuzaga kelishi, taraqqiyoti hamda boyishini, bizningcha, quyidagicha ko'rsatish mumkin: ma'nodoshlik hodisasi tufayli; shakldoshlik hodisasi orqali; bir necha affikslarning qo'shilishi orqali; ayrim mustaqil so'zlarning vaqt o'tishi bilan affiks holiga kelib qolishi yoki o'tishi orqali; konversiya orqali; bir morfemaning imkoniyatlari kengayishi orqali; boshqa tildagi so'zlarning o'zbek tiliga morfema (affiksoid) bo'lib kirib kelishi orqali; ko'makchilarning affiksga tomon siljishi orqali; bir morfemaning bir necha variantlarda qo'llanib, ajralishi orqali kabi turlarga bo'lish mumkin.²² Bunday holatlarda morfemalarning yuzaga kelishi yoki ko'payishi barcha morfemalar (so'z yasovchi shakllar va morfologik shakllar) uchun xos bo'lib, biz ularning morfologik shakllar taraqqiyotida nomutanosibliklarning yuzaga chiqarishini tahlil qilamiz.

Ma'nodoshlik hodisasi tufayli: bir morfemaning muqobil variantlar (o'rnini bosa oladigan boshqa morfemalar)ning kirib kelishi, shakllanishi orqali morfologik shakllar ham boyiydi. Garchi, affikslar mustaqil holatda ma'nodoshlik munosabatida bo'lmasa-da, ular asos tarkibiga kirganidan (qo'shilganidan) keyin ma'nodoshlik munosabatini shakllantiradi. Aynan bir vazifani bajara oladigan ikki va undan ortiq affikslarning vujudga kelishi affikslar o'rtasida ma'nodoshlik holatini yuzaga keltiradi²³. Yoki aynan bir vazifani bajara oladigan yangi, ikkinchi morfema paydo bo'ladi.

Morfologik shakllar orasida ma'nodoshlik asosida morfemalar ortib boradi. Sh.Rahmatullayevning fikricha, "Sinonim bo'lish talabiga *-tir* (*-dir*), *-giz* (*-kiz*, *-qiz*, *-g'iz*) orttirma yasovchilari ham javob beradi: *ayttir-aytkiz*, *bildir-bilgiz* kabi. Lekin bu affikslarda ayni bir fe'l leksemasiga qo'shilish oz uchraydi,

²² Uralov A. O'zbek tili morfologiyasida nomutanosiblik. – Guliston: Ziyo nashr matbaa, 2022. – B. 57 – 68.

²³ Tojiyev Y. O'zbek tilida affiksial sinonimiya. – Toshkent, 1992. – B. 4 – 31.

ko'pincha har xil leksemaga (saylab) qo'shiladi: *yondir* deyiladi-yu *yongiz* deyilmaydi"²⁴. Aynan bir shaklning o'rnida parallel ishlatilishi mumkin bo'lgan shakllar o'zaro ma'nodosh hisoblanib, taraqqiyot natijasida ikki shakl bir mazmun uchun xizmat qilishga kelib qolgan yoki xizmat qilish uchun shakllangan bo'ladi. Bunday morfologik shakllar ma'no jihatidan bir xil bo'lib shakl jihatidan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Morfologik shakllarning ma'nodoshligi erkalash shakllarida: *-jon* – *-bek* (Ibrohimjon – Ibrohimbek), *-xon* – *-oy* (Gavharxon – Gavharoy); kelishik shakllarida: *-ga* – *-ni* (gapga tushunmaslik – gapni tushunmaslik), *-ni* – *-dan* (oshni oling – oshdan oling), *-ga* – *-da* (ijodingizga omad – ijodingizda omad), *-dan* – *-ning* (o'quvchilardan biri – o'quvchilarning biri); miqdor son shakllarida: *-ov* – *-ala* (uchovi – uchalasi), *-larcha* – *-lab* – *-tacha* (minglarcha – minglab – mingtacha), *-ov* – *-ovlon* (beshov – beshovlon); harakat nomi shaklida: *-moq* – *-ish* (bormoq – borish); sifat-dosh shaklida: *-uvchi* – *-adigan* (keluvchi – keladigan), *-ar* – *-adigan* (oqar-oqadigan); ravish-dosh shakllarida: *-ib* – *-ibon* (borib qayt – boribon qayt); nisbat shakllarida: *-tir* – *-giz* (kuttir – kutgiz); shaxs-son shaklida: *-ish* – *-lar* (kelishdi – keldilar); zamon shakllarida: *-yotir* – *-yap* – *-moqda* (borayotirman – borayapman – bormoqdaman); mayl shakllarida: *-y* – *-yin* (yozay – yozayin) kabi holatlarda kuzatiladi. Bunday holatdagi ma'nodoshlik sababli morfologik shakllar tizimi boyiydi va shaklga nisbatan nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi.

Shakldoshlik hodisasi orqali (mustaqil affikslar o'zaro shakldosh bo'la olmaydi. Bu hodisa ham morfema asosga qo'shilgandan keyin yuz beradi): bir shakldagi qo'shimchaga boshqa ma'no yuklanishi tufayli yangi ma'noli qo'shimchalarning paydo bo'lishi bilan boyib borgan. Bizga ma'lumki, shakl hamisha birlamchi hodisa hisoblanib, mazmunga nisbatan shakl miqdor jihatidan hamisha oz bo'ladi, har qanday shakl kamida bitta ma'no ifodalash uchun xizmat qilishi kerak. Albatta, morfemik shakl leksema (asos)siz ma'no ifodalamaydi, ammo asosga turli ma'nolar beruvchi xususiyat morfemaga yuklanadi. Shu bois ham morfologik shakllarda shakldoshlik hodisasining mavjudligi u bilan birikayotgan so'z (asos) tufayli yuzaga keladi. Shakldoshlik xususiyati affikslarda dastlab ko'p ma'nolilik orqali yuzaga keladi, keyinchalik bu aloqa kuchsizlanib, batamom uziladi. Ba'zan shakliy o'xshashlik ham yuzaga kelishi mumkin. Bunda morfologik shakllar bir xil shaklga ega bo'lib, o'zlari turli yo'llar bilan shakllanadi. Bu xususda "O'zbek tili morfem lug'ati"da *-a* morfemasining o'n ikkita shakli haqida to'xtalib, ayni morfemaning shakldoshlik xususiyati ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga, *-a* morfemasining ko'p ma'noliligi ham tushuntiriladi. Morfologik shakllar taraqqiyotida nomutanosiblikni yuzaga chiqaruvchi shakldoshlik asos (so'z) orqali namoyon bo'ladi. Morfologik shakllar o'sha jarayonni yuzaga chiqarish uchun xizmat

²⁴ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 126.

qiladi.

T.Mirzaqulovning ta'kidlashicha, morfemalardagi ma'nolarning siljishi natijasida ular yangi birliklarga aylanish holatlarini ham kuzatish mumkin. "Morfologik frazeologizmlarda esa mavjud morfemalarning bir morfi ma'no siljishi (ko'chishi) asosida yangi birlikni yuzaga keltiradi, so'zga aylanish (leksikalizatsiya), soddalanish sababli til lug'at tarkibini yoki grammatikasini yangi morfema bilan boyitadi. Bu jarayonning bir tipini vosita kelishiklari (-ga, -ka, -qa, -da, -dan) ko'rsatkichlarining ma'lum so'zlar tarkibida ravishga, boshqa turkumga ko'chishi, ma'lum morflarning paradigmadan uzilishi tashkil qiladi: *rostdan, birdan, to'satdan, qo'qqisdan, birga, o'zga, jo'rttaga, yanada, birda*"²⁵. Iqtibosda keltirilgan fikrlardan anglashilmoqdaki, morfemaning asosga tomon siljishidan yangi birliklar hosil bo'lmoqda va morfema o'z vazifasidan uzoqlashib, yangi shakl tarkibiga kirmoqda. Ammo masalaning ikkinchi tomoni bu jarayonda bir shaklning kamida ikki mazmunga xizmat qilishi va shakllar taraqqiyotida nomutanosiblikni ifodalar orqali namoyon bo'lishi tushunilishi lozim.

Kelib chiqishi bir tarkibdan tashkil topgan ikki morfemaning turli so'zlar tarkibiga qo'shilishi natijasida ular o'rtasidagi ma'noviy bog'liqlik uzoqlashib, oxiri uzilib ketadi va yangi shakldosh morfema hosil bo'ladi. Masalan, xiralashib, "erkalash affiksi *-cha* bora-bora ikki affiksga aylangan. Qiyoslang: *kitobcha* (kichraytirish: *-cha* urg'uli) – *mingtacha* (taxmin: *-cha* urg'usiz). Bularning keyingisi avvalgisidan kelib chiqqan: hozir bular ikki affiks. Bunday urchishlarda ham, xuddi o'zaklardagi kabi polisemiya va omonimiyaning turli tipdagi munosabati bor"²⁶. Buni quyidagi misollar yordamida yanada aniqlashtirish mumkin: *kitob-cha, qizil-cha, qisqa-cha, hozir-cha, ming-ta-cha*. Misollardan kuzatish mumkinki, dastlab kichraytirish affiksi bo'lgan *-cha* boshqa so'zlar tarkibida o'zining kichraytirish ma'nosidan uzoqlashmoqda. Bu holat vaqt o'tishi bilan shakldoshlikni yuzaga chiqaradi. *Qizilcha* – kichraytirish, *qizilcha* – kasallik, *qizilcha* – o'simlikning bir turi. Bu holatda kasallik nomi dastlabki ma'nosidan hali batamom uzilib ketmagan. Ammo o'rni bilan shakldoshlikni ham namoyon eta boshlagan. Har uchala misolda ham kichraytirish ma'nosi qisman bo'lsa-da saqlanib qolgan.

"O'zbek tilida ko'pgina affikslar omonimik va polisemantik xususiyatga ega. Shakl jihatdan bir xil bo'lib, har xil turkumdagi so'zlarni yasashga xizmat qiladigan affikslarga omomorfemalar deyiladi"²⁷. Ko'p ma'nolilikdan shakldoshlikka qarab intilish vaqt o'tgani sari kuchayib boradi va ular orasida bog'liqlik batamom uziladi: *uy-ga* (jo'nalish kelishigi shakli), *erta-ga, tekinga* (shakl yasovchi), *ena-ga* (shakl yasovchi), *ter-ga*(moq) kabi. Yuqoridagilardan asoslanadiki, morfologik shakllar shakldoshlik holati orqali ham ko'payib

²⁵ Mirzaqulov T. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – B. 34.

²⁶ O'zbek tili grammatikasi. II jildlik, I jild. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 81.

²⁷ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1965. – B. 6.

borgan. Morfemalarning taraqqiyoti asosida bir shaklning boshqa-boshqa mazmunlar ifodalashi mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqarmoqda.

O'zbek tili morfemikasi bir necha affikslarning qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma affikslar hisobiga boyigan (bunda bugungi kunda tarkibida shaklan mustaqil bir necha affiks mavjud bo'lgan ma'no jihatidan ajralmas qo'shma affikslarga aytiladi, yuqorida aytganimizdek, bu yasalish emas). Qo'shma affikslar haqida tadqiqotlarda ko'p to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da, biz morfologik shakllarni kelib chiqish nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz va affikslarning qo'shilishi orqali yuz berayotgan nomutanosibliklarni ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Morfologik shakllarning so'z yasovchi shakllar bilan birikib ketishi holati kuzatiladi. Masalan, *quv-la-y* so'zida ikki morfema sifatida kelgan birliklarning tarixiy taraqqiyot natijasida birikib, bir morfemaga aylanib qolishi kuzatiladi: *tirik-lay*, *butun-lay*; yoki *gul-la-t* so'zida ikki morfema sifatida kelgan birliklarning *obodon-lat* so'zi tarkibida bir morfemaga o'tib ketganligi buning isbotidir. Misollardan anglashiladiki, ravishdoshning *-y* shakli va *-t* nisbat shakli *-la* yasovchi shaklga birikib qo'shma affiksni hosil qilmoqda.

Morfologik shakllarning ayrim turlari – *ishimiz*, *ishingiz* kabi so'zlardagi egalikning I-II shaxs ko'plik shakllari, tarixan I-II shaxs birlik shakli *-im*, *-ing* hamda *biz*, *siz* olmoshlarining qisqaruvidan (fuziyalashuvidan) hosil bo'lgan (kishilik olmoshlarining *-iz* shakliga kelib qolishi yuqorida qayd etildi). Shuningdek, *bordim* so'zida birlik, *boramiz* so'zidagi ko'plik shaxs-son shakllaridagi *-miz* ko'rsatkichi ham xuddi shunday qo'shma affiksdur: *-m+iz*. *Мун барам*, *киләм* shakldagi so'zlar boshqa turtkiy (tatar) tillarida ham kuzatiladi. Demak, *-m* shaxs-sonda birlik shaklda ishlatilgan, *-iz* esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, kishilik olmoshlarining fuziyasidan hosil bo'lgan ko'plik shakl hisoblanadi. Qiyoslang: *ko'tardi-ng+iz* – *ko'tardi+ngiz*, *ko'rdi-ng+iz* – *ko'rdi+ngiz*.

Shu tarzda ikki yoki undan ortiq morfemalarning birikuvidan qo'shma affikslar yuzaga kelgan, ular orasidagi aloqa yo'qolib, qotib qolgan. Bugun ular sodda affikslarga ajratilmaydi. Shu sababli ularga yagona affiks deb qarash lozim. Fikrimizni A.Hojiyevning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "Affiks morfemalar birikib bir morfemaga aylanadi... *-moqda* (kelmoqda), *-moqchi* (kelmoqchi) morfemalari shu yo'l bilan yuzaga kelgan. Bular "qo'shma affikslar" deb ham yuritiladi"²⁸.

Misollarlardan ko'rinadiki, morfemalar tizimida ham ko'chish jarayoni yuz berib, konversiyaga uchraydi. Shakl yasovchilarning so'z yasovchiga konversiyasi *-(i)sh*, *-(u)v* kabi harakat nomi shakllarida kuzatiladi, bu jarayon bir vaqtning o'zida sodir bo'lmaydi. Bunday shakllar tarixiy taraqqiyot tufayli shakldoshlikni yuzaga keltiradi va bugungi kunda shakldosh affiks sifatida e'tirof etiladi: *yashash*, *o'qish*, *bilish*, *o'ynash*; *kechuv*, *tergov*, *qidiruv*, *ko'rsatuv*, *saylov*. Bunday ko'chishlar bugungi kunda gaplar tarkibida yaqqolroq

²⁸ Hojiyev A. Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – B. 69.

ifodalanadi.

Tarixan sifatdosh shakli bo'gan *-mish* affiksi ham (*kelmish – kelg'on, bo'lmish – bo'lg'on, bormish – borg'on, yurmish – yurg'on*) bugungi kunda konversiya yo'li bilan so'z yasovchi vazifaga o'tgan: *yemish, o'tmish, qilmish* singari.

-ma fe'lning bo'lishsiz shakli ham konversiya yo'li bilan so'z yasovchilikka o'tgan: *qovurma, qaynatma, terlama, uyushma. Bo'g'ma ilon, qaynatma sho'rva, qovurma lag'mon, ko'tarma kran, osma ko'prik* singari so'zlarda sifat yasovchilar; *topilma, qo'llanma* singari so'zlarda ot yasovchilar buni isbotlamoqda.

Qamaldi, buraldi so'zlaridagi nisbat shakli hisoblangan *-(i)l* ham konversiya yo'li bilan so'z yasovchiga o'tgan: *ayir+il – ayril; qama+l – qamal* singari. Demak, morfologik shakllarda ham ko'chish yo'li bilan boshqa shakllarni hosil qilish holati mavjud bo'lib, bunday holatlar morfologik shakllarning taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, bunday shakllar dastlabki shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqarishga sabab bo'ladi.

RAHBARLARNI PSIXOLOGIK SARALASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Safarov Dilmurod Xalimovich

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
“Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari” kafedراسi mudir,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Mutaxassis faoliyatini o'rganish fikri bugungi kundagi kashfiyot emas. Zamonaviy tarzda rahbarlarni o'rganish tarixi asrlar davomida shakllanib kelgan. A.A.Bodalyov va V.V.Stolinning fikricha, u turli qobiliyatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni sinash bilan bog'liq bo'lgan. Eramizgacha 3 ming yillik o'rtalarida qadim Vavilondagi mutaxassislar sinovlari o'tkazilgan.

Qadim Misrda din peshvolarida bir qator sinovlardan o'tkazishgan. Suhbat olib borish ko'nikmalari, tashqi ko'rinishi, mehnat qilish ko'nikmalari, tinglash, olov, suv bilan sinash kabi topshiriqlardan iborat bo'lgan. Bu sinovlar o'zida ishonchi bo'lmagan, ta'limning uzoq muddatiga dosh bera olmaydiganlarni hatto o'ldirish bilan qo'rqitishardi. Shuning uchun har bir nomzodga ibodatxonaga kirishdan avval yaxshilab o'ylab ko'rish tavsiya etilgan. Bu sinovlar tizimini buyuk olim Pifagor yengib o'tgan. Gretsiyaga (Yunonistonga) qaytib o'zi engib o'tgan qiyinchiliklarga o'xshash sinovlardan o'ta oladigan kishilarni o'zi asos solgan maktabga qo'ygan. Pifagor intellektual qobiliyatlarga katta e'tibor bergan. Shuningdek, u yoshlarning kulishi va yurishiga e'tibor bergan.

Eramizgacha 2200 yil avval qadimgi Xitoyda hukumatning mansabdor

lavozimini egallashni xoxlovchi kishilar qobiliyatini tekshirish tizimi mavjud bo'lgan. Musiqa, kamondan otish, otda yurish, yozish, hisoblash, marosimlarni o'tkazish bo'yicha har 3 yilda amaldorlar shaxsan imperatorlar sinovidan o'tishgan.

Davlat uchun imtihonlar tizimi eng qobiliyatli, iqtidorli kishilarni tanlash vositasi edi.

O'rta asrlar davomida ham turli imtixonlar o'tkazilgan. Vetnam davlatida atigi ikki yil davomida (1370-1372) barcha harbiy va fuqarolik amaldorlarining qayta tekshirish ishlari o'tkazildi. Bu butun mamlakat bo'yicha davlat apparatlarini tekshirishdan o'tkazish imkonini berdi. Natijada Vetnam yanada kuchli feodal mamlakatga aylandi.

XV asrda sinovlar tartibga solindi. Ular bosqichlar va tur bo'yicha o'tkazilardi. Imtihonda oliy darajalarga erishish hurmatga sazovor bo'lish hisoblanardi.

Eramizdan avvalgi 427-347 yillarda Platon o'z asarida "Hamma narsani ko'p miqdorda, sifatli va oson bajarish mumkin, qachonki, uni o'z tug'ma imkoniyatlarimizdan kelib chiqqan holda amalga oshirsak" deb yozadi.[46]

Platonovning fikricha, rahbarlarni o'rganishni psixologik tashxis qilish jarayonini nazariy o'rganish, uni amalda qo'llash boshqa bir qator jarayonlar bilan (faoliyatni psixologik ta'minlash, kasbiy psixologik tayyorgarlik, kasbiy psixologik kuzatish, kasbiy psixologik tuzatish va hokazo) bo'lib, shaxs va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra amal qiladi. U o'z o'rnida kasbiy psixologik tashxis ikki ko'rinishda bo'ladi deb hisoblaydi.

Birinchi, bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan lekin bir nisbatdagi alohida xususiyatlarni o'rganishni maqsad deb bilsa, ikkinchisi esa shaxsga tizimli yondashuv tamoyiliga ko'ra faoliyat yuritadi.

Birinchi turdagi kasbiy psixologik tashxisni amalga oshirish uchun kasbiy ahamiyatli xususiyatlar ro'yxatini tuzish va ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchi turdagi kasbiy psixologik tashxis shaxsni alohida sifat va xususiyatlariga to'xtalmay ularni muayyan tizim asosida o'zaro bog'liqlikda o'rganadi. K.K. Platonov ushbu yondashuvni kasbiy psixologik tanlov samaradorligini oshirishda eng ma'qul usul deb tavsiflaydi. Haqiqatan ham bunday yondashuv nafaqat shaxs xususiyatlari ko'rsatkichlarini inobatga oladi, balki ularni o'zaro bog'liqligi hamda bir-biriga ta'sirini yaxlit holda tahlil qiladi.

Ushbu yondashuvning afzallik tarafi uning tizimli va shaxsga yaxlit yondashuv tamoyiliga egaligidir. Bizga ma'lumki, hech bir psixik hodisa, holat, xususiyat va ularning sifati shaxs faoliyatida namoyon bo'lishiga ko'ra alohida shaklda uchramaydi. Shuning uchun ham shaxsning xatti-harakatlarini uning shaxsiy sifatlari bilan uyg'unlikda tahlil qilinmasa uning kelajakdagi faoliyati uchun oldindan xulosa, tavsif berib bo'lmaydi.

Rahbarni shaxsga yo'naltirilgan tamoyil asosida o'rganish uni funksional tizimi dinamikasini tahlil etishni talab etadi va bu kasbiy psixologik tashxisning

dinamiklik tamoyiliga tayanadi. Amaliyotda bu tamoyil avvalgi ish o'qish joyidan olingan tavsifnomalar asosida xulosa chiqarishga asoslanadi. Lekin bu hujjatlarning qanchalik ob'ektiv haqiqatga yaqinlik darajasi kasb tanlashning ishonchlilik darajasini tushirib yuboradi.

Kasbiy tashxisning dinamiklik tamoyili bu hoh amaliy faoliyat hoh kasbga tayyorlash yoki ta'lim-tarbiya jarayoni bo'lishidan qat'iy nazar muayyan vaqt va kasbiy mahoratga erishish jarayonini qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, shaxsni muayyan faoliyatga tanlash, lavozimga tavsiya etish bosqichma-bosqich to'g'rirog'i ilmiy nuqtai nazardan aytadigan bo'lsak, shaxsni butun faoliyati davomida psixologik kuzatish asosida tashkil etilishi kerak. Bunday shaklda shaxsni faoliyatga "kirish"idan to undan "chiqish" igacha bo'lgan vaqt oralig'ida tashkil etiladigan kasbiy psixologik tashxis faollik tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Faollik tamoyiliga tayanadigan xulosa aynan psixologik ko'rinishda bo'lib o'zida yo'naltiruvchi, tarbiyalovchi, tuzatish kirituvchi tavsiyalarni aks ettiradi.

Ma'lumki, bugungi kunda rahbarlarni o'rganish davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining ishchilarini faoliyat mahsulligini, professionalizmi, malaka darajasini belgilash uchun o'tkaziladi.

Birinchi navbatda rahbarlarni o'rganish mutaxassisning egallab turgan lavozimiga kasbiy muvofiqligini aniqlashga qaratilgan. Yosh mutaxassislarni kasbiy tekshiruvdan o'tkazish 2-3 yildan keyin amalga oshiriladi. Bunda yosh mutaxassisning egallab turgan lavozimiga mosligi va uning kasbiy rivojlanishini istiqbolli rejalari nazarda tutiladi.

Mutaxassisning egallab turgan lavozimiga mosligini aniqlash zaruriyati shuningdek, ish stajiga ega bo'lgan talab ishchiga nisbatan ham kelib chiqishi mumkin. Haq to'lash shartlari mehnat xarakteri va mazmunining o'zgarishi yangi texnikaning kirib kelishi, yangi texnologiyalarga o'tish, egallab turgan lavozimiga muvofiqligini tasdiqlash uchun kerak bo'ladi. Nihoyat, yoshdagi o'zgarishlar va kasbiy deformatsiyalar bilan bog'liq ishchining kasbiy nomuvofiqligi bo'lishi mumkin.

Rahbarlarni o'rganishning keyingi muhim jihati mutaxassis faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

Albatta, rahbarlarni o'rganish ob'ektiv xarakterga ega bo'lishi lozim. Rahbarlarni o'rganishda ishchi kasbiy faoliyatining ma'naviy tomonini hisobga olish lozim. Har bir kasbda xulq etikasi va korporativ axloq mezonlari mavjud. Ularga rioya etish tashkilot va muassasalarining rahbarlari uchun muhim ahamiyatga ega. Kasbiy ahloq qarorining ijtimoiy asoslanishiga, mahsulot sifatiga, rahbar kadrlar siyosatiga, jamoadagi ijtimoiy - psixologik muhitga ta'sir etadi.

Nihoyat, rahbarlarni o'rganish mutaxassisning o'z ishiga va kasbga bo'lgan sub'ektiv munosabatini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, asosiy qobiliyat tarkibidan tashqari, rahbarlarni o'rganish istalmagan kasbiy sifatlar bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs deformatsiyalari va albatta, ularning tashxis

usullarini aniqlab berishlari lozim.

Asosiy qobiliyatlar va istalmagan kasbiy sifatlar tashxisi natijalari rahbarning kasbiy rivojlanishini va malakasini oshishini aniqlab berishi kerak.

Rahbarlarni o'rganish - bu malaka professionalizmning o'sishini tezlatish boshqaruvli mehnat sermahsulligi, ijodiy tashabbuskorlikning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga haq to'lashni differentsiatsiya yo'li bilan ishchilarni ijtimoiy himoyalash kabilardir. Rahbarlarni o'rganish quyidagi ijtimoiy

- iqtisodiy va psixologik kasbiy masalalarini echishi kerak;
- rahbarning egallab turgan lavozimi va talab etayotgan malaka toifasiga mosligini o'rganish;

- ishchilar mehnat haqqini uning faoliyati natijalariga ko'ra ajratish;

- rahbarning kasbiy shaxsiy imkoniyatlarini oshirishni tezlatish;

- shaxs kasbiy deformatsiyasini korreksiyasini amalga oshirish va istalmagan kasbiy sifatlarni neytrallashtirish;

- rahbarni kelgusidagi kasbiy ta'limi o'sishga imkon berish.

Shuningdek, rahbarlarni o'rganish noxush masalalaridan biri - shtatlarni qisqartirish, rahbarlik faoliyatidan qoniqtirmaydigan ishchilar qutilishiga imkoniyat yaratadi.

Rahbarlarni o'rganish tashkilotda ma'lum tanglikni yaratadi chunki, u sub'ektiv va xato bo'lishi mumkin bo'lgan baholash jarayonlari bilan bog'liq. Chunki rahbarlarni o'rganish natijalariga ko'ra, shaxs uchun juda muhim bo'lgan xulosalar chiqariladi. Shuning uchun rahbarlarni o'rganish jarayonini o'tkazish uchun ishchining professionalizm darajasini, mehnat samaradorligini va kasbiy imkoniyatini to'g'ri baholay oladigan professionallar jalb etiladi.[38]

Shaxs faoliyati va xulqiga kishi hayotining birinchi kunidanoq baho beriladi. Atrofdagilar uni anglagan yoki anglamagan, tizimli, tizimsiz baholashadi. Baholash bizning kundalik aloqalar odamlar bilan muloqotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu baholashdan farqli ravishda rahbarlarni o'rganish tashkilot a'zolarining (baholovchi) shu tashkilot a'zolarini standartlashgan baholash shaklidir. Bunday farq baholash shaklidir. Asosan, kadrlarni baholash masalalari bo'yicha adabiyotlar tahlili asosida barcha rahbarlarni o'rganish usullarini ikki guruhga bo'lish mumkin: erkin va parametrlari berilgan guruhiy rahbarlarni o'rganish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Rahbarlarni o'rganishdan avval ishchilarni uning o'tishi haqida ma'lum qilishi lozim: toifaga talablari, baholash usullari, o'tish muddati va hokazo. Rahbarlarni o'rganish natijalari bo'yicha suhbat o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun rahbarlarni o'rganish yuzasidan suhbat olib borishga o'rgatish lozim.

РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВОСИТАСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ТЕХНОЛОГИК МОДЕЛИ

Хайруллаев Дилшод Бахритдинович

Шаҳрисабз давлат педагогика институти ўқитувчиси

Ахмеджонов Дилмурод Фуломович

Чирчиқ давлат педагогика университети информатика ўқитиш
методикаси доценти

Аннотация: Мақолада педагогик тизим фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш муаммоси (тор маънода - ўқув жараёнининг самарадорлиги) замонавий назария ва ўқув амалиёти учун жуда долзарблиги қайд этилади. Шунингдек, замонавий таълимда рўй бераётган туб ўзгаришлар – таълим парадигмаларининг ўзгариши, ахборот технологияларини жорий этиш – ўқувчиларнинг билим сифатини ошириш вазифасини долзарб аҳамият касб этаётганлиги мулоҳаза қилинади.

Калит сўзлар: ОТМ, ўқув жараёни, ахборот технологиялари, ўқув амалиёти, рақамли технологиялар, замонавий таълим, технологик модел.

Аннотация: В статье отмечается, что проблема оценки эффективности педагогической системы (в узком смысле – эффективности образовательного процесса) весьма актуальна для современной теории и образовательной практики. Также считается, что фундаментальные изменения, происходящие в современном образовании – смена образовательных парадигм, внедрение информационных технологий – повышают качество знаний учащихся.

Ключевые слова: ВО, образовательный процесс, информационные технологии, образовательная практика, цифровые технологии, современное образование, технологическая модель.

Abstract: The article notes that the problem of evaluating the effectiveness of the pedagogical system (in a narrow sense - the effectiveness of the educational process) is very relevant for modern theory and educational practice. It is also considered that the fundamental changes taking place in modern education - the change of educational paradigms, the introduction of information technologies - increase the quality of students' knowledge.

Key words: higher education, educational process, information technology, educational practice, digital technologies, modern education, technological model.

ОТМнинг ўқув жараёнига рақамли технологияларни жорий этилиши билан ўқув жараёнини такомиллаштириш ва талабалар касбий сифатларини шакллантиришнинг технологик моделини ишлаб чиқиш вазифаси пайдо бўлди.

Модел - схема, физик тузилмалар, рамзий шакллар ёки формулалар кўринишида сунъий равишда яратилган намуна бўлиб, улар ўрганилаётган объектга (ёки ҳодисага) ўхшаш бўлиб, тузилишини, хусусиятларини соддароқ ва кўполроқ кўрсатади ва такрорлайди [158].

Моделлаштиришнинг бошланғич нуқтаси мақсадни белгилаш бўлиб, у ишлатиладиган моделларнинг турини ва уларнинг мақсадини белгилайди. Ушбу мақсадларни таълимнинг замонавий муаммолари билан боғлаш муҳимдир. Педагогикада таълим мазмуни ҳам, ўқув фаолияти ҳам моделлаштирилган. Ҳар қандай педагогик тадқиқотда моделнинг амалий аҳамияти, асосан, унинг объектнинг ўрганилаётган жиҳатларига мувофиқлиги, шунингдек, моделни куриш босқичларида моделлаштиришнинг асосий тамойиллари қанчалик тўғри ҳисобга олинганлиги билан белгиланади - кўриниш, аниқлик, объективлик, бу асосан моделнинг имкониятлари ва турини, шунингдек, педагогик тадқиқотлардаги функцияларини белгилайди. Педагогик моделлаштириш учун қуйидаги тадқиқот жараёнлари тавсифлидир: 1) жараёнга кириш ва моделлаштиришнинг услубий асосларини танлаш, тадқиқот предметининг сифат тавсифи; 2) моделлаштириш вазифаларини белгилаш; 3) ўрганилаётган объектнинг асосий элементлари ўртасидаги боғлиқликни аниқлаган ҳолда моделни куриш, объектнинг параметрларини ва ушбу параметрларнинг ўзгаришини баҳолаш мезонларини аниқлаш, ўлчаш усулларини танлаш; 4) ҳақиқийликни, моделларни ўрганиш; белгиланган вазифаларни ҳал қилиш; 5) педагогик экспериментда моделни қўллаш; 6) натижаларини мазмунли талқин қилиш.

Моделлаштиришга, хусусан, педагогик моделлаштиришга бағишланган ишларни таҳлил қилганда, педагогик моделлаштириш замонавий педагогиканинг истиқболли соҳаси эканлиги ва уни қўллаш бизнинг тадқиқотларимиз учун долзарб эканлиги аён бўлади: моделлаштириш: а) эвристик кучга эга; б) ундан фойдаланиш таълим жараёнини мураккаб тизим сифатида замонавий куриш имконини беради; в) самарали таълим технологиясини лойиҳалаш имконини беради; д) замонавий педагогиканинг назарий асосларини тизимлаштириш ва расмийлаштиришда интегратив функциясини амалга ошириш имконини беради; В.И.Михеев, “педагогикада моделлаштириш усулининг кенг қўлланилиши унинг гносеологик функцияларининг хилма-хиллиги билан изоҳланади, бу эса педагогик ҳодиса ва жараёнларни махсус объект – моделда ўрганишга олиб келади” [158, б-5]. Рақамли технологиялар ёрдамида талабаларнинг касбий сифатини шакллантириш моделида педагогика ОТМнинг ўқув жараёнида биз ўқув жараёнининг тавсифи ва назарий асосланишини, педагогик шарт-шароитларни, рақами технологиялардан фойдаланган ҳолда талабаларнинг касбий сифатини шакооантирадиган дидактик имкониятларни тушунамиз. Педагогик моделлаштиришнинг қуйидаги компонентлари аниқланди: ўқув жараёнини

мақсадни белгилаш ва режалаштириш; ўқитиш методлари ва ташкилий шакллари ишлаб чиқиш; таълим фаолиятини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш. Топ маънода биз таклиф қилаётган модел - бу олдиндан белгиланган мақсадга эга, унга эришиш учун ишлаб чиқилган методлар ва воситалар тўплами, шунингдек, ҳаракатларни баҳолаш ва ишлашни тушуниш параметрларини ўз ичига олади. Шундай қилиб, модел схемаси ўзаро боғлиқ бўлган учта блокни ўз ичига олади: мазмун-мақсад - талабаларнинг касбий сифатини шакллантириш воситаси сифатида рақамли технологиялардан фойдаланишнинг мақсадли таърифини, билим сифатларининг хусусиятларини ва турларининг тўлиқ тавсифини ўз ичига олади; жараёний - педагогика ОТМнинг ўқув жараёнига рақамли технологияларни жорий этиш босқичлари ва моделларини, ўқув жараёнида рақамли технологиялар ёрдамида талабаларнинг касбий сифатларини шакллантиришнинг педагогик шартларини, шунингдек, талабаларнинг таълим муассасалари билан ўзаро таълимнинг ташкилий шакллари ўз ичига олади; мезон-баҳолаш - фаолият мезонлари, талабаларнинг касбий сифатини шакллантиришнинг диагностик кўрсаткичлари ва натижани ўз ичига олади.

Ахборот технологиялари воситасида амалга оширилган замонавий рақамли технологиялар қуйидаги дидактик имкониятларга эга: очиқлик, мослашувчанлик. Мултимедиа - матн, аниматсия, график ва товуш каби бир нечта маълумотларнинг бир маҳсулотдаги комбинатсияси, бу бир вақтнинг ўзида инсон идрокининг бир нечта каналларига бир вақтнинг ўзида таъсир қилиш имконини беради, ўрганиш тсиклининг тўлиқлиги (яхлитлиги) ва узлуксизлигини таъминлайди.

ОТМнинг ўқув жараёнида рақамли технологиялар ёрдамида талабаларнинг касбий сифатини шакллантиришнинг ишлаб чиқилган технологик модели ушбу ресурсларнинг қуйидаги турларини ўз ичига олади:

1. Автоматлаштирилган таълим тизими (АТС) – янги маълумотларни тақдим этиш, ўзлаштириш кўникма ва малакаларини, оралик ва якуний тест синовларини ўтказиш учун мўлжалланган, ўқув дастурининг ўзи учун ҳам, ўрганилаётган фан учун ҳам ишончли ёрдам тизимига эга бўлган компьютер педагогик дастурий восита.

2. Электрон - дарслик (ЭД) - рақамли маълумотни ўз ичига олган гиперматнли ҳужжат; ўқув назарий материали, луғат, амалий иш мавзулари, фан бўйича топшириқлар ва уни ўрганиш бўйича тавсиялар ҳамда тест топшириқларидан ташкил топган. Электрон дарсликнинг асосий хусусиятларига қуйидагилар киради: материал тақдимотининг тўлиқлиги ва узлуксизлиги, замонавий ахборот воситаларидан фойдаланган ҳолда ишнинг янги дидактик схемаларини амалга ошириш, ахборот технологияларидан комплекс фойдаланиш, навигация имкониятлари.

Электрон дарслик дидактик восита сифатида анъанавийдан кўра кўпроқ функционаллиққа эга. Бундай дарсликларнинг анъанавий дарслик ва ўқув қўлланмаларига нисбатан афзаллиқлари қуйидагича:

- мултимедиа маълумотларини тақдим этиш имконияти;
- ахборотни тезкор қидириш;
- бошқа электрон қўлланмалар билан боғланиш имконияти;
- динамизм, яъни. тез ўзгартириш ва тўлдириш қобилияти;
- интерактивлик;
- ихчамлик;
- арзонлиги.

Бугунги кунда электрон дарсликларни яратиш жараёни анча соддалаштирилган бўлиб, бу каби дарсликларни яратишга ўқитувчи ва талабаларни жалб этиш имконини бермоқда.

3. Web-квест - тадқиқот фаолиятининг махсус ташкил этилган тури, бунинг учун талабалар тармоқдаги рақамли технологияларни кўрсатилган манзиллар бўйича қидирадилар. Таълим веб-квестларининг ўзига хос хусусияти шундаки, у билан мустақил ёки гуруҳли ишлаш учун маълумотларнинг бир қисми ёки барчаси турли веб-сайтларда жойлашган. Улар тингловчиларнинг вақтидан унумли фойдаланиш, олинган маълумотлардан амалий мақсадларда фойдаланиш ҳамда танқидий фикрлаш, ахборотни таҳлил қилиш, синтез қилиш ва баҳолаш кўникмаларини ривожлантириш мақсадида яратилган.

4. Компютер ўйини. Педагогик адабиётларда "ўйини" тушунчасининг кўплаб таърифлари мавжуд бўлиб, уларнинг батафсил таҳлилида келтирилган.

Э.Берндан ўйинга қуйидаги таърифни берган: зарур омилларни босқичма-босқич кўп босқичли такомиллаштириш, қўшимча равишда олинган ва яратилган маълумотларни таҳлил қилиш шароитида қарорларни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш жараёни. Ишбилармонлик ўйинини тушунишда қуйидаги элементлар ва шартларни ҳисобга олиш муҳимдир: дидактик вазифа, ўқув ўйин вазифаси, ролларнинг мавжудлиги, рол мақсадларидаги фарқ, ўйин (конфликт) вазияти, ўйин қоидалари. Ишбилармонлик ўйини - бу, бир томондан, муайян таълим муаммоларини ҳал қилишга, бошқа томондан, бир вақтнинг ўзида бир-бирига профессионал таъсир кўрсатиши, ўзаро алоқаларни ўрнатиши керак бўлган касбий аҳамиятга эга бўлган ишбилармонлик фазилатларини шакллантиришга қаратилган ўқув туридир. Компютер дидактик ўйинлари ушбу жараённинг ҳар бир субъектига ўзига хос амалий муаммоларни ҳал қилиш даражасида ўзига хос таълим траекторияси бўйлаб ҳаракат қилиш ва касбий фаолиятнинг индивидуал услубини ривожлантириш имкониятини бериш орқали касбий тайёргарлик жараёнини индивидуаллаштиришга имкон беради.

Адабиётлар рўйхати:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'PQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/2126032>
3. H.Атаева, М.Салаева, С.Ҳасанов. Умумий педагогика (Педагогика назарияси ва амалиёти асослари). Укув куллаима. II китоб. \ . Бобоевнинг умумий тахрири асоснда. -Т.: «Fan va texnologiya», 2013, 860 бет.
4. Umumiy pedagogika. - Т .: « Fan va texnologiya», 2018, 528 bet.
5. Hasanboyeva va boshqalar, Pedagogika tarixi darslik, -: G'.G'ulom nashriyoti, 2004y 312b

ТАЛАБАНИНГ КОГНИТИВ ТАКОМИЛЛАШУВИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗГА ҲОС АҲАМИЯТИ.

Л. С. Турсунов

Низомий номидаги Тошкент Давлат Педагогика Университети
психология кафедраси п.ф.н. доц

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясининг "Олий таълим тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари ва устувор йўналишлари" деб номланган 3-бобининг "Олий таълим билан қамровни кенгайтириш, олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш" деб номланган 1-§ да "Мустақил таълим соатлари улушини ошириш, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқувуслугий материалларни кенг жорий этиш" [1] масалаларида таълим олувчиларнинг мустақил таълим олишлари, мустақил ишлаш малакаларини узлуксиз ошириш орқали мутахассисларнинг зарурий компетенцияларини, ижодий яратувчанлик, тадқиқотчилик, мантиқий тафаккурини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Олий таълим тизимидаги ўқув режаларга эътибор қаратилса унда асосий фанларни талабалар томонидан мукамал ўзлаштириш учун мустақил таълимга алоҳида соат ажратилганлигини кўришимиз мумкин. Мустақил таълимга қисқача тариф берадиган бўлсак. Мустақил таълим – шундай таълим йўналишики, унда талаба аудиторияда олган билим, куникма ва

малакаларни мустаҳкамлаш, қўшимча маълумот ёки манбаларни мустақил ўрганиш мақсадидаги ўқув шакли ҳисобланади.

Ҳар томонлама етук мутахассисларни тайёрлашда аудиториядаги маруза, семинар ва амалий машғулотларнинг ўзи кифоя бўлмай қолганлигини бевосита ишлаб чиқариш муассасалари эътироф этмоқдалар. Чунки назария ва амалиётни узвий бирлиги мавжуд бўлмаган жойда етук замонавий мутахасис бўлиши ҳақида гап бўлиш ҳам мумкин эмас. Айнан ана шу нуқтаи назардан ёндошадиган бўлсак сўнги йилларда давлатимиз ҳудудидаги Олий таълим муассасаларда таълим тизимини ривожлантиришга давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилмоқда. Талаба ёшларимизнинг жаҳон андозаларига мос шароитларда билим олиши, жисмоний ва маънавий жихатдан етук шахслар бўлиб шакилланишини таъминлаш, қобилият ҳамда иқтидори, интеллектуал салоҳиятини юзага чиқариш борасида кенг кўламли амалий ишлар амалга ошириб келинмоқда. Талабларга юқори даражадаги билимни ўқув аудиториясидаги машғулотлар тўлиқ билимларни бера олмайди. Буни амалга оширишда мустақил ўқув фаолияти тўлдирувчи такомиллаштирувчи вазифасини бажаришни ўз зиммасига олди.

Нафақат олий таълим балки барча йўналишдаги мустақил таълим тушунчасига изох бериб утсак. Мустақил таълим - олинган билим, кўникма ва малакаларни мустаҳкамлаш, қўшимча маълумот ёки материални мустақил ўрганиш мақсадидаги ўқув шакли деб таъриф бериш мумкин..

Билимларни ўзлаштирувчи - мустақил фаолият муайян фандан ўқув дастурида белгиланган ҳамда билим олувчи томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришни амалга оширишга хизмат қилади, ўқитувчи маслаҳати ва тавсиялари асосида аудитория ёки аудиториядан ташқарида бажарилади. Фаннинг хусусиятидан келиб чиқиб, мустақил иш турлари буйича топшириқлар ишлаб чиқилади.

Мустақил таълимнинг вазифасига келсак, бирор бир фандан ўқув дастурида белгиланган ҳамда талаба томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришни амалга оширишга хизмат қилади, фан ўқитувчиси маслаҳати ва тавсиялари асосида аудитория ёки аудиториядан ташқарида амалга оширилади. Ўқув фаннинг хусусиятидан келиб чиқиб, фан мутасаддиси томонидан мустақил иш турлари буйича топшириқлар ишлаб чиқилиши лозим.

Э. Ғ. Ғозиевнинг илгари сурган фикрига асосан “Олий таълимдаги мустақил ишларнинг барчаси: конспект тузиш, реферат, аннотация, тезис, семинарга ҳозирлик, курс ва битирув ишлари ёзиш талабадан мустақилликни, ижодий ёндашишини, (креативликни) муаммоли ҳолатни, мураккаб педогогик вазиятни ҳал қилишни тақозо қилади” [2]. Мазкур ҳолат эса ўз навбатида талабанинг идрок, хотира ва тафаккур

жараёнларининг тасирида когнитив ривожланишига хизмат қилади. Шу сабабли ҳам мустақил таълим талабанинг когнитив ривожланишига мунтазам таъсир этиб туради.

Юқоридаги фикрдан кўриниб турибдики мустақил таълим талабаланинг билиш жараёнлари орқали фанларни ўзлатириши асосида ўзлигини (когнитив) мутахасис сифатида шакилланиб, ўзи томонидан тан олиб боришга ҳам таъсир этиб боради. Мазкур ҳолат ўз навбатида мутахасис сифати ўзини англашига ижобий таъсир этмасдан қолмайди.

Олий таълимда фанларини ўқитиш тажрибасидан маълумки, маънавий етук баркамол мутахасисни шакллантиришда мустақил онгли фаолият юритиш билвосита ва бевосита мустақил ижодий ҳамда креатив тафаккурни фаоллигини талаб этади. Шуни ҳам такидлаш жоизки ижодий ва мустақил криатив тафаккур, ўз нуқтаи назарига эга бўлмаган талабада ижодкорлик бўлмайди, мустақил фикрий фаолият юритиши қийин кечади.

Мустақил таълимнинг яна бир ўзига хос томони, талаба фанга доир илмий атамалар билан мунтазам танишиб боради. Илмий атамаларни ўз жойида моҳияти ва маъносини англаган ҳолда қўлай билиш талабада илмий нутқни юзага келтириш билан бир қаторда ҳамкасблари билан мулоқатга киришишида ўзлигини намоён этишнинг имкониятини таъминлайди.

Аксари мутахасисларда илмий нутқнинг шакилланиши орқали ўз соҳасини чуқур англаши билан бир қаторда, ўз соҳасидаги тассавурларини тезаузусси асосида акс этириши ёрдамида мутахасис сифатида когнитив таррақиётини таъминлаб беради. Мустақил таълимни амалга ошириш жараёнида илмий луғатни тузиб бориш мақсадга мувофиқ хисобланади. Айнан ана шу луғатлардан амалда қўллаш орқали илмий нутқнинг шакилланишини кузатишимиз мумкин.

Мустақил таълимни ташкил этиш ва унда маълум бир мовфақиятларга эришиш аввало уни ташкил этиш ва ажратилган вақтларни тўғри тақсимотига боғлиқ бўлади. Бунинг учун асосий аудитория соатларидаги мавзулардан келиб чиқилиши лозим мустақил талимда ўрганилаётган мавзулар ўзига ҳослиги билан аудитория машғулотларидан фарқ қилиши лозим. Мисол учун марузада фойдаланилган асосий адабиётни педагог учта талабага боблари бўйича бўлиб беради. Топшириқ олган талабалар ана шу адабиётни топиб ўзларига тегишли бобларни ўрганиб келиб, уни аудиторияда слаетлар орқали ўз курсдошларига кичик маруза қилиб тушунтириб беришади. Мазкур маруза бевосита диалог усуслида амалга оширилиши шарт хисобланади.

Юқоридаги диалог марузаларни тайёрлашдан ташқари мустақил таълимни куйидаги турларини кўрсатиб ўтишимиз мақсага мувофиқ:

1. Мавзу бўйича кўргазмаларни тайёрлаш;
2. Мавзу бўйича кейсстади ва тестлар тайёрлаш тайёрлаш;

3. Мавзу бўйича қисқа метражли филим тайёрлаш;

4. График мустақил топшириқларга қуйидагиларни киритиш мумкин: схемалар, график-лар, диаграммаларни тузиш, кузатиш натижа-ларини тасвирлаш ва шу каби вазифаларни тайёрлаш.

Мустақил таълимда индивидуал - дидактик мақсадларни амалга ошириш нуқтаи назаридан қуйидаги вазифаларни гуруҳларга ажратиш мумкин:

А) билимларни шаклланишига, идрок қилишга ундайдиган вазифалар;

Б) ўзлаштиришга ахборот, маълумотларни хотирада сақлаш ва қайта эсга тушириш, қайта ишлашга қаратилган вазифалар;

В) аввал ўзлаштирилган билим, малака, кўникмаларга янгича креатив тафаккур нуқтаи назардан ёндашишни талаб қилувчи топшириқлар;

Г) ижодий фаолиятга ундовчи топшириқлар. Хаёлан фикрларни тадқиқ қилиш, ўз фикрини билдиришга ундайдиган топшириқлар, вазифалар.

Д) ўз фикрини баён этиш учун илмий нутқни ривожлантириш вазифаси.

Мустақил таълимда қўйиладиган вази фаларни тўғри шакиллантириш ва амалда қўллаш педагогдан юқори маҳоратни талаб этиши ҳеч кимга сир эмас, шундай экан мустақил таълимни олиб бораётган педагог ўз устида ишлашни бир сония ҳам тўхтатмаслиги лозим. Чунки педагогни олиб бораётган фаолиятини мунтазам равишда кузатиб турувчи талабалар жамоаси мавжуд. Педагог мустақил талим жараёнида талаба олдида қўйган вазифаларини бажарилишини таҳлил қилиб, баҳолаб бориши шарт ҳисобланади.

Э. Ғ. Ғозиев илгари сурган фикрларига диққатимизни қаратсак “Мустақил таълим, билимларни пухта эгаллаш каби ақлий фаолият турларидан ва улардан бирламчи манбалар юзасидан изчил маълумотлар олишни, уларни муайян даражада тартибга келтиришни тақозо қилади. Мустақил таълим ижодий фикрлашга, муаммолар ечимини топишга, анъанавий қарашлардан узоклашишга, касбий кўникмаларни чуқур эгаллашга кенг имкониятлар яратади” [3] мустақил таълимни талабалар когнитв ривожланишига таъсирини кучини тушуниб етишимиз қийин кечмайди.

Мустақил таълимни ажралмас қисими ҳисобланган мустақил ишларни ташкил этишда “оддийдан - мураккабга” ҳамда “умумийдан - хусусийга”, “мавхумдан – аниқликка” қараб ҳаракатланиш билан бир қаторда талаба ўзлигини намоён эта оладиган жараёнга айланиши мақсадга мувофиқдир.

Олий таълим муассасаларида талабаларнинг мустақил таълим олишига алоҳида эътибор қаратилиши, таълим олувчиларда мустақил фикр ва ижодий фикрни ривожлантириш масаласи таълимнинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Талабалар мустақил талим жараёнида ўз

билимларини кенгайтириш, мавжуд малака ва кўникмаларни такомиллаштириш ҳамда билимларнинг янгиларини ўзлаштириш асосида ўз фикрини химоя эта олишга бўлган ҳаракатларини намоён қила олишига имконият яратади.

Шуни алоҳида такидлаш жоизки мустақил таълимнинг асосий мақсади талабаларнинг шахсий ва касбий сифатларини шакллантиришда ўз устида ишлаш, малакасини шакиллантириш орқали тафаккур жараёнини махсулдорлиги ва талабанинг дунё қарашида илмийликни юзага келтиришдан иборат. Мустақил таълимнинг асосий методи илмий адабиётлар устида индивидуал ишлаш орқали керактив тафаккурни янада такомиллаштирига эришиш хисобланади.

Мустақил таълим қандай кўриниш ва йўналишда бўлишидан қаттиқ назар талабаларни замонавий техника воситаларини энг сўнги ютуқларидан фойдаланишга мажбур этмасдан иложи йўқ. Натижада мавзунини тўлақонли таҳлил этиш учун талаба ўзлаштирган билимлари асосида ўзининг когнитив жихатларини ишга солишга ҳаракат қилади. Мазкур когнитив жихат ўз навбатида талабанинг ўзлигини намоён этишга мажбур этади ва талаба истаса - истамаса жамода ўзини статусига эга бўлиши учун барча онгли фаолиятини ишга солади.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб такидлашимиз лозимки мустақил таълим талабалардаги билиш жараёнлари асосида ўзлигини англаши билан бир қаторда илмий менлигини такомиллашувига сабабчи бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони.

2. Ғозиев.Э. Ғ. Педагогик психологияси. –Т. :”Ношир”. 2014. [1]

3. Ғозиев.Э.Ғ. Умумий психология.–Т.:Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2010. [2]

МОРФОЛОГИК ПАРАДИГМАЛАР ВА ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ МУАММОЛАРИ

Турсунали Мирзакулов,

филология фанлари доктори, Олмалик шаҳар Ипак йўли
инновациялар университети профессори

Озода Асланова

Навоий давлат кончилиқ университети ўқитувчиси

Мақолада туркий тиллар ва ўзбек тилида грамматик маъно ифодаланишнинг турли воситалари ва уларнинг муносабати ҳақида фикр юритилади.

В статье исследуется соотношение синтетических и аналитических форум в тюрских языках, в том числе в строе узбекская языка.

Сўз шакл (форма)лари масаласи XIX асрнинг бошларида тилларнинг морфологик таснифи қоидаларини ишлаб чиқиш муносабати билан маълум бир тизимга туша бошлади. Асосий ўлчов сифатида сўзнинг морфологик шаклланиши хусусияти ҳисобга олинди. Қўшимча (аффикс)лардан фойдаланмайдиган, яъни флектив тиддар; бир ўзак ҳамда икки ва ундан ортиқ қўшимчалардан тузилган сўздан фойдаланадиган, яъни флектив тиллар; бир ўзак ҳамда икки ва ундан ортиқ қўшимчалардан тузилган сўздан фойдаланадиган, яъни агглютинатив тиллар; кейинчалик бир неча ўзакнинг бир сўзга бирикиши хусусияти инкорпоратив тилларни белгилашга олиб келди(1).

Европа халқларида грамматик назариялар “классик тиллар” – лотин ва грек тилларини ўрганиш ва ўқитиш жараёнида юзага келади. Ана шу назариялар, лотин тили грамматикаси намуналари асосида янги Европа тилларининг дастлабки грамматикалари тузилди (бу грамматикалар флектив-синтетик сўзни асосий андоза сифатида танлаган эди).

XIX асрнинг 70-йилларида шаклланган “Ёш грамматикачилар” оқими XIX асрнинг 1-ярмидаги тилшуносликнинг асосий ғояларини, жумладан, ўзакли тил босқичидан агглютинатив тил, сўнг флектив тил босқичига ўтиш ҳақидаги фикрларини рад этди, флексия грамматик маънони ифодалашнинг бирдан бир йўли бўлмай, балки бу маъно товуш алмашинуви (“ички флексия”) , урғу, оҳанг, сўз тартиби ва ёрдамчи сўзлар орқали ҳам ифодаланишини асослаб берди (2).

Синтетик грамматик шакллар қатори аналитик шаклларнинг муҳим ўрни борлиги рус олимлари И.А.Бодуэн де Куртенэ, В.А.Богородицкий, Н.В.Крушевский каби олимларнинг ишларида қатъий илмий асосга қўйилди. Н.В.Крушевскийнинг фикрича, рус тилида қоришиқ, синтетик тузумдан аналитик тузумга ўтиш белгилари бор. Акад В.В. Виноградов бу олимларнинг фикрини таҳлил этиб, шундай ёзади; “Афсуски, кейинги грамматик анъаналарда сўзларнинг аналитик ва синтетик шакллари нисбати, алмашинуви ва ўзаро таъсири, рус тили грамматик тизимида аналитик шаклларнинг кучайиши ва ўсиши масаласи сўниб қолди”(3).

Рус тилшунослигида XIX аср охири XX аср бошларида Ф.Ф.Фортунатовнинг “тор морфологизм”и етакчи ўринга чиқди. Бу ақидага кўра, сўзнинг ўзак ва қўшимчага бўлина олиш қобиляти шакл— “форма” бўлиб, ана шу қобилятга эга бўлмаган сўзлар эса шаклсиз (формасиз) ҳисобланади; биринчи тур сўзлар грамматик бўлиб, морфологияда ўрганилади, бошқа ҳамма сўзлар нограмматик бўлиб, морфология объектидан четда қолади.(3, 31) Албатта, сўз шаклларининг бу талқини рус тили грамматик табиатига бир ёқлама ёндашув эди. Аммо аср бошида Марр таълимотининг устунлиги, XX асрнинг 50-йилларидан яна “тор морфологизм”нинг етакчи мавқега чиқиб олиши (бу ғоя “тил

хақидаги сталин таълимоти'га кириб қолган эди) сўз грамматик шаклларига бўлган эътиборни сусайтирди.

Умуман олганда, алоҳида тил ёки тилларни тасвирлашда ҳар қандай тил намуна (эталон, метатил) сифатида танланиши мумкин. Айниқса, чет тили дарсликларида шу тилни тасвирлаш учун ўрганувчининг она тили намуна сифатида танланса, диалектлар тасвирида эса адабий тил умумий асос (намуна) бўлиб хизмат қилади. Таниш бўлмаган, номаълум тиллар тасвири учун эса текширувчи, тадқиқотчи яхши билган тил андоза вазифасини бажаради. Биринчи лотин тили грамматикалари грек тили андозалари асосида тузилган эди. Кейинчалик грек-лотин тили грамматикалари бошқа Европа тиллари грамматикалари учун, санскрит тил-эталони тибет тили грамматикалари тузиш учун асос бўлди. Тилларни тасвирлашда бу усул қулай ва муваффақиятли усул бўлмаса-да, муайян даражада изчилликка эга. Дескриптив тасвир усули тамойиллари айни юқоридаги усул тамойилларига зид бўлиб, америка дескриптив тилшунослигининг пайдо бўлиши ана шу зидлик маҳсулидир(4).

XIX асрда Ғарбий Европа мамлакатларида (француз, немис, инглиз тилшунослигида) тилни тадқиқ этиш ва ўқитиш муносабати билан қадимги лотин ва грек грамматик андозаларининг тўсиқ бўлаётганлиги, тилларни тасвирлашни тор доирага солиб қўяётганлиги ҳақида жиддий танқидий фикрлар айтилди. Француз тилшуноси Фердинанд Брюно 1936 йили шундай ёзган эди: “Тилни юқори савияда ўқитишдаги илмий вазифа шундаки, тилимизни қандай ҳолатда бўлса, шундай тасвирлашимиз зарур... Грек андозалари бизнинг аналитик тилимиз учун деярли аҳамиятини йўқотди ва архаизмга айланди... Шарқшунослар ҳам менга айтдиларки, бу андозалар бошқа тил оилаларига тадбиқ этилганда, тадқиқотчиларни ноқулай ахволга солиб қўймоқда, бизнинг тадқиқотларни эса фалаж холга келтиради”(5).

XX асрнинг 60-йилларидан жаҳон тилларида синтетик ва аналитик шакллар, умуман, сўз шакллари муносабати масаласи долзарб масала сифатида кун тартибига қўйилди.

Айни шу йилларда туркийшунослик ва ўзбек тилшунослигида аналитик шакллар масаласи атрофлича ўрганилди ва йирик тадқиқотлар яратилди. Булар қаторига биринчи навбатда А.А.Юлдашевнинг “Аналитические формы глагола в тюркских языках” (М., 1965), А.Ҳожиёвнинг “Ўзбек тилида кўмакчи феъллар” (Тошкент, 1966), “Ўзбек тилида тўлиқсиз феъл” (Тошкент, 1970), Н.Оралбаеванинг “Қозоқ тилида феълнинг аналитик шакллари” (Алмати, 1971, докторлик диссертацияси) тадқиқотларини киритиш зарур. Бу жихатдан проф Ф.А.Ғаниевнинг тадқиқотлари ҳам катта аҳамиятга эга. Олим “Синтетик ва аналитик келишиклар ҳақида” (“Вопросы тюркологии”, Казань, 1970) номли мақоласида туркий тилларда ёрдамчи морфемалар ёрдамида ҳосил бўладиган аналитик келишикларни белгилаш масаласини кун тартибига

қўяди ва бошқа бир ишида шундай ёзади: “Аналитизм туркий тиллар грамматик ва сўз ясалиши тизими таркибига сингиб кетган. Туркий тиллар қурилишига хос аналитизмни ҳисобга олмай чиқарилган ҳар қандай қоида (схема) жуда юзаки ва уларнинг қурилишидаги кўп нарсани тушуниш қийин бўлар эди” (6).

Проф. А.Ғ.Ғуломов синтетик ва аналитик шакллар муносабати юзасидан фикр юритиб, қадимги восита-қурол келишиги (-ин: *кўзин, қишин-ёзин*) шаклининг келишик парадигмасидан тушиб қолиши, бу шаклнинг маъно-вазифасини билан қўмакчиси олганлиги (*кўзин-кўзи билан*), ҳаракатнинг бажарилиши тавсифини билдирувчи синтетик шакллар ўрнига аналитик шакллар фаоллашганлиги, кичрайтиш қўшимчалари маъноси ҳозирги тилда кўпроқ аналитик ҳамда аралаш (аналитик-синтетик) усулда ифодаланиши (*сал кичик, жаажжигина бола – сал кичикроқ, дўмбоққина болакай, кичкина қушча*) ҳақида ёзади (7).

Сўз шакллариининг аралаш (*кичкина қушча: кичкина ва -ча; рус тилидаги шундай мисоллар билан солиштиринг: маленький домик, седенький старичок*) бирикувидаги воситаларнинг ўзаро муносабатини олимлар “тасаввурдаги мослашув” (А.А.Потебня), “эмоционал мослашув” (В.В.Виноградов) деб номлаган бўлсалар, проф. А.Ғ.Ғуломов бу хил бирикувларини “услубий мослашув” деб юритади.

Сўз туркумларга хос белгилар ҳақида фикр юритиб, проф. А.А.Ғуломов шундай ёзади: “Сўз шаклининг турли воситалар орқали ҳосил қилиниши (аффикслар орқали-морфологик йўл, айрим сўзлар орқали, редупликация орқали, фонетик восита орқали) жихатдан сифат туркуми жуда характерлидир. Уларда аналитик ва синтетик шаклларнинг муносабати ҳам турли хусусиятларга эга. (Қиёсланг: *катта - катароқ –сал катта –сал каттароқ*)” (8).

Акад. А.П.Ҳожиев тадқиқотларидан маълум бўлишича, ўзбек тилида синтетик шакллар қатори, жуфт ва такрор шакллар ҳам катта миқдорни ташкил этади(9).

Акад. Л.В.Шчерба ўз вақтида шундай деб ёзган эди: “Бизнинг офатимиз шундаки, лисоний тафаккуримиз ҳинд-европа тиллари қурилиши ҳукмронлиги остида бўлиб келди. Ҳинд-европа тилларининг тафаккури бошқа тилни ўрганаётган кишига ҳамма нарсани тўсиб қўйган ва ҳамма нарсани ана шу морфологик тафаккур орқали кўриш имкониятигагина эга бўлган. Бизнинг вазифамиз мазкур таъсир ҳукмронлигидан озод бўлиш ва худди биз ифодаляйдиган нарсаларни бошқача ифодаляйдиган тиллар борлигини тушунишдан иборат бўлиши керак”(10).

Қадимги флектив-синтетик типга кирган грек-лотин тиллари асосида тузилган грамматикаларнинг таъсири туфайли ҳозирги замон тиллари грамматикаларида синтетик шакллар мутлақ ҳолга кўтарилган, нафақат синтетик ифодаланиш, балки ифодаланишнинг бошқа турлари, жумладан,

аналитик шакллар орқали ифодаланиш ва турларнинг ўзаро муносабатига алоҳида аҳамият бериш тилшуносликнинг долзарб вазифаларидандир.

Адабиётлар:

1. Қаранг: Плоткин В.Я.Строй английского языка, М.,1989, с.14-15.
2. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. М. 2000, с.511-512.; Жирмунский В.М.Об аналитических конструкциях/ Аналитические конструкции в языках различных типов. М., 1965.
3. Виноградов В.В Русский язык (грамматическое учение о слове) М.-Л., 1947, с.37.
4. Бу ҳақда қаранг: Успенский Б.А.Структурная типология языков М.,1965, с.61. Яна қаранг: Нурмонов А.Структур тилшунослик: илдишлари ва йўналишлари. Андижон, 2006, 107-119-бет ; Расулов Р, Умумий тилшунослик Тошкент, 2006, 67-68- бет; Мирзакулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. Тошкент, 1994.
5. Бу ҳақда қаранг: Жирмунский В,М, Кўрсатилган мақола, 16-бет.
6. Қаранг: Ғаниев Ф.А.Образование сложных слов в татарском языке. М., 1982, с.11.
7. Ўзбек тили грамматикаси, II томлик I том. Тошкент, 1975, 92-бет.
8. Ғуломов А.Ғ. Сифат ҳақида мулоҳазалар /Ўзбек тилида сўз ясашиши. (ТошДУ илмий ишлар тўплами), 608. Тошкент, 1979, 3-бет.
9. Ҳожиев А. Ўзбек тилида форма ясашиши. Тошкент, 1979, 25-бет.
10. Щерба Л.В. О второстепенных членах предложения/Избранные работы по языкознанию. Том1. Л., 1958, с.103.

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТРУКТУРЫ И КОМПОЗИЦИИ ГЕОМЕТРО-ГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Отабеков Улугбек Гайрат угли

Ташкентский Государственный Транспортный Университет

Основой изменения или создания новой системы геометро-графического образования и, соответственно, ее составляющей являются законы образовательной системы. В качестве таких закономерностей, проявляющихся в системе высшего профессионально-технического образования, выделяют следующие закономерности, регулирующие процесс организации и развития всего спектра общетехнических наук:

- фундаментализация включает развитие фундаментальных знаний о существовании, на основе которых осуществляются связи между всеми явлениями действительности, проникновение в сущность мира. Развитие методов познания, заключающееся в построении комплексных знаний о реальной действительности в процессе познания;

- гуманизация включает повышение внимания к личности студента как высшей ценности общества, обращение к внутреннему миру личности,

отношение к формированию личности с высокими интеллектуальными и творческими качествами;

- индивидуализация, выражающаяся в усилении традиционного дидактического принципа необходимости индивидуального подхода к учащемуся, согласно которому в учебной деятельности с учащимися должны учитываться все его индивидуальные особенности;

гуманизация технического образования, представляющая собой целостность и взаимообогащение гуманитарного, естественнонаучного и технического образования, установление гармоничного баланса в их образовании в целях развития способности каждого преподавателя синтезировать знания из различных областей науки.

- интегративность, проявляющаяся в структурных изменениях образовательной системы за счет интеграции соответствующих учебных предметов, углубления взаимозависимости различных предметов;

- переход от информационных к активным методам обучения, включая элементы проблемного обучения, научных исследований, широкое использование ресурсов самостоятельной работы обучающихся. Это сочетается с переходом от строго регламентированных методов организации учебного процесса к методам развития, способствующим развитию творческой личности;

Рассмотренные образовательные законы находят конкретное выражение в принципах, положенных в основу порядка формирования структуры учебных курсов, которые должны быть отражены в учебных планах и учебных планах предметов. Принципы — это главные исходные правила любой теории, науки в целом. Педагогические принципы – это основные идеи, соблюдение которых помогает наилучшим образом достичь поставленных педагогических целей.

Существуют разные подходы к выбору методологических принципов организации научных знаний и определению их функциональной нагрузки. Для этой цели приоритетным представляется использование методов системного анализа конкретной научной теории, основанной на науке, поскольку основы научной теории являются ведущим компонентом содержания образования. Научная теория — это высшая форма научного познания, результат процесса научного познания, выраженного в языковой форме, а учебное (воспитательное) знание — результат обучения (познания) научного знания. Научные и связанные с ними образовательные знания представляют собой систематические знания в форме теории. Систематическое усвоение теории и ее элементов является необходимым, но недостаточным условием систематического усвоения курса. Студентам важно представить науку как внутреннее целое.

Рассматривая цикл общего инженерного образования с точки зрения целостности, прежде всего необходимо определить принципы организации геометро-графических знаний как основы освоения теоретических основ

общеинженерных и специальных наук. Вся совокупность технических наук может быть объединена в ряде направлений. В основе каждого из них лежит теория геометрического моделирования и, соответственно, формирование формообразующей геометрии как учебной дисциплины. Научное знание теории геометрического моделирования имеет высший уровень систематизации и построения в соответствии с единой методологией науки и регулирует процесс организации и развития всего спектра технических наук.

Процесс подготовки будущих специалистов, основанный на системной интеграции общеинженерных и геометрическо-графических знаний, требует внедрения и реализации общепедагогических принципов целостного педагогического процесса: научного, фундаментального, соединяющего теорию с практикой, системного, системного и последовательного, профессионального. путь стоны, присутствие и внешний вид.

Следует отметить, что предлагаемый нами системный подход к геометро-графическому образованию в техническом вузе и соответствующий ему принцип системной интеграции являются неотъемлемой частью каждого из выделенных принципов. Например, принцип профессиональной направленности показывает интеграцию профессиональных и геометрическо-графических знаний при выборе теоретических и практических задач профессиональной направленности. Системный принцип показывает установление связей за счёт преемственности между различными учебными предметами, а преемственность позволяет объединять и структурировать отдельные образовательные элементы в единый учебный процесс. Принцип системности обеспечивает систематизацию, обобщение и конденсацию знаний, что способствует повышению уровня научных знаний будущего специалиста, развитию его диалектического мышления и повышению способности использовать знания в различных научных областях при решении профессиональных задач (задач).). Принцип системной интеграции означает полноту системы принципов.

Взаимодействие этих принципов отражает диалектику реального процесса соединения общеинженерной и геометро-графической подготовки с образовательными целями, содержанием, формами и средствами. В таких условиях геометрические и графические науки служат теоретической основой изучения общепрофессиональных и специальных наук, выполняя при этом свои прямые образовательные функции.

Следует отметить, что все принципы связаны друг с другом и взаимопроникают. Они помогают ответить на два вопроса дидактики: «чему учить?» и «как учить?».

Научный принцип показывает, что учащимся для усвоения предлагаются только установленные в науке правила и используются

методы, приближающиеся к методам науки, основы которой изучаются в природе. Реализация этого принципа определяется уровнем современного научного развития существующего общества.

В условиях налаживания системной интеграции научный принцип может быть реализован, если учащиеся, изучая циклические науки, поймут их общность:

а) окружающая действительность, природа является единственным объектом изучения;

б) единство методов обучения; в) общие виды учебно-познавательной деятельности учащихся;

Г) общеобразовательные задачи, направленные на овладение не только знаниями, умениями и навыками, но и соответствующими компетенциями, которые реализуются в готовности обучающегося комплексно применять знания нескольких дисциплин.

Основное содержание научного принципа состоит в том, что при определении содержания учебного предмета и методов его изучения используются общенаучные методы познания основы определенного научного материала в определенном проявлении и на той или иной стадии развития. рассматриваемая научная проблема должна использоваться как знание конкретных методов и приемов. в настоящее время используется научным сообществом. Именно научный принцип требует включения новейших достижений в области применения геометрических знаний в конкретную техническую область в качестве вариативной составляющей геометро-графического образования в учебную программу технического вуза. Например, основные аспекты таких знаний должны включать исследования в области многомерной геометрии: геометрические данные, понятие геометрического пространства, а также его свойств, таких как проективность, размерность, абстракция, относительность, симметрия, пропорциональность; общее понятие об операции проецирования как конструктивном способе сравнения пространств одинакового и разного размера и т. д.

Введение понятий геометрическо-графические данные и геометрическо-графическая модель позволяет четко сформулировать основную задачу курса теории геометрического моделирования и адаптировать её к компетенциям, которые должны быть приобретены студентами, освоившими этот курс.

Использование понятий «геометрическое пространство» и «размерность геометрического пространства» обобщает методы построения различных геометрическо-графических моделей. Можно будет сформулировать правила: построения геометрическо-графических моделей (например, о необходимости построения двух плоских изображений трехмерного объекта); правильно формулировать условия задачи, приводящие к правильному результату решения; использование различных

опций при настройке примитивов в графических программах и т.д. Кроме того, понимание учащимися абстрактности геометрического пространства облегчает восприятие относительности в геометрических формулах. В результате становится понятно, почему геометрическое пространство может быть нижней частью, а нижняя часть – пустотой. Следует отметить, что описание геометрического объекта как геометрического множества позволяет обобщить некоторые методы решения задач и приводит учащихся к пониманию принципов формирования оригинальных объектов (исходных копий) в геометрической среде.

Библиографический список

1. Otabekov, U. G. (2023). Technical problems of geometric-graphic education in higher educational institutions. *Экономика и социум*, (4-1 (107)), 225-228.
2. Nematovich, V. A. Z. (2022). Methodical instructions for trimetric projections. *Conferencea*, 19-24.
3. Otabekov, U. G. (2023). Problems and prospects of geometric and graphic education at a technical university. *Экономика и социум*, (4-1 (107)), 218-224.
4. Stolbova I. D., Aleksandrova E. P., Krainova M. N. talabalarning fan tayyorgarligini boshqarishning modulli texnologiyasi / / universitet boshqaruvi: amaliyot va tahlil. - 2012. - № 5 (81). 88-95 betlar.
5. Sosnin N. V. kompetentsiya modelidagi ta'lim mazmunining tuzilishi to'g'risida / / Rossiyada Oliy ma'lumot. - 2013. - № 1. 20-23 betlar.
6. Karimovich, X. M., & Xusan, R. (2022). Chizmachilik darslarida talabalar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar va ularni fanni o'zlashtirishiga ta'siri. *Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali*, 2(1), 11-17.
7. Nematovich, V. A. Z. (2023). Markaziy proyeksiyalash (perspektiva) dagi ayrim pozitsion masalalar yechimiga mantiqiy yonashuv. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 142-145.

ВЛИЯНИЕ НЕЙРОСЕТЕЙ НА ОБРАЗОВАНИЕ: ИЗМЕНЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Плиева Руслана Владимировна

ст. преподаватель Гулистанского Государственного университета
кафедры «Методики начального образования»

Алешина Эльзара

Студентка группы 55е-21 кафедры «Методики начального
образования»

ГулГу Email gulsu_info@edu.uz

Аннотация:

Статья "Влияние нейросетей на образование: Изменения и Перспективы" исследует воздействие современных технологий,

основанных на нейросетях, на процессы обучения. Анализируются преобразования в традиционных методах обучения, подчеркивая персонализированный подход и развитие критического мышления. Также рассматривается расширение доступности образования благодаря онлайн-платформам. Освещены примеры успешной интеграции нейросетей, включая адаптивные платформы и интерактивные приложения. Статья также обсуждает вызовы и перспективы внедрения этой технологии в образование, включая этические вопросы и проблемы приватности данных. В заключении подчеркивается потенциал нейротехнологий для дальнейшего преобразования сферы образования.

The article "The Influence of Neural Networks on Education: Changes and Perspectives" explores the impact of modern technologies based on neural networks on the learning processes. The author analyzes transformations in traditional teaching methods, emphasizing a personalized approach and the development of critical thinking. The increased accessibility of education through online platforms is also discussed. The article highlights examples of successful integration of neural networks, including adaptive platforms and interactive applications. It also addresses the challenges and prospects of implementing this technology in education, including ethical issues and data privacy concerns. In conclusion, the potential of neurotechnologies to further transform the field of education is emphasized.

Нейросети представляют собой математические модели, вдохновленные работой человеческого мозга. Они используются для анализа данных и решения разнообразных задач. Основным элементом нейросети - искусственный нейрон, который принимает входные данные, обрабатывает их и передает результаты следующему уровню нейронов. Внедрение ИИ в образование повысит вовлеченность студентов в процесс обучения и позволит сэкономить время: преподавателям на создании учебных материалов, и студентам на выполнении рутинной части заданий, а также поможет оказывать консультационную поддержку студентам по вопросам обучения в режиме 24/7

Термин "нейросеть" был введен американским психологом и математиком Фрэнком Розенблаттом в 1957 году. Он создал модель нейронной сети, названную "перцептрон", которая является ранней формой искусственных нейронных сетей. Концепция перцептрона представляла собой значительный шаг в развитии области искусственного интеллекта и стала отправной точкой для дальнейших исследований в этой области.

В современном мире технологические достижения играют все более значимую роль в различных сферах жизни. Одной из областей, которая претерпевает значительные изменения благодаря технологическому прогрессу, является образование. В последние десятилетия нейросети и искусственный интеллект стали важными

компонентами этой эволюции. В данной статье мы рассмотрим влияние нейросетей на образовательный процесс и перспективы их развития. С появлением нейросетей в образовании произошли значительные изменения.

Использование нейросетей в образовании способствует развитию навыков критического мышления и способности к решению сложных проблем. Современные образовательные платформы, основанные на искусственном интеллекте, предоставляют студентам возможность применять знания на практике через интерактивные задачи и проекты. Благодаря этому, обучающиеся могут не только запоминать факты, но и разбираться в сути материала, анализировать информацию и применять ее в реальных ситуациях.

Нейросети расширяют доступ к образованию, уменьшая географические и социальные барьеры. Онлайн-курсы и платформы с искусственным интеллектом позволяют учиться из любой точки мира, обеспечивая равные возможности для всех желающих.

Это особенно важно в современном мире, когда гибкость и мобильность в обучении приобретают все большее значение.

Адаптивные образовательные платформы: К примеру, платформы как Coursera и Udacity используют нейросети для анализа данных о процессе обучения и предоставления персонализированных рекомендаций по материалам. Интерактивные обучающие приложения: Приложения типа Duolingo, использующие нейросети для адаптации сложности заданий к уровню знаний пользователя. Симуляторы и виртуальные лаборатории: Например, платформы по химии и физике, где студенты могут проводить эксперименты в виртуальной среде, что обогащает практический опыт. Автоматизация оценивания: Нейросети используются для анализа и оценки работ студентов, сокращая время затрачиваемое на проверку. Системы поддержки принятия решений в образовании: Например, платформы, предоставляющие рекомендации по выбору курсов, основанные на данных о предпочтениях и успехах студента. преподавателей, Вместе с позитивными изменениями, внедрение нейросетей в образование также ставит перед нами ряд вызовов. Важно балансировать автоматизацию с человеческим фактором, обеспечивая качественное образование.

Также важно учитывать вопросы приватности данных и этичности в сфере образования, особенно при сборе и анализе информации о студентах.

Нейросети оказывают значительное воздействие на начальное образование, создавая новые возможности для детей в процессе обучения. Интерактивные обучающие программы, поддерживаемые искусственным интеллектом, позволяют адаптировать материалы к индивидуальным потребностям каждого ребенка. Это способствует более эффективному

усвоению основных знаний и навыков.

Также нейросети могут помочь выявить индивидуальные особенности учебного процесса у каждого ребенка, что позволит преподавателям и родителям предоставить дополнительную поддержку в тех областях, где это необходимо.

Эти инновации в начальном образовании подчеркивают значимость прогрессивных технологий для формирования качественной образовательной базы у будущих поколений.

Изменение форм и методов подготовки кадров. Очевидно, что развитие ИИ и НС значительно повлияет на все ступени системы образования. Скорее всего, произойдут принципиальные изменения в формах контроля знаний. Вероятно, станет больше заданий, которые должны выполняться в аудитории, как индивидуально, так и в командах. Скорее всего, будет увеличено количество устных заданий, для проверки степени погруженности студентов в материал. Вместе с тем все более востребованным сегодня уже становится смешанное обучение как синтез традиционного и электронного форматов. Представляется, что электронный формат в новых условиях образования должен в большей степени ориентироваться на индивидуальную траекторию обучения с учетом предыдущего опыта студента, а также его эмоционального и психологического состояния.

Технологии ИИ способствуют развитию формата гибридного обучения, что располагает к расширению географического охвата аудитории.

Потенциальная утрата человеческого фактора: Автоматизация может привести к уменьшению роли преподавателя и замедлению межличностного взаимодействия, что важно для формирования социальных навыков.

Вопросы приватности и безопасности данных: Сбор и анализ данных о студентах может вызвать опасения в отношении конфиденциальности информации недостатки технологии: В некоторых случаях, технологии, основанные на нейросетях, могут быть несовершенными и требовать доработок для оптимальной эффективности.

Важно находить баланс между автоматизацией и человеческим вмешательством, чтобы обеспечить качественное образование, а также учитывать этические и правовые аспекты при использовании нейросетей в сфере образования.

Интеграция нейросетей в сферу образования представляет собой потрясающую возможность для трансформации учебного процесса. Персонализированное обучение, развитие навыков критического мышления и расширение доступности к знаниям - все это становится ближе благодаря прогрессу в области искусственного интеллекта.

Список литературы :

1. Барщевский Е. Г. Использование искусственного интеллекта // Восточно-Европейский научный журнал. 2023. № 3-2 (88). С. 56-58.
2. "Нейронные сети и глубокое обучение" - Майкл Нильсен.
3. "Deep Learning" - Иан Гудфеллоу, Йошуа Бенджио, Аарон Курвилль.
4. "Практический курс по обучению нейронных сетей на Python" - Andrew Trask.
5. "Python Deep Learning" - Ivan Vasilev, Daniel Slater.
6. "Компьютерное зрение с использованием нейронных сетей" - Кристиан Соле, Федерико Петцольд.

К ВОПРОСУ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУР

Иванова Т.Н.

*Доцент Национального центра подготовки учителей новым
методам Сырдарьинской области*

Сегодня возникла проблема активации аспектов преподавания русской литературы в связи с требованием "Интенсифицировать обучение" ("Национальная программа по подготовке кадров". Ташкент, 1997 г.) Речь идет о новой педагогической технологии, которая предполагает построение учебных целей и задач таким образом, чтобы они были четко идентифицированы так же, как и ожидаемые результаты.

Выстраивается рисунок :

- идентифицированные учебные цели в конкретных видах;
- ожидаемые результаты;
- задачи, методы для данных учебных целей.

В вузовской и школьной аудитории с узбекским языком обучения при изучении русской литературы одним из трудноусваиваемых проблем являются :

-понимание и восприятие художественных текстов русской литературы, отличающихся от узбекской особенностями образно-эстетической системы;

-различие жанрово-тематических особенностей русской литературы и узбекской ;

-формирование умений сопоставлять произведения русской литературы и узбекской, умение выявлять национальное и исторической культурно-обусловленные различия ;

-развитие монологической и диалогической устной речи при изучении, анализе образно-стилевых особенностей художественных произведений русской литературы.

Основу содержания изучения русской литературы и в вузовской и школьно-аудитории составляют творчество поэтов и писателей разных эпох и формаций, представляющих золотой фонд русской классики.

Речь идет о необходимости учета межлитературных соотношений. Данной проблеме немалое внимание было уделено в трудах методистов : Шеймана Л.А, Черкезовой М.В, Зальдинера М.А и др. Дидактическая эффективность выражается в том, как подтверждает практика, что способствует лучшим образом усвоению программного материала.

В новых условиях – важным становится глубинное освещение духовных ценностей других народов с учетом понимания и оценки их со своей национальной точки зрения. Современные словесники – методисты и учителя - предлагают интересный алгоритм анализа художественного текста с акцентом на воображение.

Это позволяет выявить приметы своеобразия творчество художников слова. Воссоздавая вслед за автором художественный мир произведения, изучающий корректирует свое восприятие и оценки с учетом инонациональных

Духовных ценностей, становится на инонациональную точку чувствования.

В русле современных концепций педагогической интерпретации художественного текста акцент на воображение создает особую эмоциональную атмосферу, обостряет работу интеллекта. Заставляет осмыслять, проводить невидимые нити из прошлого в современность, сопрягать с индивидуальными опытом бытия и настраивает на самостоятельную читательскую деятельность.

Естественно, данный прием сопряжен с разработкой обширной литературоведческой и методической основы учебных занятий. В учебную работу по развитию читательского сотворчества подключаются наглядность, ТСО, выразительное чтение.

Практика убеждает, что сопоставительный подход необходим при изучении творчества писателей в рамках эпохи, жанровых особенностей поэзии и прозы.

Например: поэзия А.С.Пушкина и М.Ю.Лермонтова

Жанры :	Жанры узбекской поэзии :
Элегия	Бейт, газель, рубаи, кытъя,
Эпиграмма	мухаммас, туюг, касыда.
Баллада	Масневи, таржибанд, дастан,
Дума	диван
Поэма	
Эпитафия	

Освещение их внутренней структуры расширяет горизонты понимания жанровой картины и поэзии русской и узбекской литератур :

насыщенная	культуроведческая	своеобразия	узбекского	быта,
------------	-------------------	-------------	------------	-------

информация по XIX веку;	национальных традиций, обычаи, особенности архитектуры;
отражение этического многообразия россии;	Контакты представителей узбекского народа с представителями других народов;
контактные связи с представителями других литератур народов востока ;	Контактные связи писателей XIX века с представителями других литератур России.

Лирика – наиболее трудный род литературы. Стиховой строй усиливает свойство слова, его ёмкость, значение, сказывается на смысловых связях и поэтических образах, на музыкальном звучании ритмико-интонационным рисунке. Для понятности стиха необходимо соотнести его к контексту исторического времени, ко всему творчеству, к конкретному факту частной жизни поэта.

Интересный фрагмент при сопоставительном подходе-анализ построения художественного образа в лирической, эпической, драматической произведениях русской и узбекской литератур : способы и приемы, описание внешнего и психологического портретов, обстановка; роль и место художественной детали и т.д. Усвоение художественных произведений идет в единстве формы и содержания, основных историко-литературных сведений и теоретико-литературных понятий с выявлением конкретно-исторического и общечеловеческого факты.

Многообразие проблематики подобного сопоставительного анализа обогащает содержание учебно-воспитательного процесса, вдохновляет аудиторию на поиски интересных и обычных, и архивных материалов, способствует формированию чувства патриотизма и интернационализма.

Так обеспечиваются :

- усвоение программного материала с литературоведческим развитием аудитории;
- дидактическая целесообразность межлитературных сопоставлений;
- восприятие конкретно-исторической и литературной обстановки в рамках десятилетий, государств;
- эмоциональное воздействие на обучаемых, стимулируется мышление.

Литература:

1. «Халқ таълими» № 1-6 2007 год.
2. «Преподавание языка и литературы» №1-6 2007 год.
3. «Учительская газета» 2007 год.
4. Интерпретация художественного текста в вузе и школе СПб: образование, 1995 год.
5. Из собственного опыта.

TARBIYASI QIYIN O'SMIRLARDA ISHTIMOIYLASHUV JARAYONI

Jabborov Maqsud Mashrabovich

*Jizzax viloyati pedgoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
maksudteacher@mail.ru*

Annotatsiya: Mazkur maqola tarbiyasi qiyin o'smirlarning ishtimoiylashuvi, uning qiyinchiliklari va unga olib olib keluvchi omillar haqida bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье описывается социализация подростков с трудностями в обучении, ее трудности и факторы, которые к этому приводят.

Annotation: This article describes the socialization of adolescents with learning difficulties, its difficulties and the factors that lead to this.

Ijtimoiylashuv jarayonida kattalardan ibrat olishning psixologik mexanizmlari namoyon bo'ladi. Ibrat olish kiynishdan to kasb tanlashgacha bo'lgan hodisalarni qamrab olgan. Ijtimoiy muhitning har xil ta'siri natijasida o'smirlarning psixik taraqqiyotida real voqelikning borgan sari chuqurroq, faol, amaliy aks ettirishidan iboratdir. Ularning ijtimoiylashuviga boshqa omillarning ham ta'siri borligi kuzatilmoqda. Bu omillarning ta'sir darajasi, shakllari turli davrlarda ayricha va o'ziga xos bo'lishi mumkin. Masalan, bundan 7-8 yil avval o'smirlarning ijtimoiylashuviga internet tarmoqlari deyarli ta'sir o'tkazmagan bo'lsa, hozirgi kunda uning ta'siri yetakchi o'rinlardan biriga aylanmoqda. Shuningdek, o'smirlar ijtimoiylashuviga jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni ham sezilarli ravishda ta'sir o'tkazmoqda.[1] Globallashuv jarayonida millatlararo, davlatlararo, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi aloqa vositalari (uyali telefon, internet, televideniye, kompyuter o'yinlari va hokazo)ning tez rivojlanishi bilan bog'liq.

O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoniga psixofiziologik o'zgarishlar ta'sir etmaydi, deyish noto'g'ri. Uning fiziologik o'zgarishi (jinsiy yetuklik) alohida psixologik siljish jarayonini ajratib beradi: bu hol unda boshqa jinsga bo'lgan qiziqish, tajovuz, oqibatini o'ylamasdan tavakkal qilish, mustaqil bo'lishga intilishlarini taqozo etadi. Ichki psixologik mexanizmlar sirasida bu qiziqishlar, intilishlar alohida o'rin tutadi. Ijtimoiylashuv jarayonida o'smirlarning san'atga, yangiliklarga, obro'-e'tiborga ahamiyatli bo'lishlari, bir tomondan, ularning mustaqil va faoliyatda erkin bo'lishga intilishlarini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan ushbu madaniyat vositalarining ta'sir kuchi yoshlarda muhim o'rin egallashlarini tasdiqlaydi.[2] Rossiyada bu holatni o'rganuvchi olimlarning kuzatishlaricha, o'smirlikda uch xil asosiy negativ pozisiyalar yuzaga kelishi mumkin: bu giyohvand moddalarga qiziqish, zo'rlash va jarohat yetkazishdir. Aynan shuning uchun o'smirlik davrini "o'tish davri", "qiyin bosqich", deb atalishi bejiz emas. Uning mazmun mohiyati o'smirning xulq-atvoridagi o'zgarishlar bilan

belgilanadi: kichik yoshidan ota-onaga qaram, bo'ysunuvchan o'quvchi sirli, o'ziga ishongan, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlariga ega o'smirga aylanadi.

O'smirlar ijtimoiylashuvining qiyinchiliklari uch xil ko'rinishga ega:

- o'ziga yuqori baho berish (qahramonlik ko'rsatish, hammaga tanilish)ni xohlaydi, lekin ijtimoiy mavqei pastligi bilan;

-o'smir fikri bilan ota-onaning eskicha fikrlashi, madaniyati to'g'ri kelmasligi (u ota-onaga o'smir yoshida ham o'quvchi bo'lib ko'rinishi), lekin o'smir psixofiziologik jihatdan katta bo'lib qolganligi bilan;

-tengdoshlari fikri bilan o'smirning o'zigagina xos bo'lgan mustaqil qadriyatlarini to'g'ri kelmasligi bilan ifodalanadi.

Psixofiziologik tomondan katta bo'lib qolgan o'smirni ijtimoiy-iqtisodiy tomonlar o'zgartirmaydi. Uningcha, ota-onaning ijtimoiy mavqei saqlanib, ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kerakligi shundayligicha uning ongida saqlanib qoladi: kattalar boquvchi, ishlab chiqaruvchi, himoyachi, iste'molchidek tuyuladi. O'smirlar esa iqtisodiy mustaqil emas, ular hanuzgacha ijtimoiy himoyani talab qiladilar. Ularning rolli diapazoni chegaralangan, o'smirlar mustaqil fikrga ega bo'lgani bilan mustaqil ish tutishga tayyor emas, ayrim ota-onalar esa o'quvchini psixofiziologik jihatdan katta bo'lib qolganligini ko'rib, o'quvchisiga haddan ortiq talablar qo'ya boshlaydilar.

“Ijtimoiylashuv” degan tushuncha o'smir shakllanishi muammosining o'ziga xosligini belgilovchi asos bo'lib hisoblanadi.[3] J.Aronfridning fikricha, ijtimoiylashuv faqat rag'batlantirishga tayanishi mumkin emas. Ijtimoiylashuvning buzilishidagi asosiy sabablar ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) kattalarning o'smirga shaxs sifatida emas, balki ta'sir ob'yekti sifatidagi munosabati. Ba'zi kattalarning xulqi o'smirning o'zida mavjud bo'lmagan sifatlarini shakllantiradi. Bu esa unda kattalarning maslahatlarini noto'g'ri qabul qilishiga sabab bo'ladi. O'smir kattalar harakatida, talablarida o'zlari amal qilmaydigan yoki o'zlariga mos bo'lmagan xatti-harakatlarni ko'rib sezsalor, ulardan qocha boshlaydilar. Ular o'zlarini aldamaydigan, teng ko'radigan insonni izlay boshlaydilar;

b) juda ko'p o'quvchilar uchun oila, afsuski, tajovuzkor axloq va psixik jarohatni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarning asosiy manbai hisoblanadi. O'smir o'zi yashayotgan oilani boshqa oilalar bilan tengdoshlarining gaplari, atrofidagilarning fikri bo'yicha solishtiradi, har doim ham to'g'ri bo'lmagan xulosalar chiqaradi. Garchi o'zi oiladagi vaziyatni yaxshilash uchun biror narsa qilishga qodir bo'lmasa-da, kurashadi. O'smir atrofidagi sinfdoshlari, tengdoshlari bir muncha huzur-halovatli sharoitlarda yashayotganlarini ko'radi, bu narsa ham o'smirning rivojlanishida ma'lum bir ta'sirni ko'rsatmay qolmaydi. Demak, hali to'liq shakllanib ulgurmaygan o'smir tushunchasida qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Bu vaqtda o'qituvchilarning o'smirni oilaviy sharoiti, mijozi, rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olmay qilgan muomalalari

ham o'smir xulqida keskin burilishlar yasashga olib kelishi mumkin;

v) o'smir hayotining sharoitlari (yetimlik, jinoyatchilik, jismoniy va psixik zaifliklar). Jinoyatchilikning katta foizi hayot sharoiti o'ta og'ir bo'lgan o'smirlar, ya'ni jinoyatchi ota, jinoyatchi ona yoki har ikkovi muntazam spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi, janjalkash oilalarning o'quvchilari jismoniy va psixik og'ishi bo'lganlar hisobiga to'g'ri keladi. Ko'p hollarda bunday o'smirlar kattalar va qarindoshlari nazoratidan chetda qoladilar, hech narsa bilan band bo'lmaydilar va buning oqibatida yomon ta'sirlarga beriluvchan bo'ladilar.[4] Ular o'zlarining harakatlari bilan jamiyatning, yaqinlarining e'tiborlarini jalb etmoqchi bo'ladilar, o'zlari kirgan doirada esa o'zlarini shaxs sifatida namoyish etadilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, insonning ilk bor ijtimoiylashuv davri oiladan boshlanib, ota-ona mehri, tarbiyasida shakllana boshlaydi. Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning me'yorlari, talablari, kutilma va ta'sirini qabul qilgan holda har bir harakati va muomalasida ko'rsatishi, ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir.[5] O'smirlar ijtimoiylashuvining xususiyatlaridan biri bu qarindoshlar orasida ham mehr-oqibatni va boshqa jarayonlarni bog'laydi. Bizning milliy urf-odatlarimiz etnik xususiyatlarimizga xos udum, ular bilan doimo aloqada bo'lish, kasal bo'lganida xolidan habar olish kabilar ham oila ibrati orqali vujudga keladi. Ayniqsa, bayram, to'y-marosim, uyda qurilish ishlalariga yoshlarni xasharga chaqirishda o'smirlarning ijtimoiylashuvida mehnatga bo'lgan motivlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-26.
2. M.Jabborov. "Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari". "Maktab va hayot" Respublika ilmiy-metodik jurnali. 2022 №7, 9-bet
3. M.Jabborov "Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos pedagogik jihatlari". "Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta'lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Guliston 2023, 493-bet
4. H.Ismatova. "Tarbiyasi qiyin va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etishning metodik imkoniyatlari", Scientific Journal Impact Factor.2022.107-bet
5. M.Jabborov. "Tarbiyasi qiyin bolalarning kelib chiqish sabablari". "O'zbekiston va xorijda maktabgacha ta'lim: kecha, bugun va ertaga" Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya. Jizzax 2022, 101-bet

XORIJIY MAMLAKATLAR MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI

Husanova Lobar Yashin qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 10-DMTT direktori

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish uchun xalqaro tajribani o'rganish va pedagoglarning bola ta'limiga yondashuvlari to'g'ri tashkil etish xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Bugungi kunda ta'lim sifati bevosita maktabgacha ta'limdagi o'zgarishlar bilan bog'liqligi ayon bo'ldi. Shuning uchun ham dunyoning ko'pgina davlatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ko'pgina mamlakatlarning qonunlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ko'pgina mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga e'tibor kuchaydi. Shu maqsadda ko'plab o'quv dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatlarini yaxshilash ishlariga doimiy ravishda YUNESKO homiylik qilib kelmoqda. Amerikalik pedagog va tarixchi P.Mossning fikriga ko'ra, maktabgacha ta'lim sifati sohaga qiziquvchilarning qadriyatlari, e'tiqodlari va ehtiyojlariga ko'ra o'zgarishi mumkin. Ko'pgina mutaxassislar bolalarning ijobiy rivojlanishida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim deb biladilar:

- bolaning yoshi va qobiliyatini hisobga olgan holda uning xavfsizligini ta'minlash, jihozlash, o'yinchoqlar bilan bilan ta'minlash;
- bolalar bilan faol mashg'ulotlar o'tkazish, dam olishini, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish va bolalarning to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash;
- bolalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda turli xil yo'nalishlar: nutq, san'at, musiqa, matematika, tabiatshunoslik, dramaturgiya, va boshqa yo'nalishlarni tanlash imkoniyatini berish va ularni rag'batlantirish;
- bolaning shaxsiy, emotsional rivojlanishini ta'minlash, uning mustaqilligi va guruhdagi bolalar bilan hamkorlik malakalarini qo'llab-quvvatlash;
- boshqa bolalar bilan bo'ladigan ijobiy munosabatlarini saqlash.

Diqqat bilan e'tibor beradigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim sifati asosan bolaning quvonchi bilan bog'liq bo'lishi lozim. Bunda shubhasiz bolaning rivojlanishi va pedagog-tarbiyachining kasbiy mahorati bilan birga ijobiy xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog-tarbiyachilar bolalar bilan faol va foydali muloqotni amalga oshirgan holda bolaning ijtimoiy rivojlanishini belgilaydigan aloqalarni o'rnatishlari bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini kamol toptiradi. Natijada bola o'ziga topshirilgan har bir topshiriqni bajarishda tengdoshlari bilan muloqotga kirishsa, ishlarni hamkorlikda bajarsa uning ijtimoiylashuvi faollashadi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra bolaning dastlabki

uch yoshidagi rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning keyingi faoliyatlari ham shunchalik samarali kechib, kognitiv rivojlanishi yuqori bo'lishi Amerikalik va Germaniyalik olimlar tomonidan aniqlangan. Nemis pedagog olimi R.Shtaynning so'zlariga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg'ulotlar va o'yinlarni bir-birlari bilan tez-tez almashtirib turish lozim. Chunki bir xillik bolani tez charchatadi.

Shuning uchun ham Germaniyada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya ta'limiy o'yin faoliyatini real hayotga yaqinlashtirish maqsadida vaziyatli yondashuv: erkin o'yin, o'zaro hamkorlikdan keng foydalanish orqali integratsiyalashgan ta'lim asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, Germaniyada maktabgacha ta'lim sohasidagi ijtimoiy o'zgarishlar va rivojlanishlarda integratsion ta'limdan unumli foydalaniladi. Tarbiyachilarga yuklatilgan bunday vazifalar bolaning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlab, qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini beradi.

Germaniyada bolaning sog'ligi va jismoniy rivojlanishni yaxshilash bilan birga bilim olishga qiziqtirish orqali aqliy rivojlanishi kamol toptirish asosida o'z g'arakatlarini muvaffaqiyat sari yo'naltirish, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch va o'z menini kamol toptirish, do'stona munosabatlarni yaxshilashga katta e'tibor qaratiladi. Shulardan kelib chiqqan holda pedagog-tarbiyachilarning faoliyati bolalarning uyg'un hissiy, ijtimoiy, intellektual va jismoniy rivojlanishiga, ularda ijobiy xulq-atvor va qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilishi talab etiladi.

Germaniyada Valdorf MTTlari ham mavjud bo'lib, odatdagidan farq qiladi, hatto tashqi ko'rinishi bilan ham. Bu juda chiroyli, undagi hamma narsa tabiiy materiallardan tayyorlangan: yog'och, mato, deyarli yorqin ranglar va plastmassa yo'q. Ertalab xonada qulay sharoit hukmronlik qiladi, ammo keyin xonalar yanada yorqinroq yoritiladi (bu "hayot ritmi" ning bir qismi).

Valdorf MTTlarida kichik yoshdagi bolalar osongina va tabiiy ravishda kiyinishni, o'zlarini va kiyimlarini tozalashni, rasm chizishni, haykaltaroshlikni, xuddi oiladagidek, oqsoqollarni bezovta qiladilar. MTTlarda bo'lish yoshi va davomiyligidan qat'i nazar, barcha bolalarga alohida e'tibor beriladi, ular familiyasi bilan emas, balki faqat ismlari bilan murojaat qilishadi. Bu narsa pedagoglarga ham tegishli. Pedagoglar hech qachon bolalarga baqirishmaydi va bu ham Valdorf falsafasining bir qismidir. Har bir bola tinglanadi, uning fikri qadrlanadi. Bola faqat tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradigan uy qurilishi o'yinchoqlari bilan o'ynashi kerak. Tayyor zavod o'yinchog'i faqat manipulyatsiya ob'ekti bo'lishi mumkin, lekin ijod uchun emas - Valdorf pedagoglari bunga ishonadilar.

Italiyada maktabgacha ta'lim ikki bosqichdan iborat. Ulardan birinchisi Asilo Nido deb nomlanadi. Bu uch oylikdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadigan mahalliy bolalar bog'chasi. Ko'pincha bu yarim kunlik qisqa muddatli guruhlar - 9:30 dan 13:00 gacha. Ushbu yosh guruhi uchun to'liq kunlar asosan xususiy bolalar bog'chalarida taqdim etiladi. Bu mamlakatda

bolalarni uyda tarbiyalash bo'yicha juda kuchli an'analarga ega bo'lganligi bilan bog'liq, ammo so'nggi paytlarda ayollar ko'pincha moliyaviy sabablarga ko'ra ish joylariga borishga majbur bo'lmoqdalar. Kam ta'minlangan ota-onalarning bolalari bolalar bog'chasida birinchi o'ringa ega bo'lish huquqiga ega - undan foydalanish uchun siz belediede maxsus bayonot yozishingiz kerak. Oxirida bolalar faqat o'ynashadi. Asosiy e'tibor ijtimoiy moslashishga va o'z-o'ziga xizmat qilishning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Maxsus darslar yo'q. Italiyadagi maktabgacha ta'limning ikkinchi bosqichi "Scuola Materna" deb nomlanadi va 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. O'rganish butunlay o'ynoqi bo'lib qolishiga qaramay, bolalar bu yerda hali ham o'rganishadi. Maktab o'quvchilarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari mamlakat Ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi va tashqi dunyo va ijtimoiy rivojlanish bilan tanishish, jismoniy va ijodiy rivojlanish, o'z ona tilida va (ba'zi muassasalarda) chet tilida darslar o'tkazishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini-o'zi rivojlanishiga erishishda Italiyalik pedagog M.Montessori ta'limoti muhim ahamiyat kasb etadi. Montessori g'oyalaridagi asosiy g'oya - ta'lim faoliyatini maksimal darajada individuallashtirishga qaratilgan bo'lib, har bir bola uchun har tomonlama puxta o'ylangan va mohirlik bilan ishlab chiqilgan rivojlanish dasturidan foydalanish ilgari surilgan

Xulosa tariqasida aytish joizki, xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Bola huquqlar to'g'risidagi Konvensiya" 1989y 20 noyabr
2. Модернизация системы дошкольного образования, как определено в Конвенции долгосрочного социально-экономического развития РФ на период до 2020 г
3. Pedagogika Montessori — Vikipediya ://ru.wikipedia.org › wiki › Pedagogika_Montess.
4. [Valdorfskaya pedagogika. https://kpfu.ru](https://kpfu.ru) › [Valdorfskaya pedagogika](#)

SHAXS QOBILIYATI, IQTIDORINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TARKIBIY TUZILMASI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Nazira Tursunova

Respublika san'at va madaniyat kolleji bosh o'qituvchisi

Annotatsiya. *Yoshlarni ijodkorlikka yo'naltirishda ta'lim va tarbiyaning tizimli amalga oshirilishi natijaning ijobiy bo'lishini, qobiliyatli bolalarni*

aniqlash, pedagogik kollejlarda faoliyat yuritayotgan pedagoglar hamda guruhlarining rahbarlarini o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini aniqlashga oid maxsus bilimlar yoritilgan.

Bugungi kunda qobiliyatli bolalarni aniqlash, ularni saralash va qobiliyatli o'quvchilar ta'limini tashkil etish borasida respublika uzluksiz ta'lim tizimida muayyan, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda esa boy tajribalar to'plangan. Jumladan, M.Karne, M.Davletshin, Sh.Baratov, M.Karimovalarning yo'nalishga oid qarashlari hamda Veksler o'lchovi, Slossan testi, Torrens testi, Vayland o'lchovi, Kaliforniya o'lchovi, Renzulli, Blum, Uilyam hamda Gilford andozalari bilan tanishish va ulardan mahalliy shart-sharoitlar, milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda maqsadli foydalanish ta'lim muassasalari, shu jumladan, pedagogik kollejlarda faoliyatida qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlash samaradorlikni ta'minlaydi. O'tkir Tolipov o'z izlanishlarida kreativ ta'limga ijod mahsuli sifatida va har bir shaxsda ijodning quyi va yuqori darajalarini ko'rsatib bergan.

Yoshlarni ijodkorlikka yo'naltirishda ta'lim va tarbiyaning tizimli amalga oshirilishi natijaning ijobiy bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Amaliyotchi-psixologlar qobiliyatli bolalarni aniqlash, ularni saralash va ularga tabaqalashtirilgan ta'lim berish to'g'risidagi ilg'or qarashlar, shaxsning qobiliyatlilik darajasini aniqlashga yordam beruvchi maxsus testlar, o'lchovlar va modeldan ko'rgazmalar tashkil etishlari, alohida xonani ular bilan jihozlashlari, umuman olganda, pedagogik kollejlarning qobiliyatli o'quvchilari, ularning qobiliyatlilik darajasi, ulardan samarali foydalana olish imkoniyatlari va qo'lga kiritgan yutuqlari haqidagi umumiy ma'lumotlarni hosil qilishlari ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari hamda ota-onalarning nazariy-metodik bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik kollejlarda faoliyat yuritayotgan pedagoglar hamda guruhlarining rahbarlarini o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini aniqlashga oid maxsus testlar, so'rovnomalar, o'lchovlar mohiyati bilan tanishtirish, ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, umumiy va maxsus qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi to'garaklar faoliyati reja va dasturlarini ishlab chiqish malakalarini hosil qilish maqsadida ma'ruzalar, amaliy-seminar, trening, debat va suhbatlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Pedagogik kollejlarda pedagogik-psixologik xizmatni tashkil etish o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganish, ular orasidan qobiliyatlilarni tanlab olish, ular ijodiy qobiliyatining yo'nalishlari va darajasiga muvofiq rivojlanish dasturlari yoki bu boradagi tavsiyalarni ishlab chiqish, izchil, uzluksiz va tizimli tarzda o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish dinamikasini o'rganish va tahlil qilishga imkon beradi.

Pedagogik kollejlardagi pedagogik-psixologik xizmat – zamonaviy ta'lim tizimining ta'lim va tarbiyada bolalarning layoqat, qobiliyat, qiziqish va iqtidorlaridan iborat aqliy va shaxsiy imkoniyatlarini o'z vaqtida namoyon bo'lishi va ulardan maqsimal darajada to'la foydalanishni ta'minlovchi muhim

vosita hisoblanadi. Pedagogik-psixologik xizmat, shuningdek, bolalarning pedagogik-psixologik rivojlanish zahiralarning o'z vaqtida ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratadi. ...

Agar gap qobiliyatli bolalar haqida borganda, pedagogik-psixologik xizmat yuqori darajadagi qobiliyatlarini vaqtida aniqlash va ularning pedagogik-psixologik rivojlanishini takomillashtirilishini ta'minlaydi". Ta'lim tizimida yo'lga qo'yiluvchi pedagogik-psixologik xizmat mohiyatidan kelib chiqqan holda pedagogik kollejlarda ham undan foydalanish har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini o'rganish, keng ko'lamli tadqiq qilish, ularda muayyan yo'nalish bo'yicha namoyon bo'luvchi qobiliyatni aniqlash va darajalarini belgilash, mavjud holatlarga muvofiq o'quvchilarni tabaqalashtirilgan ta'lim tashkil etiluvchi maxsus guruhlariga birlashtirish hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini boyitishga xizmat qiluvchi rivojlanish dasturlarini yaratish mumkin bo'ladi.

Kollejlarda pedagogik-psixologik xizmat vositasida qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash va ularni saralashda mazkur ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi-psixologlar muhim rol o'ynaydilar. Ularning guruhlar rahbarlari, fan o'qituvchilari hamda ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiruvchi keng ko'lamli faoliyatlari natijasida ijodiy qobiliyatli bolalarning ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish imkoniyati yuzaga keladi. Amaliyotchi-psixologlarning o'quvchilar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilishlari ham so'z yuritilayotgan jarayon muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi. Ijodiy qobiliyatli bolalar bilan nafaqat ta'lim muassasasida, shu bilan birga oila muhitida ham doimiy ravishda ishlash, qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berishning muhimligini inobatga olgan holda amaliyotchi-psixologlarning oilalar bilan mustahkam aloqa o'rnatishlari maqsadga muvofiqdir. Ushbu aloqa doirasida ularning ota-onalarga o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirishga oid maslahatlarning berilishi, psixoproflaktik ishlarning yo'lga qo'yishi ularning ichki imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, o'z kuchlariga ishonch va kelajakka ishonch tuyg'ulariga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya / O'quv-metodik qo'llanma.
2. M.G.Davletshin va boshq. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. – 130 b.
3. Yo'ldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlar, muammolar, yechimlar // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1999. – №4. – B.4-11.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot / O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 1999. – 96 b.
5. Т. Нишанова, “Тарбияпсихологияси”, “Педагогик фаолиятнинг психологик асослари”

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

M.Qodiraliyeva

Guliston shahar 2-sonli umumta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi.

Email: qodiralievam@gmail.com. [tel.+998916249888](tel:+998916249888)

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimiida amalga oshirilayotgan islohatlar, ta'lim tizimidagi o'rganilayotgan tahliliy vazifalar, ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim tizimini barqaror rivojlantirishda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, innovatsiya, jarayon, vazifa, islohat, takomillashtirish, texnologiya, uslub, metodika, metodologiya, strategiya, istiqbol, mexanizm.

Аннотация. В статье рассказывается о том, что в настоящее время реализуется в системе образования, реформы, изучаемые аналитические задачи в системе образования, в образовательном процессе инновации, применяемые на практике, в устойчивом развитии системы образования говорят о важности применяемых инновационных технологий.

Ключевые слова. Образование, инновации, процесс, миссия, реформа, улучшение, технология, метод, методика, методология, стратегия, перспектива, механизм.

Abstract. The article is currently implemented in the educational system reforms, analytical tasks studied in the educational system, in the educational process practical innovations, in the sustainable development of the educational system the importance of applied innovative technologies is mentioned.

Key words. Education, innovation, process, task, reform, improvement, technology, style, methodology, methodology, strategy, perspective, mechanism.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jarayonlar ta'lim tizimi sifatini oshirish, sohani innovatsion rivojlantirish, unda ilmiy va texnologik faoliyatni qo'llab-quvvatlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan ilmiy soha va ta'lim tizimi innovatsion faoliyatning asosiy poydevori sifatida rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" [1] ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini va mazmunini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimi o'zining butun jarayonlari davrida texnologik ishlarning yanada mukammalroq va yanada samaraliroq tizimini izlash bilan rivojlanib boradi. Yillar davomida rivojlanib va murakkablashib borayotgan ta'lim jarayonlari uni tashkil etishning yanada samarali bo'ladigan usullarni izlab topishni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Muammoli jarayonlarni o'rganishni birinchi o'ringa chiqarish, uning bosqichli asoslarini shakllantirish borasida muayyan tizim hosil qilish innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga olib keladi.

Ta'limni barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashdan asosiy maqsad – ta'limda samaradorlikka erishish, istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim sub'ektlari manfaatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar haqidagi bilimlar holati izlanishlarning turli va rejalarini yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish uslublarni tanlash bilan bir qatorda ushbu bosqichning ajralmas tarkibiy qismi-qoidalar va tadbirlarni belgilash, turli texnologiyalar va bilish usullarni qo'llashni tartibga keltiruvchi harakatlar ketma-ketligini aniqlashtirish bilan bog'liq. Bunday qoidalar ta'lim jarayonini tashkil etishga hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga xizmat qiladi[2].

Maktab ta'limida turli xil pedagogik innovatsion usullar qo'llaniladi. Tanlashda ta'lim muassasasining profil yo'nalishi, uning an'analari va standartlari katta rol

o'ynaydi. Ta'lim jarayonidagi eng keng tarqalgan innovatsiyalar quyidagilardan iborat:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);
- ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'lim;
- dizayn va tadqiqot faoliyati;
- o'yin texnologiyalari.

AKT nazarda tutadi o'qitish fanlarini informatika bilan integratsiyalash; shuningdek baholash va umuman aloqani kompyuterlashtirish. Kompyuterdan o'quv jarayonining istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Maktab o'quvchilari asosiy dasturlar bilan ishlashga, elektron darslik va o'quv qo'llanmalari tufayli materialni o'rganishga o'rgatiladi. O'qituvchi kompyuter va proektor yordamida materialni taqdim etadi. Taqdimotlar, diagrammalar, audio va video fayllar aniqligi tufayli mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam

beradi. Slaydlar, diagrammalar, xotira kartalarini o'z-o'zidan yaratish bilimlarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa yodlashga ham yordam beradi [3].

Umumta'lim maktablaridagi texnologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni yangi bilimlarni kashf etishlari, yangi ijodiy fikrlarni shakllantirish, loyiha ishlarini mustaqil bajarishlarida, amaliy topshiriqlarni bajarishlarida alohida o'z samarasini bermoqda. Texnologiya darslarida amaliy ishlarni bajarish jarayoni slaydlar, video tasvirlar yordamida yo'lga qo'yilishi o'z navbatida o'quvchilarni ijodkorlikga, kasb-hunar tanlashlarida, kreativ fikrlashlarida ijobiy natijalar beradi.

Ta'lim texnologiyalari – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayonlari vositalari, shakl va metodlari majmui hisoblanadi. Ta'lim materiallarini tanlash, qayta ishlab buyurtmachi sub'ektlarning kuchiga, xususiyatlariga moslab mazmuni, shakli va hajmini aniqlashtirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Ta'lim texnologiyalari ta'limning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlar asosida ta'lim jarayonlari, ta'limning mazmunini, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyalari – o'quvchilarga bilim va ko'nikmalar bilan bog'liq vazifalarni hal qilish imkonini beradigan muayyan bilimlar va ko'nikmalar majmuasidir [4].

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

2. Alibekov D. (2020). Социально-философские основы развития системы образования. ISJ Теоретическая и прикладная наука, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/> TAS-10-90-6 Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>

3. Zaxarov I.G. Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalari / I.G. Zaxarov. - M.: "Akademiya", 2008., 338-bet.

4. Alibekov D. (2021). Социально-ФИЛИСОФСКИЕ ОСНОВЫ развития СИСТЕМА образования. Журнал музыки и искусства.

XOTIRA PSIXIK JARAYON SIFATIDA

Toshtemiriva Mohinabonu Bahodir qizi

Guliston Davlat Universiteti 4-bosqich talabasi

toshtemirovamohinabonu50@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotira, xotira turlari, xotira imkoniyatlari hamda xotira psixologiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xotira, xotira faoliyati, emotsional munosabat, esda saqlash.

Inson ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorigina eslab qola oladi. Ma'lum bo'lishicha, bir vaqtning o'zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo'lgan ma'lumotning qolishi qiyin ekan. Bu yettita so'z, son,

belgi yoki narsalarning shakli bo'lishi mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgidan iborat bo'lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo'lar ekan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma'lumotlarni saralab, terib ishlatishi psixik jarayonlardan biri bo'lgan - xotira jarayonini bilishimiz lozimligini anglatadi.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Inson o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, inson uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutilib yuboriladi.

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Insonning biror narsaga qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'p hollarda u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklari bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga insonning emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Inson uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz biror narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog'liq. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki, yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, ma'lumotni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga, fikrlash qobiliyatiga, ko'nikma va odatlariga ham bog'liqdir. Shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira tufayli bizda ajoyib imkoniyatlar borligini so'zsiz qabul qilamiz. Xotira hayotimizni belgilaydi. Xotira tufayli biz oilamizni taniymiz, o'z tilimizda gapira olamiz, uyimizga olib boradigan yo'lni yo'qotmaymiz. Xotira tufayli biz tajribalarimizdan bahramand bo'lamiz va uni qayta qo'llay olamiz. Ammo ba'zan aynan xotira tufayli aybdorlarni va aybdorligimizni kechira olmaymiz. Biz nimani ko'proq eslasak u xotiramizning katta qismini egallaydi. Agar xotiramiz bo'lmaganida o'tgan quvonchli va alamli lahzalarimizni, aybdorlik hisini yoki g'azabni sezmagani bo'lardik. Uning o'rniga biz hozirgi yangi lahzada yashagan bo'lar edik. Bunday holatda har bir kishi begona, har bir til yangi hamda har safar kiyinish, ovqat pishirish va velosiped haydash muammo bo'lardi. Biz hatto o'zimizga ham begona bo'lar edik. Uzoq o'tmishimiz va hozirgi lahzamiz o'rtasida hech qanday bog'liqlik bo'lmas edi. Xotira tadqiqotchisi James Mc.Gaughning ta'kidlashicha: "Agar sen oldingi xotiralaringni eslash qobiliyatini yo'qotsang sen uchun hayot tugaydi". Inson

ko'rgan, his etgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi.

Xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog'liq. Shaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi. Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushurish va unutish bir-biridan farq qiladi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Yodda saqlab qolish – idrok qilingan ma'lumotni ma'lum muddatgacha esda saqlab qolishdan iborat bo'lgan xotira jarayoni. Esda saqlab qolish xotira jarayoni sifatida o'zining qonuniyatlariga ega. Masalan, esda saqlab qolishning dinamik va statik bo'lishi aniqlangan. Dinamik esda saqlab qolish operativ xotirada, statik esa aksincha, uzoq vaqtli xotirada namoyon bo'ladi. Dinamik esda saqlashda material kam o'zgaradi, statikda, aksincha, u albatta, o'zgarish va ma'lum qayta tiklanishga uchraydi. Qayta tiklanish turli sharoitlarda, masalan, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan qismlarning yo'qolishi va ularning boshqa qismlar bilan almashtirilishi, material izchilligining o'zgarishida, uning umumlashtirish darajasida ifodalanadi. Materialni xotirada tiklash eslash va tanish jarayonlari yordamida amalga oshiriladi.

Eslash – bu xotiradagi materialdan keyingi faoliyatda foydalanish. Eslashning fiziologik asosini jism va harakatlarni idrok qilishdan avval hosil bo'lgan nerv aloqalarini tiklashni tashkil etadi. Eslash ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Birinchi holatda eslash biz uchun kutilmagan holatda sodir bo'ladi. Masalan, o'qigan maktabimiz yonidan o'tib keta turib, beixtiyor bizga ta'lim bergan o'qituvchi yoki maktabdosh do'stlarning obrazlarini namoyon qilishimiz mumkin.

Xotira psixologiyasi xotirani mustahkamlashning aniq va ravon uslublarini taklif etadi. Ular orasida: uzoq muddatga eslab qolish, faol tarzda takrorlash, foydali, jonli, obrazli, assotsiativ aloqalarni tashkil etish, yodda tutish mashqlari, xayolan aniq bir vaziyat va kayfiyatga murojat etish, xotiradagilar yolg'on xabar orqali yo'qolib ketmasdan oldin qayta hikoya qilish, axborotlar aralashib ketishiga yo'l qo'ymaslik, o'z – o'zini nazorat qilish va takrorlashdir. Shunday ekan biz ushbu usullardan foydalanadigan bo'lsak uzoq muddatli eslab qolishga va xotiramiz mustahkamlanishiga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. А.Х.Югай, Н.А.Мираширова “Общая психология” – Ташкент 2014.

3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Xaydarov, Xalilova Umumiy psixologiya – Toshkent-2009.

INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUTUVCHI VA O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Qlichev Ulug'bek Abdumavlonovich

Sirdaryo akademik litseyi Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida boshlig'i,
tarix fanlari nomzodi (PchD)

Annotatsiya: Ushbu maqola innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha o'qituvchi va o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlanadi. Fan o'qituvchilari kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondoshib, unda o'qitishning yangi shakl usullarini qo'llash va rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lim, interaktiv metod, an'anaviy ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim-tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, kompetentsiya, ma'naviyat.

Annotation: This article is devoted to the issues of developing the morale of teachers and students on innovative educational technologies. Science teachers have professional skills and a creative approach to the lesson, and it contains information on the use and development of new forms of teaching methods.

Keywords: Innovative education, interactive method, traditional education, modern technologies, teacher, student, education, knowledge, skills, competence, competence, spirituality.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам формирования морального духа учителей и учеников по инновационным образовательным технологиям. Учителя естественных наук обладают профессиональными навыками и творческим подходом к уроку, содержат информацию об использовании и разработке новых форм методов обучения.

Ключевые слова: Инновационное образование, интерактивный метод, традиционное образование, современные технологии, учитель, ученик, образование, знания, умения, компетентность, компетентность, духовность.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu paytgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga,

xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik funksiyasini bajaradi.

Innovatsiya – (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni bildiradi, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san'at, mahorat va “logos” — fan so'zlaridan olinib, innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma'noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb ataladi. Bu metodlarnig o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda “innovatsion ta'lim” bu o'z-o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan ta'lim va innovatsion ta'lim - bu rivojlanayotgan ta'limdir. O'quvchilarga yetkaziladigan zamonaviy tarkib zamonaviy bilim amaliyotiga mos keladigan kompetentsiyalarni rivojlantirish kabi fan bilimlarini rivojlantirishni o'z ichiga olmaydi. Bu tarkib yaxshi tuzilgan va aloqa vositalari yordamida uzatiladigan multimedia o'quv materiallari shaklida taqdim etilishi kerak. O'qitishning zamonaviy usullari materialni passiv idrok etish asosida, balki o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va ularning o'quv jarayoniga jalb qilinishiga asoslangan vakolatlarni shakllantirishning faol usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish tushuniladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi: AKT bo'yicha bilimlarga ega bo'lish va qo'llash, xorijiy tajribalardan boxabar bo'lish, ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanish mahorati, ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib borishlik, darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilishi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni o'sib kelayotgan avlodni yuksak ma'naviyatli, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash hamda mamlakatimiz kelajagini yanada yuksaltiradigan, o'zbek xalqining dong'ini jahonga tanitadigan, intellektual, ma'nan barqaror yosh malakali kadrlarni yetishtirib borishdir. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, uzluksiz ta'lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib yetishini ko'zda tutadi. Shunday akan, yosh avlodning ertangi kunini belgilab beruvchi bilim va ko'nikmalari, o'z navbatida malakali o'qituvchilar tomonidan qiziqarli dars mashg'ulotlari yanada intellektual bilimlar bilan boyitilib borilishi nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, dars mashg'ulotlari ma'naviy jihatdan barqaror yosh avlodlarning bilim, ko'nikma va salohiyatlarini yanada rivojlantirib, zamonga mos holda, ijtimoiy fanlar uyg'unligida olib borilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
2. Turdiyev N va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. (I qism). T., 2015, 160 b.
3. Ishmuhammedov R, Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2016.
4. Ro'ziyeva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI MUSIQA RAHBARLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI

Amanova Durdona Kaxramonovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malkasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Musiqa mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish, sifat va samaradorligini oshirish asosan musiqa rahbarining bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda uning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlari, qobiliyati, mahorati va kasbiy kompetensiyaga bog'liq bo'ladi.

Musiqiy tarbiya – har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishning muntazam olib borilishi lozim bo'lgan faoliyat sohasidir. Shaxsni shakllantirish – uni kamol toptirish, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega qilib tarbiyalash jarayonidir.

Bola shaxsining shakllanishiga irsiyat (ya'ni biologik omil), ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiyaning o'rni muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim va tarbiya borasidagi olib borilayotgan islohotlar har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Yurtimizda farzandlar kamoli uchun hamma narcha muhayyo. Yosh avlodni jismoniy sog'lom, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ta'lim tarbiya jarayonining bosh yo'nalishi sifatida qaralayotgan ushbu vazifalarni hal etish ko'p jihatdan musiqiy-estetik tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilishiga va bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda musiqiy ta'lim-tarbiyadan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri olib borish esa musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasi yuqori bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Musiqa

rahbarining kasbiy kompetentligi – bu musiqa rahbari tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir²⁹. Musiqa rahbarining kasbiy kompetentligi – bu nafaqat kasbiy bilimlarga egaligi, balki bolada vatanparvarlik, insonparvarlik, oliyjanoblik, do'stlik, kattalarga hurmat kabi ezgu fazilatlarni tarbiyalay olishni bilishida ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlari maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashlari, ularning ilg'or jihatlarini o'zlashtirishga alohida ahamiyat berishlari va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun ularda zarur bilim va tajribalarni hosil qilish talab etilmoqda.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim? Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi maktabgacha ta'limni tashkil etishning o'ziga xos shartlarini, innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va bolalar bilan ishlash usullarini jadal joriy etishni taqozo etadi. Bunday vaziyatda kasbiy kompetensiya ayniqsa muhimdir, uning asosi pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish-bu ijodiy individuallikni rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarga moyillikni shakllantirish, o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyati. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri pedagogning kasbiy darajasiga bog'liq bo'lib, umuminsoniy va o'ziga xos kasbiy munosabatlar to'plami sifatida belgilanadi, maktabgacha ta'lim tashkilotining psixologik-pedagogik jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlar, uni hal qilish orqali u rivojlanish vazifalarini, uning umumiy va maxsus qobiliyatlarini aniqlashtirish, takomillashtirish, amaliy amalga oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy talablarga asoslanib, musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy usullarini aniqlash mumkin:

- uslubiy birlashmalarda, ijodiy guruhlarda ishlash;
- tadqiqotchilik, eksperimental faoliyat;
- innovatsion faoliyat, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish;
- pedagogik qo'llab-quvvatlashning turli shakllari;
- pedagogik tanlovlarda, mahorat darslarida faol ishtirok etish;
- o'zining pedagogik tajribasini umumlashtirish.

Ammo musiqa rahbarining o'zi o'z kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini anglamasa, sanab o'tilgan usullardan hech biri samarali bo'lmaydi. Buning uchun musiqa rahbari o'z kasbiy fazilatlari darajasini oshirish zarurligini mustaqil ravishda anglaydigan sharoitlarni yaratish kerak. O'zining pedagogik tajribasini tahlil qilish musiqa rahbarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishni faollashtiradi, natijada tadqiqot faoliyati ko'nikmalari rivojlanadi, keyinchalik ular pedagogik faoliyatga birlashtiriladi.

²⁹ N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari". O'quv metodik qo'llanma - Toshkent, 2015y.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatadigan musiqa rahbarlari bolalarning iqtidorlarini erta aniqlash metodikalari bilan qurollangan bo'lishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek, musiqa rahbarlarining layoqatlari va kasbiy shakllanganliklarini qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlari kasbiy kompetensiyaviy bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishlari lozim.

Mazkur maqsadga erishish uchun musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining mazmunini boyitish va kasbiy kompetentlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ishlar ko'lamini kengaytirish talab etiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan bilimlar musiqa rahbarlarining istiqbolda maktabgacha ta'lim tashkiloti va unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mahoratiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimining asosini tashkil etuvchi mexanizmlar va ularga qo'yiladigan talablar aniqlandi. Bularga quyidagilar kiradi:

- musiqa rahbarlarining o'z faoliyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetensiyaviy bilimni oshirish;

- pedagogik tafakkur va ongning o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillarni aniqlash;

- musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda psixologiya va pedagogika fani yutuqlaridan maqsadli foydalanish;

- ilg'or amaliyotlarni o'zlashtirishga mustaqil intilish, mavjud tajribalarni ijodiy o'zlashtirish;

- musiqa rahbarlarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy zarurat ekanligi;

- kasbiy kompetentlikni boyituvchi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar jamiyat taraqqiyoti bilan integratsiyalashuvi;

- musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kasbiy faollik, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik, ijtimoiy faollik, kreativlik, kommunikativlik kabi prinsiplarga asoslanishning afzalligi;

- mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchining faolligini oshirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion fikrlashga o'rgatish, o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish kabi talablar kiradi.

Musiqa mashg'ulotini ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy qismlaridan deb bilib, uning muhimligini va bu ishlarning vazifasi: bolaning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishdan, musiqiy bilimlar doirasini kengaytirishdan, shuningdek, musiqiy-ma'rifiy yo'sindagi tadbirlarni o'tkazish extiyojini va shularga doir bilim va ko'nikmalarni, musiqa san'atini targ'ib qilish istagini tarkib toptirishdan iboratligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-802-son qarori. T. 2020 y.
2. S.T.Turg’unov, B.X.Daniyarov, M.A.Umaraliev, Sh.S.Shodmonova, Sh.M.Turg’unova, H.M.Tojiboeva. “O’qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish”. – Toshkent “Sano-standart”. Toshkent. 2012 y.
3. M.A.Davydova. Музыкальное воспитание в детском саду. Среднего, старшего, подготовительного групп. - М.: ВАКО, 2006.
4. G.M.Sharipova, Sh.Yakubova. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o’qitish metodikasi”, Toshkent, “Cho’lpon”, 2009 yil. (O’quv qo’llanma).
5. G.M.Altibaeva. Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiyasi metodikasi. Termiz - 2018 y.

**MAMLAKATIMIZDA BUGUNGI KUN TA'LIM TIZIMINI
RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY AHAMIYATI**

Biybalayev Islombek Abdunazarovich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o’rgatish milliy markazi katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimiz ta’lim tizimini rivoji yo’lida amalga oshirilayotgan amaliy ishlar va yaratilayot ularni rivojlantirish imkoniyatlari, ahamiyati va zamonaviy ustuvor jihati yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье освещаются практические работы, проводимые в развитии системы образования нашей страны и возможности их творческого развития, их значение и современные приоритеты.

Abstract. In this article, the practical work being carried out in the development of the education system of our country and the possibilities of their creative development, their importance and modern priorities are highlighted.

Kalit so’zlar. Ta’lim, ta’lim tizimi, oliy ta’lim tizimi, zamonaviylashtirish, internet.

Ключевые слова. Образование, система образования, система высшего образования, модернизация, интернет.

Key words. Education, education system, higher education system, modernization, internet.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmuni ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilmoqda. Ushbu soha zamonaviyligi bilan bir qatorda, ustuvor ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ham, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

2023-yilga mamlakatimizda **“Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”** deb nom berildi. Haqiqatdan ham, ta'lim sifatini oshirish–Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'lidir. Buning uchun esa ta'lim tizimini zamonaviy usullar orqali rivojlantirish va uning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun birinchi navbatda, yangi O'zbekiston uchun eng katta sarmoya ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilishi lozim.

Mamlakatimizda ta'lim tizining barcha turlari va shakllari ustuvor darajaga ko'tarilmoqda. Aniqroq qilib aytganda, mamlakatimizning yangi tahriridagi Konstitutsiyasining 50-moddasida ham uzluksiz ta'lim tizimi, uning turli shakllari va turlarini, ya'ni davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishni davlat darajasida qo'llab-quvvatlanishi belgilanib qo'yilgan. Ya'ni, bu orqali maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratilib, boshlang'ich kasb-hunar ta'limi olishni kafolatlaydi. Xususan, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'limga muhtoj bolalar inklyuziv ta'lim va tarbiya bilan ta'minlanadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviyligi ta'minlanib, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni** qabul qilindi. Haqiqatdan ham, bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvorligi quyidagi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:

- doimiylik: inson o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanib, hayot davomida o'rganish, bilimlarini yuksaltirish va yangilash imkoniyati berilishi ta'minlanadi.

- universallik: ta'lim jarayoni o'quvchi va talabalarda yangi faoliyat yo'nalishlarini o'zlashtirishga, turli bilim va ko'nikmalar ro'yxatini shakllantirishi lozim.

- o'zaro tartib: o'quvchi va talabalar turli sohalardagi bilimlar bo'yicha a'loqalarga ega bo'lishlari, barcha fanlardan foydalangan holda vazifalarni hal qilishga asoslangan bo'lishi kerak.

- shaxsiy yondashuv: ta'lim va tarbiya doirasida o'zaro ta'sir qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, bu o'quvchi va talabalarining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish lozim.

ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishi dolzarb faoliyat sohalari va vazifalarga yo'naltirilib, mehnat bozoridagi vaziyat, raqobat va kasblarga bo'lgan talab bilan belgilanadi.

- ochiqlik: ta'lim maqsadlari davlat buyurtmasi, o'quvchi-talabalar va ularning ota-onalari va o'qituvchilari, ya'ni ta'lim jarayonida ishtirok

etadigan barcha sub'ektlarning ta'lim sohasiga bo'lgan ehtiyojlari bilan belgilanadi.

- ko'p bosqichlilik: ta'lim jarayoni turli bosqichlardan iborat bo'lib, unda talaba o'zi uchun rivojlanish va tayyorgarlik darajasiga erishishi muhim ahamiyat kasb etadi hamda mazkur bosqichlar ma'lum bir vaqt oralig'ida va ko'zlanadigan maqsadiga ega bo'ladi.

- standartlashtirish: ta'lim tizimini rivojlantirish yagona davlat standartiga muvofiq bo'lishi lozim bo'lib, shu orqali o'quv natijalari baholashga va standartga bo'ysunadi.

- ajratish: turli shakl bo'yicha talabalarni o'quv guruhlariga birlashtirish, o'quv muassasalarini tasniflash, o'quv fanlarini tuzish va individual o'quv dasturlarini yaratishni o'z ichiga oladi.

- innovatsiya: ta'lim tizimini ijodiy va noan'anaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish, ba'zi qoidalardan voz kechish, talabalarining mustaqil ishlariga e'tibor qaratishni kuchaytirish va ulardagi yangi ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish asosida mavjud vazifalarga ilmiy yondashishni taqozo qiladi.

- faoliyat yondashuvi: unga ko'ra, nazariya amaliy faoliyatni samaraliroq qilishga xizmat qilishi orqali talabalarni o'qishga, ijodkorlikka, bilim olishga nisbatan faolroq bo'lishga undaydi.

- milliyashtirish: ta'lim sohasi milliy urf-odatlar, madaniy meros, mamlakat tarixi, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish usuli sifatida xizmat qiladi.

- globallashtirish: uni e'tiborga olgan holda milliy ta'lim tizimlariga bilimni tadbiq qilish, umumiy va universal tamoyillar asosida ta'lim sohasini rivojlantirish uchun hamkorlik qilish amalga oshiriladi.

o'quv dasturlari mazmuni talabalar tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi, ushbu yo'nalish turli kasb egalarining bir-birlari bilan erkin muloqot qilishlari mukammal bilim olishni o'z ichiga oladi.

- etika: ya'ni, ta'lim tizimi o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro hurmatni rivojlantirish, sog'ligini saqlash va mustahkamlash, inson huquqlarini qadrlash, inson salohiyati va iste'dodlarini to'liq yuzaga chiqarish kabi qadriyatlarni targ'ib qilishi lozim. Shular bilan bir qatorda, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish uchun uni keng qamrovli raqamlashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, raqamlashtirish bugungi kunda ta'lim sohasini rivojlantirish tendensiyalarini yuzaga chiqarishda muhim o'rinni egallaydi. Hamda raqamlashtirish masofaviy ta'limni samarali amalga oshirishga, talabalar uchun qulay onlayn muhitni yaratishga va mobil texnologiyalarni oshishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Buning uchun internet tizimining bo'lishi va uning ishlash tezligi muhimdir. Chunki, internet globallashtirish jarayoni va yoshlarning qiziqishlari yuqorili tufayli ta'lim sohasiga tez kirib keldi. Internet o'qituvchi-talabalar uchun qulay vosita, bo'lib, u orqali dunyoning istalgan joyida turib, ta'lim olish imkoniyati mavjud bo'ladi. Umuman olganda, mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy ustuvor ahamiyati

barcha ta'lim shakllarida muhim ahamiyat kasbetib, uni samarali keng taraqqiy qilishi yetarli shart-sharoitlar va imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi. 2022-yil 22-dekabr.

Manba: <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn2>.

2. <https://lex.uz/docs/4545884>

TA'LIM TARAQQIYOTIDA XALQARO TAJRIBALAR

Begiyev Omonjon

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi katta o'qituvchisi

Bizga ma'lumki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo'lib turibdi. Yaponlarda, masalan, "maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli" gina bo'lib qolmay, "u insonlarni yaxshilaydi", – degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-e'tiborida bo'lgan.

Shuning uchun ham AQSH ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mettiranlarni ta'lim islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi.

F.Mitteran ta'limni "Jamiyatini harakatlantiruvchi kuch", deb hisoblagan.

XX asrning 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi. Amerikadagi ko'zga ko'ringan "Found Karnegi" pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan "yadro" predmetlar: ingliz tili adabiyoti matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi.

O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir. "Yangi dunyo"ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli

ta'sir etayotir. Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasida chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushida keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDR dagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta'lim tuzilmasini yangi me'yorga va o'lvchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta'lim tizimiga o'tkazib o'qishdan iborat. Ammo, buning ham o'ziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag' masalasi bo'lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu o'zgarishga munosabatidir.

Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

Maktabgacha tarbiya Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanib, uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Germaniyada bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansa-da, lekin u davlat ta'lim tizimi tarkibiga kirmaydi.

24000 dan ortiq bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota onalar ham qisman pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80 foizi bolalar bog'chasiga qatnaydi. Bog'chalarda ta'lim tabaqalashtirib olib boriladi. Germaniyada bolalar bog'chalarida odatda bolalar tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Kuni uzaytirilgan guruhlar ham mavjud.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi bir yerlarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishini bitiradi, keyin hunar-texnika bilim yurtlarida to'la bo'lmagan haftalik o'qishida o'qiydilar. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ancha kam. Boshlang'ish maktab. O'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o'qish davomida bolalarga baho qo'yilmaydi. Boshlang'ish maktabda 4 yillik o'qishdan keyin o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichdagi yo'nalish maktab tipiga bog'liq yoki bog'liq

bo'lmagan holda maxsus dastur asosida o'qitiladi bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talabning kuchliligidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar ta'limi tizimi turli tipdagi o'quv yurtlari va o'qitishning turli shakllariga ega. Eng ko'p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta'limining –Dual tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarning 50 foizi va to'liq o'rta maktablarning 16 foizi o'qishni davom ettiradi.

Maxsus hunar bilim yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarining 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdagi o'quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesvevga tegishlilaridan tashqari bo'lgan oliy o'quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo'ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta'lim federatsiyasi boshqaradi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o'z ustavlarini qabul qiladilar Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylanadigan Prezident boshqaradi. Ko'pchilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o'z-o'zini boshqaradilar. Oliy o'quv yurtlarida o'qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanadi. Shundan keyin o'qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish uchun imtihon topshiriladi. Ta'lim sohasidagi siyosat aholining ko'plab qatlami uchun oliy o'quv yurtlari darvozasini keng ochdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o'quv yurtlarida chet elliklar o'qishidan manfaatdordir. 2021-yili ular 276000 nafarni tashkil etgan.

Chet el ta'lim taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. Bugungi kunda yurtimiz ta'lim tizimi keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda.

Maqsad – ta'lim faoliyatini demokratlashtirish, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish va shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Shu maqsadda chet el ta'lim tizimi tajribalari o'rganilmoqda, buni hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi asosida ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ishki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan

mablag' miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Bu tajribalarni sinchkovlik bilan o'rganish orqali biz ta'limda islohotlarni yanada jadallashtirishga erishamiz.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda, bizda ta'lim mazmunini yangilash, uni boshqarish, yangi pedagogik texnologiyani ta'lim tizimiga tadbiiq etishda hamon kamchiliklar mavjud.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik o'zgarishlar sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muqim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.G'. Yo'ldoshev "Xorijda ta'lim". – T.: "Sharq" 1995.
2. "Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar" O'quv-uslubiy majmua
3. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublika Prezidentining farmoni
4. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T., 2005.
5. Omonov X.T, Xo_jaev N.X, Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2009.
6. www.ziyonet.uz
7. www.tdpu.uz
8. www.pedagog.uz

2-SHO'BA TA'IM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI METODIK TA'MINOT VA UNING BOSQICHMA-BOSQICH AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

МАЛАКА ОШИРИШ ПРОФЕССОР ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ АХБОРОТ МАДАНИЯТИ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Козим Эшқувватов

Сирдарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий
маркази доценти, физика-математика фанлар номзоди.

Тел.: (+99890) 241-20-57. E-mail.: sirdaryo_moi@xtv.uz

Мамлакатимизда таълим соҳасида олиб борилаётган ислохатлардан мўлжалланган вазифаларни амалга ошириш замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланишни ҳамда ўқувчиларда омилкорликни шакллантириш мақсадида интернет - ресурслардан кенг фойдаланишни кўзда тутди. Бу эса ўз навбатида ўқитувчи касбий маданиятининг бир қисми ва умумий ўрта таълим мактабларида таълим муҳитини тегишли ўзгариши сифатида ўқитувчиларнинг юқори савиядаги ахборот қартилган методларни танлаш ва улардан фойдаланиши;

- таълим жараёнида АКТдан хавфсиз, масъулиятли ва ахлокий нормаларга риоя этган ҳолда фойдаланишни намоён этилиши;

- таълим мазмунига мос бўлган АКТни таълим жараёнига интеграция қилишнинг турли самарали ёндашувларидан фойдалана олиши;

- оммавий ахборот воситаларидаги медиа хақида тушуниши, медиа саводхонлик эле ментларини пухта ўзлаштирган ҳолда ушбу билимларни ўқувчиларда шакллантира олиши;

- турли усул ва воситалар орқали ахборотларни таҳлил этиш, баҳолаш, бошқариш ва янги маълумотларни яратиши

- ўқитувчининг “ахборот маданияти” педагогик маҳоратни мукамал эгаллаб ўз касбий фаолиятига тегишли ахборотлар- ни олиш, уни қайта ишлаш ва фойдаланиш методлари ва усулларини ўзлаштириши;

атроф оламдаги ахборот жараёнлари хақида билимлар ва тасаввурларни акс эттирувчи ўқитувчининг педагогик маҳоратини такомил- лаштирувчи сифатлар йигиндиси, ахборот воситаларига эга бўлиш, ахборот маданияти билан боғлиқ ахлокий - этик ва касбий маҳорат меъёрлари тизимини ўзлаштириш, шунингдек компьютер саводхонлигига эга бўлиши,

- компьютер саводхонлиги ва ахборот- ни излаш малакаси, ахборотдан фойдаланиш ҳамда баҳолаш, компьютер коммуникацияси технологияларига эга бўлиш, педагогик фаолият- нинг барча соқаларида ахборот технологиялари имкониятларини эгаллаш ва фойдаланишдан

иборат ахборот омилкорлиги

Замонавий ахборот ресурслари ўқитувчига ўзининг касбий маҳоратини оширишга ёрдам беради.

Маслаҳатчи сифатида - билиш жараёнини бошқаради, гуруҳ, бўлиб маслаҳат ва коммуникатив машғулотларни олиб боради, урганилаётган мавзунинг ҳар хил масалалари буйича ўқувчиларга яқка тартибда маслаҳатлар беради.

Менеджер сифатида - машғулотлар ўтказилишини бошқаради, тўла қонли мақсадга эри- шилишини назорат қилади (тестлар, имтиҳонлар ва шу қабилар).

Ўқитувчининг ахборот маданиятини шакллантиришнинг факатгина биринчи, бошланғич босқичи - замонавий компьютер саводхонлигини шакллантириш булмаслиги лозим. Умумий ўрта таълим мактабларини ахборот-компьютер воситалари билан таъминлаш ўқитувчининг компьютер саводхонлигини шакллантириш учун шароит яратади. Билиш жараёнини ташкил қилишнинг ўзгартирилиши, компьютерда ахборот мақсулотларини, уқув дастурларини яратиш малакаларини шакллантириш - ўқитувчининг ахборот омилкорлигини ривожлантириш йулидаги кейинги қадам ҳисобланади.

Ўқитувчининг ахборотларни моделлашти ка риш методларига эга эканлигини курсатувчу пе яна бошқа вариантлардан бири - бу дарсда мультимедиали тақдимотларни ярата олиш 1/ яр ва улардан фойдалана билишидир. Улар уқув материални алгоритмик тартибда мукаммаг си маълумотлар билан тулдириб, ёркин таянч образлар тизими сифатида ифодалаш имконияти ни беради.

Шу уринда Microsoft Officeдан фойдаланиш ўқитувчиларга ўзининг мультимедиа маърузаларини яратиш, топшириқлар, тестлар ва бошқа турли хил материалларни яратиш имкониятини беришни таъкидлаб ўтамиз. Компьютердг маъруза ўқиш ўқитувчи учун янги иш қуролига айланмоқда:

намоиш қилиш воситалар(слайдлар, видеороликлар, анимациялар) ўқувчиларда образли тасаввурларни ва улар асосида тушунчаларни шакллантиришга ёрдам беради.

Ўқув-методик қўлланмада мавжуд бўлган ўқув-намоиш материаллари коллекциясидан фойдаланиб, ўқитувчи турли хил ахборот ресурсларидан фаол материал излашни бошлайди, бу жараёнга ўқувчиларни жалб этади. Бундай ҳамкорликдаги фаолият ўқувчиларнинг; билиш фаолиятини рағбатлантирибгина қолмай, балки ўқувчи ва ўқитувчини ягона лойиха бор устида ишловчи маслакдошлар сифатида бирлаштиради.

Педагогик таълим жараёнларини замонавий ахборот технологиялари асосида самарали ташкил этишда:

таълим ва тарбия жараёнини янада мукаммал ташкил қилишни

такомиллаштириш ва педагогик фаолиятнинг самарадорлигини ошириш мониторингини ташкил этиш имкониятини яратади.

Замонавий ахборот технологиялари асосида ўқитувчининг педагогик фаолиятида:

- таълимнинг технологик асосини замон талаблари даражасида ривожлантириш билан боғлиқ, бўлган мураккаб жараён енгиллашади;

- дарс жараёнини замонавий техник воситалар асосида ташкил этиш учун махсус кўникма ва малакалар шакллантирилади;

- таълим жараёнида ўқувчиларнинг мустақил фаолияти такомиллашади, дарс жараёнининг самарадорлиги ўқитувчидан ўқувчига кўчади;

- ўқув жараёнини ташкил этишда, ўқувчининг ташкилотчилиги ва шахсий иштироки ортади;

- замонавий коммуникация технологияларидан фойдаланиш асосида ўқитувчи педагогик фаолиятида ҳар бир ўқувчи билан тескари алоқаси вужудга келиши таъминланади.

Жамиятнинг ҳар бир аъзоси, ўзининг кундалик фаолиятида, узлуксиз равишда турли ахборот ресурсларидан фойдаланади. Доимий равишда ортиб бораётган ахборотлар ҳажми жамиятдаги интеллектуал салоҳиятнинг ошишига хизмат қилади. Модомики шундай экан, ўқитувчи кам ўз касбий ва педагогик маҳоратини замонавий ахборот технологиялари оқими асосида ошириб бориши мумкин. Ҳар бир ўқитувчи меҳнат фаолияти жараёнида ахборот технологияларидан унумли фойдаланиши учун аввало, ўз ахборот муҳитини шакллантиришга замин яратиши керак. Замонавий ахборот технологиялари ўз муҳитида ахборот объектларини, уларнинг ўзаро алоқасини, ахборотларни яратиш, тарқатиш, қайта ишлаш, тўплаш технологиялари ва воситаларини, шунингдек ахборот жараёнларининг ташкилий ва ҳуқуқий таркибини мужассамлаштиради.

Педагогик маҳорат таркибий тузилишида ахборот маданиятининг имкониятларини ошириш зарурияти куйидаги омиллар билан аниқланади:

- ахборот ҳажмининг кескин ортиши;

- замонавий фан интеграцияси ва дифференциацияси туфайли юзага келган ахборот тарқалишининг муҳаррарлиги;

- илмий ва ижтимоий парадигмалар алмашинуви туфайли билимларнинг жуда тез эски риши.

Ўқитувчиларнинг ахборот маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотларнинг ажралмас қисми эканлиги шубҳасиздир.

Компьютерда ишлашнинг оддий кўникмалари ўқитувчининг касбий ахборот фаолиятини такомиллаштиришдаги биринчи қадамдир.

Ўқитувчининг ахборот маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш таълим муассасаси маъмурияти, хусусан, директорнинг ахборотлаштириш ишлари буйича муовини, муниципал методик

хизматлар, малака ошириш институтлари зиммасига юклатилади.

Таълим муассасалари даражасидаги фаолиятлар таълим муассасасини ахборотлаштириш дастури асосида қурилган бўлиши керак.

Ахборот технологияларини фаол татбиқ қилиш орқали таълим сифатини ошириш бундай дастурнинг мақсади ҳисобланади.

Қуйидаги масалаларни ҳал қилиш орқали бу мақсадга эришиш мумкин:

- методик ишлар самарадорлигини ошириш мақсадида таълим муассасаларининг ягона ахборот муҳитини яратиш, ўқитувчиларнинг касбий маҳоратларини оширишга бўлган эҳтиёжларини қондириш ва илмий-методик ҳужжатларда ахборот оқимини аниқ бошқариш;

- узлуксиз касбий таълимда ахборот технологияларидан фойдаланиш ва ўқув жараёнини фаоллаштириш;

- ўқитувчиларда ва ўқувчиларда ахборот маданиятини шакллантириш учун шароит яратиш.

Маълумки, ахборот эскириши, айниқса, шиддат билан эскириш хусусиятига эга, демак, ўқитувчи узлуксиз таълим олиши, ижод қилиши (мустақил ва махсус ташкил этилган) зарур. Ўқитувчи замонавий ахборот технологиялари асосида ўз-ўзини такомиллаштиришида масофавий курслар бебаҳо ёрдам кўрсатади. Интернет орқали тайёргарлик мавзусини танлаш, вақтни тежаш, ўқитиш самарадорлигини ошириш имкониятини беради. Ўзини, ўз тажрибасини очиқ бериш қобилияти ўқитувчи ахборот маданиятининг муҳим жиҳати ҳисобланади.

Ўқув фаолиятини диагностика ва мониторинг қилиш ишларида компьютердан фойдаланиш шунингдек, ўқитувчининг ахборот коммуникацион технологияларни билиш савиясини тавсифлайди. Компьютердан фойдаланишда сақлаш меъёрларига риоя қилиш ахборот маданиятининг ажралмас қисмидир.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш керакки, янги ахборот технологияларининг татбиқ қилиниши ўқитишнинг анъанавий технология инкор қилмайди. Компьютер воситалари ва ахборот технологиялари дидактик жараёнга таъсир кўрсатади, унинг фаоллигини ошириб боради, бироқ шу билан бирга ўқув жараёнида ахборот-компьютер воситаларидан фойдаланишда педагогик мақсадга мувофиқлик принципига амал қилиш талаб этилади.

1-SINF YOZUV DARSLARIDA CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI HOSIL QILISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ TURLARIDAN FOYDALANISH SAMARASI

Dehqonova Gulnora Rasuljonovna

Sirdaryo viloyat Guliston shahar 10-umumta'lim maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1-sinf yozuv darslarida chiroyli yozuv malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan mashq turlaridan foydalanishga oid namunalar keltirilgan holda chiroyli yozuvga o'rgatishda mashq turlaridan foydalanish samarasi ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: chiroyli yozuv, yozuv darslari, yozuv mashq turlari, chiroyli yozuv malakalari, qo'l motorikasi.


Bola maktabga qadam qo'ymasdan oldin (3-4 yoshdan boshlab) qo'lga qalam olib turli shakllarni chiza boshlaydi, ammo bu chiziqlar chiroyli yozuv talablariga to'g'ri kelmasa-da, ulardagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushlash) shakllanishiga yordam beradi. Kichik yoshdagi bolalarning barmoq mushaklari yaxshi rivojlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirib, mashq qildirish yozuvning sifatiga salbiy ta'sir etadi. Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo'r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishga qarab qo'l harakatlari shunga moslashtiriladi. Quyida chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashq turlarini tahlil qilamiz.

Qo'l mayda matorikasini rivojlantiruvchi mashqlar.


1. Nuqtalar ustidan turli shakl va rasmlarni chizish:



2. Turli yo'nalishlar bo'ylab chiziq chizish;




3. Berilgan rasmlarni bo'yash;




Miya ikki yarimsharlarini faollashtiruvchi mashqlar

Miya yarimsharlarining faolligi o'quvchilarda diqqat, xotira, fikrlash, tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu masqnlarni tayyorlov darslarida qanday qilib bajarish tushuntiriladi. Avval soddaroq rasmlarda mashq qilinadi. Mashqni bajarish uchun ikki qo'lga ikkita qalam olinadi va bir vaqtning o'zida ikkalasi bilan birga berilgan namuna ustidan chiziladi.




Nuqtalarni birlashtirib tasvirni hosil qilish mashqlari

Bolaning to'g'ri va chiroyli yozishi uchun uning tasavvurining keng bo'lishi ham ahamiyatli. Bu mashqlar shaklni tasavvur etish, tekislikda to'g'ri, simmetrik joylashtira olish uchun xizmat qiladi. Mashqlar soddadan murakkabga tamoyili asosida berilgan.



Jadval bilan ishlash mashqlari

Jadval bilan ishlash orqali o'quvchilarda berilgan ma'lumotlarni o'qish, yozish, tushunish ko'nikmalari tarkib toptiriladi. Bu mashqlarni bajarishdan oldin ustun, satr tushunchalarini aytib o'tish yoki eslatish maqsadga muvofiq. Chunki bola matematika, tasviriy san'at darslarida bu tushunchalar bilan tanishadi. O'quvchining tasavvuri, tanqidiy fikrlashi, ma'lumotlarni o'qish va tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi.




Mantiqiy fikrlashga undovchi mashqlar.

Yozuv malakalarini shakllantirishda o'quvchini tushunib yozish, topshiriqlarni uzviyligi, vazifalardagi mantiqiy topshiriqlarni bajarishni nutqiy ko'nikmalarini tarkib toptirishda yordam beradi. Bu mashqlarni bajarishda izchillik, soddadan murakkabga, yosh xususiyatlarni hisobga olish tamoyillariga amal qilish kerak.



Ijodkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar.

Yozuv darslarida o'quvchining chiroyli yozuv malakalarini shakllantiriladi. Chiroyli yozuv murakkab jarayon bo'lib, uni tarkib toptirish uchun yozuvga o'rgatish usullarining o'zi yetarli emas. Buning uchun o'quvchida did, ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim rol o'ynaydi.



Nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.

Yozuv darslari onatili darslarining poydevori hisoblanadi. Shuning uchun bu darslarga faqat yozuvga o'rgatish sifatida qarash keying bosqichda tilni o'rganish jarayonidagi murakkabliklarni olib keladi. Bu darslarda albatta, nutqni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish muhimdir.



Mustaqil bajarish uchun mashqlar

O'quvchi o'rganganlari asosida topshiriqni mustaqil bajara olishi, egallagan bilimlarini qanchalik ko'nikmaga aylanganini ko'rsata oladi. Bu vazifani yozuv darslarida mustaqil ishlashlari uchun mos topshiriqlarni berib borib amalga oshirish mumkin. Bu topshiriqlarni darsda, darsdan keyin uyda, ta'til vaqtlarida ham bajarishlari mumkin.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chiroyli yozuvga o'rgatishda mashq turlaridan to'g'ri foydalanishda bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'yin, musobaqa tarzida tashkil etish ham yozishga bo'lgan ishtiyoqni oshishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova. "Boshlang'ish sinf ona tili o'qitish metodikasi", "O'qituvchi", T-2009.
2. "Hamrohim". "O'qituvchi" nashriyoti T- 1996.
3. K.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yuldoshev "Savod o'rgatish metodikasi" T."O'qituvchi" 2006.
4. N.Azizova "Yozuv daftari" 1-sinf uchun T-2023.

O'QUVCHI YOSHLARDA IJODKORLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY TEXNOLOGIK VA METODIK JIHATLARI

Vahidova Gulnoza Shavkat qizi

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Musiqiy pedagogika" kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya. O'quvchi yoshlarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning tashkiliy-texnologik va metodik jihatlari nazariy ijohlangan, tavsiya va rivojlantirish bosqichlari yoritilgan.

Muayyan maqsadga erishishdagi qo'llanilgan tadbirlar va choralar majmui usul deb atalib, ularning tizimi esa uslub (metod) deb ataladi. Metod (yunoncha "metodos") – biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Interfaol metodlar va ulardan ta'lim jarayonida qanday foydalanish mumkinligi haqida juda ko'p olimlar, tadqiqotchilar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. O'qitish metodi o'quvchilarning musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari uchun ularning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirishda pedagog tomonidan qo'llanilgan usullar majmuidir. D.A.Karimovanning fikricha, o'qitish metodlarining quyidagi turlari mavjud: musiqa o'qitishning og'zaki metodlari; ko'rgazmali o'qitish metodlari; amaliy

o'qitish metodlari; o'yin metodlari; taqqoslash metodlari; musiqiy uquvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash [179].

H.T.Omonov va N.X.Xo'jaevlar tomonidan ta'lim mazmunini o'zlashtirishda qo'llanillanilishi mumkin bo'lgan quyidagi o'qitish metodlari keltiriladi: tushuntirish – illyustrativ; reproduktiv; muammoli bayon; xususiy qidirish yoki evristik; yarim tadqiqot. Interfaol metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullaridir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikdagi, ya'ni hamkorlikdagi faoliyati asosida amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni pedagog uchun o'quvchi bilan muloqot qilish, uning xarakteri, ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida musiqiy asarlar berish, ularning amalda bajarilishini nazorat qilish, berilgan asarni qay tarzda o'rganish xususida ko'rsatma va tavsiyalar berish orqali mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga o'rgatishdan iborat. O'quvchi o'z navbatida diqqatni jamlagan holda pedagog tomonidan berilgan asar to'g'risidagi ma'lumotlarni tinglashi, asarni qay tarzda ijro etish lozimligini o'zlashtirishi va mustaqil ravishda berilgan asar ijrosi o'quvchilarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunini belgilashni talab etadi. Yuqorida keltirib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonida o'quvchining musiqiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uning musiqaga qiziqishini oshirish, musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmog'i, ya'ni ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilishi lozim. Buning ma'nosi ta'lim jarayonining asosiy ob'ekti sifatida o'quvchi shaxsi olinib, asosiy pedagogik faoliyat o'quvchining shaxsi, qadr-qimmatini asosiy o'ringa qo'yish, ularning dunyoqarashini boyitish, ma'naviy-ahloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi. G.N.Ibragimovanning tadqiqotida o'quvchilardagi musiqiy-ijodiy fikrlash ko'nikmalari ulardagi musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda harakatga keltiruvchi kuch sanaladi. Aynan mazkur ko'nikmalar o'quvchilardagi ijodiy faollik, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat uchun yo'naltira olish, nosantdart tafakkur tarzini shakllantira olish, muammolarga nisbatan sezgirlik, intellektual qobiliyatlar, hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlar, konstruktivlik, innovatsiyalar transformatsiyasi bilan bog'liq divergent tafakkur tarzining shakllanishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish yo'lidagi muhim tadbirlardan biri quyidagi ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim: ijodiy munosabat; ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida rejalashtirish; ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning samarali shakl, usul va vositalarini amalda qo'llash; o'z-o'zini tahlil qilish, baholash; shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatishga intilish.

U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, D.I.Ro'zieva, M.Q.Usmonboevalarning fikricha, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarining asosiy turlari quyidagilardan iborat: hamkorlik ta'limi, muammoli ta'lim, modulta'limi, dasturiy ta'lim,

rivojlantiruvchi ta'lim o'yin texnologiyalari, interfaol ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, individual ta'lim, mustaqil ta'lim, innovatsion ta'lim.

Ta'lim tizimining markazida o'quvchi shaxsi turganligi sabab unga nisbatan hurmat bilan qarash va majburiylikdan voz kechish samaralidir. Buni amalga oshirish maqsadida qo'llash mumkin bo'lgan texnologiya erkin tarbiya texnologiyasidir. Bu texnologiya o'quvchiga tanlash va mustaqillik erkinligini beradi, natijada o'quvchi o'zi tanlagan vosita va mazmuni to'liq qabul qiladi hamda bu faoliyatni xohish bilan bajaradi. O'quvchida ichki extiyoj bilan uyg'unlik hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shojalilov A. Ta'limda pedagogik texnologiya // Xalq ta'limi. – T., 2002. – № 6.
2. Azizova G.G. Oliy ta'lim muassasalari professor– o'qituvchilarining kasbiy–pedagogik faoliyatini takomillashtirish. – Samarqand, 2019. – B.13.
3. Басин Е.Я. Творчество и эмпатия. 1987/2, С.54-66.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA MUSIQIY DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Jonboyeva Munisa Ravshan qizi

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 15-sonli Davlat maktabgacha ta'lim
tashkiloti musiqa rahbari
e-mail: munisa19959595@gmail.com

Annotatsiya

Zamonaviy tendensiyalar hozirgi kunda bolalarga yanada bilimli, ongli, dunyoqarashi keng inson sifatida ta'lim va tarbiya berishga undamoqda. Dunyo olimlari bu borada turli metodlar, tadqiqotlar ustida ishlamoqdalar. Bunday tadqiqodlardan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlaridir. Didaktik o'yinlar bolalarning nafaqat ongini shakillanishiga xizmat qiladi, balki ularning barkamol inson sifatida rivojlanishiga ham ulkan hissa qo'shadi.

Аннотация

Сегодня современные тенденции способствуют тому, чтобы дети получали образование и воспитывались как более образованные, сознательные, широко мыслящие люди. Ученые мира работают над различными методами и исследованиями в этом направлении. Одним из таких исследований являются дидактические игры в дошкольных образовательных организациях. Дидактические игры служат не только формированию детского сознания, но и вносят большой вклад в их развитие как всесторонне развитой личности.

Annotation

Today, modern trends encourage children to be educated and raised as more educated, conscious, broad-minded people. Scientists of the world are working on various methods and studies in this regard. One of these studies is didactic games in preschool educational organizations. Didactic games serve not only to shape children's minds, but also make a great contribution to their development as well-rounded people.

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Shu bilan bir qatorda zamonaviy ta'lim tizimidagi yangi metodlar, tadqiqodlar olib borilmoqda. Misol tariqasida oladigan bo'ladigan bo'lsak, bundan o'n yillar oldingi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizmi bilan hozirgi zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizmi tubdan farqlanadi. Buni maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning zamonaviyligidan tortib to maktabgacha ta'lim tashkilotlari malaka oshirish tizmigacha ko'rishimiz, sezishimiz, anglashimiz mumkin. Prezidentning 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi³⁰. Bugungi kunga qadar Prezidentimiz tomonlaridan chiqarilayotgan bir qancha qarorlar maktabgacha va maktab ta'limi sohasini, undagi moddiy texnika bazasini, ta'lim va tarbiya berishda zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanishni taqozo qilmoqda.

Maqolamizda so'z yuritmoqchi bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy didaktik o'yinlar mavzusi bugungi kunda dolzarb tadqiqotlardan biri bo'lib kelmoqda. Avvalo didaktika atamasiga izoh bersak. Didaktika (qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos — "o'rgatuvchi", "ta'lim beruvchi" ma'nolarini anglatadi) — pedagogikaning tarmog'i³¹. Ta'limning nazariyasi bilan shug'ullanadi. "Didaktika" atamasi ilk bor Yevropada XVII-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asari 1657-yilda bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolf Disterveg o'zining "Nemis o'qituvchilarini ma'lumotli qilishga rahbarlik" (1834-1835-yillar) asarida didaktikaning pededagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar paydo bo'la boshladi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir.

³⁰ <https://kun.uz/uz/news/2017/10/20/mirzиеev-maktabgaca-talim-tizimi-bujica-jigilis-utkazdi>

³¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Didaktika>

Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta. Keyingi vaqtda, kalom falsafasiga milliy didaktikaning metodologik asosi sifatida qaralmoqda. Chunki, olamning yaralish, rivojlanish qonuniyatlari, insonning bilish imkoniyatlari, ma'rifatning shaxs kamolotidagi, o'zini anglash borasidagi o'rni singari jihatlar ana shu falsafiy asosga tayanilgandagina tushunarli tarzda izohlanishi mumkinligi anglab yetildi. Kalom falsafasi ta'lim olamni bilishning vositasi ekanligini, bilish jarayonining cheki yo'q, ammo inson bilishi mumkin bo'lgan bilimlar cheklanganligini ko'rsatishi bilan diqqatga sazovordir.

Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o'qitish metodikasi maktab amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogika taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday hislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukuriy, A. Ibodiyev, M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Saidazizov, R. Yusufbekov kabi ma'rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning qadimiy shonu shuxratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'qligini to'g'ri belgiladi. Jahon pedagogikasining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan,

didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta'limni uyushtirishning amaliy jihatlarini bilangina shug'ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik qarashlari ularning ko'plab pedagogik asarlari va qo'llanmalarida aks etgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishtandan so'ng o'zbek pedagogika fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda didaktikaning tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o'zgarishi pedagogik tafakkurning sog'lomlashuviga, u esa, o'z navbatida, didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy didaktikaning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning insoniylashuvidir. Mazkur tamoyil ta'lim jarayoni uchun bilim emas, balki o'quvchi shaxsi asosiy qadriyat ekanligini anglatadi. Bunda o'quvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o'rin beriladi. Ta'limning insonparvarlashuvi tamoyili o'zbek didaktikasining asosiy talablaridan bo'lib, ta'lim mazmunini belgilash va pedagogik amaliyotni tashkil etishda shaxs ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlariga ustuvor ahamiyat berilishini ko'zda tutadi. Estetik, badiiy turkumdagi predmetlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish yo'li bilan bolalarning hissiyotini shakllantirishga erishish, ularda iroda xususiyatlarini tarkib toptirish muhimdir. Tarbiyalanuvchi ma'naviyati bilan uning o'zlashtirishi o'rtasida uzviy aloqa borligi zamonaviy psixologiya fani tomonidan asoslab berilgan. Bu holatni hisobga olmay ish ko'rgan pedagog muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur. Milliy didaktika taraqqiyotini ta'minlaydigan tamoyillardan yana biri ta'limning yaxlitligidir. Dunyodagi narsa, hodisalar yaxlit va bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekan, uni o'rganish ham imkon qadar yaxlit tarzda amalga oshirilishi kerak. Ta'lim jarayonida o'quv predmetlar miqdorini ko'paytirish emas, balki olamni bilish vositasi bo'lmish o'quv fanlarini imkon qadar umumlantirish yo'lidan borish lozim. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonning yangilangan o'quv rejalarida ta'limning asosiy yetti tarmog'i belgilangan bo'lib, o'quv fanlari miqdorini zaruratga qarab o'zgarib turishi ko'zda tutilgan. Ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning alohida jihatlarini hisobga olish ham didaktikaning asosiy tamoyillaridan sanaladi. U o'qitish jarayonini har bir o'quvchiga xos xususiyatlarni ko'zda tutgan holda tashkil qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, har qanday shaxs muayyan geografik muhitda shakllanadi. Uning tabiatida o'sha muhitga xos jihatlar muhrlangan bo'ladi. Shuning uchun ham o'qitish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili ham didaktikaning zarur talablaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Milliy dasturi"da mazkur tamoyilga alohida e'tibor qaratilgan. Tarbiyaning ustuvorligi ham bugungi o'zbek didaktikasining asosiy tamoyillaridan sanaladi. Komil shaxsni tarbiyalash har qanday ta'lim tashkiloti va muassasasining asosiy vazifasiga aylandi. Ma'naviyatni shakllantirish maqsad darajasiga ko'tarilgan sharoitda tarbiyaga ustuvor maqom berilishi tabiiydir. Milliy didaktika

o'quvchilarni ta'lim jarayonining ishtirokchilarigina emas, balki ijrochilari deb qarashni ham ko'zda tutadi. Ta'lim o'quvchi va tarbiyalanuvchilarning ichki ehtiyojiga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib bo'lmaydi.

Didaktika ta'lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O'qituvchi yoki tarbiyachi biror predmet bo'yicha o'quvchilarning yoxud tarbiyalanuvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlash maqsadi sari intilar ekan, ma'lum ishlarning bajarilish namunasini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, u ta'limning barcha bosqichlarida tarbiyalanuvchi, o'quvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o'zlashtirishlari, o'rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi³².

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro'yxati

1. <https://kun.uz/uz/news/2017/10/20/mirzиеev-maktabgaca-talim-tizimi-bujica-jigilis-utkazdi>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Didaktika>
3. M.Jonboyeva "Didaktik o'yinlar" Sirdaryo-2022 yil

BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIK VA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga nutq madaniyati tarixidan ma'lumot berish, ulkan notiq, adiblar, so'z ustalarining nutq madaniyatini rivojlantirish borasida qilgan ishlarini o'rganish yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: fonetik, lesik-semantik, aksentologik, grammatik, grafik, punktuatsion

Bugungi davr talabi ta'lim sifatini ko'tarish, yangilash va yangiliklarni kiritishdan iboratdir. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha loyiha va ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlarini belgilab berdi:

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

³² M.Jonboyeva "Didaktik o'yinlar" Sirdaryo-2022 y b-3

•uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

•o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va h.k ishlar belgilab olindi.

Konsepsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimi takomillashtiriladi. Shuningdek, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar bo'yicha yangi o'quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratiladi. O'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga konsepsiyaga ko'ra o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko'tariladi. O'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullari joriy etiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi mazmuni sifat jihatidan yangilash yo'llari ko'zda tutiladi.

Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismidir. Nutq madaniyati tushunchasi ikki xildir:

1. Nutqning adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasi bo'lsa.

2. Tilshunoslik fanining bir bo'limi, ya'ni adabiy tilni yanada takomillashtirish, me'yyorlash bilan shug'ullanuvchi sohadir. Demak, fikrni til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan bayon qilishning bosh qoidalariga nutq madaniyati asoslari deyiladi.

Ommaning umummadaniy saviyasini yuksaltirishga hissa qo'shish hamda maktab o'quvchilariga nutq madaniyati tarixidan ma'lumot berish, ulkan notiqlar, adiblar, so'z ustalarining nutq madaniyatini rivojlantirish borasida qilgan ishlarini o'rganish va ularga baho berishdan iboratdir.

O'zbek adabiy tili me'yorlari. Nutq madaniyati uchun adabiy til me'yorlari o'lchovi kerak bo'ladi. Xo'sh, adabiy til me'yorlari nima? B.N.Golovin ta'kidlashicha: "Til me'yorlari – bu til birliklari va uning qurilishini o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli paydo bo'lgan, undan foydalanuvchi xalq tomonidan yaratilgan amaldagi qoidalar yig'indisidir". Ya'ni adabiy til me'yorlari bu, til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikga ma'qul bo'lgan variantini tanlashdir. Me'yor o'zgaruvchidir. Umumiy va xususiy me'yor mavjud. Professor E.Bekmatov va boshqalar tomonidan nashr qilingan "Adabiy norma va nutq madaniyati" kitobida o'zbek adabiy tilining quyidagi me'yorlari qayd etilgan:

1. Fonetik me'yorlar.
2. Lesik-semantik me'yorlar.(so'z qo'llash)
3. Talaffuz (orfoepik) me'yorlar
4. Aksentologik (urg'uning to'g'riligi) me'yorlar
5. Grammatik me'yorlar.
6. So'z yasalish me'yorlari
7. Imloviy me'yorlar.
8. Grafik (yozuv) me'yorlari.

9. Punktatsion me'yorlar.

10. Uslubiy me'yorlar.

Fonetik me'yor. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun 6 ta unli, undosh tovushlarning qo'llanishi me'yor hisoblanadi.

Leksik-semantik me'yor. Hozirgi o'zbek tilining lug'aviy me'yori deganda, so'z variantlarining xamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab olish tushuniladi. Lug'aviy me'yor imlo, talaffuz va tarjima lug'atlarda o'z aksini topgan bo'ladi.

Talaffuz me'yorlari. Til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til me'yorlariga muofiq kelishidir. Ammo, og'zaki nutq, ya'ni talaffuz me'yorlari o'zbek tilshunosligida qat'iy belgilanmagan. Talaffuz me'yorlarni egallashda orfoepik lug'atlarning ahamiyati katta.

Aksentologik me'yor. Bunda urg'uni so'z va gaplarda to'g'ri qo'llash me'yori tushiniladi. Masalan: olma, olma, yangi, yangi, hozir, hozir so'zlarida urg'uni to'g'ri ishlatmaslik so'z ma'nosiga ta'sir qiladi.

Grammatik me'yor. Hozirgi tilimizda turlovchi va tuslovchi shakllarning eng maqbul variantlari tanlab olingan va ular nutqda barqaror shaklda ishlatilmoqda. Shunga qaramay, ba'zan - ning

o'rnida - ni , -lar o'rnida - la shakllarini xato qo'llash hollari uchraydi: Direktorni xonasida ko'rdim. Direktorning xonasida ko'rdim. Birinchi misolda direktorning o'zini ikkinchisida boshqa kishini ko'rganlik ma'nosi anglashilmoqda.

So'z yasash me'yori. So'z yasovchi qo'shimchalarning fonetik tuzilishi jihatidan bir qolipda ishlatilishi so'z yasash me'yori hisoblanadi.

Imloviy (orfografik) meyor. Adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy mezonlaridandir.

Grafik (yozuv) me'yor. Hozirgi yozuvimiz lotin alifbosiga asoslangan yozuvdir. Bosh va kichik harflar hamda yozma va bosma shakl ko'rinishlariga ega bo'lgan yozuv me'yoriydir.

Punktatsion me'yor. O'nta tinish belgi asosida ish ko'radi. (. , : ... ? ! () ; " " -) .

Uslubiy me'yor. Adabiy tilning uslubiy me'yori til birliklarining nutqda sharoitga qarab eng ma'qulini qo'llashdir.

Uslubiyat tunshunchasi. Uslubiyat va nutq madaniyati tilshunoslikning bir-biriga aloqador, ammo alohida mustaqil sohalaridir. Uslubiyat sohasi nutq madaniyatini ko'tarishga yordam beradigan omillardan biri. Uslubiyat sharoitga, mazmun va maqsadga ko'ra nutqni turlicha tuzish yo'llarini o'rgatadi. Uslubiyat kishilarda gapira olish malakasini, mahoratini tarbiyalashga xizmat qiladi. Uslubiyatni o'zbek alfaviti, orfografiyasi, orfoepiyasini takomillashtirish ishi deyarli qiziqirmaydi. Nutq madaniyati bular bilan juda qiziqadi. Ko'rinadiki nutq madaniyati o'z maqsad va vazifalari doirasiga ko'ra ancha keng soha.

O'zbek tilida to'g'ri, ifodali so'zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish, uning iste'mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir yosh o'quvchi o'z ona tilidagi so'z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim. So'z fikr qurolidir, kishi qanchalik so'z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. Qosimova K va b.q. Darslik "Ona tili o'qitish metodikasi". T-2009.
3. To'xtamirzayev N. Nutq ustirishda muloqotning roli. "Til va adabiyot ta'limi" oynomasi. 2010-yil, 9-son 23-25-betlar.
4. Zununov "Badiiy asarni tahlil qilish" T."O'qituvchi" 1998.
5. M.E.Toirova "O'qish savodxonligi" 1-qism. 4-sinf uchun darslik. Novda- Edutinment T-2023.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOB MUTOLAASI VA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH USULLARI

Minavarova Charos Furqat qizi,

Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetining "Boshlang'ich ta'lim fakulteti"ning talabasi,
minavarovacharos4@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob mutolaasi va kutubxona madaniyatini rivojlantirish va o'qishga mehr uyg'otishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni sinfda va sinfdan tashqarisida ham har kuni o'qish uchun ma'lum vaqt ajratishga undash. Bu o'quvchilarga o'z xohish-istaklarini aniqlashga va har tomonlama o'qish odatini rivojlantirish haqida so'z boradi.

Аннотация: это важно для развития книжного чтения и библиотечной культуры у учащихся начальной школы и привития любви к чтению. Поощряйте учащихся уделять определенное количество времени учебе каждый день, как в классе, так и за его пределами. В нем рассказывается студентам о том, как определить свои желания и выработать привычку к чтению всеми возможными способами.

Annotation: This is important for the development of book reading and library culture among elementary school students and instilling a love of reading. Encourage students to devote a certain amount of time to study every

day, both in and out of the classroom. It tells students how to identify their desires and develop a reading habit in all possible ways.

Kitob-insonning eng yaxshi va vafoli do'sti hamda maslahatchisi, u donolik va bilim manbadir. Darvoqea, kitobga ta'rif keltiragidan bo'lsak, kitobni tafakkur quroli, xazina kaliti, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ustoz hamda yorug' kelajak ta'minotchisi deb bilsak xato hisoblanmaydi. Kitob tafakkur manbai bo'lganligi uchun xalqimiz uni qadrlidi hamda muqaddas deb bilganlar. Shu boisdan ham kitobga muhabbat, qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon qongiga singib ketgan. Hozirgi kunda insoniyat taraqqiyotning eng yuksak cho'qqisiga chiqqan texnologiya asrida yashayotganimiz sababli ham pedagog va murabbiylar uchun dars berish jarayonida o'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish, ularda kitobga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish va kitob madaniyatini rivojlantirish bir qancha muammolarga sabab bo'lmoqda. Kuzatishlar natijasida kitobni sevib mutolaa qiladigan o'quvchilarga ham duch kelishimiz tabiiydir, ammo ularning orasida kitobdi yoqtirmaydigan o'quvchilar ham yo'q emas. Shunday bo'lishiga qaramay, har qanday bolani kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin. Butun mamlakat bo'ylab kitob mutolaasiga rag'batni oshirish, kitobxonlar safini kengaytirish hamda kelajakda yetuk shaxs bo'lib voyaga yetadigan avlodni yaratish ham o'z qo'limizdadir albatta. Bunday ijobiy natijaga erishish uchun bizga bir qancha usul va metodlardan foydalanish darkor.

Maktab kutubxonalariga e'tiborni kuchaytirish. Ko'pchiligimiz ta'lim muassasalariga borganimizda kutubxonalarga e'tiborni sustlashtiramiz. Kutubxonalarning qayerga joylashtirilganligi, u yerda qanday adabiyotlar bor yoki yo'qligi va qanday kitoblarga ehtiyojimiz borligi birmuncha bizga qiziqarli bo'lmay qolgan. Kutubxonalar odatda maktabning eng chetida, ko'rimsiz xonalarda, kimsa bormas burchaklarda joylashgan bo'ladi. Bunday noqulayliklar esa o'quvchilardagi bor qiziqishning ham yo'qqa aylanishiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Shunday ekan yuqorida ko'rsatilgandek bir qator ko'ngilsizliklarni oldini olish uchun barcha pedagoglar hamda mas'ullar hamjihatlikda faoliyat olib borgan holda ta'lim kutubxonalarini hammabop joylarda tashkillashtirilishi, undagi kitoblarning sifati va sanog'i jihatdan boyitishi hamda eng asosiysi kutubxona xodimi lavozimiga tajriba va malakaga ega bo'lgan kadrlar orasidan tanlab olingan pedagog ega bo'lishi lozim topiladi.

Bolaga kitob tanlashda yordam berish. Barchamizga ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari yuqori sinf o'quvchilariga qaraganda birmuncha qiziqqon bo'lishadi. Ushbu gapimizga buyuk alloma Alisher Navoiy bobomiz bolalikdanoq Fadridin Attorning "Mantiqut -tayr" asarini yod olganini asos qilib ko'rsatishimiz mumkin. O'quvchilar mutolaa uchun kitob tanlayotgan vaqtida o'qituvchilar ularga yordam berishlari, yoshlariga mos bo'lgan va ular uchun qiziqarli va ularni tez zeriktirmaydigan adabiyotlarni tanlab berishimiz lozim ko'riladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kitob tanlayotganimizda kitobning rangdorligiga va rasmlar bilan boyligiga uning ichidagi matnlarning

qiziqarliligini ham inobatga olgan holda kitoblarni tavsiya etishimiz zarur. Masalan kichik yoshdagi bolalarga jaxon adabiyotidan "Harry Potter", o'zimzining adabiyotdan esa bolalar ijodkori bo'lgan Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari hamda Zafar Diyor, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiy kabi bir qator shoirlarning ijod mahsullari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning o'qishga qiziqishini orttirishga erisha olamiz.

O'qilgan kitob muhokamasi. O'qilgan kitobni muhokama qilish metodidan foydalanish uchun o'qituvchi hafta davomida har bir bolaga bittadan hikoya, ertak yoki matnlarni o'qib borishini yo'lga qo'yishi kerak bo'ladi. Haftaning ma'qul ko'rilgan kunidan biri belgilanib olinadi. Mashg'ulot davomida o'quvchilardan o'qilgan asarlarining qisqacha mazmuni so'raladi va o'qituvchi tomonidan chiroyli xulosalanib, o'quvchilardan asar qahramonlarining xarakteri, yaxshi va yomon hislatlari o'rganiladi. Asar qahramonlari orasidan ijobiy va salbiy obrazlar ajratib olinib tahlil qilinadi va o'quvchilar asar qahramonlaridan kelib chiqqan holatda hayotda qanday inson bo'lishi kerakligini qanday hislatlarni o'zida namoyon eta bilishi kerakligini anglab yetishadilar. Ushbu metod orqali bolani kitobxonlikka o'rgatish bilan birga, ularni hayotga tayyorlash va tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazish mumkin.

Kitoblarning rangdorligiga e'tibor berish. Tabiatdan ma'lumki ko'zimizni quvontiruvchi rangdagi bo'lgan har bir narsalar e'tiborimizni tortmay qolmaydi. Shunday ekan bolalar uchun kitob tanlayotganimizda uning rangdorligi kitobdagi tasvirlar ham alohida e'tiborga arziqlidir. Kitobda berilgan tasvirlar orqali bolani kitobdagi voqealik bilan yuzma-yuz ko'rishtirish osonroq kechadi. Masalan kitobda jang ketayotgan sahna rasmi berilgan bo'lsin, tasvirda; yarador jangchi, qurol-aslahalar, jang maydoni va hakazolar. Ushbu tasvir orqali bolani tarixiy kitoblarga bo'lgan qiziqishi va tushunchalarini oshirishga erisha olamiz. Bolalarda rasmi kitoblardan foydalanish orqali maktab yoshida emas, balki maktabgacha bo'lgan davrda ham kitobga bo'lgan xurmatini shakllantirish mumkin. Barchamiz oilamizda ukamiz va jiyanlarimizni uch va to'rt yosh atrofida bo'lgan davrida e'tibor qaratgan bo'lsak, biz biron bir kitob mutolaasi bilan mashg'ul bo'lgan vaqtimizda ular yonimizga kelishadida kitobni berishimizni so'rashadi. Kitobni qo'lga olganlaridan so'ng kitob mazmuni bola uchun notanish bo'lishiga qaramay undagi rasmlarga qarab o'zi tasavvur qilganicha hikoya tuzishni boshlashadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki kitoblarning rangdorligi va tasvirlarga boyligi orqali bolalardagi og'zaki nutq va ulardagi tasavvur olamini ham oydinlashtirishga ham hizmat qiladi.

Kitoblarni "ILLUSTRATSIYA"lar bilan boyitish. Illustratsiya bu (lotinchadan olingan bo'lib, illustratio- yoritish, ko'rgazmali tasvirlash) tasviriy san'atning adabiy asar (kitob, jurnal yoki gazeta) ning obrazli talqini bilan bog'liq sohasidir. Matnga qo'shimcha tarzda uning mazmunini obrazli yoritishga, to'ldirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ushbu san'atdan quyidagi usullarda foydalanishimiz foydalidir:

- a) Berilgan matnlarga mos sarlavhalar qo'yishda;

- b) Tablolarda;
- c) Kitobni rasm va fotosuratlar bilan boyitishda.

Bu metod o'qituvchidan birmuncha mehnat va izlanishlar talab etadi, negaki o'qituvchidan kitobdagi matn yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar va kitobga oid qiziqarli faktlar topishini talab etadi. O'qituvchi o'quvchilarga kitobni ko'rsatishdan oldin kitob haqidagi to'plagan materiallarini o'quvchilari bilan baham ko'rsa va kitob bilan o'quvchilarni ko'tarinki ruhda yuzlashtirsa, hech bir o'quvchini kitob o'qish uchun majburlashga ehtiyoj ham asos ham qolmaydi. Har bir bolaning o'zi kitobning yakuniga va tasvirda ko'rsatilgan qahramonlar bilan tanishish uchun ham kitobni topib o'qish, o'qiganda ham uni nihoyasiga yetkazish va do'stlariga ham baham ko'rish harakatiga tushib qolishadi,

Kitoblar haqida musiqa va audiolarni qo'llash. Deylikki, dars jarayonidan tashqari va darslikdagi berilgan matn yoki ertaklar asosida o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan mustaqil o'qishlari uchun topshiriqlar beriladi, masalan: mashhur bolalar yozuvchisi va fan arbobi bo'lgan adib Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" asari tanlab berildi. Asar hali o'qilmasidan oldin bolalarga tanlangan asar yuzasidan olingan filmlar va multfilmlarda ijro etilgan qo'shiqlar hamda asar voqelarining kulminatsion nuqtasidan asosiy rolni ijro etayotgan qahramonlarning nutqlaridan audiolavhalarni ijro ettirish natijasida ham bolalarda asarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga erishishimiz mumkin. Berilgan muddat tugagandan so'ng, o'quvchilar topshiriqni bajarganliklarini tekshirish hamda ularning xotirasda uzoq muddatga saqlanib qolinishini ta'minlash uchun asar qahramonlari nutqidan parchalar eshittiriladi, so'ngra o'quvchilar ushbu gaplar kimga tegishli ekanliklarini topishi kerak bo'ladi. Bu usul orqali o'quvchilarning xotirasi yaxshilanishi ta'minlanadi.

Sahna ko'rinishlari orqali bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakillantirish. Ko'z xotirasi orqali eshitganimizdan ko'proq ma'lumotlarni eslab qolishimiz hech birimizga qorong'u emasdir albatta. Bola kitob o'qishi bilan birga kitobxonlik madaniyatiga ham amal qila bilishi zarur ekanligini his etishi, ushbu masuliyatni o'z zimmasiga olgan holda kitob mutolaa etayotgan vaqtda nutq madaniyatiga e'tiborli bo'lishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi, asardagi parchalarni ematsionalga boy etib ijro etishi lozim ko'riladi. Bunday natijalarga oson, tez va samarali erishish uchun dars jarayonida asarlarni rollarga bo'lib ijro etish eng a'lo ko'rilgan usullardan biridir. Dastlab sinf xonalarining o'zida, qolgan ishtirok etmagan o'quvchilar e'tiboriga havola etgan xolda sahnalashtiriladi, so'ngra o'quvchilarda kitobxonlik madaniyati va sahna madaniyati shakillantirilgandan so'ng maktabning katta sahnalarida va boshqa madaniy dam olish uchun mo'ljallangan sahnalarda ijro etiladi. Bu orqali o'quvchilarda to'g'ri nutq, o'zini tuta bilish, yana boshqa tanlovlarda ishtirok etish uchun boshqa kitoblardan izlanish, qo'shimcha kitoblar mutoalaasi bilan shug'ullanish va yana shunga o'xshash bir qator ijobiy hislatlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Kitobxonlik haftasini tashkil etish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng muhim jihatlardan biri bu–rag'batdir. Har haftaning ma'lum kunida tashkillashtirilgan kitobxonik tanlovida o'z ishtiroki bilan hissa qo'shgan yosh kitobxonlarimizga rag'bat tariqasida berilgan har bita sovg'a, faxriy yorlig'i, maqto'v yorlig'i, tashakkurnomalar, ota-onasiga alohida e'tibor uchun beriladigan minnatdorchilik xatlari o'quvchilar uchun eng a'lo energiyaga boy bo'lgan motivatsiyadir.

Yuqorida ko'rsatilgan metod va usullardan foydalanish orqali har bir pedagog o'zini qiynagan savollariga va sinfi kesimidagi kitob o'qishdan bosh tortayotgan o'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirishlari hamda o'quvchilarda eng na'munali hislat hisoblanadigan kitobxonlik madaniyatini shakillantirishga xizmat qilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boltaboyeva U. "Nutq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari: mammo va yechimlar" // Oriental Art and Culture.-2020.-No I(2).
2. Yo'ldosheva S. "Kitob mutolaasini shakillantirishda kutubxonachilik faoliyati" // Oriental Art and Culture.-2019.-No IV (1).
3. Mamatov J. "Barkamol avlodni tarbiyalashda ertaklarning ahamiyati" //International Engineering Journal For Research &Development.-2020.-T.5.-No Conference.-4-4.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'YINLI MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Rasulova Zohida Sindarovna

Guldu "Boshlang'ich ta'lim uslubiyati" kafedراسي katta o'qituvchisi
zokhidarasulova76@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilishga qiziqishini oshirish uchun xizmat qiladigan manbalarni izohlash va ularni asoslashga qaratilgan bo'lib, bulardan o'yin faoliyatining maqsadi va vazifalari, ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

Abstract. This article is aimed at explaining and substantiating the resources that serve to increase the interest of the participants of the educational process, and the purpose and tasks of the game, and the importance of them.

Asosiy tushunchalar: o'yinlar, faoliyat, didaktik o'yinlar, o'yinlar strukturasi, namoyon etish, bilish jarayoni

Basic concepts: games, activity, didactic games, structure of games, manifestation, cognitive process

Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli **o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar** deb ataladi.


Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- ✓ o'yin faoliyati orqali o'quvchilarning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- ✓ o'yin davomida o'quvchilarning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot kompetentligini egallashi uchun yordam beriladi;
- ✓ boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- ✓ hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- ✓ o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- ✓ o'quvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- ✓ insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- ✓ o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.


Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.


O'qituvchi-pedagog avval o'quvchlarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Didaktik o'yinli darslarning turlari va ularning maqsad hamda vazifalari



Didaktik o'yinli darslar yakunida bajariladigan pedagogik vazifalar:





O'yin bolani aqliy tarbiyalashning muhim vositasidir. Bolalar bog'chasida va uyda olingan bilimlar o'yinda topiladi amaliy foydalanish va rivojlanish. Turli xil hayotiy voqealarni, ertak va hikoyalardan epizodlarni takrorlash, bola ko'rganlari, o'qiganlari va aytilganlari haqida fikr yuritadi; ko'p hodisalarning ma'nosi, ularning ma'nosi unga yanada tushunarli bo'ladi. O'yinda hayotiy taassurotlarning timsoli murakkab jarayondir. Ijodiy o'yinni torlikka bo'ysundirib bo'lmaydi didaktik maqsadlar, uning yordami bilan eng muhim ta'lim vazifalari hal qilinadi. Bolalar o'zlarining qiziqishlari, orzulari asosida o'yin rolini tanlaydilar, kasbiga oid qiziqishlaridan kelib chiqib tanlaydilar. Ular hali ham bolalarcha sodda, ular bir necha marta o'zgaradi, lekin bolaning jamiyat uchun foydali ishda qatnashishni orzu qilishi juda muhimdir. Asta-sekin o'yinda bolada mehnatning ma'nosi, turli kasblarning o'rni haqida umumiy g'oyalar paydo bo'ladi. O'yinda bolalarning aqliy faoliyati doimo tasavvur ishi bilan bog'liq; siz o'zingiz uchun rol topishingiz kerak, siz taqlid qilmoqchi bo'lgan odam qanday harakat qilishini, nima deyishini tasavvur qiling. Shunday qilib, o'yin kelajakdagi o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, dars jarayonida foydalanilgan o'yinlar o'z samarasini beradi. Chunki bu faoliyatda bola o'zligini to'liuq namoyon etadi, mustaqil fikrga ega bo'ladi, qaror qabul qiladi, turli fikrlarni izohlashni o'rganadi. O'quvchilarda bunday munosabatni uyg'otish bu bugungi ta'lim jarayonining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orqali o'quvchilar yangi kasblar bilan tanishadilar, egallagan bilimlarini iqtisodiyotning qaysi sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar, ushbu fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, qo'shimcha adabiyotlar

bilan mustaqil foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanxodjayev T.S Milliy harakatli o'yinlar. T. Iqtisod-moliya-2013.
2. Gaffarova T va boshqalar Ta'limning ilg'or texnologiyalari Qarshi -2013.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'YINLAR ORQALI AXLOQIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH

Rasulova Zohida Sindarovna

GulDU "Boshlang'ich ta'lim uslubiyati" kafedrasida katta o'qituvchisi

*"Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarib, ta'lim sifati ham,
mazmuni ham, muhit ham o'zgaribdi."*

Shavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarni o'qitishda ta'limda o'yin faoliyatlaridan foydalanishda o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib, tarbiyalashga yo'naltirilgan darslar mazmuni ishlab chiqilishi va nazoratga olinishi haqida.

Аннотация. В данной статье идет речь о разработке и контроле содержания учебных уроков с учетом интересов учащихся в использовании игровой деятельности в обучении в начальных классах.

Abstract. This article deals with the development and control of the content of educational lessons, taking into account the interests of students in the use of gaming activities in teaching in primary grades.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, faoliyatlar, o'yinlar

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekanligini unutmaslik darkor.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab barcha davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga

ega. Bu jarayonda bolaga yaxshi ta'sir etuvchi faoliyatlarni bilish va tahlil etish o'qituvchi uchun asosiy muammo hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolaga ta'lim – tarbiya berayotganda unga tez ta'sir etuvchi omillardan biri o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin va uning bola rivojlanishidagi o'rni haqida gapirganda, ikkita asosiy savol tug'iladi:

O'yinning o'zi rivojlanishda qanday paydo bo'ladi?

Bu faoliyat rivojlanishda qanday rol o'ynaydi?

Menimcha, rivojlanish nuqtai nazaridan o'yin ustun shakl emas, balki u faoliyat, ammo bu ma'lum ma'noda maktab o'quvchisi rivojlanishning yetakchi yo'nalishi hisoblanadi. Maktab yoshidagi bola uchun bo'lsa, o'yin zavq keltiradi, qiziqarli hisoblanadi: masalan, sport o'yinlarini keltiradigan bo'lsak maktab yoshida bu faoliyat sport deb ham ataladi. O'yin faoliyatidagi muammoga qanday munosabatda bo'lish nuqtai nazaridan u bolaning ehtiyojlarini, uning faoliyatga bo'lgan ishtiyoqini, unga ta'sirchanligini amalga oshiradi va intilishlarni paydo qiladi. Faoliyatning bu turida bola biroz erkinlikka, mustaqillikka, harakatlari jo'shqinlikka qarab intiladi. Ta'limni amalga oshirayotganda aynan shunday holatni sodir etish orqali natija samarali yakunlanishi mumkin.

Ta'lim jarayonidan misol keltiradigan bo'lsak, o'yin faoliyatidagi didaktik o'yinni quyidagicha tavsiflab chiqish mumkin:

1- qadam - didaktik o'yinni aniqlash va shakllantirish.

2-qadam - o'yin vazifasini aniqlash va shakllantirish. O'yin vazifasi - o'yin ishtirokchilari nima qilishlari kerakligini aniqlash.

3-qadam - o'yin qoidalarini aniqlash va shakllantirish. Uslubiy jihatdan bu didaktik o'yinning juda muhim tarkibiy qismidir, bu o'quvchilarda o'zlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi o'yinda g'alaba qozonish uchun o'quvchilar reja tuzishni o'rganadilar, jamoa bo'lib ishlashga erishadilar.

4- qadam - ko'rsatmalar yaratish. Ko'rsatmalar o'qituvchining kirish so'zini ifodalaydi, shu orqali maktab o'quvchilarini o'yinga kiritadi va ularga o'yin vazifasini aytib beradi. Asosiy ko'rsatmalarga qo'yiladigan talablar aniqlik, mavjudlik va tushunarlilik hisoblanadi.

Va nihoyat, 5-qadam o'yin uchun didaktik materialni tanlashdir. Didaktik o'yinlarning asosiy manbai turli janrdagi badiiy asarlar: yilnomalar, dostonlar, hikoyalar, masallar, she'rlar kabi bo'lishi mumkin. Ularni tanlashda mavzu hisobga olingan, matnning mafkuraviy mazmuni, adabiy qiziqishlari, yosh xususiyatlari va boshlang'ich maktab o'quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olishi zarurdir.

Ta'lim berish jarayonida o'qituvchi faqat bilim berishi emas, balki o'quvchilarni hatti-harakatga keltirishi ham zarur. O'quvchi faqatgina o'yin faoliyatida erkin fikrlashni, mustaqil yondoshishni, strategiya tuza olishni, qaror qabul qilishni va jamoani tinglashni bir vaqtda amalga oshiradi va harakatga keltiradi, keladi. Barkamol shaxsni shakllantirishda ko'zda tutilgan tarbiya turlarining o'zaro bog'liqligi ko'proq o'yin faoliyatida yaqqol namoyon

bo'ladi. Boshlang'ich maktab yoshidagi olib borilgan ta'limning asosi u atrof-muhit va didaktik o'yinlar yordamida darslarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi kerak. Boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning so'zlagan nutqlari. 2022-yil, aprel.
2. A.Xoliqov Pedagogik mahorat Darslik 2014-yil.

MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TARIX FANLARINI O'QITISHNING INTEGRASIYON YONDASHUVI

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida Milliy o'quv dasturi asosida tarix fanlarini o'qitishning integratsiyon yondashuvu asosida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratilgan bo'lib, kelajakda olgan bilimlarini integratsiyalay oladigan, tez o'zgarayotgan axborotlashgan bozor sharoitida o'z yo'lini topib keta oladigan mutaxassislarni tayyorlash.

Kalit so'zlar: integratsiyalashuv kreativ, integratsion, texnologiyalar, taqqoslash, modellashtirish, spiralsimon, kompetensiya.

ABSTRACT This article focuses on the combination of theoretical and practical knowledge based on the integration approach of teaching history in secondary schools based on the National Curriculum, and it focuses on the effective training of specialists who are able to integrate their acquired knowledge in the future and will find their way in the rapidly changing information market.

Key words: integration creative, integration, technologies, comparison, modeling, spiral, competence.

Bugungi kunda xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi asosida malaka oshirishning barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlar, jumladan tarix fani o'qituvchilarini o'qitish va amaliyot integratsiyasini tashkil etishga qaratilgan maxsus konsepsiya ishlab chiqish zaruriyati ehtiyojga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan yangi O'zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta'kidlab o'tildi[1].

Davlat va jamiyatning ertangi kunini, kelajagini bugungi maktab dargohida tahsil olayotgan o'quvchilar belgilab beradi. Shunday ekan bugungi pedagoglarimiz qanaqangi pedagogik texnologiya va metodlardan foydalanib yoshlarimizga ta'lim berib kelmoqdamiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy o'quv dasturi metodologiyasining asosiy maqsad va vazifalari o'qitishda nazariya va amaliyot integratsiyasini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, uzliksiz kasbiy rivojlantirish orqali pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ularni kompetensiyalarni rivojlantirish, metodik tavsiya berish va shu asosida jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida milliy o'quv dasturi asosida fanlarni o'qitish pedagoglardan katta mahorat talab etilmoqda

Milliy o'quv dasturida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratilgan bo'lib, fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi. Bu esa tarix fanini o'qitish misolida o'quvchilarning dunyoqarashi va tasavvurni kengaytirib, intellektual rivojlangan shaxsni shakllantirish va jamiyatda munosib o'rin olishni belgilab beradi.

Maktab o'quvchilarining milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etishdir.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirish" vazifasida belgilangan. [2].

Prezidentimiz nutqida keltirilganidek, dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan Milliy ta'lim tizimini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Bunday o'zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi – zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosida almashinuvini amalga oshishi milliy o'quv dasturini amalga oshirishda pedagogika fani bilan bevosita bog'liqlida ish tutadi va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi fanlararo aloqaning speriyaalimon tarzda o'qitishni tashkil etadi.

Rus olimlari S. P. Baranov, L. R. Bolotin, L.N. Buxareva, V. A. Slasteninning "Pedagogika" kitobida darslarda qo'llaniladigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagan.

Integratsiya o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir.

O'quv fanlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi integratsiya tizimini takomillashtirishning, muomalarini bartaraf etishning yo'li bo'lib fanlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni uyg'unlashtirishga qaratilgan bunday yondoshuv - differentsiatsiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi hamda integratsiya darsini samarali tashkil qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli deb hisoblaydi. [3]

Umumiy o'rta ta'limni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi olti komponent – umumiy o'rta ta'limning malaka talablari, umumta'lim fanlarining konsepsiyalari, o'quv reja, fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholash tizimidan iborat bo'ladi.

Milliy o'quv dasturida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratilgan bo'lib, fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi. Bu esa o'qituvchilarning dunyoqarashi va tasavvurni kengaytirib, intellektual rivojlangan shaxsni shakllantirish va jamiyatda munosib o'rin olishni belgilab beradi.

Fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, raqamli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq jarayonlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o'z navbatida, globallasuv va integrallasuv sharoitida barcha sohalarida kuchli raqobat muhitini shakllantirib, pirovardida ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda.

Natijalar

Bugungi kunda respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, xalqimiz oldida turgan ijtimoiy-itisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning echimini topish, aniq va tabiiy, amaliy va texnik, integratsion aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsion o'rganilayotgan fanlar hodisa yoki jarayonlar yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va kreativ faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlashni talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida

ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajadagi tafakkurni shakllantiradi.

Kelajakda olgan bilimlarini integratsiyalay oladigan, tez o'zgarayotgan axborotlashgan bozor sharoitida o'z yo'lini topib keta oladigan mutaxassislarni samarali tayyorlash bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida umumta'lim maktablarida Milliy o'quv dasturi asosida ta'lim samaradorligini oshirishda fanlararo integratsiyasi ko'p qirrali fanlararo aloqadorlik yordamida o'quvchilarni o'qitishi yo'lga qo'yilsa, ularni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash masalalari nafaqat sifat jihatidan yangi darajada hal qilinadi, balki ayni paytda ularda aniq amaliy faoliyatda murakkab muammolarni hal etish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Aynan shuning uchun ham fanlararo aloqalar asosida umumta'lim maktablarida o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyaga asoslangan o'qitish va tarbiyalash kompleks yondashishning muhim sharti va natijasi bo'ladi. Ertangi jamiyatda o'z o'rnilarini topa oladigan keng fikr muloxaza yurita oladigan nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladigan yosh mutaxassislarni tayyorlashda fanlararo aloqalarni amalga oshirish muhim rol o'ynaydi.

Ta'limning bugingi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot ta'lim muxiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzliksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. [4]

Bunga o'qitish mazmunini loyihalash jarayonida va bevosita o'qitish jarayonining o'zida fanlararo aloqadorlikni ta'minlamasdan turib erishib bo'lmaydi.

Muhokama

Ta'lim samaradorligini oshirish barcha zamonlarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sanalib kelingan.

Maktab o'quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun barcha fanlarni mukamal o'zlashtirish va o'rgangan bilimlarini amaliyotda foydalanish, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish jarayonida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi: ko'p maqsadli va rang-barangliligi hamda ko'p funktsiyaga egaligi bilan tavsiflanadi (ko'rgazmali). [5]

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining xar hil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. O'quv predmetini o'qiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni

tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Umumta'lim maktablarida fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish, turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadilar. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tadbiiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirsalar ham, uni tadbiiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar.

Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsning ta'lim markazida bo'lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayorgarlik ko'rgan va o'z soxasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarini biladigan ular asosida o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoydalarini biladigan o'qituvchilar kerak.

Ijtimoiy gumanitar fanlarni, aniq va tabiiy hamda amaliy fanlarni o'zaro uyg'un tarzda olib borilishi o'rganilayotgan materiallarni, bilimlarini, ko'nikmalarini va malaka natijalarini tahlil qiladigan bo'lsa, uning tuzilishi bilan har qanday dars o'quvchi kompetentsiyasini shakillantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Ushbu maqolada, tarix fani o'qituvchilarini malakalarini oshirishda milliy o'quv dasturi asosida o'qitishda nazariya va amaliyot integratsiyasini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, uzliksiz kasbiy rivojlantirish orqali pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ularni kompetensiyalarni rivojlantirish, metodik tavsiya berish, integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalarini qo'llash va shu asosida jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Tarix fanini o'qituvchisining kreativligi, kasbiy kompetensiyasini o'stiruvchi asosiy omillardan biri, o'qitishning integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o'tishini, balki o'quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2021. 233-B.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. <https://t.me/YangiTaraqqiyotStrategiyasi>
3. Бухарева Л.Н. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе (начальная школа 1991г №8).
4. Шарипов Ш.С., Абдураимов Ш.С. "Качество высшего и профессионального образования в постиндустриальную эпоху: сущность,

обеспечение, проблемы”: Международной научно-практической конференции. - Казан, 2016. - С. 81-86

5. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005.

6. Житникова Л. М. Учит детей запоминат. Пособие для воспитателя детского сада. Москва: Просвещение, 1978.

7. Бабанский Ю.К. Нозирги замон умумий таълим мактабларида ўқитиш методлари. –Т.: Ўқитувчи, 1990. –229 б.

8. Ismoilova M. Noan'anaviy ish usullari orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish yo'llarini axtaryapmiz. 1992. №2

POETIK MATNNI O'RGANISHDA GERMENEVTIKANING O'RNI

Uralova Gavhar Tugalovna

Guliston shahar Prezident maktabi o'qituvchisi

She'riyat falsafasi, mantiqiy, ma'no-mohiyati, eng muhimi, hozirda badiiy matni uning arxitektonik imkoniyatlari orqali anglab yetishning yangi tamoyillaridan biri hisoblangan hermenevtikaning, binobarin, badiiy asar g'oyasini anglab yetishning yangi usul va uslublari uchun muntazam hamda muttasil yo'l ochib borish zaruriyatini taqozo qiladi. Asar mohiyatini, uning badiiy – estetik xususiyatlarini ochib berishning yagona yo'li bu – asar matni, tili va til birliklari assotsiatsiyasi, badiiy matn arxitektonikasi orqali aks etgan ijodkor g'oyasi, “so'zi” va individualizmni sharhlash, ya'ni, asar matni, uning g'oyasi orqali badiiy tafakkurning yangi jilolarini anglab yetishdir. Bu o'rinda, aytib o'tish lozim bo'lgan xususiyatlardan yana biri bu – badiiy matnda nafaqat ijodkor aytmoqchi bo'lgan g'oyani aniqlash, balki u aytolmagan va hatto uning o'zi fahmlay olmagan g'oyani ham kashf qilish masalasidir.

Badiiy matnning hermenevtik tahlilini poetik nuqtayi nazardan ikki kategoriyaga bo'lish mumkin:

1. Global hermenevtika;
2. Individual hermenevtika.

Global hermenevtika insoniyat jamiyati uchun global hisoblangan, umuminsoniy jamiyat tomonidan qabul qilinadigan muammolarni, realiyalarni transformatsiya orqali ijtimoiy muomalaga kiritadigan hermenevtik sharoit demakdir.

Individual hermenevtika esa, alohida, individual insonning o'z orzu-maqsadi, qalb harakatlari, o'y-xayoli, kundalik turmushi va tashvishlari bilan bog'liq hermenevtik sharoit yaratadigan kategoriyadir.

Har qanday badiiy asar namunasining (agar u yuqori saviyada yaratilgan bo'lsa) poetik g'oyasini ham global, ham individual, hermenevtik sharoitda

shakllantirish hamda har ikki kategoriyada tushunish mumkin. Buning uchun retsiptiyent (o'quvchi, kitobxon)dagi yolqin orqali shakllanadigan transformatsiya muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Farida Afro'z ijodidan bir parchaga e'tibor qaratishni lozim topdik. Shoirning ikki misra she'rida aks etgan global va individual germenevtik sharoit tahlili bunga misol bo'laoladi. Iste'dodli shoira Farida Afro'z ijodi tasavvufiy ruhga, xalqona ifodaga, hayotiy mushohadaga boyligi bilan ahamiyat kasb etadi. Uning "Ko'zim manim" to'plamidan joy olgan "Sen osiysan...", "Ketaman", "Voydod-ey", "Oq bilak oyim anjonlik", "Qo'qonjonda bir hovli bor anjirli" kabi she'rlari yuqoridagi fikrlarimizning isbotidir. Shuningdek bir qator muxammaslari ham o'zining bugungi zamonga hamohangligi bilan ajralib turadi. Shoira voqelikka munosabat bildirishda so'zlarning jimjimadorligiga emas, fikrlarga jon bera oladigan oddiy so'zlarni izlab topadi. Ularni bir-biriga bog'lagan, taqqoslagan holda, ulkan poetik olamni paydo qiladi. Xususan, Vatan mavzusini yoritishda, uning istiqbolini kuylashda lirik qahramonning cheksiz faxru-iftixorini, shukronalik va uni yuksaltirishga da'vat etish hissi ustuvor tamoyil ekanligini anglaymiz. U "O'zumniki" deb nomlangan she'rida ona vatanining jonli manzarasini, urf-odatini chizgandek ko'rinadi:

Tutmi, jiyda meva zoti larzon-larzon,
Har qadamda bug'doy, paxta, sholi xirmon.
Oltiniga yo'q himmat sizda, bizda arzon,
Mo'lmi, ko'lmi, terim endi o'zumniki.
Uyat qilmas hech kim o'sma qo'yib yursam,
Sochlarimga pilik solib to'yga borsam.
Kaftlarimning bo'z yeriga xino eksam,
Ko'zmunchog'u-irim endi o'zumniki¹.

Millatning millat ekanligini ko'rsatuvchi va shu millat vakillarigagina xos bo'lgan *o'sma, pilik, to'y, xina ko'zmunchog, irim* kabi misollar she'r mazmunini boyitgan. She'rdagi xalqona ohang esa milliy jozibadorlikni yuzaga keltirgan va Farida Afro'z ijodining yana bir qirrasini ko'rsatgan. Kishini o'ylantiradigan, ensasini qotiradigan fikrlardan yiroq shoira samimiy tuyg'ulari orqali "dilda borini aytadi". O'zbek ayollariga xos bo'lgan jihatlarni marjonday satrlarga joylay olgan ijodkor "o'zbek ayoli" timsolining kamtarona qiyofasini ham yarata olgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu she'rni ham global, ham individual germenevtika sifatida tushunish mumkin.

Sarhadlarga sig'mas imkonning,
Tulpor minsang kishnaydi joning,
Omon qo'yimas Temuriy qoning,
Tezroq, elim, ildam qadam bos,
Vatan sening mehringga muhtoj,
Istiqloling boshingga gultoj².

An'anaviy uslubda bitilgan bu she'r zamirida vatan yoshlariga, shuningdek, shoiraning o'ziga qarata aytgan da'vat ohangini sezish qiyin emas. Mustaqillik oliy ne'mat ekanligini anglagan har bir farzand, jumladan ijodkor ham qay yo'sinda bo'lmasin ichidagi hur fikrlarini ilhom qanotlari bilan parvoz ettirmoq istaydi. Parvoz etilgan bu fikrlar muallif hislarini so'zlarda ranglantiradi. Eng muhimi bunday mavzudagi she'rlar go'zal insoniy tuyg'ularga zamin yaratadi.

Amri vojib ikki dunyo,

Kuyar bo'ldik, kuyar bo'ldik.

Bir-birovni suyar bo'ldik.

Endi qaytgin, men ham qaytdim,

Astg'firulloh, alhamdulillah³.

“Sen osiysan...” deb boshlanuvchi she'rning tub mohiyatini mustaqillik sharofati bilan o'zimizga qaytgan erkimiz, iymonimiz, dinimiz uchun shukronalik tarzida bitilgan ash'or sifatida baholashimiz mumkin. Shuningdek, ushbu she'rda islom dinida eng ko'p qo'llanadigan “Astag'firulloh”, “Alhamdulillah” so'zlarining naqarot qilib olinishi shoiraning tasavvuf ohanglariga qalban yaqin ekanligini ko'rsatadi.

“Ko'zim manim” to'plamining “Xalq ohanglarida” bo'limidan joy olgan, qo'shiqqa aylangan ko'pgina she'rlari ijodkor uslubining yana bir qirrasini kashf eta oladi. Chunki mustaqilligimiz sharofati bilan ko'pgina ijodkorlar ko'ngil qatlamlarini istefoda etayotgan bir paytda Farida Afro'z oddiy xalq kayfiyatiga munosib chapani she'rlar yarata olganligi bilan ajralib turadi. Buni ayrim she'rlarining qo'shiqqa aylanib, xalq ko'nglidan munosib joy olganligidan ham bilsak bo'ladi.

Qo'qonjonda bir hovli bor anjirli,

Qachon borsam darvozasi zanjirli,

Kirib boray desam asta chorbog'dan,

Topilmaydi bir bahona arzirli.

Mustaqillik davri she'riyati haqida mulohazalar bildirgan adabiyotshunos U. Hamdam: “Ammo bugungi o'zbek she'riyati kechagi she'riyat emas, balki o'zining ko'pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko'ra yangilangan poeziyadir. Shu bilan birga, bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o'rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir”³³, deb aytgan fikrlarida ayni yuqoridagi mulohazalarimizni ko'zlab aytgan bo'lsa ajab emas.

Erkin she'rga xos xususiyat shuki, unda misralardagi bo'g'inlar soni, ularning o'zaro qofiyalanishi qat'iy tartibda emas, biroq she'r davomida o'lchovda teng va o'zaro qofiyadosh misralar erkin tarzda takrorlanadi”³⁴ kabi dolzarb fikrlar she'r mazmunini izohlashda va tushunishda qo'l keladi.

³³ U. Hamdam. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasining 2013-yil 48-sonidan olindi.

³⁴ Quronov. D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati.- T.: “Akademnashr”. 2010. B.369.

Farida Afro'z ijodining yana bir qirrasini belgilashda uning alohida-alohida to'rtliklar bo'lib yaratilgan she'rlari muhim rol o'ynaydi. Satrdan-satrga ko'chib o'tgan fikrlar aslida jami 4 qatorga joylanishi kerak bo'lsada, nimagadir ijodkor tomonidan bu jarayon 16 qatorga cho'zib yuborilgan. Shunday bo'lsa ham she'r tuzilishiga, ya'ni qofiya va turoqlanish jarayoniga putur yetmaganligini quyidagi she'rda ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Ba'zan yig'lamoqqa bahona bo'lmas,
Qo'ya qolay desang o'pkang to'ladi.
Yig'lamay yashayman deysanu, biroq,
Ko'ngil ko'chasida kimdir o'ladi³⁵.

Qofiyalanishi a-b-c-b ko'rinishda bo'lib, turoqlanishi 6+5 shaklda ifodangan yuqoridagi to'rtlik mazmun jihatidan ham katta ahamiyat kasb etgan. Kimdandir ranjigan lirik qahramon "ko'nglim qoldi" iborasining o'rniga o'ta qat'iyat bilan uni "o'lim"ga hukm etadi. Shundanmi shoira har bir so'zga urg'u berish maqsadida uni alohida-alohida satrlarga joylagan bo'lishi mumkin. Global germenevtik sharoitning shakllanishida umuminsoniy g'oyalarga murojaat qilamiz. Ijodiy yolqin bizga misralarda lug'aviy birliklarning leksik-semantik paradigmatlari orqali badiiy-ijodiy fantaziya yaratish imkoniyatini beradi.

Bu kabi oddiy semantik tahlilning mazmuni ratsional fikrlashning hosilasidan iborat. Biz bu ratsional fikrlashdan emotsional fikrlashga – sentimentga (hissiyotga) tomon o'tish jarayonida ruhiy-psixologik transformatsiya orqali germenevtik sharoit yaratamiz.

Global germenevtika faqat yer sayyorasini emas, balki butun borliqqa nisbatan g'oyalarni ifodalar ekan, eng avvalo, "tomchida quyosh aksi" tushunchasiga asoslanadi hamda har qanday oddiy holatning poetik transformatsiyasi orqali global, planetar holatlarni shakllantiradi. Ya'ni, bir oddiy holat, voqea-hodisa, predmet-detalda, uning bir holati, mavjudligining bir ko'rinishida butun borliq umumiylikning ulkan bir qirrasini topadi. Aytadilarki, borliq tamomila garmoniyaga asoslangan ekan, har bir tomchi, nuqtada butun bir dunyoning, dunyodagi barcha hodisalarning aksi namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bitta so'z borliqning tugal ifodasini yaratishi mumkin.

Individual germenevtika jamiyatning ayrim bir nuqtasi, bu o'rinda shaxsi, lirik qahramon-shoirning o'z hissiyoti, orzu, maqsadlariga muvofiq shakllanadi.

Badiiy matn transformatsiyasi orqali amalga oshadigan tushunish jarayonida ijodkor bilan kitobxon (o'quvchi) o'rtasidagi ruhiy-psixologik mentalitet mutanosibligi ham muhim rol o'ynaydi. Germenevtikada bu hol kongeniallik deb ataladi. Kongeniallik nafaqat asar muallifi, balki, asar o'quvchisida ham transformatsiya jarayonida badiiy kashfiyot yarata olish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

³⁵ Farida. Afro'z. Ko'zim manim. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1999. B.75.

Badiiy kashfiyot, umuman kashfiyot sohasida, eng avvalo, shuni nazarda tutish lozimki, inson ongi, zakovati, buyuk haqiqat nurlarini yolqin asosida tushunadi. Biroq, o'sha haqiqatga eltuvchi, nur turli yo'l bilan namoyon bo'ladi. Xususan, materialistlar fikriga ko'ra, ijod ko'p yillik mehnat va tajribalar hosili. Uning zamirida insonning asrlar osha yig'ilgan aqliy mehnati samarasi yotadi. Bu holni, ya'ni, xuddi uzoqdagi ulkan va yorug' sayyoraning mavjudligini va yorug'ligini biz faqat uning sochib turgan nurlari miqdorini aniqlash orqali erishamiz. Binobarin, yangi kashfiyot yoxud yangi g'oya ham mana shu minglab assotsiatsiyalarning so'nggi nuqtasi bo'lib yaraladi.

Idealistlar, aksincha, o'sha nur sochayotgan yulduz nurlarga nisbatan birlamchi ekanligini isbotlashga intiladilar. Shu holatga munosabat ijodning samarasi va jarayon o'rtasidagi farqni yaratadi. Samara muhimligi uning ommaviyligi, jarayonning esa xususiyligi bilan bog'liq.

Idealist, aniqrog'i, romantikni yorug' yulduzga eltuvchi yo'l qiziqitirmaydi. U balki yulduzga yetib borishni ham o'ylamas. Uni faqat o'sha yulduzning mavjudligi qiziqitiradi, xolos. Va, aynan, shu mavjudlikka qiziqish uning hayoti mazmuniga aylanadi.

Bizni qiziqitiradigan narsa esa, faqatgina shu yulduzning mavjudligigina emas, balki uning mavjudligi haqidagi tasavvur. Uning, ya'ni, yulduzning qandayligi materialist, realist insonni qiziqitiradi. Idealist – romantikni esa, burch, joziba qandaydir buyuklikka, sirlilikka intilish nuqtayi nazaridan qiziqitiradi. Ayrim odamlar bir umr sirli holatlar izlaydilar; uni hayotlarining mazmuniga aylantiradilar. Mana shu izlanish jarayonida, unga intilish jarayonida, o'zlari ham ruhan poklanib, sayqallanib boradilar. Bunday yorug' ideal yulduz ularga inson shaklida namoyon bo'lishi ham mumkin. Bunga hayotida bir marta uchrashgan insonning kimligini bilmay turib sevib qoladigan yoshlarni yoki O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" asaridagi Chol, Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasidagi Jamila obrazlarini misol qilib keltirish mumkin.

Yuqoridagi holatlar badiiy kashfiyot yo'lidagi izlanishlarning turli qirralari har xilligini ko'rsatar ekan, manzilning, maqsadning esa bittaligini tasdiqlaydi. Biroq bu manzilga eng yaqin va to'g'ri yo'lni transformatsiya orqali yaratiladigan ijodiy yolqin egasigina topa oladi.

Asarda g'oyani yuzaga chiqaruvchi til shakllarini izlash va topish ham muhim vazifa hisoblanadi. Xususan, insonparvarlik, vatanparvarlik, dunyoning foniyligi, tabiatga muhabbat kabi qator g'oyalar asardagi lingvopoetik vositalarning transformatsiyasi jarayonida shakllanadi.

Asar mavzusi tilida eng muhim holatlardan biri, shoirning o'zi aytmoqchi bo'lgan g'oya uchun ma'lum germenevtik sharoit yarata olish imkoniyatidir. Mana shunday muhit doirasida yaratilgan asarda o'quvchi yetarli darajada tushuncha hosil qiladi yoki aniqrog'i o'sha tushunchaning sintezi orqali g'oya yaratadi...

Global hermenevtika shakllanish imkoniyatlari ijodkor yaratuvchiligi, novatorligi va uslubga ham bog'liq. Individual talant, ijodkorlik qobiliyati badiiy matnda hermenevtik sharoitning chegaralarini kengaytiradi. Misralar, jumlar zamiriga nafaqat ulkan, balki ko'p holatlarda tamomila ijodiy, hali inson ongi qamrab olmagan borliq holatlarini yaratadi. Gyotening ta'kidlashicha: "ijodkorning yaratuvchiligida tabiatga ergashish" faoliyati uch bosqichda ro'y berishi mumkin:

Birinchi bosqich eng oddiy havaskorlik doirasida kechadi. Bunda havaskor qalamkash hali tabiatdan sira ajralaolmagan, mustaqil ijod qilish darajasiga ko'tarilaolmagan bo'ladi; tabiat ishini har qancha sinchiklab kuzatsa-da, uni aynan takrorlashdan nariga o'tmaydi; voqelik ko'rinishlarining xilma-xil nusxalarinigina yarata oladi, xolos.

Ikkinchi xil bosqich qalamkashning san'at talablaridan unchalik voqif bo'lmagan holda, mustaqil ijodga ko'chishi davrlarida yuz beradi. Ijodkorlik faoliyati bu bosqichga ko'tarilar ekan, qalamkashda tabiatga so'zsiz ergashish havasi mutlaqo tugagan bo'ladi. Endi u tabiat ishini ma'qul ko'rmay, ko'pincha uni buzishga, o'z sub'yektiv xohishlari, istak va mayllari bo'yicha qayta qurishga intila boshlaydi. Qisqasi, ijodkorlik bunday paytda butkul muayyan manera hukmronligida qalam tebratishdan iborat bo'lib qoladiki, shunga ko'ra uni san'atkorlik deyish uchun hali vaqt erta.

Uchinchi bosqichda asosiy hukmronlik uslubga o'tadi. Manera esa, o'z yo'nalishida unga bo'ysunadi va faqat u talab etgan me'yor doirasidagina yuzaga chiqadadi. Bu bosqichdagi ijodkorlik, garchand, voqelikni aynan takrorlab berishdan iborat bo'lmasa-da, shu bilan birga, uni tamoman unutilib yuborib "absolyut yangilik" ixtiro qilishni ham anglatmaydi.

Ijodkor so'nggi bosqichda ham tabiatga ergashaveradi. Lekin uning bu ergashishi bevosita kuzatish natijalarini qayd etishdan iborat bo'lmay, voqelikdagi narsalar go'zalligi (yoki xunukligi)ni yanada mukammalroq, yanada yorqinroq his etiladigan qilib poyoniga yetkazish, tabiat qiyomiga keltirolmagan tomonlarini qiyomiga keltirish ishini ham o'z tarkibiga oladi.

Ushbu mulohazalardan chiqadigan xulosa shuki, hermenevtik sharoit tahlili asarni tushunishning naqadar ulkan muammolari mavjud ekanligini ko'rsatib beradi. Inson butun umri davomida mana shu muammolar yechimini topishga intiladi, xolos.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi: 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv; 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish; 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash; 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv; 5) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash; 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash; 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik

xususiyatlarini aniqlash. Tadqiqotchi – lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanligini alohida ta'kidlaydi, chunki – bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Asar mohiyatini, uning badiiy – estetik xususiyatlarini ochib berishning yagona yo'li bu – asar matni, tili va til birliklari assotsiatsiyasi, badiiy matn arxitektonikasi orqali aks etgan ijodkor g'oyasi, “so'zi” va individualizmni sharhlash, ya'ni, asar matni, uning g'oyasi orqali badiiy tafakkurning yangi jilolarini anglab yetishdir. Germenevtik tahlil bu – badiiy matnda nafaqat ijodkor aytmochi bo'lgan g'oyani aniqlash, balki u aytmagan va hatto uning o'zi fahmlay olmagan g'oyani ham kashf qilish masalasidir.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA QONUNLAR VA KODEKSLARGA ASOSLANGAN HOLDA VAZIYATNI TAHLIL QILISHNI O'RGATISH

Xolmirzayev Nabijon Imomqul o'g'li

Sirdaryo akademik litseyi Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, davlat va
huquq asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada maktab o'quvchilariga huquqiy bilim berishda interfaol usullardan foydalanish tavsiya etilgan bo'lib, ular o'quvchilarga o'quv predmetini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Qonun, davlat, huquqiy bilim, pedagog, interfaol usullar, muammoli vaziyat, huquqiy savodxonlik, tahliliy fikrlash, huquqiy faoliyat, innovatsion texnologiya, huquqiy tarbiya, huquqbuzarlik.

Annotation: In this article, it is recommended to use interactive methods in providing legal knowledge to school students, which can help students to develop their interest in learning the subject, practical skills, situation analysis and make the right decision. information about the development of skills of creative approach to making.

Key words: Law, state, legal knowledge, pedagogue, interactive methods, problem situation, legal literacy, analytical thinking, legal activity, innovative technology, legal education, crime.

Аннотация: В данной статье рекомендуется использовать интерактивные методы в предоставлении правовых знаний школьникам, что может помочь учащимся развить интерес к изучению предмета, практические навыки анализа ситуации и принятия правильного решения. творческий подход к изготовлению.

Ключевые слова: Право, государство, правовые знания, педагог, интерактивные методы, проблемная ситуация, юридическая грамотность, аналитическое мышление, юридическая деятельность, инновационные технологии, юридическое образование, преступность.

Kishining jamiyatdagi xulq atvorini tartibga soluvchi qoidalar tizimi axloq hisoblanadi. O'zbekiston hududida ming yillar davomida shakllangan milliy axloq normalari milliy huquq tizimining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga kasb etgan. Pedagoglarning oldiga qo'ygan asosiy va muhim masalalardan biri bu bugungi kunda ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan va obekti sanalgan o'quvchi yoshlarga huquqiy bilim, ko'nikma malakalarni to'g'ri va oson usullar bilan yetkaza olish sa'atini egallashdir.

Eng muhim masalalardan biri pedagogning zamonaviy innovatsion texnologiya va interfaol metodikalardan foydalana olish bilim, ko'nikma va malakaining puxta egalashidir. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga huquqiy bilim berishda interfaol usullardan "KEYS-STADI", klaster, SWOT-tahlil, insert texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya etamiz. Bu texnologiyalar o'quvchilarga o'quv predmetini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muamoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyatlar yaratadi, bundan tashqari eng muhimi o'quvchi vaziyat, holat yuzasidan mustaqil xulosa, fikrlar berish jarayonida huquqiy bilishning imkoniyatlari huquqiy normalarga amal qilmaslikning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini o'z kichik tajribasidan mavzu yoki muammo yuzasidan bildirilayotgan fikrlardan ham bilib oladi. Pedagog dars jarayonida o'quvchini bilim ko'nikmasini oshirib qolmasdan uning huquqiy savodxonligi o'z imkoniyatlardan foydalana olishini ham o'rgatishi zarur. Bularni amalga oshirishda o'qituvchi pedagog pedagogik texnologiyadan foydalanishi mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarga mavzularni o'zlashtirishda va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholashda qo'llaniladigan texnologiyalar juda katta samarali dars tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, huquqiy bilim shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutib qolmasdan ular o'rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarni ham oldini olish imkonini beradi. Biz pedagogik jarayonda buning hech tomonini e'tibordan qoldirmasdan pedagogik jarayonni amalga oshirsakgina haqiqiy bilimli yoshlarni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2-tomlik. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.-182-bet.
2. Jo'rayev Y., Topildiev V. va boshq.; Huquqshunoslik. O'quv qo'llanma – T.: VORIS, 2015.
3. Karimova O. A. Huquqni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T. 2010.
4. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". T.: "Nihol", 2013.

SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Yaxshilikova Gulnora

Mirzaobod tumani 5- umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Kulaxmetova Mahliyo Muxiddin qizi.

Mirzaobod tumani 5- umumta'lim maktabining musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'yin texnologiyalari bolani ijtimoiylashuvida eng kuchli vosita bo'lib, u turli xil hayotiy vaziyatlarni taqlid qilish va undan xulosa chiqarish yo'lini izlash imkonini beradi. O'yin kommunikativ faoliyat bo'lib bir shaxs sifatida o'zini o'zi anglash sohasida muhim o'rin tutishi yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: yangi texnologiyalar, ta'limdagi, innovatsiyalarni yaratish, o'yin texnologiyalari, imitatsion metodlar.

Boshlang'ich ta'lim–bu ta'lim tizimining eng muhim pillapoyalaridan biri hisoblanadi

Ta'lim tizimidagi yangi shart-sharoitlar o'qituvchilarni axborotni taqdim etishning yangi usullari, yangi texnologiyalar, o'qitish usullarini yaratishga olib keladi, ularni o'qitish usullarida ijodiy va ijobiy yechimlarni izlashga majbur qiladi. Ta'lim tizimida innovatsiya kabi hodisa yaqinda paydo bo'ldi deb bo'lmaydi. O'z vaqtida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllari masalasi bilan pedagogika sohasiga ulkan hissa qo'shgan Y.A.Komenskiy, R.Shtayner, L.S.Vigotskiy pedagogika va psixologiyada ko'plab yo'nalishlarni ochdi.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

O'yin texnologiyalari bolani ijtimoiylashuvida eng kuchli vosita bo'lib, u turli xil hayotiy vaziyatlarni taqlid qilish va undan xulosa chiqish yo'lini izlash

imkonini beradi. O'yin kommunikativ faoliyat bo'lib bir shaxs sifatida o'zini o'zi anglash sohasida muhim o'rin tutadi.

O'yin o'tkazishda noaniqliklar bartaraf etiladi. O'yin harakatlari tashkil etiladi. O'yin jarayoni vujudga kelgan o'yinning tasviriy ko'rinishi tavsiyasi va ularni ishtirokchilar tomonidan qabul qilinishi tug'ilgan qiyinchiliklarni g'oyalarni tahlil qilish. Didaktik o'yinlarni asosi bo'lib o'quvchi va o'quvchilarning idroklarini chuqurlashtirish va kengaytirish uchun yangi bilimlarni manbasi bo'lgan o'quv muammolarini tashkil etadi. Didaktik o'yinni eng muhim dalillari bo'lib uning o'yin faoliyati maksimal darajasida mustaqillik, xohish istak faoliyati va ijodiy namoyon birga o'yin faoliyatini saqlanib qolishiga aytiladi.

“Erudit” o'yini. Mavzu ustidagi ishlarni tugashidan bir necha mashg'ulot oldin o'quvchilarga o'tilayotgan mavzu bo'yicha bo'lgan savolni kartochka yozib hakamlarga berish taklif etiladi. Hakam 2-3 kishidan iborat.

Hakam bilan birgalikda biz eng qiziq savollarni ajratib olamiz.

O'yin boshlanishidan avval kartochkalar stol ustiga qo'yiladi. Har bir guruh a'zosi kelib o'zining guruhi uchun 4 tadan savol tanlaydi. Vaqt beriladi. Olingan javoblar hakam sudiga olib chiqiladi. Yechimni topishda qiynalgan har bir guruh kartochkasini almashtirish imkoniga ega bo'ladi, lekin ballar umumiy soni pasaytiriladi. O'yin so'ngida hakam bolalarning javoblarini analiz bilan birgalikda ular mustaqil tayyorlab kelgan savollarga ham baho beradi.

Faol o'qitishning imitatsion metodlari (ular o'z navbatida o'yinli – ishbilarmonlik o'yinlari, o'yinli loyihalashtirish va o'yinsiz – muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, vaziyatli masalalarni yechish) – pedagogik usullar va mashg'ulot o'tkazishning maxsus shakllari. Bunday mashg'ulotlarda o'quv - tarbiyaviy va ilmiy tekshirish faoliyati o'quvchilarning bo'lajak kasbiy amaliy faoliyatlariga taqlid qilish asosida quriladi.



Quyida sinfdan tashqari o'qish darslari (3-4-sinflar misolida)

“O'qyman, o'rganaman, o'rgataman” metodi asosida mashg'ulotda qo'llash imkoniyatlarini korib chiqamiz.

Ushbu metodni qo'llash uchun o'qituvchi tomonidan 6 ta hikoya yoki ertaklar tanlab olinadi va A4 formatda chiqarilib oldindan tayyorlab qo'yiladi. Sinfda o'quvchilar soni 35 tani tashkil etsa 5-6 nafardan 6 ta guruhga birlashadilar. Ushbu jarayonning tartib-qoidalari ya'ni guruh bilan ishlash, reglamentga amal qilish, tezkorlik bilan harakatlanish, fikrini to'liq bayon etish, o'zgaralar fikrini diqqat bilan tinglash kabi qoidalari bilan tanishtiriladi,

O'qyman: har bir guruh uchun tayyorlangan matn taqdim etiladi va o'qib-o'rganishlari uchun reglament matnig uzun yoki qisqaligiga qarab belgilanadi.

O'rganaman: o'qilgan matnning mazmun-mohiyati guruhda muhokama qilinadi.

Bu vaqtda o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan 6 xil mevalarni guruhlarga tarqatib chiqadi. Har bir guruh mevalari bir xil bo'lishi kerak. Har bir guruh a'zosi qo'lga o'ziga ajratilgan mevani oladi. Guruhlar tarqatilib multisharbat hosil qiladilar, ya'ni turli mevalardan boshqatdan yangi guruhlarga birlashadilar. Bir guruhda 2 ta bir xil meva bo'lmasligi kerak.



Xulosa qilib aytganda yosh avlodni hozirgi zamon fani bilan

qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta'lim maktablar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ekan, bu vazifani hal etishda boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati kattadir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli Farmoni. 2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur.
3. Boshlang'ich ta'lim jurnallari. 2023-yil.
4. Tursunova Dildora. "Tez o'qish texnikasini o'rgatishning boshlang'ich metodikasi metodik qo'llanma. – Farg'ona – 2022.

ЗАДЕРЖКА РАЗВИТИЯ РЕЧИ И НЕДОРАЗВИТИЕ РЕЧИ У ДЕТЕЙ 3-4 ЛЕТ

Плиева Руслана Владимировна

ст. преподаватель Гулистанского Государственного университета
кафедры "Технологий и дошкольного образования"»

Кузнецова Линура Руслановна.

студентка: III –курса группы : 61e-21

Махкамова Нигора Суюновна

Преподаватель школы №10 Гулистанского р-на

Аннотация. В настоящее время наблюдается увеличение числа детей, имеющих различные нарушения речи, особенно велик процент детей с дефектами речи дошкольного возраста. Отклонение в развитии речи определяется конституционными факторами, хроническими

соматическими заболеваниями, длительными неблагоприятными условиями воспитания и, в первую очередь, органической недостаточностью ЦНС.

Ключевые понятия: фонетическое нарушение, фонетико-фонематическое недоразвитие речи и общее недоразвитие речи, задержки психического развития, аутизм.

Современные дети живут в мощном потоке информации. Одни с этим справляются, у других непомерный груз информации тормозит не только речевое, но и общее развитие. Увеличивается количество детей с нарушениями речи, с задержкой психического развития. Возможность говорить, общаться – это удивительный дар природы. И с этим даром нужно обращаться не только бережно, но и умело. На формирование способности заговорить природа отвела не так уж много времени – это период с 1 года до 8 – 9 лет

Проблема изучения детей с различными нарушениями речи достаточно хорошо изучена в теоретико-практическом плане, исследованию данной проблемы посвящены труды Волковой Л.С., Левиной Р.Е., Беляковой Л.И., Филатовой Ю.А., Волковской Т.Н., Шаховской Н.С., Агранович З.Е., Бабиной Г. В., Филичевой Т.Б., Тумановой Т.В., Чиркиной Г.В, Жуковой Н. С., Мастюковой Е. М., Воробьевой В.К., Глухова В.П., Гриншпуна Б.М., Фименковой Н.Е., Селиверстова В.И., Чевелевой Н.А., Ковшикова В.А., Спировой В.А., Лалаевой Р.Л. и др.

На сегодняшний момент в логопедии существуют 2 классификации речевых нарушений - клинико-педагогическая и психолого-педагогическая (педагогическая).

Все виды речевых нарушений, которые включает клинико-педагогическая классификация, разделяют на 2 группы: нарушения устной речи (алалия, брадилалия, тахилалия, заикание, дислалия, ринолалия, дизартрия, афазия) и нарушения письменной речи (дисграфия, дислексия).

Психолого-педагогическая классификация возникла в связи с необходимостью логопедического воздействия в условиях работы с коллективом детей (группой, классом).

Эта классификация позволяет выделить группы речевых нарушений и их виды:

1. Нарушение средств общения: фонетическое нарушение, фонетико-фонематическое недоразвитие речи и общее недоразвитие речи (ОНР).
2. Нарушения в применении средств общения (заикание).
3. Комплексный дефект (заикание, осложненное общим недоразвитием речи).

Так, в специалисты педагогической сферы недоразвитие речи различного происхождения могут назвать ЗРР («задержка речевого развития»), как правило, данный диагноз используют в отношении ребёнка

до 5 лет) или ОНР («общее недоразвитие речи»), обычно термин употребляют в отношении ребёнка от 5 лет).

Отметим, что задержка речевого развития (ЗРР) - овладение речью позже нормы. Задержка формирования речи может быть результатом психосоциальной депривации, нарушения слуха, задержки психического развития, аутизма, элективного мутизма, тяжелых неонатальных поражений мозга, детского церебрального паралича, позднего созревания ребенка или билингвизма и многих других. Задержку речевого развития ставят детям до четырёх лет. Если проблемы с речью у ребёнка остаются и в дальнейшем, используют уже другой термин: общее недоразвитие речи.

Общее недоразвитие речи является одним из самых распространенных речевых дефектов, в связи с этим рассмотрим его более подробно.

Общее недоразвитие речи - дефект полиэтиологический. Он может выступать и как самостоятельная патология, и как следствие других, более сложных дефектов, таких как алалия, дизартрия, ринолалия и т.д. Самостоятельным, или чистым (единственным), дефект речи считается, если несформированными в соответствии с возрастной нормой оказываются звукопроизношение и фонематическое восприятие, а также словарный запас и грамматический строй языка.

В логопедии понятие «общее недоразвитие речи» применяют к специфической форме патологии речи у детей с нормальным слухом и первично сохранным интеллектом, когда происходит нарушение формирования всех компонентов речевой системы, в основе которого лежат трудности усвоения языковых единиц и правил их функционирования.

По мнению С.Н. Шаховской, общее недоразвитие речи - это «многомодальные нарушения, которые проявляются на всех уровнях организации языка и речи».

Данное недоразвитие речи у детей выражается в различной степени: от полного отсутствия речи до небольших отклонений от нормы. Первые три уровня выделены и подробно описаны Р.Е.Левиной, четвертый уровень представлен в работах Т. Б. Филичевой.

Рассмотрим их более подробно.

Самый низкий - это первый уровень, когда ребенок не овладевает общеупотребительными средствами общения. На этом уровне нередко при описании речевых возможностей детей встречается название "безречевые дети", но не надо понимать данное определение буквально, так как в самостоятельном общении такой ребенок использует целый ряд вербальных средств: звукоподражания и звукокомплексы, обрывки лепетных слов. Речь детей на этом уровне может иметь диффузные слова, которые не имеют аналогичных в своем языке.

Характерная особенность детей I уровня речевого развития проявляется в возможности многоцелевого использования средств языка,

которые у них есть: звукоподражания и слова обозначают предметы, явления, их признаки и действия, которые они совершают. Данные факты показывают исключительную скудность лексикона, поэтому дети вынуждены прибегать к активному использованию неязыковых средств - мимики, жестов, интонации. Вместе с этим отмечается у детей явно выраженная бедность в формировании импрессивной стороны речи.

Достаточно трудным является для детей понимание некоторых простых предлогов ("в", "на", "под" и др.), но также и грамматических категорий единственного и множественного числа, женского и мужского рода, настоящего и прошедшего времени глаголов и т.д.

Звуковую сторону речи можно охарактеризовать как фонетическую неопределенность.

Произношение звуков носит диффузный характер, который обусловлен низкими возможностями их слухового распознавания и неустойчивой артикуляцией.

В произношении имеются противопоставления лишь гласных - согласных, ротовых - носовых, некоторых взрывных-фрикативных.

Фонематическое развитие находится в зачаточном состоянии. Характерной чертой речевого развития данного уровня является ограниченная способность воспроизведения и восприятия слоговой структуры слова.

Подводя итог всему вышесказанному, можно сделать вывод, что речь детей малопонятна на этом уровне для окружающих и имеет жесткую ситуативную привязанность.

2 уровень - начало развития фразовой речи. Активный словарь состоит уже из искаженного, значительно опаздывающего от возрастной нормы, но тем не менее постоянного запаса общеупотребительных слов.

Характерной чертой является появление в речи детей двух-трёх, и даже четырехсловной фразы. Когда ребенок объединяет слова в фразы и в словосочетании, то один и тот же ребенок, может, как использовать способы согласования и управления правильно, может и нарушать их.

Глухов В.П. пишет, что не только с помощью жестов и несвязных слов осуществляется общение, но и через использование достаточно постоянных, хотя и очень искаженных в фонетическом и грамматическом плане речевых средств.

В произвольной речи детей иногда появляются простые предлоги и их лепетные варианты. Иногда, ребенок со вторым уровнем речевого развития пропускает во фразе предлог или неправильно изменяет члены предложения по грамматическим категориям.

В сравнении с первым уровнем наблюдается заметное улучшение состояния лексикона ребенка не только по количественным, но и по качественным параметрам: появляются некоторые числительные и

наречия, расширяется объем употребляемых существительных, глаголов и прилагательных и т.д.

Однако бедность словообразовательных операций подводит к ошибкам в понимании приставочных глаголов и употреблении, притяжательных и относительных прилагательных, существительных со значением действующего лица.

Также можно наблюдать сложности в формировании отвлеченных и обобщающих понятий, системы антонимов и синонимов. Речь детей с данным уровнем кажется нередко малопонятной из-за грубого нарушения слоговой структуры слов и звукопроизношения.

Третий уровень речевого развития можно охарактеризовать как развернутую фразовую речь с элементами недоразвития грамматики, фонетики и лексики. Более четко они выражаются в разных видах монологической речи. Характерным для третьего уровня будет употребление детьми простых распространенных, а также некоторых видов сложных предложений, отставание в овладении грамматическим строем речи, бедность и скудность словарного запаса, переход от диалогической формы речи к контекстной.

Понимание речи значительно развивается и приближается к возрастной норме.

Четвертый уровень выделила Т.Б. Филичева. На четвертом уровне речевого развития автор выделяет нарушения лексики, нарушения связной речи и словообразования. Нарушения словообразования появляются в сложностях дифференциации родственных слов, в невозможности выполнения заданий на словообразование, в непонимании значения словообразующих морфем. находятся на данном уровне речевого развития, качественно изменяется в лучшую сторону по сравнению с третьим уровнем. Исчезает вялость произношения простых звуков, смазанность. Остаются только нарушения произношения некоторых сложных для артикуляции звуков.

В слоговой структуре слова намечается правильное произношение, однако еще остаются искажения звуковой структуры многосложных слов со стечением согласных. В основном при воспроизведении малознакомых слов проявляются искажения звуко - слоговой структуры слова проявляются. Фонематическое развитие характеризуется также отставанием, что проявляется в трудностях овладения чтением и письмом .

Неполноценная речевая деятельность накладывает отпечаток на развитие у ребенка сенсорной, интеллектуальной и эмоционально-волевой сфер. Для детей с нарушениями речи характерны недостаточно устойчивое внимание, сниженная вербальная память, недостаточность продуктивности запоминания. Дефект речи тормозит развитие потенциально сохранных умственных процессов и способностей, препятствуя нормальному функционированию речевого интеллекта. Но по мере формирования

словесной речи и устранения собственно речевых сложностей интеллектуальное развитие детей подходит к норме.

Вместе с общей соматической слабостью таким детям свойственно некоторое недоразвитие двигательной сферы. Максимальные сложности определяются при выполнении движения по словесной инструкции. Отмечают недостаточную координацию пальцев, недоразвитие мелкой моторики.

Дошкольники с речевыми дефектами имеют характерологические особенности, которые отличают их от детей в норме. Данная специфика проявляется на занятиях, в игровой, бытовой и другой деятельности.

Типичной особенностью детей с нарушением речи выступает слабость произвольного внимания, оно неустойчиво. Лучше развито непроизвольное внимание. Память у данной группы детей развивается в направлении усиления произвольности, сознательного управления ею и увеличения объёма смысловой, словесно-логической памяти. Можно также отметить и то, что детям с дефектами речи характерна подражательность познавательной деятельности.

Тем самым, при теоретическом анализе психолого-педагогической и специальной литературы мы заключаем, что несмотря на довольно высокие возможности и способности, у детей возникают трудности во всех сферах развития.

Таким образом, можно сделать следующие выводы: усвоение детьми с ОНР речевых норм языка идет в той же последовательности, что и у детей, чье развитие в норме, но этапы усвоения затягиваются на несколько лет. У детей с ОНР речевое развитие характеризуется отставанием в формировании фонетического, лексического и грамматического строя речи.

Литература.

1. Конституция республики Узбекистан.
2. Конвенция по правам ребенка.
3. “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги ПҚ-3261-сонли Қарори.
4. Блинова Г. И. Преодоление речевых нарушений детей: В 2 ч. / Г. И. Блинова - К. Благовест, 2005. - Ч. 1. - 288 с.
5. Муминова Л.Р., Чичерина Я.Е., Нуркельдиева Д.А. Диагностика психофизического развития детей первых трех лет жизни. Т.: РЦСАД, 2007г.
6. Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией И.Ю.Левченко и С.Д.Забрамной. М., АСАДЕМА, 2005.

Использованные интернет ресурсы:

1. TDPU uz.

2. <http://www.edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги сайти.
3. <http://www.uzedu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги сайти.
4. <http://www.president.uz> – Ўзбекистон Республикаси Президенти портали.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA KASBIY SO'NISHINING IJTIMOIIY, PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kabulova Sanobar Eshnazarovna,
GulDPI Pedagogika kafedrası, stajyor o'qituvchi

Mamlakatimizda ham ishchi xodimlarning, ayniqsa kelajak avlod tarbiyachisi bo'lgan pedagoglarning psixosotsial salomatligi masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ijtimoiy sog'lom muhitni shakllantirish, yoshlar tarbiyasining ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish, shaxsning ma'naviy kamol topishi, psixologik qo'llabquvvatlanishini ta'minlash, mutaxassislarning psixologik bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan qator normativ-me'yoriy xujjatlarning ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

Buning yaqqol dalili sifatida 2019-yilning 7-iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №472-sonli "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorining 14-bandida keltirilgan "Psixologik salomatlik yo'lida O'zbekiston" borasida belgilangan vazifalarida ruhiy salomatlik masalalariga urg'u berilganligini ko'rishimiz mumkin [1]. Ta'lim-tarbiya sohasidagi mazkur islohotlarning asosiy maqsadi, albatta barkamol shaxs tarbiyasi masalasi hisoblanadi va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda "...jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan boshlanganini ko'ramiz. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir" [2]. Shu boisdan, "o'qituvchilik" kasbining o'zi shaxsga qator ma'suliyatlar va vazifalar yuklaydi.

Mazkur holatning o'ziyoq pedagoglarning psixosotsial salomatligini ta'minlash, pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, pedagoglarda kasbiy stressga nisbatan konstruktiv munosabatlarini kamol toptirish, turli psixologik mexanizmlar asosida ularning stressga barqarorligini oshirish zaruratini tug'diradi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, pedagoglardagi stress va uning psixologik jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy stress – kasbiy faoliyat bilan bog‘liq emotsional-salbiy va ekstremal omillarning uzoq vaqt davomida intensiv ravishda ta’sir etishi natijasida hodimda kelib chiqadigan zo‘riqish holatidir. Kasbiy stress ish samaradorligining pasayishi, ichki diskomfortning ortishi, pedagogik faoliyat bilan bog‘liq ijtimoiy motivlarning so‘nishi, o‘zidan va faoliyatidan qoniqmaslik, psixosomatik kasalliklar va depressiv holatlarida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda pedagoglarning faoliyati psixogen, intellektual, emotsional zo‘riqishlar bilan to‘ladir. Chunki, kunlik hisobotlar, murabbiylik faoliyati bilan bog‘liq masalalar, pedagoglar jamoasidagi rahbar-xodim munosabatlari bilan bog‘liq muammolar pedagoglarning pedagogik ijod bilan shug‘ullanishi uchun vaqtni qoldirmayotganligi ularda ham psixik, ham jismoniy charchoq va zo‘riqishlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lyapti.

Bugungi kunda pedagoglarning faoliyati psixogen, intellektual, emotsional zo‘riqishlar bilan to‘ladir [4]. Darhaqiqat, kunlik hisobotlar, murabbiylik faoliyati bilan bog‘liq masalalar, jamoat ishlariga jalb qilinish, pedagoglar jamoasidagi rahbar-xodim munosabatlari bilan bog‘liq muammolar pedagoglarning pedagogik ijod bilan shug‘ullanishi uchun vaqtni qoldirmayotganligi, ularda ham psixik, ham jismoniy charchoq va zo‘riqishlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lyapti. Angliyalik olimlar stressga moyillik va kasbiy faoliyat orasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilishganda, eng stressogen omillarga beriluvchan 22 ta kasb egalarini sanab o‘tganlar. Stressga beriluvchan kasb egalarining “faxrli uchinchi” o‘rni pedagog kasbiga nasib etgan. Pedagog kasbi o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarishni talab etuvchi stressogen faktorlarga moyil bo‘lgan kasblardandir.

Pedagogik faoliyatga qo‘yiladigan talablarning tinmay o‘zgarishi, yangi informatsiya oqimining kirib kelishi va uni o‘zlashtirishga beriladigan vaqtning tanqisligi, pedagogik faoliyatdagi emotsional, ijtimoiy zo‘riqish professional faoliyat sharoitini qiyinlashtirib, pedagoglardagi stressning ortishiga sabab bo‘lmokda. Shularni hisobga olgan holda, biz pedagoglarda kasbiy stressning namoyon bo‘lishini aniqlashni o‘z oldimizga maqsad qilib belgilab oldik. Biz ilmiy ishimizda pedagoglarda kasbiy stressni shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning usullarini ishlab chiqishni tadqiqot maqsadi etib belgilagan edik.

Determinizm tamoyilining dissertatsion tadqiqotimizda ro‘yobga chiqarilishi kasbiy stressning o‘ziga xos mexanizm asosida vujudga kelishi va muayyan shaklda reprezentatsiyalanishi (namoyon bo‘lishi) doim qandaydir ijtimoiy, kognitiv va affektogen omillarning ma’lum darajadagi ta’siri oqibati ekanini taxmin qilib, ilmiy izlanishni ushbu omillarning mazmuni hamda ta’sir xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilishi orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqotning metodologik tamoyili sifatida tizimlilik tamoyili tadqiq etiladigan narsa-hodisalarni tizim sifatida o‘rganishni, bu narsa hodisalarning xususiyatlarini ularni tashkil etgan elementlarning o‘zaro munosabatlariga xos xususiyatlar bilan tushuntirishni talab qiladi. Ushbu tamoyil ilmiy tadqiqot

predmetini tahlil qilishda tizim sifatida uni tashkil etuvchi elementlarni va ular o'rtasidagi tizimli funktsional aloqalarni ajratish, tizimning darajalarini va tizimni hosil qiluvchi omillarni asoslab berishni taqozo etadi.

Tizimlilik tamoyilida pedagoglarda kasbiy stressning namoyon bo'lish mexanizmini tizimli uyg'unligi nuqtai nazaridan tushunish orqali amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Qolaversa, tadqiqotimiz doirasida amalga oshirilgan tajriba sinov ishlaridan olingan natijalar kasbiy stress namoyon bo'lishining uyg'unlashgan holatini yaqqol ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, pedagog kasbi "inson-inson" munosabatlari tizimida faoliyat yurituvchi kognitiv, informatsion, emotsional, ijtimoiy stressorlar ta'siri eng ko'p uchraydigan kasbdir. Shularni hisobga olgan holda, biz pedagoglarda kasbiy stressning namoyon bo'lishini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib belgilab oldik. O'z empirik tadqiqotimizni olib borish uchun D.Fontan tomonidan ishlab chiqilgan "Kasbiy stress darajasini aniqlash shkalasi"ni o'tkazdik. Mazkur metodika bo'yicha olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

Yosh mutaxassislar har tomonlama kuch-g'ayratga to'la bo'lganligi bois, dastlabki 10 yilda kasbiy stressning yuqori darajasi unchalik ko'pchilikni tashkil etmagan. Chunki, 5 yilgacha bo'lgan davrda pedagogik jamoaga moslashish va o'z o'rniga ega bo'lish uchun berilgan topshiriqlarni intensiv tarzda o'zlashtirib bajarishga harakat qiladi. 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatda esa endi ular jamoada o'z mavqeiga ega, har qanday vaziyatdan pedagogik ijodkorlik bilan chiqib keta oladilar. Shu boisdan, kasbiy stressga unchalik berilmaydilar.

Xulq-atvorni korreksiyalash: bunda biz stress holati kuzatilayotgan pedagoglarimizda agressiv reaksiyalarni, shaxslararo munosabatlardagi nizolashuvchanlikni pasaytirish, o'z xulq-atvorini boshqara olish va vaqtni to'g'ri taqsimlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratdik.

Kognitiv soha psixokorreksiyasi: pedagoglarda diqqat konsentratsiyasini oshirish, ratsional qaror qabul qilish ko'nikmasini, vaziyatni adekvat idrok qilish malakasini, ijtimoiy pertseptsiya va kognitiv refleksiyaning, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga e'tibor berildi.

Emotsional soha psixokorreksiyasi: bunda asosan pedagoglardagi emotsional qo'zg'aluvchanlik, araz va gina, xavotirlanish hissi, o'zidan qoniqmaslik, yolg'izlik hissi, aybdorlik hissini pasaytirishga qaratilgan mashg'ulotlardan foydalandik. Yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olgan holda pedagoglarda kasbiy stressni bartaraf etish va stressga barqarorlikni shakllantirish uchun biz eksperimental guruhga mansub pedagoglarimizda quyidagi xususiyatlarni rivojlantirdik: o'z-o'ziga adekvat baho, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, analitik tafakkur, psixosotsial salomatligiga nisbatan refleksiv munosabat, shaxslararo munosabatlarda tolerantlik, ratsional kun tartibiga rioya etish, emotsional intellekt, ijtimoiy intellekt, konformlikka intilish hissi, vaziyatga adekvat baho berish, ijtimoiy pertseptsiya, o'z emotsiyalarini boshqarish. Biz o'tkazgan tadqiqotlar natijasida

olingan xulosalar, har bir pedagogning pedagogik faoliyatiga samarali ta'sir o'tkazib, ijobiy natijalarni qo'lga kiritishlarida ko'mak beradi.

Tarixga nazar tashlasak hissiy so'nish sindromi 1974-yili Amerikalik psixolog Freydenberger tomonidan yoritilgan. Bunda kasbga qiziqish so'nishi, topshiriqlarga negativ yondashish va ularni inkor qilish, kasbiga achinish, qilgan va qilayotgan ishidan rohatlanish hissining yo'qolishi va gohida hissiy portlashlarga asosiy urg'u berilgan.

Kasbiy so'nish sindromi "O'zini boshqarish bilan bog'liq qiyinchiliklar" deb nomlanadi. Bu sindromning asosiy belgilari qilib o'z kasbi va ish faoliyati bilan bog'liq krizis holatlar, ishxonadagi kelishmovchiliklar, xavotir, depressiya, ishga qahr, g'azab, ishdagi vaziyatlarga moslashuv reaksiyani yo'qolishi ko'rsatib o'tilgan. Kasbiy so'nish sindromi ish bilan bog'liq hissiy so'nish, kasbiga, ishga mutlaq befarqlik, rahbarlar va kelajakka ishonch yo'qoligi hisoblanadi.

Kasbiy so'nishning sabablari vaqtida aniqlanib oldi olinmasa sohaning rivojlanmay qolishi; kadrlarni yo'qotish; jamoaga putur yetishi; xodim oilasidagi baxtsizlik; farzandlarning ota-onasi kasbiga mehr qo'ymasligi; o'z joniga qasd qilishlar; davlat va jamiyat inqirozi kabi oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning kasbiy so'nishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillar mavjud. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sindromga uchramasliklari uchun kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning shakl, usul va metodlari ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Hakimova D.M. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishning didaktik xususiyatlari // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiriu. – Nukus, 2018.-№3
3. Xalilova N.I Refleksiv texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning psixologik jihatlari., // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2018-№7.
4. Zoxidova S.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf pedagog kadrlarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...dis. – Samarqand, 2019.
5. Азизходжаева, Н. Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. - Т.Фан, 2006.
6. Акимов А. И., Акимов С. А., Мельников В. С. Компоненты процесса формирования рефлексивной готовности обучающихся образовательных организаций к профессиональной деятельности // Вестник Оренбургского государственного университета. 2015. № 9.

YURTIMIZ TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Biybalayev Islombek Abdunazarovich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi katta o'qituvchisi,

Rahmonberdiyev Ithom

Guliston davlat pedagogika instituti tyutori

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bugungi kunda ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llar, metodlar va bosqichlari haqida so'z yuritilgan.

Annotation: This article talks about the problems that arise in the education system today and the ways, methods and stages of their elimination.

Аннотация: В данной статье говорится о проблемах, возникающих сегодня в системе образования, и путях, методах и этапах их устранения.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim tizimi, tizim muammolari, metodlar, chora-tadbirlar, bartaraf etish bosqichlari.

Ключевые слова: образование, система образования, системные проблемы, методы, меры, этапы устранения.

Key words: education, education system, system problems, methods, measures, stages of elimination.

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy bundan yuz yillar avval aytgan "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" degan iborasi ayni zamonda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Haqiqatdan ham dunyo davlatlari bilan boylashmoqlik uchun ham yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma'lum yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lim tizimida, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida o'zgarishlar yuz berdi. Qo'lga kiritilgan yutuqlar o'zimizniki.

Ammo globallashuv jarayonida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganini hisobga olmaslikni ham iloji yo'q. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya, ilm-fan oldiga yangi talablarni ko'ndalang qo'yimoqda. Ta'lim tizimini muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini oshirib borish ham bugungi kunning ham dolzarb talabi bo'lib qolaveradi.

Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati to'la rivojlangan, deb bo'lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka

va bilim yetarli emas. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim muassasalarni bitirgan yoshlarimizning ko'pchiligi mustaqil hayotda o'z o'rmini topa olmayapti.

Shu boisdan ham qo'shimcha ta'lim — repetitor xizmatiga katta ehtiyoj mavjud.

Ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etishda yetarlicha mustaqillikka ega emas, ular mehnat bozorining o'zgaruvchan sharoitlariga yaxshi moslashmagan. Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlarining malakali kadrlarni tayyorlash, ish bilan ta'minlash jarayonidagi hamkorligi qoniqarli deb bo'lmaydi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish ishlari ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari, ish beruvchilar bilan birgalikda keng muhokama qilinmaydi. Tizimdagi o'qituvchi-pedagoglarning katta qismida bilim va kasbiy salohiyati pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali, bilimdon, bozor talablariga mos pedagog kadrlarga ehtiyoj katta.

Ta'lim va ishlab chiqarish sohalarining samarali hamkorligini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning bilimi sifatiga nisbatan korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ham dolzarb masala sanaladi.

Ta'lim sifatini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda jamoatchilik va kadrlar buyurtmachilarining zamonaviy qarashlari va yondashuvlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Yevropa qit'asining rivojlangan davlatlari ta'lim tizimida qabul qilingan «Jamoatchilik va kadrlar buyurtmachilari» tamoyillaridan unumli foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Xalqaro standartlar, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini inobatga olgan holda, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslublarini muntazam takomillashtirish, ta'limning hamma bosqichlarida tabiiy-ilmiiy va muhandislik fanlarini o'qitishning amaliy tizimini joriy etish, o'qitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishni yanada kengaytirish lozim. Shu bilan birga, pedagog va olimlarning xalqaro mehnat bozori sharoitlariga moslashishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud bo'lib, bular AQSh, Frantsiya, Germaniya va Yaponiya modellaridir. Ular, garchi, umumiy qoida va yo'nalishlar bo'yicha bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, lekin ushbu mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi.

Osiyo, Yevropa va AQShning rivojlangan mamlakatlar safidan o'rin olishida ushbu mamlakatlar universitetlarida zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalar yutuqlarining qo'llanishi asosiy rol o'ynagan. Ularning fan, texnika-texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan tezda o'zib ketganligining sababi shundaki, avvalo, ushbu mamlakatlarda erkin va ijodiy fikr qadrlanadi. Har bir insonga noyob iste'dod egasi deb qaraladi.

Globalashuv jarayonida mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ilm-fan, yangi texnika-texnologiyalar rivoji muhim rol o'ynaydi. Xursand qiladigan tomoni shuki, davlatimiz rahbariyati ushbu sohalarga katta e'tibor qaratmoqda.

Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, mamlakatimizga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishimiz lozim. Hozir oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini mamlakatimizga olib kelib ma'ruza o'qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o'quv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ularning darsliklari, o'quv standartlari tajriba sifatida qo'llanilmoqda. Bu albatta, yaxshi tashabbus va shu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirishimiz lozim. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlash va nazorat qilish borasida xorijiy mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya, Angliya, Frantsiya, Shvetsiya, AQSh)ning tajribalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi holatlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Bu o'rinda ilg'or mamlakatlarning oliy o'quv dargohlari bilan xalqaro ilmiy-pedagogik a'loqalarni rivojlantirish, xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etish, xalqaro loyiha va dasturlarda qatnashish uchun buyurtmalar berish, mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga qo'shilishini faollashtirish maqsadida olimlar va pedagoglar bilan o'zaro fikr almashinuv jarayonini kuchaytirish lozim.

Ko'plab mamlakatlarning universitetlarida xalqaro dasturlar, grantlar sohibi sifatida taklif bilan qatnashib, ma'ruzalar qilganman. Chet ellardagi ko'plab iste'dodli o'zbek yosh olimlarini taniyman. Ular bugungi kunda Osiyo, Yevropa, AQSh universitetlarida magistraturani tugatib, ilmiy ishlarini davom ettirib, fan doktorlari bo'lib, o'sha mamlakat universitetlarida, ilmiy-tekshirish institutlarida samarali faoliyat ko'rsatishmoqda. O'zbekistonning salohiyatini jahonga tanishtirishmoqda. Ular bilan har qancha faxrlansak arziydi.

AQSh, Yevropa mamlakatlari keyingi yillarda universitetlariga, ilmiy markazlariga jahonning barcha mamlakatlaridan talantli yosh olimlarni turli grantlar va dasturlar asosida taklif qilib, ularning ilmiy salohiyatidan foydalanib, o'z mamlakatlari taraqqiyotini ta'minlamoqda. Oxirgi yillarda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya ham turli dastur va grantlar bilan jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlardan iste'dodli yoshlarni chaqirib olishmoqda. Bular safida O'zbekistonlik yoshlar ham bor. Ayni kunda biz ham rivojlangan mamlakatlar universitetlarida va ilmiy-tekshirish muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonlik iste'dodli yoshlarni mamlakatimizga taklif qilsak yaxshi bo'lardi. Ular o'z Vataniga kelib, mamlakatimizda ilm-fan, yangi texnika, texnologiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligiga va boshqa sohalar rivojiga hissa qo'shadigan vaqti keldi. O'ylaymanki, ushbu sa'y-harakatlar jonajon O'zbekistonimizning juda ko'p sohalarda jadallik bilan olg'a siljishiga, pirovardida, yurtimiz ravnaqiga va xalqimiz farovonligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'limdagi to'rt muammo. <http://murabbiy.blogspot.com/p/talimdagi-tort-muammo.html>
2. O'zbekistonda ta'lim islohotlari. <https://www.econferences.ru>
3. Maktabgacha ta'limni boshqarish. <https://elibrary.namdu.uz>
4. Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/acts/-3171590>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV OTIVATSIYASINI OSHIRISH YO'LLARI

O'razova Gulnoza Toshpo'latovna

Sirdaryo viloyat Sardoba tumani 14-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich o'quvchilarida o'qishga qiziqishni susayish sabablari ko'rsatilgan holda o'quvchilarning o'qishga qiziqituvchi motivatsiyalar va ularni amalga oshirishdagi o'qituvchi, ota-ona, jamoatchilik hamkorligi hamda o'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'quv motivatsiyalari, hamkorlik, pedagogik mahorat, do'stona munosabat.

“Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak”, deb o'qituvchiga ehtirom va hurmatda bo'lish lozimligini ta'kidlaydilar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Shuni e'tiborga olgan holda o'qituvchilar jamoasi ham o'z ishlariga munosib javob bera oladigan, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqish va intilishlarini har doim qo'llab-quvvatlagan holda motivatsiyalar berib, ishonch bildirib, rag'batlantirib borishlari zarur.

O'quv motivatsiyasi - o'quvchilarning yutuqlariga, ularning o'z-o'zini baholashiga, ularning rivoji va o'zlashtirishiga, natijada esa umuman ta'limning sifatiga ta'sir qiladi. Bolalarning yosh xususiyatiga qarab ulardagi o'qishga bo'lgan qiziqish kuchayishi yoki susayishi mumkin. Bolada o'qishga qiziqish yo'qolishining sabablari deb quyidagilar e'tiborga olinadi:

- O'quv materialini o'zlashtirish qiyinligi. Masalan: kasr ustida ishlashdagi qiyinchiliklar.

- Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, yani xato bajarib yomon baho olaman degan qo'rquv.

- O'qishdan ongli ravishda bosh tortish, o'qishni istamaslik.

- Oilada motivatsiya yo'qligi, yani oila a'zolarini bolani erishgan yutuqlarini rag'batlantirilmasligi, bee'tiborlilik.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini qanday oshirishlari mumkin:

- erkinlik berish;
- individual va differensial yondashuv kerak;
- o'quvchining yutuqlarini e'tirof etish;
- muvaffaqiyatsizliklar uchun jazolamaslik. Muvaffaqiyatsizlikning o'zi bir jazodir.
- o'qitishning usul va yo'llarini o'zgartirib, almashtirib turish;
- imkon qadar darsda har bir o'quvchiga tez-tez murojaat qilishga intilish;
- doimiy va maqsadli ravishda anglash qobiliyatini rivojlantirish sifatlarini— bolaning reaksiyasi, xotirasi, diqqati va tasavvurini (xayolotini) o'stirib borish;
- darsni qiziqarli olib borish, axborotni yetkazib berishning qiziqarli usullarini qo'llash, o'z fanini qiziqarli tashkil qilish;
- bolani atrofda hayotga qiziqtirishning eng qudratli vositasi—bu o'yin. O'yin orqali motivatsiyalash o'rta maktab yoshida eng samarali bo'ladi.
- darsda do'stona, ishonch va hamjihatlikka asoslangan muhit yaratish orqali, o'qituvchining yorqin va emotsional nutqi orqali ijobiy emotsional kayfiyat hosil qilish;
- o'quvchining o'z-o'zini va boshqalarni baholashi, faoliyat natijasini baholash, ko'p variantli (masalan, "Bu mashq nima uchun qiyin bo'ldi?", "Bu darsda nimani bildik, nimani o'rgandik?" va hokazo) savollar orqali refleksiya erishish. muammolarni, ziddiyatlarni birgalikda hal qilish, evristik suhbat, o'quv munozaralari, jismlarning muhim belgilarini ajratish, tasniflash, umumlashtirish va modellashtirish orqali darsda hamkorlikka erishish;
- baholar qo'yish, tashakkur aytish, og'zaki rag'batlantirish, eng yaxshi ishlar ko'rgazmasini tashkil qilish, o'qituvchi tomonidan kichik yordam ko'rsatish, vazifalarni murakkablashtirish orqali o'quvchilarning faoliyatini rag'batlantirish;
- entuziazm, optimizm muhitini yaratish, bolaning o'z qobiliyat va imkoniyatlariga ishonchini oshirish;
- yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- har bir bolaning shaxsiyatini hurmat qilish.

Yuqorida ta'kidlangan jarayonlarni amalga oshirishda o'qituvchilar, ota-ona, jamoatchilik hamkorligi bolaning o'qishga qiziqishini orttiruvchi motivlarni oilada, maktabda va maktabdan tashqari jarayonlarda bir xilligiga erishish muhim omillardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023.
3. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. -T.:YUNISEF, 2005.

SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA YOZUVGA O'RGATISH

Elmuratova Karomat Kuldashevna

Sirdaryo viloyat Mirzaobod tumanidagi 30-umumiy o'rta ta'limi
maktabining boshlang'ich sinf o'ituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish jarayonida yozuv darslarida egallanadigan ko'nikmalar, 1-sinfda yozuv malakasini shakllantirish usullari, yozuvga o'rgatishda XXI asr ko'nikmalarni singdirish yo'nalishlari misollarda ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, savod o'rgatish, yozuv, XXI asr ko'nikmalar, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023–2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'iga ko'ra umumiy o'rta ta'limning 1–4-sinflari uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etildi. Unga ko'ra yozuv darslarini tashkil etishga ham yangiliklar kiritildi.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

Yozuv darslarida egallanadigan ko'nikmalar:

1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish.

2. Ish daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha katta va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish, bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

3. Tahlil qilingan so'z va ikki-uch so'zli gaplarni o'qituvchi yordamida yozish.

4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni ko'chirib yozish va eshitib yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izohlab o'qish bilan tekshirish.

5. Og'zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

Bugungi kunda darslarda yozuv malakasini shakllantirish usullari bilan bir qatorda XXI asr ko'nikmalarini kichik maktab yoshidan boshlab o'quvchilarga o'rgatib borish muhimdir

1. Ijodiy yondashuv va novatorlik.

2. Tanqidiy fikrlash hamda muammolarni hal qila olish qobiliyati.

3. Kommunikabellik(chiqishuvchanlik) va hamkorlik.

4. Egiluvchanlik va moslashuvchanlik qobiliyati.

5. Tashabbuskorlik va mustaqillik.

6. Peshqadamlik va mas'uliyatlilik.

7 Ommaviy axborot va texnologiyalarga tegishli ko'nikmalar.



1-sinfda yozuv malakasini shakllantirish usullari

1. Namunaga qarab yozish usuli.

Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatib berilishi lozim. o'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarini (harf, bo'g'in, so'zlar) o'z daftarlariga to'g'ri aks ettirishdir.

2. Namunaga qarab ko'chirib yozish usuli.

O'quvchilar, asosan, harflarning shaklini «Husnixat» kitobidagi yoki «Yozuv daftari»dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar.

3. Nusxa ko'chirish usuli.

Bu usulni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin.

4. Tasavvur orqali yozish usuli.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda, tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. o'qituvchi doskada yozib ko'rsatgan harf yoki bog'lanishlarni o'quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkaning havoda harakatini ko'rsatib, o'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozishga ruxsat etiladi.

5. Harflarning shaklini tahlil qilish usuli.

Harflarni unsurlariga ajratib tahlil qilish, har bir harfning necha unsurdan tuzilganligini, har bir unsur qanday shaklga ega ekanligini, bu unsurlar boshqa harflar bilan bog'lanishda qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasavvur etadilar.

6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli.

Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin.

7. Sanoq-ohang usuli.

Bu usuldan foydalanishda o'qituvchi harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi.

8. Xatolar ustida ishlash usuli.

Bu usulni qo'llashdan maqsad har bir o'quvchini o'z xatosini mustaqil topa olishga va uni tuzatishga o'rgatishdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to'g'ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va imloviy qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi. Yozish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug'i.

2. Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023.

3. Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.

URUG'LIK CHIGITLARNI QAYTA ISHLASH UCHUN LARNING XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Abdullayev Abrorjon Abduxamid o'g'li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Maqolada paxta tozalash korxonalarida urug'lik chigitni qayta ishlash jarayonida qo'llaniladigan urug'lik chigitlarni saralash qurilmasi konstruktsiyasi takomillashtirish bo'yicha ish olib borilgan. Urug'lik va texnik chigitni saralashda qo'llaniladigan chigit saralash qurilmasi takomillashtirishdan maqsad chigitni tarkibidagi xar xil mayda iflosliklar, puch va singan chigitlarni ajratib olib, chang havo bilan birga qo'shib ketishini olishdan iborat.

Kalit so'zlar. Paxta, paxta chigitlari, urug'lik chigitlar, mexanika, massa, saralash, xususiyat, tadqiqot

Qishloq xo'jaligida paxta vegetatsiyasining o'ziga xos tarafi, hatto bir turdagi urug'lar ham chanoqlarda joylashuvlariga qarab rivojlanishida bir-biridan farqlanadi. Bundan tashqari ularning chanoqlardagi joylashuvi ham o'ziga xos ta'sirga ega. Bizga ma'lumki, urug'lar kelgusi hosilning sifat va miqdori zaminidir. SHunday ekan, paxta xom ashyosi urug'larini qayta ishlash jarayonida ekishga mo'ljallangan materialni yaratilishi obhektiv mavjud qonunlarga bo'ysunadi, ya'ni urug' fiziologik yetilish darajasi, zichligi va vazni bo'yicha bir xil emasligi tufayli paxtaning o'sishi va kelgusi hosildorlik darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Urug'lik chigitlarning ana shu xususiyatlari

unib chiqadigan urug'larning umumiy energiya ko'rsatkichiga va unib chiqish tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada paxtani pishish muddati kechikib qoladi yoki notekis rivojlanib hosildorlikka salbiy ta'sir etadi.

Paxta chigitining fizik xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga uning geometrik o'lchamlari, vazni, tukdorlik darajasi, mustahkamligi, po'stlog'ining holati, ishqalanish koeffitsienti va boshqa xususiyatlari kiradi.

Paxta chigitlarini ekishda ularga qo'yiladigan talablarni 3 xil guruhga ajratish mumkin:

- urug'ning bevosita o'ziga tegishli sifat ko'rsatkichlari (hosildorlik, olingan mahsulot sifati, vegetatsiya davri).

- mexanik yo'l bilan ekishga qo'yiladigan talablar (tuklilik darajasi, ifloslanish)

- kelgusida ekishga mo'ljallangan urug'larni saqlashga bo'lgan talab (namlik, ombor zararkunandalari bilan zararlanganligi).

Ekishga mo'ljallangan chigitlarning ko'plab sifat ko'rsatkichlari, instrumental baholash va mehyoriy chegaralash imkoniyatlari mavjud (tuklilik darajasi, namligi, mexanik shikastlanganligi va boshqalar). Ammo urug'lik chigitlarning sifat ko'rsatkichlarini hozirgi davrgacha bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar yordamida aniqlashga harakat qilinadi. Ko'pchilik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu parametrlar hosildorlikka, olinadigan mahsulot sifatiga va boshqalarga ta'sir qiladi. Ularga laboratoriyadagi unib chiqish energiyasi, urug'ning yadro qismining to'laligi, zichligi, geometrik parametrlari va boshqalarni kiritish mumkin. Bundan tashqari paxta tozalash korxonalarida dastlabki ishlov berish sharoitlarida sifatga nisbatan maxsus talablar mavjud. Urug'lik chigit massasi, sifatini belgilovchi omillarga urug' hajmi, sochilish darajasi, ichki ishqalanish koeffitsienti va boshqalarni aytish mumkin. paxta chigitining asosiy fizik-mexanik xususiyatlarini V.G.Rakipov [1], A.Tursunov [2], R.K.Djamalov [3], X.T.Axmedxodjaev [4], G.M.Rudakov [5] va boshqa olimlar o'z ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha o'rganib chiqishgan.

Urug'likka mo'ljallangan paxta xom ashyosi quritish barabanlarida, mayda va yirik iflosliklardan tozalashda, tolani chigitdan ajratishda hamda lintni chigitdan ajratish jarayonida mashina ishchi organlari tomonidan shikastlanadi va ularga qo'shilgan iflos aralashmalar chigitlarning sifat ko'rsatkichlarini pasaytirib yuboradi, buning oqibatida urug'larning umumiy massasida butun va zaif chigitlar mavjud bo'lib, turli xil kattalikdagi ifloslanishga ega bo'ladi. Urug'lik chigitlarni fraktsiya bo'yicha ajratish maqsadida hamda umumiy massadan iflosliklarni ajratish uchun separator moslamalari qo'llaniladi va unda turli tozalash tamoyillari o'rnatilgan bo'ladi. Ustidagi momiqdan xalos bo'lgan paxta chigiti umumiy xolda assimetrik nok shakliga ega bo'ladi. Yalang'ochlangan chigitlarni navlarga ajratishda asosan geometrik parametrlar aniqlanadi: yo'g'onligi, kengligi, uzunligi bo'yicha ulardagi tuklarning mavjudligi navlarga ajratishni qiyinlashadi. SHuning uchun tuki bor chigitlarni navlarga ajratishda pnevmomexanik moslamalardan xosil bo'ladigan turli

harakat yo'nalishiga ega bo'lgan havo oqimi yordamida amalga oshiriladi (gorizontal, qiya, vertikal) [6-7]. Bugungi kundagi urug'lik chigitlarni fraktsiyalarga ajratishdagi moslamalar urug'larni saralashda ko'proq ularning aerodinamik xususiyatlariga tayanadi.

Chigitlarning massasi, geometrik o'lchamlari, yetilganlik darajasi va tukliligi ma'lum bir tezlikda turli traektoriya bo'yicha aniq yo'nalishga qarab harakat qiladi va fraktsiyalar bo'yicha navlarga ajratiladi. Chigitlarning aerodinamik xususiyatlari zamonaviy tozalovchi mashinalarning ko'pchiligida urug'lik materiallarini separatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi, ularga so'ruvchi va haydovchi ventilyatorlar o'rnatiladi. Havoning harakatini va sarfining o'timal rejimini to'g'rilash urug' aralashmasini saralashni yengillashtiradi. Havo oqimidagi urug'larning harakati nafaqat ularning aerodinamik xususiyatlaridan ya'ni joylashuvi, shakli va urug'ning ustki qismidagi havo oqimining yo'nalishi va harakatlaridan balki bir vaqtning o'zida oqimdagi chigitlar miqdoriga ham bog'liq. Bundan mavjud urug'lik chigitlarni saralashda turlicha mashinalarni ishlashini chuqurroq o'rganish zaruriyati paydo bo'ladi. Urug'lik chigitlarni navlarga ajratish zarurati tasniflash sxemasini ishlab chiqish, ularni xususiyatlarini inobatga olgan holda navlarga ajratishning eng yaxshi usullarini to'ishga yordam beradi.

Ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilishda urug'lik chigitlarni ajratishda ularga bo'lgan asosiy talablar ekiladigan chigitlarga nisbatan to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ularni sifatini yaxshilanishiga va irovard natijada yuqori hosil olishga imkon beradi.

Mavjud urug'likni tartibga soluvchilarni batafsilroq o'rganish uchun va saralash usullarini yaxshilash uchun mashinalarni tasniflash hamda ekishga mo'ljallangan urug'larni farqlash va tartiblash usullari ishlab chiqilgan (1-jadval).

Ma'lumki ajratish jarayoni uch usulga bo'linadi:

- Havo oqimi yordamida ajratish;
- Mexanik moslamalarda ajratish;
- Material yuzasining turli xossalari bo'yicha ajratish.

Chigitli aralashmani uning aerodinamik xususiyatlari bo'yicha ajratish havo oqimi yordamida amalga oshiriladi. Bunda havo oqimi yetarlicha bir tekisda hamda o'zgarmas bo'lishi shart. Chigitli aralashma esa oqimga bir tekisda va uzluksiz ingichka qatlamda qo'shilishi kerak bo'ladi. Amaliyotda vertikal va qiya havo oqimi yordamida ajratuvchi qurilmalar qo'llaniladi. Yengilroq yoki uchuvchanlik xususiyati yuqoriroq fraktsiyalar havo oqimiga qo'shib (vertikal havo oqimida) yuqoriga yo'naladi. Kamroq uchuvchanlikka ega bo'lgan fraktsiyalarga qaraganda kattaroq masofaga uloqtiriladi. Xuddi shu usul so'ruvchi havo oqimida ham qo'llaniladi.

1-jadval

Ekishga mo'ljallangan paxta chigitlarini tozalash va saralash usullari
bo'yicha mashinalarni tasniflash

Urug' parametri	Geometrik o'lchov	Po'stinin g holati	Zichligi	Uchish tezliginin g tuklilikka bog'liqligi	Yadronin g to'lalik darajasi	Dielektrik xususiyatlari
Ishchi organlar	1. Titrovchi to'r 2. Tebranuvchi to'r 3. TSilindrik to'r 4. Dumaloq chuqurchalar	Vibratsiyaga ta'sirlanuvchi devorlar	Havo oqimi, suyuqlik	Havo oqimi, mexanik	Umumiy rentgenografik, rentgenoska'iya	Miltillama razryad Elektrostatik Triboelektrik maydon
Mashinalarda aks etishi	1. KSM 2. KSM 1-1,5 3. Barabanli UCHK 4. Tirier	Pnevmo saralash usuli Gorizontal SPS Vertikal saralash	Qiya SS-L G Kamera li baraban	Tokchasi mon transportyor	Rele ko'rinishdagi doirasimon YeCHS	Doirasimon transportyor

Barcha urug'lik chigitlarning saralash usullari asosida ularning u yoki bu fizik-mexanik xususiyatlari inobatga olinadi.

Xulosa. Paxtaning tukli chigitlarini geometrik shakli bo'yicha saralash to'r yordamida amalga oshiriladi va bu yerda holatni to'g'ri baholashga chigit ustidagi tuk halaqit beradi va urug'ning haqiqiy katta-kichikligini baholashga imkon bermaydi. Bundan tashqari chigitlar bir-biriga birikib ketadi. Hatto ularning keskin tebrantirilsa ham fraktsiyalarga samarali darajada ajralmaydi. Chigitlarning kattaligi bo'yicha ajratishda 3 o'lchov asos qilib olingan (koordinata bo'yicha: uzunlik, kenglik va qalinlik darajasi) hamda turli ko'rinishdagi to'rli yuzalar mavjud: yassi tsilindrik, jalyuzi ko'rinishida va hokazo. Bundan tashqari chigitlarni tozalash va saralashda og'ir tebranuvchi elaklar ishlatiladi. Ularning ishlatilishiga sabab urug' massasidan mayda, ham nimjonlari ajratib olinadi va iflos qo'shimchalar ham ular bilan chiqib ketadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rakipov V.G., Djamolov R.K. "CHSA agregatining pnevmatik saralagichini takomillashtirish". № 050902 Ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha yakuniy hisobot, "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, 2006 y.-40 v.

2. Tursunov A. va boshqalar. "Движения хлопковых семян под действиям горизонтального воздушного потока". Тез.докл. межд. науч. конф. «Проблемы текстильной промышленности», 2002, стр. 22-23..
3. Джамолов Р.К. "Изучение равномерности высева семян хлопчатника прошедших сортирование на триере, аппаратами точного сева" // Сельское хозяйства Узбекистана №3, Ташкент, 2000 г. -2стр.
4. Ахмедходжаев Х.Т., Турсунов А. «Пневматический сортировщик хлопковых семян» Хлопководство и зерноводство. Республиканский научно технический журнал, 2000, №2. стр.30-32.
5. Рудаков Г.М. "Технологические основы механизации сева хлопчатника" Ташкент изд. Фан 1974 г.-284 стр.
6. Obidov Avazbek Azamatovich, Abdullayev Abror Abdulkhamid Ugli. Theoretical Justification of the Efficient Operation of the Seed Sorting Device. Engineering, 2023, 15, 720-728. <https://www.scirp.org/journal/eng>
7. Obidov A., Abdullaev A. Urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. To'qimachilik va yengil sanoatda ilmhajmdor innovatsion texnologiyalar va dolzarb muammolar yechimi xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani maqolalari to'plami. 1-tom, 26-27 aprel 2023, 46-50 b.

URUG'LIK CHIGITLARNI SARALASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Abrorjon Abduxamid o'g'li, Obidov Avabek Azamatovich
Namangan muhandislik-texnologiya institute

Annotatsiya: *Maqolada paxta tozalash korxonalarida urug'lik chigitni qayta ishlash jarayonida qo'llaniladigan urug'lik chigitlarni saralash qurilmasi konstruktsiyasi takomillashtirish bo'yicha ish olib borilgan. Urug'lik va texnik chigitni saralashda qo'llaniladigan chigit saralash qurilmasi takomillashtirishdan maqsad chigitni tarkibidagi xar xil mayda iflosliklar, puch va singan chigitlarni ajratib olib, chang havo bilan birga qo'shib ketishini olishdan iborat.*

Kalit so'zlar. *Paxta, paxta chigitlari, urug'lik chigitlar, mexanika, massa, saralash, xususiyat, tadqiqot*

Urug'lik paxta chigitlarini tozalash, navlarni ajratish va saralash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: Tashish paytida chigitlar yuklash kovshiga tushadi, u erdan jarayon ta'minlovchi valik yordamida chigit bilan ta'minlanadi. Shuni hisobga olish kerakki, agregatning ishchi qismlarining butun kengligi bo'ylab urug'lik materialining bir mehyorda taqsimlanishini ta'minlash uchun yuklash kovshini yarmiga to'ldirish va material qayta ishlash uchun uni uzatishini tushiruvchi va nazorat qiluvchi zaslonkalar yordamida nazorat qilib turish kerak.

Dastlabki, shuningdek, asosiy pnevmatik separatorning panjarasiga tushadigan chigitlarga mayda aralashmalarini olib ketuvchi havo oqimi ta'sir qiladi. Chiqindilarni chiqarish tebranuvchi zaslonkalar va chiqish quvuri orqali amalga oshiriladi. Chiqarib yuborilgan iflos aralashmalar massasi havo oqimi bilan tartibga solinadi, ya'ni dastlabki va asosiy pnevmatik separatorning sozlash zaslonkalari va ventilyator validagi almashtiriladigan shkivlar yordamida amalga oshiriladi.

Jihozning ish rejimida trier blokidan foydalanib, asosiy havo ajratilgandan so'ng, chigitlar uzunligi bo'yicha saralanadi. Trier bloki quyidagicha ulanadi:

- trier barabanlarning uzatma vali muftasi ishchi holatga olib kelinadi va gayka yordamida qotiriladi.

- trier blokining chiqish lotogi tutqichi ekstsentrik bilan panjarali stan uzatma valida shatun yordamida birlashtiriladi.

- ramali stanina va trier bloki o'rtasida tushuvchi lotok o'rnatiladi.

- to'suvchi shit yo'iq holatga keltiriladi.

Shunday qilib, skrining barabani ichiga kirgan chigitlar "triering", ya'ni chigitlarning umumiy massasidan qisqa va uzun fraktsiyalarni saralash amalga oshiriladi. Ayni paytda ko'plab paxta tozalash korxonalari chigit tozalash tsexlarida K-531 rusumli mashinalar ishlayotqanda.

Yuza kesimi aylana shaklidagi pnevmatik chigit saralash agregatini tajribalarida urug'lik va texnik fraktsiyalar chiqishini rostdash, uning aerodinamik rejimlarini va bo'lish kamera balandligini o'zgartirish bilan bajarilgan [1-3]. Keyingi izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, har xil fizikmexanik xususiyatlarga ega bo'lgan chigitlarni saralashda ishchi kameraning balandligi bo'yicha saralash pog'onasining tezlikka nisbatan o'zgartirilishi maqsadga muvofiq ekan, lekin pnevmosaralagichning aylana shakli yuzasida bu xolatni bajarish mumkin emas.

Paxta tozalash korxonalari chigit tsexlarida ishlatib kelinadigan yana bir agregat bu - USM-A pnevmomexanik tozalash va saralash agregati hisoblanadi [4-6]. pnevmomexanik chigit tozalovchi qurilmasining ishlash tamoyili, markazdan qochma ventilyatorlar hosil qilgan havo oqimi bilan so'rish orqali chigitlarni chiqindilar va boshqa fraktsiyalarga ajratish ular tezligining farqlanishiga asoslangan [7].

Paxta chigitlarini birlamchi holatlariga bog'liq holda bu qurilma orqali ajratilgan chiqindilar massasi chigitlarni birlamchi massasini 0,1-0,2% ni tashkil etadi. Chiqindilardagi chigitlarni (butun, singan) va tolali materialning miqdori, mos ravishda, 18,5-19,6 va 11,8-55,4 % ni tashkil etadi. pnevmomexanik chigit tozalagichning asosiy kamchiligi – mayda chiqindilar bo'yicha tozalash samaradorligini pastligi – bor yo'g'i 20-25%, hamda nisbatan katta quvvat (12,85 kVt) talab qilishi va qurilmani aerodinamik ish tartibini muntazam sozlab turilishi zarurligi. Bunday kamchiliklar paxta tozalash sanoati talablarini umuman qondirmaydi.

Moslamani tayyorlash oson, ishlashi ishonchli, ammo USM-A urug'

tozalovchi texnologik liniya bilan birga ishlatilishida ortiqcha energiya hamda metall harajatlariga olib keladi.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, bugungi kundagi urug'likka mo'ljallangan paxta chigitini fraktsiyalarga ajratish texnika va texnologiyasi u yoki bu kamchiliklarga ega bo'lib, samarali ishlaydigan mashinalarning mavjud emasligi mukammal tadqiqotlar o'tkazishni talab qilmoqda. Bundan tashqari ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishini maxalliy mashina va agregatlarni takomillashtirishga qaratish orqali umumiy tannarxni pasaytirishni ham inobatga olish lozim bo'ladi.

Xulosa. Chigit saralash va tozalash agregatlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar natijalari o'rganildi va tahlil natijalari agregatning saralash samaradorligini oshirish bo'yicha izlanishlar olib borilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishi maqsad va vazifalari belgilab olindi. Saralash agregatlarining ishlashi bo'yicha o'tkazilgan tahlillarda agregatning ish unumdorligi 2600 kg/soatga yetganda urug'lik chigit texnik chigitga o'tib ketish ehtimoli ortganligi va ish unumdorligi 2800-3200 kg/soatga yetganda texnik chigit fraktsiyasi chiqishi 25-30%gacha ko'payishi ko'rildi. Shu asosida korxonada ishlab turgan mavjud saralash qurilmasini yuqori ish unumdorligida ishlatish uchun uni takomillashtirish kerakligi aniqlandi.

Ilmiy izlanishlar va tajribalar o'tkazish orqali korxonada mavjud bo'lgan USM agregatini takomillashtirib, yuqori ish unumdorlikda sifatli ishlashini ta'minlovchi sxemasini ishlab chiqish hamda takomillashtirilgan USM agregatini amalda ishlayotgan agregat bilan solishtirish sinovlari o'tkazilishi zarur degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rakipov V.G., Djamolov R.K. "CHSA agregatining pnevmatik saralagichini takomillashtirish". № 050902 Ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha yakuniy hisobot, "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, 2006 y.-40 v.
2. Tursunov A. va boshqalar.. "Движения хлопковых семян под действиям горизонтального воздушного потока". Тез.докл. межд. науч. конф. «Проблемы текстильной промышленности», 2002, стр. 22-23..
3. Джамолов Р.К. "Изучение равномерности высева семян хлопчатника прошедших сортирование на триере, аппаратами точного сева" // Сельское хозяйства Узбекистана №3, Ташкент, 2000 г. -2стр.
4. Ахмедходжаев Х.Т., Турсунов А. «Пневматический сортировщик хлопковых семян» Хлопководство и зерноводство. Республиканский научно технический журнал, 2000, №2. стр.30-32.
5. Рудаков Г.М. "Технологические основы механизации сева хлопчатника" Ташкент изд. Фан 1974 г.-284 стр.

6. Obidov Avazbek Azamatovich, Abdullayev Abror Abdulkhamid Ugli. Theoretical Justification of the Efficient Operation of the Seed Sorting Device. Engineering, 2023, 15, 720-728. <https://www.scirp.org/journal/eng>

7. Obidov A., Abdullaev A. Urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. To'qimachilik va yengil sanoatda ilmhajmdor innovatsion texnologiyalar va dolzarb muammolar yechimi xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani maqolalari to'plami. 1-tom, 26-27 aprel 2023, 46-50 b.

MAVZU. BO'LAJAK OQITUVCHILARNIG O'QUV VA KOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV VAZIFALARINING O'RNI.

Raxmanova Maxsuda Usmanovna

O'zbekiston-Finladiya pedagogika institute Pedagogika va gumanitar fanlar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mustaqil ish jarayonida talabalarni bilim qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etish jarayonida asosiy omillardan biri bo'lib, bizning tadqiqotimizda yangi bilimlarni olish uchun maqsadli va tizimli faoliyat bo'lib, auditoriyada va auditoriyadan tashqarida amalga oshirilishi mazmuni mazmunini ochib.

Аннотация: Развитие познавательных способностей студентов в процессе самостоятельной работы является одним из основных факторов в процессе организации учебного процесса в высшей школе.

Abstract: The development of students' cognitive abilities in the process of independent work is one of the main factors in the process of organizing the educational process in higher education.

Tayanch iboralar. Professional, strukturaviy, kognitiv, didaktik, algoritm, kompetensiya, invariant, variantli, manzilli.

Основные слова. Профессиональный, структурный, когнитивный, дидактический, алгоритмический, компетентностный, инвариантный, вариантный, адресный.

Key words: Professional, structural, cognitive, didactic, algorithmic, competence-based, invariant, variant, targeted.

Bo'lajak o'qituvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlari uchun o'quv vazifalari mazmunini ishlab chiqish va amalga oshirish, birinchi navbatda, kognitiv tajribani oshirishga qaratilgan bo'lib, u faqat ma'lumot hajmini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsiy va professional o'z-o'zini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Shu munosabat bilan biz o'quv vazifalarining mustaqil ish jarayonida uch yo'nalishga ajratamiz: o'zgarmas, o'zgaruvchan, maqsadli.

Ularning strukturaviy va mazmuni didaktik, nazariy yondashuvlari bilan belgilangan ta'rifidan foydalanadi va "o'quv vazifasi"ni "o'qituvchining ko'rsatmasi" bo'yicha talabalar tomonidan bajariladigan mazmuni va hajmi jihatidan xilma-xil mustaqil o'quv ishlari turlari, ta'lim jarayoni va uni faollashtirishning muhim vositasi o'quv mashg'ulotlarining ajralmas qismi sifatida qaraymiz.

Bu fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta'lim vazifasi ikki tomonlama ko'rib chiqiladi. Bir tomondan, o'quv vazifasi aniq o'quv maqsadi bilan bog'liq va uni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'quv vazifasi talabalarga qaratilgan eng konsentratsiyalangan o'quv maqsadidir. Boshqa tomondan, ta'lim vazifasi ta'lim mazmunini amalga oshirish shaklidir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim vazifasi ma'lum bir shaklda ishlangan, assimilyatsiya qilinadigan ta'lim mazmuni (o'quv materiallari) qismidir. O'quv materiallari bilan jihozlanishi mumkin bo'lgan shakllar ta'lim topshiriqlarining turlari hisoblanadi. O'quv materiallari bilan jihozlanishi mumkin bo'lgan shakllar ta'lim topshiriqlarining turlari hisoblanadi.

Haqiqiy ta'lim jarayonida o'quv vazifasi bir vaqtning o'zida ikkala funksiyani ham bajaradi: talabalarga o'quv topshirig'ini bajarishni taklif qilish orqali o'qituvchi nafaqat o'rganishning ma'lum bir maqsadini amalga oshiradi, balki o'quvchiga ular o'rganishi kerak bo'lgan o'quv materialini taklif qiladi. O'quv vazifasi o'quv jarayonida o'quv materialidan samarali foydalanish vositasi ekanligini ham alohida ta'kidlaymiz. Bizning tadqiqotimizda didaktik maqsadlarga qarab ma'lum o'quv vazifalari (o'zgarmas, o'zgaruvchan, maqsadli) qo'llaniladi.

O'zgarmas ta'lim vazifalari - mustaqil ishni bajarish jarayonida dars mavzusini o'rganish uchun standart talablar bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Invariant topshiriqlar o'quvchilarga ularning ma'lum bir fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini hisobga olgan holda taqdim etiladi.

O'zgaruvchan o'quv vazifalari - bu bo'lajak o'qituvchilarga mustaqil ishni bajarish jarayonida vazifalarning mohiyatini, harakat darajasini va usulini, qiziqish mavzusini tanlash huquqini beradigan va muammoni optimal hal qilish variantlarini topishga qaratilgan vazifalardir.

Maqsadli tashkil etilgan mustaqil ish bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro bog'liq qadriyatlar va motivlar, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar yig'indisida mujassamlangan o'quv va kognitiv kompetensiyasini yetarli darajada shakllantirish uchun asosiy talabni amalga oshirishni nazarda tutadi, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv va kognitiv faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fan modullarni uzlashtirishda xizmat qiladi.

Ushbu turdagi vazifalarning ahamiyati shundaki, ular mavzusini tanlash huquqini beradigan va muammoni optimal hal qilish variantlarini topishga qaratilgan vazifalardir. Ular bo'lajak o'qituvchilarga yaratilgan vaziyatlarda

erkin, mustaqil va ijodiy harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan potentsial imkoniyatlarini tekshirish va amalga oshirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlarning egallanishi bilan birga, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning shakllantirilishi ham nazarda tutiladi. Bu amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda 5 ta mustaqil ish turi sifatida amalga oshirilishi mumkin. Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *birinchi turi* – bu faoliyat algoritmi ma'lumotlari va vazifalari sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki (birinchi bosqich) o'quv va kognitiv bilimlarni shakllantirish omillari asosida tinglovchilarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni va qobiliyatlarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun bo'lajak o'qituvchilar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni bajarish va amalda qullash zarurligi ko'zda tutiladi. Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *ikkinchi turi* – bu faoliyat algoritmidagi ma'lumotlarni va vazifalarni bajarish sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki (ikkinchi bosqich) o'quv va kognitiv bilimlarni shakllantirish omillari asosida tinglovchilarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun bo'lajak o'qituvchilar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni bajarish va uni amaliyotga tadbiiq etish zarurligi ko'zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *uchinchi turi* – bunda o'quv va kognitiv o'zlashtirilgan axborotlarni xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning uchunchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi. Mustaqil ishlarning uchunchi turi umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarni hal qilish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi, talabalardan ushbu g'oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiiq etish usul va uslublari talab qilinadi. Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi turi- talabalarda to'rtinchi bosqich, ya'ni tipik bo'lmagan vazifalarni bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir. Bu maqsadga Bo'lajak o'qituvchilardan o'rganilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlar sabablari algoritmi asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *beshinchi turi* – ijodiy faoliyat omillarini yaratishdir. Bunday ishlarni bajarishda bo'lajak o'qituvchilarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan ob'ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi munosabatlarni amalga oshiradi. Bunda bo'lajak o'qituvchilar vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, yangi hatti-harakatlar mohiyatini belgilovchi vazifalar va axborotlar ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Закирова, С. К. Учебное задание как дидактическое средство проблемного обучения: на материале преподавания иностранного языка:

диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук / Закирова Сания Кагировна. – Москва, 2007. – 221 с.

2. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc). ...diss. – Toshkent, 2019. – 225 b.

2.Хуторской, А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования / А. В. Хуторской. / Народное образование. – 2003. – № 2. – С.58-64

ЭФФЕКТ КЛИПОВОГО МЫШЛЕНИЯ. МЫ СТАЛИ МЫСЛИТЬ ПО ДРУГОМУ.

Плиева Руслана Владимировна

- ст. преподаватель Гулистанского Государственного университета
кафедры «Методики начального образования»

Сираева Элина

студентка: III -курса группы : 54е-20

Аннотация: в статье рассматривается социальнопсихологический феномен “клиповое мышление”, его основные черты, проявляющиеся у современной молодёжи. Показано, что клиповое мышление вытесняет и замещает логическое мышление, к которому приспособлены традиционные процессы обучения, и оказывает существенное влияние на эффективность процесса обучения. Приводятся исторические аспекты возникновения в зарубежной литературе, даётся трактовка особенностей проявления в повседневной жизни, также затрагивается актуальный вопрос: "Надо ли бороться с клиповым мышлением?"

Annotation : the article deals with the socio-psychological phenomenon of “clip thinking”, its main features manifested in modern youth. It is shown that clip thinking displaces and replaces logical thinking, to which traditional learning processes are adapted, and has a significant impact on the effectiveness of the learning process. The historical aspect of its occurrence in foreign literature is given, the interpretation and features of its manifestation in everyday life are given, and the topical question is also touched upon: "Is it necessary to fight clip thinking?"

Сегодня все чаще можно встретить в научной литературе дискуссии о глобальных изменениях когнитивного стиля, поскольку мир, насыщенный электронными коммуникациями, формирует и новый тип восприятия.

Я, например, как представитель молодого поколения, знаю не по наслышке, как иногда можно сидеть и листать бесконечную ленту до утра. Многие из нас смотрят видео со скоростью 1,5x или даже 2x. Та же история с аудио записями. Большой текст на экране стал



Редактировать в WPS Office

пугать нас и мы его пропускаем. Когда в последний раз мы читали книги? Полностью, от начала и до конца. Уже после прочтения двух страниц становится скучно, а в процессе чтения люди постоянно отвлекаются. Хотя, ещё 10 лет назад, этих же людей от книги было не оторвать. Даже во время игр на компьютере для нас тянемся к телефону, чтобы забить своё внимание во время загрузки. А как вам просмотр двух часового фильма? Вы сидите без попытки залезть в смартфон? Даже создатели сериалов делают их более глупыми, чтобы большая часть аудитории могла их понять. Мы отказываемся от причинно-следственных цепочек и линейного повествования, которые представлены в книгах. Зрителям нужны чистые эмоции. Эти люди растут на TikTok и YouTube, прыгая с видео на видео.

Нам правда стало сложнее концентрироваться. Мы чаще прокрастинируем, стали более невнимательны и менее социальны. И всему этому есть объяснение : КЛИПОВОЕ МЫШЛЕНИЕ (сознание, восприятие). Впервые этот термин появился в философско-психологической литературе еще в конце 1990-х и обозначал особенность человека воспринимать мир посредством короткого, яркого посыла, воплощенного в форме видеоклипа либо теленовости (от англ. «clip» - «отсечение», «вырезка (из газеты)», «нарезка», «отрывок (из фильма)»). В клипе каждый отдельный кадр подобен мгновенно схватываемому «моментальному образу», при этом информация легко впечатывается в подсознание, проникая сквозь барьер осознанного восприятия. Тем самым клип задействует энергию бессознательной части психики человека и иррационального восприятия.

Процесс разделения мышления на «клички», «клипы», как отмечает Аксенов Л. Б., начался еще в XVIII в. с появлением первых газет, содержащих набор коротких, не связанных между собой текстов. В XX в. кинематограф привнес элемент визуализации, который накладывался на смысловую «клиповость». Распространение телевидения и, самое главное, вхождение в нашу жизнь компьютерных технологий и интернета, широко применяющих приемы «клиповой» эстетики, способствовали изменению человеческого сознания, которое и было зафиксировано в понятии «клиповое мышление».

В американской культуре термин Clip Culture начал активно упоминаться в 2006 году, когда появился YouTube. Один из



Редактировать в WPS Office

основателей этой платформы Чад Хёрли, в своей статье упоминал, что успех YouTube - это коротко срочное внимание у зрителей, ищущих мгновенное удовлетворение, в отличие от традиционного телевидения. Но приёмы "клипового монтажа" использовались ещё до появления TikTok и YouTube. В середине 80-х годов прошлого века их использовали в музыкальных и рекламных роликах. К концу 90-х такой стиль стал чаще появляться в кино и шоу. До 2016 года на проблему практически не обращали внимание, но именно в тот год появился TikTok, который задал тренд на короткие видео и быстрые эмоции. Многочасовые посиделки за телефоном, бесконечная лента, не прошли для нас бесследно.

Как считает Британский футуролог и специалист по исследованиям современных технологий Джеймс Мартин "Есть люди - книги и люди - экраны".

Содержание индивидуальной «модели мира» человека может быть представлено как совокупность имеющейся у него «агрегированной» информации (т. е. обобщенной путем ее уплотнения и исключения второстепенной) о мире, являющейся результатом предыдущих восприятий этого мира. Облегчение коммуникаций в результате применение информационных технологий позволяет человеку, не углубляя своего восприятия мира, создать новую информацию, просто обменявшись мнениями с другими людьми, либо получая из глобальных СМИ. Проще говоря, люди книги получают большую часть информации из книг и больших текстов. Они обладают более глубокой концентрацией внимания. Они мыслят строго и линейно. А вот люди экраны, получают поверхностную информацию через социальные сети. Они быстрее реагируют, но менее внимательны. Во время разговоров чаще перепрыгивают с темы на тему теряя суть повествования. Их мысли хаотичны, а информация поступает фрагментами.

Так в чем же проблема? Современные люди становятся зависимыми от гаджетов. Неконтролируемое их использование негативно влияет на психическое и физическое здоровье человека, его социальную жизнь. Почему так происходит? Наш мозг пластичен. Он постоянно адаптируется и меняется под внешними факторами. Развитие технологий и популярность социальных сетей сделало информацию доступнее, её получать стало проще, а объёмы этой информации, просто, колоссальны. На нас ежедневно вываливается



Редактировать в WPS Office

гигабайты новостей, видео, сообщений и при этом мы ещё живём свою жизнь. Поэтому наш мозг адаптировался и чтобы исключить "перегрева" или сказать проще, чтобы мы не сошли с ума, он собирает информацию поверхностно, без деталей. Ваш мозг не понимает важности информации. Это формирует такие уникальные формы восприятия, как «зеппинг» (англ. zapping, channel zapping - практика переключения каналов телевизора), когда путем безостановочного переключения каналов телевидения создается новый образ, состоящий из обрывков информации и осколков впечатлений. Этот образ не требует подключения воображения, рефлексии, осмысления, все время происходит «перезагрузка», «обновление» информации, когда всё первоначально увиденное без временного разрыва утрачивает свое значение, устаревают. В голове срабатывает защитный тумблер и вся информация превращается в один сплошной хаотичный поток. Просто понаблюдайте, когда в следующий раз будете скролить ленту. Попробуйте вспомнить о чем было видео три скролла назад. Скорее всего, вы забудете. Ваш мозг, просто, выкинет это из головы. Точно также он поступает со всей информацией, которая поступает в течение дня.

Как выяснили учёные Чикагского Университета при исследовании, что с соцсетями у нас дела обстоят на много хуже, чем с сигаретами и алкоголем - зависимость они вызывают более сильную. На первый взгляд зависимость от гаджетов кажется несопоставимой с наркоманией или курением, однако, как показывают научные исследования, в основе всех этих зависимостей лежит один и тот же механизм, связанный с синтезом «гормона удовольствия» - дофамина. Смотря короткие видео, слушая музыку, вы получаете быстрый дофамин в мозг. Насыщаясь им в течение дня появляется дофаминовый передоз. Снижается чувствительность к удовольствию. Тебя меньше радуют привычные вещи, вкусная еда, прогулки, даже игры запускать не хочется, а к вечеру становитесь более раздражительным. Переизбыток дофамина - это отдельная тема, но если сказать коротко, это то с чем сталкивается каждый современный человек, проживающий в городе. Излишний дофамин вызывает депрессию, апатию, скачки настроения в течение дня и множество других ментальных проблем.

Многие считают «клиповое мышление» исключительно негативным явлением, злом, с которым надо бороться, в том числе американский футуролог Э.Тоффлер. В США рассеянное внимание школьников лечат медикаментозно. В некоторых странах, где стали осознавать его опасность, разрабатываются специальные тренинги, где учат сосредотачивать внимание на одном предмете и удерживать состояние концентрации в течение длительного времени. Но наиболее доступный метод - это чтение (естественно, не клиповой литературы). И всяческое закрепление прочитанного - обсуждение, конспектирование и т.д., что способствует выработке умения анализировать, устанавливая связи между явлениями, и

в конечном итоге приводит к разрушению мозаичной, фрагментированной картины мира.

Сейчас, мне 20 лет, в детстве я читала книжки и интернет у меня в доступе появился уже примерно в 10 лет. Но и с его появлением я ещё пыталась понять что как устроено, привыкла погружаться в процесс, фокусироваться и выполнять что-то долго. Это уже в последние года 3 я столкнулась с клиповым мышлением и ощутила разницу на себе. А теперь представьте, вы родились в 2010 году, самого детства у вас в руках планшет, запущен детский YouTube и бесконечная лента. Мы, поколение Z, не знаем, как думать по другому. Клиповое мышление, вырабатывается у нас, как только появляется мышление. Эти дети гиперактивны, внимание очень сильно скачет, они в расфокусе всё время. Как правило, они не читают книги, даже не ведут соц.сети, редко выходят на улицу и им тяжело даётся школьная программа. Вот на этом моменте давайте сделаем акцент.

Традиционная школьная программа сделана для людей с линейным типом мышления. Детям скучно на уроках, они зевают, домашние задания даются с трудом, хотя они довольно не глупые. Они способны решать сложные задачи, но по своему. Современное образование от слова не современное совсем, оно не для тех, кто мыслит фрагментированно.

Преподаватели как высшей, так и средней школы обращают внимание на то, что утеряны навыки работы с текстами, что современная молодежь в своей массе все меньше читает. Также многие школьники и студенты плохо читают и, как следствие, часто не понимают смысла прочитанного. Кроме того, тесты, как форма обучения, отучают школьников думать. В итоге, приходя в вуз со школьной скамьи, студенты демонстрируют отсутствие навыка не



Редактировать в WPS Office

только чтения и понимания длинных линейных текстов, но и навыка говорения, удержания интереса и внимания в течение относительно продолжительного времени, отслеживания логической связи и причинно-следственных отношений, сохранения информации в памяти и воспроизведения логически построенного текста. Как следствие, многие студенты с трудом способны выражать свои мысли, обладают довольно ограниченным лексическим запасом, не понимают значения многих слов. Особенно бьют тревогу преподаватели научно-естественных дисциплин, таких как физика, химия, биология и география, которые направлены на установление причинно-следственных связей между различными объектами и явлениями, дают представление на уровне понятий, часто абстрактных, умозаключений, суждений, развивают словесно-логическую и образную память, воображение. Таким образом, клиповое мышление это современная реальность и с этим придется не только мириться, но и искать

пути адаптации к этому явлению, по возможности минимизировав его негативные проявления и последствия.

Перед педагогами средней и высшей школы стоит задача постепенно перестроить образовательный процесс с учетом новых реалий. Специалисты, работающие со школьниками и студентами, активно дискутируют о том, каким образом нужно преподавать учебный материал в изменившихся условиях, учитывая преобладание у молодого поколения клипового мышления и продолжающееся активное развитие информационнокоммуникационных технологий. В свою очередь, преподаватель также должен соответствовать новым потребностям средней и высшей школы. То есть преподаватели должны идти в ногу со временем и осваивать новые информационные технологии, иначе пропасть между ними и их учениками будет увеличиваться все больше и больше, только обостряя и усугубляя имеющиеся противоречия. Преподавателям важно постоянно находиться в процессе самообучения, осваивать новые технические разработки и методы преподавания, активно искать интересный материал для занятий, который бы не дублировал уже имеющийся материал в учебниках, а качественно дополнял бы его. Борьба с клиповым мышлением и призыв преподавателей к необходимости возвращения к мышлению понятийному не принесет положительных результатов, так как насильно переломить эту тенденцию вряд ли удастся. Но, несмотря на все трудности и



Редактировать в WPS Office

противоречия в отношении к этому явлению, есть решения, предлагаемые специалистами, которые позволят в какой-то мере управлять клиповым сознанием, а именно:

использовать в процессе обучения технологий геймификации, которые в наибольшей степени соответствуют особенностям мышления и восприятия информации современных студентов. Под геймификацией понимается использование методов проектирования игры для неигровых областей, таких как бизнес- процессы, социальные проекты, обучение. Поскольку компьютерные игры как форма развлечения очень востребованы в молодежной среде, то и в учебный процесс можно частично включить обучающие видеоигры, которые могут послужить мощным инструментом мотивации студентов. С помощью компьютерных игр можно моделировать профессиональные ситуационные задачи, решение которых позволили бы отработать специальные навыки, необходимые в будущей профессии, воссоздавать ситуации реального взаимодействия, а также, возможно, выработать способности оценивать полученную информацию. Кроме того, обучающие видеоигры могут помочь учащимся в развитии логики и концентрации внимания;

включать в занятия различные тренинги для тренировки внимания, восприятия, мышления и памяти;

представлять учащимся учебный материал в виде графиков, блок-схем, ментальных карт, диаграмм Исикавы, в виде более упорядоченной системы знаний, которая позволит развить навыки вычленения наиболее важной информации, установления причинноследственных связей, структуризации данных; использовать на занятиях мультимедийные средства, обучающие видеоролики, как наиболее подходящий способ представления материала для «людей экрана», привыкших потреблять визуальный контент. Учащиеся, как правило, приветствуют включение документальных и учебных фильмов в процесс обучения, активно включаются в обсуждение.

Не хочу звучать банально, но поколение, на мой взгляд, уже не то. Клиповое мышление большая проблема 21 века, которую мы пока ещё не осознали.

Но всё таки, остаётся открытым вопрос, кто же они сегодняшние молодые люди с клиповым мышлением, делающие шаг к



Редактировать в WPS Office

гениальности или деменции? Не то и не другое. Они в основном нормальные, но они - «другие» и им жить в другое время и в других условиях развития человечества. Научные открытия делаются в основном с применением сложного оборудования. Открытия «на кончике пера» теперь редкость. Так что получается, что наши ученики знают меньше учителей, а могут больше.

Использованная литература:

1. ФЕНОМЕН «КЛИПОВОГО МЫШЛЕНИЯ» В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИТУАЦИИ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ Шалагина Елена Владимировна канд. социол. наук, доцент кафедры социологии и политологии, Уральский государственный педагогический университет, г. Екатеринбург
2. КЛИПОВОЕ МЫШЛЕНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В ВУЗЕ О. А. Бубич, Е. Г. Гилевич
3. Азаренок Н. В. Клиповое сознание и его влияние на психологию человека в современном мире (Минск, Беларусь)
4. Формирование модели мира человека в условиях информационной реальности С. А. Дружилов (Новокузнецк)
5. КЛИПОВОЕ МЫШЛЕНИЕ: ГЕНИАЛЬНОСТЬ ИЛИ ДЕМЕНЦИЯ Леонид Борисович Аксенов, д.т.н., профессор, Санкт - Петербургский государственный политехнический университет
6. "Клиповое мышление" - феномен современности. 18 февраля 2013 Семеновских Т.В.

7. Чем опасно клиповое мышление, и как с ним бороться. Опубликовано: 18 мая 2016 г. Arsen Hutsal СТО | Software/Solution Architect | IT Consultant

8. Зависимость от гаджетов и номофобия: как взять свою жизнь под контроль. Веб-сайт LaLa.Lanbook.com

9. ЭЛЕКТРОННАЯ ЗАВИСИМОСТЬ (ГАДЖЕТ-ЗАВИСИМОСТЬ) И ДОФАМИН. Веб-сайт beloveshkin.com

10) Коробанова Ж.В., Суркова Д.А., Хан И.А., Яровенко Н.С. Образовательные технологии геймификации в вузе и «клиповое мышление» современной молодежи. В сборнике: Формирование общекультурных и профессиональных компетенций финансиста. Сборник научных трудов студентов, аспирантов и преподавателей Финансового университета при Правительстве Российской Федерации. Редакционная коллегия: А.Н. Лебедев, Н.В. Анненкова, Е.В. Камнева, Ю.Е. Мужичкова. 2014.

3-SHO'BA. TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI ASOSIDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN HOLATLAR VA VAZIYATLAR TAHLILI

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: INSON KAPITALINI OSHIRISH VA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Matluba Shodiyeva

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b.

So'nggi yillarda insoniyat ulkan transformatsiyani boshdan kechirmoqda, zamonaviy jamiyatning yangicha ko'rinishi insoniyat mavjudligining barcha oldingi shakllaridan tubdan farq qiladi. Bugungi dunyoda mobillik tobora global tus olayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy iyerarxiyalar uchun har kuni quriladigan va qayta tiklanadigan material, tabaqalanishning eng kuchli va kerakli omiliga aylandi [1].

XX asrda zamonaviy dunyoda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ijtimoiy rolini aks ettiruvchi nazariyalar keng rivojlana boshladi. Mazkur nazariyalarda fan va texnika yutuqlari hayotning iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlaridan qat'iy nazar jamiyatda tub o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida qabul qilinadi. Keyingi yillarda axborot jamiyatining uzviy hosilasi va determinanti sifatida "bilimlar jamiyati" va "bilimga asoslangan jamiyat" iborasi turli xil kontekstda zamonaviy dunyoga xos real voqelikning o'ziga xos xususiyatlarini talqin etishda hamda hozirgi davrning ko'plab fundamental muammolarining yechimi sifatida qo'llanilmoqda.

"Bilimga asoslangan jamiyat"ning eng muhim jihatlaridan biri – inson kapitalini oshirish hisoblanadi. Chunki, ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini innovatsion inson kapitali (human Capital) ishtirokida va yordamida amalga oshirish mumkin.

Innovatsion inson kapitali – ishlab chiqarishni, texnologiyani, ilmiy tadqiqotlarni, xizmat ko'rsatishni va boshqa har qanday ijtimoiy faoliyat turini eng yangi bilimlar, eng yangi usullar va yo'l-yo'riqlar bilan olib boruvchi hamda o'z mehnat faoliyatini innovatsiyalar orqali amalga oshiruvchilardir [2].

Inson kapitali iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining to'xtovsiz rivojlanuvchi va murakkab faktori bo'lib, u o'zida inson faktorining ishlab chiqarish faktori sifatida samarali va oqilona amalda bo'lishini ta'minlovchi mehnat resurslarini, bilimlarni, aqliy va jismoniy mehnat unsurlarini, yashash shart-sharoitlarini, intellektual faoliyatni jamlaydi. Inson kapitali – bu professionalizm, intellekt, bilimlar, sifatli va yuksak samarali mehnat va yuksak turmush darajasi demakdir [2].

Ilmiy manbalarning tahlili asosida inson kapitalining quyidagi ta'riflarini taklif etamiz [2]:

Inson kapitali – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy tushuncha (atama) bo'lib, bu shaxsning: fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, ko'nikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashish, ularning innovatsion yechimlarini topishdagi professionallik darajasi; intellektual mulki, moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuining mavjudligi; aqliy mehnati va yuksak innovatsion tafakkuri, uning turmush darajasi va kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o'rnini belgilovchi omil.

Jamiyat, davlat tomonidan aholining barcha qatlamlariga va toifalariga ayni miqdor va shakllardagi inson kapitali investitsiyasi sarflanishiga qaramay, inson kapitalining quyidagi turlari mavjud: ijobiy (faol) inson kapitali; salbiy (nafaol) inson kapitali; manfiy inson kapitali [2].

1. Ijobiy (aktiv) inson kapitali – o'zi uchun sarflangan investitsiyani to'la o'zlashtirgan va uni jamiyatning rivojlanishi va takomillashuvi shaklida ro'yobga chiqargan kreativ (yaratuvchi) va innovatsion kapitaldir. Bu yaratuvchanlik va takomillashuv, jumladan, aholining turmush darajasining oshishi, innovatsion salohiyatning yuksalishi, ta'lim tizimining rivoji, ilm-fanning taraqqiyoti, axborot almashinuvi va ta'minoti erkinligi, aholi salomatligining yaxshilanishi kabilarda namoyon bo'ladi.

2. Salbiy (passiv) inson kapitali. Inson kapitalining bu turi mamlakat taraqqiyotiga va innovatsion iqtisodiyotga aytarliq hissa qo'shmaydi, uning butun mohiyati moddiy imkoniyatlarning iste'molchisi bo'lishdan iboratdir.

3. Inson kapitalining eng tahlil va bahs talab uchunchi turi manfiy inson kapitalidir. Manfiy inson kapitali deganda, nomidan ma'lum bo'lganidek, o'ziga sarflangan investitsiyalardan jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmagan, o'zi yashaydigan jamiyat iqtisodiyotining rivojiga, na turmush darajasining yuksalishiga, na shaxs sifatida o'zining rivojlanishiga hissa qo'shishga yaramagan toifa tushuniladi.

Biz mazkur maqolada inson kapitalining birinchi – kreativ (yaratuvchi) turi xususida so'z yuritamiz. Bugungi kunda ta'limning vazifasi ijtimoiy integratsiya, madaniy kollaboratsiya, jamiyat hayotida ishtirok etish muhitida amalga oshiriladigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirish, tanqidiy va ijodiy tafakkur, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Jahon Iqtisodiy Forumining The Future of Jobs Report hisobotida 2025 yilga kelib quyidagi ko'nikmalarga talab yuqori bo'lishi taxmin qilinmoqda:

- sun'iy intellekt (Artificial intelligence);
- katta ma'lumotlar fani (Big Data Science);
- raqamli marketing va strategiya (Digital Marketing & Strategy);
- jarayonlarni avtomatlashtirish (Process Automation);
- biznes rivoji (Business development);

- raqamli transformatsiya (Digital Transformation);
- axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik (Information Security, cybersecurity);
- dasturiy ta'minot va ilovalarni yaratish (Software and Application Development, UX/UI, blockchain programming);
- buyumlar interneti (Internet of Things).

Biroq, texnologik ko'nikmalarga qo'shimcha tarzda, ro'yxat yumshoq ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi:

- faol o'rganish strategiyalari (Active learning and learning strategies);
- muammoni hal qilish va qaror qabul qilish (problem-solving and decision-making);
- taym-menejment va koordinatsiya (Coordination and time management);
- analitik fikrlash (Analytical thinking);
- ijodkorlik, yangi g'oyalarni ishlab chiqish (Creativity);
- o'z-o'zini boshqarish;
- insonlar bilan ishlash;
- tanqidiy fikrlash va tahlil qilish (Critical thinking and analysis);
- emotsional intellekt, boshqalarning ehtiyojlari va his-tuyg'ulariga sezgirlik (Emotional intelligence);
- hamkorlik (Cooperation);
- yetakchilik va ijtimoiy ta'sir, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga (Leadership and social influence);
- inson resurslarini boshqarish (Management of personnel);
- moslashuvchanlik va b.

Coursera – onlayn kurslar provayderi tomonidan e'lon qilingan “Job Skills of 2023” hisobotga ko'ra “tez rivojlanayotgan” Digital Skills (raqamli ko'nikmalar) ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarni tashkil qiladi:

- Scrum software development (dasturiy ta'minotni ishlab chiqish).
- Data visualization (ma'lumotlar vizualizatsiyasi).
- Customer success tools (mijozga yo'naltirilganlik).
- E-commerce (elektron tijorat).
- CRM software (dasturiy ta'minot).
- User experience design (foydalanuvchi tajribasi dizayni).
- Agile software development (dasturiy ta'minot).
- Software framework development (dasturiy ta'minot).
- System software development (tizim dasturiy ta'minoti).
- Search engine optimization (qidiruv dvigatelini optimallashtirish).

Shuningdek, human skills (yumshoq ko'nikmalar): storytelling (interaktiv matn yaratish), change management (o'zgarishlarni boshqarish), organizational development (tashkiliy rivojlanish), influencing (boshqalarga ta'sir ko'rsata olish), people management (insonlarni boshqarish), culture (madaniyat),

collaboration (hamkorlik), decision-making (qaror qabul qilish), communication (muloqot), planning (rejalashtirish).

Yuqorida qayd etilgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyati an'anaviy ta'lim modelining bilim berishga yo'naltirilgan paradigmasidan "lifelong learning" – "hayot davomida ta'lim" paradigmasiga o'tishni taqozo etadi. Dunyo amaliyoti XXI asr ta'limi to'rtta bazaviy tamoyillar – birgalikda yashashni o'rganish, bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish va o'rganishga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi. Bunda quyidagilar muhim hisoblanadi: process control (loyihalar va jarayonlarni boshqarish), kreativ tafakkur, tizimli tafakkur, ekologik tafakkur, diqqatni boshqarish, emotsional intellekt, sohalararo kollaboratsiya, metadissiplinarizm, moslashuvchanlik, self-development (o'z-o'zini rivojlantirish), problem-solving (eksponensiallik, o'zgaruvchan biznes-modellar diskursida muammolarni hal qilish, murakkab muammolarga yechim topish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati ish beruvchilar o'z xodimlarida ko'rishni istagan must have (bo'lishi zarur) ko'nikmalar, self-education (o'z sa'y-harakatlari, mustaqil ta'lim olish orqali kasbiy bilim va kompetensiyalarini muttasil rivojlantirish ko'nikmasi). Self-education autodidacticism, self-study, self-learning, o'z-o'zini o'qitish shaxsiy motivlar asosida istalgan mavzu bo'yicha ta'lim olish; onlayn va raqamli rejimlar orqali o'rganishning yangi usullaridan foydalanish; vaqtni to'g'ri taqsimlash; muayyan jihatlar yoki standartlashtirilgan mavzular bilan cheklangan an'anaviy o'qitish usullari perimetridan chiqish; ta'lim kontentini tanlash; shaxsiy ta'lim strategiyasini mustaqil belgilash kabilarni o'z ichiga oladi.

Mavjud ilmiy tadqiqot ishlari tahlili va kuzatishlarimiz natijasida "hayot davomida ta'lim" jarayonining samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy-texnologik omillarga asoslanishi aniqlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: jamiyatning o'qituvchilar uchun ijtimoiy talabi; ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar; katta yoshli odamning o'qish uchun sarflaydigan vaqtdan uning foydasiga qanday foydalanish lozimligini hisobga olish; o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda natijalarga muammolarni hal qilish orqali emas, balki imkoniyatlardan foydalanish orqali erishish (to'g'ri yo'llarini (kam vaqt va kam xarajat) izlab topish va butun diqqat-e'tiborni ularning resurslariga va harakatlariga jamlash).

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar jamiyatning zamonaviy talablari asosida ta'lim oluvchilar uchun sifatli ta'lim muhiti va bilim olish imkoniyatini yaratish, inson kapitalini rivojlantirish, o'quvchi shaxsini mehnat bozorida raqobatbardosh etib tarbiyalash, uning ta'lim olish qobiliyati va bilim o'zlashtirish faoliyatini rivojlantirish bilan belgilanadi. Mazkur omil umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish amaliyotining rivojlanishi, axborotlashgan jamiyatda o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablarning o'zgarishi yoki yangilanishi, ta'lim jarayoni, bilim haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi va yangilanishi kabilarga ta'sir qiladi.

Kasbiy-texnologik omillar: insonning subyektiv faoliyati barqaror ustunlik qiladigan ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar, yo'nalish va boshqalar tizimi; umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish darajasi; o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayonini mehnat bozori ehtiyojlari va sifat talablariga muvofiqlashtirish (yoki yaqinlashtirish); insonning yosh va fiziologik xususiyatlari, ijtimoiy holati, kasbiy faoliyatning mohiyati, uning o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji va o'zini o'zi anglashi.

O'qituvchining kasbiy-texnologik omillari ta'lim muhitini yaratish, o'qitish jarayonining innovatsion texnologiyalarini qo'llash orqali ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va baholashga doir o'ziga xos kasbiy ehtiyojlarning yuzaga kelishi bilan belgilanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, "hayot davomida ta'lim" tizimi oldida turgan dolzarb vazifalar quyidagilardan iborat: o'qituvchilarni faoliyat olib borayotgan maktablarining rivojlanish maqsadlari va kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlari asosida qisqa muddatli kurslarning dasturlarini ishlab chiqish; uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, bilim o'zlashtirishga oid motivatsiyasini uyg'otish, o'quv faoliyati va bilish darajasini rivojlantirish bo'yicha kompetentligini takomillashtirishga doir akmemashg'ulotlarni tashkil etish; o'qitish jarayonini yangi avlod standarti talablariga muvofiq tashkil etishni ta'minlashga doir psixologik treninglar o'tkazish; xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan amaliy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish; pedagogik amaliyot va kasbiy rivojlantirish kombinatsiyasiga asoslangan texnologiyalarni takomillashtirish, o'qituvchilarning metodik ta'minotini zamon talabi va ularning ijtimoiy-kasbiy ehtiyojlari asosida takomillashtirish; integrallashgan axborot-ta'lim resurslariga ega zamonaviy portalni yaratish; axborotlashtirish jarayonining samarali rivojlanishini ta'minlash uchun axborot infratuzilmasini mukammal shakllantirish; o'qituvchilarning umumiy muammolarini birgalikda hal qilishiga erishish; elektron axborot ta'lim muhiti asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish sifatini baholash, elektron monitoringini olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zygmunt Bauman. The Individualized Society, 2001. Зигмунт Бауман: Индивидуализированное общество. Перевод на русский язык под редакцией В. Л. Иноземцева. — М., 2005. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. 16.05.2012. URL: <https://gtmarket.ru/library/basis/4993/5009>.

2. Usmonov B.SH., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli (ilmiy-ommabop risola). —Samarqand: SamDU, 2015. -83 B.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XXI ASR KO'NIKMALARINING AHAMIYATI

Raximqulova Maxbuba Baxronovna

Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi dotsenti
tel: +998(91)7016499

Annotatsiya. Maqolada bugungi kun muammosi ya'ni, o'qituvchining ilmiy maqolalardan foydalanishi hamda o'z faniga tatbiq qila olishi, o'qituvchining darslarni tashkil qilishda XXI asr ko'nikmalarini qo'llay olishlari haqida ham ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: maqola, texnologiya, muammoga asoslangan, xorijiy metodikalar, XXI asr ko'nikmalari, dars rejasi

Аннотация. В статье представлена информация о сегодняшней проблеме, а именно об умении учителя использовать и применять научные статьи по своему предмету, а также о умении учителя использовать навыки XXI века при организации уроков.

Ключевые слова: статья, технология, проблемная, зарубежная методика, навыки XXI века.

Annotation. The article provides information about today's problem, namely the teacher's ability to use and apply scientific articles on his subject, as well as the teacher's ability to use 21st century skills when organizing lessons.

Key words: article, technology, problematic, foreign methodology, 21st century skills.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida Dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish [2] degan maqsad qo'yilgan.

Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri deb belgilangan.

Har bir texnologiyaning o'ziga yarasha yondashuvi bo'lgani kabi "Muammoga asoslangan ta'lim"ning afzalliklari haqida fikrlar va debatlar mavjud. Muammoga asoslangan ta'lim, o'quvchilarning o'z faoliyatlarini o'rganish va tadqiq qilish jarayonlariga muvaffaqiyatli o'rganishga e'tibor beradi. Bu usul, o'quvchilarga aktual ma'lumotlarni o'zlashtirish, muhokama qilish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o'z fikrlarini ifoda qilish imkonini

beradi. Muammoga asoslangan ta'limning afzalliklariga to'xtalib o'tamiz. Muammoga asoslangan ta'limda hamkorlikda o'rganish, o'quvchilar guruh bo'lib vazifa bajarish va bir-biri bilan hamkorlik qilishni o'rganishadi. Bu xususiyat, o'quvchilarning ijtimoiy hamkorlik, qo'shnilar bilan ishlash va jamoatchilikni rivojlantirish imkonini beradi. O'quvchining iqtidorini oshirish ham bu texnologiyada katta ahamiyatga ega. Bu usul, o'quvchilarning iqtidorini va qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar, o'zlarining qiziqtirgan sohalarida o'zlashtirish va o'z fikrlarini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muammoga asoslangan ta'limda o'quvchilarni nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish va ularning o'rganish jarayonida amaliyot bilan bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Bu usul, o'quvchilarning o'z mehnatlarini va o'zlashtirishlarini amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiyaning yana bir afzalligi o'quvchilarning muhokama qilish, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan bo'lishidir. O'quvchilar, muhokama qilish va argumentlarni rivojlantirish jarayonlarida o'z fikrlarini ifoda qilishni o'rganishadi.

Muammoga asoslangan ta'limning afzalliklari bilan birga o'ziga yarasha bir nechta kamchiliklari mavjud. Muammoga asoslangan ta'limning amaliyotga yo'naltirish va o'quvchilarning birlashgan o'rganishga muvofiqligi uchun katta resurslar va tayyorlash talab qilinadi. Bu usulning amaliyotga o'tkazilishi uchun laboratoriyalar, ma'lumotlar bazalari, amaliyot vositalari va o'qitish vositalari bo'lishi kerak. Bu resurslar tayyorlashni tashkil etilishi muammo bo'lishi mumkin.

Ushbu ta'limning o'quvchilar uchun individual qiyinchiliklar ham mavjuddir. Muammoga asoslangan ta'limda o'quvchilar birlashgan o'rganishga yoki o'zlashtirish va ijodiy fikrlashga boshqalar bilan ishlashga ixtisoslashgan bo'lib, individual o'quvchilar uchun qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu usulda, har bir o'quvchi o'zlashtirish va o'z fikrlarini ifoda qilish yo'lidagi barcha muammosini yechishga tayyor bo'lishi kerak. Undan tashqari muammoga asoslangan ta'limning boshqa bir kamchiligi, o'quvchilarni baholash va natijalarni o'rganish jarayonidagi muammo bo'lishi mumkin. Bu usul, o'quvchilarning muhokama qilish, ijodiy fikrlash va o'zlashtirish jarayonlarini baholashning traditsional usullari bilan mos kelishi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Muammoga asoslangan ta'lim, o'quvchilarga faol qatnashish va birlashgan o'rganishni talab qiladi. Ba'zida, o'quvchilar bu usuldan qatnashishga yoki o'zlashtirishga qiziqmasligi yoki bu usulni qabul qilmasligi mumkin. Bu usul barcha o'quvchilar uchun qiziqarli va qatnashishni rag'batlantiruvchi bo'lishi kerak.

Muammoga asoslangan ta'limning muhim bir kamchiligi, o'quvchilarning ijodiy fikrlash va o'zlashtirish jarayonlariga muvofiq tarbiya muhitini o'rnatishning qiyinliklari bo'lishi mumkin. O'quvchilar uchun o'z fikrlarini ifoda qilish va qo'shnilar bilan ishlash imkoniyatlarini beruvchi tinchlik va qo'llab-quvvatlash muhitining yaratilishi kerak. Bu kamchiliklar, muammoga

asoslangan ta'limning amaliyotga tatbiq etilishi va natijalarni o'rganish jarayonlarida muammo yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, bu usulni amaliyotda tashkil qilish va muammolarini hal qilish uchun murojaat qilinadigan yo'nalishlar va strategiyalar kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni 5-bob "Pedagog xodimlarning majburiyatlari" 46-moddasida "o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi ..." deb belgilab berilgan [1]. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari hozirgi vaqtda bir yil davomida 36 soat onlayn yoki offlayn o'qib 18 ball kreditli sertifikatga ega bo'lishayapti. 36 soat davomida o'qituvchi pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, o'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari, pedagog mas'uliyati va moslashuvchanlik, inklyziv ta'limni joriy etish masalalari, ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari, fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari, o'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari modullari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy metodikalar asosida ularning kasbiy faoliyatiga doir kompetentligini rivojlantirishdan iboratdir [3].

Zamonaviy dars tashkil qilishimizda mana shu muammoli ta'limning 8 ta elementlarga e'tibor berib tashkil etiladi, ayniqsa XXI asr ko'nikmalari ahamiyatgi molikdir. XXI asr ko'nikmalarini egallagan o'quvchi zamon talabidagi barkamol avlod, kelajagimiz quruvchi bo'lib etishadi. XXI asr ko'nikmalari (4K) tortta bo'lib ular kommunikativlik, kollobaratsiya, kreativlik va kretik fikrlashlardir. Mana shu elementlar va ko'nikmalar singdirilgan texnologik xaritani sizlarga tavsiya etamiz.

Umuman olganda ilmiy maqolalardan foydalanib o'zining faniga tatbiq qila olish ko'nikmasini shakllantirishda o'qituvchi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaga ega bo'lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, maktab o'qituvchilari qanchalik kommunikativ bo'lsa, jamoada ishlash ko'nikmasi rivojlangan bo'lsa, kreativ, tashabbuskor, ta'lim tizimidagi yangiliklarga tayyor bo'lsa, tanqidiy fikrlay olsa shu o'qituvchining faoliyati sermazmun, o'quvchilari esa yangicha fikrlaydigan bilimli insonlar bo'lib yetishadilar. Buning uchun o'qituvchi yuqorida berilgan tavsiyalar asosida doim o'z ustida ishlashi, o'qituvchi sifatida uzluksiz kasbiy rivojlantirib borishlari lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.

3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish shaklidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari guruhlari uchun ishchi-o'quv dasturi. Samarqand, 2023-yil

4. Baxronovna, R. M. . (2023). Boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qish savodxonligini oshirish . *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>

5. Raximqulova M. Ta'limga innovatsion yondashuv–o'qitish samaradorligini oshirish omili sifatida //fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2021. – c. 118-121.

6. Jamilovna n. D. Boshlang 'ich ta'limdagi sinf rahbarlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning roli (malaka oshirish kurslar misolida) //fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 124-129.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMNI TASHKIL QILISH SHAKLLARINING O'RNI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri v.v.b

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda "4"K" modeli asosida kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash orqali erishish va uni tashkil etishda jamoaviy, guruhli, juftlikda individual shakllardan foydalanish yo'nalishlari misollarda ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, zamonaviy ko'nikmalar, "4"K" modeli, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash, jamoaviy, guruhli, juftlikda, individual shakllar.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i asosida pedagog kadrlarni salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ'ib qilishni rivojlantirish muhim vazifa etib belgilandi.

O'quvchilar soniga qarab ta'limning jamoaviy, guruhli shakllari, kichik guruhlarda ishlash, juftliklarda ishlash va individual (yakka tartibda) ishlash kabi shakllari bo'ladi.

Jamoaviy ta'lim shaklida vazifalarni bajarish va muvaffaqiyatli qilishda butun sinf ishtirok etadi. Bunda "Ko'tarilgan qo'l qoidasi"ni qo'llash va unga rioya qilish, shuningdek, "Gapirayotganni hurmat qilish" tamoyillariga rioya qilish muhimdir. Bu shakl munozara va bahslar, ochiq muvaffaqiyatga to'g'ri keladi.

Guruhli ta'lim shaklida sinflar 5–6 kishilik guruhlariga, jamoalarga bo'linadi. Bu shakl sinfda va sinfdan tashqari ishlashda, loyiha, tadqiqot va ijodiy faoliyatlarga mos keladi.

Kichik guruhli shaklda o'quvchilar 3–4 kishilik uncha katta bo'lmagan guruhlariga bo'linadi. Bunday shakl ham sinfda va sinfdan tashqari ishlarda, loyiha, tadqiqot va ijodiy faoliyatlarda qo'l keladi. Shuningdek, bu shaklni masala va vazifalarni muhokama qilish, jamoaviy esse va dokladlar yozishda ham qo'llash mumkin.

Juftliklarda ishlash shaklida o'quvchilar ikki kishi bo'lib ishlaydi. Bunda o'quvchilarni “yelkadosh sherik” hamda “yuzma-yuz sherik” tamoyili bo'yicha bo'lib chiqish mumkin.

Individual shaklda esa o'quvchi vazifalarni mustaqil ravishda, boshqalarning ishtirokisiz, o'zi bajaradi.

XXI asr ko'nikmalarini 4”K” modeli asosida tashkil etishga yo'naltirilgan:

Kommunikatsiya–muloqotga kirisha olish, muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirishni yuzaga keltiradi. Buning asosida quyidagilarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keltira olishimiz mumkin: savollarga javob bera olish, vaziyatni bayon qilish, esse, kichik hikoya yozish ko'nikmasi.

Masalan: “Kitob va boylik” mavzusiga oid savollarga javob bera olishi:

- Kitob sizningcha nima?

Vaziyatni bayon qilish: kitob o'qishning foydali jihatlarini aytib o'ting.

Esse yozish: “Kitobim-oftobim” mavzusida.

Kichik hikoya yozish: berilgan rasm asosida hikoya tuzing.



Kritik(tanqidiy) fikrlash–vaziyatni obyektiv baholash, analiz, sintez, kerakli ma'lumotlarni ajrata olish orqali boshqalarning fikrlarini qabul qilish, masalalarga

Mantiqan yondashish, xulosa qilish. (“Ha-yoq”, “Sinkveyn”, “Klaster”, “Baliq skleti”, “Insert” metodlari orqali amalga oshirish mumkin.)

Masalan: “Kitob” so'ziga sinkveyn tuzing.

Kitob

Qiziqarli, mazmunli

O'qiladi, ko'riladi, sovg'a qilinadi.

Kitob- bilim bulog'i.

Darslik.

Kooperatsiya-kollaboratsiya(hamkorlik) –juftlikda, kichik va katta guruhlarda ishlash qobiliyati).

Topshiriq: sherigingiz bilan kitobning afzalliklarni muhokama qiling.

Kreativlik(ijodiy) faoliyat bo'lib bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo'shadi va yangi narsa, jismoniy kashfiyot kabilar yaralishi uchun eng kerakli vositadir.

Kitob haqida she'r, qo'shiq, hikoya, matn yarating

Xulosa qilib aytish mumkinki zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish 4"K" modeliga asoslangan holda ta'limni tashkil etishni turli shakllarini to'g'ri qo'llay olish o'qituvchi mahoratiga va uni samarali tashkil eta olishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i
6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug'i.
7. U.A.Aydarova. O'qish savodxonligi: Umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinf uchun darslik "Novda"–Toshkent 2023.

BOSHLANG'ICH SINIF ONATILI DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Aliqulova Sohiba

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar 2-umumta'lim maktabining II toifali boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida kreativ fikrlashga yo'naltirish imkoniyatlari, ya'ni interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlar, topshiriq va mashqlar bajarishda amalga oshirish yo'nalishlariga to'xtalib, uni baholashning o'ziga xos usuli ham ko'rsatilib o'tilgan

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili, kreativ fikrlash, ko'nikma, ijodkorlik.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023–2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'iga ko'ra umumiy o'rta ta'limning 1–4-sinflari uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etildi. Unga ko'ra onatili darslarini tashkil etishga ham yangiliklar kiritildi.

Maktab ta'limidagi o'quvchilarning bilim olishi, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etish, yurtimiz farzandlarini ergashuvchi emas, ergashtiruvchi

inson qilib tarbiyalash -XXI asr talabi. Buni amalga oshirishda ona tili fanini maqsad va vazifalaridan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- Nutqni sayqallashni o'rgatish;
- Yozuv sifatiga e'tiborni qaratish;
- Namunali o'qish me'yorini egallash ko'nikmasiga diqqatni tortish;
- Ona tilini o'rgatish vositalari hamda shart-sharoitlari, shuningdek, leksikani o'zlashtirishning soddadan murakkabga o'tadigan qoidalari haqida bahs yuritish.

Maktab tajribasidan kelib chiqib aytish kerakki, o'quvchilarda materialni mustaqil egallashga intilish sust bo'lib, ular mavzulararo manbalarni solishtirishmaydi, natijada nazariy bilimlar mohiyati ochilmaydi va aksariyat o'quvchilar berilayotgan materialni shunchaki yodlab olishadi. Deylik, o'quvchi otlardagi olti kelishikni yoddan biladi, lekin yozma nutqda qaratqich va tushum kelishiklarni farqlamaydi. Ba'zilar esa so'z turkumlarini ayta oladi-yu, grammatik tahlilda u yoki bu so'z turini chegaralay olmaydi. Bayon yoki insho kabi mustaqil fikrlashga tayanadigan yozma ishlarda esa imlo qoidalariga bo'ysunmaydigan shevachilikka o'tib ketiladi. Bunday hol ona tili o'qitishda nazariya va amaliyot o'rtasida sezilarli farq mavjudligidan kelib chiqadi. Buni bartaraf etish uchun o'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish lozim bo'ladi.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko'nikmasi: qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati;

tasavvur – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

g'oyalarni rivojlantirish – g'oyalarni turli nuqtai nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Bunda misol qilib quyidagilarni olishimiz mumkin. Dars jarayonlarida interfaol metodlarni qo'llash asosida masalan, Ota so'ziga "Sinkveyn" tuzish orqali:

Ota

Mehribon, jiddiy

Tarbiyalaydi, boqadi, o'stiradi.

Mening otam zo'r shifokor.

Dada.

Har bir o'quvchi ijodiy yondashgan holda o'z sinkveynini tuzadi.

Rasm asosida she'r, qo'shiq, ertak, hikoya tuzish topshiriqlari, ta'limiy o'yinlar, mavzularga oid beriladigan topshiriq va mashqlar jarayonida ham kreativ fikrlashga yo'naltirilgan holatlarni yuzaga keltirish mumkin.

O'quvchilarni bajargan ishlarini to'g'ri baholash va rag'batlantirish ham o'quvchini keyingi topshiriqlarni bajarishdagi kreativligini oshirib boradi.

Kreativlikni mavjud ko'nikmalar asosida baholash:

1 ball- ijodkorlikka qiziqish borligi

2 ball- ijodiy yondashish, nimadir o'zgartirish kiritish

3 ball-g'ayrioddiy savollar berish va mustaqil faoliyat

4 ball- yangi g'oyalarni yaratishda faolligi, tashabbuskorlik; erkinlik

5 ball-boshqa o'quvchilarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi va loyihalar fikrlar chizmalar chizadi, tavakkal qila olish qobiliyati bor;

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad - o'z maqsadlarga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug'i.

9. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023.

10. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.
Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.

11. A.A.Ismoilov, X. J.Daminov Z.A.Kosimova G.A. Primov "Kreativ fikrlashni baholash". Toshkent- 2021.

BIOLOGIYA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA OID TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Bekmatova Umida Toshqulovna

Sirdaryo VPYMO'MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada biologiya darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish va samarali tomonlari misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Konsepsiya, kompetensiya, kreativ, kreativ yondashuv, kreativ fikrlash, didaktik o'yinlar, kreativ xat.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi – umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi rivojlanish strategiyasini va yangi yondashuv tizimini belgilab olishdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning biologiya fani bo'yicha ilmiy dunyoqarashlarini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, ijtimoiy hayotlari va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiyida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Kreativ fikrlash-berilgan muammoga g'ayrioddiy va yaxshi echimlar yaratishdir.

Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan 7-sinf biologiya darsligida berilgan malumotlarda ham o'quvchilarni ijodiy yondashishga undovchi misollarga katta e'tibor berilgan.

Masalan: Tirik organizmlar tomonidan oziq sifatida o'zlashtirilgan oqsil, yog' va uglevodlar oddiy moddalarga parchalanadi. Bu jarayon natijasida ajralib chiqqan energiya organizmlarning o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi va boshqa jarayonlar uchun sarflanadi. Nafas olish – oziq moddalarning hujayralarda parchalanishi natijasida organizm hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan energiyaning ajralishi bilan boradigan jarayon. Demak, organizmlar energiya hosil qilish uchun nafas oladilar. Hayvonlar oqsil, yog' va uglevodlarni tayyor holda qabul qiladi. O'simliklar esa organik moddalarni fotosintez jarayonida karbonat angidrid va suvdan hosil qiladi. Hosil bo'lgan organik moddalar nafas olish jarayonida parchalanadi. Hujayralarning funksional faolligining ortishi nafas olishning kuchayishiga olib keladi. Nafas olish jarayonida oziq moddani parchalanib, energiya hosil bo'ladi.

1-Topshiriq: Xo'sh rasmda nima tasvirlangan?



O'quvchilarga quyidagicha savollar berishimiz mumkin


1. Nafas olish nima?
2. Hosil bo'lgan energiya qanday jarayonlarga sarf bo'ladi?
3. Nafas olish zanjiri nima va u qanday komponentlardan tuzilgan?
4. Nima uchun tirik organizmlar nafas oladi va xokozo.

2-Topshiriq.

Maktab hovlisida o'sadigan akatsiya daraxti har yili qiyg'os gullaydi, lekin hech meva tugmaydi? Buni qanday izohlaysiz?

3-Topshiriq; Kreativ xat yozish texnikasi

Quyidagi berilgan rasmdan foydalanib "Hayvolarning oiziqlanishi" to'g'risida biologik ertak tuzing.



Ertak tuzish uchun o'quvchilar rasmga ijodiy yondoshadilar.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish insonning mantiqiy fikrlay olish, ijodkorlikni namoyish etish, yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF -5712-son Farmoni.

2. Ismailov A.A., X.J.Daminov va boshqalar. "O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma" 2-son, Toshkent, 2020.

3. Biologiya [Matn]: 7-sinfi uchun darslik / K. A. Saparov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SINGDIRISH IMKONIYATLARI

Bekmuradova Saodat To'ychiyevna

Sirdaryo viloyat Sardoba tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlangich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda XXI asr ko'nikmalarni shakllantirishda "4"K" modeli asosida kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash orqali erishish yo'llari ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, XXI asr ko'nikmalar, "4"K" modeli, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash.

"Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish talab etiladi", deb Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlab o'tdi.


Dunyodagi tezkor o'zgarishlar sivilizatsiya jarayonlarining har bir ishtirokchisidan matematik qonunlarni chuqur tushunish, mahalliy va global masalalarni yechish uchun sivilizatsiya jarayonlarini anglash va qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Matematikani zamonaviy o'rganish o'quvchilardan har kuni mustaqil ravishda o'z oldiga masala qo'yishni, atrofdagi dunyoni o'rganishda tabiiy qiziqishni shakllantirishni, qiziqishlarini qanoatlantirish uchun ma'lumot topishni taqozo qiladi. Shuning uchun zamonaviy darslik nafaqat ilmiy bilimlar to'plami, balki turli xil hayotiy ssenariylar va amaliy loyihalarda qo'llanma bo'lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun umumiy o'rta ta'limning 1–4-sinflari uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etish Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023–2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'iga ko'ra amalga oshirildi. Shuni inobatga olgan holda "4"K" modeliga asoslangan kommunikativlik, kritik fikrlash, kollaboratsiya, kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Kommunikatsiya–muloqotga kirisha olish, savollarga javob bera olish, vaziyatni bayon qilish, esse, kichik hikoya yozish ko'nikmasi. Bunda matematika darslarida misollarni sharhlash, masalalar yuzasidan fikrlar bildirish, savollarga javoblarni kiritish mumkin.

Kritik(tanqidiy) fikrlash–vaziyatni obyektiv baholash, analiz, sintez, kerakli ma'lumotlarni ajrata olish orqali boshqalarning fikrlarini qabul qilish, masalalarga

mantiqan yondashish, xulosa qilish. Masalan: 1dan 10gacha bo'lgan sonlar ichidan 2 va 3sonlariga bo'linadigan asosida Venn diagrammasini tuzing,

topshirig'ini asosida vaziyatni baholash tahlil qilish, mantiqiy yondashuv asosida xulosalar qiladi.



Kooperatsiya-kollaboratsiya (hamkorlik) – juftlikda, kichik va katta guruhlarda ishlash qobiliyati). Juftlikda misollarni yechimi toping topshirig'ini asosida:

$$\begin{array}{c} \text{Orange} + \text{Orange} + \text{Orange} = 60 \\ 20 + 20 + 20 = 60 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \text{Orange} + \text{Apple} + \text{Apple} = 30 \\ 20 + 5 + 5 = 30 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \text{Apple} - \text{Strawberry} = 3 \\ 5 - 2 = 3 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \text{Strawberry} + \text{Orange} + \text{Apple} = ? \\ 1 + 20 + 5 = 26 \end{array}$$

Kreativlik (ijodiy) faoliyat bo'lib bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir

narsaning yaratilishiga hissa qo'shadi va yangi narsa, jismoniy kashfiyot kabilar

yaralishi uchun eng kerakli vositadir.



Xulosa qilib aytish mumkinki, matematika darslarida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda 4"K" modeli asosida tashkil etish orqali bolalarni muloqot qilish, ijodkorlik, tanqidiy yondashuv, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini baravar shakllantirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug'i.
3. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023.

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Gulchexra Alibekova Taubekovna

Sirdaryo viloyat Oqoltin tumani 6-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'qish ko'nikmalari: o'qib tushunish ko'nikmasi, tinglab tushunish ko'nikmasi,

o'qish malaka sifatlarini takomillashtirish, nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish yo'llari zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishdagi uyg'unlik asosida ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, zamonaviy ko'nikmalar, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash, o'qib tushunish ko'nikmasi, tinglab tushunish ko'nikmasi, o'qish malaka sifatlarini takomillashtirish, nutq so'zlash ko'nikmasi.

Umumiy o'rta ta'limning 1–4-sinflari uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023–2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'iga ko'ra 2023-2024-o'quv yili davomida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi:

kollaboratsiya – jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;

kommunikativlik – muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish;

kreativ fikrlash – o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, yangi

g'oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish;

tanqidiy fikrlash – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga

tanqidiy yondashish. Zamonaviy ta'lim bugungi kun o'quvchilariga quyidagilarni o'rgatishi kerak:

Kompleks vazifalarni hal qilish;

Bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish;

Ijodiy fikrlash;

Insonlar bilan hamkorlik qilish;

Jamoada ishlash;

O'zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg'ularini) to'g'ri baholash, ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo'lish;

Diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo'lish.

Buning uchun ta'lim jarayonida "4K" modelini qo'llash kerak.

O'qish savodxonligi fanini o'qitishda:

- O'qib tushunish ko'nikmasi;

- Tinglab tushunish ko'nikmasi;

- O'qish malaka sifatlarini takomillashtirish;

- Nutq so'zlash ko'nikmasi.

O'qish malakalari deganda asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish tushuniladi. O'qish malakasining sifatleri o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi ongli o'qish hisoblanadi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. To'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qib tushunish ko'nikmasi:

1. Matnlarda ma'lumotni toppish;

2. Ma'lumotni integratsiyalash va tahlil qilish;

3. Matnning mazmun va shaklini tushuntirish va baholash;

4. Matndagi ma'lumotdan foydalanish;

5. Jadval, taqvim, lug'atdagi ma'lumotlarni o'qib tushunish.

O'qib tushunish jarayonida o'quvchi matndagi so'zlarning ma'nosini bilishi muhimdir .

Tinglab tushunish ko'nikmasi:

1. O'zgarlar nutqini eshitib, tushuna olish;

2. Ma'lumotni anglash va tahlil qilish;

3. Suhbat jarayonida savollarga javob bera olish.

Nutq so'zlash ko'nikmasi:

1. Adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon so'zlay olish;

2. Muloqot odobiga rioya qilish;

3. O'z fikrini bildira olish;

4. Suhbat jarayonida savollar bera olish;

5. Asar mazmunini qayta hikoyalash, gaplarni to'g'ri tuzish.

Dars jarayonida o'z qo'llanish o'rni va afzalliklari inobatga olingan holda o'qishning uch turidan foydalaniladi: ovozli o'qish, ichda o'qish, shivirlab o'qish.

“O'qish savodxonligi” darsligidan o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlar joy olgan. Bunday topshiriqlar vositasida o'quvchida matnni tushunish, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining “Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug'i.

5. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh.,
Sariyev Sh.
Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.

6. “Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023

O'QUVCHILAR FAOLIYATI JARAYONIDA KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLILIGI VA IZCHILLIGI

Muhamedova Manzura

Respublika san'at va madaniyat kolleji bosh o'qituvchisi

Annotatsiya. Pedagog ta'lim-tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi, etnopedagogik-psixologik bilimlarni egallashi lozim

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ta'lim jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi yoki ijodiyliги bo'yicha “o'rtamiyona” o'quvchi keyinchalik ijobiy tomonga o'zgarishi, boshqa sohada yuksak natijalarga erishishi, hatto mutaxassisligiga yondosh ixtisoslikda ham o'rnini ko'rsatish mumkin. Ta'lim va ijtimoiy turmushda uquvsiz, “yaroqsiz” deb baholangan insonlar keyinchalik biron bir sohaning yetakchi mutaxassis sifatida elga tanilishi, yuqori lavozimlarni egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarini egallash jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da lekin ular bilim, ko'nikma, malakalarga talluqli emas. Xuddi shu boisdan, ular bir biri bilan o'zaro tahlil qilganda qobiliyatlar bilan bilimlar, qobiliyatlar bilan ko'nikmalar mohiyat, mazmun ma'no jihatidan bir biridan farq qiladi. Ushbu pedagogik-psixologik hodisa obrazliroq tushuntirilganda bilim, ko'nikma,

malakalar tufayli egalanadigan aniq voqelik deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsning ruhiy olamidagi hali ro'yobga chiqmagan imkoniyatlaridir.

Masalan, kollej o'quvchisining o'qishga kirishi, mutaxassis sifatida kasbiy faoliyat uchun imkoniyat tarzida gavdalanishi kabi shaxsning qobiliyatlari kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini egallash uchun imkoniyat tariqasida namoyon bo'ladi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, imkoniyat ro'yobga chiqdimi yoki ushalmagan orzu sifatida qolib ketdimi - bularning barchasi ko'pgina omillarga va sharoitlarga bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash jarayonida, dinamikasida namoyon bo'ladi. Bu ularda namoyon bo'luvchi pedagogik qobiliyatga egalikdir. Buyuk alloma A. Navoiy "Qobiliyatsiz odamga tarbiya xayf, qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik gunoh" deganlarida yoshlarning ichida eng zukko va qiziquvchanlarini davlat va jamiyat o'z kelajagi poydevori sifatida qarashga chorlagan edi. Pedagogika va psixologiyaning metodologik asosi bo'yicha ko'rsatilishicha qobiliyatlar imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu foyiatidagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanmaydi. Masalan, pedagogika kollej o'quvchisida namoyon bo'layotgan pedagogik qobiliyat uning o'qituvchi, tarbiyachi sifatida shakllanishiga kafolat bera olmaydi. O'qituvchi, tarbiyachi bo'lish uchun maxsus bilim berilishi, tabiatga, atrofdagilarga munosabati, idrok qilishi, shaxsiy fazilati, salomatligi, bolalarga bo'lgan mehrining cheksizligi, o'quvchilar, o'quv xonasi, axborot resurs markazi, amaliyot o'tash uchun bog'cha va maktablar, musiqa maktabi va boshqalar muhayyo bo'lishi zarur.

Ta'kidlab o'tilgan vositalar, shart-sharoitlar hisobiga kollej o'quvchisidagi pedagogic qobiliyati rivojlanishi mumkin. Pedagogik qobiliyat qobiliyat turlaridan biri bo'lib, shaxsning pedagogic faoliyatni samarali olib borish va shu sohada muvaffaqiyatlarga, yuqori natijalarga erishish demakdir. Pedagogik qobiliyat mohiyatida pedagogik faoliyatni samarali yo'lga qo'yishga imkon beruvchi nazariy-metodik bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar yotadi. Sohaga oid qobiliyat negizini o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ta'limiy va tarbiyaviy munosabatlar tashkil etadi. O'qituvchi shaxsiga ega sifatlar, shu jumladan, pedagogik qobiliyatni tarbiyalash muammosi bir qator pedagogik-psixologik tadqiqotlarning ham yetakchi g'oyasi sifatida qabul qilingan. Masalan, M.G.Davletshin, R.Z.Gaynutdinov, S.Jalilova, M.Kaplanova, tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan sifatlar, xususan, kasbiy sifatning mohiyati ochib berilgan, ularning namoyon bo'lish darajasi yoritilgan hamda pedagogik qobiliyatni rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan.

Tasnifda ifoda etiluvchi pedagogik kasbiy sifatlar umumiy tarzda quyidagicha guruhlanadi:

- 1) shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi;
- 2) pedagogik mahorat va qobiliyati;
- 3) xarakterining pedagogik-psixologik xususiyatlari;

4) bilish faoliyati;

5) o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti.

Mazkur tasnifda qayd etilgan sifatlar ayni vaqtda pedagogik qobiliyat mohiyatida ham aks etishini nazarda tutgan holda ayni o'rinda mazkur tasnifning keltirilishi maqsadga muvofiq deb topildi. O'qituvchining shaxsiy xislatlaridan bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish, amaliy-pedagogik-psixologik aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoa ishlarida faollik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, dilkashlik, uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish, o'z bilimini oshirishga intilish kabi sifatlar kiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi, etnopedagogik-psixologik bilimlarni egallashi, hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi, hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi, maktab yoshidagi bolalarning pedagogik-psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi, o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

6. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya / O'quv-metodik qo'llanma.
7. M.G.Davletshin va boshq. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. – 130 b.
8. Yo'ldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlar, muammolar, yechimlar // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1999. – №4. – B.4-11.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot / O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 1999. – 96 b.
10. Karimova V.M., Akromova F.A. Psixologiya / Ma'ruzalar matni. – T.:TDIU, 2000. – 171 b.

MUSIQA MASHG'ULOTLARI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIMYIY LOYIHALASHTIRISH

Mizamova Hulkar Muhiddinovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

(93 586 43 58)

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarining mashg'ulot olib borish shaklini yillik ta'limiy loyiha ko'rinishida rejalashtirish ko'zda tutilgan. Pedagog sifatida maqsad va natijaga erishish bosqichlari ochib berilgan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va shu bilan birgalikda, talab kuchayib bormoqda.

Ta'lim sifatini yuqori darajada bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar bo'yicha soha mutaxassislarning turlicha qarashlari mavjud. Jumladan, musiqa rahbarlarining bilimi va mahorati, ularning kompetentligi va kreativligi, ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, yakuniy natijalarni doimiy tahlili va shu kabi ko'pgina omillarga bog'liq. Mazkur omillar musiqa mashg'ulotlar olib borish strategiyasining ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlari bilan bog'liq qismlarida, albatta, o'z aksini topadi.

B.X.Xodjayevning³⁶ fikriga ko'ra, ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsadini, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baxolashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan moslashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha ta'limiy loyiha - aniq reja, maqsad va kreativ metodlar asosida natijalanishi kafolatlagan ta'lim va tarbiyaviy faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Bundan ko'rinib turibdiki, loyihani dastur, model, texnologik xarita va boshqa ko'rinishlarda amalga oshirish mumkin. Loyihaning asosini esa ilmiy yoki ijodiy hususiyatga ega g'oya tashkil etadi.

Loyiha bolalarda musiqiy va eshitish tasvirlarini rivojlantirishga, eshitish va ovoz o'rtasidagi barqaror tushunchasini muvofiqlashtirishga, hissiy sezgirlikni shakllantirishga yo'naltirilgan,. Loyihaning mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofizik qobiliyatlariga maksimal darajada moslashtirishi, mashg'ulotlar davomida rang-barang ko'rgazmali qurollar, Karl Orff pedagogika usullari, Anvar Livievning xalq cholg'u ijrochiligi metodikasi, multimedia texnologiyalari keng qo'llanilishi, o'qitishning evristik, o'yin va qisman qidiruv usullaridan foydalanilgan, asosiysi, kreativ metodlar asosida musiqa mashg'ulotlari olib borishga asoslangan.

Musiqa mashg'ulotlarida maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning yosh qiziqishlarini inobatga olgan holda musiqiy ta'limiy jihozlar, maketlar, stol usti tarqatmalari tanlanadi va ular uchun nazariy tushunchalar ertak, qiziqarli suhbat tarzda tushuntiriladi. Bu maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda kognitiv qiziqishni uyg'otish, ularning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun asos yaratish imkonini beradi. Ushbu tamoyillar loyihaning pedagogik maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Ta'limiy loyihaning tarkibiga kiruvchi kreativ metodlar quyidagicha: "Evritmika", "Solmizatsiya" "Yetakchilarga ergash", "Sayrdagi saboqlar", "Yulduzcha", "Tanlov erkinligi", "Do'stlashuv", "Kim qaysi qahramon?",

³⁶ Xodjaev B.X., Shonazarov J.U., Raximov Z.T. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent "Voriz" nashriyoti -2019. 324 b.

“O‘zingni ko‘rsat”, “Musiqiy charxpalak”, “Forte-Piano”, “Men va mening oilam”, “Milliylik ruhi”.

Loyiha 6-7 yoshli bolalarda quyidagi ko‘rsatkichlarni rivojlantirishga qaratiladi:

-bolalarda musiqa madaniyatiga birlamchi qiziqish va hurmatni shakllantirish;

-nutq, diqqat, musiqiy xotira va tafakkur, obrazli va eshitish idrokini rivojlantirish;

- bolalarning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish;

- bolalarda tasavvur va fantaziyani rivojlantirish, dastlabki musiqiy ijrochilik faoliyatida musiqiy taassurotlarini aks ettirish qobiliyatini rivojlantirish;

-bola shaxsiyatining hissiy-irodaviy sohasini shakllantirish, musiqiy asarni idrok etish jarayonida hissiy ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish;

-bolalarning musiqiy va estetik didining asoslarini, elementar musiqiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish;

- bolalarda muloqot ko‘nikmalarini, shaxslararo muloqot va guruhdagi o‘zaro munosabatlar madaniyati asoslarini rivojlantirish;

-guruhda, jamoat joylarida adekvat xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ta’limiy loyihani tatbiq etishning tashkiliq-pedagogik shartlari quyidagi rasmda keltirib o‘tilgan:



Kreativ musiqa mashg'uloti olib borishning pedagogik shart-sharoitlari

Ta’limiy loyihaning asosiy pedagogik shart-sharoitlaridan biri - kreativ metodlarni amalda qo‘llay oladigan kreativ musiqa rahbari hisoblanadi. Kreativ metodlar od mashg‘ulot turlaridan keskin farq qiladi. Kreativ mashg‘ulotning an’anaviy mashg‘ulotdan farqli jihati, musiqa mashg‘ulotining olib borish shakli, strategik yondashuvi, pedagog va tarbiyalanuvchilar orasidagi

munosabatni yangicha yo'lga qo'yilishishi, shu bilan birga, kreativ tarzda pedagogik rivojlantiruvchi muhitning tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Kreativlik sifatlarga ega bo'lgan har bir musiqa rahbari ijod qilish ishtiyoqi yuqori bo'lishi va o'zining mualliflik kreativ metodlarini yarata olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Методика преподавания музыкальных дисциплин.— Т.: О'qituvchi, 1989. – 95 b.
2. Munavvarov A.Q. Pedagogika.— Toshkent: O'qituvchi, 1996.—B.86-87
3. Музыкальная психология: Учебное пособие. – Т.: Музыка, 2005. –80 b.
4. Музыкальное воспитание в школе. Вып.19.: Сб. статей. – М.: Музыка, 1987. – 110 s.

ILG'OR XORIJIY TAJRIBAGA ASOSLANGAN TASVIRIY SAN'AT YANGI AVLOD DARSLIKLARINING ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Tairova Gulshoda Asadovna

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan darsliklar asosida zamonaviy ko'nikmalar: kollabaratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrlashga yo'naltirilgan dars mashg'ulotlarida integratsiya jarayonlariga ham e'tibor qaratilganligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, tasviriy san'at, ilg'or xorijiy tajriba, darslik, kollabaratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrlash.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023–2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'iga ko'ra umumiy o'rta ta'limning 1–4-sinflari uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darsliklarni amaliyotga joriy etildi. Bunga ko'ra boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'rganishning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Estetik didni shakllantirish;
- Ko'p millatli o'zbek xalqi madaniyatiga hurmat va ma'naviy tuyg'ularni tarbiyalash;
- Tasavvur va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish;


- Badiiy dunyoqarashni shakllantirish va turli xil badiiy va ijodiy faoliyat turlari, turli xil badiiy materiallar bilan tajriba orttirish;

- Boshlang'ich badiiy savodxonlikni o'zlashtirish va estetik didni rivojlantirish.

Kompetensiyalarning shakllangan elementlari esa tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, farovonlik va barqarorlikni o'zida mujassam etadi.


Buni tabiiy materiallardan foydalanish jarayonida turli texnologiyalarda ishlash uchun turli xil tabiiy materiallardan foydalanish ko'nikmalari, ko'pg'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati, atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilish istagini kuchayishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rasm chizishga qiziqtirish jarayonida oddiydan murakkabga tamoyiliga rioya qilgan holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra oddiy buyumlardan chiroyli rasmlar yaratish, rasm chizishda musiqa tinglab chizish, rangtasvir turlari bilan tanishtirish, rasmlarda rang doirasidan foydalanishni o'rganish, san'atda foydalanish mumkin bo'lgan oddiy buyumlar asosida rasmlar yaratish, o'zbek rassomlari bilan tanishuv, taniqli rassomlar bilan tanishish yo'nalishlari kiritilgan. Oilaviy qadriyatlarni oshirishga qaratilgan o'z oilasi gerbini chizish mavzusi ham dolzarbligi bilan ajralib turadi.



Badiiy obraz yordami bilan ko'rish, improvizatsiyalar, ko'rish illuziyalari ham o'quvchini rasm chizishdagi muhim omillar sifatida ularni ustida mashqlar bajarishni talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Tasviriy san'at darslarida AKT dan foydalanish orqali kompyuter grafikasi rassomi sifatida Paint dasturi asosida rasmlar ishlashga o'rgatish ham davr talablaridan biri hisoblanadi.



Ilk chizmachilik faniga oid tushunchalar va amaliy ish turlari ham boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslari jarayonida singdiriladi, shtrixlash

turlari va obyektlarning konstruktiv tahlilini o'rgatishga oid mavzular shular jumlasidandir.



Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich tasviriy san'at darslarida kommunikativlik, kollabaratsiya, kreativlik va kritik fikrlashga yo'naltiruvchi asoslarga tayangan holda ish olib borilsa, bolalarni rasm chizishga ishtiyoqi ortib boradi, har bir rasmni tahlil qila oladi, ijodiy yondashgan holda tasvirley oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug'i.
2. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023.
3. 1-4-sinf Tasviriy san'at darsliklari. Toshkent – 2023.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPITENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurasulova Shoira Kushakovna

Guliston davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası
o'qituvchisi

+998 99 473 03 56 shoiraabdurasulova1972@gmail.com

Anontatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Mavzuga oid xorijiy va respublikamiz olimlarining ilmiy qarashlari umumlashtirilgan. Boshlang'ich

sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, kompetentlik, tamoyil, tajriba, rivojlantirish, imkoniyat, samaradorlik, metodika, qonuniyat, o'quvchi, tajriba, ta'lim, tarbiya, innovatsion, integratiya.

Аннотация: В данной статье исследуется значение повышения профессиональной компетентности и профессионального развития учителей начальных классов как научно-педагогической проблемы. Обобщены научные взгляды зарубежных и наших республиканских ученых по теме. Научно обоснованы принципы, теоретические и педагогические аспекты развития профессиональной компетентности учителей начальных классов.

Ключевые слова: преподаватель, компетентность, принцип, опыт, развитие, возможность, эффективность, методология, легитимность, студент, образование, обучение, инновация, интеграция.

Annotation: In this article, the importance of improving the professional competence and professional development of primary school teachers as a scientific-pedagogical problem is studied. The scientific views of foreign and our republican scientists on the topic are summarized. The principles, theoretical and pedagogical aspects of developing the professional competence of primary school teachers are scientifically based.

Key words: teacher, competence, principle, experience, development, opportunity, efficiency, methodology, legitimacy, student, experience, education, training, innovation, integration.

O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalari aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimini o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

O'qituvchining, pedagogik mahorati uning malakasi, pedagogik qobiliyati, pedagogik kompetensiyasini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi usullardan biri bu doimiy kasbiy ta'lim malakalarini oshirib borishdir. Bugungi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kasbiy-pedagogik kompetensiyaning mohiyati va tuzilishi to'g'risida qizg'in munozaralar bo'lib o'tmoqda.

Yevropa tadqiqotchilari, V.A. Adolf, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, E.L. Pupysheva, G.S. Savolainen, L.V. Shkerin va boshqalar kasbiy kompetentlikni quyidagi turlarga ajratadilar: metodik, innovatsion, psixologik, kreativ, kommunikativ va boshqalar.

Yuqorida keltirilganlar orasida o'qituvchining metodik kompetentligi alohida o'rin tutadi, chunki u boshqa bir qator kompetensiyalarni o'z ichiga oladi, qo'shimcha ravishda, aynan uning darajasi ta'lim sohasidagi mutaxassisning kasbiy mahorat darajasini aniqlaydi. Ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan bilimlarning poydevori boshlang'ich ta'limda beriladi. Shaxs ongi va uning dunyoqarashining rivojlanishiga asos bo'ladigan bilimlar ham aynan shu bosqichda beriladi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishlari ular ta'lim tarbiya berayotgan o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining metodik kompetentligi haqida bir qancha tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida turlicha fikr bildirganlar. Hususan, O.V.Tumashevaning fikricha, o'qituvchining metodik kompetensiyasi metodik bilim, ko'nikma va faoliyat uslublariga egalik qilishni, ularning kasbiy faoliyati uchun ham, jamiyatdagi o'zaro aloqalar uchun ham ularning qiymatini tan olishni, uslubiy muammolarni hal qilish tajribasi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi takomillashtirishga tayyorligi va qobiliyatini nazarda tutadigan shaxsning integral xarakteristikasi sifatida qaraydi.

T. Gushchina metodik kompetentlikni o'qituvchining shaxsiyati va faoliyatining integratsiyalashgan ko'p darajali professional ahamiyatli xususiyati, ishlab chiqarish tajribasini umumlashtirib, o'qituvchining metodologiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli ravishda egallash va kasbiy-pedagogik faoliyat metodlarining maqbul kombinatsiyasi sifatida tavsiflaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ko'p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta'limning yangi yo'nalishlari o'qituvchini innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi.

Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va mavjud holat tahlilidan ko'rinadiki, quyidagilar o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'zini o'zi tahlil qilish va baholash, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish zaruratini keltirib chiqaradi:

- ta'lim sohasida xalqaro tajribalar va qiyosiy tahlil natijalari;
- zamonaviy texnologiyalarning takomillashuvi;
- jamiyat ehtiyoji hamda ta'limga bo'lgan talabning o'sishi;
- jamiyat ehtiyoji va talablari asosida o'qituvchi rolining o'zgarishi;
- DTS va o'quv dasturlarining optimallashtirilishi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-

yo'riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi.

Demak, har bir o'qituvchi o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish uchun ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi. O'qituvchilarda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish yo'nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o'qituvchilarda o'z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga qiziqish shakllanadi, bu o'z navbatida o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish ya'ni mustaqil o'rganish, o'z o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o'qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni o'z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o'qituvchilar jamoasida obru-e'tibor qozonish, o'zini o'zi boshqarish va rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu ma'lum bir vazifani mas'uliyat bilan bajarish orqali ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi – o'qituvchini o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hisoblanadi.

O'qituvchi professionallikni rivojlantirishga kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajasini (o'z taqdirini o'zi belgilash, moslashtirish, o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi anglash) egallash orqali erishadi. O'qituvchilarga kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishda tashqi va ichki sharoitlar ta'sir qiladi (o'qituvchining o'zi qobiliyatlari va moyilligi, atrof-muhitning xususiyatlari – oilaviy, kasbiy, o'zini anglash xususiyatlari va aks etuvchi kompetensiya).

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni tizimli va uzviy amalga oshirishlari muhim hisoblanadi:

- o'zini o'zi rivojlantirishga intilish;
- hayotiy va kasbiy tajribalarni o'zlashtirishga intilish;
- ta'lim berish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo'lish;

- kasbiy faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o'qitish jarayonini takomillashtirish uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish.

Asosiysi, o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish va shu asosda uning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishga erishish mumkin. O'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj, bir tomondan, o'qitishning o'ziga xos xususiyati, uning ijtimoiy roli, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning doimiy o'zgarib turadigan sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan "hayot davomida o'qish" tamoyili bilan belgilanadi. O'z-o'zini rivojlantirish uzluksizlik,

universallik, maqsadga muvofiqlik, integrativlik, umumiylik, individuallashtirish, o'zaro bog'liqlik va doimiylik, past darajadan yuqori darajaga o'tishning doimiyligi, o'zgaruvchanlik kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'rganilgan ilmiy tadqiqot natijalari va tahlillari hamda kuzatishlarimiz natijasida, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarda kasbiy rivojlanishning quyidagi komponentlarining rivojlanishini inobatga olish lozim degan xulosaga keldik:

- pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik, texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish;
- pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish;
- o'qitish jarayoniga mantiqiy yakunlangan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish;
- pedagogik masalalarni ilgari surishda o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish;
- o'quvchilarning faoliyati natijalarini baholash va hisobga olish;
- o'quvchining motivatsiyasini rivojlantirish;
- o'quvchi bilan ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlarni shakllantirish;
- o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini va jamiyatning talablarini ko'ra bilish;
- kasbiy kompetensiyaning shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish;
- o'quvchining samarali ta'lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim yaratish;
- o'quvchilarning xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarligining metodik tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Ta'lim to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil.
2. O'zbekiston uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti 2021-yil 16-iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 24.10.2020 y.
4. B. S. Siddiqov, Sh. N. Mexmonaliyev Pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik faoliyatida tutgan o'rni. VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-Cite Factor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-10-16
5. О.В. Тумашева О методической компетентности учителя / Вестник КГПУ им. В.П. Астафьева. Ме тодика преподавания. 2009 (1).

6. Маркова, А.К. Психология труда учителя / А.К. Маркова. – М.: Просвещение, 1993. – 192 с

7. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova Umumiy psixologiya T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008- 137 bet.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Ibodov Shohrux Normurodovich

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 5-umumta'lim maktabi boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida 4"K" modeli asosida zamonaviy ko'nikmalar: kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik va kritik fikrlashni shakllantirishning asoslari va ularni shakllantirishda interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlar, mantiqiy masalalar muhim o'rin tutishi haqida to'xtalgan.

Kalit so'zlar: matematika, 4"K" modeli, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash, interfaol metodlar, ta'limiy o'yin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyov "Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish talab etiladi" deb ta'kidlab o'tdi. Dunyodagi tezkor o'zgarishlar sivilizatsiya jarayonlarining har bir ishtirokchisidan matematik qonunlarni chuqur tushunish, mahalliy va global masalalarni yechish uchun sivilizatsiya jarayonlarini anglash va qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Matematikani zamonaviy o'rganish o'quvchilardan har kuni mustaqil ravishda o'z oldiga masala qo'yishni, atrofdagi dunyoni o'rganishda tabiiy qiziqishni shakllantirishni, qiziqishlarini qanoatlantirish uchun ma'lumot topishni taqozo qiladi. Shuning uchun zamonaviy darslik nafaqat ilmiy bilimlar to'plami, balki turli xil hayotiy ssenariylar va amaliy loyihalarda qo'llanma bo'lishi kerak. Buning uchun XXI asr ko'nikmalarini singdirish eng muhim vazifalardan biri etib belgilandi. 4"K" modeli asosida dars tashkil etish davr talabi, ya'ni kommunikatsiya, kritik(tanqidiy) fikrlash, kooperatsiya-kollaboratsiya(hamkorlik), kreativlik(ijodiy) yondashuv

Kommunikatsiya (muloqot qilish ko'nikmasi):

- muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik;
- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
- boshqa odamlarning fikrini tinglashni o'rganish;
- o'z fikr va histuyg'ularini ifodalash amaliyoti;

- o'z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
 - katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti
- Kritik (tanqidiy) fikrlash:
- tahlil –topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;
 - baholash –kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;
 - tushuntirish –o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish;
 - maqsadlarni belgilash –erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;
 - o'zini boshqara bilish –o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);
 - muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
 - dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;
- Kooperatsiya-kollaboratsiya(hamkorlik, jamoaviy ishlash) ko'nikmasi:
- umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini qurish qobiliyati;
 - ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o'z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;
 - o'z rejaları va g'oyalarni amalga oshirish uchun yetakchilik ko'nikmalarini va o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;
 - o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;
 - mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.
- Kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasi:
- qiziquvchanlik–tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati;
 - tasavvur–ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
 - optimallashtirish–maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni Solishtirish qobiliyati;
 - g'oyalarni rivojlantirish – g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.
- Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalar: kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrlashni shakllantirishda

o'quvchining yosh va psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'limiy o'yinlar, interfaol metodlar, faollashtiruvchi mashqlar, mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan mashqlardan ko'proq foydalanishni talab etadigan jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Mardonov E.M. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri– 2012.
3. A.A.Ismoilov, X. J.Daminov Z.A.Kosimova G.A. Primov “Kreativ fikrlashni baholash”. Toshkent- 2021.
4. “Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Musulmanova Manzura Tursunmuratovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 23-umumta'lim maktabi boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda uning vazifalari va uni amalga oshirishda qo'llanadigan usul va texnologiyalar misollarda ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiiy fan, konsepsiya, tajriba, usul, pedagogik texnologiya, o'yin texnologiyasi.

Mamlakatimizda mustaqillik qaror topishi bilan xalq ta'limi tizimiga alohida e'tibor berilib, uni isloh qilish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Bugungi davr talabi ta'lim sifatini ko'tarish, yangilash va yangiliklarni kiritishdan iboratdir. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha loyiha va ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Konsepsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimi takomillashtiriladi. Shuningdek, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar bo'yicha yangi o'quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratildi. Tabiiy fanlar - kuzatuv va tajribalarga, dalillarga asoslanib, tabiat hodisalarini tasvirlash, bashorat qilish, tushunish, qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Tabiiy fanlar o'z ichiga biologiya, geografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika o'quv fanlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro integrasiyasini ta'minlaydi. Fanlarni o'zaro bog'lab, olamda sodir bo'layotgan turli hodisa va jarayonlar haqidagi tushunchalarni kichik

maktab yoshidan anglashda “Tabiiy fanlar” darsligi o‘quvchiga katta yordam beradi.

- 1) dunyoning xilma-xilligini anglash g‘oyasi;
- 2) dunyoning yaxlitligini anglash g‘oyasi;
- 3) ona zamanga hurmat hissini shakllantirish g‘oyasi.

Xorijiy tajribalarga asoslangan yangi avlod tabiiy fanlar darsliklari:

- davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida yaratilgan;
- ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan;
- nazariy ma’lumotlar, mantiqiy fikrlashga undaydigan savollarni o‘z ichiga

olgan;

- pedagogik, psixologik, estetik, gigiyenik talablarga javob beradi.

Bularni amalga oshirishda quyidagi usul va texnologiyalardan foydalanish zarur bo‘ladi:

1. Ta’limga texnologik yondashuv.
2. O‘qitishning axborot-tushuntirish usullaridan faol-kommunikativga o‘tish.
3. O‘qitish usullarini reproduktiv asosdan tadqiqotga o‘tkazish.
4. Og‘zaki ta’lim usullari.
5. O‘quv va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlash.
6. Vizual va ko‘rgazmali usullar.
7. Amaliy usullar.
8. Kuzatuv ko‘rgazmali-amaliy usul sifatida.
9. Tabiatni o‘rganishning eksperimental usuli.
10. Laboratoriya va amaliy ish uslubi.
11. Modellashtirish usuli.
12. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
13. Loyihalash va tadqiqot texnologiyalari.
14. Kommunikativ ta’lim texnologiyalari.
15. Axborot texnologiyalari ta’limi.
16. O‘yin o‘qitish texnologiyalar.

Boshlang‘ich tabiiy fanlar darslarini mavzulardan kelib chiqqan holda metod, usul va texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

1-sinf Tabiiy fanlar darsida “Yil fasllari” mavzusini o‘tishda o‘yin texnologiyasidan foydalanish asosida “Fasllar almashinuvi” o‘yinidan foydalanish mumkin, ya’ni sinf o‘quvchilari sinf bo‘yicha aylana hosil qilib turadilar va to‘rt fasl nomi bo‘yicha nomlanadilar, boshlovchi qaysi fasllar nomini aytsa shu fasl nomlari joy almashadilar, AKT foydalanish asosida fasllarga oid multimedia, hujjatli filmlar namoyishi, amaliy ish jarayonida fasllarni chizish, plastilin yoki qog‘ozdan applikatsiyalar yashash mumkin.



Xulosa shundaki, tabiiy fanlarni o'qitishda fanlar integratsiyasi, STEAM texnologiyasi, o'yin texnologiyasi, tajribalar, amaliy va loyiha ishlari va hokazolar muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. O.E.Tigay Tabiiy fanlar darsligi 1-sinf uchun. 1-qism. T-2023.

TA'LIM SIFATI VA MATEMATIKA O'QITUVCHILARI KASBIY MALAKASINING O'ZARO ALOQADORLIGI

N.N.Tashtemirova

Perfect university, katta o'qituvchi
tnargiz76@mail.ru

Annotatsiya.Maqolada matematika o'qituvchilarining malakasi va uni maqsadli oshirish, ta'lim sifati va uni ta'minlash hamda malaka oshirish tizimidagi o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishga qaratilgan fikrlar bayon etilgan.

В статье описаны идеи, направленные на повышение квалификации учителей математики и ее целенаправленное повышение, качество образования и его предоставление, а также содержание образовательных программ в системе повышения квалификации.

The article describes ideas aimed at improving the qualifications of mathematics teachers and its targeted improvement, the quality of education and its provision, as well as the content of educational programs in the professional development system.

O'qitishning zamonaviy usul va vositalarini, o'qitish jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, o'qituvchilarning innovatsion yondashuvga asoslangan zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari takomillashtirilmoqda, ta'lim mazmuni modernizatsiya qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-

yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorining 1-ilovasida "Xodimlarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratish, xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish hamda umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida xodimlarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag'batlantirish" vazifasi qo'yilgan[1].

Ma'lumki, matematika fani nafaqat shaxsning savodxonligini belgilovchi, balki barcha sohalarning rivojlanish drayveri hisoblanadi. Shu bois, matematika fanini o'rganish va o'rgatish barcha jamiyatlarda ta'lim siyosati, dasturi va islohotlarining markazida turadi. Albatta, bu bejizga emas, chunki matematika barcha zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yutuqlarning asosidir. Matematik savodxonlik zamonaviy inson madaniyatining, uning ijtimoiy va kasbiy kompetensiyasining ajralmas elementidir.

PISA xalqaro tadqiqoti asoschisi Andreas Shlyayxerning ta'kidlashicha, ta'lim tizimining siafti shu tizimda ishlayotgan o'qituvchining sifatidan ortiq bo'lolmaydi[2]. Modomiki biz maktablarda o'qitish samaraliroq bo'lishini istar ekanmiz, ko'proq o'qituvchilar malakasini maqsadli oshirish haqida o'ylashimiz kerak. Odatda, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi dastlabki ta'limga ya'ni, bo'lg'usi o'qituvchilar ish boshlashdan oldin egallaydigan bilim va ko'nikmalarga qaratilgan. Xuddi shunga o'xshash pedagoglarni tayyorlashga yo'naltirilgan resurslarning katta qismi ular maktab ostonasiga qadam qo'ymaslaridan oldin ajratiladi. Biroq ta'limdagi tezkor o'zgarishlarni va o'qituvchilik faoliyati uzoq davom etishini inobatga olib, ularning kasbiy kompetensiyasini oshirishni uzluksiz ta'lim nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak. Bunda o'qituvchilar olgan birlamchi ta'lim keyingi rivojlanish uchun asos bo'lib qoladi va kasbiy mahoratni takomillashtirishga bevosita xizmat qiladi.

Shunday ekan, malaka oshirish tizimida olib borilayotgan barcha chora-tadbirlar bugun maktablarda faoliyat yuritayotdan har bir o'qituvchining kasbiy mahoratni maqsadli rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Malaka oshirish mazmuni esa o'z ichiga maktab ta'lim mazmuniga kiritilgan o'zgarishlar bilan birga uni samarali o'qitish usullarini ham qamrab olishi lozim.

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS va Milliy o'quv dasturiga muvofiq maktab matematika fani o'quv dasturiga kombinatorika, ehtimollar nazariyasi va statistika elementlari kiritildi. Amaliyotga tadbiq etilgan darsliklarga kiritilgan yangi mavzular yuzasidan o'qituvchilarning aksariyatida fanni o'qitish metodikasi yuzasidan ehtiyojlar borligi aniqlandi.

2017-2023-o'quv yillarida umumta'lim maktablarida stoxastika elementlarining kiritilishi va o'qitilishi (sinflar kesimida)ni tahlil qiladigan bo'lsak, 2017-2018-o'quv yilda 6-7- va 10-sinf matematika darsliklariga

stoxastika elementlari kiritilgan. Xususan, 6-sinfga 12 soat, 7-sinfga 6 soat va 10 sinfga 19 soat hajmda ma'lumotlar bilan ishlash, to'plamlar, kombinatorika elementlariga oid mavzulari kiritilgan. Lekin 2022-2023-o'quv yilidan boshlab mazkur sinflar o'quv dasturlarida yana o'zgarishlar bo'ldi.

O'quv dasturi mazmuniga kiritilgan bunday o'zgarishlar, matematika ta'limiga yangicha yondashuv, o'ziga xos metodika va uslubni talab etadi. Ta'limda fan "o'quv dasturlarini isloh qilishni samarali amalga oshirishni ta'minlash uchun pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirishning dastlabki islohotini o'tkazish talab qilinishi mumkin" degan fikrda Andreas Shlyayxer[2]. Darhaqiqat, amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini va natijasini berishi uchun islohotlarning mazmunini o'rganish, tushunish, muddatini aniqlash va to'g'ri rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'qituvchi faoliyati amalga oshiriladigan ta'lim islohotining markazida turadi. Shunday ekan, ularning pedagogik kompetentligi takomillashtirish, yangicha yondashuv va metodikalar bilan qurollantirish bugungi kunning nafaqat dolzarb masalasi, balki kechiktirib bo'lmaydigan masalasidir.

Bugungi kunda ta'limning qaysi bo'g'ini bo'lishidan qat'iy nazar o'qitilayotgan fan o'quv dasturlariga turli-tuman materiallarni qo'shish muhim emas, balki o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'zgartirish bilan nimaga **erishishni** istayotganimizga yanada tizimli yondashishimiz muhim. XXI asr o'quv dasturlari o'zining qat'iy talabi (yuqori darajali kognitiv ehtiyojlarga javob beradigan o'quv materiallarini shakllantirish), e'tibor markazi (mazmun kengligidan chuqur anglashning ustunligi orqali erishilgan konseptual anglash – mohiyatni anglash) va kogerentlik (o'qitishning tadrijiy rivoji va kishilik taraqqiyotini ilmiy jihatdan tushunishga asoslangan ta'lim izchilligi) bilan ajralib turishi kerak. Malaka oshirish o'quv dasturlari maktab ta'limi o'quv fanlariga moslashgan bo'lishi, shuningdek fanlararo integratsiyaga asoslangan ta'limga va o'quvchilarning turli muammolarga turli dunyoqarashlar orqali qarash qobiliyatlarini shakllantirishga mo'ljallanishi lozim[3].

Malaka oshirish tizimida 2018-o'quv yilidan boshlab mutaxassislik modullari mazmuniga stoxastika elementlarini o'qitish mavzulari kiritila boshlagan. Xususan, 2018-o'quv yilida mutaxassislik moduli uchun jami 72 soat ajratilgan bo'lsa, shundan 8 soatiga, 2019-o'quv yilida 82 soatdan 4 soatiga, 2020-o'quv yilida 78 soatdan 2 soatiga stoxastika elementlarini o'qitishga oid mavzular kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 3-noyabrdagi 260-son "Matematika fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursining tajribaviy o'quv dasturini tasdiqlash haqida"gi buyrig'iga asosan esa 100 soatdan 40 soatiga, 2021-o'quv yilida Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish kurslarining 2021-yil uchun o'quv-mavzu reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 18-yanvardagi 11-sonli buyrug'iga ko'ra mutaxassislik moduli uchun jami 108 soat, shundan tanlov modul tarkibini (36 soat) tinglovchilarning ehtiyojlari asosida shakllantirish va ushbu modullarni amaliy mashg'ulot shaklida o'tkazish nazarda tutilgan.

2017-yildan 2023-o'quv yiliga qadar tuzilgan o'quv dasturlarining qiyosiy tahlilidan ko'rinib turibdiki, yillar o'tgan sayin o'quv dasturlarining mazmuni zamon talabiga mos tarzda takomillashtirib borilgan bo'lsada, ba'zi o'quv yillarida malaka oshirish tizimi o'quv dasturlari mazmuni maktab matematika ta'limiga mutanosib va tizimli emasligini guvohi bo'lamiz.

Maktab matematika ta'limiga kiritilgan o'zgarishlar va malaka oshirish tizimi o'quv dasturi mazmunining qiyosiy hamda pedagogik tahlili ta'lim tizimida yaratilayotgan innovatsiyalarga muvofiq tarzda matematika o'qituvchilari uchun mutaxassislik modulining mazmunini takomillashtirishga asos bo'ladi.

Malaka oshirish tizimidagi o'quv dasturlari mazmunini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish matematika o'qituvchilari malakasini oshirish tizimida mutaxassislik modulining mazmunini takomillashtirishda quyidagi natijalarga erishishni inobatga olish zarurligini ko'rsatdi:

- o'quv dasturlari mazmuni amaldagi maktab o'quv dasturlari mazmuni o'quv dasturlariga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq bir butun, yaxlit tuzilishga ega bo'lishi;

- tinglovchilarning pedagogik faoliyatini faollashtirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi;

- tinglovchilarning mutaxassislik fani yuzasidan mustaqil ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasi va kasbiy kompetentligi darajasini ortishi;

- o'zaro bog'liq bo'lgan talim-tarbiya jarayonlari (malaka oshirish tizimi va umumta'lim muassasasida) natijaviyligining ortishi;

- o'quv dasturlari mazmuni o'qituvchilarning salohiyati va faoliyatining integratsiyasini ta'minlashi kerak.

Xulosa shuki, malaka oshirish kursi o'quv dasturlarining takomillashtirilgan va maktab matematika ta'lim mazmuniga hamda tinglovchilarning ehtiyojlariga moslashtirilishi pedagogik jarayonning barcha subyektlarining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun imkoniyat yaratuvchi hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori

2. A.Shlyayxer Jahon miqyosidagi ta'lim. XX asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? – Toshkent: "Zamin Nashr" nashriyoti, 2022. – 344 b.

3. Artikbaeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika tinglovchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish. p.f.n. disser.avtoref. T.: - 2004. 26 b.

SOG'LOM VA BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O'RNI VA ROLI

Torabayev Orif Abdumajid O'g'li

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i.

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh avlodning sog'lom va barkamol, jismonan va ma'nan yetuk qilib tarbiyalashda ta'lim tizimining o'rni va olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Shuning bilan birga sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya borasidagi ilgari surilgan fikrlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Bola, birinchi bolalik, ikkinchi bolalik, o'smirlik yoshi, yoshlik davri, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar juda yuqori desak adashmagan bo'lamiz. Jumladan, Konstitutsiyamizning XIV bobida "Oila, bolalar va yoshlar" deb alohida e'tibor ajratilgan. Ota-onalar va ularning o'rni bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishi hamda davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiylikidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi va bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatimiz o'z zimmasiga olganligi so'zimiz isboti sifatida keltirib o'tishimiz mumkin.

Shu jumladan bolaning kamol topishi va kelajakda jamiyatimizga faol fuqaro sifatida qo'shilishi uchun ta'lim tizimining o'rni juda katta deb hisoblaymiz. Sababi, bolaning shaxs bo'lib shakllanishida jamoaning o'rni juda katta va shu bilan birga ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarga nafaqat o'z sohasidagi bilim va ko'nikmalar, balki oqituvchiga xos xislat va fazilat egasi bo'lish talab qilinadi. Bugungi kunda pedagog nafaqat o'z ishini, balki bola psixologiyasini bilishi, yangi interfaol metodlardan foydalanayotganda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga e'tibor berish talab qilinadi. Yoshga oid va pedagogik psixologiyada asosan, pedagogik mezonlarga asoslangan davrlashlardan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi davrlar bolalar bog'chasidagi guruhlariga mos holda bo'linadilar. Maktab yoshi 3 ta bosqichga bo'linadi:

- kichik (1- sinfdan 3-4-sinflargacha)
- o'rta (4-5- sinfdan 7-8- sinflargacha)
- katta (8- sinfdan 9- sinflargacha) ga bo'linadi. Umumiy yosh borasidagi qarashlar pedagogika va psixologiyada quyidagicha ta'riflanadi;

- 1. Yangi tug'ilgan - 1-10 kunlik.
- 2. Chaqaloqlik- 10 kundan 1 yoshgacha: yilgacha.
- 3. Bolalikning oldi - 1-3- yillar.
- 4. Birinchi bolalik - 4-7- yillar.
- 5. Ikkinchi bolalik - 8-12- yil o'g'il bolalar va 8-11- yil qiz bolalar uchun.
- 6. O'smirlik yoshi - 13-16- yil o'g'il bolalar va 12-15- yil qiz bolalar uchun.
- 7. Yoshlik davri - 17-21- yil yigitlar. 16-20- yil qizlar.³⁷

Bunday davrlarga bo'lish mezonini o'ziga xos kompleks belgilarni qamrab oladi. Bu chizmada o'g'il va qiz bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Har bir yosh davrlari o'zining spetsifik xususiyatlariga ega. Bir yosh davridan ikkinchisiga o'tish jarayoni shaxsiy rivojlanishning ma'lum keskin o'zgaruvchan bosqichi yoki kritik davri deb qaraladi. Har bir yosh davrlarining davom etish muddati jiddiy darajada o'zgarishlarga uchraydi. Yoshning xronologik chegarasi kabi uning tavsifi ham dastavval ijtimoiy omillar bilan aniqlanadi. Ma'lum bir yoshdan ikkinchi yoshga o'tish davrida bolada o'zgarishlar hosil bo'ladi, nafaqat biologik, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan uning dunyoqarashi o'zgarib turadi va ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj seza boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Binobarin, ularning psixikasida ham o'zgarishlar sezilarli darajada bo'ladi. Bolaning maktabga kirishi uning hayotida burilish chog'idir. Bola maktabga kirib o'qiy boshlashi bilanoq uning hayotida asosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi. Maktabda bola tizimli ravishda yangiliklar oladi, bu o'quvchilarning kundan kunga orttirib borayotgan xilma-xil mavzudagi bilimlarning manbayidir. Bolaning bilimlarni sistemali tarzda o'zlashtirishi natijasida undagi bilimning doirasi kengayib boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi, shu bilan bir qatorda bolaning emotsional-irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib rivojlana boshlaydi. Maktabdagi ta'lim jarayonining o'zi bolaning sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning yuqorida ko'rsatilgan xilma-xil qiziqishlari bilan bir qatorda individual qiziqishlari ham tug'ila boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlikka ko'proq qiziqsalar, ba'zilari musiqa she'riyatga muhabbat qo'yadilar. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o'quvchanlik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Kichik maktab yoshdagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, ta'sirchan hamda emotsional bo'ladilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, ular jismoniy, ijtimoiy va psixik

³⁷ Z. T. RAJAMURODOV, B. M. BOZOROV A. I. RAJABOV, D. G. HAYITOV "YOSH FIZIOLOGIYASI VA GIGIYENASI" TOSHKENT «TAFAKKUR BO'STONI» 2013 36-b

faollikdir. Jismoniy faollik-sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishda tabiiy ehtiyojdir. Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunda yoshga doir ta'lim turlari joriy qilingan;

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.³⁸

Ta'lim-tarbiya borasida Sharq mutafakkirlaridan ko'plab meroslar qolgan. Ularning aytgan hikmatli so'zlari bugungi kun uchun ham o'z dolzarbligini

³⁸ <https://lex.uz/docs/-5013007>

yo'qotmagan desak adashmagan bo'lamiz. O'z davrining buyuk qomusiy olimi Abu Nasr Farobiy shunday deydi, "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi va ularga ega bo'lish uchun shunday insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladiki, bunday jamoaning har bir a'zosi uning ehtiyoji uchun zarur bo'lgan narsalardan birortasini yetishtirib beradi".³⁹

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z. T. Rajamurodov, B. M. Bozorov A. I. Rajabov, D. G'. Hayitov "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" Toshkent «Tafakkur bo'stoni» 2013
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni Ta'lim to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.
3. Ibraimov. X Quronov. M "Umumiy pedagogika" darslik "Sahhof" 2023-T.

TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN PEDAGOGLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING DOLZARBLIGI.

Torabayev Orif Abdumajid O'g'li

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish va mehnat faoliyatida unumli foydalanishi ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat huquqi, ma'muriy huquq, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, jamoa kelishuvi, shaxsiy daxlsizlik.

Bugungi kunda yurtimizda o'qituvchi pedagoglarga e'tibor juda yuqori desak adashmagan bo'lamiz. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" deb ta'kidlangan. Bundan ko'rinib turibdiki fuqarolik jamiyati qurishda va "Inson kapitalini" yaratishda pedagog xodimlarning o'rni beqiyos hisoblanadi.

³⁹ Ibraimov. X Quronov. M "Umumiy pedagogika" darslik "Sahhof" 2023-T 111-b

Pedagoglarning ish faoliyatini yaqindan o'rganish, ularda uchraydigan muammolarni bartaraf etish va ularga metodik jihatdan yordam berish davlatimiz va jamiyatimiz oldidagi dastlabki vazifa bo'lmog'i lozim. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda pedagog xodimlarning ish faoliyatida ularning huquqlariga daxl qiladigan holatlar uchrab turadi. Bunday holatlarni bartaraf etish va oldini olish uchun dastlab pedagoglardan huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab qilinadi. Pedagoglar bir vaqtning o'zida o'quvchilar bilan ishlaydi, bu esa bevosita bola huquqlari va voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlarini bilish va unga amal qilish kerakligini haqida yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab qiladi. Misol tariqasida:

- 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasida qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992-yil 9-dekabrda «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ga qo'shilish haqida qarori
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Uchinchi bo'lim. Jamiyat va shaxs XIV bob. Oila, bolalar va yoshlar 77-78-79-80-moddari,
- Jinoyat huquqi, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi va mehnat huquqidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish talab etiladi.

Bola huquqlari to'g'risida konvensiya - bolalar huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to'la va birinchi hujjat. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konvensiya 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi. Deklaratsiya „Insoniyat o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur“ deb e'lon qilgan edi. Konvensiya esa ushbu Deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalar huquqlari to'g'risidagi qonunlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya to'g'risida konvensiya . dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balog'at yoshi birmuncha erta belgilangan bo'lmasa, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi.⁴⁰

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Unga O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qo'shilgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar uni bajarish yuzasidan tadbirlar bo'yicha Bola huquqlari qo'mitasiga muntazam ravishda milliy ma'ruzalar yuborib turadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu Konvensiyani bajarish bo'yicha birinchi milliy ma'ruza 1997-yilda tayyorlandi.

⁴⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bola_huquqlari_to%CA%BBg%CA%BBrisida_konvensiya

Bolalar deyilganda amaldagi kodekslarda quyidagi iboralar ishlatiladi: “bola”, “go‘dak”, “emizadigan bola”, “kichik yoshdagi bola”, “o‘spirin” (14 yoshdan 18 yoshgacha), “voyaga yetmagan bolalar” (18 yoshga to‘lmagan).

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-78-79-80-moddari;
77-modda.**

Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.

78-modda.

Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

79-modda.

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

80-modda.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.⁴¹

Pedagoglar xodimlar bola bilan ishlash chog‘ida bevosita ota-onalar bilan aloqa o‘rnatadi. Bu holatda fuqarolik huquqi va shaxsiy huquq va erkinliklar borasidagi bilimni egallashni talab qiladi. Shu bilan birga bir vaqtning o‘zida o‘zi ishlayotgan ta’lim muassasasida xodim vazifasini bajaradi, bu esa mehnat huquqi, jamoa kelishuvi, ichki mehnat tartib qoidalarini bilishga bo‘lgan ehtiyoj doimo seziladi.

⁴¹ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716>

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019-yildagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" farmoni bejizga joriy qilinmagan. Biz huquqiy ong va huquqiy madaniyatni Ta'lim tashkilotlari orasida alohida o'ringa ega bo'lgan maktab faoliyatida tadbir qilishni taklif qilamiz.

Dunyo universitetlari reytingida birinchi o'rinni egallab kelayotgan Garvard universiteti "insonning 12 asosiy kompetensiyasi" ni e'lon qildi. Unda hozirgi zamonda odamni baxtli qiluvchi ko'nikma va malakalarni asoslagan. Bular:

- O'z hayotidagi muammolarni bironing hayotisiz, mustaqil aniqlay olish;
- Savol bera olish va jamiyatda qabul qilingan tafakkur strategiyasiga o'z munosabatini bildira olish;
- Cheksiz ma'lumotlar oqimidan eng muhimini tez ajratib, o'zlashtirib olish;
- Ustozining ko'magisiz komandada ishlay olish;
- Mutlaqo mustaqil ishlay olish;
- Boshqalarni o'z nuqtayii nazariga ishontira olish va o'z fikrini himoya qila olish;
- Ma'lumotlarni yangi shakllarga moslashtirib, ulardan foydalanishning yangi yo'llarini topa olish;
- Asosiy mavzudan chetga chiqmay, konstruktiv munozara qila olish;
- Induktiv,deduktiv va dialektik fikrlay olish;
- Muammolarni evristik metodlar bilan yecha olish.⁴²

Bugungi kunda ushbu kompetensiyani ta'lim dargohlarida joriy qilishda pedagoglarning o'rni beqiyos hisoblanadi. O'qituvchilarning sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish va uni ardoqlash bugungi kunda paydo bo'lgan holat emas, tarix bizga ustozlarni qadrlash, ularga ehtirom ko'rsatgan jamiyatlar ravnaq topganidan guvohlik beradi. So'z o'rnida she'riyat sultoni Mir Alisher Navoiyning so'zlariga e'tibor qaratsak;

Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

⁴² Ibraimov. X Quronov. M "Umumiy pedagogika" darslik "Sahhof" 2023-T 111-b

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya — [bolalar](#) huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to'la va birinchi hujjat. [BMT Bosh Assambleyasi](#) tomonidan 1989-yil 20-noyabrda bir ovozdan qabul qilingan.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi [referendumida](#) umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019-yildagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"

3. Ibraimov. X Qur'onov. M "Umumiy pedagogika" darslik "Sahhof" 2023-

IRODANING AXLOQIYLIGI HAYOT VA FAOLIYATDA IRODA KUCHI

Rahmatova Nasiba Sobirovna

Navoiy innovatsiya universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida
Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik, qiyinchiliklar bartaraf etish va kishilarning axloqiy hisslari haqida fikr yuritilganda aytilgan so'zlarni emas, balki ularning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan irodaviy harakatlar, kuchli irodaning mardlik, o'zini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatleri kabi mavzular yoritilgan.

Аннотация: В данной статье о нравственности воли говорится о силе воли в жизни и деятельности, о том, что является препятствием для ее самостоятельности при ее положительной или отрицательной оценке, о способах преодоления трудностей, а также при размышлении о нравственных чувствах людей. волевые действия, которые показывают их духовный образ, а не сказанные слова. Раскрываются характеристики сильной воли, такие как мужество, самообладание, выносливость, выносливость и мужество, такие темы, как моральные качества воли.

Abstract: In this article, the morality of the will is about the power of the will in life and activity, what are the obstacles to its independence when evaluating it positively or negatively, how to overcome difficulties, and when thinking about the moral feelings of people, willed actions that show their spiritual image, not the words spoken. the characteristics of strong will such as courage, self-control, endurance, endurance and courage, topics such as moral qualities of will are covered.

Kalit so'zlar: axloqiy hisslari, ma'naviy qiyofasi, emotsional irodaviy, sabot-matonat, tashabbuskorlik.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarblik kasb etmoqda. Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909- son qarori qabul qilindi. Pedagogika va psixologiya irod bilimlarni egallash insonni o'ziga xos xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni yaxlit shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy hatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, mustaqil o'qish va o'z imkoniyatlarini aynan baholash, maqsadga erishish va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishning maqbul yo'llarini mustaqil topish bo'yicha pedagogik va psixologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi"¹, deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdi. Psixologiya asosan shaxs va uning individual xususiyatlarini o'rganadigan bo'lsa, uning emotsional irodaviy holatlari ham psixologiyaning asosiy tayanch mavzusi hisoblanadi. Demak shaxsning emotsional irodaviy holatlari mavzusini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'qitish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Ma'lumki, insonning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum shakllari taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. Shu bois o'z ehtiyojlarini qondirish uchun inson harakat qiladi. Shaxs o'z harakatlari yordami bilan muhitga moslashadi va undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadi. Lekin shu bilan birga odam muhitni o'z ehtiyojlariga muvofiqlashtirib o'zgartiradi, qayta quradi va o'ziga moslashtiradi.

Irodaning axloqiyliги hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Irodaning ahloqiyliги deganda odatda kishi o'z oldiga qanday maqsadlar qo'yilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli kelib chiqishi va ma'lum bir qarorga kelishida qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo'lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, kishilarning axloqiy hislarlari haqida fikr yuritilganda aytilgan so'zlarni emas, balki ularning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. Shuning uchun kuchli irodaning mardlik, o'zini tuta bilish, sabot-matonat,

chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatleri deb hisoblaymiz.

Kishi biror qarorga kelishda o'z qarori va harakatlari uchun axloqiy mas'uliyat sezsa, uning irodasi axloqiy hisoblanadi.

Kishining chinakam axloqiyliqi ma'naviy qiyofasi, so'zida va muhokamalarida emas, balki faoliyatida, ishida va asosan mehnatda, ya'ni mehnatga va ishning o'ziga mehr qo'yishida namoyon bo'ladi.

O'zining intilish (mayllarida), qaror va harakatlarida har doim ahloq tamoyillariga amal qiladigan kishilarni axloqli kishilar deb ataymiz.

Kishilarning hayoti va faoliyatida shunday hollar ko'p bo'ladiki, bunda odam zarur paytida o'zini tuta olmay qoladi, jasurlik, sabot-matonat, intizomlilik ko'rsata olmaydi. Xarakter xislati irodasiz kishilar mavjud, bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki irodasiz kishilar deyiladi. Bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki chidamsiz kishilar deyiladi. Bular xatto arziyas qiyinchilik va to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmaydigan kishilardir. Bular salgina muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchilik kelib chiqqanda ham o'z oldiga qo'ygan maqsaddan voz kechib ish harakatini to'xtatadigan, o'z qarorini bekor qiladigan yuraksiz, qo'rqqoq kishilardir. Ular vaziyat talab qilganda zarur jasurlik sabot-matonat, chidam, toqat, qat'iyat ko'rsatmaydilar. Bular cho'chima, yalqov joni paxta kishilardir. Bunday kishilarning xatti-harakatlari odatda ularning o'zidan ko'ra tashqi sharoitga bog'liq bo'ladi.

Bunday xarakter xislatlarga ega bo'lgan kishilar pessimistik kayfiyatda bo'lib, dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydilar. Ular doimo barcha kishilarning salbiy, yomon tomonlarini ko'radilar, bu kishilarning fikricha, o'zlarining barcha kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklarining sababchisi boshqa kishilardir. Bu xildagi ba'zi kishilar passiv beparvo kayfiyatda bo'ladilar.

Irodaning mustaqilligi. Kishilarning irodaviy harakatlariga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko'riladi. Tashabbuskorlik biror bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tevarakatrofdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini epchillik, mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda namoyon bo'ladi.

Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga ola biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo'l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi. Mustaqillik qilinilmagan va qiliniigan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko'rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to'g'riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir.

Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko'z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko'rinadi. Tanqidiy

ko'z bilan mulohaza yuritish xarakter xislati bo'lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko'rinadi, xarakterning shu xislati bo'lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga e'tibor bilan quloq soladi, ularga muayyan tamoyillar nuqtai nazaridan baho beradi, ijobiy foydali narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoйда narsani dalillar bilan rad etadi.

Ayrim kishilarning iroda mustaqilligi ba'zan qaysarlik kabi maxsus holatda ko'rinadi. Bu holat shundan iboratki, odam boshqa kishilarning aytgan hamma gaplariga, maslahat, iltimoslariga qarshilik ko'rsatadi. Qaysarlik qilayotgan odam yo buyurilgan ishni qilmasdan, o'z bilganini qilaveradi yoki buyurilgan ishni teskarisini qiladi.

Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko'rsatadi. Iroda kuchi katta to'sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilangina ifodalanmay, tashabbuskorlik ko'rsatish, mustaqillik, dadillik ko'rsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shamsheva A.K., Melibayeva R.N., Usmanova X.E., Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent, 2018 y.
2. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2010 й.
3. Реан А.А., Бордовская Н.В., Психология и педагогика, Учебник. Питер. 2010 г.
4. Умаров Б.М., Шойимова Ш.С., Ро'зийева Д.И. Педагогика. Психология, Дарслик. Тошкент. 2019 й.

MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI TADBIRLARDA AJDODLAR MEROSLARINI O'RGANISH ASOSIDA MILLIY G'URURNI TARBIYALASH

Ravshanova Maxliyo Xayitboy qizi

Sirdaryo viloyat Sayxunobod tumani 39-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida ajdodlarimiz merosini o'rganish orqali ularni matematika geometriya faniga qo'shgan hissalarini o'rganish imkoniyatlariga to'xtalib o'tilgan va uning milliy g'ururni tarbiyalashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, sinfdan tashqari tadbir, ajdodlar merosi, milliy g'urur.

O'z vatani tarixini, uning ajdodlari qoldirgan merosni o'rganmasdan, u bilan g'ururlanish hissini tuymasdan milliy o'zlikni anglab bo'lmaydi. O'z

tarixini chuqur va mukammal bilgan xalq va millat tarix saboqlaridan o'ziga tegishli va zarur xulosalar chiqarib oladi.

Kelajak yoshlar qo'lida ekan, ularni milliy qadriyatlarimizni chuqur o'rganishga yo'naltirgan holda ularni qadrlashga ham undasimiz darkor.

Asrlar davomida ajdodlarimizning aqlu-zakovati bilan yuzaga kelgan milliy qadriyatlar inson shaxsining har tomonlama kamol topishida yetakchi omildir. Shunday ekan, hozirgi zamon kishisi, xususan yosh avlodning milliy tushunchasini, ongini boyitib borish katta ahamiyatga ega.

Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy boyliklar xalqimiz tomonidan ko'z qorachigidek saqlanmoqda va o'rganilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlod - maktab o'quvchilarini mana shu asarlar bilan tanishtirish ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bilim saviyasini yuksaltiradi.

Tarixni ajdodlarimizning buyukligi nimadan iboratligini bilmay turib milliy g'urur, milliy iftixor tuygusi shakllanmaydi. Kelajak o'tmishdan boshlanadi, degan gap bor. Buning uchun ajdodlarimiz Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek, Umar Xayyom, G'iyosiddin Jamshid Koshiylarning ilmiy merosini o'rganishga da'vat etishimiz, buni bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda uzviylikda o'rgatib borishimiz lozim.

Boshlang'ich sinflarda matematikani o'rgatish jarayonida tarixiy ma'lumotlar va matematika rivojiga hissa qo'shgan ajdodlarimiz haqidagi ma'lumotlarni berish asosida o'quvchilarda yuqorida ta'kidlangan milliy g'urur, o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiramiz.

Matematika darslari jarayonida, to'g'arak mashg'ulotlarida, turli matematikaga oid o'tkaziladigan ertalik, kechalar va turli tadbirlarda ham o'qituvchi o'quvchilarni ajdodlarimiz va bugungi kunda fan taraqqiyotiga hissa qo'shib kelayotgan olimlar, ixtirochilar haqida ma'lumotlar, ularning ilmiy xizmatlari bilan tanishtirib, ular bilan g'ururlanish tuyg'ularini singdirishi kerak. Masalan: buyuk o'zbek matematik olimi Al-Xorazmiy tarjimai holi bilan tanishtirish asosida Farbiy Yevropa olimlari algebrani uning asarlaridan o'rganganliklari, bugungi kunda o'rganilayotgan algebra fani ajdodimiz nomi asosida atalishini ta'kidlab u butun xalqimizning faxri ekanligini ta'kidlab ularda ham milliy g'ururni tarbiyalash lozim.

O'zbek millatining tarixiy tarkib topishi, til, fan, madaniyat, davlat, turmush tarzi, tarixiy obidalar asosida ham o'zlikni yana bir bor anglatadi. Shuning uchun biz boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonida milliy g'ururni tarbiyalash imkoniyatini beruvchi quyidagi omillarni sanab o'tmoqchimiz:

1. Xalq og'zaki ijodi asosida matematik tushunchalarni singdirish;
2. Matematik olimlar va ularni fan taqqiyotidagi xizmatlari haqida ma'lumotlar berish;
3. Qadimiy obidalar va inshootlar orqali matematik (geometrik) tushunchalarni shakllantirish.

Xalq og'zaki ijodida ertaklardagi qadimiy o'lchov birliklari, maqollarda sonlarning ishtiroki asosida ham tushunchalarni shakllantirish asosida uning tarbiyaviy ahamiyatini yoritish lozim:

- Yetti o'lchab, bir kes;
- Sanamay sakkiz dema.
- Birniki mimgga, mingniki tumanga kabi.

Matematik olimlar haqida ma'lumotlar berish bolalarga xos she'rlar asosida tashkil etilishi yanada maqsadga muvofiq bo'ladi:

Masalan:

Xalqimizning faxridir, necha buyuk siymolar:

Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniylar.

Bizdek yosh avlodga sinchkov boqar bobolar,

Har odimim kuzatib, ilmlarimiz baholar.

Qoloqni kechirmas, qilmang derlar xatolar

Kashfiyotlar qilsalar, shunda olam tan olar.

Qadimiy obidalar va inshootlar orqali matematik (geometrik) tushunchalarni shakllantirish asosida madrasalar, minoralar, tarixiy obidalar turli qurilishlar O'rta Osiyoda arnament-grafika juda rivojlangan bo'lib, ular esa geometrik figuralarga

(to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, romb, trapetsiya, aylana, ellips, doira, uchburchak va h.k)ga asoslanganligini izohlagan holda rasmlar, ekskursiyalar orqali qaysi inshootda qanday geometrik shakllar mujassamlashganliklari haqida suhbatlar uyushtirish lozim bo'ladi. .

Bular asosida o'quvchilarda quyidagilar shakllanadi:

1. Vatanga bo'lgan muhabbat va ajdodlar merosiga hurmat va faxrlanish tuyg'usi;
2. Matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi;
3. O'quvchilarni matematik bilim va tasavvurlarini chuqurlashishi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jumayev M.E Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) – T.: "Turon iqbol" 2016. .
2. Omonov. B "Qiziqarli matematika" T-1998.

**ANIQ VA TABIIY FAN O'QITUVCHILARI UCHUN
UZ.KHANACADEMY.ORG PLATFORMASI IMKONIYATLARIDAN
DARSDA VA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA
FOYDALANISH**

D.B.Jonibekov

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, Sirdaryo viloyati
pedagoglarni yangi metodikalarga tayyorlash milliy markazi o'qituvchisi.

malakaoshirishdoniyor@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarining aniq va tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Fan o'qituvchilari matematika bo'yicha: boshlangich matematika, arifmetika asoslari, algebra va geometriya, trigonometriya, matematik analiz asoslari va chiziqli algebra hamda tabiiy fanlar bo'yicha: biologiya, kimyo, organik kimyo, fizika, yuqori sinf biologiyasi va astronomiya kurslarini Khanacademy o'zbek platformasidagi videodarslar, bilimni baholovchi interaktiv test usullaridan darslarda foydalanish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar berilgan. Ushbu tezis aniq va tabiiy fanlar sohasidagi o'qituvchilar va bilim olish istagidagi barcha o'quvchilar hamda shu fanlarga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Tayanch tushunchalar: MOOC, uz.khanacademy.org, masofaviy ta'lim, Khan Academy, kurslar, videodarslar, test topshiriqlari.

Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak.

Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz.

"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlariga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim.

O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bu borada Prezident maktablarida 130 ta mamlakatda ma'qullangan "A-level" ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'zining qobiliyatiga qarab, aniq yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'qitiladi, dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatlari kengayadi.

Prezidentimizning yuqoridagi gaplarini inobatga olgan holda ushbu metodik tavsiyamda uz.khanacademy.org ommaviy ochiq onlayn kurslar

platformasida o'qituvchilar o'quvchilarning bilimlarini baholash, onlayn va oflayn darslarda platforma imkoniyatlaridan foydalanish metodikalari keltirilgan.

Khan Academy imkoniyatlari. Xan akademiyasiga 2006-yilda amerikalik Salmon Xon tomonidan asos solingan. U boshqa shtatda istiqomat qiladigan jiyaniga matematika bo'yicha masofadan turib saboq berish uchun darslarni video shaklida yozib, Youtube tarmog'iga joylashtirib boradi. Bu orada uning videosaboqlari boshqa foydalanuvchilar orasida ham keng tarqaladi. Shu tariqa akademiyaning ilk asosi qo'yilgan. Akademiyaning asosiy maqsadi Yer sharining barcha aholisi uchun yuqori sifat va bepul ta'lim olish imkonini berishdan iborat.

Platformani o'zbek tiliga o'girish bilan "Bilim Onlayn" NNT shug'ullanadi. Bugungi kunga qadar birinchi fan – boshlang'ich matematika video va matn materiallari to'liq tarjima qilindi. Dastlabki 315 dan ortiq videodarslar yaratilib, Youtube kanaliga yuklangan.

Ushbu metodik tavsiya orqali maktab o'qituvchilari o'quvchilarning bilimlarini baholashda axborot kommunikatsion texnologiya vositalari orqali zaruriy va zamonaviy metodik bilimlarga, darslarni masofadan tashkil etishda yordam beradi.

Elektron o'qitish tizimi bu ananaviy sinf dars tizimi emas, balki o'quvchini kompyuter yordamida bilim olishidir. Ko'pgina hollarda bu tizim maxsus kompyuter dasturlash yoki online masofadan o'qitish shaklidan iborat bo'ladi.

Masofaviy ta'lim – bu o'qituvchi va o'quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, informatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda olib boriladigan ta'lim turi.

Masofadan o'qitish quyidagi afzalliklarga ega.

- ✓ Dars jadvalining qulayligi;
- ✓ Istalgan joydan turib ta'limdan foydalanish manzillari;
- ✓ Ta'lim, o'quvchilar yangi bilimlarni tushunishlari tempida o'tkaziladi;
- ✓ Qulay o'quv reja;
- ✓ Ma'lumotlar bazasining to'planishi, ya'ni oldingi o'qigan talabalar bilimlarini to'plash va undan foydalanish imkoniyati.
- ✓ Multimediya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.
- ✓ Malakali o'qituvchilarni tanlab ta'lim jarayoniga jalb qilish.

Khan Academy – Amerikaning notijorat ta'lim tashkiloti bo'lib, u video shaklida qisqa darslarni tayyorlaydi. Uning veb-saytida qo'shimcha mashqlar va o'qituvchilar uchun materiallar mavjud. Barcha manbalar veb-sayt va ilova foydalanuvchilari uchun bepul taqdim etilgan.

Khan Academy kontenti bugungi kunda 36 ta tilga tarjima qilingan bo'lib, undan 190 dan ortiq davlatda 63 millionga yaqin odam foydalanadi. Platformadan foydalanish bepul. Veb-sayt va uning tarkibi asosan ingliz tilida taqdim etilgan, ammo boshqa: arab, arman, ozarbayjon, bengal, bolgar, xitoy,

chex, dat, golland, fransuz, gruzin, nemis, gujarot, ibron, hind, indonez., italyan, yapon, koreys, norveg, polyak, portugal (Braziliya va Yevropa), serb, ispan, shved, tamil, telugu, turk, urdu va o'zbek tillarida ham mavjud.

Khan Academy onlayn tarzda mustaqil bilim olishga mo'ljallangan platforma hisoblanadi. U matematika, fizika, kimyo, biologiya, iqtisodiyot, ingliz tili grammatikasi, tibbiyot, astronomiya, moliya, tarix kabi fanlar bo'yicha 10 mingdan ziyod videodarslar va 100 mingdan ortiq mavzulashtirilgan interaktiv mashqlarni jamlagan juda katta qamrovli platforma bo'lib, har kim o'zi istagan tilda, qulay vaqt va joyda kerakli fan bo'yicha bilimlarni olishi mumkin. Videolar 5-6 daqiqalik mikroma'ruzalardan iborat. Har bir video muayyan fan bo'yicha bitta tushunchani tushuntirishga yo'naltirilgan. Mazkur mavzu yuzasidan bilimlarni sinash uchun interaktiv mashqlar ham taqdim etiladi.

Khan Academyning boshqaruv paneli orqali virtual sinfxona yaratib o'qituvchilarga o'z o'quvchilari yoki farzandlari nimani istayotgani va ularga qanday yordam berish mumkinligini o'rganish imkonini beradi. O'quvchingiz yoki farzandingiz maktab dasturini qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borish, hamda boshqaruv panelida o'qituvchi sinfning to'liq ma'lumoti, har bir o'quvchining alohida o'zlashtirish darajasini ko'rib chiqish imkoni mavjud.

Loyiha xayriyalar yordamida amalga oshirilmoqda va uning rivojiga har bir inson o'z hissasini qo'shishi mumkin. Bundan tashqari, istalgan odam loyihaga qo'shilishlari va qo'llab-quvvatlashlari mumkin, bu nafaqat moddiy yordam ko'rinishida, balki ular ko'ngilli tarjimon yoki muharrir bo'lishlari; o'qituvchi sifatida videodars yaratishlari; dizayn, ijtimoiy media marketing va PR (jamoatchilik bilan aloqalar) sohasi bilan yordamlashishlari; do'stlariga va oilasiga loyiha haqida aytib berishlari mumkin.


Khanacademy o'zbek loyihasi. Uz.khanacademy.org manzilida ishga tushirilgan platforma individuallashtirilgan bo'lib, u teskari sinfxona metodini qo'llash imkonini beradi. Ya'ni platformadagi video darslar o'quvchilarga uyga vazifa qilib berilishi, sinfda esa ularga tushunarli bo'lmagan joylarigina muhokama qilinishi mumkim. Shuningdek, test va amaliy topshiriqlarni ishlashda o'quvchilar noto'g'ri javob variantlarini belgilasa yoki topshiriqlarni bajara olmasa, aynan o'quvchi topa olmagan topshiriqlari yuzasidan masalaning yechimlari yo'lining ketma-ketlikda berilganligi va video darslarga o'tib mavzuni mustahkamlab olish imkoniyati mavjudligi platforma orqali o'quvchilar mustaqil ta'lim olaolishlari mumkin.

Ushbu lohiya 2021-yilda yakunlandi va homiylik tomonidan 2,26 mlrd. so'm yig'di, jami 26 ta fan bo'yicha o'zbek tilidagi 5300 ta videodarslar tayyorladi. Matematika va tabiiy fanlar sohalari bo'yicha 16 ta kurs yaratildi.

Khanacademy o'zbek loyihasi – bu aniq va tabiiy fanlar, mutlaqo bepul darslar, onlayn ta'lim olish uchun 24/7 foydalanish imkoniyati, juda ko'plab yangi kontentlar, maktab ta'limi uchun ilg'or platforma, sun'iy idrok tahlillarini o'rganish va ta'lim olishni, ota-ona va o'qituvchilar uchun boshqaruvli

panelidan samarali foydalanish, hamda, o'zbek tilining nufuzini oshirish yanada oshirishga qaratilgan bepul onlayn ta'lim platformasidir.

Xanakademiya.uz – bu khanacademy o'zbek loyihasiga kirishning bosh manzili hisoblanadi. Bosh sahifaning **Bizga qo'shiling** – bo'limida loyihaga ko'ngilli tarjimon, o'qituvchi, muharrir bo'lib yoki boshqa masalalarda jamoaga qo'shilish mumkin.




Jamoamiz – bo'limida khanacademy o'zbek loyihasi asoschilari va xodimlari tog'risida ma'lumot hamda ular bilan bog'lanish uchun kontakt ma'lumotlari berilgan.

Youtube – bo'limida barcha bepul video darslarni ko'rish imkoni mavjud.


Loyiha haqida – umumiy ma'lumotlar va lohihaning maqsadlari togrisida ma'lumotlar berilgan.

Blog – qismida loyiha haqida bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarni o'qish hamda o'zingiz ham fikrlar va takliflar qoldirishingiz mumkin.



Bu qanday ishlavdi?

2-rasm




Sinab ko'rish

3-rasm



Foydalanish uchun video qo'llanma:

- Videodarslar bo'limida 4 ta fan sohasi bo'yicha videodarslar berilgan:
- ✓ Matematika (boshlang'ich matematika, arifmetika, geometriya asoslari, boshlang'ich algebra, algebra I va II qism, geometriya, trigonometriya, matematik analiz asoslari, differensial tenglamalar, chiziqli algebra);
 - ✓ Tabiiy fanlar (fizika, astronomiya, kimyo, organik kimyo, biologiya, yuqori sinf biologiyasi, tibbiyot);
 - ✓ Axborot texnologiyalari (dasturlash, informatika);
 - ✓ Iqtisodiyot (mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot).



4-rasm



Ro'yxatdan o'tish bo'yicha video yo'riqnoma:


Uz.khanacademy.org - barcha uchun jahon standartlariga mos bepul ta'lim olish imkoniyatini yaratuvchi platformadir.

Platformadan ro'yxatdan o'tishdan o'tish uchun foydalanuvchi avtorizatsiyadan o'tishi kerak, ya'ni ro'yxatdan o'tayotgan foydalanuvchining muayyan manbalardan foydalana olishini aniqlashtiruvchi jarayondir.




**Barcha yoshdagi o'quvchilar uchun.
Haqiqiy natijalar.**

Maqsadimiz - barcha uchun jahon standartlariga mos bepul ta'lim olish imkoniyatini yaratish.




5-rasm

Maktab o'qituvchilari uchun platformaning "O'qituvchi" tugmasini bosish orqali uz.khanacademy.orgning ro'yxatdan o'tish sahifasi ochiladi:



7-rasm

Google orqali kirish tugmasi bosilib elektron pochta manzilingizni yoki Facebook, Apple account, E-mail kabi akkauntlaringiz orqali ham ro'yxatdan o'tishingiz mumkin.



8-rasm

Boshlash tugmasi bosilgach, sahifada matematika va tabiiy fanlarining kurslar ro'yxati ko'rinadi. Bu yerdan o'qituvchi o'zining fani va unga biriktirilgan kurslar ro'yxatini belgilab oladi.

Qaysi fandan dars berasiz?

Matematika

- Boshlang'ich matematika
- Arifmetika
- Boshlang'ich algebra
- Algebra I
- Algebra II
- Geometriya asoslari
- Geometriya
- Trigonometriya
- Matematik analiz asoslari
- Chiziqli algebra


Tabiiy fanlar

- Biologiya
- Kimyo
- Organik kimyo
- Fizika
- Yuqori sinf biologiyasi
- Astronomiya


Kursim ro'yxatga olinmagan

- Umumiy

9-rasm



Bundan tashqari o'qituvchi xuddi googleclassroomdagi kabi sinfxona yaratishi uchun "Kursim ro'yxatga olinmagan" ostidagi "Umumiy" tugmasini belgilash kiritib, o'quvchilari uchun sinfxona yaratib olishi mumkin. Shundan so'ng, "Davom etish" tugmasi bosiladi.



10-rasm


Ochilgan sahifada 1 – maktab yaratishingiz, 2 – talabalar yoki o'quvchilarni yaratilgan sinfingizga qo'shishingiz, hamda, 3 – kurslar ro'yxatiga kirib o'zingizning tanlagan kurslaringizni boshlashingiz mumkin bo'ladi.

Maktab yaratish va o'quvchilarni sinfga qo'shish, hamda sinfxonani va o'quvchilarni boshqarish bo'yicha batafsil o'rganish uchun ushbu havolani skannerlang:

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida tizimdagi yuqorida 9-rasmda keltirilgan kurslardan boshlang'ich matematika, arifmetika




va boshlang'ich algebra kurslarini tanlab olib, **Davom etish** tugmasi bosiladi. 10-rasmda keltirilgan (3) kurslar ro'yxatiga kirib yuqorida tanlab olingan kurslardan birini tanlab olamiz.



11-rasm

Masalan, boshlang'ich matematika kursini tanlab olamiz. Quyidagi ilova qilingan 12-14-rasmlardan ko'rish mumkinki, sahifa uch qismga bo'lingan. Sahifaning chap qismida kurs bo'yicha mavzular, o'rta qismda mavzu bo'yicha video darslar va qoshimcha ma'lumotlar berilgan. O'ng tomonda esa, mavzu yuzasidan test topshiriqlari qiziqarli o'yin tarzida berilgan.



12-rasm

Kurslar ▾ IZLASH 🔍 Khan Academy malakaoshirishdonyor

Boshlang'ich matematika
8 UNITS · 101 SKILLS

UNIT 1
Sanash

UNIT 2
Qo'shish va ayirish bilan tanishuv

UNIT 3
Sonlar xonasi (o'nliklar va yuzliklar)

UNIT 4
20 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish

UNIT 5
100 ichida qo'shish va ayirish

UNIT 6
1000 ichida sonlarni qo'shish va ayirish

UNIT 7
O'lchovlar va ma'lumotlar

UNIT 8
Geometriya

<https://uz.khanacademy.org/math/early-math/cc-early-math-add-sub-1000/cc-early-math-add-ones-tens-hundreds/e/add-within-1000-level-1>

1 lik, 10 lik va 100 liklarni qo'shish

O'rganish

- ▶ 10 yoki 100 ni qo'shish
- ▶ 1 lik, 10 lik va 100 liklarni qo'shish
- ▶ 3 xonali sonlarni qo'shish

Mashq qiling

10 lik va 100 liklarni xona birliklariga ajratmasdan qo'shish
O'zlashtirish uchun kamida 7 ta savoldan 5 tasiga to'g'ri javob bering! Boshlanmagan

Mashq qiling

2 va 3 xonali sonlarni xona birliklariga ajratmasdan qo'shish
O'zlashtirish uchun kamida 7 ta savoldan 5 tasiga to'g'ri javob bering! Boshlanmagan

Mashq qiling

1 liklar, 10 liklar va 100 liklarni ayirish

O'rganish

- ▶ 1, 10 yoki 100 ni ayirish

Mashq qiling

13-rasm

10 lik va 100 liklarni xona birliklariga ajratmasdan ayirish

O'zlashtirish uchun kamida 7 ta savoldan 5 tasiga to'g'ri javob bering!

Tayinlash

Kurslar ▾ IZLASH 🔍 Khan Academy malakaoshirishdonyor

Boshlang'ich matematika

COURSE: BOSHLANG'ICH MATEM... → UNIT 6

Lesson 2: 1 lik, 10 lik va 100 liklarni qo'shish

- ▶ 10 yoki 100 ni qo'shish
- ▶ 1 lik, 10 lik va 100 liklarni qo'shish
- ▶ 10 lik va 100 liklarni xona birlikla... Boshlanmagan
- ▶ 3 xonali sonlarni qo'shish
- ▶ 2 va 3 xonali sonlarni xona birlikla... Boshlanmagan

14-rasm

10 yoki 100 ni qo'shish

Google sinfxona

$$\begin{array}{r} 235 \\ + 10 \\ \hline \end{array}$$

$$235 = 2 \text{ ta yuz} + 3 \text{ ta on} + 5 \text{ ta bir}$$


$$+ 1 \text{ ta on}$$

$$+ \quad + \quad + \quad +$$

Up next: video

Boshladik (15-rasm) bosilganidan so'ng, quyidagi ko'rinishdagi topshiriqlar chiqadi (16-rasm).

Tizimda bunday topshiriqlarning bajarilishining yana bir qulaylik tarafi shundaki, agarda o'quvchi topshiriqni bajara olmasa, shu sahifaning o'zida mavzuni mustahkamlash uchun video darsni takror ko'rish yoki topshiriqni qanday bajarish ketma-ketligi haqida ko'rsatmalar berilgan (17-19-rasmlar).



19-rasm
Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.:, 2021.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2016.

3. Olimov Q.T. va boshqalar. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.:, 2018.
4. Yo'ldashev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
5. Aripov M., Muhammadiyev M. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. – T.:TDYuI, 2004.
6. G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlariva texnologiyalari. Darslik. T.: Sharq, 2000.
7. Mamarajabov M.E., Tursunov S.Q. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik. – T.: Cho'lpon, 2013.
8. Mo'minov B. Informatika. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2014.
9. Dilmurodova M. Новости образования: исследование в XXI веке // MOOC (Massive open onlayn courses - ommaviy ochiq onlayn kurslar) 2023. №6, часть 2.

Internet saytlari:

www.tdpu.uz
www.ziyonet.uz
www.edu.uz
www.lex.uz
<https://president.uz/oz/lists/view/5774>
<https://uz.khanacademy.org/>
<https://www.xanakademiya.uz/>
<https://www.youtube.com/@KhanAcademyUzbek>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA IJODIY OBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Turdiyeva Raxima Kurbanovna

Guliston davlat universiteti “Boshlang'ich talim uslubiyoti”
kafedrası o'qıtuvchısı
raximatur63@gmail.com

Asadova Shahlo Saidjon qizi

Guliston davlat universiteti “Boshlang'ich talim” yo'nalishi
3-kurs talabası

Annotatsiya

Ushu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari haqida bayon qilingan.

Kirish

Bugungi globallasuv, taraqqiyot kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezmoqda. Chunki dunyoda har daqiqada sodir

bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqizo qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining bor e'tibori ta'lim jarayonida bola shaxshining kreativ qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish muammosiga qaratilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g'oyasiga mos keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijodiy fikrlash shaxsning xislati sifatida har qanday faoliyat turida individual yoki guruh yutuqlarga erishishda yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib, uning fenomenologiyasi talqinida tafakkurning ijodiyligi alohida o'rin tutadi. Psixologiyada ushbu muammoning ham nazariy hamda amaliy tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab izlanishlar mavjuddir.

Ijodiylik - ijodiy mahsulot, ijodiy shaxs, ijodiy muh'it va ijodiy jarayonning mahsuli ekanligi haqidagi xorij tadqiqotchilarining fikri ham turlichadir, jumladan. E.Barron, P. Harrington, N. Gardnerlar - «ijodiy jarayon - bu muammoni izlashda faollik shakli, bilimlarning mavjud chegarasini ongli va maqsadga yo'naltirib kengaytirishga urinish, mavjud cheklanishlarning buzilishidir» - degan fikrga tayanadilar. D.Torrance - «ijodiy jarayonni tushuntirishdagi muvaffaqiyatsiz urinish yoki tasdiqlanmagan faraz, mavjud bilimlarga yangi g'oyalarni kiritishga urinish- sifatida qaraydi va hokazo.

Tafakkurdagi ijodiylik va ijodiylik masalasi ko'plab rus psixologlarining ham tadqiqot predmetini tashkil etib, ularning fikricha: P.P.Blonskiy A.M.Matyushkinlarning ta'kidlashicha, «ijodiylik - tafakkur jarayoni mahsuldorligining sharti, aqlning xislatidir».

Ijodiy ko'nikmalar - bu ijodiy faoliyatning muayyan turini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini aniqlaydigan va uning samaradorligi darajasini belgilovchi individual xususiyatlar to'plamidir. Ular insonning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlariga kamaytirilmaydi. Ijodiy qobiliyatlar qiziqish, ijodkorlikka intilish va hissiy munosabatda, bilim sifati, mantiqiy va ijodiy fikrlash, tasavvur, mustaqillik va qat'iyatlilik izlanishida namoyon bo'ladi va sub'ektiv ravishda yangi yoki boshqa sohani yaratilishini ta'minlaydi.

Ijodiy fikrlash shaxsning shunday fikrlash qobiliyatiki, bunday fikrlash jarayonida inson narsa va hodisalar xususida o'z qarashlariga ega bo'ladi.

Xalqaro mutaxassislar ijodiy fikrlashni «yangi g'oya va yechimlarni berish» deb ta'riflaganlar. Uning 6 jihati bor:

- 1] mos tajriba va ma'lumotni ta'riflash, sezish, kuzatish, hamdard bo'lish;
- 2] tadqiq qilish, qidirish va g'oyalarni ishlab chiqish;

- 3] bog'liqliklarni qurish, sohalararo nuqtayi nazarni tatbiq etish;
- 4] noodatiy yoki jasur g'oyalar bilan o'ynash;
- 5] yangi mahsulotni tasavvur qilish, ifodalash, ishlab chiqish, kashf qilish;
- 6] yechimning yangiligini tan olish.

Ijodiy fikrlash ta'lim va o'qitishning markaziy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarga o'quv materialini ma'noni tushunishga, kuzatishga, keyin uni kundalik hayotlari bilan bog'lash orqali o'rganishga va saqlashga yordam berish uchun mo'ljallangan ta'lim tizimidir.

Ijodiy fikrlash ta'lim va o'qitishning markaziy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarga o'quv materialini ma'noni tushunishga, kuzatishga, keyin uni kundalik hayotlari bilan bog'lash orqali o'rganishga va saqlashga yordam berish uchun mo'ljallangan ta'lim tizimidir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standarta bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy jamoalarning (topqirlikning) tezligi;
- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijodiy fikrlash o'ziga xos asosiy xususiyatlarga ega:

- ✓ Yangi, g'ayrioddiy narsalarga moyillik.
- ✓ Mustaqillik, o'z fikriga egalik
- ✓ Tavakkal qilish uchun jasorat.
- ✓ To'siqlarga duch kelish va ularni yengib o'tishga tayyorlik.
- ✓ Noaniqlik holatlariga nisbatan sabrlik.

Bolalar birdaniga ijodkor bo'lib qolmaydilar, ijodkorlikni rivojlantirish ham bir qancha omillarga bog'liq. O'quvchining bergan har bir savoliga erinmay javob berish, fikrlash uchun qulay muhit yaratish, fikrini tinglash yoki tinglashga o'rgatish, bildirilgan fikrini rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, ularga qo'yilgan har qanday cheklovlarni olib tashlash, o'qib – o'rgatish uchun qulay vaziyatlarni yaratish shular jumlasidandir. O'quvchingiz ijodkor bo'lishini xohlasangiz unga o'zi qiziqqan mashg'uloti bilan shug'ullanishiga imkon bering. Ularning fikrlarini hurmat qiling.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari

- O'ziga nisbatan ishonchni orttirish.
- Tasavvurini rivojlantirish.
- Dunyoqarashini kengaytirish.
- Ko'proq bilim olishga undash
- Fikr bildirish va himoya qilish.
- Ijodiy fikrlashga o'rgatish

➤ Diqqatni hal qilinishi kerak bo'lgan muammoga qaratishni o'rgatish Ijodkorlik - bolalikning doimiy hamrohi. Bugungi kunda bola - bu bilimga intiladigan, yangi va qiziqarli narsaga intiladigan, ular o'zlarini turli yo'nalishlarda sinab ko'rmoqchi bo'lgan va hoziroq yuksaklikka erishmoqchi bo'lgan kichik odam. Bolaning ijodiy faoliyati natijasida uning ichki dunyosi boyiydi, fantaziya va tasavvur, ijodiy didi rivojlanadi.

Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari:

Ochiq savollar orqali: “Agar biror-bir joyga borishingiz mumkin bo'lsa, qayerga borasiz? Agar odamlar okeanda yashashlari mumkin bo'lsa-chi? Agar .. bo'lsa nima bo'ladi ...?” Bolalarga nazariyalar va farazli g'oyalarni taklif qilishlariga imkon berish, ularning ijodini rivojlantirishning samarali bir usulidir.

Birga yaratng: mavjud bo'lmagan hayvonlar va qushlar haykalini yasash, samalyot maketini yasash, rasm chizish, ertaklar yozing. Bu usul orqali o'quvchi xayolan firlaydi, tasavvur qiladi, ijodiy izlanadi.

Mutolaa: o'qish nafaqat xotirani yaxshilaydi, balki so'z boyligini kengaytiradi va diqqatni oshiradi, shu bilan birgalikda, ijodkorlikni ham shakllantiradi. Bolalarga foydali bo'lgan eng yaxshi odatlardan biri har kuni yotishdan oldin kitob o'qishdir. Ammo an'anaviy o'qish bunga doim ham yordam bermasligi mumkin. Biror bobni o'qib tugatish va chiroqni o'chirish o'rniga, o'quvchingizdan (bolangizdan) keyin nima bo'lishini o'ylab ko'rishini so'rang va kitobdagi sevimli qahramonlar haqida so'zlashing. Siz shunda nafaqat o'quvchingiz bilan samarali vaqt o'tkazasiz, balki ularga fikrlash doirasini kengaytirishga, yaratuvchanligini oshirishga yordam berasiz.

Har qanday narsani xayol qilishga o'rgating.

Masalan, oddiy qog'oz, yelim idish qopqog'i, “shlang”dan yana nima bo'lishi mumkin? Undan qanday foydalana olasiz?

O'quvchiga u so'ragan hamma narsani tushuntiring.

O'quvchiga u so'ragan hamma narsani erinmasdan qayta-qayta tushuntiring va undan nimani tushunganini so'rang.

Obyektlarni turli nuqtai nazardan ko'rishga o'rgating.

Turli obyektlarning umumiyliги nimada ekanligini so'rang. Masalan, sharikli ruchka va uy telefoni.

Qarama-qarshi bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil belgilarni nomlash.

Misol uchun, shisha va metall - mashina, samolyot, deraza, mobil telefon va boshqalar.

Mos kelmaydiganlarni birlashtirish.

O'quvchingiz yoki farzandingiz bilan mos kelmaydigan narsalarni birlashtiring masalan, Ruchka va “lezviya” - agar siz ushbu narsalarni birlashtirsangiz, nima olishingiz mumkin?

Birgalikda matn yoki ertak tuzing.

Qaysi ertak yoki multfilm qahramonlarini yaxshi ko'rishini so'rang va u bilan hayolan sarguzashtli mant (ertak) yatating, chunki hamma narsani hayol qilishdan boshlanadi.

O'quvchigiz bilan o'ynang

O'yin o'ynash, rol o'ynash, improvizatsiya, film sahnalari ... hamma narsa! O'zini chiroyli ko'rsatish, bolangizga hayotni boshqa nuqtai nazardan tasavvur qilish va kerak bo'lganda ijodiy yechimlarni taklif qilish imkonini beradi. Ssenariyni yaratish uchun uy atrofidagi narsalardan foydalaning, mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga soling va bir muncha vaqt sahna aktyorlari bo'ling!

Natijalarga emas, balki jarayonga e'tiboringizni qaring:

Tasavvur qiling, o'quvchiingiz robot yaratyapti. Bolalardan natijani so'rash o'rniga, jarayon haqida so'rang: sizga eng yoqadigan jarayon nima edi? Eng qiyin jihati qaysi edi? Bu bilan bolalar nafaqat analitik qobiliyatlarni rivojlantiradilar, balki ularni bir xil faoliyat uchun turli xil yechimlar topishga va fikr almashishga undashingiz mumkin.

Bolalar oldiga muammolar qo'ying!

Mukofotlar har doim muammoni yechishga turtki bo'ladi, agar siz bolalar oldiga yecha olishi mumkin bo'lgan muammolarni qo'ysangiz, bola muammoni hal etishning cheksiz usullarini topadi. Ushbu qiyinchiliklar haqiqiy ekanligiga va natijaga emas, balki jarayonga asoslanganligiga ishonch hosil qiling. Bu bolaga kelajakda ham o'z muammolariga oson yechim topishga yordam beradi va ularning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirish talab etiladi:

- Muammoni topish va aniq belgilash.
- Ko'p yangi g'oyalarni yaratish.
- Muammoni turli tomonlardan ko'rib chiqish,
- Turli xil yechimlarni, turli yondashuv va usullarni qo'llash.
- O'ylab ko'rish va javoblar berish.
- Tasavvurda (ongda) harakatlarni bajarish.
- Tahlil qilish va sintez qilish.
- Xulosalar chiqarish

Har bir o'quvchi qandaydir qobiliyat egasidir, o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishtirish pedagoglar zimmasidagi oliy maqsaddir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007. – [300]

2.R.K.Turdiyeva Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish.Darslik.Guliston-2023 [50],[51] [55]

3. Ne'matov B.S.Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari. Scientific Journal Impact Factor. 2021: 5.423 [1] ,[3]

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODBIRLASHMA YIG'ILISHLARIDA TRENINGLAR TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIKDAGI O'RNI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri v.v.b

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim metodbirlashma yig'ilishlarida treninglar tashkil etish maqsadi, treningning ta'lim samaradorligidagi ahamiyati ko'rsatilgan holda, metodbirlashma yog'ilishlarida o'tkazish uchun mo'ljallangan trening mashg'uloti namunasi keltirilgan

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, metodbirlashma, uzluksiz metodik xizmat, trening, kreativlik, ijodiy yondashuv.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i asosida "Umumiy o'rta ta'lim maktabining Metodbirlashmalari to'g'risida"gi NIZOM tasdiqlandi. Unga ko'ra metodbirlashmaga quyidagicha ta'rif berilgan: metodbirlashma - bu umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzluksiz metodik xizmat tizimining bir bo'g'ini hisoblanib, o'qituvchilarga metodik xizmatni amalga oshiradigan, ularning innovatsiya, tajriba-sinov ishlari va ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtiradigan jamoaviy organ hisoblanadi. Metodbirlashma yig'ilishlarida dolzarb mavzular bo'yicha treninglar tashkil etish davr talabi.

Trening – bu mashg'ulotlar intensiv o'qitishning zamonaviy shakllaridan biridir. Butun dunyoda ta'lim rivojlanish va ichki o'zgarishlar uchun eng samarali va eng tezkor vositadir. Ishtirokchilarning barchasi boshqa ishtirokchilar bilan muloqot qiladi, shaxsiy, guruh va umumiy vazifalarni bajaradi va hokazo. Umuman olganda, ular jamoaviy hayot kechiradilar. Trening o'quv jarayonining alohida shakli bo'lib, uning xususiyati darslarning yuqori intensivligi va dars jarayonida e'lon qilingan natijaga erishishning turli usullaridan foydalanishdir. Guruh ishtirokchilarini jalb qilish tamoyillariga ko'ra, barcha treninglar ochiq va korporativ bo'linadi. Trener o'z amaliyotida qo'llaydigan usullarga mohirona va malakali tarzda rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan biznes va rolli o'yinlar, maxsus mashqlar, guruh muhokamalari, "aqliy hujum", psixo-gimnastika va boshqalar kiradi. Quyida

metodbirlashma yig'ilishlarida qo'llash imkonini beruvchi trening ishlanmasi namunasini keltiramiz.

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda kreativ fikrlashga yo'naltirish” mavzusidagi trening ishlanmasi

Maqsad:1. O'quvchilarga ta'lim berish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatish borasidagi ma'lumotlarini kengaytirish.

2. Hamkorlikda ishlash ruhida tarbiyalash.

3. Ta'lim jarayoniga ijodiy muhitni shakllantirishga yo'llash.

Ko'rgazmali qurollar: Trening taqdimoti, rasmlar, rasmlari tarqatmalar, ranhli qog'oz, qalamlar, marker, plakatlar.

Metodlar: Muzyorar, kichik guruhlarda ishlash, katta guruhda muhokama, ijodiy mehnat.

Treningning borishi:

I. Tashkiliy qism.

1. Salomlashish.

2. Trening maqsadini bayon etish.

3. Tanishuv. “Mening ismim mening ijodiy qirram.....” asosida tanishuv mashqi o'tkazish.

Masalan: Mening ismim Mavluda Mening ijodiy qirram, qobiliyatim she'rlar yozaman.

4. Kichik guruhlarga birlashish (Pazl usulida)

Nomlash: Go'zal bahor, Maftunkor bahor, Zumrad bahor.

5. Kutuvlar. Ishtirokchilarga gullar beriladi, gul barglariga bugungi treningdan nimalar kutayotganliklari, maqsadlarini yozish so'raladi

II. Yangi mavzu bayoni.

1. Savollar:

- Kreativ fikrlash deganda nimani tushunasiz? (Katta guruhda muhokama usulida muhokama qilish asosida).

- Qanday yo'nalishlarda kreativ fikrlashga yo'naltirish imkoniyatlari mavjud? (kichik guruhlarning taqdimotlari asosida)

- Insho

- Bayon

- Rasmlar

- Ko'rgazmali qurollar

- Interfaol metodlar

- Ta'limiy o'yinlar

- Krossvordlar

- Rebuslar

- Masala tuzish

- Sayohatlar....

2. Rasm asosida ijodkorona yondoshuvni yarating.

1-guruh matematika, 2-guruh o'qish savodxonligiga 3-guruh tabiiy fanlar ijodiy yondashuv asosida material yaratish so'raladi.



3. “25-may - So‘nggi qo‘ng‘iroq” mavzusida ijodiy mehnat usuli asosida guruhlar chiqishi.



1-guruh: kichik hikoya;

2-guruh: rasm chizish;

3-guruh: she'r, qo'shiq, maqollar;

4-guruh: rolli o'yin kabi....

4. Rasmlar asosida ijodiy matn yaratish.(turli rasmlarni o'zaro mutanosibligiga keltirish asosida)



5. Kreativ fikrlashga yo‘naltirish asosida o‘quvchilarda qanday xususiyatlar shakllanadi? (kichik guruhlar taqdimoti va umumiy xulosalar chiqariladi)

- Qobiliyat.
- Iste'dod
- Kasbga yo‘naltirish
- Muloqot
- O‘zaro hamkorlik
- Dunyoqarashi kengayadi.....

III.Yakuniy qism.

1. Kutuvlar yakuni.(Ishtirokchilarga yiqqan rag‘batlariga bugungi treningdan olgan tassurotlarini yozish so‘raladi va “guldasta ” yasaladi va monitoring chiqariladi



Trening yakuni-xayrlashuv.

Xulosa qilib aytish mumkinki, trening - bu sizning vaziyatingizni tushunish, uni turli tomonlardan burish, hamma narsani tartibga solish va qiyinchiliklarni hal qilish imkoniyatidir. Trening kerakli o'zgarishlar uchun manba bo'ladigan kuchli kuchlarni beradi, bu sizning kelajagingiz uchun kuchli poydevor qo'yish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug'i.
2. Гиппиус С.В. Тренинг развития креативности. Гимнастика чувств. СПб: Издательство "Речь", 2001.
3. D.O. Kamolova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent – 2019.

O'ZBEK XALQINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.Eshmurodov

Sirdaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini dotsenti

Har bir millat o'ziga xosligi, milliy madaniyati, milliy adabiyoti, milliy tili va shu millatning ruhiy tarzining majmuasida, ya'ni milliy ruhiyatida o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, milliy tuyg'usi, temperamenti, xulq – atvori, axloqi, didi, ta'bi alohida ajralib turadi. O'zbek millatining bilish jarayonlari, qobiliyatining aniq yo'nalishga qaratilganligi ehtiyoji va qiziqishi, milliy ongi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

O'zbek xalqining tarixiy an'analari, urf – odatlari, udumi, marosimlari, axloq me'yori, turmush tarsi, ma'naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabati, muomala maromi va xususiyati boshqa qardosh xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanadi. Masalan, o'zbek xalqi xarakterida andishalilik, xushmuomalalik, shirinsuhanlik, mehmon kutishdagi qo'li ochiqlik va sahiylik odatlari mavjud.

Milliy xarakter muayyan millat fazilatlarining o'ziga xos xususiyatlarining majmuasidan iborat bo'ladi. Milliy xarakter o'z ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, o'z – o'zini tuta bilish, qat'iylik, matonat va shu kabilarni) va axloqiy xislatlarni (poklik, intizomlilik, samimiylik, haqqoniylik,

insonparvarlik, vijdonlilik, or – nomuslilik va boshqalarni) qamrab oladi. Shuningdek, milliy xarakter odamlarga bo'lgan munosabatlarni (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik) mehnatga bo'lgan munosabatlarni (mehnatsevarlik yoki yolqovlik, mas'uliyatlilik yoki mas'uliyatsizlik) narsalarga bo'lgan munosabatlarning (ozodalik, ifloslik, tejamkorlik, isrofgarchilik, ayash yoki ayamaslik) va odamlarning o'z – o'ziga bo'lgan munosabatlarni (izzat – nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, dimog'dorlik, kamtarinlik) kabi xususiyatlarni ifodalaydi.

Xalq o'rtasida hukm surib kelayotgan „ Sut bilan kirgan – jon bilan chiqadi” degan naql hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi. Chunki hech qanday inson zoti onadan o'g'ri, diyonatsiz, beburd, berahim bo'lib tug'ilmaydi. Aksincha, milliy xarakter xislatlari oila, jamoatchilik, maktab muhiti ta'sirida shakllanadi va inson shaxsi ijtimiyashib boradi. Xuddi ana shu boisdan inson shaxsining kamolati uchun aqliy taraqqiyot emas, balki axloqiy barkamollik o'zak vazifasini o'tashi lozim.

Axloqiy masala insoniyat yer – yuzida paydo bo'lgan daqiqadan tortib, hozirgi davrgacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. G'ayriodatiy hatti – harakatlar yuzaga kelmasligi uchun axloq tarbiya negizi bo'lib qolmog'i shart.

Oilaviy ta'sir (oila turmush tarsi, ota – ona nufuzi, oilada shaxslararo munosabatlar maromi), milliy til muhiti, ma'naviyatga intilish, qiziqish, turmushdagi qarindosh – urug'chilik rishtasi yordamida o'z – o'zini anglash namoyon bo'ladi. Milliy o'zini - o'zi anglashning qator ob'ektiv va sub'ektiv omillari mavjud. Ana shu omillarning pishib yetilishi maskur jarayonni jadallashtiradi.

Milliy tuyg'u, g'urur, iftihor shaxslararo munosabat jarayonida, hissiy ta'sirlanishda yuksak ma'naviy ichki tuyg'ularda, ijodiy g'oyalar tug'ilishida milliy zavq va shavqda, kayfiyat, shijoat, xush kurish, yoqtirmaslik kabi ichki kechinmalarda aks etadi.

Milliy kuy – xalq his – tuyg'usi va kechinmalarining uyg'un bir maromdagi tovushlar orqali ifodalanishidir. Binobarin, milliy san'at, adabiyot, rasm, tasvir, me'morchilik o'zining jilosi, maromi, gavdalanishi, milliy ruhi, ohangdorligi va monandligi bilan betakrordir.

Hatto o'zbek millatining qomad tutishi keyinishi, ibosi, imo – ishorasi, o'z harakatlari, tabassumi, hayolati, ta'zimi, marosimlari, xalq ijodiyoti – folklori, ta'bi, didi, ochiq qlbligi, ijtimoiy – tarixiy shart – sharoitlari maxsuli sifatida yorqin gavdalanadi.

Milliy yurish turishtarzi kishilarning milliy xususiyati to'g'risida goh oqilona, goh holis bo'lmagan taxminiy fikr yuritishga olib keladi. Bunday murakkab holat millatlarning o'zaro tushunishlarini qiyinlashtiradi. Ayrim holda muloqatga kirishishda ijtimoiy to'siq vazifasini o'taydi. Shuning uchun xalq va elatlarning barqaror xulq atvorini atroflicha o'rganmasdan turib millatlararo tenglikni o'rnatish mumkin emas.

Binobarin xalq va elatlar ma'naviyati va ruhiyatini yosh avlodga singdirish uchun, avvalo, ishni oiladan va maktabdan boshlash kerak. Qolaversa, milliy xarakter, milliy o'zini – o'zi anglashning shakllanish qonuniyatlarini tatqiq qilish aynimuddaodir.

Shuni unutmash kerakki, hatto o'zbek xalqining qo'shiqlari va raqslari ham milliy turmush tarsi, mashg'ulot turini aks ettiradi. Ular sho'h va o'ynoqiligi, g'amgin va vazminligi, murakkabligi va laparga o'xshash qalblarga oson yengil kirib borishligi, marosimbobligi bilan ajralib turadi.

Bizningcha, milliy maktab, dastavval, o'zining tashqi ko'rinishi bilan: birinchidan, maktab binosi milliy uslubda, xalq me'morchilik an'alariga rioya qilgan holda qurilishi, ikkinchidan, maktab tomorqasi milliy bog'dorchilikka uyg'un bo'lishi, uchunchidan, maktabning sport maydonlari ham milliy jilolarga hamohangligi bilan ajralib turishi kerak. Maktab binosining ichki qismi milliy naqsh va ganch o'ymakorligi namunasi bilan bezatilishi, koridorning yaxlit manzarasida milliy tuyg'u hokimlik qilishi, yog'och va ganch o'ymakorligi bezaklari o'z aksini topmog'i sharq afsonalariday tarannum etilmog'i lozim. Ming afsuski, hozirgi zamon maktab binolarining ko'pchilligida milliy ohang, milliy pardoz yo'q.

Ta'lim – tarbiya jarayonida respublikaning tarixi, madaniyati, uzoq ajdodlarimizdan yetishib chiqqan jahongashta kishilar, ilm – fan arboblari, buyuk mutafakkirlar, qomusiy olimlar, ma'rifatparvarlar to'g'risida bilim urug'ini sochish o'quvchilarda g'urur va iftihar tuyg'usini vujudga keltiradi. O'zbekistonning fan va texnikasi, unumdor ona tuprog'i, sahiy va zahmatkash xalqi, foydali qazilmalari, jahon va umumxalq bozoridagi paxtasi, ipagi, qorako'li salmog'ining ochib berilishi – o'quvchilarda milliy ongini o'stiradi, milliy o'z – o'zini anglashni takomillashtiradi. Ijtimoiy faollikni jadallashtiradi, ularni ijodiy izlanishlar sari yetaklaydi, bilimga qiziqishini oshiradi.

O'qitishda o'zbek milliy ta'li usullaridan, topishmoqlaridan unumli foydalanish o'quvchilar talabalar aqliy faoliyatini rivojlantiradi, aqlni peshlash mashqlari vazifasini bajaradi.

Maktab tarbiyaviy ishlarida milliy an'analar, marosimlar, rasm – rusumlar, bayramlar ma'lum darajada o'z o'rnini topsa, o'quvchilarga eng samarali ta'sir o'tkazadi. Maskur ishlarda o'quvchilarning ijtimoiy qtnashivi ularda faollikni orttiradi, har bir shaxs o'z qobiliyati va uquvini sinab ko'radi. O'quvchilarning bunday faoliyatlarda ishtirok etishlari mustaqillik, tashabbuskorlik singari sifatlarni tarkib toptiradi.

O'quvchilar o'rtasida milliy orastalik va kiyinish madaniyati vorislik mas'uliyati, milliy ta'b, milliy didga muvofiq ravishda ish yuritish haqida maslahatlar, ko'rsatmalar berish, amaliy o'quvlar bilan qurollantirish yuqori samara beradi. Milliy kiyimning iqlim sharoitiga mosligi, mavsumbobligi yuzasidan bildirilgan fikrlar bolalarda iliq kechinmalar hosil qilishi mumkin.

Ota – bobolarimizdan xalqimizga meros qolgan sahiylik, mehmondo'stlik, rostguylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlarini milliy xarakterning

eng muhim jihati hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta'lim – tarbiya jarayonida yosh avlod ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Axloq va odobli bo'lish, ota – onalar va kattalarga hurmat, samimiylilik, inoqlik, qadr – qimmat, vijdonlilik, iffatlilik, o'zaro yordam kabi insoniy hislatlar o'zbek xalqi ma'naviyatining ramzi sanaladi. Tug'ishganlarga, avvalo, ota – onaga nisbatan milliy tuyg'udagi munosabat, qon – qardoshlik rishtalari ham milliy ruhiyatni aks ettiradi. Bu narsalarning barchasi xalqning boy madaniyati, tili, adabiyoti, obidalarida o'z ifodasini topadi. Ana shu sababdan milliy – ma'naviy boyligimizni o'quvchilar chuqur egallashlari uchun uning bebaho durdonalarini keng ko'lamda namoyish qilishimiz, bular to'g'risidagi bilim ma'lumotlarni talabalar ongiga singdirishimiz zarurki, ular ko'p asrlilik milliy qadriyatlarimizni anglab yetmog'i kerak. Zotan, bularning barchasi o'zbek maktablarida milliy tuyg'uning keng ko'lamda quloqch yoyishi uchun puxta zamin hozirlaydi.

Agarda o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, shaxslararo muloqat, milliy xarakter, milliy o'z – o'zini anglash, milliy tuyg'u, milliy xulq – atvor tarziga asoslanib amalgam oshirilsa maktab jamoasida hamjihatlik, iliq psixologik iqlim hukm suradi. Shuni unitmaslik kerakki, hatto „go'zallik” tushunchasi ham milliy xususiyatga ega. Eng muhimi bu milliy psixologik tuyg'uni baynalmilal his bilan uyg'unlashtirish tarbiya samaradorligini oshiradi, millatlararo do'stlikni mustahkamlaydi.

Milliy urf – odatlar va marosimlarning barqaror bo'lishi yangi mazmun, yangi mohiyat kasb etadi. Mehmondo'stlik, insonparvarlik, do'stlik, bolajonlik, mehnatsevarlik kabi xislatlar azal – azaldan O'rta Osiyo xalqlarida mavjud bo'lgan ular ayniqsa, endilikda yangicha ma'no kasb etmoqda.

Xalqimizda oilaviy turmushda sodir bo'layotgan voqealarni, unitilmas damlarni nishonlashga intilish, o'z navbatida yangi an'ana va morosimlarni – tug'ilgan kun, maktabga boorish, balog'atga yetish, nikohdan utish, yangi mehmonni qutlash, armiyaga ketishni kuzatish kabilarda bevosita ishtirok etish bolalar, o'smir va o'spirinlar oldiga yangi ctalablar qo'yadi, ijtimoiy kamolatga yetishiviga xizmat qiladi.

Milliy an'analar, milliy urf – odatlar, udum va marosimlar shaklida namoyon bo'ladi. Urf – odat muayyan hatti – harakatlarning aynan takrorlanib turishini, unga to'la amal qilinishini taqozo etadi, shuningdek, u ijtimoiy madaniyatning o'ziga xos amaliy ifodasi hisoblanadi. Marosimlar esa urf – odatlarning barqarorlashgan shaklini bildirib, ichki yaxlitlikka, shaklan bejirimlikka ega bo'ladi. Marosimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri – bu xalq nazokati, latofati, nafosati, ruhiyatini aks ettirishdir. Ota – onalarga hurmat, keksalarga ehtirom kabilar o'zbek va O'rta Osiyo xalqlarining eng asosiy urf – odatlari hisoblanadi.

Xalq rasm – rusumlari, marosimlar va urf – odatlar doirasiga mansub bo'lib, ularning o'zaro munosabatini anglatadi. Rasm – rusumlar marosimlar va

urf – odatlarning namoyon bo'lishi shakli tariqasida tasnif qilinadi. Masalan, to'y, mehmon kutish, dafn bilan bog'liq urf – odatlar va marosimlar umumiy jihatlar bilan bir qatorda, o'zbek millatida so'z va harakatlar bilan ajralib turadigan o'ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega.

O'zbek xalqining an'ana va urf – odatlari mohiyatiga ko'ra inqilobiy, jangovarlik va mehnatsevarlik xususiyatiga ega bo'lib, umumiylik, xalqaro, baynalmilal va miliylikni o'zida aks ettiradi. Masalan, atoqli kishilarning tavallud topgan sanalarini nishonlash, 8 – Mart, Navro'z bayrami, Xotira qadrlash kunini, Mustaqillik bayrami, Ustoz va murabbiylar kunini, hosil bayramlarini nishonlash kabilar milliy xususiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda chaqaloqlarni tantali ravishda ro'yhatga olish, yosh gudakka ism qo'yish, o'nolti yoshga yetgan o'spiringa passport topshirish, maktablarda birinchi qo'ng'iroq, so'ngi qo'ng'iroq, yegitlarni harbiy xizmat safiga kuzatish tantanalari, yoshlarni turli kasb – korlar safiga qabul qilish, mehnat faxriylarini nafaqaga kuzatish, „kumush to'y”, „oltin to'y”, „hovli to'yi” kabilar yangi an'analarga qatoriga kiradi. O'zbeklar oilasida chaqaloq qulog'iga azon aytish, zagzdan utish, kelin – kuyovga diniy nikoh o'qitish, aqiqa, beshik va sunnat to'ylari kabi marosimlar ham o'tkazib kelinmoqda. Bularning mohiyatini ota – onalar va ta'lim – tarbiyachilar aniq dalillar keltirib bolalarga tushuntirib berishi kerak.

Xalq urf – odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir – biriga yaqinlashtiradi, do'stlik, birodarlik his – tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida bolalar va yoshlar uchun ibrat na'munasini o'taydi.

Respublikamizda „Kitob bayrami”, „Ashula bayrami”, „Sog'ligim – boyligim”, „Balli qizlar!”, „Balli yegitlar!”, oily o'quv yurti talabalari o'rtasida „Quvnoqlar va zukkolar” o'yinlari va musobaqalarini o'tkazish ham odat tusiga kirib qoldi.

O'zbek oilasida farzand ko'rish juda katta baxt va unitilmas voqea. Farzand ko'rgan oilani qarindosh – urug'lar, do'stlar, hamkasblar tabriklashib, chaqaloqqa har – xil sovg'alar olib kelishadi. Bolaga ism qo'yishda, beshikka solishda oila a'zolari bilan birgalikda qarindoshlar, do'st – birodarlar ishtirok etadilar va bu marosim juda samimiy, milliy tarzda o'tkaziladi.

Hozirgi kunda tug'riq xonalar, bolalar shifoxonalarida tashkil qilingan „Onalar maktabi”, „Sog'lom turmush – tarsi kuni”, „Ichkilikning gudakka va yosh onaga ta'siri”, „Ichkilikbozlik va befarzandlik”, „Onaning sog'ligi – bolaning baxti”, „Otalarning bolalar tarbiyasidagi roli” kabi tatbirlarni o'tkazish an'anaga aylanib qoldi.

Keksalarni, xotin – qizlarni hurmat qilish, o'zaro yordam va bolalarga mehr – muhabbat tuyg'ularini ifoda etuvchi an'analarga xalqimiz hayotida uzoq zamonlardan beri davom etib kelmoqda. Shuning uchun inson shaxsining tarkib topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan an'analardan maktab o'quvchilarini tarbiyalashda muntazam foydalanish zarur.

Xalqimizning bir – biriga mehr – oqibati, oqilona munosabati, to'g'ri muloqati, iltifoti, ehtiromi odamlarimizning ichki go'zalligini, boy ma'naviy ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Biroq „Har narsa ham me'yorida bo'lgani maqul“, „Asalning ozi shirin“ deydi dono xalqimiz. Shuning uchun ichkilikbozlikka, ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak. Ortiqcha xatti – harakat uchun mehmon xursand bo'lmaydi, asincha ranjishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

- 1) Qiyomiddin Nazarov «Falsafa: qomusiy lug'at»
- 2) Karpara Dj., Servon D. Psixologiya lichnosti. – M.: Piter, 2003. – 640 s.
- 3) Giddens Entoni. Sotsiologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2002. – 848 b.
- 4) Shoumarov G'.B., Muhabbat va oila.
- 5) Eydemelir E.G, Yustetskiy V.V Semeynaya psixoterapiya "Leningrad"
- 6) Entsiklopediya semeynoy jizni. V 2-x tomax. – T.1. – Donetsk: (Moskva), 1993.
- 6) Ya rabotayu psixologom. - Moskva 1999.45 s
- 7) Drujinin V.N. Psixologiya sem'yi: 3-e izd. – spb: Piter, 2008 19s.

4-SHO'BA. TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYASINING O'RNI

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM JARAYONINI INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI

Ergashev Rustam Nadjimovich

GulDPI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu tezisda ta'limni integratsiyalashning mazmun va mohiyati, xorijiy olimlarining bu haqdagi fikr va mulohazalari, boshlang'ich sinflarda o'quv fanlari o'rtasida yaqin aloqadorlikni o'rnatishning zamonaviy tur, shakl va metodlari asoslab berilgan. Ta'lim jarayonini integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, uning asosiy tarkibiy qismlari va texnologik jihatlari, uni amaliyotga tatbiq etishda rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanish imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Absract. In this thesis, the integrated education has been justified through the content and the essence of it, by various opinions of foreign scholars concerning it, and the modern types, forms and methods of establishing a correlation between educational subjects in primary school. The specific features of the integration of the educational process, its main components and technological aspects, the possibilities of effective use of the experience of developed countries in its implementation are mentioned.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'limni integratsiyalash, uning mazmun va mohiyati, o'quv fanlari o'rtasida aloqadorlikni o'rnatish, uning zamonaviy tur, shakl va metodlari, integratsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, uning tarkibiy qismlari.

Uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro ta'lim standartlari darajasiga olib chiqish, bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'zlashtirish va o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish ta'lim sohasidagi olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. [1]

Ta'limda integratsiyalashgan va innovatsion yondashuvlari joriy etish, ta'lim jarayonida o'quv fanlari o'rtasida yaqin aloqadorlikni o'rnatishning zamonaviy tur, shakl va metodlaridan foydalanish dunyo miqyosidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, ta'lim integratsiyasi bu – fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha bo'lib, ushbu ta'riflarning umumiylik tomoni – integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat. [2]

Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o'zining rivojini integratsiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan

predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlarini yaxlit, bir butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Yu.M.Kolyagin fikriga ko'ra, ta'lim tizimida integratsiya ikki xil ma'noda qo'llanilishi mumkin:

1. O'quvchilarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integratsiyaga ta'lim maqsadi sifatida qaraladi).

2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (bu yerda integratsiya – ta'lim vositasi hisoblanadi). [3]

Birinchi ma'no bo'yicha integratsiya o'quvchi bilim dargohiga dastlabki qadamini qo'yishidanoq, dunyoni yaxlit, bir butun, uning barcha elementlari o'zaro bog'langan tizim sifatida tasavvur qilib olin.

Ikkinchi ma'noda integratsiya o'quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o'zaro to'qnash(uchrash)gan yeri(nuqtasi)da yangi tasavvurlarni anglay olin. Dastlab, fanlardagi fikr (g'oya)lar to'qnashgan nuqtada avvaldan bo'lgan tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, ular o'rtasida bo'lgan bog'lanishlarni tarkib toptirishga da'vat etsin.

Ta'limdagi integratsiyani quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Butun borliq haqida yaxlit tassavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida qaraladi);

2. Turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platforma topish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlatiladi).

3. Rivojlantiruvchi ta'lim berish vositasi sifatida.

4. Umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida. [4]

Ikki o'quv fani o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo'lib xizmat qiladi. Turli o'quv fanlardagi mavzularning uzviy bog'liqligi va mantiqiy o'zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo'lishi kerak.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, integratsiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Obyektga doir integratsiya: bunda bir obyektning turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo'lim yoki kurslarga (yer, suv, havo, oziq-ovqat va boshqa) kiritiladi.

2. Tushunchaga oid integratsiya: bunda umumiy tushuncha (energiya, harakat, modda, axborot va boshqalar)lar mazmunini ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi.

3. Nazariyaga oid integratsiya: u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi.

4. Metodologik integratsiya: u falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli integratsiya bo'lib, ularga tizimli yondashuvning qo'llanilishi va uning mohiyati, tabiatshunoslikka oid muammolarning qo'yilishi va ularning hal etilishi; fandagi tushuntirish va prognoz qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilish mohiyati va qo'llanilishi kabilar kiritiladi.

5. Muammoli integratsiya: u turli kenglik darajasidagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar).

6. Faoliyatga oid integratsiya: munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar.

7. Amaliy integratsiya: turli jarayon yoki texnik mahsulotlarni har tomonlama ko'rib chiqish, antibiotiklar, sintetik moddalar, biotexnologiya kompyuterlar va boshqalar. [5]

Ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi – o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir.

Ta'limni integratsiya qilish o'z mohiyatiga ko'ra, ikki xil ma'noga ega: o'quvchida atrofda olam to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi); predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda integratsiya – ta'lim vositasi sifatida ko'riladi).

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak.

Integratsiya – predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarini qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda, tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim. U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limining klassik o'quv predmetlari o'rni egallashi kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to'g'risida ozgina bilish» lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib «ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish» kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

O'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham bo'lishini taqozo etmoqda. Bu jihatdan rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayanmoq lozim. Ularning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ

fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi.

Demak, mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni integratsiyalash uchun rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanish, uning zamonaviy shakl, tur va metodlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarimiz cheksiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni. –T., 2020 yil, 23 sentyabr.
2. Mavlanova R.A., Raxmankulova N.X., Matnazarova K.O. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. -T., 2012.
3. Mavlonova R.A., Raxmankulova N.X. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. -T., TDPU, 2007.
4. Пугачёва Н.Б. Источники инноваций общеобразовательного учреждения. – Завуч, 2005, № 3. С. -29.
5. Ergashev R. N. va boshq. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Darslik.–T., 2021.

STEAM TEXNOLOGIYASINI “IJODIY MEHNAT” METODI ASOSIDA AMALGA OSHIRISH IMKONIYATLARI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri v.v.b

Xakimjon Oripov

Namangan viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslari jarayonida STEAM texnologiyasini amalga oshirishda “Ijodiy mehnat” metodi asosida “Uy va yovvoyi hayvonlar” mavzusi misolida yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fan, interfaol metodlar, integratsiya, STEAM texnologiyasi, “Ijodiy mehnat” metodi.

Boshlang'ich sinflarda STEAMni joriy etishda o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlarida kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlari, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ish va o'qish jarayonlarida duch keladigan muammo va qiyinchiliklarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradigan o'quv topshiriqlari kiritilmoqda. Atrof-borliq, jumladan, olamning tuzilishi, unda kechayotgan hodisa va jarayo nlarini bilishning metodologik asosini bir-birini to'ldiruvchi, ilmiy bilishning nazariy

va empirik metodlar birligi tashkil etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini, unda kechayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risidagi bilimlarini oshirishda hamda ularning empirik (kuzatish, tadqiqot) metodlarni o'zlashtirishida "Tabiiy fanlar" o'quv predmeti muhim ahamiyat kasb etadi.

STEAMni joriy etishda o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlarida kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlari, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ish va o'qish jarayonlarida duch keladigan muammo va qiyinchiliklarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

STEAM ta'limi bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulotlari va maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarib ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

STEAM beshta fanning har birini alohida o'rganish o'rniga, ularni yagona o'quv tizimiga birlashtiradi. STEAM ta'limida beshta sohani yagona ta'lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan.

Asosiy maqsad fanlarni "yodlash" emas, balki o'quvchilarning mantiqiy ijodiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-texnik kasb tanlash motivatsiyasini oshirish, innovatsion yechimlarni moslashtirish va topish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Buni amalga oshirishda interfaol metodlardan biri "Ijodiy mehnat" metodi asosida tashkil etish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Ijodiy mehnat-bir mavzuga ko'ra turli yo'nalishlarda ijod qilish. Ijodiy mehnat-rasm chizish, andozalash, qo'shiq, tarixlar, chizgilar yozish va o'yinlar o'ylab topishni mujassam etadi. O'quvchilarga mavzu asosida quyidagi topshiriqlardan birini tanlab ijodiy yondashish so'raladi:

- Kichik ma'ruza yoki hikoya
- Maqollar va hikmatli so'zlar
- Rolli o'yin
- Rasm chizish
- Applikatsiya
- Plastilindan yasash
- Qo'shiq, she'r
- Masala tuzish
- Topishmoqlar topish

Masalan, 2-sinfda "Uy va yovvoyi hayvonlar" mavzusida "Ijodiy mehnat" metodi asosida chiqishlar qilish. 1-guruhga ma'lumotlar yozish, 2-guruhga plastilindan yasash, 3-guruhga rasm chizish, 4-guruhga, she'r qo'shiqlar ijro etish, 5-guruhga matematik masala tuzish vazifasi beriladi.

1-guruh: O'zbekistonda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar turlari yashaydi. Uy hayvonlariga sigir, qoy, echki, ot, quyon, it, mushuk kabilar kiradi. Yovvoyi hayvonlarga esa bo'ri, tulki, kiyik, bug'u, ayiq kabilar.....

2-guruh: Plastilindan yashash.



3-guruh: Rasm chizish.



4-guruh: She'r, qo'shiq, maqollar, topishmoqlar aytish.

O'rmonda bo'lganmisiz?

Ayiqni ko'rganmisiz?

Ustida po'stini bor,

Pisand emas unga qor

5-guruh: Masala tuzish.

Behzodjonning 15 ta qo'yi bor edi. 8 ta qo'yi 2 tadan, 2 ta qo'yi 3 tadan, 3 tasi 1 tadan qo'ziladi. Behzodjonning qo'ylari nechta bo'ldi?

Guruhlar taqdimoti birlashtirilib, umumiy xulosa chiqariladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, "Ijodiy mehnat" metodi asosida ma'lumotlar berish orqali fan asosini, plastilindan yasash orqali texnologiyaga, rasm chizish orqali muhandislikka, she'r, qo'shiqlar asosida san'atga, masala tuzish asosida esa matematikaga bog'lagan holda ham fanlar integratsiyasi hamda STEAM texnologiyasini amalga oshirish imkoniga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

H.G'aniyeva "STEAM ta'lim tizimi" T-2022.

E.To'xtayeva "Maktabgacha ta'lim tizimida STEAM texnologiyasi" T-2022.

O.E.Tigay Tabiiy fanlar darsligi 2-sinf uchun. 1-qism. T-2023.

TABIATSHUNOSLIK DARSLARINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Alimova Dilorom Xudoyqulovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida STEAM texnologiyasini qo'llash masalalari bayon qilingan. Shuningdek maqolada STEAM texnologiyasining afzallik jihatlari, undan foydalanish, STEAM texnologiyasining ta'lim samaradorligidagi ahaniyati haqida ham ayrim fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar. STEAM texnologiyasi, pedagog, mahorat, metod, ta'limi texnologiyasi, loyihalash, tanqidiy tafakkur.

“STEAM—bu fan, texnika, muhandislik, san'at va matematika fanlarida foydalanadigan o'quv yondashuvidir. O'quvchilar ixtirochiligiga rahbarlik qilish orqali samaradorlikka erishish. STEAM aralash o'quv muhitini shakllantiradi va o'quvchilarga ilmiy uslubni kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

J.Yakman

Yosh avlodni ehtiyotkorlik bilan rivojlanish zinapoyasidan zinama-zina tepaga olib chiqish har bir pedagog uchun sharafli vazifadir. Biz esa faqatgina ushbu harakatning xususiyatlarini tushunishimiz va bolalarni vaqtda qo'llab-quvvatlashimiz, o'sishi uchun muvofiq sharoitlar yaratishimiz darkordir. Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta'lim va bilimlarga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun bugungi kunda maktab darsliklariga STEAM texnologiyasi kiritildi. STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi.

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM texnologiyalarining afzalliklari:

1. Fanlar boyicha emas “mavzu” bo'yicha ta'lim integratsiyalashgan bo'ladi
2. Ilmiy-texnik bilimlarni hayotda qo'llash imkoni bo'ladi

3. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal eta olish ko'nikmalarini rivojlantiriladi

4. O'ziga bo'lgan ishonchni oshadi

5. Faol muloqot va jamoada ishlay olish ko'nikmalari rivojlanadi

6. Texnologik fanlarga qiziqishni orttiriladi

7. Loyihalashga kreativ va innovatsion yondashiladi

8. Bolalarni hayotdagi texnologik o'zgarishlarga tayyorlaydi


STEAM ta'lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun bir vaqtning o'zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg'unligini ta'minlaydilar. Bunda —aql va qo'l iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko'rib tezda o'qib, o'zlashtirib oladilar. O'yin, qurilish, kognitiv va tadqiqot faoliyati orqali badiiy va ijodiy faoliyat turlari rivojlanadi. Har bir modul STEAM ta'lim maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan aniq vazifalarni kompleks ravishda hal qilishga qaratilgan: kognitiv tadqiqotlar jarayonida bolalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy-texnik ijod qilishga o'rgatadi.

STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir.

Boshlang'ich sinflarda "Science" tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasini qo'llasak, bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

Misol tariqasida tushuntiraylik. Maktabda tabiiy fandan osmon jismlari mavzusi bilan tanishaylik, bu mavzuni o'qitish jarayonida biz;



kabi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Demak har bir mavzuni o'tishda shu texnologiyaga amal qilsak farzandlarimizning fanni o'zlashtirish darajasi ancha yuqori darajada ko'tarilishiga guvoh bo'lamiz.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin STEAM texnologiyalariga asoslangan ta'limiy mashqlar o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini o'stiradi, ularni e'tiborli va mustaqil bo'lishga o'rgatadi, darslarning o'zlashtirilishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu mashqlar o'quvchilarda izlanuvchanlik, qaror qabul qilish, o'z fikrini ayta olish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish kabi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va shu bilan birga insoniy fazilatlarni tarbiyalashga ham yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Ergasheva G. B. Zamonaviy jamiyatda fan va ta'limning rivojlanishida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni //Scientific progress. –2021.
2. Rajabova L. Steam ta'lim dasturi asosida matematika masalalarini yechishning ilg'or usullari //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – т. 1. – №. 1.
3. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Talabalarda ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishga oid kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion ta'lim muhiti beradigan natijalar. Conferencea
4. Махмудов А. Х., Абдурахмонов З. Б. Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference

STEAM TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY TA'LIMNING IMKONIYATLARI

N.E.Ergasheva

Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedresi katta
o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim shakllaridan hisoblangan STEAM ta'limning rivojlanishi, nazariy asoslari, imkoniyatlari, yutuqlari haqida keng mulohaza yuritilgan. Maqolada yoritilgan STEAM ta'lim tizimi, tamoyillari va uni maktablarda qo'llashning ahamiyati va ta'lim sifatini yaxshilashdagi o'rni haqidagi tushunchalar maqola mazmunining oshishiga xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: STEAM, texnologiya, zamonaviy ta'lim, ko'nikmalar, amaliyot, nazariya.

Аннотации. В данной статье подробно обсуждается развитие STEAM-образования, которое рассматривается как одна из современных форм образования, теоретические основы, возможности и достижения. Представленные в статье понятия системы образования STEAM, ее принципы, важность ее применения в школах и ее роль в повышении качества образования послужили увеличению содержания статьи.

Ключевые слова: STEAM, технологии, современное образование, навыки, практика, теория.

Annotations. This article discusses in detail the development of STEAM education, which is considered as one of the modern forms of education, theoretical foundations, opportunities and achievements. The concepts of the STEAM education system, its principles, the importance of its application in schools and its role in improving the quality of education presented in the article served to increase the content of the article.

Key words: STEAM, technology, modern education, skills, practice, theory.

Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta'lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta'lim bizning nafaqat bilim va ko'nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Bugungi kundagi ta'lim faqatgina kurs va leksiylar to'plamidangina iborat emas. Endilikda u mustaqil ta'lim, elektron texnologiyalar va dars o'tishning ilg'or metodikalari konsepsiyasini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda o'quvchilar axborot olish va uni samarali o'zlashtirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganib olishdi. Zamonaviy ta'lim dunyodagi tinimsiz

o'zgarishlarga ko'nikkan, turli muammo va to'siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta'lim o'quvchilarni nafaqat amaliy ko'nikmalar bilan, balki bugungi kunda o'quvchilarga zarur bo'lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv texnikalari bilan ta'minlaydi. Bugun dunyoda "ijtimoiy ko'nikmalar"ga (soft skills) ega bo'lgan mutaxassislariga ehtiyoj ortib, ayni paytda "kasbiy ko'nikmalar" (hard skills) o'zining birinchi darajali ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan—komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "2018-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi №PQ-3931- son qarorida ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish vazifasi belgilangan. Unga ko'ra ilg'or jahon tajribasiga tayanib, yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan. Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochiladi, ular STEAM dasturida o'qitishga ixtisoslashgan bo'ladi. STEAM an'anaviy o'qitishga muqobil zamonaviy yondashuv hisoblanadi. STEAM – so'zining bosh harflari - Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)ni anglatadi. O'quvchilar bu fanlarni uyg'unlashgan holda, ular orasidagi bog'lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar. Boshqacha qilib aytganda, STEAM - fanlararo integratsiya yondashuvga asoslangan o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati. Bu jarayonda o'quvchi va o'qituvchi ijodiy fikr yuritadi.

Xo'sh, STEAM yondashuv o'zi nima?

Agar ushbu qisqartma yoyilsa, quyidagilar hosil bo'ladi:

STEAM bu —

S – science,

T – technology,

E – engineering,

A – art,

M – mathematics

O'zbek tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelmoqda. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi

yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat aqlimiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham aqlni, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'lim muhitida o'quvchilar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishimi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqal ihal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emasligi uqtiriladi STEAM yondashuvda, o'quvchilar amaliy qobiliyatga e'tibor berib, o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimgina qadrlidir.

STEAM ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

STEAM – dasturi faol kommunikatsiya va jamoada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot qilishga o'rganadilar. Bolalar doimo o'qituvchi va sinfdoshlari bilan qatnashsalar, mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar. STEAM kundalik hayotning ilmiy tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqazo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

STEAM ta'limining afzalliklari: mavzular bo'yicha integral o'rganish, ilmiy va texnik bilimlarni hayotda qo'llash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, faol muloqot va jamoaviy ish, texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish, loyihalarga ijodiy va innovatsion yondoshish, har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish, bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik

motivatsiyasini rivojlantirish, dastlabki kasb-hunarga yo'naltirish, bolalarni hayotning texnologik yangiliklariga tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga va uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarini oson zabt etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ–3931- son qarori
2. B.Ahmedov . Integrallashgan ta'limda o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqish konsepsiyasi Pedagog, 1(5)
3. www.ziyounet.uz

Eko-STEAM TA'LIM KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO YONDASHUV

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
abdumalikkuchkinov1973@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarga ekologik ta'lim berish, Eko-STEAM ta'limi fanlararo va o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirish fizika, biologiya, geografiya, informatika, texnologiya, tasviriy san'at hamda muhandislik tafakkuri, tasavvur, hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta'lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы экологического образования учащихся, междисциплинарного образования Эко-STEAM и ориентации учащихся на практику формирования междисциплинарной экологической культуры через физику, биологию, географию, информатику, технологии, Изобразительное искусство и инженерное мышление, воображение, сотрудничество, проявление творческих способностей, самостоятельное внеклассное обучение.

Annotation: This article deals with the issues of environmental education of students, interdisciplinary education of Eco-STEAM and orientation of students to practice the formation of interdisciplinary environmental culture through physics, biology, geography, computer science, technology, Fine arts

and engineering thinking, imagination, cooperation, manifestation of creative abilities, independent extracurricular learning.

Jahonning zamonaviy ekologik ta'lim muassasalarida insonning tabiat bilan haqiqiy munosabatlarini shakllantirishga, tabiatning shaxsning eng kafolatli rivojlanishini ta'minlaydigan o'ziga xos ijtimoiy va tabiiy jihatini aniqlashga, normalarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat taraqqiyotida fan va texnologiya katta rol o'ynaydi va ta'limining ahamiyati ortib boradi. Fan-texnika hamjamiyati oldida turgan muammolar murakkab muammolar bo'lib, ularni faqat fan va texnika bilan hal qilib bo'lmaydi bo'ni zamonaviy bilimlardan foydalangan holda hal qilinishi kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun konvergent (yaqinlashish) ta'lim kerak. Bilimlarni o'rgatish, integratsiyalashgan bilimlarni fanlararo muhim tushunchalari yoki asosiy tamoyillarini ochib beradigan konvergent yondashuvlar ustida izlanishlar olib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik ta'lim

Atrof-muhitga g'amxo'rlik davlat siyosatining bir bo'lagi bo'lib, ishlab chiqarish korxonalarida ekologik mas'uliyat hissi paydo bo'lmoqda. Shuning uchun kelajakda ekologik kasblar inson hayotining barcha jabhalarida, tog'-kon va qishloq xo'jaligidan tortib turizm va moda sanoatigacha talabga ega bo'ladi.

STEM birinchi marta 90-yillarda Amerika Milliy Tashkiloti tomonidan paydo bo'lgan. STEM AQSh xalq ta'limining asosiy qismi bo'lishi kerakligini (fan, matematika, muhandislik va texnologiya) tavsiya qilinadi va ta'limda qo'llanila boshlandi.

STEM ta'lim Avstraliya, Kanada va Singapur keyinchalik esa Fransiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy, Kanada, Turkiya STEM ta'limi doirasida robototexnika yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishga STEM yondashuv elementlari maktabgacha, maktab ta'limga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmonida:

"Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori STEAM ta'limining ko'pgina afzalliklariga qaramay ta'limiy muammoga duch kelmoqda: STEAM ta'limini boshlang'ich ta'limda amalga oshirish va davom ettirish qiyin va mazmunli fanlararo integratsiya yo'q, bunga bir qancha sabablar mavjud:

Birinchidan, STEAM ta'limi uchun malakali o'qituvchilarga talab katta. Boshlang'ich ta'limda ko'pchiligi fanga asoslangan, faqat o'z fanlari bo'yicha mutaxassis, STEAM ta'limi uchun zarur bo'lgan bilimlari haqida to'liq tushunchaga ega emaslar. O'qituvchilarning STEAM ta'limi borasida tajribasini, shuningdek, o'qitish samaradorligini oshirish zarur.

Ikkinchidan, STEAM ta'limini amalga oshirish tadqiqotchilarga juda bog'liq. Hozirgi STEAM ta'limining aksariyati tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan va amaliy o'qitishni ham amalga oshiradilar va STEAM ta'limi tadqiqot loyihasini tugatishadi. Loyiha tugagandan so'ng o'qituvchilari STEAM ta'limini amalga oshirishni o'rganmaydilar va davom ettira olmaydi.

Uchinchidan, STEAM ta'limi odatda keng qamrovli amaliyot uslubidagi ta'lim va maktabdan keyingi kengayish ta'limi shaklida mavjud bo'lib, maktabning rasmiy o'quv rejasiga kiritilmagan. Bu o'qituvchilarning e'tiborsizligiga va o'quvchilarning ishtiyoqsizligiga olib keladi, bu esa STEAM ta'limini amalga oshirishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Maktab darsliklarning tahlili.

- STEAM ta'limi fan, texnologiya, muhandislik, matematika (STEM) fanlari bo'yicha konvergensiya va integratsiyani ta'kidlaydi. Biroq, bu o'qituvchilar o'rtasidagi ish yukini oshirishi va o'quv dasturining uyg'unligini zaiflashtirishi mumkin.

- STEAM ta'limini o'rganan bo'lsada, aksariyat tadqiqotlar o'quvchilarning "san'at" komponentini e'tiborsiz qoldirib, STEM kasbini tanlashga bo'lgan munosabatiga qaratilgan.

- O'qituvchilarning STEAM ta'limi haqidagi tasavvurlari va amaliyotlarini ularning fon xususiyatlariga ko'ra o'rganishlari juda kam tadqiqotdir.

- STEAM model maktablari o'qituvchilari o'rtasida yaqinda o'tkazilgan so'rovdan kelib chiqib, o'qituvchilarning STEAM ta'limi haqidagi tasavvurlari va amaliyotlarini o'rganadi.

- O'qituvchilar STEAM darslarini bajarishda duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlaydi.

STEAM ta'limini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim siyosiy ta'sirga ega.

Natijada bo'lajak o'qituvchilarning Eko-STEAM ta'lim kompetensiyalarni boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirilgan matematika, tabiiy fanlarga qiziqishni faollash, texnologiya, robototexnika, dizayn sohasi va ijodiy, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdi.

Eko-STEAM ta'lim kompetensiyalarni boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirish, Fizika, Biologiya, Geografiya, Informatika, Texnologiya, Tasviriy san'at, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda fanlararo zamonaviy media vositalari takomillashdi.

Eko-STEAM ta'lim kompetensiyalarini, maxsus bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida o'quvchi o'quv loyihalari doirasida o'z qurilmalari, gadjetlari, prototip mexanizmlari va tizimlarini yaratishi kerak. Shu bilan birga, o'quvchining muhandislik va ijodiy salohiyatini maksimal darajada ochib berishni cheklamaslik, uni standart tarkibiy qismlar va tayyor elektron modullardan foydalanish zarurati oldiga qo'yish juda muhimdir [7]. Prototiplar elektronika va sxemalar, mexatronika, turli xil materiallarni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish, sanoat dizayni va Eko-STEAM dizayn

muammolarini hal qilish uchun va dasturiy ta'minot va loyihalash ko'nikmalarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Eko-STEAM fanlarini o'rgatishning fanlararo yondashuvi bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarga yechim topish va haqiqiy ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha loyihani ishlab chiqish uchun amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlar beriladi.

Eko-STEAM yondashuvi boshlang'ich sinf o'quvchilarni rag'batlantirishning samarali vositasidir, chunki ta'lim mahalliy tabiiy va ijtimoiy-madaniy muhitda amalga oshiriladi. boshlang'ich sinf o'quvchilarning ta'lim tajribasi uchun kontekst sifatida. Eko-STEAM yondashuvi o'quvchilarni tabiat qonunlarini, u bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga undash elementi bo'lib xizmat qilishi mumkin ekologik eksperimental loyihalarni amalga oshirish jarayonida tadqiqot malakasi.

Eko-STEAM yondashuvi quyidagilardan foydalanishga asoslangan:

- ekologik mazmundagi jamoaviy loyihalar;
- tabiiy muhitda darsdan tashqari Eko-STEAM tadbirlari;
- ekologik va eksperimental loyihalar;
- ekologik tarkibni ijtimoiy loyihalash;
- atrof-muhit sohasida raqamli laboratoriyadan foydalanish tajribalar.

Eko-STEAM ta'lim insoniyat yaqin kelajakda texnologik va ekologik ofatlarga duch kelishi mumkinligini anglash, muammolarni hal qilishda yangi ijodiy yondashuvlarni va ilmiy va texnik bilimlarga ega bo'lgan ko'plab odamlarni talab qiladi.

Eko-STEAM sinfida o'rganish har doim qandaydir haqiqiy muammolarni hal qilishga urinishdir. O'quvchilar jamoalarda ishlaydi, kashf qiladi, tajriba o'tkazadi, dizaynlarni o'ylab topadi, o'z mahsulotlarini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qiladi, veb-saytlar va multfilmlar yaratadi.

Eko-STEAM loyihasida Yerning bir martalik ishlatilgan plastik chiqindilar bilan ifloslanishi muammosini o'rganishdi. O'quvchilar plastik chiqindining qanday turlari mavjudligini, turli plastik chiqindining parchalanishi uchun qancha vaqt ketishini o'rganishi hamda bu muammo borasida o'zlarining yechimlarini taklif qilishadi.

Eko-STEAM kompetensiyalarini rivojlantirish bo'lajak boshlang'ich boshlang'ich ta'lim talabalari bilan, umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchi va o'quvchilari bilan birgalikda Eko-STEAM ta'lim nazariyadan amaliyotga bo'yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish.

Eko o'yinlari va loyihalar Eko-STEAM -texnologiyalarini qo'llagan holda, atrofimizdagi olamni o'rganish jarayoniga yangi nuqtayi nazardan qarash va shaxsiyatni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini o'zlashtirish, yaxshi natijalarga erishish mumkin [6].

Tabiiy fan darslari o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan kommunikativ ta'lim texnologiyasi har bir o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning muammoli-izlanish va ijodiy faoliyatiga ustunlik berish kommunikativ ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda darslarda juftlik, guruh, loyiha ishlari kabi turli xil ish shakllaridan foydalaniladi [43].

Eko-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv texnologiyalari o'quvchilarda tabiatda sodir bo'layotgan hodisalarni hamda ular o'rtasidagi munosabat va muhandislik fikrlash uslubi, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyati hamda jamoaviy ishlashni rivojlantiradi. O'quvchilar hayotning turli sohalarida malakani namoyish etadi. Obyektlarni real hayot bilan bog'lashdan tashqari, Eko-STEAM yondashuv o'quvchilar ijodiyoti uchun imkoniyatlar ochadi.

Eko-STEAM yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilariga loyihalashda kerak bo'lgan bir qator vazifalarni qo'yadi. Bunday vazifalar tufayli o'quvchi nafaqat qiziqarli g'oyalarni keltirib chiqaradi, balki ularni darhol amalga oshiradi. U mavjud resurslarga asoslangan holda loyihalashni o'rganadi, bu haqiqiy hayotda albatta amaliy yordam beradi.

O'quvchilarning e'tiborini o'quv materialiga texnik vositalardan foydalangan holda saqlashi kerak. boshlang'ich sinf o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi, sinf va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qulay hissiy va psixologik mikroiklimni yaratish ham muhim rol o'ynaydi.

Hamkorlik texnologiyani o'rgatish, guruhda ishlash va juftlikda ishlashning ijobiy tomonlari ko'p. Bu ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga, mas'uliyatga, o'zaro yordamga odatlanishga yordam beradi. o'quvchilarning samaradorligini oshiradi, kognitiv faollikni, mustaqillikni rivojlantiradi, o'quvchilarning shaxslar aro munosabatlarini kengaytiradi. Yangi materialni o'rganishda ham, o'tilgan darslarni mustahkamlash, takrorlash, umumlashtirishda ham qo'llanilishi mumkin.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, maktabda Eko-STEAM yondashuvini tadbiq eta olgan fanlararo o'qituvchilarni tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Eko-STEAM ta'limga tayyorgarlik, mehnatsevarlik va xatolardan saboq olishga tayyorlik natijasi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-son Farmoni Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.
2. Dekart, R. Pravila dlya rukovodstva uma / R. Dekart // Soch. : v 2 t. / R. Dekart. – M., 1989. – T. 1. – S. 77–153.

43 Kuchkinov AY Boshlang'ich sinf oquvchilarini tabiatni ezozlash ruhida tarbiyalash //Oqituvchilar uchun metodik qollanma–T.; “Fan va texnologiya. — 2012. — T. 88.

3. Yakman, G. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative education [Electronic resource] / G. Yakman // STEAM Education. – Mode of access: <https://steamedu.com/research/>. – Date of access: 12.05.2019.

4. Kuchkinov AY Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash //Oqituvchilar uchun metodik qollanma–T., “Fan va texnologiya. — 2012. — T. 88.

5. Kuchkinov A. Yu. Technologies of Interdisciplinary Approach in the Development of Eco–Steam Educational Competencies of Future Teachers. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE>

6. Yuldashovich K. A., Kholi Y. A MODEL FOR THE FORMATION OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS' CAREFUL ATTITUDE TO NATURE IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 68-74.

7. Yuldashovich K. A. STEAM INTEGRATED EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN ENHANCING ECO-LEARNING EFFECTIVENESS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM YONDASHUV

Tilavova Sayora Bekmuratovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi, tilavovasayora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarga ekologik ta'lim berish, STEAM ta'limi fanlararo va o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirish fanlararo hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta'lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы экологического воспитания учащихся, междисциплинарного обучения STEAM и практической ориентации учащихся на формирование междисциплинарной экологической культуры через междисциплинарное сотрудничество, проявление творческих способностей, самостоятельное внеклассное обучение.

Abstract: This article discusses the issues of environmental education of students, interdisciplinary STEAM training and practical orientation of students to the formation of an interdisciplinary environmental culture through interdisciplinary cooperation, the manifestation of creative abilities, independent extracurricular learning.

Jahonda ta'limni modernizatsiya qilish va yangilash yo'llaridan biri bu STEAM ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Uni amalga oshirishning asosiy maqsadi o'qituvchi va talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda STEAM tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish asosida, texnik va tabiiy fanlar ta'limini rivojlantirish orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar imkoniyatlarini kengaytirishdir. Jumladan: Oliy pedagogik ta'limning hozirgi rivojlanishi tadqiqotning fanlararo integratsiyalashuviga bog'liq. Fanlararo integratsiya tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan va "fanlararo muammolarni, shuningdek, turli xarakterdagi muammolarni hal qilishga" qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asosdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya va pedagogik malakani baholash talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorlash metodikasini yangilash yo'llarini topishdan iborat.

STEAM birinchi marta 1990-yillarda Amerika Milliy Tashkiloti tomonidan kiritilgan. STEAM(fan, matematika, muhandislik va texnologiya) da tavsiya etilgan va joriy qilingan ta'lim AQSh xalq ta'limining asosiy qismi sifatida. Hozirgi vaqtda STEAM ta'limi Avstraliya, Kanada va Singapurda, keyinchalik Frantsiyada Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy, Kanada va Turkiya. STEAM yondashuvining elementlari maktabgacha ta'lim va maktabda robototexnika yuqori texnologiyali sanoatini rivojlantirish joriy etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishda oliy ta'lim bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini STEAM yondashuv asosida takomillashtirish omillaridan foydalanishning mazmuni maqsadi, vazifalari va tamoyillari o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv va tahlil kilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar, ilg'or fanlararo ta'lim texnologiyalarini tahliliy ko'rib chiqish STEAM ta'limiga e'tiborni qaratish imkonini berdi. Tadqiqot o'tkazilib, unda talabalarning tabiiy fanlar bo'yicha kompetentsiyalari hamda tanqidiy fikrlash rivojlanishi baholandi. Tadqiqot jarayonida, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari tomonidan ham kasbiy, ham ilmiy va amaliy xarakterdagi fanlararo muammolar aniqlandi va yanada hal qilindi.

Shu bilan birga, STEAM ta'limi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni uchun o'quv jarayonini loyihalashning asosi bo'ldi. Ushbu ish natijalari quyidagilarni ko'rsatadi: o'quv fanlari tarkibi va mazmuniga fanlararo vazifalarning kiritilishi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga yordam beradi, chunki o'quv jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan va ilmiy xususiyatga ega bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot va amaliy yo'nalishning fanlararo vazifalari orqali amalga oshiriladigan universitet pedagogik ta'limi darajasidagi fanlararo integratsiya;

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning integratsiya tushunchasi bilan bog'liq manbalarni tahliliy ko'rib chiqish uning murakkab va o'zaro

mustahkamlovchi xususiyatini ko'rsatadi. Har qanday o'ziga xos fanning rivojlanishi doirasida katta bloklar o'rtasidagi aloqani o'rnatadigan integratsiya mavjud. Ko'rinib turibdiki, bu aloqani ta'minlash doimo dolzarb bo'lib kelgan. Oliy pedagogik ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashning yangi modeliga nisbatan fanlararo aloqalar g'oyasi kontseptual bo'ladi. Ilm-fan ham, ishlab chiqarish ham turli kasbiy sohalarida va fanlararo fan sohalarida bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni qidiradi. Oliy pedagogik ta'limning zamonaviy makonida kadrlar tayyorlash alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirayotgan pedagogik ta'lim o'quv jarayonining tuzilishi va mazmunini shunday tashkil etadiki, yakuniy natija bitiruvchilar faoliyatining sifati, ularning kompetensiyasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kompetensiyasini uchta komponent bilan belgilash mumkin: kasbiy pedagogik faoliyatda ifodalangan kompetensiya va o'qituvchi kasbining ajralmas o'zaro ta'siri. Mutaxassisning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish va an'anaviy fazilatlarni bilim, ko'nikma, ko'nikma, tajriba rivojlantirish o'rtasidagi farqlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy sifati sifatida pedagogik kompetensiyaning integrativ tabiati bilan belgilanadi; amaliyotga yo'naltirilgan va loyihaga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning sifat holati – uning pedagogik kompetensiyasini strategik qadriyatlar bilan bog'lash mumkin, ularning rivojlanishi milliy miqyosdagi vazifani-yuqori malakali xalq ta'limi xodimlarini tayyorlashda pedagogik ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Muammoning dolzarbligi pedagogik kadrlar tayyorlashning tarkibi va mazmuni yangi oliy ta'lim davlat standartlarini joriy etish natijasida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. O'quv rejadagi bloklari fanlari sonining ko'payishi fanlarni o'rganish uchun ajratilgan o'quv soatlari soniga ta'sir qilmadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning tayyorlash mazmunini ratsionallashtirish yechimlaridan biri fanlararo integratsiyani amalga oshirish ekanligini tushunish muhimdir.

Tadqiqotda kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya masalasini o'rganishda ikkita asosiy muammo aniqlandi.

Birinchi, oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni tayyorlashda tabiiy va ilmiy, shuningdek, insoniy bilim sohalarini sintez qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

Ikkinchi, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning butun davri davomida pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan laboratoriya va amaliyotga asoslangan darslardan, shuningdek ma'ruzalardan foydalanish bo'yicha yangilanishlar.

Tadqiqot maqsadi, fanlararo ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni qo'llashga qodir bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan o'quv jarayonida erishilgan

natijalarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi usullarini yangilash yo'llarini topishdan iborat.

Tadqiqotda Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabarlari ishtirok etdi. Pedagogik ta'lim texnologiya va hayot xavfsizligi yo'nalishlari. O'qishning analitik bosqichi mantiq'iga ko'ra fanlararo amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni o'rganish, taqqoslash, umumlashtirish amalga oshirildi. Dastlabki tajriba-sinov bosqichda talabalar o'rtasida so'rov o'tkazildi, shuningdek, integratsiyalashgan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar joriy etilgandan so'ng o'quv faoliyati natijalari tahlil qilindi. Fanlararo integratsiya orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgarishlar qayd etildi.

Shu bilan birga fanlararo kompetensiyalarning rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun statistik ma'lumotlarni olish bosqichida universitet talabarlari bilan kuzatishlar va suhbatlar o'tkazildi. Diagnostika usullari mazmunli, indikativ va baholashga bo'lingan. Har bir blokning o'z maqsadi bor.

Birinchi blok talabalarning integratsiya va fanlararo tushunchalari bo'yicha fanlararo bilim darajasini aniqlashga qaratilgan edi. Bu yerda ish barcha guruh talabarlari, ya'ni eksperiment ishtirokchilari o'rtasida suhbat va so'rovnoma asosida olib borildi. Ushbu bosqichda olingan ushbu so'rov natijalari keng doirada, ya'ni oddiy g'oyalardan integratsiya - birlashtirish hissiy umumlashmalarga integratsiya - bu harakat jarayoni qadar turlicha bo'ldi. Ulardan biri talabalarning ushbu kontseptsiyani idrok etishlari qiyinligini ta'kidladi. Fanlararo integratsiya tushunchasi asosiy fikrni ajratib ko'rsatish orqali axborotni qabul qilish va uzatish qobiliyatining ta'rifiga kiritilgan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari fanlararo integratsiya haqida aniq tushunchaga ega emasligi aniq edi. chunki ular bu tushunchani axborot nazariyasi bilan bog'lay olmadilar va bu tushunchalarni almashtirdilar. Demak, javoblarning mazmuni fanlararo aloqadorlikning kelajakdagi kasbidagi ahamiyati haqida yetarlicha xabardorlik va tushunchaning pastligidan dalolat beradi.

Ikkinchi bosqich - taxminiy - ikki universitet talabalarining fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish muammosiga munosabatini va bo'lajak o'qituvchining rivojlanishidagi rolini aniqlashga imkon berdi.

Fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining tajriba guruhlar 71 foizi va Buxora davlat universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi va Termiz pedagogik institutining nazorat guruhlari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining 79 foizi qayd etdi. Respondentlarning fikriga ko'ra, fanlararo kompetensiya zamonaviy shaxsning ustuvor sifati bo'lib, asosan kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni oldindan belgilaydi.

O'quvchilarning o'z bo'lajak kasbiga munosabati o'quvchilarni o'quv faoliyatiga rag'batlantirgandagina mazmunli bo'ladi, bu esa kasb-hunar ta'limida muvaffaqiyatga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi blokning maqsadi empirik tadqiqot natijalarini umumlashtirish edi. Universitetda ta'lim jarayonida talabalarning fanlararo kompetentsiyasini rivojlantirish modelini amalga oshirish quyidagi tarkibiy qismlarning rivojlanish darajalarida o'z aksini topdi:

Motivatsiya tanlangan kasbning maqsadini tushunish, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish tajribasini shakllantirish.

Tarkib o'rganish ob'ektlari o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi bilimlar - madaniy va kasbiy bloklar fanlari kursi.

Eksperimental ish natijalari respondentlarning fanlararo kompetentsiyaga munosabatini va ularning rivojlanish darajasidan qoniqishini ko'rsatdi.

Tadqiqot loyihasiga ko'ra, o'z-o'zini baholash metodologiyasidan foydalangan holda, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari fanlararo kompetentsiyasining rivojlanish darajasi aniqlandi. Ushbu metodikaning qo'llanilishi savollarga javob bergan talabalardan ma'lumot olish imkonini berdi. Istalgan sifatning namoyon bo'lish darajasi bilimlarni birlashtirish zarurati muvofiqligini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalar 5 balli tizim bo'yicha baholandi. Olingan natijalarning ob'ektivligi va ularning ishonchliligiga anonim so'rov tufayli erishildi.

Ushbu tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning fanlararo kompetentsiyasini rivojlantirishning turli darajalari ta'kidlangan. Fanlararo kompetentsiya motivatsiyasining o'ziga xos xususiyati sifatida muammoga qiziqishning mavjudligi, shaxsning bilim olishga yo'naltirilganligi va ularni amaliy qo'llash ko'rib chiqildi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga berilgan savollar ushbu xususiyatlarni aniqlashni nazarda tutgan.

Tarkib komponentining rivojlanish darajasini oshirish maqsadida o'quv jarayonidagi mustaqil faoliyatga, ya'ni ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarga, sinfdan tashqari ishlarga jalb etildi.

Xulosa va takliflar, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi bo'lgan fanlararo vazifada ifodalangan. Turli fanlararo vazifalarning yig'indisi ushbu mashg'ulot mazmunining yaxlitligini tashkil qiladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy asoslab berilgan va amalga oshirilgan fanlararo integratsiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini ta'minladi. Kasbiy va ilmiy faoliyatning fanlararo vazifalarini amalga oshirish fanni o'rganish jarayonida kasbiy va motivatsion vaziyatlarni ishlab chiqish kabi usullardan foydalangan holda amalga oshirildi; bilimlarni o'zgartirish. STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan integrallashtirilgan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayonini loyihalash vositasi bo'lib xizmat qildi. Birgalikda texnologiyani o'qitishning ko'plab afzalliklari bor, guruh ish, juftlik bilan ishlash. Bu ta'lim maqsadlariga

erishishga, mas'uliyatga, o'zaro munosabatga ko'nikishga yordam beradi qo'llab-quvvatlash. o'quvchilarning samaradorligini oshiradi, bilim faolligini, mustaqilligini rivojlantiradi, kengaytiradi talabalarning shaxslararo munosabatlari. U yangi materialni o'rganishda ham, darsda ham qo'llanilishi mumkin darslarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son farmoni.

2. Yuldashovich K. A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

3. Arshanskiy, Ye.Ya. STEAM-obrazovanie: ot modeli k prakticheskoy realizatsii / Ye.Ya. Arshanskiy, N.S. Sologub // Adukasыya i vxavanne. – 2020. – № 9. – S. 22–30.

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TARIX FANI O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalarikafedrasi mudiri, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali tarix fani o'qituvchilarini integratsion yondashuvi asosida malakasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ertangi istiqboli talablarga javob bera oladigan, kreativ faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis kadrlarni shakllantirish maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: kreativ, integratsion, kontinental moslashuv, taqqoslash, modellashtirish, kompetensiya.

Аннотация. Целью данной статьи является повышение квалификации учителей истории на основе интеграционного подхода путем непрерывного профессионального развития с целью повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: креативность, интегративность, континентальная адаптация, сравнение, моделирование, компетентность

Abstract. This article aims to increase the qualification of history teachers based on the integrated approach through continuous professional development in order to increase the quality and efficiency of education, and the goal is to form qualified specialist personnel who can meet the requirements of future perspectives.

Key words: creative, integrative, continental adaptation, comparison, modeling, competence

Bugungi kunda respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, xalqimiz oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish, aniq va tabiiy, amaliy va texnik, integratsion aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti, fanlar hodisa yoki jarayonlar yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etmoqda.

Bu o'z navbatida bugungi va ertangi istiqboli talablariga javob bera oladigan, mustaqil fikr yurituvchi va kreativ faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlashni talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab-oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajadagi tafakkurni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fanlararo integratsiyasi samaradorligini oshirishda integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha darsliklarda bir - birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, darsliklarning yaratilishida chiziqli integratsiyadan voz kechib spiralsimon integratsiyaga o'tishga e'tibor qaratish, ularni tartibga keltirish, ilmiy asosini yaratish lozim. Yangi rivojlanayotgan fan mazmunida turli falsafiy oqimlarda paydo bo'lgan g'oya va metodlar birlashuvi ehtimoli bor. Ta'lim falsafasi tomonidan nafaqat tabiiy moslashuv, balki kontinental moslashuv ham o'zlashtirilmoqda.

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninning "Pedagogika" kitobida darslarda qo'llanadigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi. O'qituvchi oldiga qo'yilgan muammoni o'zidagi ijodiy qobiliyat, intellektual imkoniyat va hayotiy tajribani to'liq safarbar etgan holda hal etishni ilmiy-amaliy jihatdan isbot qilib berdilar. O'qituvchi oldiga qo'yilgan muammoni o'zidagi ijodiy qobiliyat, intellektual imkoniyat va hayotiy tajribani to'liq safarbar etgan holda hal etishni ilmiy-amaliy jihatini isbot qilib berdilar.

Misol uchun, Yan Amos Komenskiy grammatika va falsafa, falsafa va adabiyotning o'zaro bog'liqligini, Jon Lokkening tarix va geografiya fanining integratsiyasini ilgari surgan. Olimlardan T.Kun va V.S.Styopin bu boradagi ishlari natijasida tarix, falsafa, tabiat va madaniyat haqidagi fanlarni integratsiya asosida shakllantirish omili deb hisoblagan.

O'tgan asrning 50-yillarida o'zaro fanlararo aloqalar zarurati V.F.Odoyevskiy, K.D. Ushinskiy tomonidan ilgari surilgan.

Chet elda ayrim pedagogika bilimlarning yaxlitligini ta'minlash uchun kompleks sub'ektlar yaratilgan. Masalan, AQShda "Ijtimoiy fanlar" (jumladan, tarix, xuquq, geografiya, shaxs va jamiyatshunoslikning fuqarolik tadqiqotlari elementlari) kompleks kursi paydo bo'lgan.

NATIJA

Tarix fani o'qituvchilarni malaka oshirish kursi jarayonidagi o'quv faoliyatini tahlil qilar ekanmiz ba'zan turli qiyinchiliklarga duch kelamiz.

Darslar jaryonida o'qituvchilar nazariy bilimlar bilan chegaralangandek ko'rinadi, vaholanki mashg'ulotlar fanlarining o'zaro aloqadorligi asosida turli hil pedogogik texnologiyalar va metodlardan foydalanib amalga oshirilishi samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Tarix fanini o'qitishda kurslararo uzviylikda olib borishda tarixiy, pedagogik, psixologik va metodik tadqiqotlar va shunga muvofiq o'rganish va tahlil qilish metodlaridan foydalanish bir butun tizimni yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rindi. Lekin fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p nazariy bilimlarni o'zlashtirsalar ham, uni hayotga tadbiiq qilishda qator qiyinchiliklarga duch kelayotganliklari ko'rinib qolmoqda. Ko'pchilik bunga sabab nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi.

Malaka oshirish kurslarida tinglovchilarni pedagogik muammolar bo'yicha yechimlarni topishda faol ishtirok etishi, tarix fani o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyati jaryonida o'quvchilar bilan ishlashda olingan bilimlarni bir tizimga solib, turli o'quv-ta'lim ish faoliyatida amaliyotda qo'llay olish imkonini beradi.

Tarix fanini o'qitilishi sifatini oshirishning asosiy jarayoni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

mustaqil ishlash va ta'lim olish uslublarini o'rganish;

og'zaki, nazariy o'qitish usullari bilan shug'ullanishdan voz kechish;

o'qituvchilar faoliyatini rivojlantirish; ish usullarida o'qituvchi mahoratini hisobga olish;

o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga e'tibor qaratish va hokazo.

Maktablar uchun nashr qilinadigan yangi avlod darsliklari o'rgangan materiallarni mustahkamlash, nazariya, tushunchalarni ijodiy o'zlashtirish va ularni aniq hayotiy vaziyatlarni hal qilishda qo'llash imkonini beradi. mustaqil ish, loyixa ishi, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullardan foydalanishi tarix fani o'qituvchilarini kompetensiyalarni rivojlanishiga olib keladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishda ko'p qirrali fanlararo aloqadorlik yordamida tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali malakasini oshirish yo'lga qo'yilsa, ularni har tomonlama rivojlantirish va sifat jihatidan yangi

bosqichga olib chiqiladi. Aynan shuning uchun ham fanlararo aloqalar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishga asoslangan kompleks yondashishning muhim sharti va natijasi bo'ladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda tarix fani o'qituvchilarini bugungi kunda tarix, geografiya, adabiyot, falsafa, mantiq, huquq, siyosatshunoslik, mintaqaviy vakolat masalalari va boshqalar bilan bog'liq mavzular integratsiyasi o'zlarining aloqa nuqtalariga ega.

MUHOKAMA

Ijtimoiy fanlar misolida Zaxriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari o'quvchilarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Xindiston hududlarining iqlimi, tabiiy geografik joylashuvi, etnoslari, diniy, madaniy tarixini bilishni mustahkamlaydi.

Bu esa o'z o'zidan tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglashini, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash, ijtimoiy fanlarga oid umumiy va kuchaytirilgan kompetensiyalarni shakllantiradi.

Fanlar bo'yicha integratsiyalashuvni amalga oshirishda, quyidagi usullar yordam beradi: taqqoslash, modellashtirish, tahliliy chizmalarni tuzish, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar tahlili, tadqiqot tarzidagi tajriba va kuzatuvlar tahlili, statistik ma'lumotlar tahlili.

Tarix fani o'qituvchilarini fanlarini o'zaro aloqadorligini amalga oshirish integratsiyasi samaradorligining o'quv fanlarining mazmunini chuqur va har tomonlama ochib berish orqali o'quv dasturi, darsliklar, o'qitishning usul va shakllarini tuzilishini o'zaro aloqasini ta'minlab, o'quv axborotini izchil va muntazam o'zlashtirishi bilan belgilanadi.

Shuning bilan birgalikda tarix fanlarini o'qitish jarayonlari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda integratsion ta'lim berish orqali o'qituvchilar o'quvchilarda tarixiy bilimlar uzviyligini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantiruvchi samarali texnologiya va metodlar yordamida ta'lim sifatini oshirishga erishadi.

Tarix fani integratsiyasi o'qituvchilariga o'quv jarayonini fanlararo aloqadorlikning mavjudligini hisobga olib, loyihalashga, shu orqali o'zlashtirish, samaradorlikka erishishda nazariy, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali pedagoglar malaka oshirish kurslarida olgan bilimlarini o'z faoliyatlarida qo'llay oladib, ta'limda o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'ladigan keng fikr, mulohaza yurita oladigan, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladigan kadrlarni tayorlashbosh ustuvor maqsad qilib olindi.

Tez sur'atlar bilan o'sib axborotlashgan, raqamli iqtisodiyot davrida qiyinchiliksiz o'z yo'lini topib keta oladigan pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Bundan tashqari, malaka oshirish kurslarida integratsion ta'lim asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali malakasini oshirish nafaqat o'z kasbi bilan bog'liq bajariladigan amaliy vazifalarga, balki ijtimoiy va amaliy tajribaga ega bo'lishiga imkon yaratadi.

Ushbu maqolada malaka oshirish kurslari jaryonida fanlararo integratsiyani yanada kengroq joriy qilish, tinglovchilarda pedagogik yechimlarni izlashda faol ishtirok etishi, tarix fani o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va dunyodagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish, o'qitish sifatini yaxshilash, bilim va ko'nikmalarini tartibga solishning muhim bosqichi ekanligi ochib berilgan.

Bizningcha fanlararo integratsiyani doimo takomillashtirib va rivojlantirib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida 2019- yil 23-avgust kuni "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeini oshirish" masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselekt majlisi Bayoni. – 2019- yil 27-avgust. № 19750. "Xalq so'zi" gazetasi 2019-yil 24-avgust.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son Farmoni Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Xalq so'zi gazetasi. 2020- yil, 25-yanvar.

Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. pedagogika fanlari doktori (DSc) diss.. aftoref. T.: 2021. – 70 b.

Житникова Л. М. Учит детей запоминат. Пособие для воспитателя детского сада. –Москва: Просвещение, 1978.

Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабларида ўқитиш методлари. –Т.: Ўқитувчи, 1990. –229 б.

Мавлонова Р.А. Бошланғич таълимнинг интегратсиялашган педагогикаси. Методик қўлланма. Низомий номидаги Тошкент давлат университети, 2005.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna

Namangan viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'limda STEAM ta'lim texnologiyasining o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, integratsiya, STEAM yondashuvi, kreativlik.

Аннотация. В данной статье говорится о важности образовательной технологии STEAM в обучении учащихся творческому мышлению в дошкольном и начальном образовании.

Ключевые слова: Образовательные технологии, современное образование, интеграция, паровой подход, креативность.

Abstract. This article talks about the importance of STEAM educational technology in teaching students to think creatively in preschool and primary education.

Key words: Educational technologies, modern education, integration, Steam approach, creativity.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni va boshqa ko'plab respublikamizdagi ta'lim tizimini dunyodagi yetuk ta'lim tizimlariga tenglashtirish borasidagi islohotlarni ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu maqsadlarni bajarish uchun bizga STEAM ta'limi qo'l keladi. Hozirgi kunda STEAM ta'lim tizimi dunyo miqyosida keng tan olinmoqda. STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi.

STEAM ta'lim texnologiyasining mazmun va mohiyati STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir.

Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu metodika ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. Fanlarni kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishdan tashqari, texnologiya o'quvchilarning ijodkorligini ham ko'rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, o'quvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o'rganadi. Bunday vazifalar yordamida o'quvchi g'oyalarni nafaqat o'ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o'rganadi. Shu tariqa, o'quvchi o'z faoliyatini oldiga qo'yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o'rganadi. Globallashuv davridagi texnologik o'zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun'iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta'lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda. STEAM bizning kundalik hayotimizdagi innovatsiyalarni ta'lim tizimiga kiritib beradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish (qobiliyati shakllanadi. Shu o'rinda kreativlik tushunchasiga to'xtalsak. Kreativ (ing. create) - yaratish, kreativlik (creative) – yaratuvchi, ijodkor tushunchalarini anglatadi va yangi g'oyalarni ishlab chiqarish, ijodkorlik qobiliyati ma'nolariniberadi. Kreativ bo'lish mohiyatni yorqin ranglarda ko'rish vako'rsata bilish demakdir.

Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEAM tizimiga olib kirishning ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog'liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag'batlantirilishi lozim. Masalan, STEAM ta'lim tizimini kitoblar orqali kichik yoshdagi bolaning hayotiga olib kirish samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Kitob bolani STEAM tizimiga olib kirishda kuchli vosita bo'la oladi. Kitob bola uchun faoliyat va jarayon orasidagi bog'lovchi vosita bo'ladi. Misol uchun kitobdagi baliqcha haqida bolalar bilan suhbat qurib, bog'chadagi akvariumda yashovchi baliqlarni o'rgansa bo'ladi. Kitob bolani yoshligidan ilm-fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, kitob orqali bolada fanga oid so'z boyligi ortadi. Kichik yoshdagi bolalar uchun tayyorlanadigan kitoblarni STEAM ta'lim tizimi doirasida qanday strukturalashtirish mumkin: S-Science kichik yoshdagi bolalarni fan olamiga olib kirishda hayvonot olami, dengiz hayvonlari, o'simlik va hashoratlar haqidagi kitoblardan foydalansa bo'ladi. T-Technology Atrofimizda, bolalar

xonasida, kundalik faoliyatimizda uchraydigan texnologiya buyumlari aks etgan qiziqarli kitoblar bolani texnologiya olamiga olib kiradi. Qaychi, g'ildirak, mashina, oyisining kir yuvish mashinasi, telefon va hokazolarni kitobda ichini ko'rsatgan holda namoyon qilish, buyumlar haqida hikoyalar o'qish mumkin. Qiziqarli hikoya bilan namoyon bo'lgan texnologik buyumlar illyustrasiyasi bolani miyasida savollar paydo bo'lishiga, tahliliy o'ylashiga turtki bo'lishi mumkin. E-Engineering Injinerlik sohasiga bolalarni olib kirishni shakllarni o'rganishdan boshlasa bo'ladi. Shakllar, ularning atrofimizdagi buyumlarda aksi, shakllarning bir-biri bilan munosabatini haqidagi biron shaklga ega bo'lgan kitob foydali vosita bo'ladi. A – Art -bolani san'at olamiga olib kirishni bolaligidan boshlash zarur. Milliy va dunyo miqyosida buyuk san'at arboblari asarlari, san'at namunalaridan tashkil topgan kitoblar, bolalarning o'ziga yosh psixologiyasini inobatga olgan illyustrasiyalar STEAM ta'limi tamoyiliga munosib bo'ladi. Kitob illyustrasiyadagi hayvonlar soni, barmoqlar soni, yuzagi a'zolarining yonida "1" (og'zi bitta) yoki "2" (ko'zi ikkita) sonlarining namoyon bo'lishi bolada matematika asoslarini shakllanishida va sonlarga qiziqishi uyg'onishiga yordam beradi. Eng muhimi, bolaga STEAM tizimiga oid kitob tanlayotganda u zerikarli bo'lmasligi va bolaning yosh psixologiyasiga munosib bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, STEAM ta'limi bolalarning har tomonlama rivojlanishlari uchun xizmat qiladi. STEAM texnologiyasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
4. Т.С.Волосовес, В.А.Маркова, С.А.Аверина. СТЕМ-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANINI STEM TALABLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

K.B.Masharipov

T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali mustaqil izlanuvchisi.

Email: masharipovk65@gmail.com.tel.+998972786465

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar, ilg'or va xorijiy tajribalar, STEM ta'limi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. STEM, robototexnika, elektrotexnik ishlari, raketalar, samolyotlar.

Annotatsiya. В статье рассматриваются реформы, проводимые в целях развития сферы образования в Республике Узбекистан, передовой и зарубежный опыт, STEM-образование.

Ключевые слова. STEM, robototexnika, elektrotexnicheskie raboty, rakety, samolety.

Abstract. The article discusses the reforms carried out in order to develop the field of education in the Republic of Uzbekistan, advanced and foreign experience, STEM education.

Key words. STEM, robotics, electrical engineering, rockets, airplanes.

O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimidagi amalga oshiriliyotgan islohotlar jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda ularni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF - 5538 son Farmonida xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovation usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhimligi belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan[2] "2018-2021 yillarda


O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning II bo'lim, 11-bandida – umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan[3].

Mazkur vazifalarni bajarish maqsadida umumiy o'rta talim maktablarida ta'lim sifatini ko'tarishda STEM ta'limini joriy etish uchun eng avvalo amaliyotchi o'qituvchilar uning afzalliklari haqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llash uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 27-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida STEM ta'limi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 274-son buyrug'ida quyidagilarni amalga oshirish, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun STEM fani dasturini ishlab chiqish, STEM fanlarini o'qitish uchun zarur laboratoriya jihozlari va uskunalari ro'yxatini shakllantirish; o'qituvchilarni STEM ta'limi bo'yicha malakasini oshirishda xalqaro hamda mahalliy ekspert va pedagoglarni jalb qilish, pedagoglarni qo'shimcha adabiyotlar bilan ta'minlash belgilangan [4].

Zamonaviy maktablarda robot dizayni, modellashtirish va loyihalashtirish ishlari yetakchi o'rinni egallamoqda. Mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish uchun ko'proq texnik ta'lim talab etilayotganligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bugungi kunda STEM ta'limi jamiyat va davlatning rivojiga katta hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini bermoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimi, an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, amaliyotda o'rganilayotgan ilmiy-nazariy va metodik uslubni kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatishga imkon beradigan aralash muhit hisoblanadi. Matematika va fizika bilan bir qatorda o'quvchilar robototexnika va dasturlashni o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotdagi natijasini shaxsan ko'rib turadilar. STEM ta'limining muhimligi shundaki, haqiqiy fan sohasida ta'lim sifatining pastligi, moddiy-texnika bazani yetarli darajada emasligi, o'qituvchilar va o'quvchilarning sust motivatsiyasi – bularning barchasi ta'lim tizimining eng katta muammosidir. Shu bilan birga, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan davlatimiz yuqori texnologiyalar sohasidagi fanlarning turli xil ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda STEM ta'limi birinchi o'rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi.

STEM- (sciene technology engineering mathematics) so'zi



S – science
(tabiiy fanlar)

T-technology
(texnologiya)

E-engineering
(muhandislik)

M-mathematics
(matematika)

STEM atamasi ilk bor AQShda maktab dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlaridagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo'nalish kengaytirilib, atamaga qo'shimcha harflar kiritildi. Jumladan, unga "R" – robotics – robototexnikani qo'shib, STREM deb "A" - art - san'atni qo'shib, STEAM deb atala boshlandi. Bugungi davr talabi esa dunyo ta'limi oldiga katta vazifani qo'yimoqda. Bu o'z navbatida o'quvchilarni jamiyatda yashashga tayyorlay olishi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni o'quvchida shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta'limi dasturining asosini tashkil qiladi. STEM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilash va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda turli konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi.

STEM mashg'ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo'lsa o'quvchilar mashg'ulot vaqtida zerikishmaydi va darsdan unumli foydalanadilar[5].

STEM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarning muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, fizika darslarida yerning tortishish kuchi o'rganilganda doskada formulalarni yozish tushuntirilsa, STEM to'garaklarida raketalar, samolyotlar, elektrotexnik ishlari, robototexnika, xalq hunarmandchiligi va boshqa amaliy ishlarni bajarish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

O'quv va ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra STEM ta'limining asosiy xususiyati shundaki, bunda o'quvchilar fanlarni samarali o'rganishda o'z aqli va qo'l mehnatidan foydalanadilar. O'quvchilar dars davomida kichik tajriba va amaliy ishlarni o'tkazishadi, turli modellar ustida ishlab o'z g'oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi. STEM ta'limining afzalligi shundaki, fanlarni o'qitishda bilimlar alohida emas, amaliyot bilan o'zaro mutanosib holda beriladi. O'quvchi o'zida nostandart muammolarni yechish uchun tayyor modellardan hamda izlanuvchilik faolligini rivojlantirib yangi modellar ustida ishlaydi va bu uning kelgusi hayotida juda qo'l keladigan ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi [6].

Adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoni.Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 06/18/5538/1840-son, <https://lex.uz/docs/3893445>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PQ-3931 son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841- son, <https://lex.uz/docs/3893416>.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora - tadbirlar dasturi". https://t.me/Xalq_talimi_xodimlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 27-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida STEM ta'limi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 274-son buyrug'i. https://t.me/Xalq_talimi_xodimlari.

5. Tohirov O.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017. - 72 b.

6. Sangirova Z.B. STEAM o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida //Uzluksiz ta'lim//– Toshkent, 2020, №6. – B.54-57.

TABIIY FANLAR DARSLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH TAJRIBASIDAN

Ismoilova Ra'no Ikrom qizi

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumani 6-umumta'lim maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiiy fanlar darslarida STEAMni qo'llash integratsiya jarayonini yuzaga keltirish imkoniyatlari izohlanib, "Suv" mavzusi misolida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fan, STEAM texnologiyasi, integratsiya, kompetensiya.

STEAM texnologiyasi o'quv rejasi o'quvchilarga fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalangan holda o'qitish g'oyasiga asoslangan. Beshta fanning har birini alohida o'rganish o'rniga STEAM ularni yagona sxemasiga birlashtiradi.

"Suv" mavzusi asosida STEAM texnologiyasida ishlash imkoniyatini ko'rib o'tamiz.

S- tabiiy fanlari: magnit rasmini ko'rsatib, "Nima?", "Qachon?", "Qayerda" so'rovnomasi o'tkazish.



H₂O – bu suv. Suv tiriklik manbai. Suvsiz hayot yo‘q. Suv hayot boshlanganda yaralgan. Organizmimizni 70%i suvdan iborat. Yer shari bo‘yicha to‘rttdan uch qismi suvdan iborat, Ichimlik suvimizning yaroqliligi juda past darajada. Ariq, kanal, ko‘l, daryo, dengiz va okeanlarda suvlar bo‘ladi.

T-texnologiya: Suv havzasi maketini plastilindan yasang topshirig`i asosida maket yasash.



E - muhandislik Og‘zaki yoki yozma ravishda misol keltiring
- Kelgusida suv yordamida qanday ixtiro qilgan bo‘lar edingiz?

1-javob Avtomobillar, avtobuslar, ya'ni barcha transportlarni suv bilan yuradigan ixtiro qilar edim.



2-javob.Orol dengizini suv bilan to‘ldiruvchi asbob yasagan bo‘lar edim.

A – san‘at. Suv haqida qo‘shiq aytish.



Tomchi-tomchi yomg`iroy
Yomg`ir yog`ar shoshqinoy

Dala-dashtga sel quyib,
Yomg'ir yog`ar soy bo`lib....
M-matematika: Suv haqida masala tuzing.



9 litr suvni 3ta idishga bir xil miqdorda quysak nechta idish kerak bo`ladi?

Y: $9 : 3 = 3$

J: 3 ta idish.

STEAMni joriy etishda o`quvchilarning ilmiy-texnika yo`nalishlarida kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlari, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ish va o`qish jarayonlarida duch keladigan muammo va qiyinchiliklarga yechim topish ko`nikmalarini shakllantiradigan holatlar o`z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

E.To`xtayeva "Maktabgacha ta`lim tizimida STEAM texnologiyasi" T-2022.

O.E.Tigay Tabiiy fanlar darsligi 2-sinf uchun. 1-qism. T-2023.

TA'LIMDA STEAM LOYIHALAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI

Tolipova T.K

Samarqand VPYMO`MM Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta`lim metodikalari kafedrasida katta o`qituvchisi

Ta`lim sifatiga erishish va rivojlantirish, maktab o`quvchilarining kasbiy mahoratini doimiy va uzluksiz ravishda oshirib borishni talab etadi. Ta`lim muassasalarida, pedagoglar kasbiy mahoratida va bilimidagi bo`shliqlarni to`ldirib boruvchi, amaliy faoliyatlariga ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi metodik muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega.

STEAM - bu tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan sohalarini birlashtirgan yangi o`quv texnologiyasi.

San`atning qo`shilishi biz loyihada ishtirok etadigan o`quvchilar tarkibini kengaytirishga imkon beradi, shuning uchun dizayn va matematikada aniq

qobiliyatlarga ega bo'lmagan bolalar loyihani estetik jihatdan amalga oshirishda guruhga yordam berishlari mumkin.

STEAM o'quv rejasi o'quvchilarga fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalangan holda o'qitish g'oyasiga asoslangan. Beshta fanning har birini alohida o'rganish o'rniga STEAM ularni yagona o'quv sxemasiga birlashtiradi.

STEAM ta'limi ilmiy usullardan, texnik qo'llanmalardan, matematik modellashtirish va muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu o'quvchining innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

O'qituvchilarning fikriga ko'ra, integratsiya ko'pgina kasblarda muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. Deyarli barcha mutaxassislarning ta'kidlashicha, ilg'or texnologiyalar o'rganish uchun g'ayratni oshiradi va dizayn va dasturlash sohasidagi asosiy bilimlarni kengaytiradi.

STEAM o'qitish - bu bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradigan innovatsion usul. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo'lishimizga imkon beradigan ilg'or kadrlar bazasini shakllantirishimiz mumkin.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi kelajakda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq eng mashhur kasblar: IT mutaxassislari, katta ma'lumot muhandislari, dasturchilar bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimi robototexnika, dasturlash, modellashtirish doiralarining ko'plab sonining paydo bo'lishi bilan bunday ijtimoiy talabga javob beradi. Biroq, ilmiy va texnik bilimlarning tanqisligi haqidagi fikr tobora ko'proq eshitilmoqda. Kelajakda qisman 4K deb nomlanadigan XXI asrning ko'nikmalari talabga ega bo'ladi.

XXI asrning ko'nikmalari bu alohida sohadir, hozir u turli darajalarda faol muhokama qilinmoqda. Kontseptsianing mohiyati shundan iboratki, sanoat davrida savodxonlikni belgilovchi asosiy ko'nikmalar o'qish, yozish va arifmetika edi. XXI asrda urg'u tanqidiy fikrlash qobiliyatiga, o'zaro ta'sir o'tkazish va muloqot qilish qobiliyatiga, biznesga ijodiy yondoshishga yo'naltirilgan. Shunday qilib, kelajakdagi 4K asosiy ko'nikmalari shakllandi:

- Aloqa
- Hamkorlik
- Tanqidiy fikrlash
- Ijodkorlik

Ushbu ko'nikmalarni faqat laboratoriyalarda yoki ma'lum matematik algoritmlarni bilish orqali olish mumkin emas. Shuning uchun mutaxassislar STEAM fanlarini tobora ko'proq o'rganishlari kerak, degan xulosaga keldilar. Demak, STEAM (S-fan, T-texnologiya, E-muhandislik, A-san'at, M-matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi: muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy

fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash, dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Muammolarni hamkorlikda yechishga o'rgatish. Bahsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib, qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to'qnashadi.

Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyaga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

O'quvchilar o'zlari bajargan topshiriqlarni qanday qilib bajarganliklarini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim.

Muammo hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o'rinlarini o'z so'zlari bilan ifodalab bera olishi o'qituvchi uchun muhimdir. Nemis pedagogi Disterveg bekorga "Noqobil o'qituvchi haqiqatni aytadi qo'yadi, yaxshi o'qituvchi esa uni topishini o'rgatadi" deb aytmagan. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi faqat mavzuni tushuntirib berish emas, masalani to'g'ri qo'ya bilishi, o'quvchilarni o'z faniga qiziqтира olishi, uning tuyg'ularini bezovta qila bilishi va muammoni hal etishda hamkor sifatida qatnashishdan iborat.

STEAM-ta'lim umumta'lim maktablarida sinf-dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o'tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko'chirish, amaliyotda faol qo'llash jarayoni orqali fanlar integratyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo'llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo'naltirish kabi amaliy-metodik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning innovatsion yo'llarini joriy etishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Avgust Kengashi materiallari 2020-yil avgust.

"Ta'limda STEAM yondashuv: maqsad, jarayon va istiqbolli rejalar" xalqaro onlayn ilmiy-amaliy seminar materiallari, Samarand, 2020-yil 30-sentabr, <https://t.me/STEAMprogram>

"Fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) bo'yicha O'zbekiston uchun seminar" materiallari, 2020-yil, 24-sentabr.

Фролов А.В. Роль STEM образования в "новой экономике" США // Вопросы новой экономики.- 2010.- №4 (16).- С. 80-90.

Хотунцев Ю.Л., Насипов А. Технологическое образование школьников в Великобритании, Франции, США, Австралии, Швеции и Нидерландах // Наука и школа. 2010. № 2. С. 67-71.

Дзюбенко О.Р. Использование STEAM – технологий на уроках литературы и во внеурочной деятельности. Методический сборник: "STEM – технологии в образовательной организации", 2020, Ульяновск, 40 стр.

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali.

2. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali.

3. <http://www.multimedia.uz> (<http://www.eduportal.uz>) - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

BOSHLANG'ICN TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Isayeva G.P.

Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
isayevaguli06@gmail.com

Turdiyeva Sevinchxon Shuhrat qizi

Guliston davlat pedagogika institute II-kurs talabasi

Bugungi kun texnologik davridir. Kundan-kunga yangi texnologiyalar, yangi kasblar, yangi texnikalar paydo bo'lmoqda. Pedagog-Ustoz sifatida yosh avlodga yangi texnologiyalar orqali davr talabiga mos yangi bilim berish, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotga moslashtirish maqsadga muvoffiqdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish borasida islohatlar amalga oshirilmoqda. "Zamonaviy maktablarni tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident Qarori, 2017-2021- "Prezident maktablarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari va boshqa ko'plab Respublikamizdagi ta'lim tizimini dunyodagi yetuk ta'lim tizimlariga tenglashtirish borasidagi islohatlarni ta'kidlab o'tish mumkin. Qaror va farmonlar asosida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtimizda tashkil etilgan prezident maktablarida STEAM ta'lim tizimi orqali bilim beriladi.

Ta'limda STEAM texnologiyasi Amerikada ishlab chiqqan. AQSh, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish yolg'a qo'yilgan.

S – science - Tabiiy fanlar

T – Technology – texnologiya

E – engineering – muhandislik

A – art – san'at

M – matn – matematika

Ushbu yonalishlar dunyoda zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotgan tizim hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida boshlang'ich ta'limda ham rivojlanib kelmoqda. STEAM ta'lim yo'nalishi ta'lim olishda amaliy yondoshuvni qo'llash, shuningdek beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Boshlang'ich ta'lim tizimida iqtidorlarni e'tiborga olib, fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika kabi fanlarni birlashtirishga xizmat qiladi. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoga eng kop talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Boshlang'ich sinf ta'lim tizimida aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu metodika ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu boslang'ich ta'lim tizimida, maktabda va maktabdan tashqari loyiha va o'quv tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liklikni ko'rsatilib o'rgatiladi. Fanlarni kundalik hayot bilan bog'likligini ko'rsatishdan tashqari, texnologiya boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodkorligini ham ifoda etadi. Ushbu yondoshuv boshlang'ich sinf o'quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, o'quvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namayon qilishni o'rganadi. O'quvchi o'z faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o'rganadi. STEAM boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim olishiga, ko'nikma, malakalarning hosil bo'lishi va rivojlanishiga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida STEAM ta'lim tizimiga yondoshgan holda ta'lim tizimi tashkil etilishi bugungi kun talabidir.

Rivojlangan davlatlarda STEAM-ta'lim ustuvor ahamiyatga ega;

dunyodagi rivojlanayotgan barcha mamlakatlar va shu qatori O'zbekistonda ham muhandislar, yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish

mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi;

- tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bo'g'liq bo'lgan kasblarga ega bo'ladi;

- bio va nanotexnologiya mutaxassisligiga katta talab bo'lmoqda;

- mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta'lim va tajribaga muhtoj bo'ladi.

STEAM ta'limning afzalliklari

- ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki "mavzular" bo'yicha integratsiyalab olib boorish;

- ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash;

- o'z kuchiga ishonish hissini ortirish;

- texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

- joyihalarga kreativ va innovatsion yondoshuv;

- ta'lim va karyera orasidagi ko'prik tushunchasiga ega bo'lish;

- o'quvchilarni texnologik innovatsion hayitga tayyorlash;

Glaballashuv davridagi texnologik o'rganishlardan orqada qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, zamon talabidagi texnologiyalarni bilish, ularga muvoffiq ta'lim berish hozirgi zamon pedagoglarning pedagog texnologiyalar asrning asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda. STEAM ta'limi tizimi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarda kreativlik, qunt, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat-muammoni hal qilish (problem-solving) qobiliyati shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida STEAM ta'lim tizimini davlat ta'lim tizimiga kiritish mobaynida islar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini rivojlantirishda STEAM tizimi muayan belgilangan dastur va reja asosida olib boriladi. STEAM ta'lim tamoyillarga asoslanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish va amalga tadbiiq etish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'lim tizimini kitoblar orqali o'quvchilarning hayotiga olib kirish samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Kitob boshlang'ich sinf o'quvchini STEAM tizimiga olib kirishda kuchli tramplin bo'la oladi. Kitob boshlang'ich sinf o'quvchi uchun faoliyat va jarayon orasidagi bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Kitob boshlang'ich sinf o'quvchini yoshligidan ilm-fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, kitob orqali o'quvchida fanga oid so'z boyligi ortadi. Bu erda muhim jihati STEAM ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tashkil etiladigan darslar STEAM ta'lim tizimi doirasida tashkil etilishni strukturalashtirish taqoza etiladi.

S – Science - Tabiiy fanlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini gan olamiga olib kirishda hayvonot olami, dengiz hayvonlari, o'simliklar va hashoratlar haqidagi kitoblardan foydalansa bo'ladi.

T – Technology – texnologiya boshlang'ich sinf va sinfdan tashqari, kundalik turmush faoliyatida uchraydigan narsa va buyumlar ham boshlang'ich sinf kitoblarida aks etirilgan. Kitobdagi tasvirlangan kundalik

turmushda qo'llaniladigan va foydalaniladigan narsalar, buyumlar boshlang'ich sinf o'quvchilarni texnologiya olamiga olib kiradi. Mashina, telefon, kompyuter, noytbuuk va boshqalar. Bularning foydalanish o'rni va xizmat qilish jarayoni qoidalariga amal qilish, ular haqida to'liq ma'lumotlar kitobda hikoya, she'r, maqol, topishmoq, ertak, asosida texnologik buyumlar illyutsratsiyasi bilan boyitiladi, bu esa o'quvchini dunyoqarashini boyitadi.

E – engineering – muhandislik injenerlik sohasiga boshlang'ich sinf o'quvchilarini olib kirishni shakllarni o'rganishdan boshlasa bo'ladi. Shakllar, ularning atrofdagi buyumlarda aksi, shakllarning bir-biri bilan munosabati haqidagi biron shakllga ega bo'lgan kitob foydali bosiba bo'ladi.

A – art – san'at Boshlang'ich sinf o'quvchilarini san'at olamiga olib kirishni yoshlikdan boshlash zarur. Milliy va dunyo miqyosida buyuk san'at arboblari asarlari, san'at namunalari dan tashkil topgan kitoblar, boshlang'ich sinf o'quvchilarning yoshini va individual psixologiyasini inobatga olgan, illyustratsiyalar STEAM ta'limi tamoyiliga munosib bo'ladi.

M – matn – matematika Boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab masala echishni bilmaydigan o'quvchilarga ham oddiy masala echishni o'rgatish mumkin. Faqat bu 1+1 kabi zerikarli, boshlang'ich sinf o'quvchilarning neyrofiziologik rivojlanishiga to'g'ri kelmaydigan ta'lim bo'lmay, balki interaktiv innovatsion yondoshuvga ega ta'limini qo'llashdir. Kitob illyustratsiyadagi hayvonlar rasmiga qarab, oyoqlari to'rta, qulog'i ikkita, ko'zi ikkita va h, k ularni bir-biriga qo'shganda nechta son kelib chiqishi boshlang'ich sinf o'quvchilarga qiziqarli bo'lladi. Sonlarning namayon bo'lishi boshlang'ich sinf o'quvchilarda matematika asoslarini shakllantirishda va sonlarga qiziqishi uyg'onishiga yordam beradi. Eng muhimi, o'quvchilarga STEAM ta'lim tizimiga oid kitob tanlayotganda u zerikarli bo'lmasligini ta'minlaydi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilar ehtiyoj va talablariga mos rivojlantirishda STEAM ta'lim tizimi asoslarini shakllantirishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvoffiq bo'ladi.

- Boshlang'ich sinfni kitob bilan ta'minoti jarayonida kitoblarni STEAM tamoyillariga asoslanganligiga qarab tanlash,
- Boshlang'ich sinf tizimining ish rejasiga STEAM tamoyillariga asoslangan kitoblar bilan ish faoliyat bilan yurgazish mexanizmlarini kiritish.
- Boshlang'ich sinf uchun mo'ljallangan, innovatsion texnologiyalardan tashkil topgan STEAM kitoblarni ishlab chiqarishni rivojlantirish bugungi kunda maqsadga muvoffiqdir.

5-SHO'BA. TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

ПЕДАГОГИК КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР КРЕАТИВЛИК ВА ИННОВАЦИЯ

Б.С.Абдуллаева

Тошкент давлат педагогика университети Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, педагогика фанлари доктори, профессор

Маълумки, креативлик бу инсон ақл кучининг юқори даражаси ҳисобланиб у мавжуд алоқадорликни ўзгартириш ва яратиш орқали янги мазмунни таркиб топтиради. Бунда бўлажак педагогларнинг инновацион фаолиятига мойиллиги педагогик кадрлар креатив салоҳиятининг муҳим таркибий қисми деб ҳисобланади.

Креатив сифатлар педагог касбий фаолиятини ташкил этишга ижодий ёндашиш, талабаларнинг ўқув фаолияти, шахсий сифатларини ривожлантиришга хизмат қиладиган янги ечимларни излашдаги фаоллиги ҳамда ҳамкасблар билан педагогик ютуқлар хусусида доимий изчил фикр алмашиш тажрибасига эга бўлиш маҳоратини шакллантириб борадиган умумий қобилият деб қараш мумкин. Педагогнинг касбий муҳим ҳислати муваффақиятга эришиш сари инновацион педагогик фаолиятга интилиши ҳисобланади.

Креатив сифатлар мотивацион муаммоли-ҳиссий инфорацион фикрлаш, ўзига-ўзи ишонч, коммуникатив, альтуистик, тахлилий конструктив, инновацион таркибий қисмлардан иборат бўлади.


Жаҳон таълим ва илмий тадқиқот муассасаларида таълимга креатив ёндашув асосида бўлажак битирувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш, етук педагог кадрлар сифатида тарбиялашга креатив ёндашувлар орқали таълим жараёнига таъсир этиш ҳамда инновацион методик ишланмалардан фойдаланган ҳолда бўлажак чақириққача ҳарбий таълим ўқитувчиларининг ижодкорлиги, ўз устида мустақил қарорлар қабул қилиши, ташаббускорлиги, ватанпарварлиги, лидерлик сифатларини ривожлантиришда интерфаол технологияларни такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Республикамызда сўнги йилларда таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги фармонига асосан таълим жараёнларини янада такомиллаштириш йўлини давом эттириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ, юқори малакали кадрлар тайёрлаш бўйича таълим соҳасида кенг кўламли

Ўзгаришларни амалга оширилишининг меъёрий асослари яратилмоқда.

Талабаларда креатив фикрлаш кўникмасини шакллантиришдан олдин аудиторияда қулай муҳитни яратиш лозим. Креатив муҳитда таълим олаётган талабаларда аста-секин креатив вазифаларни бажаришга нисбатан қизиқиш ортади, шунингдек, креатив тафаккурга эга ўқитувчини кузатиш натижасида креатив фикрлашга мойил бўлади. Креативлик характеридаги ўқув билиш муҳити таълим жараёнида катта аҳамиятга эга бўлган танқидий ва креатив фикрлаш кўникмасининг ривожланишига олиб келади (1-расм).

Айтиб ўтилганидек, барча шахсларда бўлгани каби педагогларда ҳам креативлик сифатлари ўз-ўзидан ривожланмайди. Креативлик фаолиятда ҳар томонлама креативликни таъминлаш қатор хусусият ва талабларга эга бўлиб уни ўзлаштирган талаба қуйидагиларга эга бўлади:



1-расм. Креатив фаолият мезонлари

Олий таълим жараёнида талабаларнинг креатив инновацион касбий тайёргарлигига қўйиладиган талаблар ҳозирги кунда қуйидаги ўз ечимини кутаётган зиддиятлар ва номутаносибликларга қаратиш зарур:

– инновацион ёндашувга асосланган таълим жараёни ташкил қилишнинг объектив зарурияти ва унинг назарий асосларини ривожлантириш;

- ўқув-билиш компетентлигини ривожлантиришга хизмат қилувчи инновацион таълим технологиялари ва методларининг самарали имкониятларидан тўлалигича фойдаланишнинг педагогик имкониятларини кенгайтириш;

- креатив таълим муҳитини яратиш кабилардир.

Бу эса ўз навбатида касбий-педагогик тайёргарликни, инновацион ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг ўқув-билиш компетентлигини ривожлантиришни таъминловчи мавжуд жараёнларни такомиллаштиришни талаб этади.

Бугунги кунда педагогларни тайёрлашда креатив ва инновацион жараёнларни махсус ёндашувлар асосида ташкил этиш мазмунига қаратамиз(2-, 3-расмга қаранг):



2-расм. Педагог кадрларни тайёрлашга қаратилган инновацион ёндашувнинг турлари



3-расм. Педагог кадрларни тайёрлашда креатив ва инновацион жараёнларни ташкил этиш

Замонавий дарсликлар мазмуни бугунги кунда замон талабларидан келиб чикувчи қатор инновацион фаолиятларни ташкил этишга қаратилган. Буларга:

- - *ривожлантирувчи методика;*
- - *инновацион фаолият;*
- - *веб-квест топшириқлар;*
- - *замонавий дарс ишланмалари;*
- - *TIMSS топшириқлари.*

Мультимедиалар билан ишлаш кўникмаси бевосита педагог кадрларни мутахассислик фани борасида ахборот имкониятларидан фойдаланиш ва афзалликлари, имкониятларини англаб ётиши.

4+2 амалиётида активлик кўрсатиш айнан талабаланинг назарий билимларини синовдан ўтказиш, фанларга доир мустақил таълимни самарали ташкил этиш, ҳаётий фаолият билан ўзаро боғлаш бўйича ташкил этилган 4+2 амалиётида таҳсил оладиган талабалар барча методика фанларидан олган билимларини ўқувчиларда билим, кўникма ва малакани шакллантириш жараёнида синаб кўрадилар, амалга татбиқ қиладилар. Шунинг учун ҳам 4+2 амалиёти ўзининг илмий-тадқиқот объекти, предмети, мақсади ва вазифаларига эга.

Педагогик технология, ахборот технологиялари ютуқлари асосида «Таълим тўғрисида»ги қонун талабларини бажариш мақсадида таълим фанларидан тайёргарлик даражасини самарали ташкил этиш 4+2 амалиёти даврида кенг амалга оширилиши бугунги куннинг энг муҳим вазифалардан биридир.

4+2 амалиёти самарадорлигини ошириш, ўқувчининг таълим жараёнининг субъектига айлантириш, ўқувчиларнинг эгаллаган билим, кўникма ва малакаларини билишнинг қулай йўллари аниқлаш, барча йўналиш фанларидан синфдан ташқари ишларни ташкил қилиш сингари фаолиятлар 4+2 амалиётнинг илмий-тадқиқот объекти ҳисобланади.

Талабалар 4+2 амалиёти даврида фан тарихи, ўқув-тарбия жараёнини ташкил қилиш, ўқитишнинг мақсади, метод ва принциплари кабиларни билишлари зарур.

Шахсга йўналтирилган 4+2 амалиёти талабага қуйидаги талаблар кўяди:

- касб соҳаси доирасида назарий ва амалий билимлар, касбий малака ва кўникмаларга эга бўлиши;
- касбий моҳирлик ва тафаккур доирасининг етарли шаклланганлиги;
- ташкилотчилик ва тадбиркорлик хислатларнинг шаклланган бўлиши;
- мустақил ва ижодий фикрлаш, фикрларни ёзма ва оғзаки равион баён этиш малакаси, ўқитувчилик нутқ маданияти шаклланган бўлиши;
- турли вазиятларни танқидий баҳолаши, янгиликка доимий

интилиши;

- компьютер ва бошқа телекоммуникация воситалардан мақсадли фойдалана билиши;
- ўзлаштирган назарий билимларини амалиётга, касбий кўникмаларини кундалик ҳаётга, турмушга тадбиқ эта олиши;
- билимларини доимо ошириб янгилаб боришга интилиши, ўқув ва меҳнат фаолиятига ижодий мустақил ёндошиш сифатларига эга бўлиши;

Шундай қилиб шахсга йўналтирилган амалиёт, педагогик креатив муҳитни яратиш, креатив фаолиятга мотивацияни шакллантириш ҳамда ўзини-ўзи ривожлантириш имконини беради.

3D дарсликлардан фойдаланиш бугунги кунда нашрлар учун энг замонавий форматдир. Талабаларнинг билим олишини АКТ билан тўлиқ интеграциялаш, когнитив, креатив ва инновацион муҳитни яратишга ёрдам беради.



Масофавий таълим билан ишлаш педагог кадрларни мустақил билим олиш ва натижага осон эришиш имкониятини таъриф этади.

Биз ишлаб чиққан www.dlpe-method.com сайти педагог кадрларни тайёрлашда, масофавий таълим олиш ва мустақил изланиш учун дастуруламал бўлиб хизмат қилади.

Мазкур сайтнинг афзалликлари шундан иборатки, педагог кадрлар сайтга аъзо бўлиш баробарида қуйидаги имкониятлардан эга бўлади:

- таълим соҳасига доир қарор-фармонлар, янгиликлар мавжуд муаммони аниқлаш ва янги ғояларни илгари суриш учун;

- дарслик, ўқув қўлланмалар, методик тавсиялар янги методик манбаларга эга бўлиш учун;
- намунавий дарс ишланмалар, фанлардан намунавий анимацион-диверсификацион дарс ишланмалари билан танишиш ва имитация қилишга эришиш учун;
- видеодарслар методик билимини тизимлаштиришга эришиш учун;
- ахборот таълим ресурслари методик тайёргарлигини такомиллаштириш, демонстратив компетентликка эришиш мақсадида;
- соҳага доир мақолалар илғор тажрибалар билан танишиш, янги методика билан қуролланиш учун;
- илғор ўқитувчиларнинг илмий фаолиятини оммалаштириш бўйича тавсиялар илғор тажрибаларни оммалаштириш эвазига янги билимларга эга бўлишни таъминлаш мақсадида;
- хориж тажрибаси халқ таълими ва олий таълимдаги фаолиятда хориж тажрибасини ўзаро таққослаш, самарали усулларни танлаш ҳамда таълим жараёнига татбиқ этишга эришиш учун;
- веб-квестлар индивидуал ёки гуруҳли таълимнинг информацион, муаммога йўналтирилган вазибалари тури тил ўқув материаллини ўзлаштириш, тадқиқ қилиш, қайта ишлаш ва тақдим этиш мустақил, изланиш ҳамда тадқиқот фаолияти кўникмаларини шакллантириш, қолаверса, ривожлантириш фаолиятини ташкил этиш учун.

Педагог кадрлар учун тайёрланган махсус <http://dlpe-method.com> масофавий таълим веб-сайти кенг қамровли ва тизимли имкониятга эга бўлиб, педагог кадрларни ахборот билан ишлаш компетенциясини ривожлантиришга бевосита хизмат қилади.

Юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда қуйидаги хулосага келиш мумкин:

- олий таълимда педагогик тамойил сифатида креатив касбий тайёргарлик ва инновацияларни жорий этиш;
- талабаларнинг янги ечимларни топиш компетенцияларини шакллантириш;
- таълим олувчиларнинг ахборот маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш;
- янги информацион билим ва кўникмаларни қўллаш ва эгаллаш;
- бўлажак педагог кадрларнинг креатив ва инновацион сифатларни шакллантиришнинг асосий йўналишлари ва ривожланиш тенденцияларини билиш самарадорлигини кенгайтириш зарурати борлиги аниқланган.

AJIB ADABIY USUL

Erkin Raxmonov

Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi.

Annotsiya. Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan usullardan biri – iqtibos olish to'g'risida hamda mazkur usulga bog'liq she'riy san'atlar xususida soz boradi.

Аннотация. В данной статье освещаются один из самых распространенных методов в классической литературе – искусство заимствования, а также связанные с данным методом поэтические фигуры.

Annotation. This article highlights one of the most common methods in classical literature – the art of borrowing, as well as poetic figures associated with this method.

Kalit so'zlar: Ilmi bade', iqtibos, tazmin, ta'bir, tahdis, irsosul-masal.

Ключевые слова: Наука о поэтических фигурах, заимствование, тазмин, таъбир, тахдис, ирсосул-масал.

Key words: The science of poetic figures, borrowing, tazmin, ta'bir, tahdis, irsosul-masal.

Mumtoz poetikaning ilmi bade' (badiiylilik ilmi)da iqtibosning turli mustaqil san'atlar sifatidagi namunalari bor. Bular: tazmin, ta'bir, tahdis va irsosul masalidir.

Shoir o'tmish yoki zamondosh muallaifdan biror misra yoki baytni aslicha iqtibos olsa – tazmin san'ati bo'ladi. Chunonchi, Zokirjon Furqat Ozarbayjon mumtoz shoiri Muhammad Fuzuliydan bir misra she'rni o'z g'azaliga tazmin qilib olgan:

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar hinodin lolarang,

G'ozadin yuzlarda tobu o'smadin qoshlar tarang.

(Furqat. Muhabbat yo'lida. T. Yangi asr avlodi. 2009. b.90)

Ushbu baytning birinchi misrasini biz Muhammad Fuzuliy "Asarlar"ining ikkinchi jildidan (Toshkent 1968, b.338) ko'rishimiz mumkin.

Tazmin so'zida istiloh mohiyatiga mos tushadigan ikki tushuncha bor: biri, o'sha olingan misra yangi she'rga zamin, asos bo'ladi. Ushbu misolimiz buni yaqqol isbotlab turipti: olingan misra matla'ning birinchi misrasidir.

Ikkinchisi: zomin, kafilga olgan.

Iqtibosning ikkinchi navi tahdis san'atidir. Shoir Muhammad (sallallohi alayhi vassallam)dan she'rda hadis keltirsa, tahdis san'atini qo'llagan bo'ladi. Bu san'atni qo'llagan shoir hadisni arab va o'zbek tillarida goh to'la, goh qisman ishlatishi ham mumkin.

Chunonchi, Abdulla Avloniy bir she'rda hadisdan foydalanib, ajoyib bayt bunyod etgan:

Ichkilik umumjinoyat deydilar Payg'ambarim,
Bu gunohlar onasi qursin, butun g'avg'o sharob.

Ta'bir san'atidan foydalangan shoir she'rda ibora yoki matal qo'llaydi.
Chunonchi, Muhammad Munisning quyidagi baytida:

Ko'z qaro qilma, g'ayr qoshig'a,
Qonim ich qona-qona ey qora ko'z!

Qoshiga ko'z qaro qilmoq – birovning joniga qasd qilmoq ma'nosidagi ibora qo'llanilgan.

Irsosul-masal san'atini qo'llagan shoir she'rda maqoldan foydalanadi.
Irsol-keltirmoq, masal- maqoldir.

Kimki qozar, oqibat ul tushgusi,

Kimki yoqar, oxir o'shal pishgusi. (Muhammad Niyoz Nishotiy "Husn va Dil") yoki:

Bo'ldi bag'rim suv g'amingdin, yaxshilik qil, sol sug'a
Oxir, ey gul xirmani, albatta har ekkkan – o'rar. (Atoyi).

Bu sohada ikki ajoyib hodisa yanada ajralib, ko'zga alohida tashlanadi.
Biri: huddi dialogsimon: bir misra salafdan olinib, ikkinchi misrani o'zi ijod etadi. Davomidan uchinchi misrani ham salaf she'ridan olib, o'z misrasi bilan yakunlaydi. Bu hodisa birgina Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagina uchraydi, xolos.

Ikkinchisi, fors mumtoz shoirlaridan bayt yoki misrani aynan tarjima qilib foydalanishdir. Shu o'rinda quyidagi Alisher Navoiy ijodida uchraydigan holatga e'tibor beraylik. Daho shoirimizning eng mashhur ikki baytini esga olamiz:

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon o'lg'och quyosh.

Mazkur bayt XIV asrning eng mashhur fors-tojik shoiri Kamol Xujandiyning quyidagi baytining ajoyib tarjimasidir; faqat gap shaxsi o'zgartirilgan, xolos:

To rux napo'shi kay shavad az dida ashki mo ravon,
Pinhon nagashta oftob, axtar nameoyad burun.
(Sen yuzingni yopmaguningcha ko'zimizdan yosh quyilmaydi,
Quyosh botmagunicha ko'kka yulduz chiqmaydi)

Kamol Xujandiy baytida ikkinchi shaxs, Alisher Navoiy tarjimasida uchinchi shaxsdir.

Yana hazrat Navoiyning bundan-da mashhur baytini yodga olaylik. Bu tarjima bayt haqiqiy odamiylik shioriga aylangani sir emas:

Odami ersang, demagil odami
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Yuqoridagi bayt manbaini biz Sa'diy Sheroziyning o'lmas "Guliston" asaridan topamiz:

Tu k-az mehnati digaron beg'ami,
Nashoyad, ki nomad nihand odami.

(Sen boshqalar dardidan beg'am ekansan,
Seni haqiqiy inson deyish mumkin emas)

Agar bu hodisaga biz to'g'ri yondashmasak, aniq-tiniq sababini ko'rsatmasak, ayrimlar "Navoiy Kamol Xujandiy va Sa'diydan shundoqqina olgan ekan-da" degan xomxayolga borishlari mumkin.

Aslida bu hodisa tazmin san'atining tarjimada zuhur etishidir. Ushbu holat o'zbek va tojik adabiyotida adabiy aloqalar va o'zaro adabiy ta'sirning nechog'lik keng ko'lamdi ekanligining yana bir ajoyib dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Ma'naviyat. 1998.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-20-jildlar. – T.: Fan. 1997.
3. Bobur. Devon. – T.: Fan. 1994.
4. Furqat. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ASN. 1975.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq. 1999.
6. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. 1-jild. – T. 1968.
7. Munis. Saylanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi ASN. 1980.
8. Nishotiy. Husn va Dil. – T.: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1967.

O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI YOKI XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORGARLIK

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini o'rganish bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS

Ayni vaqtda dunyoda globallashtirish jarayoni avj olar ekan uning tub zamirida texnika va texnologiyalar yotadi. Borliqdagi bu jarayoni fan va texnikaning rivojlanishida, iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishida va ta'lim sohasining tubdan yuksalib borishida ko'rinmoqda. Ta'lim sifatini o'sishining muhim omili mamlakatda raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. Kelajak avlodning faolligini shakllantirish nafaqat bir mamlakat uchun balki, xalqaro hamjamiyatimiz uchun ham e'tiborli masala hisoblanadi.

Ta'lim sifatini yanada chuqurlashtirish, rivojlantirish va baholash kabi masalalar bilan bir qancha xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta'lim sohasini baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi baholash darsturlari amaliyotga tatbiq etilgan. Bugungi kunda ushbu xalqaro tadqiqotlarning bir qanchasida ishtirok etdik. Biz esa siz bilan o'qish savodxonligi va matinni tushunish darajasini aniqlovchi PIRLS xalqaro tadqiqoti bilan tanishib chiqamiz.

O'qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. Ma'lumki, o'qish savodxonligi insonlarning o'qishdan ko'zlagan maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo'lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o'rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydilar.

Yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, tadqiqotga ko'ra mazkur savodxonlik o'quvchilarning o'rganishlari uchun o'qishlari kerakligini talab qilgani tufayli kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilar o'qish savodxonligini oshirish uchun o'qish darslaridan tashqari to'garak darslarida ham ular bilan matnlar ustida ishlash ham ancha samar beradi. Misol tariqasida bir mavzuni olib ko'raylik.

O'JAR BALIQCHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Katta moviy dengizda tangabaliq bolalari bilan yashar ekan. Baliqchalar suvda maza qilib suzishar, shirin ovqatlar topib yeyishar, onalariga erkalanib o'ynashar ekan.

Bir kun kenjatoy baliqcha zerikibdi. Aka-opalariga injiqlik qilib yig'layveribdi. Akalari uni ovutib, o'ynatibdilar. O'jar baliqcha uzoqroqqa borib o'ynashni xohlabdi. Akalarining gapiga quloq solmay suzib ketibdi. Ular ukasiga:

– Uzoqqa borma, adashib qolasan!-deb qancha gapirsalar ham baliqcha o'jarlik qilib suzishda davom etibdi. U suzib borib, dengiz chirmovig'iga ilinib qolibdi.

– Akajonlar, qutqaringlar! — debdi kichkina baliqcha yig'lab. Ammo akalari ancha uzoqda bo'lganlari uchun uning gaplarini eshitmabdilar.

Dengizdagi katta baliqlar tayyor o'ljani ko'rib og'izlarini katta ochib kela boshlabdilar. Shu vaqt uning onasi va akalari kelib qolishibdi. Ular chaqqonlik bilan chirmoviqni tishlab uzishibdi va baliqchani qutqarib, tezda suzib ketishibdi. Katta baliqlar ularga yeta olmabdilar. Shu-shu baliqcha kattalar gapini tinglaydigan, o'jarlik qilmaydigan bo'libdi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Katta moviy dengizda qanday baliq yashar edi?

- A) Sazan baliq
B) Cho'rtan baliq
C) Tangabaliq
D) Laqqa baliq
2. Katta moviy dengizda tangabaliq kimlar bilan yashar edi?



3. Qaysi baliqcha injiqlik qilib yig'layvergan ekan?



4. Akalar kenja baliqchaga nima deb nasihat qilgan ekan?
Bitta misol keltiring.



5. Kenja baliq suzib borib nimaga ilinib qolibdi

- A) Baliqchilar to'riga
B) Toshlar orasiga
C) Dengiz chirmovig'iga
D) Qarmoq uchiga

6. Dengizdagi katta baliqlar tayyor o'ljani ko'rib og'izlarini katta ochib kela boshlabdilar. Su payt kenja baliqni qutqarish uchun oldiga matnini davom ettiring.



7. Ular chaqqonlik bilan chirmoviqni qanday uzib tashladi?



8. Nima uchun matnini "O'jar baliqcha" deb nomlagan? Matnga yana nima deb sarlavha qo'ysak bo'ladi?







JAVOBLAR TASNIFI

O'JAR BALIQCHA

1	C
2	Katta moviy dengizda tangabaliq kimlar bilan yashar edi? Maqsad: Badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini oshirish. Jarayon: Berilgan matndan aniq ma'lumotni topish. Javob: Katta moviy dengizda tangabaliq bolalari bilan yashar ekan.
3	Qaysi baliqcha injiqlik qilib yig'layvergan ekan? Maqsad: Badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini oshirish. Jarayon: Berilgan matndan to'g'ri hulosani chiqarish. Javob qabul qilinadi: Kenjatoy baliqcha zerikib aka-opalariga injiqlik

	qilib yig'layverar ekan. Javob qabul qilinmaydi:boshqa javoblar
4	Akalar kenja baliqchaga nima deb nasihat qilgan ekan? Bitta misol keltiring. Javob qabul qilinadi:-Uzoqqa borma, adashib qolasan. Javob qabul qilinmaydi: -bizdan uzoqlashma.
5	C
6	Dengizdagi katta baliqlar tayyor o'ljani ko'rib og'izlarini katta ochib kela boshlabdilar. Shu payt kenja baliqni qutqarish uchun oldiga matnni davom ettiring. Javob qabul qilinadi:Dengizdagi katta baliqlar tayyor o'ljani ko'rib og'izlarini katta ochib kela boshlabdilar. Shu vaqt uning onasi va akalari kelib qolishibdi. Javob qabul qilinmaydi:boshqa javoblar
7	Ular chaqqonlik bilan chirmoviqni qanday uzib tashladi? Javob qabul qilinadi: Masalan:-Ular chaqqonlik bilan chirmoviqni tishlab uzishibdi va baliqchani qutqarib, tezda suzib ketishibdi. Javob qisman qabul qilinadi: chirmoviqni tishlab uzib tashladi.
8	Nima uchun matnni "O'jar baliqcha" deb nomlagan? Matnga yana nima deb sarlavha qo'ysak bo'ladi? Maqsad: Badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini oshirish. Jarayon: To'g'ri xulosalarni shakllantirish. Javob qabul qilinadi. Baliqcha har safar o'zining aytganini qilar edi shuning uchun o'jar baliqcha deb atagan. Matnni yana „Qaysar baliqcha“ deb ham nomlashimiz mumkin.

“O'jar baliqcha” deb nomlangan ertakni o'qish siz uchun qanchalik yoqimli bo'ldi? Faqat bitta javobni belgilang.

-  Menga juda yoqdi-----
-  Menga biroz yoqdi-----
-  Menga unchalik yoqmadi -----
-  Menga umuman yoqmadi-----

Kabi savol va topshiriqlar o'quvchilar savodxonligini oshirish bilan birga ularning matinni tushunish darajasiga olib keladi, uni mag'zini chaqadi, bunday topshiriqlar bilan esa ularni tafakkur qila olishga undaymiz, fikrlashga undaymiz, she'ring har bir qatori bilan ishlaymiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki o'quvchilarimizni yetuk inson salohiyatli kadr bo'lishida boshlang'ich sinf o'qituvchilarning vazifalari ulkan

deb o'ylayman. Buning uchun esa har birimiz o'z kasbimizni sevishimiz va unga *sitqidildan* yondoshishimiz darkor.

Adabiyotlar

1. U.A.Aydarova. O'qish savodxonligi: Umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinf uchun darslik –Toshkent 2023.Novda
2. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti.
3. <http://www.ziynet.uz>. - axborot ta'lim portal

NOAN'ANAVIY MUSIQA DARSLARIDA INTERFAOL SLUBLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Annakulova Dildora

Sirdaryo viloyati pedagoglarni metodikalarga o'rgatish milliy markazi
musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada pedagog dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishi, qiziqarli hamda tajriba asoslangan dars metodlaridan foydalanish haqida so'z yuritilgan hamda amaliy misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar. Interfaol, Keys-stadi, Blits-so'rov, Modellashtirish, Ijodiy ish, Muammoli ta'lim, 4K modeli.

Bugungi globallashuv vaqtida rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo'lgan barcha davlatlar dunyo miqyosida o'zining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, jahon bozorida tutgan rolini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Shuningdek, yildan yilga yuksalib borayotgan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, sport, san'at, madaniyat singari barcha sohalarda o'sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundanda yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasini"⁴⁴ keltirishimiz mumkin.

Hozirda yurtimizni bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga olib chiqish va undagi rolini mustahkamlash maqsad va muddaomizga aylangan. Ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin. Chunki dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim hamda ilmiy

⁴⁴ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 8-fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.

yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yimoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual, ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda uch yuzdan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy-moliyaviy infratuzilmaga oid islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish, sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan muammolarning yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi kerak. Zero, dunyoda yuzaga kelayotgan mana shunday murakkab vaziyatda ham mamlakatimiz jahonda tutgan o'rni va rolini yanada mustahkamlab bormog'i lozim.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun tegishli qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil

rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod⁴⁵ biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodkorligini va faoligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

⁴⁵ Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. //O'quv-uslubiy qo'llanma.(I-qism). Toshkent, 2015

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta‘lim” va b.

Interfaol ta‘lim strategiyalari: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta‘lim metodlari tarkibidan interfaol ta‘lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma‘lum ma‘noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta‘lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta‘lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q. Interfaol ta‘lim metodlarini ko‘pincha turli shakllardagi dars mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo‘llanmoqda. Bu metodlarni qo‘llash o‘quvchilarining faolliklarini oshirib, ta‘lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Hozirda amaliyotda qo‘llanilayotgan ta‘lim metodlari xilma - xil hamda ko‘p sonli bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga, ta‘lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta‘lim-tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo‘lib, uning o‘rniga boshqa metodni qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emas ekanligi ma‘lum. Shu sababli ta‘lim metodlarining qaysinisidan qaysi maqsad uchun foydalanish ko‘zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega. Lekin bu masala hozirgacha to‘liq o‘rganilgan emas. Bu masala avvalo ta‘lim metodlarini ma‘lum belgilariga ko‘ra turlarga ajratib olish va ularning asosiy xarakteristikalarini aniqlashni talab qiladi. Shuni hisobga olgan holda zamonaviy ta‘lim metodlarini turlarga ajratish dolzarb masaladir. Buni hal qilish uchun zamonaviy ta‘lim metodlarining turlarga ajratish uchun zarur bo‘lgan asosiy belgilarini aniqlab olish lozim. Bu belgilar quyidagilar bo‘lishi mumkin: bajaradigan vazifasiga; ko‘zda tutiladigan natijaga; ta‘limiy va tarbiyaviy maqsadlarga; pedagogik va psixologik yo‘nalishlariga; ta‘lim oluvchilarning yoshiga muvofiqligiga; ayrim fanlarni (ijtimoiy, tillar, tabiiy, aniq, amaliy va boshqa fanlarni) o‘qitishga; nazariy va amaliy bilim; ko‘nikma va

malakalarni o‘rgatishga; o‘zlashtirishni nazorat qilishga tegishli va boshqa belgilar.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta‘lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni qo‘llash samaradorligining turli omillar bilan bog‘liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

- o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq;
- bayon qilinadigan materialning harakteriga bog‘liq;

-ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;
-o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;
-oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;
-o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;
-o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

“Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam ushla” degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus⁴⁶. Darhaqiqat, kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, haqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim jarayonida o'qitish metodlari markaziy o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.Sharipova “Musiqqa o'qitish metodikasi” T.,2020 y.
2. Ortiqov T. “Musiqqa o'qitish metodikasi” T., 2010 y.
3. Ortiqov T. “Musiqqa o'qitish metodikasi” T., 2010.
4. Qodirov R. “Ommabop musiqiy glossariy” T., 2016.
5. Rahmonov U. “Maktabda musiqqa uslubiyoti” T., 2009.

ВЫЯВЛЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ И ИНТЕГРИРОВАННОЙ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ

Бердикулова Насиба Эркинжоновна

Преподаватель Самаркандского государственного университета

Общепризнанным в мировом сообществе является то, что подготовка будущих специалистов предусматривает развитие огромного объема знаний, творческой, духовной и физической энергии, ибо знания, умения и навыки, которые сейчас необходимо постоянно совершенствовать в общественной жизни, придают этому процессу особое социальное значение. В условиях перехода к информационному обществу необходима постоянная мотивация выпускников высших учебных заведений на непрерывное обновление знаний и повышение своей квалификации. В связи с этим для того, чтобы обеспечить необходимое личностное и профессиональное развитие учащихся, современная общественность предъявляет к образованию новые требования. В чем и состоит

⁴⁶ А.А.Абдуқодиров, Р.Ишмухамедов, А.Пардаев. Та'лимда innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008

социальный заказ общества. Вместе с тем, подготовка квалифицированных кадров нуждается в обновлении в рамках традиционного процесс обучения. Современная модель образования базируется на новой образовательной парадигме, которая берет свои ориентиры на подготовку выпускника высшего учебного заведения, способного быть высококвалифицированным и противостоять конкуренции в условиях мобильного рынка труда с помощью инновационных технологий.

Интегрированные уроки отличаются от традиционных уроков по своей структуре: чёткие научные и методические цели, систематичность и краткость учебной информации, логическая взаимозависимость и взаимопроникновение материалов различных интегрируемых учебных дисциплин, объем информации учебных материалов, а также целесообразность интеграции содержания учебных предметов. Все это делает его отличным по структуре от обычного обучения.

Согласно А. Я. Данилюку, «сегодня педагогической концепцией теории интеграции в образовании признана концепция личностно-ориентированного образования» [2]. По его мнению, в организации обучения интеграцию можно разделить на методы, приёмы, способы, уровни, направления. А именно:

- междисциплинарно-тематическую – 2-3 учебных предмета раскрывают одну тему или иллюстративно-описательный уровень;
- проблемно- ориентированную – одну проблему решают методами разных наук;
- концептуальную – концепция рассматривается различными учебными предметами в совокупности всех средств и методов;
- теоретическую – философское взаимопроникновение различных теорий.

Данилюк А.Я. считает: «что, в свою очередь, педагогическая интеграция есть высокий уровень дидактических принципов, целей, задач обучения и содержания образования на основе глубокой внутренней взаимосвязи учебных дисциплин» [2]. При разработке целей и результатов обучения данный принцип интеграции является основным, определяя его содержание, формы и методы. Таким образом, опираясь на мнение Данилюка А.Я., под интегративным подходом следует понимать реализацию принципа интеграции в любом компоненте педагогического процесса, что позволит обеспечить в нем целостность и системность.

К концу девятнадцатого и началу двадцатого века идея интеграции стала основополагающей и приняла ведущую роль. Дж. Дьюи, знаменитый реформатор образования, выразил концепцию “Ребенок – Солнце”, в котором ребенок стал центром педагогического мира и предложил новое правило для разработки учебных программ: «От ребёнка к миру и от мира к ребёнку». Тема - семья - школа - район - город - страна - человечество -

вселенная. В результате содержание образования было соответствующим образом расширено.

Много интересных исследований по интегрированному образованию было в педагогике начала XX века. Учителя разработали собственные учебные программы, основанные на идее интегрированных курсов, которые наиболее полно объединяли предметы. Начальные школы должны были сосредоточиться на двух областях знаний: естественных науках, которые знакомят детей с окружающей средой, и социологии, которая знакомит их с обществом, социальными институтами и проблемами. Особо выделялись глубокие и разносторонние связи между гуманитарными и естественными науками [1].

На основе материала из соответствующих областей знаний, для грамматики и арифметики была выявлена возможность их объединения с другими предметами. Поэтому было задумано изучать в начальной школе предмет о мире и связать все остальные учебные предметы в единый учебный комплекс. Данный предмет представляет собой очень широкую учебную программу, включающую темы о природе, о животных и человеческой культуре (популярные, материальные, духовные и социокультурные). В качестве объединяющего ядра был сформирован центральный круг: школа – улица – село (город) – махалля – область.

Одной из важных задач дня является организация образовательного процесса на основе новых требований педагогической технологии, гарантия его результатов и степень реализации зависят от глубоких профессиональных знаний педагога, его мировоззрения, педагогического и инновационного опыта и творческих способностей.

В современной образовательной среде каждый педагог должен полагаться на инновационное обучение.

В современных условиях, в соответствии с условиями всех направлений образования, от личности требуется развитие, социализация и обретение самостоятельного, творческого и критического мышления. Размышление об этих качествах называется самостоятельным обучением.

Этот процесс происходит между учеником и учителем, укрепляет отношения, обеспечивает сотрудничество и свободу мысли, создает условия для познания и определения ценности ученика.

В современной образовательной среде особое значение приобретает обучение сотрудничеству и его формирование. Совместное обучение - в процессе обучения в группах, в группах и в парах, приобретение знаний, в процессе развития своих знаний развитие отношений «ученик-учитель» в сотрудничестве является выражением образования, основная идея которого заключается в том, чтобы в группе, в сотрудничестве были проявлены результаты.

Список использованной литературы

1. Багова Л.Л. Межпредметная интеграция в образовательном процессе и ее проблемы на этапах становления педагогической науки// Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2014.№ 1. стр.57-61.
2. Данилюк А. Я. «Теория интеграции образования». – Ростов н/Д.: Изд-во Рост. пед. ун-та, 2000. – 448 с.
3. Золотова Т.А. «Интеграция урочной, внеурочной и внешкольной деятельности как механизм обеспечения всестороннего развития обучающихся» // Начальная школа. – 2015. – № 8. – С. 41–46.
4. Сластенин В.А., Каширин В.П. «Психология и педагогика». – М.: Akadema. 2001. – 477 б.
5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. “Педагогик технология: назария ва амалиёт”. – Т.: Фан, 2005. – 206 б.

O'QUVCHILARDA TIMSS XALQARO TADQIQOTI BO'YICHA TOPSHIRIQLAR BAJARISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedراس katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada TIMSS xalqaro baholash tadqiqotining asosiy maqsadi, vazifasi, rejasi, tasnifi, omillari haqida ma'lumot beradi. TIMSS xalqaro tadqiqotiga mos keluvchi topshiriqlar, matematika fanining samaradorligini oshirishda tadqiqotning ahamiyati yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash tadqiqoti, matematika va tabiiy fanlar, topshiriqlar, so'rovnomalar, shkala, TIMSS, IEA

Matematika va tabiiy fanlarni baholash bo'yicha TIMSS tadqiqoti ta'lim samaradorligini monitoring qilishda qimmatli manba hisoblanadi, chunki, odatda, STEM deb nomlanadigan tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika o'quv dasturining asosiy yo'nalishlaridir. Shubhasiz, hatto bugungi kunda ham ko'pgina ish o'rinlari uchun matematika va tabiiy fanlardan asosiy tushunchalarga ega bo'lish talab qilinadi va bu kelajakda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

TIMSS xalqaro tadqiqotlarining asosiy maqsadi — boshlang'ich va asosiy maktablarda matematik va ilmiy ta'lim sifatini qiyosiy baholash. Har to'rt yilda 4-va8-sinf o'quvchilarining o'quv yutuqlari baholanadi, ular nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va o'rganishga bo'lgan qiziqishini ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqot shunday rejalashtirilganki, uning natijalari 8 sinfning to'rtta sinfini o'qiyotganda 4 yil davomida matematik va tabiatshunoslik ta'limidagi tendentsiyalarni kuzatishga imkon beradi. Bundan tashqari, tadqiqotda ishtirok etadigan mamlakatlarda maktab matematikasi va fanlarini o'qitish tarkibiy xususiyatlari, o'quv jarayonining xususiyatlari, shuningdek, ta'lim muassasalari, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning oilalari xususiyatlari bilan bog'liq omillar o'rganiladi. Shu maqsadda, xalqaro testdan tashqari, tadqiqotda ishtirok etadigan o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab ma'muriyatlari o'rtasida so'rov o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar test natijalariga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga va tadqiqotda ishtirok etadigan mamlakatlarda matematik va tabiiy fanlar bo'yicha ma'lumotlarning holatini tushuntirishga imkon beradi.

TIMSS tadqiqot vositalarini ishlab chiqish uchun asos sifatida matematikada va fanda o'quv yutuqlarini baholash, testlar va test topshiriqlarini ishlab chiqish, matematikada va fanda tekshiriladigan tarkibiy qismlarni baholashda umumiy yondashishlarni belgilovchi "TIMSSni baholashning asoslari va texnik xususiyatlari" maxsus ramka hujjati ishlatiladi va tavsiflanadi. Matematikaning darajalari

1. Bir shisha olma sharbati 1,87 zed turadi. Bir shisha apelsin sharbati 3,29 turadi. Komilada 4 zed bor. Komila olma va apelsin sharbatlaridan bittadan olishlari uchun unga yana qancha zed kerak bo'ladi?

A 1,06 zed C 5,06 zed

B 1,16 zed D 5,16 zed

2. Qaysi raqam 300 ga yaqin?

A 275 C 307

B 291 D 320

3. Dumanda 20 ta zed bor. U 3,65 zedga kitob va 2,70 zedga jurnal sotib oldi. Dumanda qancha pul qoldi?

A 6,35 zed C 14,65 zed

B 13,65 zed D 16,35 zed





4. Har bir gapdagi o'lchov birliklarini mm, sm, m yoki km yordamida yozing.

Bolaning bo'yi 490 _____

O'rmon orqali o'tadigan yo'lning uzunligi 3 _____

Mashina uzunligi 4 _____

5. Qaysi figuraning simmetriya o'qi bor?



6. Sanjar 24 yoshda. U Janardan bir necha yosh katta. Quyidagi iboralardan qaysi biri Janarning yoshini bildiradi?





(A) $24 - \square$

(C) $\square - 24$

(B) $\square + 24$

(D) $24 \times \square$

7. Qaysi figuraning simmetriya o'qi bor?



Kabi topshiriqlardan foydalaniladi. bu topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning bilish faoliyatini mustahkamlash bilan bir qatorda mantiqiy tafakkuri ham rivojlanib boradi.

Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Oldimizdagi dolzarb vazifalar Xalqaro miqyosdagi test sinovlaridan o'tayotgan o'g'il-qizlarimiz shu talabga javob beradigan bilim, malaka, ko'nikmani egallagan va ularda shunga muvofiq kompetensiya shakllangan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini

O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi matbuot xizmati.
2. "Xalq so'zi" gazetasi
3. <http://timssandpirls.bc.edu> sayti-TIMSS&PIRLS International Study Center
4. <http://www.edu.uz>- O.,zbekiston Respublikasi Oliy va o.,rta maxsus ta'lim vazirligi portali,
5. <http://www.uzedu.uz>- O.,zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi veb sayti,
6. <http://www.eduportal.uz>- O.,zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot ta'lim portali,

ONA TILI VA MATEMATIKA FANLARI INTEGRATSIYALASHUVIDA INTERFAOL METODLAR

G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

Namangan viloyat PYMO'MM maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola ona tili va matematika fanlari mavzularining integratsiyalashuv jarayoniga xos interfaol metodlardan foydalanish yo'llari haqida yozilgan

Kalit so'zlar: uzviylik, integratsiya, shakllar tasviri, misol va masalalar, nutq, matematika fani, tushunchalar, og'zaki nutq, interfaol metodlar

Аннотация: В данной статье написано о способах использования интерактивных методов, характерных для процесса интеграции предметов родного языка и предметов математики.

Ключевые слова: связность, интеграция, представление форм, примеров и задач, речь, математика, понятия, устная речь, интерактивные методы.

Abstract: This article is written about the ways of using interactive methods specific to the integration process of subjects of mother tongue and mathematics subjects.

Key words: coherence, integration, representation of forms, examples and problems, speech, mathematics, concepts, oral speech, interactive methods

Boshlang'ich sinflarda interfaol mashg'ulotlarni o'tkazishdan asosiy maqsad bolalarda mustaqil fikrlash, to'g'ri so'zlash, jonivorlar, narsa-buyumlarni to'g'ri nomlash, sanoq va miqdorni, katta va kichikni taqqoslash va farqlash, ular orasidagi o'zaro o'xshashlik va farqni ko'ra bilish, ularning

lug'aviy ma'nolarini sharhlash kabi nutqiy-tafakkuriy ko'nikmalarni, ravon og'zaki nutqni hosil qilishdan iborat. Bu esa bolani intellektual rivojlanishga yo'naltiradi, hozirjavoblik, jadal fikrlashga odatlantiradi.

Bunday ijodiy ishlarni integratsion tarzda fanlardagi mavzular kesimida uyg'unlashtirilgan metodlar orqali berish yanada o'qituvchidan, o'z ish faoliyatini qiziqarli topishmoqlar, o'ylash va izlanishga yo'naltiruvchi didaktik va psixologik topshiriqlar bilan to'yintirish, lozim bo'lsa, shunday yangi texnologiyalarni o'rganish va fanni bog'lab o'rgatish imkonini oshiradi hamda dars mashg'ulotlarida qo'llash esa yanada samarali bo'ladi.

Bugungi kundagi ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohatlar o'quvchida hayotiy ko'nikmalarni ehallshiga imkon berishini nazarda tutadi, Shunday ekan bu esa boshlang'ich yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini jadallashtirish, mustaqil faoliyatga yo'naltirishda tafakkur, idrok va xotirani rivojlantirish, nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlashni, integratsiyalashgan shaklda dars mashg'ulotlariga alohida ahamiyat berish kerak. Bu esa dars-mashg'ulotlarida interfaol metodlarni fanlardagi mavzularni integratsiya qilib o'ratish orqali tashkil etish imkonini ynada oshiradi.

O'quvchilarga bilim berishning asosiy shakli darsdir. Bugungi dars o'quvchida ijodiy qobiliyatni o'stirish, aqliy salohiyatni kengaytirish, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish va har bir yangilikni to'g'ri qabul qila olishni o'rgatishi kerak. Shunday ekan, darsda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari ilmiy asosda tashkil etilishi, o'quv maqsadlarini amalga oshirish uchun metod va vositalarni to'g'ri tanlay olish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Albatta, darsni bunday usulda tashkil etish oson kechmaydi. Bunda o'qituvchining tashkilotchiligi, chuqur bilimi, ziyrakligi, nazokat va muloqatga kirishuvchanligi hamda boshqa xususiyatlari qo'l keladi.

Quyida boshlang'ich ta'limdagi ona tili va matematika fanining mavzularini o'zaro bog'lab o'rgatish yollariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Darskliklarga nazar tashlasak darsda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorligiga, hamkorlikda ishlay olishiga va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib borishga qaratilagn.

Buning uchun darslarning har bir qismi aniq loyihalashtirilishi, o'quv materialini bilim egallovchilarning o'zlashtirish darajalariga moslashtirish talab etiladi. An'anaviy ta'lim usullari bilan birga interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol usullardan foydalanganda asosiy urg'u o'quvchilarni hamkorlikda ishlashlariga imkon berilishi hisoblanadi. Interfaol usullar o'quvchida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Tavsiya etiladigan metodlar ona tili va matematika fanlaridagi ayrim mavzularning uyg'unlashtirib o'rgatish yo'llariga moslashtirilgan.

“5x5x5” metodi

Sinf o'quvchilari 5 nafardan bo'lib 5 ta guruhga bo'linadilar. Mavzuning umumiy matni 5 qismga bo'linib, har bir qism har bir guruhga beriladi va

guruhlarga matni o'rganib chiqish vazifasi topshiriladi. Matn guruhlar tomonidan o'rganilgandan so'ng, guruhlar qayta tashkil etiladi (ushbu o'rinda har bir guruhda avvalgi beshta guruhning bir nafar a'zosi bo'lishi shart). Guruhlar qayta tashkil etilgandan so'ng har bir o'quvchi o'zi o'zlashtirgan ma'lumotlarni qolgan o'quvchilarga hikoya qilib beradi. Shu tarzda mavzu matni o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

O'yin o'tkazish qoidasidan kelib chiqib guruhga matn besh qismga berilishidan oldin bu 5 nafarlik guruh a'zolarining har biriga rasmlar tarqatma beriladi. Rasmlar tarqatmada aks etgan tasmlar bir donadan 5 tagacha tasvirlangan bo'ladi. Masalan, birinchi tarqatmada bir dona lola rasmi, ikkinchi tarqatmada ikki dona lola va h... tarzda beshinchi tarqatmada beshta lola rasmi bo'ladi. Rasmlar har bir, ya'ni 5 ta guruh uchun alohida rasm tasviri tanlab olinishi kerak. Birinchi guruhga lola bo'lsa, ikkinchi guruhga nok, uchinchi guruh uchun limon, to'rtinchi guruhga esa olma, beshinchi guruh uchun esa gilos rasmini tanlash mumkin. Bu rasmlar ixtiyoriy, mavzuga, bolalar yoshi va mavsumga mos tarzda tanlanadi. Rasmlardagi tasvir sonlari 5 tagacha bo'ladi. Bu qolgan beshtalik guruhdagi tasvirdagi 1 ta lola 1 ta rasmlar limon, bodring, olma, noklar bilan qayta guruh tuzish uchun birlashadi. Ikkita loladan iborat rasm ham shunday tartibda ikki miqdorini bildirigan rasm tasviri bilan, soni 3 ta tasvirli rasmlar 3 tasi tasvirli rasmlari bilan va hokazo tartibda bir guruhga birlashadi, Shu o'rinda ona tili va matematika oid bilimlar uyg'unligini ko'rish mumkin.



Bu tasvirlarda lolalar tasviri bittadan beshtagacha tasvirlangan. Limon tasviri ham xuddi shunday lolataviri kabi, nok ham olma ham gilos ham shunday beshtagacha tasvirda beriladi. Bu esa o'quvchilarni tasvirdagi narsalarning tasviri orqali yangi guruh tuzish imkonini qiziqarli tarzda hisoblash va aniqlash orqali amalga oshirish imkonini beradi.

“Beshinchisi ortiqcha” metodi

Mazkur metoddan quyidagi tarzda foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi doskaga mavzuga oid to'rtta so'z va mavzuga oid bo'lmagan beshinchi so'zni yozadi. Masalan: matematika faniga oid so'z yoki tushunchalar berilsa undan beshinchi so'z boshqa ekani aniqlanadi. Hisob, qiymat, tenglama, yig'indi sumalak- o'quvchilar mavzuga oid bo'lmagan, ya'ni – ortiqcha bo'lgan beshinchi so'zni topadilar. O'qituvchi shu tariqa so'zlar ketma-ketligini bor ko'rgazma uni ekrnda ham ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar esa ortiqcha so'zni topishda davom etadilar. So'lar quyidagicha bo'lish mumkin. –

- Simmetriya, chiziq, kesma, uchburchak, kamalak'
- Ruchka, qalam, kitob, sumka, xontaxta'

Bu metod o'quvchilarining o'zlashtirgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashlariga imkon yaratadi.

Interfaol metodlar o'quvchilarni mavzularni mukammal o'rganishiga yana darsni qiziqarli tashkil etilishiga ko'maklashadi. Metodlar orqali fanlarni bog'lab, uyg'unlahtirish imkoni ham oshadi. Metodlardan o'rinli va to'g'ri foydalanish kerak. bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lim usuli bo'lib, unda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi.

Adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi UzMKN. – Toshkent, 2009.
2. Mavlonova R.A., Voxidova N.X., Raxmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. –T: Fan va texnologiyalar. 2018-y.
3. Xoshimov K., Ochilov S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. – T: O'qituvchi, 2010-y

BOSHLANG'ICH SINFLARI DARSLARI JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI.

Po'latova Maftuna Abduholiq qizi

Sirdaryo viloyat Boyovut tuman 8-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tish jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati, ulardan foydalanish yo'llari, va didaktik o'yin namunalari joy olgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, boshlang'ich sinf, maktab, ona tili, xotira, aqliy faoliyat, bilim

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish mazmunida didaktik o'yinlar alohida ahamiyat kashf etadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo'lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta'sir qudratiga egadir. Didaktik o'yinlar davomida bolalar jamoa bo'lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o'z navbatida erkin fikr yurita olishlari kuzatiladi.

O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarda ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. O'yin orqali bola o'rgangan narsalarini yaxshi eslab qoladi, ularni xotirasi mustahkamlanib boradi. Shunday qilib o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. Shuning uchun darslar jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishimiz ularni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshishiga sababchi bo'lamiz.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo'lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta'sir qudratiga egadir. Didaktik o'yinlar davomida bolalar jamoa bo'lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o'z navbatda erkin fikr yurita olishlari kuzatiladi. Ma'lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tashkil etish o'quvchilar o'rtasida muloqat qilish, diqqatni jamlash va o'z navbatida hozir javoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yindan muntazam ravishda foydalanish ta'limda tabiiy sharoitni yaratadi bu esa o'quvchilarni dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratadi. O'yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o'quvchiga dars davomida berilayotgan manbaalarni mustaqil o'zlashtirishini, ijodiy tafakkurini o'stiradi. O'yin o'quvchilarni yashirin imkoniyatlari va fanga bo'lgan qiziqishini ochib beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim olishlarida dars jarayonini didaktik o'yinlar asosida tashkil etish va shu o'yinlarni ko'rgazmali qurollar bilan boyitish o'quvchilarni hozirjavoblikka, zehnli bo'lishga, har bir ishda tashabbus ko'rsatishga va fanga chuqur qiziqish bilan nazar solishga undaydi. Shuningdek, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tadbiq qilishga va yanada ko'proq o'qishga undaydi. Natijada kelajakda komil inson bo'lib yetishishida g'oyat katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Men o'z darslarimda turli o'yinlar orqali mavzularimni mustahkamlab borishga harakat qilaman. O'qish savodxonligi darslarida turli o'yinlardan foydalanishim o'quvchilarimni yanada bilimli, qizquvchan bo'lishiga sababa bo'lmoqda. Misol tariqasida "Hikoya" o'yinini ko'rsatib o'tmoqchiman.

"HIKOYA"

Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag'batlantirilishi ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili va o'qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

1-variant: Sabina, soat, qor, kitob.

2-variant: Anor, kasal, o'rtoq, Muzaffar

3-variant: Mushuk, ota, poliz, non, sichqon.

"NOTO'G'RI JUMLA"

Bu o'yin suratlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchi ma'lum bir suratni tasvirlab berish jarayonida suratlarga tegishli bo'lmagan jummalarni ham ishlatadi. O'quvchilar ziyraklik bilan shu jumlani topishlari lozim.

O'quvchilardan bu o'yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ya'ni ular suratni kuzatish bilan birga o'qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto'g'ri jumlani topa bilish ularning sinchkovligini o'ziga bo'lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi.

Bu o'yindan faqat ona tili darslarida emas, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin.

Jamshid aka duradgor. Uning qo'li gul. U o'g'illariga ham duradgorlikni o'rgatgan. Ular qushlar uchun in yasashdi, singlisi Dildora ularga choy olib keldi.

(Javob: Dildora suratda tasvirlanmagan).

Xulosa qilishimiz mumkinki didaktik o'yinlar bolalar dars faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularni izlanishga, fikrlashga va fikrlarini bir joyda to'plab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. Dars jarayonida ko'tarinki vaziyatni yuzaga keltiradi, eng muhimi bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlikni yuzaga chiqaradi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: «Fan» nashr., 2017.
2. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. – Qarshi: 2013.
3. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda matematika darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Toshkent: «Fan» nashr., 2017.

MAKTABLARDA DAVLAT RAMZLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA ONA VATANGA MUHABBAT HISSINI SHAKLLANTIRISH

Kuldasheva Ro'zigul Abdunabiyevna

Sirdaryo viloyati Guliston tumani 31-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada davlat ramzlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf darsliklari va sinfdan tashqari tadbirlarda davlat ramzlariga oid mavzular orqali o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, vatanparvarlik, gerb, bayroq, madhiya, Konstutsiya, davlat ramzlari, Vatan, ma'naviyat, tarbiya, konsepsiya, milliy g'oya.

Abstract: this article describes the meaning of educating elementary school students in the spirit of love for the Motherland through state symbols. In addition, primary school textbooks and extracurricular activities focused on raising students in the spirit of patriotism through topics related to state symbols.

Key words: primary education, patriotism, coat of arms, flag, anthem, Constitution, state symbols, Motherland, spirituality, education, concept, national idea.

Yurtimizda mustaqillikka erishganidan so'ng yoshlarni vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviyatini yuksaltirish, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratila boshlandi.

Yurtboshimiz o'z nutqlarida: “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, kasbga

yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda", - deb bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko'rsatmalarni berib o'tganlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarorida quyidagi vazifalar belgilangan:

Maktablarda o'quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta'sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

O'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Maktablar uchun O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi asosida chop etilgan 3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining "Konstitutsiya - baxtimiz poydevori" mavzusida o'quvchilarini huquq va burchlari haqida maqola yozishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish bilan birgalikda oila davrasida suhbatlashish va javob yozishlari uchun quyidagi savollar berilgan:

1. O'zbekistonning qanday Davlat ramzlari bor? Ular haqida nimalarni bilasiz?

2. Davlatimiz gerbidagi Humo qushi nimaning ramzi?

3. Bug'doy, paxta va quyosh-chi?

4. Davlat ramzlariga qanday munosabatda bo'lish kerak?

Bunday mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi savollar orqali o'quvchilarni Vatan oldidagi fuqarolik burchlarini chuqur his qilishga undaydi.

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda umumta'lim maktablarida darsdan bo'sh vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlar va tanlovlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Xususan, "2-iyul - O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qabul qilingan kun", "18-noyabr - O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilingan kun", "10-dekabr - O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun" va boshqa muhim sanalar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlarda o'quvchilarga davlat ramzlari haqida ma'lumot berilishi, ular haqida she'r va qo'shiqlar kuylashi orqali o'quvchilar qalbida vatanparvarlik ruhini singdirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori. 2019-yil 31-dekabr. <https://lex.uz>.
2. Mamatova G va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi. 3-sinf. Darslik. Toshkent-2022.
3. Mamatova G va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi. 4-sinf. Darslik. Toshkent-2022.

O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Xudoyqulova Dilfuza Rozumbayevna

Sirdaryo viloyat Guliston tuman 1-IDUM ning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

*Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.
Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa — tilning ofatidir.*

Alisher Navoiy

Annotatsiya: Mazkur maqola manaviyati boy, qalban yuksak, erkin fikrlovchi bolani tarbiyalashda nutq o'stiruvchi mashqlarning ahamiyati, bola nutqini o'stirishda o'qish darslarida qilinadigan ishlar haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, yozma nutq, fikr, o'yin, ertak, hikoya, lug'at, so'z.

Jahon mamlakatlarining ta'lim jarayonlari va uni inoslarga ulashish tajribalaridan kelib chiqib, barcha o'qituvchi va o'quvchilardan bilimli, zehni bo'lishi bilan bir qatorda muomala madaniyati uchun zarur bo'lgan og'zaki nuqtinining mazmunli va ibratli bo'lishi talab etilmoqda. Nutq madaniyati - bu to'g'ri so'zlay olish, ya'ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko'zlangan maqsadni hisobga oigan holda hamda barcha til vositalaridan foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. Nutq haqida Kaykovus "Qobusnoma" asarining yettinchi bobida quyidagi fikrlarni bildiradi: "So'zlovchining nutqi go'zal ma'noli bo'lishi, so'zni nutqda noo'rin ishlatmay, o'z o'rnida ishlatish kerak, hamma hunardan so'z hunari yaxshiroqdir" dev ta'kidlab o'tadi. Yana Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida nutqni ma'naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi: "...so'zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur

bo'lganbo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi".

Demak insonlarni muomala madaniyatini shakllantirishda nutqning o'rnini katta ekan. O'quvchilar nutqini o'stirishda esa bo'shlang'ich sinf o'qituvchilarining o'rnini beqiyosdir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, adabiy tilning o'ziga xos xususiyatini belgilash, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni ravon o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yorlari va mezonlariga rioya qilish, o'qish metodlarini takomillashtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Buning uchun bolalarning yoshligidan nutq madaniyatini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim. O'quvchilarning ruhiy, fiziologik xususiyatlariga yetarli ahamiyat berib, ularga nisbatan e'tiborni kuchaytirish, mehri va shirinsuxan bo'lish zarur. Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg'ularga boy bo'lib, o'qituvchi ana shu tuyg'ularni ilg'ashi, uning ruhiyatini ko'tarishi, ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyiliga alohida e'tibor berishi zarur.

O'quv dasturining o'qish bo'limida bolalarning eshtirish uquvlarini tarbiyalash, tez, sekin, qattiq, har xil ohangdagi gaplarni eshitib, idrok etish talab qilinadi. Talaffuzning sofligini ta'minlashda bolalarning o'z fikr taassurotlarini ifodalashlari uchun savol-javob nutqni egallashlariga ko'proq o'rin beriladi. His-tuyg'uli nutq, fikrni ta'sirli ifoda etish, o'qish paytidagi nutq, ertak aytib berishdagi ohang va nutq, hazil-mutoyibadagi nutq uyg'unlashishi, o'quvchilarga zavq-shavq bag'ishlashi lozim.

Hikoya, ertaklar matnini so'zlab berishda qahramonlar ovozigacha taqlid qila bilish, rasm va narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr-tomosha, o'yin, mehnat haqida hikoya qilish, misollar keltirish; matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish; badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish; matnni qismlarga bo'lib, ular mazmuniga mos sarlavhalar topish; ijodiy rasmlar ishlash kabi jarayonlarda bolalar tafakkur qilishga o'rganadilar. Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og'zaki nutq namunalariidan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko'proq yod olishga e'tibor berish mashqlarini o'tkazish tavsiya etiladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yod olish qobiliyatlarini rivojlantirishda o'quv dasturida berilgan 12-14 ta she'r namunalari yoddan aytishda ifodalikka, nutq odobiga rioya qilish, shoshilmay, yoqimli ovozda o'qish talab etiladi. Ayniqsa, o'qish darslarida obrazli nutq asosidagi suhbat, savol-javob kabi usullardan foydalaniladi. Tilimizning lug'at boyligi tarkibida yorqin, ifodali nutqni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan hamma vositalar mavjud. so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish imkoniyati va buning natijasida so'zlarning ko'p kasb etish o'quvchilar so'z boyligining ortishiga imkon beradi.

Bolalar o'z nutqini sodda shaklda emas, balki o'quv dasturi va davlat standarti talabiga ko'ra jozibali qilishlari lozim. Masalan o'quvchilarga

"*Oppoq*" soʻzi berilsin. Bunda oʻquvchilar ushbu soʻzni jozibali qilib tasvirlashga harakat qilsinlar. Ularga qiyidagicha jadvallar ham berish mumkin.

<i>Oppoq</i>	<i>Kuz kelishi bilan dalalarda oppoq, momiq paxtalar ochildi</i>
	<i>Qish fasli boshlanishi bilan oppoq qorlar hamma yoqni qopladi</i>
	<i>Uyimiz hovlisida oppoq atirgullar ochildi.</i>
	<i>Akam menga oppoq etikcha sovgʻa qildi</i>
	<i>Mashinadan oppoq soqolli chol tushib keldi</i>
	<i>Tugʻilgan kunimga onam oppoq ayiqcha sovgʻa qildi</i>
	<i>Hovuz boʻyida oppoq qushlar suzib yurar edi.</i>

Bu mashq ham oʻquvchini nutq boyligini oshirishga yanada yordam beradi. Ogʻzaki va yozma nutqda fikrni erkin ifoda etish uchun bolalar maʼlum soʻz boyligiga ega boʻlishlari va bu soʻzlarni toʻgʻri yozishlari kerak. Oʻquvchilarda matematika, tasviriy sanʼat, fizika darslarida esa hosil qilgan bilim va malakalarini oʻrinli ishlatish, matn mazmuniga mos rasmlar chizish, sayohatlarda olgan taassurotlarini avval ogʻzaki soʻng yozma ravishda ifodalay olishga oʻrgatiladi.

Davlat taʼlim standarti talablariga koʻra, oʻquvchilar erkin fikrlashga oʻrganishlari lozim. Fikrlash esa, bolada darrov hosil boʻlmaydigan jarayon boʻlib, uni yuzaga chiqarish uchun rejali ish olib borish lozim. Fikrni rejali ifodalash, oʻquvchining nutqini oʻstirish, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda koʻpincha interfaol usuldan foydalaniladi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish ularning lugʻatini boyitish bilan bogʻliqdir. Bolaning soʻz boyligi qanchalik koʻp boʻlsa, u shunchalik ravon gapiradigan boʻladi. Shuning uchun sinfda alohida lugʻat burchagi tashkil etilib, bolalar oʻzlashtirgan soʻzlarni yozib borishlarini nazorat qilish, yangi soʻzlarni esa oʻqituvchi yozilishi va qoʻllanishini oʻrgatib borishi lozim. Oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishda "Mozaika" yaʼni boʻgʻinlardan lugʻaviy maʼno ifodalovchi soʻzlarni hosil qilish, "Matn tahlili", "Tushunchalar tahlili", "Sinkveyn", "Limerik" metodlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq boʻladi deb oʻylayman. Misol tariqasida "Mozaika" taʼlimiy oʻyinidan misol keltirsak.

Mozaika. Bo'g'inlardan lug'aviy ma'no ifodalovchi so'zlarni hosil qiling.

•Mun, fut, tor, nor, choq,
nav, may, choq, lan, mat,
dan, tiq, kam, ton, toy, kar,
jan, mus, riy, kat, mon, gar,
jan, mus, riy, gar, bol, nat,
mux, tiq, pir, von, kar, nav,
vot, nov, tar, qiz, man, cha,
vuz, tar, kap, ta, kal, nav,
lam, ti, kat, mon, loq, qat,
pa, man

May	mun	choq
jan	nat	riy

Kabi bo'lishi mumkin. Demak bunda o'quvchilar uchta bo'g'indan ikkita so'zni topishi harakat qilishadi. Misol uchun: **May-mun-choq, Jan-nat-riy**

Mazkur interfaol o'yinlardan foydalanganda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchon, Xolida Gulomova, Sharofat Yuldosheva, Sharifjon Sariyev Ona tili o'qishish metodikasi „Bayoz nashriyoti“ Toshkent-2022.3.

2. O'tkir O'tanov „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti“ Samarqand-2016.

3. 2. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lim portal

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANISH KLASTER TEXNOLOGIYASI

Umarova Gulhayo Murodiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti

umarova.g@cspi.uz 97 5445654

Annotatsiya: Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsining shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi.

Аннотация: Поступление ребенка в школу имеет чрезвычайно важное значение в его психологическом развитии и формировании личности. Под руководством учителя ребенок познает содержание различных основных форм человеческого сознания и учится действовать на основе человеческих традиций.

Abstract: A child's going to school is extremely important in his psychological development and the formation of his personality. of the teacher, the child learns the content of various basic forms of human consciousness and learns to act on the basis of human traditions Under the guidance.

Kirish Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi, Bu davrda bola maktab o'quvchilariga qo'yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi; o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligiga, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolliqi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. *"Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanad"*. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsining shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni urganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarганиni, unga yangi majburiyatlar. nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv saoliyati talablariga bo'ysunish ham yuktilganligini his eta boshlaydi.

Bu davrning ahamiyatli tomoni shundaki, bolaning bog'cha yoshi davrida to'plagan shaxsiy tajribasi, tilboyliqi, bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham intellectual, ham axloqan, ham ijtimoiy tomondan rivojlanib, ulg'aya boshlaydi. Jenevalik psixolog Jan Piaje ma'lumotlariga qaraganda, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burulishlar ro'y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo'lib malum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko'proq o'zi xohlagan narsalarni esda saqlab qolishga harakat qiladi. Shuning uchun ham u, bazan ota-onalari o'ylanib qoladigan mavhum matematik vazifalarni ham o'qtuvchisi o'rgatganday tezda yechadigan bo'lib qoladi. Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi real tashqi olamni, uni qanday bo'lsa shunday mavjud xususiyatlari doirasida idrok qilib, anglay boshlaydi.

Boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari- o'qishda, sportda bolalar orasida nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining qaysi jinsga taaluqli ekanligini teran anglab maktabda "o'g'il bolalar va qiz bolalar" guruhi shakllanadi. Har bir guruhning o'ziga yarasha qiziqishlari, mashg'ulatlari bo'lib, qizlarning davrasida bo'lish, xattoki, o'g'il bola uchun noqulay bo'lib qoladi. Eng muhimi, aynan bu davr axloqiy normalarni anglashning, tushunish, axloqiy qadryatlarni o'zlashtirish va ma'naviy tasavvurning shakllanishi uchun o'ta sezgir va qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham kattalarni e'zozlash kichiklarga hurmat, ota-onaga ehtirom ko'rsatish, vatanni sevish, shaxsiy va ijtimoiy mulkka to'g'ri munosabat xislari tarbiyalanadi. Bola jazo va rag'batlantirish o'rtasidagi farqni ajrata oladi va nima qilib bo'lsa ham jazolanishdan qochib, ko'pchilikning nazaridan qolmaslikka harakat qiladi. Shu bois ham oilada va ta'lim maskanlarida bolaning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart-sharoit ayni bu davrda o'zining samarali natijasini beradi. Biroq bolaning maktab talimiga psixologik jixatdan tayyorligining subyektiv tomoni ham mavjuddir.

Bola maktabda o'qish xohishi, intilishi, predmetlarga qiziqishi, ishtiyoqi katta yoshdagi odamlarning bilan muloqotga kirishishning istagi mazkur tayyorlik bilan uzviy bog'liqdir. Bazi bir bolalar maktabga vujudi bilan talpinadilar, go'yoki qush kabi uchishga tayyordirlar, oqish vaqtiga qancha vaqt qolganini sabrsizlik bilan sanaydilar, o'quv ashyolarini oldinroq taxt qilib qo'yishga kattalarni da'vat etadilar. Boshqa bir toifadagi bolalar esa bu to'g'risida extiyotkorlik va vazminlik bilan munosabatda bo'ladilar. Biroq bu toifadagilarda faollik, shijoat, kuyuchanlik bilan intilish yetishmaganga o'xshab ketadi. Uchinchi bir turkumda taalluqli o'quvchilar bo'lsa maktabdan qat'iy ravishda vos kechish darajasiga borib yetadilar. O'qishga nisbatan bunday munosabat kattalarning jazo berish, erkinlikni yo'qotish, majbur qilish, qo'rqitishlari oqibatida vujudga keladi. Masalan: "Maktabga borsang- taziringni yeysan", " Qilt etsang kaltak yeysan", " Dars tayyorlayverib tinkang quriydi" va boshqalar. Kichik maktabgacha yoshda bolaning idroki uyushgan kuzatish shaklini oladi. Shuning uchun o'qituvchi oldida bolalar predmet va hodisalarni idrok etishga, ularning asosiy belgilari va xususiyatlarini mustaqil ravishda aniqlashga o'rganadigan tarzda o'quv faoliyatini tashkil etish vazifasi turibdi. Bu erda eng samarali bo'lgan taqqoslash usuli bo'ladi, undan foydalanish talabada chuqurroq idrok etish va xatolar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Pedagogikada qonuniyatlar – bu qonunlarning aniq sharoitldaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta'lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko'rib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'yektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik ta'lim qonuniyati deb ataladi.

Ta'limning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi: ta'limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari;

pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi;

ta'lim mazmunini belgilashda ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiytexnik taraqqiyot sur'ati; o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari;

ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

ta'limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar;

o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish:

o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqtiga bog'liq;

ta'lim metodlari samaradorligi ta'lim maqsadiga; o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga;

ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga bog'liq;

ta'limni boshqarish samaradorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta'sir ko'rsatishning asoslanganligiga bog'liq;

ta'limda rag'batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Shuningdek, pedagogikada ta'limning xususiy qonuniyatlari ham mavjud:gnoseologik:

ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga;

o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq;

psixologik: ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga;

xotiraning rivojlanganlik darajasiga;

bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq; kibernetik: ta'lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to'g'ri olib borilishiga;

ta'lim sifati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq;

sotsiologik: individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan individlarning rivojlanishiga;

ta'lim samaradorligi "intellektual muhit"ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning jadalligiga;

o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq;

tashkiliy: ta'lim natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga;

o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq jamlashni o'rganmoqda. Asta-sekin, agar o'quv materialini yorqin, vizual bo'lsa va bolada hissiy darajada qiziqish uyg'otsa, u yanada barqaror bo'ladi. Kichik maktabgacha yoshda bolaning idroki uyushgan kuzatish shaklini oladi. Shuning uchun o'qituvchi oldida bolalar predmet va hodisalarni idrok etishga, ularning asosiy belgilari va xususiyatlarini mustaqil ravishda aniqlashga o'rganadigan tarzda o'quv faoliyatini tashkil etish vazifasi turibdi. Bu erda eng samarali bo'lgan taqqoslash usuli bo'ladi, undan foydalanish talabada chuqurroq idrok etish va xatolar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Yosh o'quvchining asosiy xarakterli xususiyatlari - bu impulsivlik va darhol harakat qilish tendentsiyasi. U barcha holatlarni o'ylamaydi va oqibatlari haqida o'ylamaydi. Bolada hali etarli iroda yo'q va qat'iyat va qat'iyat bilan barcha qiyinchiliklarni yengib chiqa olmaydi. Bundan tashqari, ko'plab bolalar o'jar va yaramas bo'lib, maktab tizimi tomonidan qo'yilgan yangi talablarga shunday munosabatda bo'lishadi. Ular o'zlari xohlagan narsani emas, balki qilish kerak bo'lgan narsani qilish kerakligiga norozilik bildiradilar. Shu bilan birga, bolaning ichki pozitsiyasi o'zgaradi, u tengdoshlari orasida ma'lum bir mavqega ega bo'lishni boshlaydi va sinfdoshlar bilan munosabatlar, akademik muvaffaqiyat bilan birga, uning hissiy sohasiga ta'sir qiladi. Rivojlanish psixologiyasida inson rivojlanishining boshlang'ich maktab yoshi deb ataladigan davriga qarama-qarshi qarashlar mavjud. Vaqt davrining o'zi juda aniq belgilangan: birinchi sinfga kirgan paytdan (6-7 yosh) o'rta maktabga o'tish paytigacha (9-11 yosh). Qarama-qarshi qarashlarning mohiyati bu yosh bosqichining mohiyatini belgilashdadir. Buni bolalikning cho'qqisi, o'yinni etakchi faoliyat deb bilish yoki o'smirlik davrining boshlanishi deb hisoblash mumkin. Bu davrning eng muhim xususiyati bola tomonidan yangi rol - o'quvchini rivojlantirishdir. Yangi ijtimoiy rol faoliyatning yangi turi - ta'limning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u etakchi faoliyat turiga aylanadi. Maktabda bola nafaqat bilim va ko'nikmalarni oladi, balki yangi munosabatlar tizimini o'zlashtiradi, mas'uliyatli va mustaqil bo'lishni o'rganadi, yangi ijtimoiy maqomga intiladi.

Bolaning hayotdagi o'rni haqidagi tasavvurini o'zgartiradi. Qiziqishlar, istaklar, qadriyatlar, turmush tarzi o'zgarishlarga uchraydi. Bolaga bo'lgan munosabat ham o'zgaradi. Unga qaror qabul qilish oson emas, balki buning uchun baho olish ham oson. Bolaning hayoti ta'lim faoliyati bilan bog'liq. Ijtimoiy doira, kattalar bilan munosabatlar - barchasi ta'lim jarayoniga bog'liq. Yetakchi faoliyat sifatida o'qitishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- samaradorlik;

- o'zboshimchalik;
- mustaqillik.

Ta'lim faoliyatining asoslari shu davrda qo'yiladi. Bir tomondan, ta'lim faoliyati bolaning yoshiga mos kelishi kerak, ikkinchi tomondan, u rivojlanish zonasini ta'minlashi kerak, ya'ni boladan o'z kuchini talab qilishi kerak. Ushbu komponentlar kichik yoshdagi talabalar tomonidan o'zlashtirilishi kerak. Agar siz kamida bitta komponentni o'tkazib yuborsangiz, unda o'quv faoliyati to'g'ri shakllanmaydi. Boshlang'ich maktab yoshidagi neoplazmalar

1. Etakchi faoliyat - ta'lim.
2. Og'zaki-mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayoni yakunlanmoqda.
3. Doktrinaning ijtimoiy mavqei assimilyatsiya qilinadi.
4. Muvaffaqiyat motivatsiyasi shakllanadi.
5. Guruh o'zgarishi bor.
6. O'z-o'zini hurmat qilish bolaning yutuqlariga qarab shakllanadi.
7. Yangi kundalik rejimga moslashish mavjud.
8. Fikrlash qobiliyati paydo bo'ladi.
9. Ichki harakatlar rejasi shakllantirilmoqda.

Ruhy jarayonlarning rivojlanishi Bolaning so'z boyligi 7 ming so'zga ko'tariladi. Nutqni rivojlantirish uchun o'qitish katta ahamiyatga ega. Bu davrda izchil nutqni rivojlantirishga shoshilinch ehtiyoj bor, bola grammatikani o'zlashtirish uchun asos bo'lgan tovush tahlilini o'zlashtiradi. Bola kontekstli nutqning asoslarini o'rganadi, bu uning rivojlanishining ko'rsatkichidir. Kichik yoshdagi o'quvchilarda fikrlash ustunlik qiladi. Mantiqiy fikrlashni shakllantirish bu yoshdagi bolalarda to'g'ri aqliy rivojlanish ko'rsatkichidir. Bu davrda fikrlash jarayonlarining rivojlanishida individual farqlar paydo bo'ladi. Xotiraning rivojlanishi bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishda davom etadi:

- o'zboshimchalik
- mazmunlilik.

Xulosa O'quv faoliyatida xotiraning barcha turlari rivojlanadi: uzoq muddatli, qisqa muddatli, operativ. Boshlang'ich maktab yoshining boshida bolalarda beixtiyor e'tibor ustunlik qiladi, shuning uchun ta'lim jarayoni ushbu xususiyatni hisobga olgan holda quriladi. Vaqt o'tishi bilan e'tibor barqarorlashadi va uning konsentratsiyasi vaqti oshadi. Diqqatni saqlash boladan kuchli irodali harakatlarni talab qiladi. Bu jarayon ham etarli darajada o'zboshimchalik bilan emas va yomon farqlanadi. Biroq, vaqt o'tishi bilan hissiy me'yorlarga orientatsiya kuchaymoqda. Tasavvur ikki yo'nalishda rivojlanadi:

- Reproduktiv (qayta yaratuvchi), tanish ob'ektlarga asoslangan;
- Samarali (yangi tasvirlar).

Bundan tashqari bilimlar kunidagi shodiyona ayyom, o'quvchilik safiga qabul qilishlik lavhasi, maktab mamuriyati va o'qituvchilarning ularga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o'quvchilarining samimiy tabrigi birinchi sinf o'quvchilarining his-tuyg'usiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf a'zolari bilan birgalikda qatorlashib saf tortib yurishlar, yoppasiga o'yin faoliyatida

qatnashish, o'qtuvchining o'g'itlari ham ularni o'ziga rom etadi. Lekin ular o'qishning tub mohiyatini tushunib yetmaydilar, shuning uchun umumiy tarzda hamma maktabda borishi kerak, deb tasavvur etadilar. Vaholanki, o'quvchi o'qish ijtimoiy zaruriyat ekanligini anglab yetmasligi barchaga ayondir, biroq kattalarning ko'rsatmalariga amal qilgan holda tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketishlik hollari ko'p uchraydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi obro'sidan oqilona foydalanib, o'quvchida mehnatsevarlik, uyushqoqlik, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat, diqqatni boshqarish, xulqni idora qilish, o'z-o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga tasalli berish, faollik tuyg'ularini vujudga keltirish ta'lim jarayonida yuqori samara beradi. Pedagogik odob nazorat nuqtai nazaridan o'qtuvchi obro'sini o'quvchilar oldida to'kish, shaxsiyatiga tegish va mazah qilish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarova Gulhayo Murodiljonovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210- 224.
2. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Zulayho Jabborova Mansur qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish // —Ustozlar uchun fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 8-12 b.
3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, D.O.Ximmataliyev. O'smirlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning usullari va vositalari // —Ustozlar uchun fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 13-23 b.
4. Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish // —Pedagogs international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10.
5. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Qayumho'jayeva Fazilat Dilshod qiz. Kichik maktab yoshidagi o'qishga bo'lgan munosabati // -Journal of integrated education and research. Volume 2, ISSUE 1 January 2023. pp 150-154.
6. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Rasulova Arofat Zafarjon qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni aniq fanlarga qiziqishini oshirish metodikasi // -Conferencea virtual international. ARTICLES 2023. march pp 163-172.

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Qodirqulov Nodirbek Xamroqul o'g'li

Sirdaryo viloyati PYMO'MM metodik xizmat bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar innovatsion texnologiyalarning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, innovatsion, jarayon, vazifa, islohat, takomillashtirish, texnologiya, uslub, metodika, strategiya, istiqbol, mexanizm, infratuzilma.

Аннотация: В данной статье говорится о значении инновационных технологий в реформах, реализуемых сегодня в системе образования.

Ключевые слова: образование, обучение, инновационный, процесс, задача, реформа, совершенствование, технология, метод, методология, методология, стратегия, перспектива, механизм, инфраструктура.

Abstract: In this article, the reforms implemented in the education system, the analytical tasks being studied in the education system, the innovations implemented in the educational process, the importance of innovative technologies used in the sustainable development of the education system are discussed in this article. is spoken.

Key words: education, training, innovative, process, task, reform, improvement, technology, method, methodology, methodology, strategy, perspective, mechanism, infrastructure.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimi sifatini rivojlantirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash borasida jud katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan ilmiy soha va ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning asosiy poydevori sifatida rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, Fanlar akademiyalari, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" ko'zda tutilgan. Ta'lim va texnologik tizimini barqaror rivojlantirish, zamonaviy innovatsion dunyoqarashga ega bo'lgan ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarda doimo namoyon bo'lmoqda. "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal va tizimli islohotlar, ilm ma'naviy ma'rifiy va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali vatanga muhabbat bilan xizmat qiladigan yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning

uchun ham bog'cha, maktab va oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik" Ta'lim tizimi o'zining butun jarayonlari davrida innovatsion texnologik ishlarning yanada mukammalroq va yanada samaraliroq tizimini izlash bilan rivojlanib boradi.

Yillar davomida rivojlanib va murakkablashib borayotgan ta'lim jarayonlari uni tashkil etishning yanada tizimli va samarali bo'ladigan usullarni izlab topishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Muammoli jarayonlarni o'rganishni birinchi o'ringa chiqarish, uning bosqichli asoslarini shakllantirish borasida muayyan tizim hosil qilish innovatsion rivojlanishiga olib keladi. Ta'limni tez va barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashdan asosiy maqsad – ta'limda natijadorlikka erishish, istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim sub'ektlari manfaatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Belgilangan maqsadlarga erishish va kutilgan natijani olish – olib borilgan ishlar samaraliligini baholashning oliy mezonidir. Shu bilan birga ta'lim jarayoni samaradorligini baholash nihoyatda murakkab ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki, ta'limda makon va zamon nuqtai nazari bilan berilayotgan amaliy takliflarni hayotga joriy etish uchun sub'ektlarning mavjud resurslari va imkoniyatlari chegaralangan bo'lishi mumkin, shuningdek mavjud shart-sharoitlardan oqilona foydalanib bu vazifalarni amalga oshirish ma'lum soha qolaversa ta'limni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar haqidagi bilimlar holati izlanishlarning turli yullari va rejalarini yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish uslublarini tanlash bilan bir qatorda ushbu bosqichning ajralmas tarkibiy qismi qoidalar va tadbirlarni belgilash, turli texnologiyalar va usullarini qo'llashni tizimli keltiruvchi harakatlar ketma-ketligini aniqlashtirish bilan bog'liq. Bunday qoidalar ta'lim tizimini tashkil etishga hamda olingan bilimlarni bugungi hayotda qo'llashga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Berilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligi. Ta'lim mazmunining aniqligi. Ta'limga qo'yilgan aniq reja va maqsadlar. Ta'limdagi muammolarni yechimini topish; Ta'limda yutuqlarga erisha olish; Ta'lim jarayonidagi mavjud innovatsion, ilmiy-texnik ishlanmalar, aniq faktlar bilan bog'liq resurslarga tayanish. Hayot davomida ta'limga bo'lgan ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularning qisqa muddatda va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatni yo'lga qo'yilishini taqoza etadi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorlik kasb etuvchi, unga yangicha mazmun baxsh etishi mumkin bo'lgan ta'lim jarayoni bugungi kunning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Tabiiy ravishda uni olib borish uchun pedagogik va psixologik fanlar yutuqlaridan samarali va tizimli foydalanish vazifasi ta'lim jarayonida tegishli texnologiyalarni qo'llash va undan samarali foydalanishni taqoza etadi.

Ta'lim texnologiyalari – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayonlari vositalari, shakl va metodlari majmui hisoblanadi. Ta'lim materiallarini tanlash, qayta ishlab buyurtmachi sub'ektlarning kuchiga, xususiyatlariga xos mazmuni,

shakli va hajmini aniqlashtirish ham ta'limning texnologiyasiga daxldor. Ta'lim texnologiyalari ta'limning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlar asosida ta'lim jarayonlarining, ta'limning mazmunini, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyalari – talabalarga bilim va ko'nikmalar bilan bog'liq vazifalarni hal qilish imkonini beradigan muayyan bilimlar va ko'nikmalar majmuasidir. Ta'lim tizimining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim bilan bog'liq ishlarni loyihalashga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ta'limga ilmiy va texnologik yondashuv mazkur jarayonlarni aniq ilmiy ilmiy va kerakli vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Ilmiy yondashuv turli ta'lim sohalarini konseptualli va loyihali tahlil etish, ta'lim va tarbiya bilan bog'liq kamchiliklarni yechishda yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Ta'lim jarayonini tizimli olib borish texnologiyalari ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijalarga erishishni ta'minlovchi ta'lim jarayonining barcha bosqich, bo'lim va vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ta'lim jarayonlarini tashkil etish texnologiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi sanalib, bu ta'limni olib borishga puxta ishlab chiqish va uni o'tkazish va yakuniga yetkazish jarayoniga turtki beradi. Ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan o'quv va tarbiyaviy ishlanmalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ilmiy nazariy asoslarga ega bo'lmasdan, muammoviy ilmiy izlanishlarni olib borish mumkin emas. Ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalar nazariyasi va o'quv jarayonlarida qo'llashni anglab yetish, uni istiqbollarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida, 2017 y.
2. Yo'ldoshev J.F. "Innovatsion ta'lim" (metodik qo'llanma) Toshkent. 1995-yil.
3. R. Ilashova "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2019-yil 5-son
4. Abdulkarimov.H.A. "Umumiy pedagogika" Toshkent 2014-yil 1-son.
5. Omonov, N.X. "Pedagogik texnologiya" Toshkent 1997-yil
6. Xo'jayev, S.A. "Innovatsion texnologiyalar" Toshkent 2020-yil
7. Madyarova, E.U. "Ta'lim texnologiyasi" Namangan 2019-yil
8. Eshchonov D.K "Umumiy pedagogika" Samarqand 2018-yil

TO'GARAK DARSLARIDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Parmanqulova Jamila Shodbekovna

Toshkent viloyat Chinoz tuman 8-umumta'lim maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini o'rganish bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS

Аннотация. В этой статье был проанализирован общий обзор цели и содержания оценивания по изучению грамотности чтения у детей начальных классов в рамках международного исследования PIRLS - Прогресс в международном исследовании грамотности чтения.

Ключевые слова: Грамотность чтения, критическое мышление, PIRLS

Ta'limdagi o'zgarishlar bugungi davrda yurtimiz kelajagining mustahkam poydevori hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan uzluksiz va uzviylik tamoyili asosida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ta'limning interfaol turi oddiy ta'lim jarayoni ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ta'limning interfaol metodlaridan har bir bosqichda o'quvchining o'ziga xos psixologik xususiyatlari, tafakkur tarzini hisobga olgan holda foydalanish, aniq bir o'quvchilar auditoriyasining o'ziga xos jihatlari hisobga olish o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi.

O'z tajriba jarayonimdan misollar keltirib o'tsam. To'garak darslarimda, mavzularni o'tish jarayonida iloji boricha mavzuga ijodiy yondoshgan holda o'tishga harakat qilaman. Mavzularni PIRLS topshiriqlari asosida tayyorlayman, o'quvchilarim bilan ham darsga ijodiy yondoshgan holda kirishaman. Bunday faoliyatim o'quvchilarimni yanada bilimli, fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishimga sabab bo'lmoqda.

Hozir sizlarga to'garak darslarimda PIRLS baholash dasturiga oid tayyorlagan topshiriqdan namuna keltirmoqchiman.

SHAHARDA VA QISHLOQDA

So'lim qishloqda yashayotgan Boburjon buvisini juda yaxshi ko'radi. Nima uchun deysizmi? Chunki buvisi unga ajoyib-u g'aroyib hikoyalar, voqealar aytib beradi.

Boburjon ta'tilga chiqqach, buvisi uni shaharga olib borishga va'da bergan. Boburjon shaharga hech bormagan. Boburjon hovli supasida kashta tikib o'tirgan buvisidan so'radi:

– Buvijon, qachon shaharga olib borasiz? Juda ham borgim kelyapti. Shahar ham qishlog'imizga o'xshab ketadimi?

– Shahar ham, qishloq ham aholi to‘planib yashaydigan joy. Faqat shahar qishloqdan ancha katta, aholisi ko‘p. Shaharda ko‘p qavatli imoratlar, teatrlar, o‘yingohlar, o‘quv muassasalari bor. Qishloq aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi ishlari bilan band bo‘ladilar. Qishloqlarda ham turli yangi binolar, sport maydonchalari, dam olish maskanlari qurilgan, bolam.

– Buvijon, demak, bizning qishlog‘imiz ham shahardan qolishmas ekanda.

– Ha, bolajonim, shunday. Shaharning ham, qishloqning ham o‘ziga xos afzalliklari bor.

– Rahmat, buvijon endi shahar va qishloq haqidagi tasavvurlarim ancha boyidi.

Mavzuni mustahkamlash ucun test savollari va topshiriqlar

1. **Boburjon qayerda yashar edi?**

- A) Shaharda
- B) Qishloqda
- C) Ko‘p qavatli uylarda

2. **Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib matnni o‘qing.**

Buvisi unga ajoyib-u g‘aroyib _____, _____ aytib beradi.

- A) ertaklar, voqealar
- B) hikoyalar, qo‘shiqlar
- C) hikoyalar, voqealar

3. **Boburjonni buvisi hovlidagi suprada qanday ish bilan mashg‘ul**

edi.

- A) Ko‘rpa tikib o‘tirgan edi.
 - B) Kitob o‘qib o‘tirar edi
 - C) Kashta tikib o‘tirar edi.
4. Boburjon qayerga hech bormagan ekan?
- A) Qishloqqa
 - B) Shaharga
 - C) Toshkenga

5. Buvisi Boburjonga nimalar haqida so‘zlab berdi? Bilganlaringizni

bayon qiling.




6. Nima deb o‘ylaysiz, shahar yoki qishloqda yashashning qanday afzalliklari bor?



7. Hikoyani o‘qish jarayonida ko‘z oldingizga nimalar keldi? Tasabbur qilganlaringizni bayon qiling.



8. Oila a‘zolaringizdan shahar va qishloqda yashashning afzalliklari haqida so‘rang. Ularning fikrini daftaringizga yozib oling.



9. Shahar va qishloq o'rtasidagi farq nimada ekan? Bilgan ma'lumotlaringizni bayon qiling.



10. Qishloq aholisining asosiy qismi qanday ishlar biland band ekan?

- A) pillachilik bilan
- B) bog'dorchilik bilan
- C) qishloq xo'jaligi ishlari bilan

11. "Imorat" so'ziga sinkveyn tuzing.

- *Imorat*
- *Balad, chiroyli*
- *Quriladi, ko'tariladi, buziladi*
- *Yo'l bo'yida baland binolar qurildi.*
- *Bino*

12. Quyida berilgan so'zlar ichidan gaplarning chegarasini aniqlab ko'chiring. Gapning oxiriga nuqta belgisini qo'ying.

Qishloqlardahamturliyangibinolarsportmaydonchalaridamolishmaskanlari qurilganbolam.



13. Matndan shahar va qishloq haqida nimalarni bilib oldingiz?



14. Boburjon nega, qishloq ham shahardan qolishmas ekan, degan xulosaga keldi?



15. O'zingiz yashab turgan shahar yoki qishloq haqida nimalarni bilasiz? Fikringizni bayon qiling.



16. Boburjon buvisini nima uchun juda yaxshi ko'rar ekan?



17. Topshiriq. Olgan bilimingizga tayangan holda jadvalni to'ldiring.

18.

Topshiriq	B obur	Bu vijon	Sh ahar	Qis hloq	Ho vli
Harf	5				
Unli	2				
Undosh tovushlar	3				
Bo'g'in	2				

19. Shahar va qishloq joyda yashashning afzalliklarini jadval ko'rinishida yozing.

Afzalliklar	
Shahar	Qishloq
Hayvonot va istirohat bog'lari bor	Tabiat va mevali bog'lar

20. O'qigan hikoyangizdan ish harakatini bildirgan so'zlardan namuna keltiring.



Kabi savollar tuzishga harakat qilaman, bu savollar o'quvchilarni savodxonligini oshirish bilan birga ularning tafakkurini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi, tabiatga va atrof muhitga bo'lgan do'stona munosabatini shakllantiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak o'quvchilar matn mazmunini anglash va o'qishi mobaynida uning badiiy asarlarning strukturasi belgilaydi. Mavzuda asossiy g'oyalar, asosiy g'oyalarning isboti, tashkiliy shakllar, mualliflik mahoratini o'rganadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Metodik qo'llanma. T.2019-yil
2. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lim portal
3. Matchonov, A. Shojalilov 4-sinf O'qish kitobi 2017 yil

TA'LIMDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH USULLARI

Jabbarova Zuhra Omondullayevna

Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasida katta
o'qituvchisi

Annotatsiya: ta'limda innovatsiyalarni joriy etishda interfaol usullar qo'llashda o'qituvchilar, o'quvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari, o'quvchilar yangi bilimlar ustida izlanishlari, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtirishlari haqida tushuncha va ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, innovatsion texnologiya, usullar, interfaol usullar, o'qitish texnologiyasi

Аннотация: при использовании интерактивных методов при внедрении инноваций в образование преподаватели должны приобретать навыки и компетенции самостоятельной работы с помощью и сотрудничеством учащихся, учащиеся должны осуществлять поиск новых знаний, проводить исследования, экспериментальные испытания, основанные на понимании и информации о их мастерство.

Ключевые слова: образование, инновации, инновационные технологии, методы, интерактивные методы, технология обучения.

Annotations: when using interactive methods when introducing innovations in education, teachers must acquire the skills and competencies of independent work with the help and cooperation of students, students must search for new knowledge, conduct research, experimental tests based on understanding and information about their skills.

Key words: education, innovation, innovative technologies, methods, interactive methods, teaching technology.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog'risida quyidagilarni ta'kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi» [1].

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Ta'linda innovatsion texnologiyalar - bu pedagogik faoliyat natijasiga samarali erishishni ta'minlaydigan o'qituvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi usullari [2].

Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish

asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim ham yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ommaviy ongda mavjud bo'lgan, odatiy turmush tarziga ta'sir qiluvchi stereotiplar og'riqli hodisalarga olib keladi, ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta'limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik, o'zini o'zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blokirovka qilishdadir. Hamma ham nazariyani qayta o'rganish, imtihon topshirish, fikrini o'zgartirish, shaxsiy vaqt va pul sarflashga tayyor emas. Yangilash jarayoni boshlangandan so'ng, uni faqat maxsus texnikalar yordamida to'xtatish mumkin[2].

Ta'lim sohasida boshlangan islohotlar samaradorligini tekshirishning eng keng tarqalgan **usullari** quyidagilardir:

Hujjatlarni aniqlashtirish usuli. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni baholash uchun ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni keng ko'lamda joriy etish imkoniyati bostiriladi. Alohida maktab, universitet, DU tanlanadi va ular asosida tajriba o'tkaziladi.

"Abadiy tajriba" uzoq vaqt davomida olingan natijalarni baholashni o'z ichiga oladi. Parallel amalga oshirish eski va yangi ta'lim jarayonining birgalikda mavjudligini, bunday sintezning samaradorligini tahlil qilishni nazarda tutadi.

Tadqiqot usullari - muammoning hozirgi holatini adabiy manbalarga ko'ra nazariya va amaliyotda o'rganish va tahlil qilish.

Tahlil: o'qituvchi butunning qismlarini ajratib turadi, ular o'rtasidagi munosabatni ochib beradi, butunni qurish tamoyillarini amalga oshiradi - "yaxlitdan qismlarni ajratib oladi".

Sintez: o'qituvchi yangilikka ega bo'lgan bir butunni olish uchun elementlarni birlashtirish qobiliyatini ko'rsatadi (ijodiy insho yozadi, eksperiment rejasini taklif qiladi, muammolarni hal qiladi) - "yangi butunlikni shakllantirdi"[3].

Maktabgacha ta'limdagi innovatsiyalar - Maktabgacha ta'lim sohasidagi innovatsiyalar eski ta'lim standartlarini modernizatsiya qilish, Davlat ta'lim standartlarining ikkinchi avlodini joriy etishga asoslangan. Zamonaviy

o'qituvchi, tarbiyachi doimiy ravishda o'zini o'zi tarbiyalashga, rivojlantirishga, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish imkoniyatlarini izlashga harakat qiladi. O'qituvchi, tarbiyachi faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, o'z tarbiyasida vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otishi kerak. Innovatsiyalar erda bolalik ta'limi uchun zarur bo'lib qolganiga bir qancha sabablar bor. Avvalo, ular ota-onalarning ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beradi. Innovatsiyalarsiz maktabgacha ta'lim muassasalarining boshqa shunga o'xshash muassasalar bilan raqobatlashishi qiyin.

Bolalar bog'chalari orasida yetakchini aniqlash uchun ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning maxsus tanlovi ishlab chiqilgan. "Eng yaxshi Bolalar bog'chasi" munosib mukofot - maktabgacha ta'lim muassasasida katta tanlov, ota-onalar va bolalarning hurmati va mehrini oladi. Yangi ta'lim dasturlarini joriy etishdan tashqari, innovatsiyalar boshqa sohalarda ham bo'lishi mumkin: ota-onalar, xodimlar va boshqaruv bilan ishlash. Ularni to'g'ri qo'llash bilan maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ishlaydi, bolalarning barkamol shaxsini rivojlantirishni ta'minlaydi. Ta'limdagi innovatsiyalarni aks ettiruvchi texnologiyalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- ✓ loyiha faoliyati;
- ✓ o'qituvchilarga yo'naltirilgan ta'lim;
- ✓ salomatlikni tejaydigan texnologiyalar;
- ✓ tadqiqot faoliyati;
- ✓ axborot va kommunikatsion ta'lim.

Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi[4].

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarida joriy etilayotgan pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga yordam berishda maktab o'qituvchilari va o'quvchilarida, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari, tarbiyalanayotgan bolalar vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, ona yurtga muhabbat, xalq an'alariga hurmat tuyg'usini tarbiyalashda asosiy vazifalarni bajaradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bolalar bog'chalari, maktablar, oily ta'limlar, akademiyalarda odatiy holga aylangan. Ta'lim muassasalariga ta'sir ko'rsatadigan so'nggi yangiliklar orasida birlashtirilgan davlat imtihoni onlayn,

imtihon hujjatlarini oldindan skanerlash orqali yuborish shular jumlasiga kiradi. Albatta, ta'limda hali ham ko'plab hal etilmagan muammolar mavjud, bu innovatsiyalardagi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Demak, o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yo'naltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016.
3. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. - Ufa, 2002.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УСЛОВИЯХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ (НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ)

Плиева Руслана Владимировна

ст. преподаватель Гулистанского государственного университета
кафедры «Методика начального образования»

Зиёев Шухратхон Шокирович

логопед школы Баяутского р-на

Аннотация.

В статье даётся понятие об инклюзивном образовании и его проблемах во внедрении в начальную школу. Правах детей на развитие личности в системе образования, ориентированного на индивидуальные потребности, и в том числе право детей с отклонениями в развитии учиться в тех же школах, где учатся их сверстники, живущие по соседству, признаны международными стандартами прав человека. Создание условий для адаптации ребенка к школе состоит в том, чтобы ребенок был успешен не столько в обучении, сколько в сфере общения и взаимодействия между всеми участниками образовательного процесса: учителями, детьми, родителями.

Annotation.

The article gives the concept of inclusive education and its problems in introducing it to primary school. The rights of children to personal development in the system of education focused on individual needs, including the right of children with developmental disabilities to study in the same schools as their

peers living in the neighborhood, are recognized by international human rights standards. Creating conditions for the adaptation of the child to school is to ensure that the child is successful not only in learning, but in the field of communication and interaction between all participants in the educational process: teachers, children, parents.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, интегрированное обучение, ВОЗ, ОБЗ, специальное образование

Проблемы специального образования сегодня являются одними из актуальных в образовании не только в республике Узбекистан но и во всём мире. Это связано в первую очередь с тем, что число детей с ограниченными возможностями здоровья и детей инвалидов по данным ВОЗ не уклонно растёт. В нашей республике последние годы этой проблеме уделяется огромное внимание со государства и лично нашего президента

Ш.М. Мирзияева. Разработана «Концепция инклюзивного образования до 2030г.», в новом Законе об образовании выделена отдельно глава «Инклюзивное образование».

Инклюзивное образование – это обучение разных детей в одном классе (интегрированный класс), это признание особенностей развития ребёнка и его способности к обучению, которое ведётся способом, наиболее подходящим ребёнку.

Инклюзивное образование даёт возможность всем обучающимся (включая людей с ограниченным здоровьем) в полном объёме участвовать в жизни коллектива в детском саду, в школе, в учреждении

дополнительного образования детей, в институте. Но это не значит просто собрать всех детей «в кучу», а наоборот, инклюзия способствует тому, чтобы каждый ученик чувствовал себя принятым, чтобы его способности и потребности учитывались и были оценены.

Дети, которые нуждаются в инклюзивном образовании, могут иметь или не иметь инвалидность

Каждый ребёнок-особенный, это бесспорно. И всё же есть дети, о которых говорят «особенный» не для того, чтобы подчеркнуть уникальность его способностей, а для того, чтобы обозначить отличающие его особые потребности.

Назрела острая необходимость в понимании проблем детей, имеющих ограниченные возможности здоровья, уважении и признании их прав на образование, желание и готовность включить их в детское сообщество.

Детям с особенностями в развитии сегодня не обязательно обучаться в специализированных учреждениях, напротив, инклюзивное образование позволяет формировать для детей с ОБЗ такое образовательное пространство, в котором любой ребёнок, может быть включен в

образовательную и социальную жизнь учреждения, что позволит ему добиваться успехов и свою значимость в коллективе сверстников. Каждому ребёнку необходимо найти ту степень и форму образовательной интеграции, которая ему полезна и полезна.

Внедрение интегрированного обучения требует комплексного подхода, создание определённой среды для ребёнка, подготовку специализированных педагогических кадров и формирование терпимого отношения учащихся и родителей к проблемам «особых» детей и их проблемам. Вынуждены отметить, что школа без поддержки и помощи общества не может создать качественную модель инклюзивного образования.

С принятием нового Закона об образовании возникают вопросы, о том как в нашей будут обучаться такие дети насколько комфортно они будут чувствовать себя в школе. Насколько подготовлена наша школа для инклюзивного образования, как ребята относятся к совместной учёбе равных детей. Проблема заключается в том, что дети с ОВЗ ограничены от социума.

Ребёнок имеющий ОВЗ может быть так же способен и талантлив, как и его сверстники, не имеющих проблем со здоровьем, но обнаружить свои дарования, развить их, приносить с их помощью пользу обществу ему мешает возможность в социальной адаптации.

Ограниченные возможности здоровья (ОВЗ). Что это такое?

В научной литературе описано, что дети с ВОЗ отличаются определёнными ограничениями в психической, физической и в повседневной жизнедеятельности. Речь идёт о физических, психических, сенсорных и комплексных дефектах. Здесь хотелось отметить ряд типов нарушений.

1. Нарушение психических процессов (восприятие, внимание, память, мышление, речь, эмоции и воля).
2. Нарушение в сенсорных функциях это- зрение, слух, обоняние и осязание, нарушение опорно-двигательной системы (ДЦП)
3. Нарушение функций дыхания, обмена веществ, кровообращения, пищеварения и внутренней секреции.

Дети ВОЗ отличаются наличием физических и психических отклонений, которые способствуют формированию нарушений общего развития. Многие нарушения не являются ограничителями между ребёнком и окружающим миром. Однако дети-инвалиды с серьёзными нарушениями нуждаются в специальных условиях, в особом образовании, воспитании и лечении.

Базовая проблема инклюзивного образования- создать «без барьерную» образовательную среду. Основное правило – доступность её для детей с ОВЗ решение проблем и трудностей социализации.

В образовательных учреждениях, которые обеспечивают их сопровождение, необходимо соблюдение общепедагогических требований к техническому оснащению и оборудованию. Особенно это касается осуществления бытовых нужд, формирования компетентности и социальной активности. Помимо этого, особое внимание должно уделяться воспитанию и обучению таких детей.

Несмотря на проводимую работу, при обучении и воспитании детей ОВЗ не всё так просто. Существующие проблемы и трудности инклюзивного образования сводятся к следующим позициям.

Во-первых, коллектив детей не всегда принимает ребёнка с ОВЗ за «своего»

Во-вторых, педагоги не могут освоить идеологию инклюзивного образования, и существуют трудности при реализации методов обучения.

В-третьих, многие родители не хотят, чтобы их нормально развивающиеся дети ходили в один класс с «особенным» ребёнком.

В-четвёртых, не все инвалиды способны адаптироваться к условиям обычной жизни, не требуя к себе дополнительного внимания и условий.

Приоритетная задача современного инклюзивного образования – усилить внимание к социализации детей-инвалидов. Необходимо создания и утверждение адаптированных программ для детей с ОВЗ для обучения в общеобразовательной школе.

С одной стороны, инклюзивное образование в общеобразовательной школе начинается проявляться, усиливается неоднородность состава учащихся с учётом их речевого, умственного и психического развития. Этот подход приводит к тому, что существенно затрудняется адаптация как условно здоровых детей, так и детей с ОВЗ.

Включение каждого ребёнка с особыми потребностями в образовательную среду и гибкость в подходах к обучению – это и есть основные цели инклюзивного образования.

Основная цель образовательного учреждения – создание специальных условий (универсальной без барьерной среды) для развития и социальной адаптации обучающихся с особыми образовательными потребностями и их сверстников.

Это обеспечение равных прав и возможностей образования без дискриминации и пренебрежения, процесс обучения подстраивается под нужды и образовательные потребности ребёнка с обязательным предоставлением индивидуальной программы обучения, т.е. происходит адаптация системы к образовательным потребностям детей.

Задача школы – подготовить выпускника, обладающего необходимым набором современных знаний, умений и качеств, позволяющих ему уверенно чувствовать себя в самостоятельной жизни.

Задача учителя – индивидуализировать процесс обучения, максимально приближая его к возможностям ребёнка. (Необходимы специальные

программы, направленные на облегчение процесса адаптации детей с ограниченными возможностями в общеобразовательном учреждении).

Ценности инклюзивности:

- Быть успешным
- Принадлежать обществу и быть его частью
- На образование в течение жизни
- На дружбу и значимые отношения
- На полноценную жизнь

Инклюзивное образование на территории Республики Узбекистан регулируется следующими документами:

«Всеобщая декларация прав человека»

«Декларация о правах инвалидов»

«Конвенция о правах ребёнка»

Программа ЮНЕСКО «Образование для всех»

Протокол №1 Европейской Конвенции о защите прав человека и основных свобод

Конституция РУ

Закон об образовании в РУ

Концепция инклюзивного образования до 2030г.

Обучение разных детей в одном классе (Интегрированное обучение) основывается на дидактических принципах специального и общего образования.

1. Оно должно носить воспитывающий и развивающий характер, что предполагает формирование нравственных представлений и понятий, воспитание адекватных способов поведения, включение всех обучающихся в учебную деятельность, способствующую развитию их психических функций и самостоятельности.

2. В интегрированном обучении важна систематичность и последовательность решения коррекционно-образовательных задач, что необходимо для достижения учебных и воспитательных целей, прогнозирования и преодоления возможных трудностей взаимодействия школьников с различными умственными способностями.

3. Должен осуществляться принцип индивидуального и дифференцированного подхода в обучении учащихся с различными образовательными возможностями. Во время учебного занятия по любой дисциплине важно обучать всех, но при этом принимать во внимание способности каждого ученика в отдельности.

4. Не менее важно, чтобы обучение было связано с реальной жизнью. Следует моделировать и воспроизводить ситуации, трудные для ученика, но возможные в обыденной жизни; их анализ и проигрывание могут стать основой для позитивных сдвигов в развитии личности школьника.

5. Принцип сознательности и активности в процессе обучения реализуется благодаря использованию различных приёмов обучения, помогающих вызвать у школьников переживания и сочувствие. Переживания стимулируют развитие интеллекта. Эмоциональные побуждения более действенны, чем интеллектуальные, т.к. они есть у детей с любыми отклонениями в умственном развитии. Ученики должны понимать тот учебный материал, который им предлагается усвоить, научиться его использовать в самостоятельной практической деятельности, что невозможно без положительного эмоционального отношения ребёнка к обучению.

Для успешной работы команды специалистов образовательного учреждения необходимо соблюдать следующие условия: преемственность, согласованность действий, систематичность, планомерность, целенаправленность и поэтапность взаимных коррекционных мероприятий.

Если задача учителя – подготовить и подать материал в максимально доступной форме, а задача психолога – объединить усилия родителей, педагогов и учителя для решения проблемы, возникающей у ребёнка.

Родители должны понимать двустороннюю ответственность. Тут нельзя просто «сдать» ребёнка в школу и ждать результатов. Родители должны сотрудничать с педагогом, с другими специалистами и совместно решать задачи развития ребёнка.

Каждый ребёнок обладает уникальными особенностями, интересами, способностями и учебными потребностями. ИО – это постепенный, детальный и очень бережный процесс включения ребёнка в общую образовательную среду, которая учитывает индивидуальные особенности и опирается на сильные стороны ребёнка.

Инклюзивное образование даёт:

- Детям с ограниченными возможностями – свободу развития личности;
- Родителям – возможность использовать своё родительский потенциал в воспитании ребёнка с нарушением в развитии;
- Школе – возможность расширить индивидуальные образовательные услуги с целью подготовки выпускника к самостоятельной жизни, воспитания гражданина;
- Обществу – возможность совершенствования общественных отношений в духе гуманизма и толерантности;
- Государству – возможность реализации конституционных гарантий, соблюдения международных положений.

Литература.

1. Концепция инклюзивного образования до 2030г в РУ.
2. Саламанко- Дакарская декларация.
3. «Декларация о правах инвалидов»

4. «Конвенция о правах ребёнка»
5. Программа ЮНЕСКО «Образование для всех»
6. Трофимова Н.М. и др. Основы специальной педагогики и психологии. СПб. 2007
7. Инклюзив таълимнинг муаммолари ва истиқболлари. Арифходжаев Ғ.С., Музаффарова Х.Н., Алимова К.Г.
7. Организация инклюзивного образования в Узбекистан Л.Р Муминова

О'QISH DARSLARIDAGI MAVZULAR ASOSIDA PIRLS TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH

Sattarova Fotima Xasanovna

Sirdaryo viloyat Xovos tuman 6-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Аннотация: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlashda yaxshi o'qish malakalarining o'rni, e'tibor qaratiladigan jihatlar to'g'risida so'z yuritiladi.

Калит so'zlar: o'qish, yaxshi o'qish malakalari, matn ustida ishlash, mustaqil fikrlash, xalqaro tadqiqotlar

Аннотация: В этой статье обсуждается роль хороших навыков чтения в подготовке учащихся начальной школы к международному исследованию PIRLS.

Ключевые слова: чтение, хорошие навыки чтения, работать над текстом, независимое мышление, международные исследования.

Ma'lumki, PIRLS tadqiqot dasturi matni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo'lib mazkur tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasi bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqotda munosib natija ko'rsatish o'quvchilarimizning qanchalik bilim, malaka va ko'nikmalarga egaligiga bog'liq.

PIRLS tadqiqotiga o'quvchilarni tayyorlashda ularning ongli o'qishlariga ham e'tiborni kuchaytirish shart. O'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan matn yuzasidan beriladigan savollar, asarning ma'lum qismini aytib berishni so'rash, asar yuzasidan tanqidiy-tahliliy savol-javob o'kazish ham ongli o'qish sifatini shakllantirishga yordam beradi. So'zimizni isboti sifatida bir mavzu misolida ko'rib chiqsak.

BUYUK VA MUSTAQIL VATAN BARCHAMIZNIKI!

– Vatan nima, bobojon? – deb so'radi kichik Abrorbek bobosidan. Bobosi ketayotgan joyidan to'xtab, Abrorbekka mehr bilan qaradi.

Yuzidan o'pib dedi:

– Vatan – sen, buving, dadang, onang, yashayotgan uyimiz, mahallamiz, ko'chamiz, bolam. Vatan mahalladan, uyimizdan boshlanadi.

– Bobojon, uyimiz ham Vatanmi? – so'radi Abrorbek hayajon bilan.

– Ha, bolam, uyimiz ham kichik Vatanimiz, – deb javob berdi bobosi.

– Biz o'zimiz yashab turgan joyimizni qancha sevsak, Vatanimizni ham shuncha sevgan bo'lamiz. Bolam, sen do'stlaringni, sinfdoshlaringni, oilamizni yaxshi ko'rasanmi?

– Albatta, bobojon! – dedi Abrorbek.

– Barakalla, bolam! Hech qachon Vatan so'zini toq aytma. “Mening Vatanim”, “Bizning yurtimiz” deb aytishni o'rgan, bolajonim, – dedi bobosi.

Aziz bolajonlar, bu yurt barchamizniki! Bunday tinch va obod yurtda yashayotganimiz oliy baxtdir!

Mavzuni mustahkamlash ucun test savollari va topshiriqlar

1. Abrorbekning Vatan haqidagi savoliga bobosi qanday javob berdi?



Nima uchun Abrorbekning bobosi “Uyimiz ham kichik Vatanimiz”, dedi? Sizningcha, shundaymi? O'z fikringizni bayon qiling.



2. Vatan so'ziga ma'zodosh so'zni toping.

A) Chiroyli

B) Qadimiy

D) Yurt

3. Siz Vatan deganda nimani tushunasiz?



4. Sizning oilangizda necha kishi bor?



5. Siz oilangizda nechanchi farzandsiz?



6. Nima uchun Abrorbek bobosining so'zidan hayratlandi?



7. Hikoyani o'qigach Vatan haqida qanday fikrga ega bo'ldingiz?



8. Muallif bizlarga “Bunday tinch va obod yurtda yashayotganimiz oliy baxtdir!” degan so'zlarini qanday izoxlaysiz, fikringizni bayon eting.



9. Vatan soʻzini juft qilib aytsak qanday aytiladi?
A) “Onajonim Vatanim”, “Bizning yurtimiz”
B) “Mening Vatanim”, “Otajon yurtimiz”
C) “Mening Vatanim”, “Bizning yurtimiz”
10. Aziz bolajonlar, bu yurt ***barchamizniki!*** Ajratib qoʻyilgan soʻzni maʼnodoshini topib yozing va gapni qaytadan oʻqing.



11. Bunday tinch va obod yurtda yashayotganimiz oliy baxtdir! Ushbu gapdagi oliy soʻzini tushuntirib bering oliy deganda siz nimani tushunasiz? Fikringizni bayon qiling.



12. Mavzuni tushunib yetgan boʻlsangiz Vatan qayerdan boshlanar ekan?



13. **Topshiriq.** Vatan, yurtimiz, odob, kamalak, mustaqillik soʻzlarida nechta harf, unli, undosh tovushlar va boʻgʻin borligini aniqlab, jadvalga yozing.

Topshiriq	Vatan	Yurtimiz	Odob	Kamalak	Mustaqillik
Harf	5				
Unli	2				
Undosh tovushlar	3				
Boʻgʻin	2				

14. Quyida berilgan soʻzlar ichidan gaplarning chegarasini aniqlab koʻchiring. Gapning oxiriga nuqta belgisini qoʻying.

Hechqachonvatansoʻzinitoqaytmameningvatanimbizningyurtimizdebaytish nioʻrganbolajonim



15. Hikoyadag ushbi soʻroqlarga javob bergan soʻzlarni topib jadvalni toʻldiring.

Kim? nima	Qanday, qanaqa?	Nima qilmoq? Nima boʻlmoq?

Ushbu topshiriqlar oʻquvchilarni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birgalikda ularning bilim saviyasini ham oʻstirib boradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish" va "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; to'g'ridan-to'g'ri bo'lib ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har xulosalar chiqarish; kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish Bu kabi vazifalarni to'g'ri bajarish uchun ham, avvalo, o'quvchilarimiz yaxshi o'qish malakasini to'liq egallagan bo'lishi darkor.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Tuzuvchilar: A. Ismailov va boshq. Toshkent: "Sharq", 2019.
2. Matchonov S. va boshqalar. 4-sinf O'qish kitobi. Toshkent: "Yangiyul polygraph service", 2020

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA PEDAGOG KADRLARNING TA'LIM BERISH METODI

Nizamov Akmal Shoxobiddinovich

Sirdaryo viloyati Pedagogika markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Elektron ta'lim – AKT dan foydalanib elektron ta'lim tizimini tashkil qiladi, bunda "Aqlli auditoriya" dan foydalanish amaliyoti qo'llaniladi. Elektron ta'lim shuningdek elektron darsliklar, ta'lim xizmatlari va texnologiyalarini qamrab oladi. Dastlab, kompyuterlar yordamida o'qitish an'anaviy keyin esa, klassik amaliy mashg'ulotlar bilan o'rin almashdi. Elektron ta'lim o'zida ta'limning innovatsion yondashuvini qo'llagan holda ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirish uchun multimediya va internet-texnologiyalarni qo'llashga asoslanadi.

Аннотация. Электронное обучение – организует систему электронного обучения с использованием ИКТ, в которой используется практика использования «Умной аудитории». Электронное обучение также включает в себя электронные учебники, образовательные услуги и технологии. Первоначально компьютерное обучение было заменено традиционным, а затем и классическим практическим обучением. Электронное образование основано на использовании мультимедийных и интернет-технологий для повышения качества и возможностей образования, использовании инновационного подхода к образованию.

Kalit soʻzlar. Kompyuter, internet, AKT vositalari, anʼanaviy, elektron taʼlim, giperhavola, forum, ijtimoiy tarmoq

Ключевые слова. Компьютер, Интернет, инструменты ИКТ, традиционное, электронное образование, гиперссылка, форум, социальная сеть.

Bugungi kundagi globallashtirish va raqamlashtirish davrida elektron taʼlimning taʼlim jarayoniga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Anʼanaviy va elektron taʼlim jihatlari maʼlum bir xususiyatlari bilan uzviy bogʻlanmoqda. Elektron taʼlim oʻzida taʼlimning innovatsion yondashuvini, jumladan multimediyaga va internet texnologiyalarini qoʻllagan holda taʼlim sifati va imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shularni eʼtiborga olgan holda elektron taʼlim pedagoglarga qulay tashkillashtirilgan muhitda bilim olish va bilim berish imkonini beradi. Elektron taʼlim metodikasini ishlab chiqish elektron taʼlimning masofaviy kurslari oʻquv dasturlariga muvofiq holda tizimli yondashgan holda ishlab chiqilishi, innovatsion taʼlim texnologiyalarini qoʻllagan holda zamonaviy bilimlar va qarashlarga ega boʻlishini talab etadi.

Elektron taʼlim quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

shaxsiy kompyuter, internet, mobil telefon, televizor va boshqa elektron materiallardan foydalangan holda elektron materiallar bilan mustaqil ishlash;

masofaviy (hududiy) ekspertdan (oʻqituvchidan) maslahat, maslahat, baho olish, masofaviy oʻzaro aloqa qilish imkoniyati;

umumiy virtual oʻquv faoliyatiga rahbarlik qiluvchi foydalanuvchilar (ijtimoiy tarmoqlar) taqsimlangan hamjamiyatini yaratish;

elektron oʻquv materiallarini oʻz vaqtida kechayu kunduz yetkazib berish;

elektron oʻquv materiallari va texnologiyalari, masofaviy oʻqitish vositalari uchun standartlar va texnik shartlar;

guruh tarkibidagi barcha korxonaga va boʻlinma rahbarlari oʻrtasida axborot madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish hamda ularning zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashi, ularning oddiy faoliyati samaradorligini oshirish;

innovatsion pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish, ularni oʻqituvchilarga yetkazish;

taʼlim veb-resurslarini ishlab chiqish qobiliyati;

istalgan vaqtda va istalgan joyda dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan zamonaviy bilimlarni olish imkoniyati;

psixofizik rivojlanishning alohida ehtiyojlari boʻlgan shaxslar uchun oliy maʼlumot olish imkoniyati.

Anʼanaviy taʼlimga zamonaviy texnologiyalar qaysidir jihatlari yangilagan hamda saqlagan holda kirib keldi va natijada taʼlim sohasida elektron taʼlim tushunchasi paydo boʻldi. Elektron taʼlim talabalarga bir marta yaratilgan multimedia taʼlim kontentini interaktiv rejimda koʻp bora ishlatish imkoniyatini beradi. Bunda talabalar nafaqat kontentni yaratish jarayonini kuzatishi, balki yaratishi ham mumkin boʻladi. Elektron taʼlim taʼlim kontentida ijtimoiy

tarmoqlar, forumlar, chatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, ular sayt kontentini mukammallashtirishning dinamik modelini ishlab chiqish imkonini beradi.

An'anaviy ta'lim tizimida darsliklar uch-to'rt yilda bir marta yangilansa, elektron ta'limda esa, elektron darsliklar har kuni yangilanadi hamda an'anaviy ta'lim xususiyatlarini o'zida saqlagan holda, ixtiyoriy elektron ta'lim resursidagi giperhavolalar orqali boshqa resursga o'tish imkonini beradi.

Elektron ta'limda pedagog masofadan turib muloqot qilish usullarini o'zlashtirishi kerak. Bu esa pedagogga o'quv materiallarini yaratish, yangilash, to'ldirish, tahrirlash va nashr etish kabi ishlarni ham bajarish imkonini beradi. Buning natijasida ma'ruzalar tashkil qilishning shakli o'zgaradi. An'anaviy ta'limdagi ma'ruzada talabaga oldindan ma'lum bo'lmagan axborotlar beriladi, elektron ta'limda esa barcha o'quv materiallari axborotni uzatishning turli formatlari ko'rinishida tartiblangan holda talabalarga taqdim etiladi. Shuning uchun endi o'qituvchi ma'ruzaga ijodiy yondashgan holda, talabalarga tayyorlanish uchun axborot manbalarini berishi yoki talabalarning o'zlari qo'shimcha axborot manbalarini izlab topishlari mumkin bo'ladi. Keyin ma'ruza yuzasidan muhokama o'tkaziladi. Muhokama jarayonida talabalarning ma'ruza yuzasidan fikrlari ko'rib chiqiladi va umumiy xulosaga kelinadi. O'qituvchi talabalarga mustaqil ish mavzularini ham beradi [53] (Anarbayeva F.U. va b., 2020).

Elektron ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

- Kirish erkinligi — talaba deyarli hamma joyda o'qishi mumkin. Elektron ta'limning barcha funktsiyalari Internet orqali amalga oshirilmaydi. Voyaga yetgan talaba asosiy ishdan to'xtovsiz o'qishi mumkin.

- Ta'lim xarajatlarini kamaytirish — talaba axborot tashuvchisi xarajatlarini o'z zimmasiga oladi, lekin uslubiy adabiyotlar narxini o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, o'qituvchilarga to'lanishi kerak bo'lmagan ish haqi, ta'lim muassasalarini saqlash va hokazolar tufayli jamg'armalar o'sib bormoqda. Elektron o'quv materiallarini ishlab chiqarish o'rmonlarni kesishni nazarda tutmaydi.

- Ta'limning moslashuvchanligi — talabaning o'zi tanlagan, butun o'quv jarayonini uning qobiliyati va ehtiyojlariga to'liq moslashtirgan holda o'rganishning davomiyligi va ketma-ketligi.

- Zamon bilan rivojlanish imkoniyati — elektron o'quv kurslaridan foydalanuvchilar: o'qituvchilar ham, talabalar ham eng so'nggi zamonaviy texnologiyalar va standartlarga muvofiq o'z malaka va bilimlarini rivojlantirmoqda. Elektron o'quv kurslari o'quv materiallarini o'z vaqtida va samarali yangilash imkonini ham beradi.

- Potensial teng ta'lim imkoniyatlari — ta'lim ma'lum bir ta'lim muassasasida o'qitish sifatiga bog'liq emas.

- Bilimni baholash mezonlarini belgilash qobiliyati — elektron ta'limda

o'quvchining o'quv jarayonida olgan bilimi baholanadigan aniq mezonlarni belgilash mumkin.

Elektron ta'lim o'zida ta'limning innovasion yondashuvini qo'llagan holda ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirish uchun multimediya va internet-texnologiyalarni qo'llashga asoslanadi. Ko'plab xorijiy ochiq va virtual universitetlar an'anaviy ta'lim shakllari bilan raqobatlashadigan elektron ta'lim tamoyili asosida ishlaydi. Elektron ta'lim ta'lim shakli va muhitini talaba va o'qituvchining hoxishiga ko'ra o'zgartiradi. Elektron ta'lim talabalarga qulay tashkillashtirilgan muhitda bilim olish imkonini beradi.

Umuman olganda, metodika - bu o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi hisoblanadi. Bundan esa, elektron ta'lim metodikasini – elektron ta'limning barcha jabhalarini o'z ichiga olgan holda uni tashkiliy, tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish hamda elektron ta'limning pedagogik boshqaruvini tashkil etish deb ta'riflashimiz mumkin. Elektron ta'lim metodikasi bo'yicha hozirgi kunda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda, xususan Buus L., Georgsen M., Olitayo P., Sergeev S.F., Nabi Y.A., Ibraymov A.E. kabi olimlar bu sohada ko'plab izlanishlar qilishgan.

Elektron ta'lim muammolari.

Elektron ta'lim nisbatan yangi hodisa, shuning uchun u rivojlanishda nafaqat texnik qismda, balki qonunchilik bazasi, standartlashtirish va boshqalar tomonida ham bir qator muammolarga duch kelmoqda. Elektron ta'limni rivojlantirishning asosiy muammolarini o'z ichiga oladi:

- elektron o'quv materiallari sifati mezonlari va umumiy standartlari yo'qligi, ma'lumotlarni Internet orqali uzatish imkoniyatlari yetarli darajada ochib berilmagan: asosan matn va oddiy grafika kabi shakllardan foydalaniladi;

- ham elektron ta'limni huquqiy ta'minlash, ham mualliflik huquqi bilan bog'liq huquqiy muammolar;

- moliyalashtirish masalalari (ishlab chiqish, ma'lumotlarni saqlash, veb-resurslarni yaratish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangilash xarajatlarini);

- kadrlar bilan bog'liq muammolar (malakali kadrlarning etishmasligi, uni tayyorlashning murakkabligi, chunki bir vaqtning o'zida mavzuni, IT texnologiyalaridan foydalanishni va materiallarni bezashni qamrab olish kerak.

Didaktika borasida A.E.Ibraymov quyidagicha ta'rif bergan: "Didaktika o'qitishning umumiy qonun va qonuniyatlarini aniqlab berish bilan birga har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Didaktika butun pedagogik faoliyat uchun, ya'ni ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning nazariy va amaliy harakatlari uchun metodologik asos vazifasini bajaradi". Bundan kelib chiqadi-ki, elektron ta'lim metodikasini ishlab chiqishda didaktika muhim o'rin egallaydi [31] (Ibraymov, 2020).

Elektron ta'limda ta'lim jarayoniga jalb qilishda elektron ta'lim rivojlantirish metodlari ham ko'riladi, buni esa Nabi Y.A. o'z ishlarida quyidagicha ko'rsatib o'tgan: Tizimli yondashuv tizimning umumiy nazariyasi

vositalarini qo'llash bilan belgilanadi. Umuman olganda, tizimli yondashuv metodologiyaning asosini tashkil etadi. Bu metodni innvasion tizimlarni shakllantirish metodlari sifatida ham qarash mumkin. Dialektik yondashuv. Ta'lim jarayonida sodir bo'layotgan jarayonlarning dinamik xarakteri - bu ta'lim jarayoni sub'ektlarining takomillashtirishga, eskisidan yangisiga o'tishga doimiy intilishi natijasidir. Ekspertli baholash metodlari. Tadqiqot metodikasi nafaqat nazariy asoslarga, balki olingan natijalarni empirik tekshirishga ham asoslangan bo'lishi kerak. Ishonchlilikni tekshirishning turli usullari: kuzatish, pedagogik eksperiment, anketa va suhbatlar, ekspertli baholash va boshqalar pedagogikada asosli va keng qo'llaniladi. Elektron ta'limning nazariy xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuzatish, pedagogik eksperiment va boshqa usullardan foydalanish imkonsiz bo'lib tuyuladi. Ekspert baholash usuli anketa va intervyu asosida qo'llaniladi" [59].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xusan Xolmuratovich Muratov. Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. Academic research in educational sciences |volume 2 | issue 1 | 2021.
2. Марчук Н.Ю. Психолого-педагогические особенности дистанционного обучения // Педагогическое образование в России. - 2013. - №4.
3. Куфлей О.В, Дмитриенко И.А. Внедрение электронного обучения как системный фактор развития образования. Ksla.kg. [Электронный ресурс]. URL: http://ksla.kg/upload/file/vestnik/vestnik_2014_2/90-94.pdf.
4. Taylakov, Norbek Isakulovich, and Fotima Urazalieva. "Pedagogical Features Of Moodle Platform." The American Journal of Applied sciences 2.07 (2020): 104-107.
5. Anarbaeva, Fotima, and Gayrat Nurmatov. "Features of electronic learning." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5 (2020): 1781-1783.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektron_ta%27lim

DARSLARNI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

Yunusmetova Nasiba Satimbekovna

SVPYAMO 'MM katta o'qituvchisi

Gulsara Davranova

Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi o'quvchilarining bilim hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini bosh metodisti

Annotatsiya : *Ushbu maqolada dars jarayonini o'yin texnologiyasi asosida tashkil etish orqali samaradorlikka erishish usullari, afzalliklari yoritilgan.*

Kalit so'zlar : *o'yin texnologiyasi, 4-K" modeli, "Kayfiyat haqida ma'lumot", "Ob'ektlarni yodlash", "Gapni tugating", "Raqamni almashtiring" metodlari*

Аннотация: *В данной статье описаны методы и преимущества достижения эффективности за счет организации учебного процесса на основе игровой технологии.*

Ключевые слова: *игровая технология, модель 4-К, методы «Информация о настроении», «Запоминание предметов», «Закончи предложение», «Измени число».*

Davlat va jamiyatning istiqbolini, kelajagini bugungi maktab dargohida tahsil olayotgan o'quvchilar belgilab beradi. Shunday ekan, bugun biz kimlarga qanday sharoitda, qanaqangi usullardan foydalangan holatda ta'lim berib kelmoqdamiz?

Ta'limdagi innovatsiyalarni yaratish, tajriba ortirish va almashish jarayoni bugungi kun pedadodining oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Ta'lim tizimidagi yangi shart-sharoitlar o'qituvchilarni axborotni taqdim etishning yangi usullari, yangi texnologiyalar, o'qitish usullarini yaratishga olib keladi, ularni o'qitish usullarida ijodiy va ijobiy yechimlarni izlashga majbur qiladi.

20 yil oldin hech kim AT sohasi mutaxassisi, dasturlovchi-programmist, menenjer, broker yoki mobil ilovalar ishlab chiqaruvchisi kabi kasblar haqida eshitmagan edi. Yana bir necha yil ichida mehnat bozori aynan nimani talab qilishini oldindan aytish qiyin, lekin u albatta o'zgaradi. Hatto hisobchi, kutubxonachi va tahlilchilarning ishi ham jismoniy mehnatni hisobga olmaganda, asta-sekin avtomatlashtiriladi. Ish beruvchilarni birinchi navbatda algoritmlar bilan almashtirib bo'lmaydigan ko'nikmalar qiziqtiradi.

2016-yilda Davosdagi (Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) Shveysariya nodavlat tashkiloti bo'lib, Davosdagi yillik yig'ilishlarini tashkil etish bilan mashhur. Yig'ilishlarga yetakchi biznes rahbarlari, siyosiy yetakchilar, taniqli mutafakkirlar va jurnalistlar taklif etiladi. Muhokama mavzusi eng dolzarb global muammolar, jumladan sog'liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza

qilishdir) Jahon iqtisodiy forumi prezidenti Klaus Shvab **TO'RTINCHI TEKNOLOGIK INQILOB** boshlanganini ma'lum qildi. Bu shuni anglatadiki, tez orada inson qo'li bilan yaratilgan robotlar, sun'iy intellekt (**Sun'iy** ong, sun'iy intellekt yoki sun'iy idrok (*inglizcha: Artificial intelligence*; odatda, **AI** sifatida ham qisqartiriladi) — insonlar yoki hayvonlar tomonidan ko'rsatiladigan **tabiiy ong**dan farqli o'laroq, mashinalar tomonidan ko'rsatiladigan ongdir.) biz uchun hamma ishni bajaradi. Ya'ni insonlar kelajakda robotlar, sun'iy intellektga tobe bo'lib qolmasliklari uchun unda quyidagi ko'nikmalar shakllangan bo'lishi kerakligini bashorat qilad:

- murakkab muammolarni hal qilish;
- tanqidiy fikrlash;
- ijodiy fikrlash;
- odamlarni boshqarish;
- jamoada ishlash;
- boshqa odamlarning va o'zingizning his-tuyg'ularingizni tan oling, ularni boshqaring;
- hukmlarni shakllantirish va qarorlar qabul qilish;
- mijozga e'tibor qaratish;
- muzokaralarni olib borish;
- tezda bir vazifadan ikkinchisiga o'tish.

“Yangi avlod” darsliklarining asosida kelajakda olgan bilimlarini jamiyatda qo'llay oladigan, tez o'zgarayotgan axborotlashgan bozor sharoitida o'z yo'lini topib keta oladigan mutaxassislarni samarali tayyorlash maqsadida yuqoridagi ko'nikmalarni qisqartirilgan, ixcham shakli 4-K modeli tashkil etadi :

Kollaboratsiya: darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Demak, bugun o'quvchini odatiy dars bilan ta'limga jalb eta olmaysiz. Darslarni noodatiy tarzda, ya'ni doska oldida turib ma'ruza o'qib, uy vazifasini tekshirish emas, balki o'quvchilarni tafakkurini shakllantirishga yotaltirilgan

amaliy mashg'ulotlar, o'yin darslari orqali ularni ma'lum maqsad sari yonaltirish.

Quyida maktab ta'limida o'yinlardan foydalanishning 10 ta afzal tomonini ko'rib chiqamiz :

1. O'quvchilarni sezgir qiladi

O'yin o'ynash bolaning idrokini kuchaytirishga yordam beradi va shu bilan uning diqqatini oshiradi. O'yinlar tez harakat talab qiladigan muhim xususiyatlarga ega, shuning uchun bolalar diqqatli bo'lishlari kerak. O'yinlar bolalarning miyasini mashq qildiradi.

2. O'quvchilarni qat'iyatli va shijoatli qiladi

Sinfdagi o'yinlarda faol ishtirok etish bolalarga nima qilishdan qat'i nazar qat'iyatli bo'lishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, u o'rganish, qatnashish va sinfdagi mashg'ulotlarga e'tibor berishda bolalarning umumiy motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

3. Til va muloqotni rivojlantirishga yordam beradi

Rivojlanayotgan bolaning miyasi ular duch kelgan har qanday yangi narsani tushunishga intiladi. Ular duch kelayotgan har bir yangi insondan ular muloqot va til ko'nikmalarini o'rganadi.

4. Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi

Bolalarni sinf o'yinlariga jalb qilish ularni muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu bolalarga ijobiy ta'sir qiladi, chunki ular ilg'or matematik yoki mantiqan fikrlash bilan shug'ullanishlari mumkin.

5. Majburiyatlar o'rnatish va hamkorlik qilishni o'rgatadi

Sinf o'yinlari bilan shug'ullanish bolalarga individual va guruh faoliyati bilan ishlash imkonini beradi. Shunday qilib, bu boshqa bolalar bilan aloqalarni o'rnatish va hamkorlik qilish uchun yo'l ochadi. Buning sababi, ular jamoa bo'lib ishlash usullarini o'rganadilar. Bu shuningdek, bolalarga navbat bilan qilish, boshqalarni tinglash, hurmatni kuchaytirish va adolatli o'yin o'ynash imkonini beradi.

6. O'ziga bo'lgan ishonch va hurmatni oshiradi

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quv usullariga o'yinlarni kiritish bolalarning g'ururi va his-tuyg'ularini bog'laydi.

7. Ajoyib ta'lim usullari bilan tanishtiradi

Ba'zida o'qish va yozish bolalar uchun juda zerikarli bo'lib tuyuladi, shuning uchun ular turli tadbirlarda qatnashishni afzal ko'radilar. O'yinli ta'lim berish usuli esa ularga ham o'rganishga ham darsdan zavq olishga yordam beradi.

8. Bolalarni bir nechta faoliyat bilan shug'ullanishga majbur qiladi.

Dubaydagi eng yaxshi xalqaro maktablar sinf o'yinlarida badiiy komponentlarni o'rnatadilar. Bu o'quvchilarga o'zlarining original g'oyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada, ular o'zlarini sezilarli darajada

ijodiy tarzda ifoda etishlari mumkin. Boshqa tomondan, yangi ko'nikmalar bilan shug'ullanish ularning hayotining turli jabhalariga eshiklarni ochadi.

9. O'quvchilarga har qanday yangi muhitga moslashishga yordam beradi

Sinfdagi o'yinlar o'quvchilarga har qanday yangi muhitga moslashish strategiyasini ta'minlaydi, ayniqsa ular uzoq vaqt davomida sinfdan yoki msktabdan uzoqda bo'lgan vaqtida.

10. O'quvchilarni xatolaridan saboq olishga majbur qiladi

O'quvchilar uchun sinflaridagi o'yinlar xuddi hayotdan har qanday tushunchani o'rganishga o'xshaydi. O'yinlar g'alaba va yutqazish jarayoni bilan tuzilganligi sababli, ular o'quvchilarga ulardan o'rganish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, bolalar noto'g'ri bo'lgan narsalar haqida bilib olishlari mumkin, shu bilan muammolarni hal qilish strategiyasini o'rganadilar.

“Ob’ektlarni yodlash” metodi

Ushbu o'yin kimyo, biologiya yoki shu kabi fanlarda tegishli materiallar bilan yangi mavzuni tanishtirishning qiziqarli usulidir. Siz sinf stoliga kamida 15 xil ob'ektni joylashtirasiz va o'quvchilar ularni ma'lum vaqt oralig'ida o'rganadilar.

Shundan so'ng siz ob'ektlarni yopasiz va o'quvchilardan ular haqida ba'zi tafsilotlarni eslab qolishlarini va ular qanday maqsadga ishlatilishini tushuntirishlarini so'raysiz. Stoldagi narsalarni va ular haqida eng ko'p ma'lumot eslab qolgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

“Kayfiyat haqida ma'lumot” metodi

Ob-havo, hayvonlar, qushlar yoki o'simliklar kabi mavzularga murojaat qilish orqali o'zingizni qanday his qilayotganingizni tushuntiring, masalan:

“O'tgan kun juda bulutli edi, ammo endi quyosh porladi”

“Men o'zimni toshbaqa kabi his qilib juda sekin harakatlanmoqdaman”

“Men mashg'ulotlarga kirganimda, bu kichik va ko'rinmas chumchuq edim, ammo endi o'zimni burgutdek his qilayapman” va hokazo.



“Gapni tugating” metodi

Siz ushbu o'yindan o'quvchilarni yodlash va diqqatni jamlash ko'nikmalarini o'rgatish uchun foydalanishingiz mumkin, ayniqsa ular o'rta maktab darajasida bo'lsa. Doskaga "Men ta'tilga ketyapman va... olib kelaman" kabi jumlaning yozasiz. Bu gapda xuddi shunday bo'sh joy qolishi kerak.

Birinchi o'quvchi ro'yxatga “Men ta'tilga ketyapman va itimni olib kelaman” kabi biror narsani qo'shadi. Shundan so'ng, har bir o'quvchi

o'zini kiritishdan oldin barcha oldingi qo'shimchalarni takrorlaydi. Hamma qo'shimchalarni aytib berolmagan o'quvchilar o'yindan chetlashtiriladi. O'yin oxirgi o'quvchi qolguncha davom etadi.

“Raqamni almashtiring” metodi

Ushbu o'yin davomida o'quvchilar diqqatni jamlash ko'nikmalarini mashq qilishlari mumkin. Siz bitta raqamni tanlaysiz va uni "zing" yoki "bizz" kabi tovush yoki so'z bilan almashtirasiz.

Keyin, o'quvchilar raqamlarni ovoz chiqarib o'qiydilar va tanlangan raqam o'rniga almashtirilgan so'zdan yoki tovushdan foydalanadilar. Agar o'quvchi almashtirish o'rniga raqamni aytsa, o'yindan chiqib ketadi.

BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARDAN SINFDAN TASHQARI TADBIRLARNI TASHKIL ETISH

Usmonova Mavluda Abdusamatovna

Sirdaryo viloyat Xovos tumani 12-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlarga oid sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish maqsadi va uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga to'xtalgan holda tadbir namunasi misolida to'xtalgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiiy fan, tadbirlar, o'yin, sinfdan tashqari ish.

Jamoat tashkilotlari o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan xilma-xil mashg'ulotlarni o'qituvchilar yordamida tashkil qiladilar. Sinfdan tashqari ishlar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma-xil: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijtimoiy foydali, badan tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlar uch xil formada: ommaviy, to'garak va individual formalarda tashkil qilinadi. Sinfdan tashqari ishlarda tajriba almashishning eng yaxshi shakli an'anaviy bayramlardir. Masalan: “Gul bayrami”ga barcha boshlang'ich sinf o'quvchilarini jalb etish kerak. Bu bayramga yil davomida tayyorgarlik ko'rib o'quvchilar sinf faoliyatini jonlantirishga, unga yangi mazmun berishga va to'garak ishlarini tashkil etishni yaxshilashga o'quvchilar faolligini safarbar etishga, asosiysi o'z maktabi o'z jamoasidan faxrlanish hissiyotini oshirishga harakat kiladilar.

Bayram oxirida o'yin musobaqalar tashkil etilib unda o'quvchilar tabiat darslarida egallagan ko'nikma va malakalarni namoyish etadilar.

1-shart “Tabiat mo'jizalari” o'yini

“Tabiat mo'jizalarini sanab o'ting” topshirig'i asosida guruhlar topshiriqni bajardilar:

- buloq
- sharshara
- tog'

- gul
- novda
- 2-shart Dorivor o'simliklar haqida ma'lumotlar bering
- 1-guruh:
Isiriq, yalpiz,
- 2-guruh:
Paxta, makkajo'xori.....
- 3-guruh:
Na'matak, rayxon.....
- 4-guruh:
Moychechak, qo'qio't.....
- 3-shart. "Meni toping" o'yini

Har bir guruhga biror narsa nomi guruhning sardori qulog'iga aytiladi. Masalan: Nok . U yonidagiga nokni to'la tushuna oladigan darajadagi ta'rifni keyingi sherigiga aytishi kerak: lampochkaga o'xshagan meva, 3-ishtirokchi keyingi sherigiga yana bir boshqa ta'rif aytadi: bu mevaning nashvati, dilafruz degan nomlari bor kabi davom ettiriladi. Oxirgi ishtirokchi tushunganini ochiq aytadi: nok.



1-guruhga "Suv", 2-guruhga "Kitob", 3-guruhga "Quyosh", 4-guruhga "Olma" so'zlari beriladi.



- 4-shart. "Tabiat" krossvordi.
1. O'zi gul, mevasi dori
 2. Yetti rang jilosi
 3. 22 oyda tug'iladigan hayvon
 4. Cho'l kemasi

1					T			
	2				A			
					B			
		3			I			
					A			
				4	T			

1	N	A	'	M	A	T	A	K	
	2	K	A	M	A	L	A	K	
						B			
			3	F	I	L			
						A			
				4	T	U	Y	A	

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda o'quvchilarni yosh xususiyatlari qiziqishlari inobatga olingan holda o'yin, musobaqa tarzida tashkil etilishi, o'quvchini olgan bilim, ko'nikma va malakalarini kompetensiyaga aylanishiga olib keladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi T-2008-yil
2. Nuriddinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma. T-2005-yil.
3. Olam va odam ensiklopediya T-2008 yil

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DARS AMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLAR O'RNINI

Yakubova Lola Turgunovna

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 6-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada interfaol metodlar tasnifi va ulardan o'qish savodxonligi darslarida foydalanish yo'nalishlari: "Kichik guruhlarda ishlash", "Muammoli vaziyat" metodlari asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, interfaol metodlar, hamkorlik, samaradorlik.

Interfaol metodlar bu — o'quvchi va o'qituvchi hamda o'quvchilararo o'zaro birgalikdagi harakatdir. «Interfaol» ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, «interact» so'zidan olingan. «Inter» bu-o'zaro, «act»-harakatdir. Interfaol metodlarda o'qitish o'quvchilardan yuqori faollikni, olingan ma'lumotlarni to'la anglashda ijodiy yondashuv talab etadi. Interfaol o'qitishning asosiy mezonlari bu - norasmiy munozaralarni o'tkazish, o'quv materiallarini erkin ifodalash, ma'ruzalar sonini kamaytirish, o'quvchilarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy izlanuvchanlik talab qiladigan guruhviy vazifalar va yozma ishlarni bajarishdir.

Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interaktiv-interfaol usuldagi dars "noan'anaviy dars" o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish, ko'nikmasini shakllantirish demakdir. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi.

Quyida o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlardan namunalar keltiramiz:

"KICHIK GURUHLARDA ISHLASH" METODI - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rovida bo'lishga, birbiridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Masalan: "Kitobim va boylik" mavzusida hikoyalar tuzdiriladi.

"Muammoli vaziyat" metodi – o'quvchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta'lim jarayonida "Muammoli vaziyat" metodi qo'llanilganda o'quvchilarning faoliyatlari quyidagi tizim asosida tashkil etiladi:

1. Muammoli vaziyat
2. Yechimning usul va vositalarini tanlash
3. Yangi muammolarni bashoratlash
4. Loyihaning taqdimoti va himoyasi
5. Axborotlarni izlash
6. Harakatlarni rejalashtirish

Muammoli vaziyat muammoli ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitish shakli sanaladi. Masalan: "Vatan yoshlari" mavzusida muammoli vaziyatlar yaratilib, siz uning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz? kabi savollar beriladi.

"Dum-dumaloq qo'ng'iz" mavzusi yuzasidan "Akvarium" metodi asosida uy vazifasi so'raladi, ya'ni o'quvchilar sinf bo'ylab aylana hosil qilib turadilar.

“Akvarium” va “Baliq” deb ketma-ketlikda ikki guruh hosil bo‘ladi. “Baliq” guruhi bir qadam oldinga chiqadi. “Dum-dumaloq qo‘ng‘iz” mavzusiga oid so‘z, gap, muallif, qahramonlar kichik voqelikni bir daqiqa ichida aytishlari so‘raladi, vaqt o‘tgach, “Akvarium” guruhi bir daqiqa ichida birinchi guruh tomonidan aytilmaganlarni aytishlari lozim bo‘ladi. O‘qituvchi xulosalaydi.

Interfaol metodlardan amalda foydalanishda quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

- o‘quvchi o‘zi o‘rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o‘rgata olmaydi;

- o‘qituvchi o‘quvchilarga bilimlarni “kashf qilishga” yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi ya‘ni yapon xalq maqoli misolida olsak, o‘qituvchi baliq tutib bermaydi, baliki unga baliq tutishni o‘rgatadi;

- bilim borliqdan ko‘chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi kabilar.

Xulosa shundaki, interfaol metodlar asosida o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirib oladilar, 80-90% samaradorlikka erishiladi. Bu usulning qoidasi “O‘zim ishlashimga imkon ber, shunda u bir umr meniki bo‘lib qoladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J. G‘. Yo‘ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T- O‘qituvchi, 2004.

2. R.J. Ishmuhamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T- 2006.

SINFDAN TASHQARI O‘QISHNING AHAMIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

Shomurodova Dildora

Sayxunobod tumani 36- umumta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘llari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, axloqiy-estetik tarbiya, milliy urf-odatlar, qadriyatlar.

Boshlang‘ich maktab yoshida o‘quvchilarda e‘tibor, xotira, tasavvur va fikrlash kabi shaxsiy fazilatlar jadal rivojlanadi. Shu sababli hayotning barcha sohalarida kerak bo‘ladigan algoritmik fikrlash, mustaqil vazifani belgilash, samarali vositalarni tanlash, adabiyot bilan ishlash, qobiliyatini baholash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, jamoada ishlash kabi qobiliyatlar boshlang‘ich ta‘limdayoq shakllangan bo‘lishi lozim.

Ta'limdagi innovatsiyalarni yaratish, tajriba ortirish va almashish jarayoni bugungi kun pedagogining oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adaboyoti va xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalarini bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashdan iboratdir.

Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'limga ajratiladi.

1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra

1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinfdan tashqari o'qish va qiroatxonlik savodlari 1-sinfda haftada 1 marta savod o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ijobiy tamonlarni o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni o'rganishdan iboratdir.

Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiradi. Ularda bilimga havas uyg'otadi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darslari o'tkaziladi. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarini o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya qiladi.

3-va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlardan, ularning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasiga kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda ish olib boradilar. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar

mustaqil ravishda va izchil oqib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, boglanishli nutqni o'stirishga, adabiy-estetik tafakkurlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy o'braslarning go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchilarga jonajon o'lka, tabiyatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, bolalarning o'yinlarini tushunishga o'rgatadi.

Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari, barcha orzu istaklari yillar davomida yaratilgan ertaklarida saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodlarda ildizlarida ko'rishni istaydilar.. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiylaydigan vatanparvar badiiy quroldir. "Uch og'ayni botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Egri va To'g'ri" kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashni kerakligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushinib yetadilar.

"Ur to'qmoq" ertagining bola xarakterining shakllanishida alohida o'rni bor: ertak yaxshiga-yaxshi, yomonga-yomon bo'lish kerak degan muhim qoidani o'rtaga tashlaydi. Haqiqatdan ham xalqimizning "Qaynar xumcha", "Ochil dasturxon"larini zo'rovonlik bilan tortib oladigan shaxslarga nisbatan "Ur to'qmoq"larni ishlatish zarurligini uqtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ertak o'qigan bolalar qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladilar. O'quvchilar yer yuzidagi barcha insonlarning bir bo'lagi sifatida, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak desalargina o'z xalqini munosib farzandlari bo'la oladilar

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

5. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 2020-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli Farmoni. 2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur.
7. Boshlang'ich ta'lim jurnallari. 2023-yil.
8. Tursunova Dildora. "Tez o'qish texnikasini o'rgatishning boshlang'ich metodikasi metodik qo'llanma. – Farg'ona – 2022.

MANTIQUIY MASHQLAR ORQALI O'QUVCHILAR BILIMINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Maxkamova Ra'no Abduazimovna

Sirdaryo viloyat Xovos tumani 9-IDUMning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning fikrlash qobiliyati, mantiqiy tafakkur va o'quvchilar ongini o'stirishda mantiqiy mashqlarning o'rni, darslar jarayonida mantiqiy topshiriqlardan foydalanish yo'llari va uning samarasi, xalqaro tadqiqotlarda mantiqiy mashqlarning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: dolzarb vazifalar, tafakkur, mantiqiy mashg'ulot, rivojlanish, atrof muhit, narsalar.

*Aql tarozusida tortib ko'rilmagan har qanday bilim
asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim.*

Abu Ali Ibn Sino

Jamiyat rivojining hozirgi darajasi va turli manbalardan ma'lumotlarni tarqalishi, boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarga hodisalarni mohiyati va sabablarini ochib berishni, ularni tushuntirishni talab qilmoqda. O'qituvchi o'quvchiga nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni berishi, balki ularni hayotda qo'llashga o'rgatishi kerak.

XXI asrga xos ehtiyojlarga ko'ra, o'quvchida shakllanishi zarur bo'lgan ko'nikmalardan kelib chiqib, har bir fan oldiga aniq maqsad qo'yildi. Misol uchun, o'quvchida ona tili fani orqali og'zaki va yozma muloqot, matematika orqali mantiqiy fikrlash va muammolarga yechim topish, tabiiy fanlarni o'qib tadqiqotchilik ko'nikmasi rivojlanishi, tasviriy san'atda ijodiy fikrlash va tasavvurini vizual aks ettirish ko'nikmasini shakllantirish zarurligi belgilangan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy imkoniyatlari haqidagi muammolar turli davrlarda turlicha hal etilgan. Qator zamonaviy tadqiqotlar natijasida bolaning aqliy imkoniyatlari ilgari taxmin qilinganidan kengroq ekanligi aniqlandi, ya'ni ta'limni maxsus tashkil etilishi asosida boshlang'ich sinf o'quvchisi abstrakt, nazariy materialni o'zlashtirishi mumkin.

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, keng lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi. Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiyini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi. Misol uchun matematikadan quyidagi mantiqiy masalani ko'rib chiqaylik. Masalaning shartida qonuniyatni aniqlab, noma'lumni topamiz deyilgan.



Bu misollar orqali o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirib ularni izlanishga harakat qildiramiz, demak masalamizni quyidagicha yechamiz.

Yechim:


1) $6 \times 7 = 42$ $4/2$

2) $9 \times 9 = 81$ $8/1$

3) $3 \times 5 = 15$ $1/5$

4) $6 \times 2 = 12$ $1/2$

Qonuniyatni aniqlab, noma'lumni topamiz.



Yechim:

Tomonlarining yig'indisini hisoblab yoziladi:

$5+2+3=10$; $5+4+1=10$; $1+6+3=10$

Qolganlari ham shu tartibda davom etadi.

$3+5+1=9$ $1+6+2=9$ $3+4+2=9$ soroq o'rniga 9 qo'yiladi

$2+3+6=11$ $6+1+4=11$ $4+5+2=11$ $?=11$

$6+2+4=12$ $4+3+5=12$ $6+1+6=12$ $?=12$

Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning keng miqyosda mulohaza yuritish va mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish ko'nikmalari to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu bois, birinchi sinf ona tili darslarida o'quvchilarda asosan mashq ustida ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning tafakkur doirasini, og'zaki va yozma nutqini va mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Dars jarayonida o'quvchilar e'tiborini jalb etish uchun ijodiy topshiriqlarni berish lozim.

Misol uchun ona tili va o'qish savodxonligi fanidan va o'quvchilar bilimini mustahkamlashda quyidagi mantiqiy mashqlardan foydalanish ham ularning fikrlash doirasini kengayishiga va mavzuni mustahkamlashiga sabab bo'ladi.

Bo'g'irsoq.

U og'ir tanazul vaqtida dunyoga keldi. Yo'qchilik tufayli oilasini erta tark etishga to'g'ri keldi. Tirik qolish uchun u konsert qo'yib, qo'shiq kuylab kun kechira boshladi. So'ngi konserti u uchun fojiali yakun topdi.

Bosh qahramon va uning qotilini toping? (Bo'g'irsoq)

Bu mantiqiy topishmoqni o'quvchi topishga harakat qiladi. Har bir gapni mazmuni, so'zlarga e'tibor berish orqali topshiriq bajariladi.

1. Narsalarni mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (*ko'ylak, kostyum, . . .*) va oyoq kiyimlar (*botinka, tufla, . . .*); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «*Bu nima?*» so'rog'iga javob berishga o'rgatiladi: *Bunima? -Avtobus.Avtobusnima?-Mashina.*

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko'rsatish va umumlashtiruvchi bir so'z bilan nomlash. Masalan, *stol, stul, shkaflarni* bir so'z bilan qanday nomlash mumkin? (*Мебель*)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish.

Masalan, *qalam, pero, chizg'ich, o'chirg'ich, stul* ko'rsatiladi, o'quvchilar o'quv qurollarini ajratadilar, *stul* o'quv quroliga kirmasligini, *mebel* ekanini aytadilar. Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha.*

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so'zlar *choynak, tasha, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi. O'quvchilar guruhlab, *idishlar nomi: choynak, piyola, . . . ; ish qurollari nomi: tasha, bolta, . . .* kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so'zlar ham aralash beriladi, bolalar to'rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo'yish bilan umumlashtirish: *qaldirg'och, chumchuq, bulbul* – qushlar, *tovuq, xo'roz, kurkalar-chi?* (*Parrandalar.*)

Ushbu topshiriq ham o'quvchilarni o'ylantirishga, fikrlashga undaydi, yana darsga bo'lgan faolligini oshirishga olib keladi. Bunday topshiriqlarni mavzularga moslab, fanimizga moslab ham tayyorlab borsak bo'ladi deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, keng lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi. Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuxamedov R. v.b. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste'dod”, 2008. – 180 b.
2. Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh.. Ona tili o'qitish metodikasi. - T.: “Nosir” nashriyoti, 2009.
3. Vygotskiy, L.S.Fikrlash va nutq / L.S. Vygotskiy - M: AST, 2005 yil.
4. Galperin P. Ya.Maktab o'quvchilarida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish muammolari va maktabda o'qitishning yangi usullari / Galperin P. Ya., Zaporozhets NV, Elkonin D.B. - M.: Ta'lim., 1963.

XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TASHKILY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Isayeva G.P.

Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

isayevaguli06@gmail.com

Mahramqulova.N.

Guliston davlat pedagogika institute II-kurs talabasi

Umumiy o'rta ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va tushunish darajasini oshirish, o'z bilimni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrini bildira olishi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni hamda ta'lim sifatini baholovchi xalqaro dasturlar mezonini hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida axloqan pok, jismonan baqquvat, manaviy yuksak ijodkor, kreativ yondoshubchi, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifalari amalga oshirish muhim. Bu, o'z o'rnida, ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Mukammal va xalqaro standartlarga raqobatbardosh ta'lim tizimi davlatimizning kelajakdagi intellektual rivojlanishini belgilab beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'quv-bilish darajasi, tushunish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini PIRLS baholash dasturi talablari asosida shakllantirishda quyidagi jihatlarni e'tiborga olish lozim:

- boshlang'ich sinf o'quvchilar diqqatini o'rganilayotgan masalani tahlil qilishda qo'llanilgan metodning aniq, tushunarli, keng qamrovli hamda o'quvchi tomonidan mustaqil qo'llay olishi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni dars maqsadi deya baholamaslik, balki darsda qo'yilgan maqsad va vazifalarni yanada samarali hal qilishga hamda o'quvchi qobiliyatini ochib beradigan imkoniyat deb qarash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilar umumiy va yakka tartibda ham mustaqil xulosa chiqaradigan, yangi vaziyatlarda o'quvchini ijodkorlikka undovchi topshiriqlar berishga darslarning asosiy mahsuli sifatida qarash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi axborotlar bilan ishlash, yig'ish, tanishish, tahlil va talqin qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishning muhim jihati sifatida qaralishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLS baholash dasturida o'quv-bilish, tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirish strategiyalarini isloh qilish hamda uni amalga oshirish mexanizm va bosqichlarini loyihalashtirishni nazariy-ilmiy-amaliy jihatdan asoslash muhim hisoblanadi. Bu davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanish darajasi bilan o'quvchilarda o'quv-bilish jarayoni bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonlari sub'yektlari (o'quvchi va o'qituvchilar)ning shaxsiy

xislatlari va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi va ilmiy, uslubiy ta'minot o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish bilan bog'liq.

Globalashuv jarayonlari nafaqat jamiyatga, balki yoshlarga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bugun zamonaviy bilimlar va ma'lumotlarni o'zlashtirmagan o'quvchi raqobatbardosh mutaxassis bo'lishi mushkul. Shu o'rinda zamonaviy bilimlar va ma'lumotlarni o'zlashtirgan o'quvchi – kelajagini belgilaydi va jamiyatda o'z o'rnini torishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim tizimiga mos keladigan xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olish, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Bular quyidagilar:

aniqlash – berilgan matndagi izlash, tushunmagan joylarini so'rash, o'qituvchidan maslahat olish, bilimlarini boyitish, mavzuga oid o'z fikrlarini boyitish;

topish – matnda berilgan o'tmishdagi va hozirgi hodisalar, eski va yangi ma'lumotlar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish asosida topish, u yoki bu fikrlarga tanqidiy yondashish, ishonchsizlik va murakkablikka qarama-qarshi tura olish, bahsli jarayonlarda o'z o'rnini egallash hamda o'zining mustaqil va shaxsiy fikriga ega bo'lish;

hamkorlik – kichik va katta guruhda tanish va notanish vaziyatlarda ishlay olish, mavzuni o'rganilayotganda aniq mustaqil yechim qabul qila olish, kelishmovchiliklarni ijobiy hal etish, o'z mas'uliyatini, majburiyatini anglash, yodda tutish va bajarish;

jarayonni boshqarish – matnda asosiylarini, o'ziga keragini toppish, aniqlashga kirishish, javobgarlik va mas'uliyatni his qilish, guruh yoki jamoaga kirishimli bo'lish, jamoani samarali natijaga olib chiqishda o'z hissasini qo'shish, o'z ishini tashkil etish va boshqarish;

moslashish – berilgan matnda eng keraklisini ajratib aniqlashda va izlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, qiyinchiliklarni yengish, yangi yechimlarni topish.

Ilmiy izlanishlar jarayo'nida xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarining tushunchalarini tahlil qilish natijasida boshlang'ich ta'lim tizimiga mos keladigan vazifalar berilishi kerakligini kiritish. Berilgan matnlarga aniqlik kiritiladi, tushunmagan joylarini so'raydi, o'qituvchidan maslahat oladi, bilimlarini boyitadi, o'z fikrlarini ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida izlash, o'ylash, jarayonni boshqarish, moslashish orqali bilimlar hosil bo'ladi, ko'nikma malakalari shakllanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari matndagi eng muhim, eng keraklisini aniqlash va o'rganish, matndagi eng keraklisini aniqlashga erishish bo'yicha maqsadni qo'yish va rejalashtirishni o'rganish;

- eng keraklisini topishni o'rganish;

- topshiriqni jamoada ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish, o'z qarashlarini aytish;

- umumiy natijaga erishish uchun o'z hissasini qo'shish;

- topshiriqni aniqlashda o'ziga javobgarlikni olish;
- mustaqil ijodiy ishlar ko'nikmasini singdirish;
- to'g'ri xulosalar chiqarish;
- g'oyalar va ma'lumotlarni sharhlash va birlashtirish;
- bilim va ko'nikmalarni real vaziyatlarda qo'llashni o'rganish;
- o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini singdirish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

PIRLS baholash dasturi o'quvchining tayanch bilimlari asosi bo'lgan o'quv-bilish darajalarini baholab, solishtirib boradi. O'quv-bilish darajasi bevosita o'qish ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning kitob o'qish va uni tushunish malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

PIRLS baholash dasturi bo'yicha topshiriqlar yaratish, butun dunyo o'quvchilari qiziqishi va qobiliyatlarini tahlil qilish natijasida o'quvchilarning umumiy yoshi, umumiy saviyasi va umumiy qiziqishlaridan kelib chiqib o'qish va tushunish darajasini baholash bo'yicha matnlar tanlanadi, topshiriqlar ishlab chiqilishi natijasida nostandartlik, xilma-xillik, takrorlanmas voqealarga munosabat bildirish natijasida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Butun dunyo ta'lim tizimining PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim mazmunini belgilashi ta'limda yangicha yondashuvlar, o'sish, o'zgarish, yangilanish jarayonlarini paydo qilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish, tushunish, anglash, fikrlash, kreativ yondoshuvdan tashqari, matndan gap bo'laklarini topishga orgatilsa, oquvchilarda yanada bilim, ko'nikma va malakalari takomillashib boradi.

PIRLS baholash dasturi o'qish maqsadlari va tushunish jarayonlarida o'quvchi ishtirokini o'rganadi. Biroq, ular bir-birlaridan yoki o'quvchilar yashaydigan va o'rganadigan matnlardan ajratilgan holda tahlil etilmaydi. O'qish savodxonligi insoniyatning qiziqishlari, ehtiyojlari va o'qish sabablari bilan bevosita bog'liq. Umumiy holda, bu sabablar shaxsiy qiziqish va zavq uchun o'qish, jamiyatda ishtirok etish uchun o'qish va bilim olish uchun o'qish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Yosh kitobxonlar uchun bu jihatlari muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

BOSHLANG'ICH SINFDA DIDAKTIK O'YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI.

Saydullayeva Mavluda Abdulla qizi

Sirdaryo viloyat Xovos tuman 24- ning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annnotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tish jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati, foydalanish yo'llari va didaktik o'yinlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, boshlang'ich sinf, maktab, xotira, aqliy faoliyat, bilim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida har bir o'quvchining darslarda faol qatnashishini ta'minlovchi mashg'ulot shakllari alohida o'rinni egallaydi. Bu masalalarni ta'limning o'yinli shakllari texnologiyasi orqali muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. O'yin tashqi tomondan tashvishsiz va yengil ko'rinadi. Aslida esa, u o'yinchidan yuqori darajada energiya sarflashni, fikrlashni, o'zini tuta bilishni, mustaqil harakat qila olishni talab qiladi. Didaktik o'yinlar – bu atamani bevosita o'yinlarga nisbatan ishlatish mumkin, chunki u maqsadli ravishda didaktikaning bir turiga kiradi Didaktik o'yinlardan bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, nutq o'stirish, tabiat bilan tanishtirish va ekologik ta'lim jarayonini tashkil etishda keng foydalaniladi.

Odatda, o'quvchining yangi mavzuni o'zlashtirib olishi uchun turli amaliy mashqlarga murojaat qilinadi. Ammo o'yin shaklida o'tkaziladigan mashqlar bolalarning diqqatini ko'proq jalb qilishi, qiziqtirishi bilan ajralib turadi.

Didaktik o'yinlarda bolalar takrorlash lozim bo'lgan so'z yoki harakatni osonlik bilan o'zlashtirib oladilar.

Didaktik o'yinning boshqa o'yin turlaridan farqi shundaki, undan boshlang'ich va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Bola o'yin jarayonida bilim oladi, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi. Didaktik o'yin o'z ichiga, asosan, quyidagi to'rt omilni qamrab oladi:

- o'yinning vazifasi;
- harakati;
- qoidasi;
- yakuni.

1. Har bir didaktik o'yinda ma'lum maqsadga qaratilgan vazifa qo'yiladi. Bu vazifa bolalarga bilim va ma'lumot berishni nazarda tutadi.

Didaktik o'yinda boladan ma'lum vazifani bajarish talab qilingani bois, o'yin davomida u o'zining fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, oldingi olgan bilimlarini eslashga harakat qiladi.

Bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlar ularda aniq bilimga, narsa va buyumlarga qiziqish uyg'otishi, diqqatini jalb qila olishi lozim. Agar o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifa ularning tushunchasiga mos bo'lmay,

bolalarni qiynab qo'ysa, o'yin o'z qimmatini yo'qotadi. Chunki o'quvchi qiziqmagach, vazifa bajarilmaydi va kutilgan natijaga erishilmaydi.

Maktab ostonasida ilk qadam qo'yan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin orqali bola atrof—muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Men o'z darslarimda o'quvchilarni fanni yaxshi bilishlari uchun yoki mavzularni yaxshi o'zlashtirishlari uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishga harakat qilaman. Misol uchun quyidagicha bo'lish mumkin. O'quvchilar bu o'yinlar orqali kreativ fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirib boraman.



Ushbu rasmdan foydalanib o'quvchi asarini nomini topishi kerak. Rasmda nimalar tasvirlanganligi, asar nomini topishda qaysi elementlariga e'tibor qilishi kerakligini, hamda e'tiborli bo'lish talab qilinadi.

Demak bular adiblarimiz Mirmuhsinnig "Ildizlar va yaproqlar" hamda Said Ahmadning "Jimjitlik" asarlari ekanligini aytish mumkin.

Shunga asosan boshlang'ich sinflarda ham darslikdagi mavzularga tayanib mantiqiy didaktik o'yinlar tashkil etsak bo'ladi.

Eski boshlang'ich sinf darsliklarida quyidagicha mavzular bor edi. O'quvchilar bu rasmlarga qarab mavzular nomlarini aytishlari kerak. Misol uchun 15-rasmni bola ko'rib Ulug'bek Hamdamning "Ko'prik ustidagi do'st", 17-rasmni ko'rib Mirzakolon Ismoilining "Bobongiz hafa bo'lsalar maylimi", 19-rasmni ko'rib "Qizcha va qarg'a", 20-rasmni ko'rib "Xo'roz nega uchmaydi"

12-rasmni ko'rib "Salomlashish odobi" kabi mavzular ekanligini topishlari kerak.



Bu didaktik o'yin orqali o'quvchilarning bilimi mustahkamlash bilan bir qatorda ularning zehni oshib boradi.

Yoki matematika darslarda ham turli mantiqiy topishmoqlar bilan qiziqtirishimiz mumkin. Masalan:

*Dars o'tilar o'rmonda,
Qatnashmagan armonda.
Chinor osti pakkidir.
Muallimi Hakkadir.
Arifmetik to'rt amal,
O'rgatilar galma-gal.
Yoki,
Kelishardi izlab buloq,
Bir echki-yu ikki uloq.
Ularda bor necha quloq,
Qancha oyoq hamda tuyoq.*

Kabi bo'lishi mumkin. Bunday she'riy topishmoqlar o'quvchilarni diqqatini jamlashga, zehnini oshirishga, xotirasini mustahkamlashga olib keladi.

Eng yaxshi didaktik o'yinlar mustaqil ta'lim olish prinsipida tuzilgan, ya'ni shunday tuzilganki, ularning o'zi o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga qarab yo'naltiradi.

Maqolamizni chex pedagoginin fikrlari bilan yakunlasak. Ya.A. Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini ta'kidlaydi.

Shunday qilib didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik

o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha o'quvchilar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar deb aytishimiz mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

Usmonova D.S. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'yinlardan foydalanishning ahamiyati. Mahoratli pedagog jurnali. 2022-yil, 1-son.

M.E.Jumayev, N.T.Axmedova B.S.Abd ullaeva, IN.II.AsJonova boshlang'ich sinklar uchun matematikadan didaktik materiallar

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNAVOTSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI.

Axmedova Zaxroxon Xamzayevna

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni kiritish orqali boshlang'ich sinflarda ta'lim tizimini rivojlantirish usullari ko'rib chiqilgan. U mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi, amalga oshirishning turli usullarini taqdim etadi, ushbu usullarning natijalarini muhokama qiladi va boshlang'ich ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, innovatsion texnologiyalar, ta'lim tizimi, takomillashtirish, usullar, natijalar, munozara, takliflar.

Аннотация. В данной статье рассмотрены пути развития системы образования в начальных классах путем внедрения инновационных технологий. Он анализирует существующую литературу, представляет различные методы реализации, обсуждает результаты этих методов и завершает предложениями по дальнейшему совершенствованию системы начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, инновационные технологии, система образования, совершенствование, методы, результаты, обсуждение, предложения.

Annotation. This article examines the methods of developing the educational system in the elementary grades through the introduction of innovative technologies. It analyzes the available literature, provides various methods of implementation, discusses the results of these methods and concludes with proposals for further improvement of the system of primary education.

Keywords: primary education, innovative technologies, educational system, improvement, methods, results, discussion, proposals.

Boshlang'ich ta'lim talabaning akademik sayohatining asosidir va kuchli bazani ta'minlash juda muhimdir. Bugungi raqamli asrda sinfga innovatsion texnologiyalarni kiritish o'quv tajribasini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limni innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish usullari va ularning ta'lim tizimiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Bir nechta tadqiqotlar boshlang'ich ta'limga innovatsion texnologiyalarni kiritishning ijobiy ta'sirini ta'kidlaydi. Texnologiyalarga asoslangan o'quv qo'llanmalari, interaktiv ta'lim dasturlari va elektron ta'lim platformalari talabalarning faolligini, motivatsiyasini va bilimlarni saqlashni oshirishi aniqlandi. Bundan tashqari, ushbu vositalar talabalarning shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan shaxsiy o'quv tajribalarini taklif etadi.

Innovatsion texnologiyalar orqali boshlang'ich sinflarda ta'lim tizimini rivojlantirishni takomillashtirish o'quv natijalarini oshirish va o'quvchilarni XXI asr muammolariga tayyorlash uchun hal qiluvchi qadamdir. Bunga erishishning ba'zi usullari:

- 1:1 qurilma dasturlari: talabalarga noutbuk yoki planshet kabi individual qurilmalarni taqdim eting va ularning internetga kirishini ta'minlang. Bu shaxsiylashtirilgan o'rganish va raqamli manbalarga kirish imkonini beradi.

- Interfaol ta'lim platformalari: turli xil ta'lim mazmunini, shu jumladan videolar, simulyatsiyalar va interaktiv mashqlarni taklif qiluvchi interaktiv onlayn ta'lim platformalarini amalga oshirish. Khan Academy, Scratch va kabi platformalar Code.org juda samarali bo'lishi mumkin.

- Aralash ta'lim: an'anaviy o'qitish usullarini onlayn resurslar bilan birlashtirish. Bu o'qituvchilarga ko'proq shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasini taqdim etish imkonini beradi va talabalarga o'z tezligida o'rganishga yordam beradi.

- Adaptiv ta'lim tizimlari: har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va taraqqiyotiga mos keluvchi adaptiv ta'lim dasturlarini amalga oshirish. Ushbu tizimlar talabalar ko'proq yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlashi va shunga mos ravishda qo'shimcha resurslarni taqdim etishi mumkin.

- Virtual haqiqat (VR) va Kengaytirilgan haqiqat (AR): immersiv o'rganish tajribalarini yaratish uchun VR va AR dan foydalaning. Ushbu texnologiyalar talabalarni turli joylarga va davrlarga olib borishi yoki ularga murakkab tushunchalar haqidagi tushunchalarini oshirib, 3D ob'ektlarni boshqarishga imkon berishi mumkin.

- Sun'iy aql (AI): bir zumda hisobot berish mumkin AI-quvvatlanadi ta'lim vositalari amalga oshirish, individual talaba ehtiyojlariga moslashtirish, va samarali darslik boshqarish o'qituvchilar yordam.

- Onlayn baholash vositalari: talabalarning rivojlanishini kuzatish va ko'rsatmalarni mos ravishda sozlash uchun onlayn baholash vositalaridan foydalaning. Ushbu vositalar, shuningdek, o'qituvchilar uchun talabalar ko'proq qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan joylarni aniqlash uchun ma'lumotlarga asoslangan tushunchalarni taqdim etishi mumkin.

- Malaka oshirish: o'qituvchilarga ushbu innovatsion texnologiyalardan sinfda samarali foydalanishda malakali bo'lishlarini ta'minlash uchun o'qitish va qo'llab-quvvatlashni taklif eting.
- Ota-onalarni jalb qilish: ota-onalarni ta'lim texnologiyasi haqida xabardor qilib turing va ularni farzandini o'rganishga jalb qiling. Bu talabalar uchun kuchli qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishi mumkin.
- Hamkorlik va aloqa vositalari: talabalar va talabalar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantiradigan raqamli platformalar va vositalardan foydalaning. Bu jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rag'batlantirishi mumkin.
- Internet xavfsizligi va raqamli savodxonlik bo'yicha ta'lim: talabalarga Internet xavfsizligi, texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanish va raqamli savodxonlikni o'rgatish, ularga onlayn dunyoda xavfsiz va samarali harakat qilishlariga yordam berish.
- Ochiq ta'lim resurslari (OER): xarajatlarni kamaytirish va yuqori sifatli resurslarga kirishni oshirish uchun erkin mavjud bo'lgan o'quv materiallari bo'lgan OERDAN foydalaning.
- Data Analytics: talabalar faoliyatini kuzatish va tahlil qilish va o'qitish strategiyalarini mos ravishda sozlash uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalaning.
- Global aloqalar: talabalarni dunyodagi tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga undash, global nuqtai nazar va madaniy tushunishni rivojlantirish.
- Bug ' ta'limi: ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) ta'limini ta'kidlang, har tomonlama ko'nikmalarni rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga oladi.
- Loyihaga asoslangan ta'lim: o'quvchilarga o'z bilimlari va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini Real stsenariylarga tatbiq etish imkonini beruvchi loyihaviy ta'lim yondashuvlarini amalga oshirish.
- O'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqasi: texnologiya o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'sirini to'liq almashtirishdan ko'ra uni yaxshilashga ishonch hosil qiling. Texnologiya o'qituvchilar uchun ko'proq shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatish vositasi bo'lishi kerak.

Ushbu usullarni tatbiq etish va ularning samaradorligini doimiy ravishda baholash orqali boshlang'ich sinflarda ta'lim tizimini innovatsion texnologiyalarni birlashtirish orqali takomillashtirish, o'quvchilarga yanada qiziqarli va samarali o'quv tajribasini taqdim etish mumkin.

Innovatsion texnologiyalar boshlang'ich ta'limga katta foyda keltirgan bo'lsa-da, muammolarni hal qilish kerak. Etarli infratuzilma, o'qituvchilar uchun treninglar va talabalarning ekran vaqtini kuzatish muhim masalalardir. Bundan tashqari, barcha talabalar ushbu texnologiyalarga teng kirish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun raqamli bo'linishni ko'paytirish kerak.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limga innovatsion texnologiyalarni kiritish o'quv tajribasini inqilob qilib, uni yanada qiziqarli, interaktiv va individual ehtiyojlarga moslashtirishi mumkin. Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagilar juda muhimdir:

- Infratuzilmaga sarmoya kiriting: maktablarda innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur apparat va dasturiy ta'minotga ega bo'lishini ta'minlash.

- O'qituvchilar malakasini oshirish: o'qituvchilarni ushbu texnologiyalardan sinfda samarali foydalanish uchun ko'nikma va bilimlar bilan jihozlash.

- Ekran vaqtini kuzatib boring: talabalar uchun ortiqcha ekran vaqtini oldini olish va raqamli va jismoniy ta'lim o'rtasida sog'lom muvozanatni ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalarni bajaring.

- Raqamli bo'linishni bartaraf etish: ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha talabalar ushbu texnologiyalardan foydalanishlari uchun harakat qiling.

Ushbu qadamlarni qo'yish orqali biz talabalarni texnologiya ularning hayotining ajralmas qismi bo'lgan kelajakka tayyorlaydigan mustahkam boshlang'ich ta'lim tizimini yaratishimiz mumkin. Bu nafaqat individual talabalarga foyda keltiradi, balki bilimli va texnologik jihatdan malakali ishchi kuchi orqali jamiyatimizning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar.

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)– Qarshi: 2011.
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006
3. Babayeva D. Nutq o'qitish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
4. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
5. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod2010.
6. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2017, T; Ma'naviyat.
8. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006.
9. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001.

O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

D.B.Jonibekov

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, Sirdaryo viloyati
pedagoglarni yangi metodikalarga tayyorlash milliy markazi o'qituvchisi.

malakaoshirishdoniyor@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning dars davomidagi baholari va aqliy didaktik o'yinlarning afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan. O'qituvchining pedagogik faoliyatida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, ularni atrof-muhit bilan tanishtirish, bilimga qiziqishlarini rivojlantirish, aqliy faoliyatning muayyan usullarini o'rgatish mumkin.

Kalit so'zlar: dars, aqliy didaktik o'yinlar, baholash, kahoot.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumta'lim maktablariga alohida e'tibor qaratish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. O'qituvchilarning bilim saviyasini oshirish, o'qitish uslub va texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Darslarda noan'anaviylikni joriy etish, o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tibori va qiziqishini oshirish, dars jarayonidagi faolligini oshirish ana shunday tadbirlardan biridir. Eng muhim masalalardan biri bu bir darsda barcha talabalarni baholay olishdir. Bir qarashda ularning barchasini bir vaqtning o'zida, ya'ni 45 daqiqalik dars jarayonida bajarish biroz imkonsizdek tuyulishi mumkin. Lekin buni amalga oshirish mumkin. Barchamizga ma'lumki, bugungi asrda o'qitishning turli uslub va texnologiyalari ishlab chiqilmoqda va ulardan keng foydalanmoqdamiz. Kooperativ ta'lim texnologiyasi, modulli o'qitish texnologiyasi, dizayn texnologiyasi, PISA testlari va topshiriqlari va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Yana bitta muhim texnologiya borki, unga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bu darsda didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyasidir. Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bir qancha afzalliklarga ega. Masalan, birinchi mavzuni takrorlash noan'anaviy bo'lib, dars jarayoniga o'zgacha energiya beradi; ikkinchidan, o'quvchilarning mantiqiy rivojlanishi o'sib boradi, o'quvchilarning erkin fikrlash imkoniyatini beradi, o'qituvchining darsga ijodiy yondoshishi kuchayadi va nihoyat, eng muhim jihatlardan biri o'qituvchiga barcha o'quvchilarni baholash imkoniyatini beradi. Bunday holda, o'qituvchidan bunday imkoniyatni ta'minlaydigan o'yinni tanlash talab qilinadi. Chunki didaktik o'yinlarning ko'p turlari mavjud va ular xilma-xildir. Jamoa bo'lib, yakka tartibda va kichik guruhlarda o'ynaladigan o'yinlar mavjud. Quyida biz sizning e'tiboringizga bir darsda sinfdagi barcha o'quvchilarni baholash imkonini beruvchi bir nechta o'yinlarni taqdim etamiz. Samarqand viloyati To'yloq tumanidagi 21-umumiy ta'lim maktabining 7-8-sinflarida ushbu o'yinlardan foydalanildi va ijobiy natijalarga erishildi. Natijada

o'quvchilarning darsdagi faolligi va fanga bo'lgan qiziqishi ortdi, nazariy bilimlarni tahlil qilish ko'nikmalari, o'zaro sog'lom raqobat shakllandi. Aqliy didaktik o'yinlar yordamida bir vaqtning o'zida sinf o'quvchilarini to'liq baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin va quyida aqliy didaktik o'yinlarga misollar keltiramiz.

O'yin "Ofis dasturlari".

Ushbu o'yin 7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, jadval quyida keltirilgan.

WORD	EXCEL	POWER POINT
Лист	Varoq – dasturning ishchi maydoni	
Слайд		
Страница		
docx	Word dasturining fayl kengaytmasi	
pptx		
xlsx		
ячейка		
анимация	slayd sarlavhasi	
=SUMM(LEFT)		

O'quvchilar ofis dasturlarini jadvaldagi dasturlarga tegishli bo'lgan nomlarning nomi va vazifasi haqida yozishi hamda mos ranglarga bo'yashlari kerak. Masalan, Лист-varoq ofis dasturlaridan Excel dasturiga kiradi va u dasturning ishchi maydoni. Shuning uchun Листning nomi yozilgan quti yashil rangli qalam bilan bo'yalgan va uning yoniga "Varoq – dasturning ishchi maydoni" deb yozilgan.

"Kahoot" o'yini.

Ushbu o'yinning nomi internetda onlayn o'ynaladigan "Kahoot" o'yinidan olingan. O'yinda har bir o'quvchiga yurak, romb, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak (har biri 10 ta) va savollar ko'rinishidagi kartochkalar beriladi. Har bir savolda yuqoridagi shakllardagi kabi javob variantlari mavjud. Javob variantining qaysi shakli to'g'ri bo'lsa, o'quvchilar bo'sh qog'ozga savolning raqamini yozadilar va qog'ozga tegishli shaklni yopishtiradilar. O'yin oxirida shakllarning javoblar bilan mosligi tekshiriladi. Masalan, savollar quyidagicha tuzilishi mumkin:

1. Dasturlash muhit(lari)i to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

 python	 scratch
 C++	 barchasi

2. Elektron jadval dasturi?

 Excel	 Paint
 Word	 Power point

3. Matn muharriri dasturi?

 Excel	 NotePad
 Word	 Power point

4. Matn protsessori dasturi?

 Excel	 NotePad
 Paint	 Word

5. Taqdimot tayyorlovchi dastur?

 Excel	 Power point
 Paint	 Word

"Ortiqchasini toping" o'yini.

Ushbu o'yin 8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, uning har bir qatorida jadval va beshta so'z berilgan. Bu so'zlar orasida qolgan to'rtta so'zga mos kelmaydigan bitta qo'shimcha so'z bor. Talabalar bu ortiqcha so'zni topib, o'sha qutining ichki qismini rangli qalam bilan bo'yashlari kerak.

MONITOR	MS WORD	POTPLAYER	PAINT	WINDOWS
WORD	PAINT	ACCESS	POWER POINT	EXCEL
ANDROID	MAC OS	SAMSUNG	WINDOWS	LINUX
TELEGRAM	WHATSAPP	FACEBOOK	YOUTUBE	GMAIL
GOOGLE	FIREFOX	SAFARI	BRANDMAUER	YANDEX
PRINTER	FLASH DISK	KLAVIATURA	WEB KAMERA	VIDEO PROYEKTOR

"Mos so'zlarni tanlang" o'yini.

O'yinning sharti quyidagicha. O'qituvchi har bir o'quvchiga matnli qog'oz va so'zlar yozilgan qog'oz tarqatadi. Matndagi ba'zi so'zlar olib tashlangan. O'quvchilar matnning bo'sh joylarini qog'ozga yozilgan so'zlar yordamida to'ldiradilar, ya'ni qog'ozga tegishli so'zlarni matn ichida to'g'ri joylashtirishlari kerak. Masalan, quyidagicha:

... – har xil ko'rinishdagi oddiy va murakkab matnlarni taxrirlashga mo'ljallangan matn muharriri. Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Writer, LibreOffice ... , StarOffice Writer, KWord, NeoOffice Writer, Corel WordPerfect, Apple Pages (bu faqat Mac OS tizimida) va AbiWord.

Microsoft Excel — har ko'rinishdagi ... ma'lumotlar bilan ishlashga mo'ljallangan elektron jadvalli dastur. Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Calc, LibreOffice ... , KSpread, StarOffice, Gnumeric, Corel Quattro Pro va Apple Numbers (bu faqat Mac OS tizimida).

Microsoft PowerPoint — ma'lumotlarni taqdimot, ... qilishga mo'ljallangan taqdimot dasturi. Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Impress, LibreOffice Impress, KPresenter, Corel WordPerfect va Apple

... – ma'lumotlar ombori (bazasi) bilan ishlashga mo'ljallangan dastur.

O'rni bosuvchi dasturlar: OpenOffice.org ... , LibreOffice Base, Kexi.

Kalitlar: Microsoft Word, Writer, hisob-kitobli, Calc, reklama, Keynote, Microsoft Access, Base.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars jarayonida aqliy didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va yuqoridagi turlar o'qituvchiga barcha o'quvchilar bilan ishlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Antsibor M.M. Active forms and teaching methods// Tula, 2002.-p.5-8.
2. Turakulova M.N., Ruzikulova N.A. The effectiveness of didactic game methods in zoology lessons // Internauka scientific journal, 2023, part 3, -p.37-38
3. Khassanov, F. O., Khuzhanazarov, U., Rakhimova, N., Esankulov, A., & Achilova, N. (2013). Two new species of Iris L.(Iridaceae Juss.) from Uzbekistan. *Stapfia*, 99, 1-3.
4. Khujanazarov, U., Shomurodov, H., Mirkhamidova, P., & Alimova, R. (2021). Current state of Cenopopulations Iris Magnifica Vved and Tulipa Fosteriana W. Irving in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 244, p. 02027). EDP Sciences.
5. Ruziqulova N.A., Bozorova U.B. Umumta'lim maktablarida biologiya fanlarini o'qitishda PISA dasturi testlaridan foydalanishning samaradorligi// "Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari" mavzusidagi III-xalqaro ilmiy-ilmiy-nazariy anjuman materiallari to'plami. Nukus 2022. 271-273 b.
6. Ziyonet.uz

O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA MAQOLLARNING O'RNI

Radjabova Hilola Jurabayevna

Sirdaryo viloyati Boyovut tuman 1-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf nutqini o'stirishning o'ziga xos usullari va undan foydalanish yo'llari, hamda maqollar va bola tarbiyasida, uning nutqini o'stirishdagi o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, ta'lim, ifoda, talaffuz, fikr, og'zaki, yozma, tarbiya.

Ta'lim jarayoni, uning rivojlanishi va samarali kechishi ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim jarayoni davlatimizning ta'lim-tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichidir. Uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzdagi o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan, obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish hamda

boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limning ilk savodga o'rgatish davridanoq, o'quvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, adabiy tilning o'ziga xos xususiyatini belgilash, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni ravon o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish metodlarini takomillashtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur. Albatta o'quvchilarni so'larni ravon va chiroyli talaffuz qilish ularning nutqining rivojlanishiga bog'liq.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi.

Nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq – bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nut vositasida idrok etadi.

Nutqni o'stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlari bog'liq holda uzviy rivojlantiriladi. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo'lib o'qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Bolalarni faollikka o'rgatish uchun ma'nodosh so'zlarni topish o'yinlarini tashkil etish, bunday so'zlarni nutqda o'rinli qo'llashni, gap tuzishda esa so'zlar orasidagi bog'lanishga mos turli o'xshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda o'tkaziladi. Rasmlarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni, gapda so'zlarning tartibga, ularning bir-biriga bog'lanishiga, so'zlar o'rmini almashtirib, gapni qayta tuzib o'qishda izchillikka rioya qilish mashqlarini o'tkazishga e'tibor beriladi.

Ma'lumki, ko'plab maqollardagi yana bir xususiyat ularda so'zlarning qofiyadosh bo'lib kelishidir. Masalan, «Achchiq til-zahri ilon, chuchuk tilga jon

qurbon», «Bemorga shirin soʻz kerak, aqlizga-koʻz». Maqollar ibratli fikrlarni anglatadi. Maqollar oʻquvchi yoshidagi bolalar uchun nutq oʻstirish va teran fikrlash vositasini bajaradi.

Darslarimiz jarayonida oʻquvchilar nutqini rivojlantirishda turli xil maqollarni har-xil formalarga solib oʻrgatib borishga harakat qilamiz, bu oʻquvchilarni faolligini oshirish bilan birga ularni nutq faoliyatini ham rivojlanib borishiga sabab boʻladi. Quyida shu maqollarimdan birini sizlarga koʻrsatib oʻtmoqchimiz.

Maqollarni rebus shaklda ham bersak boʻladi, bunda oʻquvchilarning nutqi rivojlanishi bilan birgalikda ularning zehni ham oshib boradi. Masalan:



kabi maqollardan ham foydalanishimiz mumkin. Bu topshiriqlar orqali ham oʻquvchilar nutqi rivojlanib boradi, ham ularni aqli charxlanib tafakkur doirasi kengayib boradi. Ushbu jarayonni amalga oshirish yana oʻquvchida ogʻzaki va yozma nutqini ham rivojlanishiga sabab boʻladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki maqollar – xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarini ixcham shaklda ifodalovchi asardir. Maqollarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilmparvarlik, insonparvarlik, mardlik, adolat, insof, sof muhabbat, olijanoblik, sadoqat, doʻstlik kabi chin insoniy xislatlar oʻz ifodasini topgan. Bularni orgʻanish orqali oʻquvchilarimizda ham oʻsha chin insoniylik xislatlari shakillanib boradi deb oʻylayman.

Foydalangan adabiyotlar:

1. R. Yoʻldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonov "Taʼlimning interfaol metodlari"
2. O.Madayev. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. Mumtoz soʻz. Toshkent-2010 2.
3. A.Toʻrabekova, N.Nasriddinova. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻqitish metodikasi. Monografiya. Guliston-2021 3. S.S.Avezov, D.Xamrayeva.
4. Maktabgacha taʼlim tashkiloti guruhlarida folklore kichik janrlarini oʻrgatish. Monografiya. Buxoro-2022

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Назарова Мавлуда

Сырдарьинский региональный национальный центр по обучению педагогов новым методикам.

nazarova.mavluda@bk.ru

"Блокчейн, геймификация, ориентированное обучение и оценка электронного портфолио" Эти слова вам о чем-нибудь говорят? Если да, значить Вы идёте в ногу со временем! Если нет - ничего страшного, Вы сейчас об этом всё узнаете.

Давайте с начала разберёмся, что же значит «Блокчейн». Это новейшая технология управления базой данных, в которой невозможно фальсифицировать, удалять или вносить коррективы в данные в одностороннем порядке. Это надёжный источник данных, которому вы можете доверять. Он применяется в финансовой сфере, но может быть очень полезен в сфере образования, так как даст возможность отследить образовательный путь каждого ученика, студента, а также поможет работодателю при отборе потенциального работника выяснить способности и уровень знаний путём проверки успеваемости по предметам, которые нужно подчеркнуть будут прозрачными, достоверными и точными. Иными словами, эта система исключит возможность покупки поддельных дипломов, искоренит взяточничество и пути использования служебного положения в корыстных целях, что безусловно приведёт к процветанию и развитию страны в целом.

Применение технологии «Блокчейн» как никогда актуальна на сегодняшний день, так как именно сейчас в нашей стране ведётся активная работа по улучшению образовательной структуры, усилились меры по отбору педагогических кадров, повышения их квалификации и улучшение качества знаний. Сегодня одним из приоритетных задач считается внедрение детям навыков 21-века, таких как коммуникация, коллаборация, критическое мышление, креативность, умение работать в команде и лидерские качества, в целях подготовки ученика к дальнейшей жизни и карьерному росту. Качественные знания и прозрачность образовательной структуры в совокупности даст мощный толчок для развития всех отраслей страны, потому что каждый ученик, получивший качественное образование и необходимые навыки сегодня, это человек с огромным потенциалом который будет работать во благо Родины завтра!

Повышенный интерес к образовательной геймификации объясняется простой причиной. Игры доставляют удовольствие! Вы обращали внимание на ребёнка, когда он играет игру не важно на компьютере, в мобильном телефоне или планшете. Он полностью вовлечен, погружен и охвачен ей. Общество осознало, что удовольствие от игр можно применить к традиционно рутинной или скучной учебной деятельности.

Геймификация идеально подходит для образования, поскольку позволяет сделать процесс обучения более увлекательным. Более того, когда обучение приносит удовольствие, оно дает отличные результаты. Соревновательный характер является очевидным мотиватором в игровом обучении. Неудачи — это просто часть игры. Каждый раз терпя неудачу ученик будет пытаться пройти уровень, тем самым повторяя пройденный материал, осваивая его заново и закрепляя его в памяти надолго, прежде чем перейдет на следующий уровень. Геймификация будет полезна, поскольку она создает увлекательную среду обучения, в которой будет комфортно молодёжи, потому что не будет стрессов и чувства унижения от полученной плохой отметки и не усвоенного материала.

Однако в чрезмерном или неправильном использовании геймификации есть и свои минусы, утверждают некоторые оппоненты, приводя нижеследующие доводы. "Делая игру обязательной, геймификация может создать опыт, основанный на правилах, который будет ощущаться как школа". (Кирьякова Г., Ангелова Н. и Йорданова Л., 2014).

Образование — это паспорт в будущее, ибо завтрашний день принадлежит тем, кто готовится к нему сегодня. (Малкольм Икс)

Образование, основанное на компетенциях, или же ориентированное обучение, учитывает стиль обучения каждого человека. Это означает, что оно адаптируемо, так как его развитие полностью зависит от выполнения студентом того или иного проекта или оценки. Доказано, что предоставление студентам возможности контролировать процесс обучения делает его более увлекательным. Контроль над процессом обучения расширяет их возможности и создает внутреннюю мотивацию для достижения успеха. В этом типе образования особое внимание уделяется практическим навыкам, таким как коммуникация, критическое мышление и решение проблем.

Цель СВЕ - сосредоточиться на том, что знают учащиеся, а не на том, как они проходят предметы, ориентируясь на время. "Вместо того чтобы работать в темпе преподавателя, они работают в своем собственном темпе и имеют свободу выбора способа демонстрации мастерства". В рамках СВЕ допускается использование письменных работ, портфолио, проектов, наблюдение за работой студентов и выполнение заданий с компьютерной отметкой.

"Главное — это обучение. Создание электронного портфолио включает в себя навыки, необходимые для обучения в 21 веке: организация и планирование материала, предоставление и получение обратной связи, рефлексия, отбор и расположение содержания для наиболее эффективного общения с конкретной аудиторией". (Gray, L.)

Электронные портфолио являются мощным средством обучения, способствующим повышению мотивации учащихся.

При этом основное внимание уделяется самим студентам. Документируя и рефлексировав свое обучение в электронном портфолио, студенты могут взять на себя большую ответственность за свое обучение. Какие именно примеры работ будут использованы, и как именно они будут рефлексировать свое обучение, зависит от них самих.

Для преподавателей электронное портфолио может стать эффективным инструментом, позволяющим лучше управлять работой студентов, проверять, отражать и комментировать ее. Для студентов электронное портфолио обогащает их резюме как до, так и после окончания университета. Студенты обобщают ключевой опыт обучения и отображают свои работы в электронном портфолио. Каждое электронное портфолио включает в себя различные цифровые артефакты.

Учитывая все вышесказанное, можно сделать вывод, что применение новых технологий, а именно системы «Блокчейн» окажет революционное действие и приведёт к положительным результатам и ренессансу науки, образования и искусства и искоренит преступные манипуляции с сохраненными данными и информацией.

Следующее, полная замена образования геймификацией — это нонсенс, поскольку вознаграждаться должны усилия, а не мастерство. Тем не менее она может быть чрезвычайно полезна для развития детского обучения. Поэтому образование должно внедрять игровые моменты в свои учебные программы.

Далее, в компетентностном образовании студенты переходят на следующую ступень после демонстрации владения текущей компетенцией. В этом случае у студентов появляется большее чувство ответственности за свое обучение. В результате образование стало более прозрачным. Студенты имеют возможность продемонстрировать свое понимание различными способами. Тем не менее, СВЕ имеет и свои недостатки. Основным недостатком является отсутствие четкого определения ключевых компетенций и стилей оценивания. Поэтому перед массовым внедрением этого вида обучения необходимо проработать работы по оценке и анализу.

И последнее: электронные портфолио способствуют вовлечению студентов в процесс обучения, их стремлению и контролю. Когда у студентов есть выбор, как им учиться, они более вовлечены в процесс и стремятся не просто заучивать факты и заполнять пробелы в знаниях, а развивать глубокое понимание, связывать обучение, происходящее во многих ситуациях, и применять полученные знания в творчестве. Тем не менее, необходимо ответить на один важный вопрос. Должна ли оценка электронного портфолио быть включена в официальный транскрипт студента? Ведь здесь есть свои нюансы, например, студент может загрузить задания, которые за него сделал кто-то другой, более знающий и просвещенный в данной теме. Это возможно потому, что в электронном

портфолио нет жесткого правила сидеть перед камерой в режиме онлайн. Следовательно, если образование будет строиться только на основе создания электронного портфолио, то не исключено получение диплома за знания и опыт другого человека.

Таким образом, хотя мы подробно рассмотрели каждый новый метод обучения в отдельности, важно отметить, что все они основаны на самообразовании, а значит, требуют самодисциплины, мотивации и четкой целеустремленности. В связи с этим в центре внимания оказывается следующий вопрос. Готовы ли мы к этим изменениям? К сожалению, мы не можем быть уверены в положительном исходе. Ведь на протяжении многих десятилетий отечественная система образования базировалась на материнском способе обучения, когда учитель находится в центре внимания. Он говорит, что нужно делать, что неправильно, а что правильно. В то время как свобода выбора, знания, полученные путем проб и ошибок, дают больше результатов и преимуществ, чем "готовое", не требующее усилий. Это означает, что не все учащиеся сохранят мотивацию и желание учиться самостоятельно. Тем не менее, настало время переоценки ценностей и внесения изменений в систему образования.

В целом, применение инновационных технологий в образовании — это жизненно важная необходимость, ведь время летит и прогресс не стоит на месте, а значит, и образование должно держать руку на пульсе. Тем не менее, каждый шаг должен быть тщательно продуман, ведь он может повлиять на наше завтра и отразиться на будущем поколении.

Список литературы:

1. <https://trends.rbc.ru/trends/industry/5f05c0a79a7947aac5c7577a>
2. <https://secretmag.ru/slova/chto-takoe-blokchein-obyasnyaem-prostyimi-slovami.htm>
3. <https://uprav.ru/blog/blokcheyn-i-obrazovanie/>
4. BRAIN: Broad Research in Artificial Intelligence and Neuroscience Volume 8, 2017
5. <https://www.ecs.org/wp-content/uploads/CBE-Toolkit-2017.pdf>
6. <https://elearning.tki.org.nz/Teaching/Assessment/e-Portfolios>
7. Грей, Л. (2019). Начало работы с электронными портфолио. Jisc.
7. Jonatan bautista "Pedagogo egresado de la FFyL-UNAM. Su experiencia profesional se centra en el Diseño instruccional y la Tecnología educative".
8. <https://opentextbc.ca/teachinginadigitalage/chapter/6-6-competency-based-learning/>
9. <https://www.youtube.com/watch?v=4qIYGX0H6Ec>

**TALABALAR O'RTASIDA AXBOROT MADANIYATINI
OSHIRISH VA MEDIA SAVODXONLIKKA O'RGATISH**

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich

Guliston Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annostasiya: Ushbu maqolada talabalar o'rtasida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini oshirish masalasi yoritilgan. Bugungi kundagi yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyoji, axborotlarning turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: media, mediasavodxonlik, axborot resursi, axborot tezligi, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, kiberxavfsizlik, ijobiy va salbiy axborotlar, axborot huruji.

Hozirgi kunda hech bir shak-shubhasiz dunyoni internetsiz, kiber olamsiz tasavvur etib bo'lmay qoldi. Hatto, juda kichik yoshdagi bola ham bemalol mobil telefondan foydalana oladi, hozirgi kunda. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, internetning ham yaxshi ham yomon tomonlari mavjud. Kimdur iloji boricha o'zi uchun foydali, naf keltiradigan tomonidan foydalansa, yana kimdur ijtimoiy tarmoqlarning zararli, buzg'unchi saytlaridan foydalanadi. Eng asosiysi esa hozirgi kunda internetdan eng ko'p kelajagimiz egalari yoshlarimiz foydalanishadi.

Insoniyat paydo bo'lganining birinchi onlaridan boshlab asosiy yumushlaridan biri- bu axborot almashish, ya'ni, bir-biri bilan avvaliga imo-ishora, keyinchalik nutq rivojlangandan so'ng nutq orqali ma'lumot, xabar almashinuvini yo'lga qo'yish bo'lgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, insoniyat paydo bo'lganidan boshlab media bilan hamnafas yashab kelmoqda. "Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda matbuot, axborot va media tarmoqlar, jumladan, televideniya va radio, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish hamda usbu sohalarga albatta ijobiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi".

"Media" so'zi ingliz tilidagi "mediator" so'zidan olingan bo'lib, vosita degan ma'noni bildiradi. Media turli xil ma'lumotlarni aholiga yetkazish vosita va turlari. Media aloqa va axborot uzatish vositalari. Mediani nima ekanligini bir ikki og'iz gap bilan tushuntirib berib bo'lmaydi u juda katta qamrovli tushunchadir. Media qachon paydo bo'lgani haqida juda ko'p taxminlar bor. Agar uning qoidasidan kelib chiqadigan bo'lsak, odamzotga tarixda birinchi axborotni bergan narsa media hisoblanadi. Oliy ta'lim maskanlarida jurnalistikaning birinchi ko'rinishi haqida gap ketganda, shubhasiz jarchilarni misol qilib keltirishadi. Ammo media jurnalistikadan oldinroq paydo bo'lgan. Medianing birinchi ko'rinishi toshdagi bitiklardir. Odamlar birinchi tasvirlarni toshlarga yozuv yo surat misolida tushirishgan va ushbu toshdagi bitiklar hamda rasmlar bugun bizga tarixni o'rganishda juda katta yordam berib kelayapti.

Tabiiyki, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish uchun, yoshlarimizning kelajagini buzg'unchi g'oyalardan asrash uchun mamlakatimizda kiber olamdan foydalanishda turli tartib- qoidalar o'rnatilgan. Ayniqsa, talaba yoshlarning media savodxonligini, axborot madaniyatini oshirishga mamlakatimizda katta e'tibor qaratmoqda. Media va axborot savodxonligi - bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir. Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to'g'ri baholash qobiliyati dolzarb bo'lib qolmoqda. Xo'sh, media savodxonlik nima? Nega bugun uning ahamiyati tobora ortib bormoqda? Axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiya sarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun media savodxonlik - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Media savodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? Degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondashishi lozim. Bugungi axborot muhitni tushunishda media savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, media savodxonlik nima uchun kerak?

Avvalo:

- Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun - mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'ymaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish ;
- Insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni "o'qiy olish";
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish.

Fikrimcha, media savodxonlik media ta'limning uzviy bog'liq qismidir. Shu bilan birgalikda uning ko'rinishlari ko'paymoqda. Bugungi kunda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya'ni media savodxonlik, media ta'lim, mediani o'rganish va boshqalar bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, media axborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda media savodxonlik tushunchasi bilan birgalikda media ta'lim, mediani o'rganish, media madaniyat tushunchalari ham qo'llanilyapti. Masalan: Media ta'lim – media o'quv dasturida integrallashgan, fanlar aro asosida o'rganilishini; – «mediamavzu»ni aniq bir fan doirasida tahlil etilishini; – amaliyish va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashishni; – uning shakli, texnologiyalari, axborotni

uzatish usullarini o'rganishni; – media agentliklarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini o'rganishni; – talabaning OAV bilan ishlashini; – tadqiqot faoliyatini; – medianing til va san'at orqali auditoriyaga ta'sirini o'rganadi. Media savodxonlik mediani o'rganish bo'lib, media ta'limning quyidagi natijalariga asoslanadi va o'z oldiga: – medianing shaxs va jamiyatga ta'sirini tushunish; – ommaviy kommunikatsiya jarayonini anglash; – media matnlarni tushunish va tahlil eta olish; – media kontekstini tushunish; – media matnlarni yaratish va ularni tahlil e tish; – media matnlarni baholashga va ularni saralash vazifalarini qo'yadi. Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot insonongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda media ta'lim, media savodxonlik, media tanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir. Talabalarda bu ko'nikmalarni shakllantirish hozirgi davr talabiga aylangan. Biz hammamiz media olamida yashaymiz va har kuni media savodxonlik muammolariga duch kelamiz. Yoshlarga bunday qiyin sharoitda o'zini tutish qoidalari va o'z-o'zini himoya eta olishni o'rgatish juda muhimdir. Yoshlarni zararli oqimlardan himoyalash - kelajakdagi kiberolamimizni havfsizligini ta'minlash bilan barobardir. Elektron vositalardan unumli foydalanish mashg'ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yani, mashg'ulotlardagi barcha mavzularni to'liqroq yoritish uchun bir qancha qoidalar, rasmlar, allomalarimiz siymolari, slaydlarga ega bo'lish talab etiladi. Lekin maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining bu borada imkoniyatlari cheklangan. Bundan tashqari har bir mashg'ulot uchun o'quv materiallari tayyorlash va ulardan foydalanish ko'p mehnat va vaqtni talab etadi. Mashg'ulotlarni zamonaviy axborot vositalari yordamida tashkil etilishi bolalarning qiziqishini oshiradi. Bunday intilish o'qib, o'rganayotgan bolalarni yetuk, intellektual salohiyatli bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Darhaqiqat, ta'limni axborotlashtirish jamiyatni axborotlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirilishining muhim shartidir. Bu jarayon rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish maqsadida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash, bu texnologiyalarning metodlari va vositalaridan foydalanish, ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarini jadallashtirish orqali uning sifati va samaradorligini oshirish va pirovardida yoshlarni axborotlashgan jamiyat sharoitida yashashga tayyor qilib tarbiyalash masalalarini o'zida qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. T.Z.Teshaboyev "Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya". 2019-yil Farg'ona. 2.

2. A.A.Xudayberdiyev "Talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish omillari". Sayhun ilmiy axborotnomasi. Guliston 2023-yil.
3. M.E.Mamarajabov, B.B.Abdullayev To develop students' skills and abilities to use intelligent systems in e-learning environment. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ)ISSN (E): 2347 - 6915Vol. 10, Issue 6, June. (2022) 528-533 -pp.
4. Elektron resurs: <https://www.techrepublic.com/article/10-things-you-have-to-know-to-be-computer-literate/>
5. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. -T.: 2002-148 bet.

TALABA-YOSHLARDA MEDIASAVODXONLIK VA MEDIAMADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich

Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Abdumajid85@inbox.uz

Bugungi rivojlangan jamiyatimizda har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini aniqlab olib, unda albatta yoshlarga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biri bu - yoshlar masalasidir. Texnologiyalar asri va axborot makoni yoshlarga juda keng imkoniyatlarni yaratib berish bilan bir qatorda juda katta xavfni shakllantirmoqda. Bunday taxlikali zamonda yoshlarga salbiy tasir ko'rsatuvchi omillardan biri bu- mediamakondagi turli xil zararli axboratlarning ko'pligidir. Bunga misol keltiradigan bo'lsak, shafqatsizlik, zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini taxqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishga undovchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish shular jumlasidandir. Shuningdek, media tushunchasiga ham alohida to'xtalib o'ishimiz kerak. Media - atamasi (lotincha – medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. [1] Media jamiyatga ijobiy tasirini o'tkazishi bilan birga yuqorida sanab o'tilgan zararli omillarni yoshlar orasida keng quloqch yoyishiga zamin yaratmoqda.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, "Mediasavodxonlik" (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila

olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Londoning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, mediasavodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat.

Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimediasavodxonligi o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir.

Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga ommaviy axborot vositalarini yordam berishdir.

Elektron ta'lim resurslarini ishga tushirish, boshqarish va undan foydalanishda asosiy vositalar axborot texnologiyalari va tizimlari hisoblanib, ular bilan muloqot qilishda quyidagilardan keng foydalaniladi: kompyuter, printer, skaner, vebkamera, videokamera, multimedia vositalari, videoproektor, faks modem, telefon, kompyuter tarmoqlari, telekommunikatsiya vositalari, sun'iy yo'ldosh aloqa tizimlari, ma'lumotlar ombori va ularni boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlari, internet, elektron pochta, telekonferentsiya, videokonferentsiya, chat, forumlar, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, turli an'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlari, masofali o'qitish texnologiyalari va boshqalar.

Ma'lumki, nafaqat "Elektron ta'lim", "Ochiq ta'lim", "Masofaviy ta'lim"da, balki an'anaviy ta'limni zamon talablari asosida tashkil etishda ham elektron ta'lim resurslari muhim rol o'ynaydi. "Resurs" iborasi hozirgi vaqtda juda keng ma'noda ishlatiladi. "Ta'lim resursi" deganda esa o'quv jarayoni davomida bilim olishda foydalaniladigan turli xil ko'rinish va shakllardagi o'quv materiallari manbasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ta'lim resursi-o'quv jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasi.

Zamonaviy elektron resurslar va o'qish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda "Elektron ta'lim resurslari" deb ataladi. Elektron ta'lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya'ni talaba-yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik

rostanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o'quv materiallarini uzatish (etkazish) tizimi tushuniladi [2].

Elektron ta'lim resurslari talaba-yoshlarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin. Elektron ta'lim resurslari o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, talaba-yoshlarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi [3].

Elektron ta'lim resurslaridagi kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot - ta'lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kun yoshlarni zamonaviy texnologiyalar olamida juda katta imkoniyatlar qurshovida turibdi. Zamon bilan hamnafas bo'lish, globallashuv jarayonidan xabardor bo'lish, madaniyatlararo tanishuv, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish, OAV larni hamda dunyoni kuzatish shular jumlasidan. Mazkur imkoniyatlar talaba-yoshlar hayotiga tasir o'tkazishdan tashqari, jamiyat hayotiga ham tasirini o'tkazadi. Texnologiya jamiyat hayotiga kirib kelishi bilan jamiyatning qishloq xo'jaligi, ta'lim, aloqa, siyosat, ish yoki transport kabi turli jabhalarda katta yutuqlarga erishildi. Shuni aytish mumkinki, texnologiya jamiyat rivojlanish yo'lini o'zgartirgan vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirov V.I. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Navoiy-2022.
2. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.
3. Raximov O.D., Elektron ta'lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasizamonaviy ta'lim / современное образование 2016, 2. 45-50 б).
4. Internet ma'lumotlar.

TALABALARNING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPITENSIYALARINING RIVOJLANGANLIK DARAJASI.

Begmuratova Dilnoza Amaliddinovna

GulDU 2-bosqich tayanch doktranti

begmuratovadilnoza@gmail.com

Annotatsiya: Talabaning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bu vazifaning muvaffaqiyatli ado etilishi, talabaga o'z-o'zini takomillashtirish va rivojlantirish uchun, zamon bilan xamnafas bo'lishga, bugungi kun tarbiyalanuvchilari uchun namuna, o'zi uchun zamon talabidagi inson, mutaxassis kadr bo'lishiga asos yaratadi.

Kalit so'zlar: axborot kompetensiyasi, rivojlanganlik darajasi, motivatsiya, kognitiv bilim,

Аннотация: Одной из важных задач является развитие у студента компетенций по обработке информации. Потому что успешное выполнение этой задачи создает основу для того, чтобы студент мог совершенствоваться и развиваться, идти в ногу со временем, стать примером для подражания для сегодняшних студентов, человеком, востребованным временем, профессиональным коллективом.

Ключевые слова: информационная компетентность, уровень развития, мотивация, познавательные знания.

Kelajakda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi, talabaning ta'lim-tarbiyadagi axborotning tutgan o'rni haqida bilmasligi sharoitida imkonsiz hisoblanadi. Talaba to'g'ri axborotni tashuvchi va tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda ta'lim-tarbiya materiallarini o'rganish va tahlil qilish, eng yangi telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarini faol qo'llash va shu bilan namunali tarzda ta'lim va tarbiya beruvchi yagona mutaxassis sifatida rivojlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarining etarli darajada rivojlanmaganligi, xususan, talabaning zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda orqada qolib ketishi xolati talaba, tarbiyachi obro'sining pasayishiga olib keladi.

Shunday qilib, talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini tahlili, talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlanganlik darajalarini o'stirish, pedagogik va kasbiy vazifalarini oqilona echa olishlarini ta'minlash maqsadida axborot texnologiyalaridan yanada kengroq foydalanish yo'nalishidagi ishlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

XX-asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir

ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etilganligi [96;5 b] o'z isbotini topdi.

Bugungi kunda yoshlar qo'l telefoni orqali axborotlarni uzatishga qiziqishlari ortib borayotganligi olimlarimizning izlanishlarida ham o'z isbotini topmoqda [50].

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida ham talabalarning axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-avgustda 365-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari"ning 2-bandi, "60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar"ning umumiy va kasbiy kompetentsiyalar qismida "axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborot bilan ishlash, yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi" [9] kabi talablar qo'yilgan.

Pedagog olimlarimizdan Sh.Sodiqova maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari to'g'risida fikr yuritib, inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur [61;42 b] deb ta'kidlaydi.

Talabalarning axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini rivojlantirish, ularni axborot jamiyatidagi hayotga tayyorlaydi, uning nafaqat turli xil axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini, balki ushbu axborotni qayta ishlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Talabalarda axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini rivojlantirish darajasini belgilaydigan ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- axborotning har qanday vazifa va muammoni hal qilish uchun zarurligini anglash;
- turli xil axborot manbalarida (gazeta, jurnal, adabiyot, Internet va boshqalar) kerakli axborotlarni qidirishni amalga oshirish;
- qidirib topilgan axborotlarni baholash, axborotni analitik qayta ishlash, olingan axborotlarga tanqidiy munosabat bildirish, AKT yordamida yangi axborotlarni yaratish;
- axborotni saqlash va uzatish.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida axborot kompetentsiyasining birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarini ajratish mumkin bo'ladi.

Birinchi daraja talabani:

- axborot etishmasligini va bu muammoni hal qilish zarurligini anglamasligi;
- axborotni qidirib topish uchun o'qituvchi tomonidan taklif qilingan bitta axborot manbasidan foydalanishi;
- olgan axborotni tushunishini namoyish etishi;
- yangi axborotni yaratish jarayonida AKT vositalaridan foydalanish borasida qiyinchiliklarga duch kelishi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi daraja talabani:

- vazifani echimini topish uchun qanday axborotga ega va qanday axborotga ega emasligini anglab etishi;
- o'qituvchi tomonidan taklif qilingan bir nechta axborot manbalaridan foydalanishi;
- olingan axborotni hal qilayotgan muammo kontekstida izohlashi;
- AKT vositalaridan foydalanishi, standart operatsion ko'nikmalarni namoyish etishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchi daraja talabani:

- vazifani echish uchun qanday axborotga ega va qanday axborotga ega emasligini anglashi;
- belgilangan maqsadga muvofiq keluvchi axborot manbalarini mustaqil tanlay olishi;
- olingan axborotga tanqidiy munosabatda bo'lishi;
- yangi axborotni yaratish uchun AKT vositalarini mustaqil tanlashi, bir qancha dasturlar vositalarini integratsiya qila olishi bilan tavsiflanadi.

Darajasi	Kognitiv blok	Motivatsion blok	Texnologik blok	Refleksiv blok
Past	Talaba pedagogik vazifalarni AKTni qo'llagan holda echishga zaruratni ko'rmaydi	Motivatsiya mavjud emas	Kompyuterda ishlash darajasi yo'q	Axborot bilan ishlash kompetentsiyalari sohasida refleksiya nisbatan qobiliyati mavjud emas
Boshlang'ich	Texnologiyalari shunchalik xilma-xil, dinamik bo'lib, bu juda ko'p vaqtni talab etadi	Ushbu guruhga oid talabalarga motivatsiyasini oshirish zarur, chunki motivatsiyasi umuman yo'q	Kompyuterda ishlash darajasi boshlang'ich. Kompyuter yordamida oddiy	Kasbiy faoliyatlarida axborot bilan ishlash jarayonida texnologiyalarni joriy etishni

		yoki past darajaga ega	vazifalarni bajarishga qodir	tanqidiy tushunishga moyil emas
Etarli	AKTni egallaganlik darajasi, talabalarning faoliyati va kasbiy o'sishida o'zining individual uslubini tatbiq etishga imkon beradi	Motivatsiyasi yuqori. Axborot madaniyatini uzluksiz oshirib borishga ehtiyoj mavjud	Kompyuterda ishlash darajasi bazaviy, axborot texnologiyalar i- ni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilishda muvaffaqiyatli harakatlari mavjud	Axborot bilan ishlash kompetentsiyalari - ning ma'lum darajasiga erishib, faoliyatining xotirjamlik va xayoliy barqarorlik holatini buzishi mumkin bo'lgan muammolarni sezmaslikka moyil
Yuqori	Talabanning pedagogik faoliyati va axborot bilan ishlash kompetentsiyalari o'rtasida bevosita aloqa mavjud	Motivatsiyasi yuqori. Talaba o'z ustida doimiy ishlashga va axborotlashtirish - ning dolzarb vositalarini kuzatib borishga tayyor	Kompyuterda ishlashi o'ziga ishongan foydalanuvchi darajasida. AKT, talabanning pedagogik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi	Talaba pedagogik faoliyatida, axborot bilan ishlash borasidagi qiyinchiliklarni xis qilishi bilan tavsiflanadi. U axborot bilan ishlash jarayoniga tayyorgarlikka nisbatan talablarni tushunib etadi. O'zining bilim, malaka va ko'nikmalari tizimini to'g'ri baholay oladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2021 йил 25 августда 365-сон буйруғи билан тасдиқланган

“60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim iynaliшининг малака талаблари”. 7-б.

2. Қодирова Ф.У. “Рақамли педагогика” – истиқбол бугундан бошланади: имкониятлар, стереотиплар, келгуси режалар. Замонавий таълим/Современное образование. 2020. 8 (93).

3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «Tafakkur vo'stoni». 2013 - 288-b. 42-b.

4. Б.Ходжаев, М.Махмудова. Ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси. – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2016. – 80 б. 5-б.

MISROSOFT POWER POINT DASTURIDA TAQDIMOTLAR YARATISH VA ANIMATSION EFFEKTLAR

Ximmatova Jannat Kuchmuradovna

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Prezentatsiya(taqdimot) - yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi. Masalan: Prezentatsiya - Power Point dasturi ochilganda, Sarlavhalar qatorida paydo bo'lib, yaratilgan yoki yaratilayotgan taqdimotning ayni vaqtdagi nomi hisoblanadi. Bu nomni keyinchalik o'z xoxishingizga ko'ra almashtirishingiz mumkin.

Yangi taqdimotni yaratishda **Power Point dasturining** asosiy oynasidagi gorizontal menyuning “Файл”- “Создать”- (fayl - yaratish) buyruqlari ketma-ket bajariladi. Bu buyruqlar bajarilganidan so'ng “Создать презентацию” (taqdimot yaratish) muloqot darchasi qo'llaniladi. Bu oynada quyidagi vazifalarni bajaruvchi buyruqlar mavjud:

1. «Общие»-yangi taqdimot yaratish qolipi;

2. «Дизайн презентации» - turli taqdimotlarning tasvir ranglari qoliplarini ko'rsatish, ya'ni, rang turi, harflar ko'rinishi va taqdimotning boshqa atributlarini aniqlash uchun Power Pointning dizayn shablonini tanlashingiz mumkin.

3. «Презентации»-bunda turli sohalarda ish olib borishga mo'ljallangan tayyor taqdimotlar ko'rinishlari keltirilgan.

4. «Web-страницы»- Web sahifasi ko'rinishidagi taqdimotlar.

Taqdimotlarni saqlash.yaratilgan taqdimotlar fayllarda saqlanadi. Saqlash uslubi WINDOWSning boshqa dasturlaridagi kabidir. Taqdimotlarni saqlash quyidagi usulda bajariladi: “Файл menyusidan” «СОХРАНИТЬ» buyruqlari beriladi. Shunda quyidagi muloqot darchasi hosil bo'ladi va unda ketma-ket quyidagilar amalga oshiriladi.

1. Saqlash uchun fayl nomi va papakasi ko'rsatiladi.

2. «Сохранить» (saqlash) tugmasi bosiladi.

Taqdimotlarni tahrirlash. Taqdimotlarni saqlagandan so'ng uning tarkibidagi barcha slaydlarni alohida-alohida o'zgartirish mumkin. Buning uchun yaratilgan slaydlarga sichqoncha ko'rsatkichi olib kelinadi va tugmasi bosilib tasdiqlangandan so'ng kerakli o'zgartirishlarni kiritish mumkin bo'ladi.

Namunaviy slayadlar - darchasi shrift turlari o'lchami, slaydlarning asosiy elementini birlashtirish usullarini o'z ichiga oladi. Foydalanuvchi xoxishga qarab namunaviy slaydga taqdimotning qolgan barcha slaydlarida paydo bo'luvchi matn yoki rasm qo'shish mumkin. Bunda sarlavhalar qo'yish, sana vaqt hamda slayd raqami maydonlari mavjud. Namunaviy slaydar darchasiga gorizontal menyu orqali quyidagi buyruqlar orqali o'tiladi va kerakli namunalar tanlanib olinadi.

Animatsiya-bu ob'ektlar kameralar yorug'lik manba'larini o'zaro joyini almashtirish yoki ularning parametrlarini vaqt bo'yicha o'zgarishiga esa bo'lgan vazifa yoki topshiriqdir. Hozirgi paytda kompyuterli grafika vositalarini qo'llashni ushbu sohasi kuchli rivojlanishni boshdan kechirmoqda. Animatsion grafika o'zida rang tasvir va illyustrativ grafika(mashinaviy tasvirlar illyustrativ matnlar chizmalar, eskizlar va boshqalar) bilan ishlay olish imkoniyatiga ega.


Televizorimiz ekranida har kuni tomosha qiladigan reklama kliplari, turli multfilmlarning ko'pchiligi ana shu animatsion grafika asosida yaratilgan. Misol uchun Uolt Disney studiyasi tomonidan bundan 50 yil muqaddam yaratilgan «Oqqiz va yetti gnomlar» multfilmi birinchi animatsion tasma bo'lgan yoki 1991-yilda ushbu kompaniya tomonidan yaratilgan «Sohibjamol va maxluq» multfilmini ko'pchiligingiz sevib tomosha qilasiz.

Animatsion effektlarni qo'llash uchun bichimlash uskunalari panelidagi (★) tugmachasi bosiladi. Natijada quyidagi «Эффекты анимации» Animatsiya effektlari) uskunalar paneli hosil bo'ladi.



Ushbu uskunalar panelidagi asosiy elementlar bilan tanishib chiqamiz.

1.Sarlavha animatsiyasi. Bunda animatsiya nomi yoziladi.



2. Slayd matnlarining animatsiyasi. Matn yozilgan barcha slaydlarni ekranda namoyish etadi.



3. KIRISH effekti bu piktogrammaga sichqoncha ko'rsatkichi keltirib bosilgandan so'ng, namoyish ekranida belgilarning chiqish tezliklari hosil

bo'ladi. Ya'ni, belgilarning ketma-ket tartibda chiqishi ta'minlanadi.



Эффект въезда

4. Uchish effekti. Belgilarning namoyish ekranida ketma-ket uchib tushishini ta'minlaydi.



Эффект полета

5. Kamera effekti. Namoyish slaydining tasvirini ta'minlaydi.



Эффект камеры

6. Portlash effekti. Bunda slaydga yozilgan axborotlarning ekranda 1marta hosil bo'lib, yo'qolish holati ta'minlanadi.



Вспышка

7. Lazerli effekt. Slayddagi yozuvlarning uchish tezligini turli tomonlardan uchib

tushish parametrlarini o'zgartirish piktogrammasidir.



Лазерное эффект

8. Yozuv mashinkasi animatsiyasi. Bunda kiritilgan belgilar endi yozilayotgan yozuv mashinkasidagi kabi hosil bo'ladi.



Пишущая машинка

9. Otib tushirish effekti. Bunda yaratilgan slayddagi belgilar biror tugma bosilgungacha yashirinib turadi.



Вбрасывание

10. Animatsiyalarni sozlash. Bu piktogramma animatsiyalar parametrlarini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.



Настройка анимации.

Eslatma : Animatsiya effektida ishlash uchun:

- animatsion effekt qo'llanilishi kerak bo'lgan ob'ekt belgilanadi;
- tanlangan animatsion effekt tugmacha (piktogramma)si bosiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. Axmedov N. Taylaqov "Informatika", Toshkent "O'zbekiston", 2001.
2. A. Abduqodirov va boshqalar "Informatika", T.: "Me'ros". 2002.
3. A. Sattorov «Informatika va axborot texnologiyalari» Toshkent «O'qituvchi», 2002.

**MA'NAVIY TAHDIDLARNI BARTARAF ETISHDA
SEMIOTIKANING ROLI***Saparov Murod Yuldoshevich*

O'zDJTU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Muhammadova Shahina

O'zDJTU talabasi

"Ma'naviy tahdid" tushunchasi, garchi bu tushuncha ifodalaydigan ijtimoiy hodisa ancha qadimiy bo'lsada, keyingi vaqtlarda ilmiy adabiyotlarda ham, ommaviy axborot vositalarida ham tez-tez qo'llanila boshlandi. Tahdid – jismoniy zarar ziyon, niyat sabab bir imkon xavf va hokazo. Bu tushuncha har xil yo'llar bilan talqin qilinishi mumkin, lekin mohiyati o'zgar olmaydi. Turli xil tahdidlar jamiyatni tanazzul sari yetaklash, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirish, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi jinoyatlarning ildiz otishiga sabab bo'lishi bilan bog'liq misollarni insoniyat tarixidan ko'plab keltirish mumkin.

Globalashuv davrida umuminsoniyat ma'naviyatiga va ayniqsa, yangi mustaqil bo'lgan davlatlar xalqlari ma'naviyatiga xurujlar boshlandi. Ma'naviy tahdidlarning tasnifi va tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi va turfa xil, jozibador va jarangdor shiorlar, odamlarning, ayniqsa yoshlarning nozik his-tuyg'ularini o'ziga rom qiluvchi semiotik kodlar qo'llanila boshladi.

Semiotika (yunoncha "semeiotikos" — belgi, timsol, alomat degan ma'noni anglatadi) belgi va belgi tizimlari to'g'risidagi ta'limotni, axborot, ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilarni o'rganadigan fan⁴⁷ sifatida insoniyat hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, belgi tizimlari qanday tashkil topishi hamda qaysi qonunlar asosida boshqarilishini tadqiq qiladi.

Prezident Islom Karimov insoniyatning ko'p yillik tajribasini umumlashtirib, quyidagi chuqur falsafiy xulosani bayon etadi: "Dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi."⁴⁸ Darhaqiqat, uzoq va yaqin tarixdagi ko'plab misollarda buning tasdig'ini ko'rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy tahdidlar faqat bitta millat yoki alohida bir xalqqagina tegishli emas, balki umumiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy adabiyotda XX asr ikkinchi yarmida paydo bo'lgan – inglizchada 'Mass-culture' rus tilida – "massovaya kultura", o'zbek tilida – "ommaviy madaniyat" degan

⁴⁷ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Т. 7. 576-Б. – Т., "Ўзбекистон Энциклопедияси" Давлат нашриёти, 2004.

⁴⁸ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч, 11-бет.

termin bilan ataladigan planetar miqyosdagi ijtimoiy hodisa ham ijobiy, ham salbiy jihatlariga, ham ijodiy, ham vayronkor ta'sirga ega. Bu hodisaning tanqidchilari uning mohiyati, sayoz mazmuni va e'tiborni tortuvchi shakllariga ko'ra buni "olomon madaniyati" deb atash o'rinli bo'ladi, deb hisoblaydilar. Biz ommaviy madaniyat fenomenining semiotikaga aloqador bir jihatini tahlil qilish bilan cheklanamiz. Ma'lumki, XX asrning 50-yillarida Amerikada "xippi"lar vujudga kelgan, keyinchalik "roker"lar, "metallist"lar paydo bo'lgan edi. Har qanday yangi paydo bo'layotgan guruh o'z simvolikasini yaratadi, boshqalardan farqlab turilishi uchun yangi semiotik belgilarni o'ylab topadi. Chunki ijtimoiy iyerarxiyada muayyan joy egallash uchun bu tabaqa psixologik o'ziga xoslik – o'z maqomiga erishish uchun ramziy belgilar, tashqi farqlovchi elementlarga ehtiyoj sezadi.

Keyingi paytlarda "got" va "emo" submadaniyati vakillari paydo bo'ldi. Xo'sh bu guruh vakillari qanday psixologik qiyofaga ega? Submadaniyat umumiy madaniyatning uzviy qismi. U madaniyatga yaqin bo'lgan, yonida turuvchi ma'nolarini anglatadi. Submadaniyat umumiy madaniyatning yo rivojlanishiga yoki inqiroziga olib keladi.

O'smir yoshlar submadaniyati, masalan, "got" va "emo"lar inson rivojining genital davri, ya'ni 12-15 yoshlik bola va o'smirlarga xos. Bu paytda bola kimgadir o'xshash, taqlid qilishga harakat qiladi. O'smirning biologik ehtiyojlari orasida 3 ta psixologik omil mavjud: o'zi uchun noaniq bo'lgan jarayonlarni bilish va o'rganish; emosional aloqa qilish, hayot ma'nosini topish.

"Emo" (inglizcha "emotional" – emosional, hissiy) yoshlar submadaniyati bo'lib, musiqa muxlislaridan kelib chiqqan. "Emo"lar ko'proq suisial xulq-atvoriga ega. O'lim haqidagi o'ylar ularning ruhiyatiga ta'sir etib, kuchli hayajon, qo'rquv va depressiyaga olib keladi. Oxir-oqibat, o'smir psixopatologik xastaliklarga duchor bo'lishi mumkin. «Emo»lar tashqi ko'rinishida ikkala jinsga xos belgilar kuzatiladi. Sochlari kalta yoki uzun, ikki xil rangga, odatda qora-binafsha, qora-sariq yoki qora-qizilga bo'yalgan, yuzining o'ng tarafi soch qoplami bilan berkitilgan. Burun, quloqlariga turli taqinchoqlar taqilgan bo'lishi mumkin. Asosan, tor, qora va binafsha rangdagi kiyimlarni kiyishadi. Poyafzali poshnasiz, yengil, rang-barang.

"Got"lar o'tgan asrning yetmishinchi yillarida post-panklar negizida yuzaga kelgan submadaniyat, "gotika" musiqasining fanatlari o'zlarini "got"lar deb ataydi. "Got"larning psixologik qiyofasida avtoritar xulq-atvor: boshqalar fikriga zid bo'lsada, o'z fikrini ilgari surish; egosentrizm, o'zini yuqori qo'yish, suhbatni dialog tarzida emas, monolog tarzida olib borish va boshqa xususiyatlar ustunlik qiladi. Bu submadaniyat vakillari uzun qora soch, labi, ko'z-qovoqlari qora rangga bo'yalgan, asosan charm matodan tikilgan qora kiyim kiyib yurishi bilan farqlanadi.

Psixologlarning fikricha, inson ruhiyatiga birinchi yetkazilgan axborotning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Demak, insonning tashqi ko'rinishi ham semiotik axborot yetkazish maydonini yaratib, atrofdagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Axloqsizlik, egosentrizm, kosmopolitizm, behayolik kabi illatlar yoshlar ongiga pinhona, ammo majburiy singdirilayotgan bugungi kunda xalqimizning ma'naviyati, tabiatiga zid g'oya hamda rusumlarning xavfli hamda o'ta salbiy ta'siriga qarshi yoshlarning milliy o'zligi, g'oyaviy yetukligi, fidoiy vatanparvarligi qalqon bo'lib xizmat qiladi. Mana shunday ma'naviy muhitni yaratish, yoshlar ongida ma'naviyatga ehtiyojni kuchaytirish tarbiya va ta'lim tizimi, uning ko'p sonli faollari oldidagi eng muhim masaladir. Bugungi kunda madaniyatlik niqobi ostida turli yengil-elpi, ma'naviyatsizlikni targ'ib etuvchi omillarga berilishimiz kechirilmas holdir. Bunday salbiy illatlarga qarshi immunitetni shakllantirish, ularga qarshi kurashish bugunning dolzarb vazifasi bo'lmog'i kerak.

Shaxsning shakllanish jarayonida ikki holat ko'zga tashlanadi: bir tomondan, jamiyat shaxsga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa shaxs ham ijtimoiy muhitga ta'sir qiladi. Shunday ekan, ma'naviyatimizga rahna solayotgan bunday illatlarga qarshi kurashish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli semiotik g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyatga tahdid-kelajakka tahdiddir. XXI asr yoshlari ruhiyatiga qarshi qaratilgan g'oyaviy mafkuraviy xurujlarga, turli zararli tajovuzlarga qarshi tura oladigan asosiy omil – ma'naviyat semiotikasi makonini yaratish va undan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Zero, yoshlarning mafkuraviy immuniteti, ilmiy dunyoqarashi va vatanparvarlik tuyg'usi har qanday tahdidlarni bartaraf etadi. Mafkuraviy yetuklik esa, faqat ma'naviy barkamollik negizida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi T. 7. 576-B. – T., "O'zbekiston Eksiklopediyasi" Davlat nashriyoti, 2004.

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, 11-bet.

BOSHLANG'ICH SINFDA DARSLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Suyarova Artikoy Djangirovna

Sirdaryo viloyat Boyovut tumani 28-umumta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy usullarda tashkil etishning o'ziga xos o'rni haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, zamonaviy texnologiyalar, maqsad, natija

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

Ta'lim islohatlari sharoitida ta'lim muassasalarida turli pedagogik yangiliklarni tatbiq etishga qaratilgan innovatsion faoliyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu faoliyat pedagogik jarayonning barcha jihatlari o'quv tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllari, mazmuni va texnologiyasini qamrab olmoqda.

O'z kasbiga ixlos qo'ygan, tinmay izlanishda bo'lgan o'qituvchilargina yosh avlodni voyaga yetkazishga qodir. Bu savobli kasb egalarining qalblari cheksiz muhabbat hamda ezgulik bilan yo'g'rilgan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslullardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni

rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.


Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilmfan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Men o'z darslarimda mavzularni yanada mustahkamlash va esda qolish maqsadida turli xil interfaol metodlardan foydalanishga harakat qilaman. Bu o'quvchilarni yanada faol qatnashish bilan birga mavzuni yodida qolishiga ham sabab bo'ladi. Yana bu Xalqaro baholash dasturiga ham, uning tayorgarlik ishiga ham yordam bo'la oladi. Yana darsda interfaol metodlar bilan birgalikda turli tarqatmalar ham darslarni samaradorligini oshiradi.



Bu tarqatmamiz orqali o'quvchilar meva va sabzovot hamda poliz ekinlarini ajratish bilan ularni sanashni hamda umumiy sonlarini keltirib chiqaradi.



Bu tarqatmamiz orqali esa bolalar insonlar tarafidan yaratilgan va tabiat tarafidan yaratilgan narsalarni ajratishni o'rganib olishadi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayoniga yangilik olib kirish va joriy etish bugungi boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Demak, har bir o'qituvchi izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'zini o'zi tarbiyalashi, o'z ustida tinmay izlanishi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishi va ta'limda qo'llay olishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar

1. T.G'afforova, E.Shodmonov va boshqalar. O'qish kitobi. 1-sinf. 2019
2. Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova, 3-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma
3. <http://www.sadikov.uz/news>

BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA XAVOTIRNING NAMOYON BO'LISHI

A.Eshmurodov

Sirdaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida dotsent

Psixologik adabiyotlarda "tashvish" tushunchasining turli xil ta'riflarini topish mumkin, garchi aksariyat tadqiqotlar uni differentsial - vaziyatli hodisa va o'tish holati va uning dinamikasini hisobga olgan holda shaxsiy xususiyat sifatida ko'rib chiqish zarurligini tan olishga rozi.

Shunday qilib, A. M. Parshionerlarning ta'kidlashicha, tashvish - bu muammoni kutish bilan bog'liq bo'lgan hissiy noqulaylik tajribasi, yaqinlashib kelayotgan xavfni oldindan bilish. Xavotirni hissiy holat va barqaror xususiyat, shaxsiyat yoki temperament xususiyati sifatida ajratish.

Orlov davlat pedagogika universitetining psixologiya kafedrasida dotsent E. G. Silyaevaning fikricha, tashvish atrofdagilarning tashvishi va noqulaylikni kutishning doimiy salbiy tajribasi sifatida belgilanadi [29, 90-bet].

Tashvish, V. V. Davydova nuqtai nazaridan, bu turli xil hayotiy vaziyatlarda, shu jumladan ijtimoiy xususiyatlari bunga moyil bo'lmagan holatlarda xavotirni boshdan kechirish tendentsiyasining kuchayishidan iborat bo'lgan individual psixologik xususiyatdir.

Shunga o'xshash ta'rifni A. V. Petrovskiy quyidagicha izohlaydi: "tashvish-bu shaxsning tashvishlanishni boshdan kechirishga moyilligi, bu tashvish reaksiyasining paydo bo'lishining past chegarasi bilan tavsiflanadi; individual farqlarning asosiy parametrlaridan biri.

Xavotir, A. L. Vengerning so'zlariga ko'ra, tashvish holatining ayniqsa engil paydo bo'lishidan iborat shaxsiy xususiyatdir.

Anksiyete odatda neyropsikik va og'ir somatik kasalliklarda, shuningdek, psixotravma ta'sirini boshdan kechirayotgan sog'lom odamlarda kuchayadi. Umuman olganda, tashvish-bu shaxsning noqulayligining sub'ektiv namoyishi. Anksiyete bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar ma'lum bir tashqi vaziyat bilan bog'liq vaziyat tashvishini va shaxsning barqaror mulki bo'lgan shaxsiy tashvishlarni ajratishga, shuningdek, shaxs va uning atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida tashvishlarni tahlil qilish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Shunday qilib, psixologlar "tashvish" tushunchasi bilan salbiy hissiy rangga ega bo'lgan tajriba, qo'rquv va xavotirga moyillikning kuchayishi bilan tavsiflangan odamning holatini anglatadi.

Xavotirning ikkita asosiy turi mavjud. Ulardan birinchisi, vaziyatli tashvish deb ataladi, ya'ni ob'ektiv ravishda tashvish tug'diradigan ma'lum bir vaziyat tufayli yuzaga keladi. Ushbu holat har qanday odamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va hayotiy asoratlar arafasida paydo bo'lishi

mumkin. Bu holat nafaqat normal holat, balki uning ijobiy rolini ham o'ynaydi. Bu odamga yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda jiddiy va mas'uliyatli yondashishga imkon beradigan o'ziga xos mobilizatsiya mexanizmi vazifasini bajaradi. Vaziyat xavotirining pasayishi, agar odam jiddiy holatlar oldida beparvolik va mas'uliyatsizlikni namoyon qilsa, bu ko'pincha infantil hayotiy pozitsiyani, o'z-o'zini anglashning etarli emasligini ko'rsatadi.

Yana bir tur - bu shaxsiy tashvish deb ataladigan narsa. Bu turli xil hayotiy vaziyatlarda, shu jumladan ob'ektiv ravishda bunga ega bo'lmagan tashvish tajribalariga doimiy moyillikda namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyat sifatida qaralishi mumkin, bu hisobsiz qo'rquv holati, tahdidning noaniq hissi, har qanday hodisani noqulay va xavfli deb qabul qilishga tayyorlik bilan tavsiflanadi. Bunday holatga duchor bo'lgan bola doimo hushyor va tushkun kayfiyatda bo'ladi, u tashqi dunyo bilan aloqa qilishda qiynaladi, bu esa uni qo'rqituvchi va dushman deb biladi. Xarakterni shakllantirish jarayonida o'zini past baholash va g'amgin pessimizm shakllanishiga o'tish.

Xavotirning sababi har doim ichki ziddiyat, bolaning istaklarining nomuvofiqligi, agar uning bir istagi boshqasiga zid bo'lsa, bitta ehtiyoj boshqasiga xalaqit beradi. Bolaning qarama-qarshi ichki holatiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: unga nisbatan turli xil manbalardan kelib chiqadigan qarama-qarshi talablar (yoki hatto bitta manbadan: shunday bo'ladiki, ota-onalar o'zlariga zid keladi, keyin ruxsat berish, keyin esa xuddi shu narsani qo'pol ravishda taqiqlash); bolaning imkoniyatlari va intilishlariga mos kelmaydigan etarli bo'lmagan talablar; bolani xo'rlangan, qaram holatda. Uchala holatda ham "qo'llab-quvvatlashni yo'qotish" hissi paydo bo'ladi; hayotdagi kuchli ko'rsatmalarni yo'qotish, atrofdagi dunyoda noaniqlik.

Bolaning ichki mojarosi tashqi mojaroga asoslangan bo'lishi mumkin-ota-onalar o'rtasida. Biroq, ichki va tashqi ziddiyatlarni aralashtirish mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas; bolaning atrofidagi qarama-qarshiliklar har doim ham uning ichki qarama-qarshiliklariga aylanmaydi. Agar onasi va buvisi bir-birini yoqtirmasa va uni turli yo'llar bilan tarbiyalasa, har bir bola bezovtalanmaydi.

Bola qarama-qarshi dunyoning ikkala tomonini ham yurakdan qabul qilganda, ular uning hissiy hayotining bir qismiga aylanganda, tashvish paydo bo'lishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Yosh o'quvchilarda tashvish ko'pincha hissiy va ijtimoiy stimullarning etishmasligi tufayli yuzaga keladi. Albatta, bu har qanday yoshdagi odam bilan rivojlanishi mumkin. Ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalik davrida, inson shaxsiyatining poydevori qo'yilganda, tashvishning oqibatlari muhim va xavflidir. Xavotir har doim bola "og'irlik" da bo'lgan oilaga tahdid soladi, u erda u sevgini his qilmaydi, unga qiziqish bildirmaydi. Bu, shuningdek, oilada tarbiya haddan tashqari oqilona, \ u200b \ u200bhikoyali, sovuq, his-tuyg'ularsiz va hamdardliksiz bo'lganlarga tahdid soladi.

Xavotir bolaning ruhiga faqat mojaro uning butun hayotini qamrab olganda, uning eng muhim ehtiyojlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilganda kiradi.

Ushbu eng muhim ehtiyojlarga quyidagilar kiradi: jismoniy mavjudlikka bo'lgan ehtiyoj (oziq-ovqat, suv, jismoniy tahdididan xalos bo'lish va boshqalar); yaqinlik, odamga yoki bir guruh odamlarga bog'lanish zarurati; mustaqillik, mustaqillik, o'z "men" ga bo'lgan huquqni tan olish zarurati; o'z-o'zini anglash, o'z qobiliyatlarini ochib berish zarurati, yashirin kuchlari, hayot va maqsad ma'nosiga bo'lgan ehtiyoj.

Xavotirning eng keng tarqalgan sabablaridan biri bu bolaga haddan tashqari talablar, bolaning o'z faoliyati, qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini hisobga olmaydigan moslashuvchan, dogmatik ta'lim tizimi. Ota-onalarning eng keng tarqalgan tizimi "siz a'lo talaba bo'lishingiz kerak". Xavotirning aniq namoyon bo'lishi vijdonlilik, o'ziga talabchanlik bilan ajralib turadigan, bilim jarayoniga emas, balki belgilarga e'tibor qaratish bilan ajralib turadigan yaxshi o'qigan bolalarda kuzatiladi. Bu sodir bo'ladi, ota-onalar sportda, san'atda unga erishib bo'lmaydigan yuqori yutuqlarga e'tibor berishadi, unga (agar u o'g'il bo'lsa) haqiqiy odamning qiyofasini, kuchli Jasur, epchil, mag'lubiyatni bilmaydigan, unga mos kelmaydigan (va bu tasvirga mos kelish mumkin emas) bolalarcha mag'rurlikka zarar etkazadi. Xuddi shu sohaga bolaga begona (lekin ota-onalar tomonidan yuqori baholanadigan) manfaatlarni, masalan, turizm, suzish kiradi. Ushbu tadbirlarning hech biri o'z-o'zidan yomon emas. Biroq, sevimli mashg'ulotni tanlash bolaning o'ziga tegishli bo'lishi kerak. Bolani o'quvchini qiziqitirmaydigan ishlarda majburiy ishtirok etish uni muqarrar muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Xavotirli tajribalarning oqibatlarini.

Sof holat yoki psixologlarning ta'kidlashicha, "erkin suzuvchi" tashvishlarni boshdan kechirish juda qiyin. Noaniqlik, tahdid manbasining noaniqligi vaziyatdan chiqish yo'lini topishni juda qiyin va qiyin qiladi. G'azabni boshdan kechirganida, men kurashishim mumkin. Xafagarchilikni boshdan kechirar ekanman, tasalli izlay olaman. Ammo tashvish holatida men o'zimni himoya qila olmayman yoki kurasha olmayman, chunki men nimaga qarshi kurashish va himoya qilishni bilmayman.

Anksiyete paydo bo'lishi bilanoq, bolaning qalbida bu holatni boshqa narsaga "qayta ishlaydigan" bir qator mexanizmlar yoqiladi, hatto yoqimsiz bo'lsa ham, lekin unchalik chidab bo'lmas. Bunday bola tashqi tomondan xotirjam va hatto o'ziga ishongan taassurot qoldirishi mumkin, ammo tashvishlarni "niqob ostida" tan olishni o'rganish kerak.

Hissiy jihatdan beqaror bola oldida turgan ichki vazifa: tashvish dengizida xavfsizlik orolini toping va uni iloji boricha kuchaytirishga harakat qiling, atrofdagi dunyoning g'azablangan to'lqinlaridan har tomondan

yoping. Dastlabki bosqichda qo'rquv hissi paydo bo'ladi: bola qorong'ida qolishdan yoki maktabga kechikishdan yoki taxtada javob berishdan qo'rqadi.

Qo'rquv tashvishning birinchi hosilasidir. Uning afzalligi shundaki, u chegaraga ega va shuning uchun har doim bu chegaralardan tashqarida qandaydir bo'sh joy qoladi.

Xavotirli bolalar tashvish va xavotirning tez-tez namoyon bo'lishi, shuningdek, ko'p sonli qo'rquvlar bilan ajralib turadi va qo'rquv va tashvish bolaga hech narsa tahdid solmaydigan holatlarda paydo bo'ladi. Xavotirli bolalar ayniqsa sezgir. Shunday qilib, bola xavotirga tushishi mumkin: u bog'da bo'lganida, to'satdan onaga biror narsa bo'ladi.

Xavotirga tushgan bolalar ko'pincha o'zlarini past baholashlari bilan ajralib turadi, shuning uchun ular boshqalarning muammolarini kutishadi. Bu ota-onalari ularga haddan tashqari vazifalar qo'yadigan, bolalar bajara olmasligini talab qiladigan va muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, qoida tariqasida, ular jazolanadigan, kamsitiladigan bolalarga xosdir ("siz hech narsa qila olmaysiz! Siz hech narsa qila olmaysiz!«»).

Xavotirga tushgan bolalar o'zlarining muvaffaqiyatsizliklariga juda sezgir, ularga keskin munosabatda bo'lishadi, ular qiyinchiliklarga duch keladigan rasm chizish kabi faoliyatdan voz kechishga moyil.

Ma'lumki, 7-11 yoshli bolalar, kattalarnikidan farqli o'laroq, doimo harakatda. Ular uchun harakat oziq-ovqatga, ota-onaning sevgisiga bo'lgan ehtiyoj kabi kuchli ehtiyojdir. Shuning uchun ularning harakat qilish istagi tananing fiziologik funksiyalaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Ba'zida ota-onalarning deyarli harakatsiz o'tirishga bo'lgan talablari shunchalik haddan tashqari ko'pki, bola deyarli harakat erkinligidan mahrum bo'ladi.

Bunday bolalarda siz sinfda va darsdan tashqari xatti-harakatlarda sezilarli farqni sezishingiz mumkin. Darsdan tashqari, ular jonli, ochiqko'ngil va to'g'ridan-to'g'ri bolalardir, sinfda ular siqilib, taranglashadi. Ular o'qituvchining savollariga jim va kar ovoz bilan javob berishadi, ular hatto duduqlanishni boshlashlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

2. SH.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 224 b.

4. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.

5. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya: Uchebnik dlya studentov vuzov.-M.,Akademicheskiy proyekt, 2001. – 704 s.

6. Adizova T.M., Usmanova E.Z., To'laganova G.K. Kichik maktab yoshining psixologik muammolari. Bu to'plamda: Psixologik tuzatish ishlarining ayrim jihatlari. –Toshkent.: O'qituvchi, 1995. B. 3-12.

7. Александрова Я.А. Неврозы детей младшего школьного возраста. СПб.: Диля, 2001. С. 87-95.

8. Ананьев Б.Г. Психология педагогической оценки. – Л.: Изд-во института по изучению мозга им. В.М.Бехтерева, 1995. – 90 с.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA XAVOTIRLIK HOLATI YUZAGA KELISH OMILLARI

A.Eshmurodov

Sirdaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti

Ijtimoiy pedagogika "oila" tushunchasini oilaviy ittifoq va oilaviy munosabatlarga, ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan, birgalikda yashaydigan va umumiy iqtisodiyotni boshqaradigan kichik ijtimoiy guruh sifatida izohlaydi.

A. V. Mardaxayevning ta'kidlashicha, oila-bu qon bilan bog'liq yoki ularga tenglashtirilgan boshqa aloqalar bilan birlashtirilgan, a'zolari hayotning umumiyliigi, o'zaro moddiy va ma'naviy javobgarlik bilan bog'liq bo'lgan odamlarning ijtimoiy kichik guruhi.

So'zning keng ma'nosida oila - bu umumiy hayot bilan bog'liq bo'lgan va bir-biriga g'amxo'rlik qiladigan o'zaro tortishish kuchini boshdan kechiradigan turli avlodlarning odamlari birlashmasi.

N. Listarenko "oila" tushunchalarini turli nuqtai nazardan tushungan:

Falsafa oilani ma'no nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Mohiyat, sevgi, quvonch;

Sotsiologiya oilani nikohga asoslangan va muayyan funktsiyalarni bajaradigan jamoat instituti sifatida tahlil qilishga e'tibor qaratadi, nikohni bekor qilish sabablarini o'rganadi, oilani mustahkamlash yo'llarini izlaydi;

Tibbiyot bolalik, onalikni himoya qilish bilan shug'ullanadi;

Huquqshunoslik nikoh va oilaviy munosabatlarni o'rganadi;

Iqtisodiyot oila hayotining iqtisodiy tomonini o'rganadi;

Psixologiya kelajakdagi ota-onalarni tarbiyalash, balog'at yoshi, oilaviy farovonlik, oiladagi munosabatlar haqida bir qator masalalarni qamrab oladi;

Pedagogika oilaning tarbiyaviy salohiyatini, oilaviy tarbiyaning umumiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlarini, oilani tarbiyaviy jamoa sifatida o'rganadi.

Bolaning qanday o'sishi oila ichidagi turmush tarziga bog'liq: mehribon yoki xudbin, halol yoki yolg'onchi va boshqalar. Va bolalar

jamiyatning ertangi kunidir, shuning uchun oila jamiyatning mavjudligi va rivojlanishining asosiy shartidir.

Oila qiziqish doimo barqaror va ommaviy bo'lgan bunday hodisalardan biridir. U yangi avlodlarga zarur ko'nikmalarni saqlash, to'plash va uzatishda faol ishtirok etadi, ya'ni uzluksizlikni ta'minlaydigan omillardan biridir.

Oilada nafaqat insonning moddiy ehtiyojlari qondiriladi, balki shakllanadi, ma'lum maishiy an'analar yaratiladi va qo'llab-quvvatlanadi, uy sharoitida o'zaro yordam amalga oshiriladi. Odamlar jamoasining asosiy shakli sifatida oila individual va jamoaviy tamoyillarni bevosita birlashtiradi. Shu ma'noda, bu nafaqat biologik va ijtimoiy, balki odamlarning individual va ijtimoiy hayotini bog'laydigan bo'g'in bo'lib, ular uchun ijtimoiy ideallarning birinchi manbalari va xulq-atvor mezonini bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, oila nafaqat oilaviy va oilaviy sevgi, bolalarning ota-onalarga bo'lgan hurmati va sevgisi, oilaviy birdamlik kabi ma'naviy qadriyatlarni etkazadi, balki yaratadi. Aytishimiz mumkinki, oila kognitiv va ulkan axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega, har tomonlama rivojlangan shaxs va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bu uning barcha a'zolarining ma'naviy manfaatlari va intilishlarining birligini nazarda tutadi, ammo ular har doim ham mutlaq emas. Shunga ko'ra, oiladagi psixologik munosabatlar kelishmovchiliklar va nizolarni o'z ichiga olishi mumkin. Oilani birlashtiradigan asosiy ma'naviy kuch-bu qarindoshlik hissi, bu birinchi navbatda oilaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Har bir oilada u har doim ham ongli bo'lmagan ma'lum bir ta'lim tizimi ob'ektiv ravishda shakllanadi. Bu erda biz ta'lim maqsadlarini tushunish, uning vazifalarini shakllantirish va bolaga nisbatan yo'l qo'yilishi mumkin va mumkin bo'lmagan narsalarni hisobga olgan holda ta'lim usullari va usullarini ozmi-ko'pmi maqsadli qo'llashni nazarda tutamiz. I. V. Grebennikov oilada tarbiyalashning 4 ta taktikasini va ularga javob beradigan oilaviy munosabatlarning 4 turini ajratib ko'rsatdi, bu ularning paydo bo'lishining zaruriy sharti va natijasi: diktat, vasiylik, "aralashmaslik" va hamkorlik.

Oilaviy tarbiya-bu katta oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan va kichik oila a'zolarining farzandlari qanday bo'lishi va qanday bo'lishi kerakligi haqidagi katta g'oyalarga mos kelishini ta'minlashga qaratilgan ozmi-ko'pmi ongli harakatlardir.

Oilaviy tarbiyaning mazmuni oilaning resurslariga bog'liq:

* Oila tarkibi (ota-onalar, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlar);

* Katta oila a'zolarining xususiyatlari (sog'liq holati, ta'lim darajasi, sevimli mashg'ulotlari, didi, qadriyatlari).

Oilaviy ta'limning maqsadlari:

1) yosh avlodlarga ijtimoiy va maishiy ko'nikmalarni singdirish

2) muloqot madaniyati ko'nikmalarini o'rgatish

3) muayyan kasbga tayyorgarlik.

Siz bolangizni yaxshi bilishingiz, uning xatti-harakatlarini, qiziqishlarini taxminan tushunishingiz, qanday, kim bilan va qanday sharoitda o'zini tutishini oldindan bilishingiz kerak. Bu sizga qanday texnika, tarbiya va qanday vaziyatda unga kerakli ta'sir ko'rsatishini aniqlashga imkon beradi. Ota-onalar uchun bu qiyin muammoni hal qilish har kimga qaraganda osonroq, chunki kundalik oilaviy hayotda insonning ko'plab shaxsiy xususiyatlari eng to'liq va xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu afzallikdan foydalanadigan ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda kamroq xatolarga yo'l qo'yishadi.

Shaxslararo munosabatlar - sub'ektlarning ma'lum bir norasmiy o'zaro ta'sir va muloqotga o'zaro tayyorligiga asoslangan, yoqtirish-yoqmaslik hissi bilan birga keladigan psixologik munosabatlar. Shaxslararo munosabatlarda bir-birini idrok etish va tushunish mexanizmlari ishtirok etadi.

Ko'pincha, bolasi bo'lgan oilalarda ota-onalar farzandlari bilan munosabatlari haqida noto'g'ri taassurot qoldiradilar. Kattalar singari, har bir bola o'ziga xos shaxsdir, deydi psixologlar. Shaxsning psixologik tuzilishi ostida ular temperament xususiyatlari, xarakter xususiyatlari, ong xususiyatlari, ustun qiziqishlarning noyob kombinatsiyasini tushunadilar. Afsuski, ota-onalarning katta qismi bu haqda juda kam o'ylashadi. Bundan tashqari, hech kimga sir emaski, ko'plab oilalarning tarbiyaviy hayotida bolalarga ta'sir qilish vositalari bolaning xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlariga qarab xilma-xilligi, chuqur o'ylangan mazmuni bilan ajralib turmaydi.

Ota-ona munosabatlari uslubi yoki oilaviy tarbiya uslubi bolaga nisbatan muloqot qilish usullari va usullarining umumiyligini anglatadi. Umumiy, xarakterli va o'ziga xos tarbiya uslublarini ajrating.

Ota-ona uslubi-bu ota-onani bola bilan tarbiyalashning umumlashtirilgan, xarakterli, vaziyatga xos bo'lmagan usullari, bu bolaga nisbatan harakatlar usuli.

Ko'pincha psixologik va pedagogik tadqiqotlarda ota - ona munosabatlarini aniqlash, tahlil qilish uchun ikkita mezon qo'llaniladi: hissiy yaqinlik darajasi, ota - onalarning bolaga bo'lgan iliqligi (sevgi, qabul qilish, iliqlik, sovuqqonlik) va uning xatti-harakatlarini nazorat qilish darajasi (yuqori-ko'p sonli cheklovlar, taqiqlar bilan; past-minimal taqiqlar bilan).

Ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari o'quv jarayonining turini aniqlashga yordam beradi (E. G. Eidemiller):

Himoya darajasi-ota-onalarning ta'lim bilan bandligini o'lchash, ota-onalar bolaga qancha kuch, vaqt va e'tibor berishini baholash;

Ehtiyojlarni qondirishning to'liqligi (moddiy, maishiy va ma'naviy);

Talablarni taqdim etish darajasi-bolaning majburiyatlari miqdori va sifati;

Taqiqlar darajasi-bu bolaning mustaqilligi o'lchovi, o'zini tutish usulini tanlash qobiliyati;

Sanktsiyalarning qat'iyligi-ota-onalarning tarbiya usuli sifatida jazolarga sodiqligi;

Ta'lim uslubining barqarorligi-tebranishlarning og'irligi, ta'lim usullarining keskin o'zgarishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

10. SH.M.Mirziyoyevning “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni.

11. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 224 b.

12. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.

13. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya: Uchebnik dlya studentov vuzov.-M.,Akademicheskiy proyekt, 2001. – 704 s.

14. Adizova T.M., Usmanova E.Z., To'laganova G.K. Kichik maktab yoshining psixologik muammolari. Bu to'plamda: Psixologik tuzatish ishlarining ayrim jihatlari. –Toshkent.: O'qituvchi, 1995. B. 3-12.

15. Александрова Я.А. Неврозы детей младшего школьного возраста. СПб.: Диля, 2001. С. 87-95.

16. Ананьев Б.Г. Психология педагогической оценки. – Л.: Изд-во института по изучению мозга им. В.М.Бехтерева, 1995. – 90 с.

DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISH YO'LLARI

Kabulova Sohiba Suyarboyevna

Sirdaryo viloyat Guliston shahar 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida didaktik o'yinlar va interfaol usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Didaktika, interfaol, qiziqish, shakllantirish, dars, faol, tafakkur.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tashkil etish o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o'z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yindan muntazam ravishda foydalanish ta'limda tabiiy sharoitni, bu esa o'quvchilarning dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratadi. O'yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o'quvchiga dars davomida berilayotgan manbalarni muslaqil

o'zlashtirishiga, ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularning yashirin imkoniyatlari va fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yin usullari cheksiz bo'lib, ularni takrorlash va o'zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz "Jim jitlik" o'yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik, "Nima o'zgardi?" turidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan, bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tomonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bunda o'quvchilar g'olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini o'quvchilarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatirini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar o'quvchining his-tuvg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xususiyatini tarkib toptiradi. O'quvchilar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar va o'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar.

Didaktik o'yinlar asosan, ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil etishga, ularga bilim va ma'lumot olishni yengillashtirishga, ta'limda ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni o'quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo'ymaslik, toliqtirmaslik va zeriktirmaslik imkoniyatini yaratadi, o'quv dasturida belgilangan materiallarini o'zlashtirishda qulaylik tug'diradi. Didaktik materiallar pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo'lib, u dars mazmunini to'la ifodalashi va o'quvchilar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tashkil etish o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o'z navbatida, hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yindan muntazam ravishda foydalanish ta'limda tabiiy sharoitni, bu esa

o'quvchilarni dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratadi. O'yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o'quvchiga dars davomida berilayotgan manbalarni mustaqil o'zlashtirish, ijodiy tafakkurini o'stirish, o'quvchilarni yashirin imkoniyatlari va fanga bo'lgan qiziqishini ochib beradi. Didaktik o'yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyda to'plab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. O'quvchilarda bilim olishga, tengqurlaridan ortda qolmaslik hissi kuchayadi. Dars jarayonida jo'shqin vaziyat yuzaga keladi. Eng muhimi, bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi.

Endi ona tili fanida o'tkaziladigan bir-ikki didaktik o'yinlarga to'xtalib o'tsak. Ona tilidan tashkil etiladigan o'yin topshiriqlarning asosiy qismini o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida "Nazoratchi harf", "Keyingi bo'g'inni top", "Talaffuzdan adashmang", "So'z juftlarini davom ettir", "Doirada berilgan harflar asosida so'z tuz", "So'z ustuni" kabi ta'limiy o'yinlardan darsda foydalanilsa, o'quvchilarning so'z boyligi oshadi, nutqi rivojlanadi hamda dars mazmunli va qiziqarli bo'ladi.

O'quvchilar e'tiborini darsga jalb qilish uchun mantiqiy savol yoki topishmoqli o'yinlardan foydalanish ham dars samaradorligi oshirib boradi. Misol uchun sinf ikki yoki uch guruhga ajratiladi va o'quvchilarga savollar beriladi. Qaysi guruh o'quvchilari ko'p javob bersa, g'olib sanaladi.

1- guruhga:

Eng qisqa kun?

Bir yil necha oy?

Qish fasli necha oy?

Qishda nima yog'adi?

2- guruhga:

Eng qisqa tun?

Bahor fasli necha oy?

Mart oyi necha kun?

Bahorda nima yog'adi?

Ona tili yoki o'qish savodxonligi darslarida yana "Bir so'z bilan javob top" o'yinidan foydalanish mumkin, buni yana metogramma mashqi desak ham bo'ladi. O'qituvchi bergan savollarga o'quvchilar tezlik bilan javob berishlari kerak bo'ladi.

Beshik tebratib aytiladigan qo'shiq... - Alla

Mushukka qo'yiladigan nom...-Malla

Daraxtni bo'laklarga ajratadigan asbob... - Arra

Ko'paytirish jadvali...- Karra

Qog'ozdan yasab uchiriladigan narsa... - Varrak

Don hosili...- G'alla

Bobolar bosh kiyimi ... - Salla

Kabi bo'lishi mumkin. Bu kabi metrogramma mashqi o'quvchilarni tezkorlikka, chaqqonlikka, tafakkur doirasini kengayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki didaktik o'yinlar - ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abduqudusov O.A. "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari" Toshkent, 2011-yil.
2. Usmonova D.S. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'yinlardan foydalanishning ahamiyati. Mahoratli pedagog jurnali. 2022-yil, 1-son.
3. M.E.Jumayev, N.T.Axmedova B.S.Abd ullaeva, IN.II.AsJonova boshlang'ich sinklar uchun matematikadan didaktik materiallar

NAVOIY BADIYYATI

Erkin Raxmonov

Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi.

Аннотация. Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan badiiyatni oshiruvchi vositalar – badiiy san'atlar xususida soz boradi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются поэтические фигуры, как один из самых распространенных методов способствующих повышению художественности в классической литературе.

Annotation. This article examines poetic figures as one of the most common methods of enhancing artistry in classical literature.

Kalit so'zlar: Ilmi bade', "Majma'an navodir", "Chahor maqola", mutobiq, mutazzod, muraddaf, bayoni musovot.

Ключевые слова: Наука о поэтических фигурах, "Мажмаъ-ан наводир", "Чахор макола", мутабиқ, мутазад, мураддаф, баёни мусават.

Key words: The science of poetic figures, "Majma'an navodir", "Chahor maqola", mutobiq, mutazzod, muraddaf, bayoni musovot.

O'rta asrlarning mashhur adabiyotshunosi Nizomi Aruziy Samarqandiyning "Majma'an navodir" yoki "Chahor maqola" asari Somoniylar va Saljuqiylar adabiy muhiti haqida yaxshi tasavvur beruvchi asardir. Undan biz Abulqosim Firdavsiy, Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy va Abu Abdulloh Muxammad ibni Abdulloh Nishopuriy singari buyuk shoirlar haqida ajoyib-g'aroyib tarixiy-adabiy ma'lumotlar o'qiymiz. Ushbu risolaning bizni qiziqtirayotgan bir tomoni shundaki, muallif Rudakiy va Muizziy ijodlarining

badiiy tomoni – baytlarda qo‘llanilgan badiiy san’atlar ko‘pligi jixatidan juda ko‘z-ko‘z qiladi:

“Ajamning shirinsuxan va latif ta’blaridan biri amir ush-shuaro Mu’izzidir. Uning she’rlari tarovat va go‘zallikda a’lo, ravshanlik va shirinlikda bebaxodir...” Shunday ulug‘ shoirga shoh Rudakiyning “Muliyon nahrining xidi keladur” qasidasiga javob aytishni taklif etganida, Mu’izziy bosh tortadi va qo‘yavermagach, bir necha bayt aytish bilan cheklanadi. Nizomiy Aruziy Samarqandiy Rudakiy qasidasining bir baytida ko‘plab badiiy san’atlar qo‘llanilgani haqida yozadi:

“Hech kim qasidadagi kabi madhni chiroyli ayta olgan emas.

**Ofarinu madh sud oyad hame,
Gar baganj andar ziyon oyad hame.**

(Xazinaga qachon ziyon yetishsa,
Maqtovlardan foydashi on keladir).

Bu bayt ichida yettita go‘zal san’at bor: birinchisi – mutobiq (qiyosiy o‘xshashik), ikkinchisi – mutazzod (qarshilantirish), uchinchisi – muraddaf (baytda radif qo‘llash), to‘rtinchisi – bayoni musovot (bayondagi mushtaraklik), beshinchisi – azubat (lo‘ndalik, qisqalik), oltinchisi – fasohat (so‘z nafosati), yettinchisi – jazolat (fikriy tugallik). She’r ilmidan xabari bo‘lgan xar bir ustod fikr qilsa, mening haq ekanimni darrov biladi”. (Mahmud Hasaniy tarjimasini)

Rudakiy adabiy dahosi o‘z davrida juda qadrlangan va bu shuhrat uni hali xam tark etmagan. Adabiyotshunos Nizomiy Aruziy qayd etgan badiiyat ko‘rsatkichlari, darhaqiqat, o‘sha baytda bor. Biz bunday baytlarga havas qilishimiz, shoir mahoratini, badiiyatini o‘rganmog‘imiz joiz.

Shu ma’noda, o‘rta maktablarning 8-10-sinflarida Alisher Navoiy ijodidan o‘rganiladigan mashhur “Qaro ko‘zum...” g‘azali matla’sini badiiy jihatdan tahlil qilib ko‘rsak.

**Qaro ko‘zum, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.**

Sir emaski, 10-sinf o‘quvchilari uchun yozilgan sobiq “O‘zbek adabiyoti” darsligida (mualliflar: B.Qosimov, N.Jumaev) ham, amaldagisida ham (mualliflar: Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xlijev, B.Qosimov) ushbu she’r hamda ushbu baytda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari haqida qiziqarli kuzatishlar bor. Qolaversa, “Qaro ko‘zum” g‘azalini sharhlagan ko‘pchilik olimlar: Nusratillo Jumaev, Najmiddin Komilov, Alibek Rustamov, Ismatulla Abdullaev va boshqalar ham masalaning bu tomonini ahamiyatsiz qoldirmaganlar. Shuning uchun bizning tahlilimizda ayrim san’atlar takror qayd etilishi, tabiiy. Fakat shunisi borki, yuqoridagi mualliflarimiz butun g‘azal yuzasidan fikr yuritganlari uchun umumiy sarhisobda ushbu baytdagi to‘rt badiiy san’atga o‘rinli ishora qilingan. Biz ushbu baytda kelgan badiiy san’atlarni hech bir zo‘riqish, sun’iyliksiz ko‘paytirishga, ya’ni Navoiyning badiiy san’at qo‘llashdagi mo‘jizali qudratiga diqqatni tortishga urinamiz.

Demak, maqsad ikkita: adabiyotshunos metodistlarimizning zukkolarcha xizmatlarini, avvalo qayd etish, birinchi niyatimiz bo'lsa, ikkinchisi, o'qituvchilarni baytga fikr zarrabini orqali qarashga rag'batlantirishdir.

Jumladan, professor Nusratullo Jumaevning "Satrlar silsilasidagi sehr" kitobida qayd etiladiki: "Badiiy mazmun ta'minoti uchun qanday poetik usullar safarbar qilingan? 1) "Mardum" va "Mardumlig'" orasidagi shakl va ma'no munosabatlari asosida so'z o'yini – tajnis yaratilgan; 2) Misralarning "qaro ko'zum" va "ko'zum qarosida" birikmalari bilan boshlanishida tardi aks (ters takror) san'ati mavjudki, bu ehtirosli nazmiy ohangni yuzaga chiqarishda muhim estetik xizmat o'tagan; 3) N.Komilov talqinicha, shoir "mardum", "mardumlig'" orasida so'z o'yini – tajnis yasash bilan kifoyalanmay, shu ma'nolarni ifodalaovchi o'zbekcha "qaro ko'zum" va "ko'zum qarosi" birikmalarini keltirib, to'rt tomonlama shiru shakar (ikki tilli) tajnisi tom san'atini ijod etgan".

Nizomi Aruziy Samarqandiyning yuqorida ko'rsatgan badiiy san'atlariga solishtiraroq Navoiy baytiga zehn solaylik:

birinchisi, g'azal bo'ylab "qilg'il" so'zlarining takrori radif bo'lib, muraddaf san'ati bor;

ikkinchisi, fikr tugallanganligi ifodasi – jazolat san'ati;

uchinchisi, "qaro ko'zum" birikmasida nido san'ati ifodalangan. Chunki shoir birovga xitob, murojaat qilmoqda;

to'rtinchisi, "qaro ko'zum" birikmasida ko'z sifati aytilayotgani uchun sifatlash san'ati bor;

beshinchisi, "qaro ko'zum" birikmasida qora ko'zli kishining qora ko'zigina aytilib, uning butun vujudi nazarda tutilgan. Butunni qism bilan ifodalash san'ati snekdoxadir;

oltinchisi, "mardum" va "mardumlig'" bir o'zakdan yasalgan ikki so'z o'zakkoshlik san'ati – imtiqoq ko'rsatkichlaridir;

yettinchisi, "mardum kibi" birikmasi mazmunidan tashbih – o'xshatish san'ati yaqqol ko'zga tashlanadi;

sakkizinchi, bayt mazmunida buyurish ohangi aniqligi amr san'atidan darak bermoqda;

to'qqizinchi, "ko'zum qarosida" birikmasi o'zining birinchi tushunarli ma'nosidan tashqari "tirikligimda" degan ma'noni ifodalagani uchun kinoya san'ati qo'llanilgan;

o'ninchisi, "mardum kibi" birikmasidagi "mardum" ikki ma'noni ifodalaydi: "odamlar" va "ko'z qorachig'i". Baytdagi biror so'z ikki ma'noni ifodalasa-yu, misra mazmuni har ikki ma'noga mos kelsa, iyhom san'ati bo'ladi;

o'n birinchisi, "qaro ko'zum" va "ko'zum qarosi" birikmalarida ikki so'z o'zgarib takrorlangani uchun tardi aks san'ati bo'ladi;

o'n ikkinchisi, "mardum" so'zining ikki takrori ma'nosiga ko'ra har xil, shakldosh bo'lgani tajnis san'ati namunasidir.

o'n uchinchisi,

Ushbu qisqa tahlildan muddaomiz shuki, Alisher Navoiy she'riyatda umumbashariy g'oyalar tarannumi, yuksak axloqiy-ta'limiy fikrlar, mumtoz adabiyotga xos ta'sirchanlik bilan emas, badiiy-tasviriy va ifodalilik vositalarini qo'llashda ham mislsiz imkoniyatlarini namoyish eta olgan san'atkorligini yana bir bor namoyish etish.

Birgina baytda o'ndan ortiq badiiy san'atlarni qo'llay olish ijodkor mo'jizakorligining haqiqiy tantanasidirki, bu kabi baytlarga dahol shoirimiz ijodi g'oyat boydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

9. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Ma'naviyat. 1998.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-20-jildlar. – T.: Fan. 1997.
11. Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ASN. 1985.
12. Furqat. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ASN. 1975.
13. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq. 1999.
14. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. 1-jild. – T. 1968.
15. Munis. Saylanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi ASN. 1980.

Mundarija

1.	Soʻz boshi	3-bet
	1-shoʻba. Taʼlim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari asosida ilgʻor tajribalarining ilmiy nazariy asoslari	
2.	<i>Гаффаров Азизбек Мухаммадсаидович, Мустақил таълим: моҳияти ва зарурати</i>	5-bet
3.	<i>Бердалиева Гуласал Абдуқундузовна. Узлуксизлик – таълимни тадқиқ қилишнинг методологик тамойили сифатида</i>	9-bet
4.	<i>Uralov Azamat Begnarovich. Analitik shakllarda nomutanosiblik</i>	15-bet
5.	<i>Erkin Murodov. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини замонавий касбларга ўрганишининг долзарб вазифалари</i>	24-bet
6.	<i>Иванова Мария Львовна. Микрообучение в образовании: почему это популярно и эффективно?</i>	28-bet
7.	<i>Uralov Azamat Begnarovich. Morfologik shakllarning taraqqiyotida nomutanosiblikning yuzaga chiqish masalasi</i>	32-bet
8.	<i>Safarov Dilmurod Halimovich. Rahbarlarni psixologik saralashga qoʻyiladigan talablar</i>	38-bet
9.	<i>Xayruллаев Дилшод Бахритдинович. Ахмеджонов Дилмурод Ғуломович. Рақамли технологиялар воситасида талабаларни касбий сифатларини шакллантиришнинг технологик модели</i>	42-bet
10.	<i>Л.С.Турсунов. Талабанинг когнитив такомиллашувида мустақил таълимнинг ўзга ҳос ахамияти.</i>	46-bet
11.	<i>Турсунали Мирзақулов, Озода Асланова. Морфологик парадигмалар ва тилларни ўқитиш муаммолари</i>	50-bet
12.	<i>Отабеков Улугбек Гайрат угли. Принципы формирования структуры и композиции геометро-графического образования.</i>	54-bet
13.	<i>Плиева Руслана Владимировна, Алешина Эльзара. Влияние нейросетей на образование: изменения и перспективы</i>	58-bet
14.	<i>Иванова Т.Н. К вопросу сопоставительного изучения литератур</i>	62-bet
15.	<i>Jabborov Maqsud Mashrabovich. Tarbiyasi qiyin oʻsmirlarda ishtimoiy lashuv jarayoni</i>	65-bet
16.	<i>Husanova Lobar Yashin qizi. Xorijiy mamlakatlar maktabgacha taʼlim tashkilotlarida taʼlim-tarbiya jarayoni</i>	68-bet
17.	<i>Nazira Tursunova. Shaxs qobiliyati, iqtidorining pedagogik-psixologik tarkibiy tuzilmasi va oʻziga xos jihatlari</i>	70-bet
18.	<i>M.Qodiraliyeva. Taʼlim tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari</i>	73-bet

19. *Toshtemiriva Mohinabonu Bahodir qizi.* Xotira psixik jarayon sifatida 75-bet
20. *Qlichev Ulug'bek Abdumavlonovich.* Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qutuvchi va o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirish masalalari 78-bet
21. *Amanova Durdona Kaxramonovna.* Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni 80-bet
22. *Biybalayev Islombek Abdunazarovich.* Mamlakatimizda bugungi kun ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy ahamiyati 83-bet
23. *Begiyev Omonjon.* Ta'lim taraqqiyotida xalqaro tajribalar 86-bet
- 2-sho'ba. Ta'lim tizimini rivojlantirishdagi metodik ta'minot va uning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari**
24. *Козим Эиқувватов.* Малака ошириш профессор ўқитувчиларнинг ахборот маданияти компетентлигини ривожлантириш 90-bet
25. *Dehqonova Gulnora Rasuljonovna.* 1-sinf yozuv darslarida chiroyli yozuv malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan mashq turlaridan foydalanish samarasi 94-bet
26. *Vahidova Gulnoza Shavkat qizi.* O'quvchi yoshlarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning tashkiliy texnologik va metodik jihatlari 97-bet
27. *Jonboyeva Munisa Ravshan qizi.* Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy didaktik o'yinlarning ahamiyati. 99-bet
28. *Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna.* Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlik va nutq madaniyatini shakllantirish yo'llari 103-bet
29. *Minavarova Charos Furqat qizi.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullari 106-bet
30. *Rasulova Zohida Sindarovna.* Boshlang'ich sinflarda o'yinli mashg'ulotlardan foydalanishning maqsad va vazifalari 110-bet
31. *Rasulova Zohida Sindarovna.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'yinlar orqali axloqiy fazilatlarini rivojlantirish 114-bet
32. *Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich.* Milliy o'quv dasturi asosida tarix fanlarini o'qitishning integrasiyon yondashuvi 116-bet
33. *Uralova Gavhar Tugalovna.* Poetik matnni o'rganishda germenevtikaning o'rni 121-bet
34. *Xolmirzayev Nabijon Imomqul o'g'li.* Davlat va huquq asoslari darslarida o'quvchilarga qonunlar va kodekslarga asoslangan holda vaziyatni tahlil qilishni o'rgatish 127-bet
35. *Yaxshilikova Gulnora, Kulaxmetova Mahliyo Muxiddin qizi.* Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'yin texnologiyasidan foydalanish yo'llari. 129-bet

36. *Плиева Руслана Владимировна, Кузнецова Линура Руслановна, Махкамова Нигора Суюновна.* Задержка развития речи и недоразвитие речи у детей 3-4 лет 131-bet
37. *Kabulova Sanobar Eshnazarovna.* Boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy so'nishining ijtimoiy, pedagogik va psixologik xususiyatlari 137-bet
38. *Biybalayev Islombek Abdunazarovich, Rahmonberdiyev Ilhom.* Yurtimiz ta'lim tizimidagi muammolar va ularning yechimlari 141-bet
39. *O'razova Gulnoza Toshpo'latovna.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv otivatsiyasini oshirish yo'llari 144-bet
40. *Elmuratova Karomat Kuldashvna.* Savod o'rgatish jarayonida yozuvga o'rgatish 146-bet
41. *Abdullayev Abrorjon Abduxamid o'g'li.* Urug'lik chigitlarni qayta ishlash uchun larning xususiyatlarini o'rganish 148-bet
42. *Abdullayev Abrorjon Abduxamid o'g'li, Obidov Avabek Azamatovich.* Urug'lik chigitlarni saralash jarayonini takomillashtirish 152-bet
43. *Raxmanova Maxsuda Usmanovna.* Bo'lajak oqituvchilarnig o'quv va kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirishda o'quv vazifalarining o'rni 155-bet
44. *Плиева Руслана Владимировнаб Сираева Элина* Эффект клипового мышления. Мы стали мыслить по другому 158-bet

3-sho'ba. Ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari asosida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan holatlar va vaziyatlar tahlili

45. *Matluba Shodiyeva.* Ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: inson kapitalini oshirish va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish 166-bet
46. *Raximqulova Maxbuba Baxronovna.* Boshlang'ich ta'limda XXI asr ko'nikmalarining ahamiyati 171-bet
47. *Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna.* Boshlang'ich ta'limda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda ta'limni tashkil qilish shakllarining o'rni 174-bet
48. *Aliqulova Sohiba.* Boshlang'ich sinf onatili darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish 176-bet
49. *Bekmatova Umida Toshqulovna.* Biologiya darslarida kreativ fikrlashga oid topshiriqlardan foydalanish 178-bet
50. *Bekmuradova Saodat To'ychiyevna.* Boshlang'ich sinf matematika darslarida XXI asr ko'nikmalarini singdirish imkoniyatlari 181-bet
51. *Gulchexra Alibekova Taubekovna* O'qish savodxonligi darslarida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari 183-bet
52. *Muhamedova Manzura.* O'quvchilar faoliyati jarayonida kreativ 185-bet

- qobiliyatlarini shakllantirishning Tizimliliği va izchilligi
53. *Mizamova Hulkar Muhiddinovna.* Musiqa mashg'ulotlari metodikasini takomillashtirishda ta'limiy loyihalashtirish 187-bet
54. *Tairova Gulshoda Asadovna.* Ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan tasviriy san'at yangi avlod darsliklarining zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni 190-bet
55. *Abdurasulova Shoira Kushakovna.* Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish 192-bet
56. *Ibodov Shohrux Normurodovich* Boshlang'ich sinf matematika darslarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish 197-bet
57. *Musulmanova Manzura Tursunmuratovna.* Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishni o'ziga xos xususiyatlari 199-bet
58. *N.N.Tashtemirova.* Ta'lim sifati va matematika o'qituvchilari kasbiy malakasining o'zaro aloqadorligi. 201-bet
59. *Torabayev Orif Abdumajid O'g'li.* Sog'lom va barkamol avlodni shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni va roli 205-bet
60. *Torabayev Orif Abdumajid O'g'li.* Ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning huquqiy savodxonligini oshirishning dolzarbligi. 208-bet
61. *Rahmatova Nasiba Sobirovna.* Irodaning axloqiyliği hayot va faoliyatda iroda kuchi 212-bet
62. *Ravshanova Maxliyo Xayitboy qizi.* Matematikadan sinfdan tashqari tadbirlarda ajdodlar meroslarini o'rganish asosida milliy g'ururni tarbiyalash 215-bet
63. *D.B.Jonibekov.* Aniq va tabiiy fan o'qituvchilari uchun uz.khanacademy.org platformasi imkoniyatlaridan darsda va mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalanish 218-bet
64. *Turdiyeva Raxima Kurbanovna, Asadova Shahlo Saidjon qizi.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari 230-bet
65. *Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna.* Boshlang'ich ta'lim metodbirlashma yig'ilishlarida treninglar tashkil etishning samaradorlikdagi o'rni 235-bet
66. *A.Eshmurodov.* O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlari 238-bet
4-sho'ba. Ta'lim tizimini rivojlantirishda steam texnologiyasining o'rni
67. *Ergashev Rustam Nadjimovich.* Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini integratsiyalash imkoniyatlari 244-bet
68. *Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna, Xakimjon Oripov.* STEAM texnologiyasini "ijodiy mehnat" metodi asosida amalga oshirish imkoniyatlari 247-bet
69. *Alimova Dilorom Xudoyqulovna.* Tabiatshunoslik darslarini STEAM yondashuv asosida tashkil etish 250-bet

70. *N.E.Ergasheva.* STEAM texnologiyasiga asoslangan zamonaviy ta'limning imkoniyatlari 253-bet
71. *Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich,* Eko-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv 256-bet
72. *Tilavova Sayora Bekmuratovna.* Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirishda STEAM yondashuv 261-bet
73. *Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich.* Integratsion yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish 266-bet
74. *Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llashning ahamiyati 271-bet
75. *K.B.Masharipov.* Umumta'lim maktablarida texnologiya fanini STEAM talablari asosida tashkil etishning o'rni va ahamiyati 274-bet
76. *Ismoilova Ra'no Ikrom qizi.* Tabiiy fanlar darslarida STEAM texnologiyasini qo'llash tajribasidan 277-bet
77. *Tolipova T.K.* Ta'limda STEAM loyihalar va ular ustida ishlash usullari 279-bet
78. *Isayeva G.P. Turdiboyeva Sevinchxon Shuhrat qizi.* Boshlang'ich ta'limda STEAM ta'lim texnologiyadan foydalanish 282-bet
- 5-sho'ba. Ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish usullari**
79. *B.C.Абдуллаева.* Педагогик кадрлар тайёрлашда замонавий ёндашувлар креативлик ва инновация 286-bet
80. *Erkin Raxmonov.* Ajib adabiy usul 292-bet
81. *Boychayeva Sharifa Saidkulovna.* O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish yo'llari yoki xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik 294-bet
82. *Annakulova Dildora.* Nnoan'anaviy musiqa darslarida interfaol slublarini qo'llashning samaradorligi 298-bet
83. *Бердикулова Насиба Эркинжоновна.* Выявление педагогических условий использования инновационной и интегрированной технологий обучения 302-bet
84. *Boychayeva Sharifa Saidkulovna.* O'quvchilarda TIMSS xalqaro tadqiqoti bo'yicha topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish 305-bet
85. *G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna.* Ona tili va matematika fanlari integratsiyalashuvida interfaol metodlar 308-bet
86. *Po'latova Maftuna Abduholiq qizi.* Boshlang'ich sinf darslari jarayonida didaktik o'yinlar va ularning ahamiyati. 311-bet
87. *Kuldasheva Ro'zigul Abdunabiyevna.* Maktablarda davlat 314-bet

- ramzlari vositasida o'quvchilarda ona vatanga muhabbat hissini shakllantirish
88. *Xudoyqulova Dilfuza Rozumbayevna.* O'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish 316-bet
89. *Umarova Gulhayo Murodiljon qizi.* Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish faolligini rivojlanish klaster texnologiyasi. 319-bet
90. *Qodirqulov Nodirbek Xamroqul o'g'li.* Ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish usullari 326-bet
91. *Parmanqulova Jamila Shodbekovna.* To'garak darslarida PIRLS topshiriqlaridan foydalanish 329-bet
92. *Jabbarova Zuhra Omondullayevna.* Ta'limda innovatsiyalarni joriy etish usullari 332-bet
93. *Плиева Руслана Владимировна, Зиёев Шухратхон Шокирович.* Инклюзивное образование в условиях общеобразовательной школы (начальное образование) 336-bet
94. *Sattarova Fotima.* O'qish darslaridagi mavzular asosida PIRLS topshiriqlarini tayyorlash 342-bet
95. *Nizamov Akmal Shoxobiddinovich.* Elektron ta'lim muhitida pedagog kadrlarning ta'lim berish metodi 345-bet
96. *Yunusmetova Nasiba Satimbekovna, Gulsara Davranova.* Darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etishning afzalliklari 350-bet
97. *Usmonova Mavluda Abdusamatovna.* Boshlang'ich sinf tabiiy fanlardan sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish 354-bet
98. *Yakubova Lola Turgunovna.* O'qish savodxonligi darslarida dars amaradorligini oshirishda interfaol metodlar o'rni 356-bet
99. *Shomurodova Dildora.* Sinfdan tashqari o'qishning ahamiyati va uning o'ziga xos tomonlari 358-bet
100. *Maxkamova Ra'no Abduazimovna.* Mantiqiy mashqlar orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash yo'llari 361-bet
101. *Isayeva G.P. Mahramqulova.N.* Xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarininig tashkiliy pedagogik xususiyatlari 364-bet
102. *Saydullayeva Mavluda Abdulla qizi.* Boshlang'ich sinfda didaktik o'yinlar va ularning ahamiyati 367-bet
103. *Axmedova Zaxroxon Xamzayevna.* Boshlang'ich sinflarda ta'lim tizimini rivojlantirishning innavotsion texnologiyalar asosida takomillashtirish usullari. 370-bet
104. *D.B.Jonibekov.* O'quvchilar bilimini baholashda didaktik o'yinlarning ahamiyati 374-bet
105. *Radjabova Hilola Jurabayevna.* O'quvchilarining nutqini 377-bet

- o'qitishda maqollarning o'rni.
106. *Nazarova Mavluda*. Методы развития системы образования на основе инновационных технологий 380-bet
107. *Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich*. Talabalar o'rtasida axborot madaniyatini oshirish va media savodxonlikka o'rgatish 384-bet
108. *Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich*. Talaba-yoshlarda mediasavodxonlik va mediamadaniyatni shakllantirishda elektron ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish. 387-bet
109. *Begmuratova Dilnoza Amaliddinovna*. Talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi. 390-bet
110. *Ximmatova Jannat Kuchmuradovna* MISROSOFT POWER POINT dasturida taqdimotlar yaratish va animatsion effektlar 394-bet
111. *Saparov Murod Yuldoshevich Muhammadova Shahina* Ma'naviy tahdidlarni bartaraf etishda semiotikaning roli 397-bet
112. *Suyarova Artikoy Djangirovna*. Boshlang'ich sinfda darslarning samaradorligini oshirish yo'llari 400-bet
113. *A.Eshmurodov*. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda xavotirning namoyon bo'lishi 403-bet
114. *A.Eshmurodov*. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xavotirlik holati yuzaga kelish omillari 407-bet
115. *Kabulova Sohiba Suyarboyevna*. Didaktik o'yinlardan foydalanib o'quvchilar bilimini oshirish yo'llari 410-bet
116. *Erkin Raxmonov*. Navoiy badiiyati 413-bet

